K.F.Butakovga tog'-kon muhandislari korpusining boshqaruvchisi tomonidan (shaxsi ko'rsatilmagan) quyidagicha yozma ko'rsatma berilgan: "Buxoroga etib borganingizda, Buxoro hukumati hoxishiga ko'ra va ko'rsatmalarga binoan foydali va eng muhim qimmatli foydali qazilma konlarini qidirish va iloji boricha ularni qazib olishni tashkil etish bilan shug'ullanasisiz, harakatlaringizni mahalliy sharoit va mintaqqa usullarini hisobga olib bajaring. Mahalliy usullardan shu paytgacha biz uchun umuman noma'lumlarini kuzating. Ammo, Buxoro haqida allaqachon umumiyo bo'lgan ma'lumotlarga ko'ra, sizning tog'-kon tadqiqotingizning asosiy mavzusi ushbu mamlakatda oltin qazib chiqarishni joriy etish bo'lishi kerak deb taxmin qilish mumkin. Siz va sizning yordamchingiz leytenant F. Bogoslovskiy II mahorat bilan ishlatadigan ba'zi oddiy mexanik va gidravlik qurilmalar tashkil etilishi ayniqsa foydali ko'rinishi mumkin. Va nihoyat, po'latini qayta ishlashga e'tibor bering, Buxoroda u azaldan ma'lum bo'lgan, bizning mamlakatda bu yaqinda Zlatoustda ishlov berish sezilarli darajada yaxshilangan. Shuning uchun u erdan sizga ushbu ish bilan band bo'lgan bitta hunarmand tayinlangan. Shu jumladan, Osiyo departamenti tasarrufiga maxsus miqdordagi mablag' ajratilgan bo'lib, yana Zlatoust zavodining po'lat qurollarining ba'zi namunalardan sovg'a tariqasida o'zingiz bilan olib ketasiz. Buxoroda bo'lganiningizda, iloji boricha Buxoro tuprog'ining geologik tuzilishi, ushbu mamlakatning ajoyib iqlimi va tabiiy holati to'g'risida ma'lumot toplashga harakat qilishingiz kerak; uning tog'-kon boyliklari ayniqsa, qimmatbaho metallar va toshlari haqida hamda qo'shni davlatlar bilan ularning savdosi, masalan feruza toshi savdosi holati haqida ma'lumotlar to'plang. Mahalliy tog'-kon mahsulotlarini ishlab chiqarish holati, buxoroliklarga yaxshi ma'lum po'latga ishlov berishning Xuroson va hindcha usullari, yana bir qancha yaxshi ma'lum mahalliy usullari sirini o'rganishga harakat qiling. Buxoroda metallar va bizning tog'-kon zavodlarimiz mahsulotlarimiz savdosi to'g'risida; - bu bizning (Rossiyaning) mahalliy narxlarimizga nisbatan mahalliy narxlar to'g'risida; - bu sotiladigan joylar to'g'risida; - ushbu bozorni kengaytirish vositalari haqida: sotish narxlarini pasaytirish, bu joylarga tog'-kon mahsulotini olib kelib sotish va ishlab chiqarishni takomillashtirish, yoki osiyoliklar didi va ushbu mamlakatlarning ehtiyojlariga muvofiq mahsulot ishlab chiqarish yo'llarini axtarish lozimligi, nihoyat, Buxoro va unga qo'shni erlarda sotish uchun yangi va foydali mahsulotni yaratishi mumkin bo'lgan tog'-kon fabrikalarimizning ishlari to'g'risida ma'lumot toplashga astoydil sa'iy harakat qiling. Siz, ayniqsa, Buxoro va qo'shni mamlakatlarning savdo aloqalarida Ural yoki Sibirdan yashirin yo'llar bilan oltin savdosi amalga oshirilmaydimi va agar u mavjud bo'lsa, unda qanday asosiy yo'llar bor va uni qay darajada ahamiyatli deb hisoblash mumkin? Siz bizning Osiyo bilan savdo-sotig'imiz haqida ma'lumotlar to'plang va bu erda manufaktura Departamentining kaysi buyumlarga asosan maxsus ko'rsatmalar tavsiya etilishiga e'tibor qarating. Imkoniyat paydo bo'lganda, siz menga asosiy faoliyatningiz va muvaffaqiyatlarining haqida hisobot berib turing. Rossiyanaga qaytib kelganiningizdan so'ng, siz yuqorida keltirilgan barcha ma'lumotlarni, shuningdek o'zingizning ishingiz davomida to'liq hisobotni va tog'-kon ishlarida erishilgan yutuqlarni taqqid etasiz, unga butun ish safari davomida kun sayin saqlashingiz kerak bo'lgan sayohat jurnalini ilova qilasiz. Tashqi ishlar vazirligi va ishlab chiqarish vazirligidan olinadigan ko'rsatmalar bo'yicha hisobot, tegishli ravishda alohida ravishda topshirilishi kerak. Sizni yuqoridagi topshiriqni bajarishingiz uchun alohida ehtiyyotkorlik, kuzatuvchanlik va tezkorlik talab qilinadi. Sizni tanlaganimizdan va siz uni muvaffaqiyatli bajarish uchun barcha xohishingiz va maxsus qobiliyatining ishlatishingizga ishonaman" [10].

Mazkur hujjatda keltirilishicha, xizmat o'tayotgan joyidan Rossiyaning chegarasiga qaytib kelguniga qadar K.F.Butakovga 50 chervon, leytenant Bogoslavskiyga 30 chervon, 2ta tog'-kon muhandisi va shteyger (kon ishini boshqaruvchi mutaxassis)ga – 5 chervondan, ikkita tog'-kon korpusi ma'muriyati ustalariga – 3 chervondan ish haqi berilishi belgilangan. Bundan tashqari, har bir ekspeditsiya a'zosiga chet elda ishlaganlik uchun maoshining yarim yilligi ushlab qolinmasdan berilishi lozim bo'lgan.

Ekspeditsiya a'zolari Buxoroning tabiiy boyliklarini o'rganish va o'zlashtirish bilan bog'liq tadqiqotlari bilan bir qatorda, savdo bozorlarining holati, tovarlarning harakati, O'rta Osiyoda rus mahsulotlariga bo'lган ehtiyoj, shuningdek, Hindiston orqali Buyuk Britaniyada ishlab chiqarilgan tovarlarning Osiyo bozorlariga kirib kelishi masalalariga ham e'tibor qaratishlari kerak edi. Bu vazifalarning barchasi Rossiya Tashqi ishlar vazirligi tomonidan 1841 yil 6 martda Nikolay I tomonidan tasdiqlangan "Buxoroga kon muhandislari korpusi tomonidan yuborilgan podpolkovnik Butenevga ko'rsatma" deb nomlangan hujjatda qayd etilgan edi.

K. Butenev ekspeditsiyasiga ikki xil topshiriq berilgan: 1) Buxoro xonligi va uning tasarrufidagi erlar, boyliklar to'g'risida ishonchli va ijobjiy ma'lumotlarni to'plash; 2) Buxoro hukmdori bilan Rossiya-Buxoro hukumatlarining o'zaro munosabatlari to'g'risidagi qarorning ba'zi shartlarini ishlab chiqish.

K.F. Butenev Zarafshon daryosining yuqori oqimidagi toshko'mir konlari, kvarsli qo'rg'oshin, temir kuporosili konlarni aniqlagan. Ish natijasi bir necha maqolalarda o'z aksini topgan[11].

K.F. Butenevning missiyasi tarkibiga "buxoroliklar xarakteriga va Rossiyaning O'rta Osiyodagi ehtiyojlariga yaqin bo'lган amaldorni" kiritish to'g'risida ham buyruq berilgan. SHarqshunos olim N.V.Xanlykov (1822-1878 y.) ana shunday mansabdor shaxs sifatida tayinlangan. N.V.Xanlykov Tashqi ishlar vazirligining Osiyo bo'limida ishlagan, O'rta Osiyo mavzusini uzoq vaqt o'rgangan va bundan tashqari, fors tilini yaxshi bilgan.

SHunday qilib, 1841-1842 yillarda Orenburgdan Sirdaryoga ikkita missiya harakatlangan: bittasi – kapitan Nikiforov boshchiligida Xivaga; boshqasi – kon muhandisi K. Butenev qo'mondonligi ostida Buxoro borganlar. Ularga I.F. Blaramberg (1800-1878.) boshchiligidagi topograflar guruhi hamrohlik qilgan.

Ekspeditsiya tugagach, kerakli ma'lumotlar yig'ilgan va shundan so'ng 1852 yilda Qo'qon xonligi chegaralariga Rossiya imperiyasi armiyasining jangovor harakatlari boshlangan.

Rossiyalik tadqiqotchilar tomonidan O'rta Osiyo mintaqasiga uyushtirilgan yana bir missiya Hisor ekspeditsiyasi bo'lib, 1875 yilda tashkil etilgan. Uning tarkibida N.A. Maev, F. SHvars, D.M. Vishnevskiy, tarjimon YU. Kazbekov, fotograf G.E. Krivsevlar bor edi. 1875 yil sentyabrda Hisor tizma tog'laridan to Amudaryoga qadar bo'lган erlarni o'rganish uchun Samarqanddan 5 kishilik ekspeditsiya yo'lga chiqqan. Ekspeditsiya 1875 yil 14 noyabrda 40 kunlik safardan keyin poyoniga etgan[12].

Ushbu mintaqani tizimli tadqiq etishga asos solgan birinchi geolog taniqli rus olimi I.V.Mushketov bo'lib, u Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufman tomonidan moliyalashtirilgan ekspeditsiyalarni uyushtirgan. 1874 yildan boshlab u Samarqand va Toshkent o'rtasidagi Sirdaryo vodiysi o'rganishni boshlagan. Keyinchalik, 1876 yilda Qo'qon xonligi Rossiyaga qo'shilib, Oltoy vodiysi va undan keyin Pomirga yo'l ochilganda, I.V. Mushketov Farg'onanining Oloy va oloy orti tizmalaridagi tog'larda va boshqa ko'plab viloyatlarda bo'lgan. Yo'l-yo'lakay u ushbu hududlarning geologik tuzilishini o'rgangan. Safari davomida ilgari ma'lum bo'lgan ruda va ko'mir konlarini o'rganib chiqib, yangi konlarni qidirish bilan shug'ullangan. U Konsay daryosi vodiysida er po'stlog'ining bir nechta qo'rg'oshin rudali tomirlarini topgan. Bu davrda G.D.Romanovskiy Sirdaryoning o'rta oqimi hududlarida geologik tadqiqotlar olib borgan edi.

Shu tariqa, I.V. Mushketov[13] va G.D.Romanovskiylar[14] o'z davrida Turkiston o'lkasining geologiyasi borasidagi bilimlarning kengayishiga katta hissa qo'shganlar. Bundan tashqari, 1881 yilda ular birgalikda "Turkiston o'lkasining geologik xaritasi" ni yaratganlar. SHunisi e'tiborga loyiqliki, bu ikki olim O'rta Osiyo hududlarining geologik va geografik tuzilishini ilk bor zamonaviy qarashlar asosida tadqiq etganlar. Bu bilan geologik jihatdan murakkab mintaqqa hisoblangan O'rta Osiyo er po'stning tuzilish xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni yanada boyitgan edilar.

V.N. Veberning turli xil geologik tadqiqotlari ham O'rta Osiyo hududlarini geologik jihatdan o'rganish ishlariga katta hissa qo'shgan edi[15]. Olimning Turkiston minerallariga bag'ishlangan kitobida hududda uchrangan tabiiy qazilmalarning tavsifi keltirilgan. V.N. Veberning izlanishlari haqida to'xtalib, O'rta Osiyoning eng yirik tadqiqotchilaridan biri B.N. Nasledov shunday yozgan edi: "u birinchilar qatorida O'rta Osiyoda ma'dan tarkibining xilma-xilligi va muammolariga e'tibor qaratdi va birinchi marta inqilob boshlanguniga qadar O'rta Osiyodagi konlarni hisobga olish bo'yicha juda katta ishlarni amalga oshirdi. . .".

D. V. Nalivkin geolog bo'lmasa-da, shaxsiy kuzatuvlari natijasida Pomirning tuzilishi to'g'risida

tasavvurga ega bo‘lgan birinchi tadqiqotchilardan bo‘lgan edi. O‘zidan oldingi ma’lumotlarning tahlili va shaxsiy tadqiqotlari natijalari asosida D.V. Nalivkin Pomir tuzilishining birinchi tektonik sxemasini yaratgan. Mazkur xaritada birinchi marta nisbatan yosh cho‘kindi jinslarning shimoliy chiziqlar bo‘ylab yuqori paleozoy, mezozoy va kaynozoy davrlarida tarqalishini ko‘rsatgan.

D.V. Nalivkin Sovuqsoy, Arzing, Vanch, Yazgulem, Kudara va Tanim daryolari havzalarida oltin qazib olish sohalarini qisqacha tavsiflab bergan edi. 1916 yilda uning “1915 yil yozida tog‘li Buxoro va G‘arbiy Pomirga sayohati to‘g‘risida dastlabki hisobot» maqolasi chop etilgan.

XIX asrning so‘nggi choragi – XX asr boshlarida Rossiya geografiya jamiyatining tashabbusi bilan N.M.Prjevalskiy, V.I.Roborovskiy, M.V. Pevsov, G.N. Potanin, V.A. Obruchev, G.E. Grum-Grjimaylo, P.K. Kozlov va boshqa qator olimlar O‘rta Osiyo mintaqasini ilmiy jihatdan o‘rganganlar[16]. Rus geografiya jamiyatni Sankt-Peterburg shahrida Nikolay I ning buyrug‘i asosida 1845 yil 18 avgustda tashkil etilgan[17]. Jamiyatning birinchi raisi Nikolay I ning ikkinchi o‘g‘li Buyuk knyaz Konstantin (1821-1892 y.) edi.

Rus geografiya jamiyatni ekspeditsiyalari tufayli O‘rta Osiyoning zamonaviy fizik xaritasi yaratildi. SHu bilan birga, mintaqaga kelgan olimlarning maxsus tadqiqotlari zoologiya, botanika, ornitologiya, geologiya, metrologiya, iqlimshunoslik, gidrologiya, arxeologiya, paleontologiya, etnografiya kabi fanlarni sezilarli darajada boyitgan. Ekspeditsiyalar tarkibida mintaqaga kelgan geologlar O‘rta Osiyo hududlarining geologik tuzilishi, tabiiy qazilma boyliklarini o‘rganibgina qolmay, mintaqaga xalqlarining geologiyaga oid bilimlari va tabiiy boyliklardan foydalanish usullari haqidagi ma’lumotlarni yig‘ib, tahlil etganlar.

Rus geografiya jamiyatni doirasida 1877-1878 yillarda Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufmanning tashabbusi va moliyaviy ko‘magi hisobiga bir qator katta-kichik ekspeditsiyalar amalga oshirildi. Masalan, 1878 yilda G‘arbiy Sibir general-gubernatori N.G Kaznakov mablag‘lari hisobiga Pevsovning Kuku-Xotodagi ekspeditsiyasi tashkil etilgan. 1879 yilda Maevning Buxoro xonligiga safari Turkiston general-gubernatorligi hisobidan va uning topshirig‘i bilan amalga oshirilgan[18].

Jamiyat Ichki ishlari vazirligi huzurida tashkil etilgan bo‘lib, uning davlat maqomi va maqsadlarining strategik ahamiyati ta’kidlangan.

Xullas, keyinchalik aniq bo‘lishicha, sof ilmiy tadqiqotlar olib borishdan tashqari, Rus geografiya jamiyatni harbiy razvedka va Rossiya imperiyasining boshqa mintaqalardagi, shu jumladan Turkiston mintaqasidagi strategik va geosiyosiy manfaatlarini o‘rnatishda eng to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtirok etdi. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasi, Buxoro amirligi va Xiva xonliklari hududida tashkil etilgan turli jamiyatlar qatorida tog‘-kon sohasiga tegishli bir qancha aksionerlik jamiyatlari ham tuzilgan. Ushbu jamiyatlar metropoliya vakillarining o‘lka tabiiy boyliklarini istaganicha tasarruf etishi hisobiga konchilik sohasini rivojlantirish va mintaqadagi tabiiy boyliklarni o‘zlashtirish evaziga mustamlakachi sarmoyadorlarning boyishiga xizmat qilgan.

Adabiyotlar ro‘yxati.

Зиёев X. Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига қарши кураш. – Тошкент. “Шарқ”, 1998., - Б. 54.

Мунис ва Оғаҳий. Фирдавс ул- иқбол. (Бахту саодат жаннати) . Араб ёзувидан табдил этган, кириш ва изоҳлар муаллифлари Ш. Воҳидов, И. Бекчанов ва Н. Полвонов. – Т. 2010. – Б. 99.

Бубнова М.А. Добыча полезных ископаемых в Средней Азии в XVI-XIX вв. – М.1976 – С. 18.

Бубнова М.А. Добыча полезных ископаемых в Средней Азии в XVI-XIX вв. – М.1976 – С. 20

Бутенев К.Ф. Заводское дело в Бухарии // Горный журнал Ч.IV. Кн. XI. – СПб. 1842. – С. 148-154; Монетное дело в Бухарии // ўша жойда – С. 154-156; Об увеличении сбыта изделий русских горных заводов в Бухарию. // ўша жойда – С. 168-175.

Южин Скайлер. Туркистон: Россия Туркистони, Кўқон, Бухоро ва Гулжага саёҳат кайдлари./ кириш, инглиз тилидан қисқартирилган таржима, изоҳлар ва кўрсаткичлар

муаллифи- т.ф..н., доц. З.А.Сайдбобоев – Тошкент «О'ZBEKISTON». 2019. – Б. 309.

Путешествие от сибирской линии до города Бухары в 1794 году и обратно в 1795 году Т. Бурнашева. / История Узбекистана в источниках известия путешественников, географов и ученых XVI-первой половины XIXв // составитель Б.В.Лунин – Т. :“Фан”. 1988. – С.141.

Постников А.В. О целях и задачах российской мисси 1841-1842 гг. в Бухару // Проблемы востоковедения 2012. № 3. С.82-86.

Мирзо Олим Махдум ҳожи. Тарихи Туркистан. – Тошкент. “Янги аср авлоди”наширёти, 2009. - Б. 186.

Постников А.В. О целях и задачах российской мисси 1841-1842 гг. в Бухару // Проблемы востоковедения 2012. № 3. С.82-86.

Бутенев К.Ф. Заводское дело в Бухарии // Горный журнал Ч.IV. Кн. XI. – СПб. 1842. – С. 148-154; Монетное дело в Бухарии // ўша жойда – С. 154-156; Об увеличении сбыта изделий русских горных заводов в Бухарию. // ўша жойда – С. 168-175.

Маев Н.А. Бухоро хонлиги очерклари // таржимон т.ф.н. И. Ботиров. – Т.: “ Fan va texnologiya”, 2012. – Б. 7.

Мушкетов И.В. Туркестан. Геологическое и орографические описание по данным собранным во время путешествий с 1874 по 1880 г. Т.1. В двух частях. – СПб., Типография М.М.Стасюлевича,1886.

Романовский Г.Д. Материалы для геологии Туркестана. Вып. 1. СПб., 1878. (Ушбу асар немис тилида ҳам чоп этилган.); Шу муаллиф. Материалы для геологии Туркестана. Вып. II. СПб., 1884. Шу муаллиф. Материалы для геологии Туркестана. Вып. III. СПб., 1890.

Вебер В.Н. Геологические исследования в Сирдарынской области в 1904 году (Предварительный отчет). Известия Геологического Комитета. 1905 г. Том 24. СПб.: Типолитография К. Биркемфельда, 1905. С. 347 – 369.

А. И. Андреев. Российские экспедиции в Центральное Азии (1870- 1920- е годы) : научные и военно – политические аспекты. // Научно – технические ведомости –СПб, ГПУ. Гуманитарные и общественные науки. № 4. 2012. – С. 103. С. 103-109.

Павлов К.А. Русское географическое общество: история и современность. // Современные проблемы сервиса и туризма. №1. 2010. – С. 4. С- 4-8.

Яковлева М.Ю. «Азиатские экспедиции императорского русского географического общества в годы правления Александра II» // Теория и практика общественного развития (2013, № 12).

BUXORO AMIRLIGI DAVRIDA HUNARMANDCHILIK USTAXONALARI FAOLIYATI VA AN'ANAVIY MILLIY KIYIM-KECHAKLARNI O'ZIGA XOSLIGI

To'rayev Anvar Ismoilovich

Buxoro davlat universiteti Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro amirligi boshqaruvi davrida mang'it hukumdorlari va saroyda faoliyat yuritib kelgan a'yon va amaldorlarga tegishli bo'lgan zardo'zi, zarbosf kabi qimmatbaho kiyim-bosh tikishga ixtisoslashgan hunarmandchilik ustaxonalari faoliyati atroflicha yoritib o'tilgan. Shuningdek, maqolada milliy kiyim-boshlarning tayyorlash bilan bog'liq texnologiyalar, aholining qaysi ijtimoiy qatlamga daxldor ekanligini belgilab berishda milliy kiyim-kechaklarning o'rni, ko'rsatib o'tilgan. Qo'li gul chevarlar tomonidan tikilgan milliy kiyim-boshlarning hududlar kesimida nomlanishi, ularni bichimidagi o'xshash va farqli xususiyatlar manbalar orqali bayon qilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Zardo'zi kashta, rangli adres, shoyi, hisori mato, ustaxona, ko'yvak, lozim, chopon, mursak, to'n, peshmat, kamzul, nimcha, paranji, chachvon, qora satin.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ РЕМЕСЛЕННЫХ МАСТЕРСКИХ И САМОБЫТНОСТЬ ТРАДИЦИОННОЙ НАЦИОНАЛЬНОЙ ОДЕЖДЫ В ПЕРИОД БУХАРСКОГО ЭМИРАТА

Turaev Anvar Ismailovich

Бухарский государственный университет Старший преподаватель кафедры Археологии и истории Бухары

Аннотация. В данной статье подробно освещена деятельность ремесленных мастерских, специализировавшихся на пошиве дорогостоящей одежды, такой как золотошвейные и парчовые изделия, предназначенной для мангитских правителей и придворной знати в период правления Бухарского эмирата. Также в статье рассматриваются технологии изготовления национальной одежды, её роль в определении социальной принадлежности населения к различным слоям общества. Изложены названия национальной одежды, сшитой искусными мастерами, в разрезе регионов, а также сходные и отличительные особенности их кроя на основе источников.

Ключевые слова: золотошвейная вышивка, цветной адрас, шёлковая ткань, гисари (гиссарская) ткань, мастерская, платье, лозим (женские штаны), чапан (национальный халат), мурсак, пешмат, камзул (жилет), нимча, паранджа, чадра (чачвон), чёрный сатин.

THE ACTIVITIES OF CRAFT WORKSHOPS AND THE DISTINCTIVENESS OF TRADITIONAL NATIONAL CLOTHING DURING THE PERIOD OF THE BUKHARA EMIRATE

Turaev Anvar Ismailovich

Bukhara State University Senior Lecturer of the Department of Archaeology and History of Bukhara

Abstract. This article provides a detailed analysis of the activities of craft workshops that specialized in the production of luxurious garments, such as gold embroidery and brocade items, intended for the Manghit rulers and court nobility during the reign of the Bukhara Emirate. The article also examines the technologies involved in the making of traditional clothing and its role in identifying the social affiliation of the population to different strata of society. It presents the regional names of national garments sewn by skilled artisans, as well as the similar and distinctive features of their cut, based on historical sources.

Keywords: gold embroidery, colored adres, silk fabric, Hisari (Gissar) fabric, workshop, dress, lozim (women's trousers), chapan (traditional robe), mursak, peshmat, kamzul (vest), nimcha, paranja, chachvan (veil), black satin.

Kirish. Etnologiyada kiyimlar kiyishning yoshiga qarab bolalar, kattalar, keksalar libosi; odamning jinsiga mos ravishda erkaklar va ayollar kiyimi; kiyinish maqsadiga muvofiq bayram, marosim, kundalik va ish kiyimlari; insonning ijtimoiy holatiga qarab boy va kambag‘al kiyimi; hududiy va tabiiy-iqlimi sharoitiga qarab tog‘liklar, dasht hududida yashovchilar, shaharliklar va qishloqliklar kiyimi; mavsumga mos tarzda bahorgi, yozgi, kuzgi va qishki kiyimlarga bo‘linadi [9,14].

An’anaviy xalq kiyimlarini tarixiy etnologik nuqtai nazardan tahlil etish jarayonida va ayniqsa, kiyimlardagi o‘ziga xos hamda etnik xususiyatlarni yoritishda ijtimoiy tabaqalar, turli yoshlarga xos bo‘lgan kiyimlar bilan birga turli jinslarga oid kiyimlar tahlili ham muhim ilmiy nazariy ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, ushbu muammolarning yechilishi ma’lum bir xalq yoki bitta tarixiy etnografik mintaqada yashovchi bir necha xalqlar etnik tarixi, madaniy an’analari va etnomadaniy aloqalarini tahlil etishda ham qimmatli ma’lumotlar beradi [11,2]..

Asosiy qism. Xalqimizning qadimiy va milliy kiyim-boshlarini o‘zida mujassamlashtirgan Buxoro vohasi aholisi kiyimlari etnografik va faktik materiallarga boyligi bilan ajralib turadi. Buxoro liboslari serhasham va bashangroq bo‘lgan. Liboslar zardo‘zi kashta va boshqa gazmolni qo‘sib tikish yo‘li bilan bezatilgan. Jumladan, XIX asr oxiri–XX asr boshlarida Buxoro kashtalari, asosan, yo‘rma usulida bajarilgan. Kashtalar oq qarbos, rangli adres, shoyi va hisori matolarga bajarilgan [7,17]. Buxoro vohasidagi kiyimlar boshqa hudud kiyimlari bilan zardo‘zi kiyimlari bilan ajralib turadi. Chunki XIX–XX asr boshlarida Buxoroda hukmronlik qilgan mang‘itlarning oxirgi sulolasiga taalluqli zarbof kiyimlar yagona yodgorliklari nusxasi saqlanganligi yuqoridagi fikrimizning dalili hisoblanadi. 1800–1826 yillarda Haydarxon podsho zamonasida ishlangan zardo‘zi mahsi (1810-yilda ishlangan) saqlanib qolgan. 1827–1860-yillarda Amir Nasrulloxonidan juda ko‘p zarbof kiyimlar saqlanib qolning. 1885–1911-yillarda hukmronlik qilgan Abdulahadxonga mansub juda ko‘p zardo‘zlik kiyimlar ko‘p saqlanib, o‘sha davr zardo‘zlik san’ati gullab yashnagan davr hisoblanadi. Amirlik davrida Buxoroda 350 ga yaqin zardo‘z ustalar bo‘lgan. Buxoroda saroy zardo‘zlik ustaxonlari bo‘lib, ular arkda, podshoh binolarida, oliy davlat amaldorlarining hovlilarida joylashgan, amir xazinasi tomonidan ta’milnab turilgan. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, 1860–1885 yillarda saroyda bitta, 1885–1911 yillarda esa saroyda ikkita ustaxona bo‘lgan [2,303]. Birinchi ustaxona davlatning bosh vaziri – qushbegining podshohlik uyida, ikkinchisi amirning moliya hamda soliq ishlarini yurituvchi zakotchining uyida faoliyat yuritgan. Qozi Kalon Badriddinning uyida ham zardo‘zlik ustaxonasi bor bo‘lgan [3,70]. Ularning faoliyatiga podshoh ruxsat berib, saroy ustaxonlari darajasida huquqqa ega bo‘lgan. Qozi Badriddinning uy ustaxonasida amirning maxsus ruxsatnomasi bilan har xil sovg‘a-salom tayyorlanib kelgingan.

Muhokama qismi. 1894-yili amir Abdulahadning Karmanaga butunlay ko‘chib o‘tishi, saroy ustaxonasi faoliyatini to‘xtatdi. 1915-yil Olimxon davrida Buxoroda qushbegi Mirzo Urganjiyning uyida podshohlik ustaxonasi tashkil etilgan. Bu ustaxona qushbegi ixtiyorida bo‘lgan.

Podshohning zardo‘zlik ustaxonasidan tashqari yana xususiy ustaxonalar ham bo‘lib, ularning soni 25 tagacha etgan. Amir Abdulahad hukumronlik qilgan davrda zardo‘zlik san’ati gullab yashnagan [1,15].

Qimmatbaho matodan tayyorlanadigan zardo‘zi kiyimlar mahalliy aholining turli tabaqalari o‘rtasida keng tarqagan. Bu kiyim-kechaklar asosan amir saroyidagilar, shahar boylari uchun tikilgan. Ustalar saroy ahllari uchun belbog‘, salsa, kamzul, chakmon, chalvor, poyafzal, qulqoq va jul tikishganlar. Bu kiyimlar xon buyurtmasi yoki yaqinlari tomonidan biron ta olib yuritgan. Hech kim, hatto eng katta amaldorlardan birortasi ham yuqorida aytib o‘tilgan kiyimlardan hech birini o‘ziga buyurtirishga haqqi yo‘q edi, ular zarbof kiyimlarni amir sovg‘a qilgandagina kiyishlari mumkin bo‘lgan. Ayollar va bolalarning zardo‘zi kiyimlari faqat badavlat xonardonlarning an’analaridagina kiyilgan, kiyimlarni ular birorta olib yuritgan. Boy xonardonlarning 8–10 yoshdan katta bo‘limgan o‘g‘il bolalarga sunnat to‘yi munosabati bilan zarbof to‘n kiydirishganlar [4,54].

Yuqorida keltirib o‘tgan ma’lumotlardan kelib chiqqan holda xulosa qilish mumkinki, zardo‘zi kiyimlarimiz o‘zining bejirimligi, ko‘rkamligi, turli xil andozalarda tikilganligi va ularning yuqori uslubda zamindo‘zi qilganligi ham buning isboti bo‘la oladi desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

Buxoro ayollarining an’anaviy kiyim-boshlari ko‘ylak, lozim, chopon, mursak, to‘n, peshmat,

kamzul, nimcha, paranji – chachvon (ayollarining majburiy ustki kiyimi hisoblanib, ko‘chaga chiqqan paytlarida ularni boshga yopinib yurganlar) lardan hamda xilma-xil ro‘mollar, rang-barang do‘ppilardan iborat bo‘lgan. Oyoq kiyimlari esa mahsi, boshmoq kabi charmdan qilingan hamda rezinadan quyilgan kalishlardan tashkil topgan. Buxoro ayollarining ko‘ylagining chuqur old yoqa o‘mizi yuqorisida bitta katta tugma qadaladigan, bo‘yi sal qisqargan, poychasi toraygan lozimi ko‘ringan. Yoqa o‘mizining chetlari zarbof tasma (peshkurt) va kashta bilan bezatilgan. Ko‘ylaklarning yirmochi ko‘ndalang yoki “yelka yoqa”, “qozoqi yoqa”, “vaqvaqa yoqa”, “qaytarma yoqa” turlarini ko‘proq qariyalar va kelinlar kiyganlar[8,29]. Yelka yoqa ko‘ylaklar yirmochining chekkalariga turli xil jiyak, chiroz, tasma yoki turli rangdagi ipak iplardan yo‘rma usulda kashta tikib chiqilgan. Kiyim shakllari milliy yo‘l-yo‘l sidirg‘a va gulli matolar bilan moslashgan, old etagi, yeng uchi, yoqasi gulli jiyak bilan hoshiyalangan.

XX asr o‘rtalariga kelib ayollar choponi o‘rnini kamzul egallab, chopon faqat keksa ayollar ustki kiyimi sifatida saqlanib qolgan.

Choponning yana bir turi-mursaklar ham kiyilgan. Aslida mursak arabcha murassa’ so‘zidan olingan bo‘lib, mursak arablarning qadimiylar ust kiyim turidan bo‘lib, u qimmatli tosh va zarlar bilan bezatilgan. Shuning uchun ham arablar bu kiyimga murassa’ (ziynatlangan, bezatilgan) deb nom qo‘yanlar. Arabcha murassa’ so‘zi o‘zbek tilining fonetik xususiyatlariga muvofiq mursak deb talaffuz qilinadi. Mursak XIII asrlardan to XVI-XVII asrlargacha paranji yuzaga kelguncha ayollar uchun ham yopinchiq ham ustki kiyim vazifasini o‘tagan. Buxoro va Shahrisabzda-kaltacha, Toshkentda-mursak, Xorazmda- misak, Samarqandda -kaltacha, Farg‘onada -munisak, munsak nomlari bilan atashgan. Mursak 3 qismdan-bo‘y, yon va yenglardan iborat bo‘lib, yon qismi to‘g‘ri, uzun, qo‘ltiq ostiga to‘plangan, to‘plangan qism “cho‘chcha” deb atalgan. Mursakning choponidan farqi shuki, unda yeng ostidan burma qilinib, barlari ulama qiyiq hisobiga kengaytirilgan bo‘ladi, etaklar xuddi chopon barlariga o‘xshab, birining ustiga biri tushib turadi, yon tomonlarda yo‘rmoch bo‘lgan. Mursak paxta solinib qavilgan bo‘lishi ham mumkin.

XIX asr ikkinchi yarmiga qadar Toshkent ayollarini kiyadigan mursakning yenglari oddiy choponlarning yenglariidan birmuncha kaltaroq bo‘lgan. Keyinchalik mursakning yenglari tirsakkacha uzaytirilgan. Samarqand mursaklarining yenglari qo‘l panjalarigacha tushib turgan. Buxoro va Qashqadaryoda mursak yenglari keng tikilgan [10,28]. Xorazmda esa mursak chopondan faqat yenglari bilan farqlangan.

Qadimda mursak ayollarining odatdagagi qishlik ust kiyimi bo‘lgan bo‘lsa, XX asr boshlariga kelib mursak ta‘ziya marosimlarida ustidan belbog‘ bog‘lanib kiyiladigan kiyimga aylangan. Samarqandda mursak to‘y marosimlar va mehmondorchilikda kiyilgan. Keyinchalik mursak har bir ayol sandig‘ida o‘limlik libosi sifatida saqlanib, vafot etganida ustiga yopib qo‘yiladigan bo‘lgan.

Rossiya O‘rta Osiyoni bosib olgach, o‘lkada yangi bir shakldagi kiyim- kamzul (kamzuhur, kamzur, peshmat) an’ana tusiga kira boshlagan. Kamzul belga biroz yopishib turadigan, kalta, tor yengli, chuqur o‘mizli qaytarma yoqali, ba’zan belbandli, yonlarida ba’zan ko‘krak qismidan cho‘ntagi bo‘lgan chopondir. Kamzullarni ko‘pincha yorqin rangli yo‘l-yo‘l beqasamdan, rangli baxmaldan, tukli duxobadan va boshqa xil chetdan keltirilgan gazmollardan tikilgan.

Ayni o‘sha davrda Toshkentda yengsiz, kalta nimchalar, Farg‘onada esa kamzullar paydo bo‘lgan. Nimchani ko‘proq qora baxmaldan tikishgan. Qiz bolalar qora satindan tikilgan etagiga kashtali nimcha kiyishgan. Nimcha ayollar milliy kiyimining zaruriy bo‘lagiga aylanib borgan.

Azaldan o‘zbek xalqining an’naviy kiyim-kechaklari turli xil tarixiy shart-sharoitlar natijasi o‘larоq rivojlanib, shakllanib borgan. Jumladan, shu yuqorida to‘xtalib o‘tganimizdek ayollarining kiyim - kechaklari turli vohalarda turlicha nomlar bilan atalib va ulardan yaqin-yaqinlargacha xalqimiz foydalanib kelishgan. Xuddi shunday kiyimlardan biri paranjidir. Paranji-arabcha forajiya, ko‘pligi farojot so‘zidan olingan. Bu nom arablarda din ahllari, ulamolar, sultonlarning qimmatbaho matodan keng qilib tikilgan ustki kiyimini anglatgan. Paranjining qaysi kiyimdan kelib chiqqani haqida etnograflar turlicha talqin qiladilar. Chunonchi, 1) paranji arablarning ustki kiyimining o‘zgargan formasi deyilgan nuqtai-nazar; 2) paranji, mursak, kaltacha, yelak (jelak), jegda kabi kiyim–yopinchiklarining o‘zgargan shakli degan mulohazalar ham mavjud.

Paranji ayollar milliy kiyimining biri bo‘lib, shaharlik ayollar hamda boy qishloq xotin-

qizlarining ko‘chaga kiyib chiqadigan yopinchig‘i bo‘lgan. Paranji soxta yengli, to‘nsimon, uzun yoping‘ichdan iborat bo‘lib, otning dum qilidan to‘qilgan to‘r parda–chachvon betga tugilib, ustiga paranji yopilgan [6,43]. Chachvonning cheti odatda qora satin hoshiyadan tikilib, tikuva mashinasida choklangan. Paranji ayolning butun bo‘yi, qaddi-qommatini boshidan to oyog‘igacha yashirib turgan.

Dastlab paranji Misrda paydo bo‘lib, u yerdan o‘zga mamlakatlarga tarqalgan. O‘zbek ayollar kiyim-kechagining tarkibiy qismlaridan yana biri–bosh kiyimidir. Eng an’anviy bosh kiyim juda xilma-xil uslubda o‘raladigan chorsi, ya’ni to‘g‘ri burchak shaklidagi ro‘moldir. Buxoroda katta qiyiq ro‘molni–rido, Farg‘ona vodiysida–qalgay, Xorazmda–ipak ro‘mol deb atashgan.

Qadim zamonlarda ayollar bosh kiyimidan yana biri salla–dastor o‘rash rasm bo‘lgan. Ayollar sallasi kiygich yoki do‘ppi va o‘ramdan iborat bo‘lgan. Odatta o‘ramning har xil turi bo‘lgan. Boy ayollar 14 metr matodan, kambag‘allar 6 metr matodan salla o‘rashgan. Kambag‘allar yaxlit mato topolmasalar kalta latta va paxta ishlatishganlar. Salla uchun ko‘k yoki qizil rang ishlatish urf bo‘lgan. Salla o‘rami ustidan to‘rttadan tortib yettitagacha ro‘mol bog‘langan (“boy bosh”), kambag‘allar esa bitta qizil ro‘mol o‘rab qo‘ya qolishgan. Ma’rakalarda katta yoshdag‘i ayollar 10 metr oq matodan salla o‘rab, ustidan oq ro‘mol bog‘lashgan. O‘rta yosh va yosh juvonlar esa 10 metr havorang satin salla o‘rashgan [5,92]. Ko‘pgina ayollar dastorni maxsus bosh kiyim – lachak ustidan o‘rashgan. Lachak ayollar yuzini o‘rab, ko‘krakni yopib turgan. Ayrim o‘zbek urug‘larida, xususan, Amudaryo bo‘ylarida yashaydigan urug‘larda lachak boshga o‘raladigan bir parcha matodan iborat bo‘lib, orqa qismi burchak shaklida yelka ortiga tashlangan. Kaltaroq qismi yelka oldi va ko‘krakning bir tomonini yopib turgan, yuz ko‘rinib turishi uchun maxsus qiyiq joyi bo‘lgan. Lachak iyakni qisib, qulqlarni ochiq qoldiradi, ustidan kulta, ya’ni kalta chopon tashlangan. Lachak qozoq va qoraqalpoq ayollarining bosh kiyimi –kimishekni eslatib turgan.

O‘beklarning an’anviy kiyim-boshlari ichida erkaklarning milliy liboslari alohida ajralib turadi. Kiyimlari (to‘n, ko‘ylak, yaktak, ishton va b.) yaxlit bichimli, bichimi to‘g‘ri, keng va uzun bo‘lib, eni buzilmagan bir bo‘lak mato yarmidan bir-biriga ulab uzunasiga tikilgan, yon qismi esa etagiga qarab kengayib borgan. Dastlab erkaklar ko‘ylagi uzun, tizzadan pastga, keyinroq esa belning yarmiga tushadigan qilib tikilgan. Umuman, O‘zbekiston hududida erkaklar orasida bir nusxadagi to‘n, ko‘ylak – yaktak, ishton, do‘ppi, salla, telpak, kavush-mahsi, etik, choriq, turli yordamchi kiyimlar kiyilgan, erkaklar ko‘ylagi Farg‘ona vodiysida uzun, tik yirmoch – qiyiq joyi uzunroq mato bo‘lagidan bichilib, burchak-burchak qilib, ikki qiyiq kesilgan hamda uchlari keng olinib tikilgan. Boshqa xil bichimdag‘i ko‘ylaklarda yirmoch yotiq, u yelkadan bu yelkagacha olingan. Bunday ko‘ylaklar “mullavachcha” ko‘ylak deyilgan. XIX asr oxiri–XX asr boshlarida mamlakatning turli mintaqalarida kalta, tik yoqali “no‘g‘oy yoqa ko‘ylak”, “bo‘g‘ma yoqa” ko‘ylaklar kiyish ommalashgan bo‘lib, bu ko‘ylakni dastlab shahar aholisi, ayniqsa, savdo ahli kiygan. O‘zbeklar orasida bo‘z, ipak, ip gazlamalardan tikilgan oldi ochiq yaktak ko‘ylaklarni yoshlar va qarilar birdek yoqtirib kiyishgan. Erkaklar ishtoni yuqori qismi keng, poychalari torroq tikilib, to‘piqqacha tushib turadi, yuqori qismiga ishtonbog‘ o‘tkazish uchun milkiga gir aylana baya–chok qilingan. Sovuq fasllarda ishton ustidan astarli yoxud astarsiz shim kiyilgan, u asosan, ip gazlama va jun gazzmallardan tikilgan. Chavandozlar, ovchilar namat–kigizdan, jun–mo‘ynadan oshlangan teridan tikilgan cholvor kiyishgan. Chopon (to‘n), jomakor, kamzul, jelak, chakmon erkaklarning mavsumiy kiyimlari qatoriga kirgan. To‘n (chopon) lar avra–astarli holda paxta solib qavilgan. Oldi ochiq, uzun bo‘lgan. Yurganda, otga minganda, yerda chordona qurib o‘tirganda qulay, ixcham bo‘lishi uchun yon tomonlariga kesik–yirmoch qo‘yilgan, belbog‘ bog‘langan. To‘nlar avrasi beqasam, kimxob, baxmal, shoyi, satin, chit va boshqa matolardan tikiladi.

To‘nlar mahalliy xususiyatlariga ko‘ra ham farqlangan. Farg‘ona vodiysi, Toshkent va Xorazmda gavdaga yopishib turadigan sirma - qavima choponlar ko‘proq rasm bo‘lgan bo‘lsa, Buxoro, Samarqand, Shahrisabz va boshqa joylarda qimmatbaho matolardan zardo‘z to‘nlar tikilib, yoqasi, etagi va yeng uchlari turli rangdagi zar iplarda kashta tikib, atrofiga gavhar toshlar qadab bezatilgan. Bunday to‘nlarni xon va amaldorlarga sovg‘a qilishgan. Umuman, xalqimiz orasida hurmatli kishilarga, ustozlarga, quda va kuyovlar, aziz mehmonlar va boshqalarga to‘n kiygizish udumi saqlanib qolgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, barcha voha aholisi kiyimlarini ma’lum bir tarixiy-ethnografik mintaqqa misolida, qolaversa, keng hududlar kesimida o‘rganish xalqimizning boy milliy

merosini, o‘zligini va o‘tmishini tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Mustaqillikdan so‘ng tariximiz, milliy an’alarimiz va rasm - rusumlarimizga, milliy liboslariimizga bo‘lgan e’tibor keskin oshdi. Ayniqsa, ayollar milliy matolar – shoyi, atlas, adres, baxmallardan tikilgan kiyimlar kiya boshladilar. Hozirgi zamон liboslarida yevropacha uslubi bo‘lsa-da, milliy an’analarning davomiyligi saqlanib qolmoqda. Masalan, shahar va qishloqdagi ayollar zamona viy ko‘ylaklarni an’anaviy xonatlaslardan tikib kiyishmoqda. Erkaklar do‘ppisi, chopon an’anaviy ustki libosga aylangan desak yanglishmagan bo‘lamiz.

ADABIYOTLAR:

- Бинафша Н. Бухоро зардўзлик санъати // Санъат. 2005. -№1 -Б. 35.
- Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. –Т.: Меҳнат. 1991. -Б. 502.
- Гончарова П. Бухоро зардўзлик санъати. –Т.: Faafur Fулом номидаги Адабиёт санъат нашриёти. 1986. -Б. 212.
- Гончарова П. Бухоро зардўзлик санъати. –Т.: Faafur Fулом номидаги Адабиёт санъат нашриёти. 1986. -Б. 212.
- Дониёров А., Бўриев О., Аширов А. Марказий Осиё халқлари этнографияси, этногенези ва этник тарихи. –Т.: Янги нашр. 2011. -Б. 257.
- Жабборов И. Ўзбеклар: турмуш тарзи ва маданияти . –Т.: Ўқитувчи. 2000. -Б. 242.
- Жумаев Қ. XIX аср охири XX аср Фиждувон анъанавий каштачилиги .// Санъат. 2002. -№2. -Б. 39.
- Иброхимова М. Либосларда халқ рухи //Мулоқот. 2001. -№ 5. -Б. 42.
- Исмоилов Ҳ. Анъанавий ўзбек кийимлари. –Т.: Фан. 1979. -Б. 192.
10. Содикова Н. Либослар тарихдан сўзлайди. //Саодат. 2004. -№ 6. -Б. 39.
11. Содикова Н. Ўзбек миллий кийимлари XIX –XX асрлар. –Т.: Шарқ. 2003. -Б. 215.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KIMYO VA GAZ-KIMYO SANOATI RIVOJLANISHIDA XALQARO HAMKORLIK ALOQALARI TARIXI (MUBORAK GQIZ, SHO'RTAN GKM MISOLIDA)

Asadova Ra'no Baymanovna,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti "Tarix va ijtimoiy fanlar" kafedrasi

Xolturayeva Muhayyo Norsafarovna,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti magistranti.

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola O'zbekiston Respublikasida kimyo va gaz-kimyo sanoatining rivojlanishida xalqaro hamkorlik aloqalarining o'rni va ahamiyatini tahlil qiladi. Muborak GQIZ va Sho'rtan GKM kabi yirik gaz-kimyo korxonalari misolida O'zbekistonda amalga oshirilgan xalqaro hamkorlik, texnologiya transferi, investitsiyalar va mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarining optimallashtirilishiga oid ma'lumotlar keltirilgan. Maqolada shu bilan birga, O'zbekistonning xalqaro hamkorlik aloqalari orqali kimyo sanoatining jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish yo'llari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, kimyo sanoati, gaz-kimyo sanoati, xalqaro hamkorlik, Muborak GQIZ, Sho'rtan GKM, texnologiya transferi, investitsiyalar, sanoat rivoji, jahon bozori, eksport salohiyati.

ИСТОРИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЙ В РАЗВИТИИ ХИМИЧЕСКОЙ И ГАЗОХИМИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН (НА ПРИМЕРЕ МУБОРАК ГКИЗ И ШОРТАН ГКМ)

Асадова Раёна Баймановна,

Доцент кафедры «История и социальные науки» Университет экономики и педагогики Кандидат исторических наук

Холтураева Мухайё Норсафаровна,

Магистрант Университета экономики и педагогики

Аннотация: Данная научная статья анализирует роль и значение международного сотрудничества в развитии химической и газохимической промышленности Республики Узбекистан. На примере крупных газохимических предприятий, таких как Муборак ГКИЗ и Шортан ГКМ, приведены данные о международном сотрудничестве, передаче технологий, инвестициях и оптимизации процессов производства. В статье также рассмотрены пути повышения конкурентоспособности химической промышленности Узбекистана на мировом рынке через международное сотрудничество.

Ключевые слова: Узбекистан, химическая промышленность, газохимическая промышленность, международное сотрудничество, Муборак ГКИЗ, Шортан ГКМ, передача технологий, инвестиции, развитие промышленности, мировой рынок, экспортный потенциал.

HISTORY OF INTERNATIONAL COOPERATION IN THE DEVELOPMENT OF THE CHEMICAL AND GAS-CHEMICAL INDUSTRIES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN (THE CASE OF MUBORAK GQIZ AND SHO'RTAN GKM)

Asadova Ra'no Baymanovna,

Associate Professor of the Department of «History and Social Sciences» University of Economics and Pedagogy Ph.D. in History

Kholturayeva Muhayyo Norsafarovna,

Master's student at the University of Economics and Pedagogy

Abstract: This scientific article analyzes the role and significance of international cooperation in the development of the chemical and gas-chemical industries in the Republic of Uzbekistan.

Using the examples of large gas-chemical enterprises such as Muborak GQIZ and Sho'rtan GKM, the article presents data on international cooperation, technology transfer, investments, and optimization of production processes. Additionally, the article explores ways to enhance the global competitiveness of Uzbekistan's chemical industry through international cooperation.

Keywords: Uzbekistan, chemical industry, gas-chemical industry, international cooperation, Muborak GQIZ, Sho'rtan GKM, technology transfer, investments, industrial development, global market, export potential.

Kirish.O'zbekiston Respublikasi kimyo va gaz-kimyo sanoatining tarixiy rivojlanishi va uning xalqaro hamkorlikdagi o'rni mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida muhim o'rinni tutadi. Ushbu sanoat sohasining o'sishi, yangi texnologiyalarni joriy etish, yangi zavodlar va ishlab chiqarish quvvatlari yaratish, shuningdek, xalqaro hamkorlik aloqalari bilan bevosita bog'liq. Kimyo sanoati O'zbekistonda 20-asrning o'rtalarida, sovet davrida keng rivojlanishni boshlagan. Xususan, gaz va kimyo sanoati asosan tabiiy gazni qayta ishlash va turli xil kimyoviy moddalar ishlab chiqarish bilan shug'ullangan. Muborak GQIZ (Gazni Qayta Ishlash Zavodi) va Sho'rtan GKM (Gaz Kimyo Majmuasi) kabi yirik korxonalar O'zbekistonning gaz-kimyo sanoatining rivojlanishida muhim o'rinni tutgan.

Muborak GQIZ O'zbekistonning eng yirik tabiiy gazni qayta ishlash zavodlaridan biri bo'lib, u 1970-yillardan buyon faoliyat yuritmoqda. Zavod O'zbekistonning gaz resurslarini qayta ishlashda va kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishda muhim rol o'yndaydi. Shuningdek, u xalqaro bozor uchun mahsulotlar ishlab chiqarish orqali mamlakatning eksport salohiyatini oshirishga katta hissa qo'shadi.

Sho'rtan GKM - bu O'zbekistondagi eng yirik gaz-kimyo majmularidan biri bo'lib, u yirik kimyoviy va gaz mahsulotlarini ishlab chiqaradi. Ushbu majmua O'zbekistonning gaz resurslaridan foydalanishni samarali tashkil etish bilan birga, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonning kimyo va gaz-kimyo sanoatida xalqaro hamkorlik aloqalari tobora kuchayib bormoqda. Ushbu hamkorliklar texnologiyalarni import qilish, xalqaro bozorlar bilan savdo aloqalarini rivojlantirish, hamda yangi loyihalarni jalb qilish orqali amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi kimyo va gaz-kimyo sanoati mamlakatning sanoat tarmoqlarining asosiy qismini tashkil etadi. O'zbekistonning tabiiy gaz resurslari, sanoat quvvatlari va xom ashyo bazasi bu sohaning rivojlanishiga asos bo'lib, xalqaro hamkorlik esa yangi texnologiyalarni o'zlashtirish va eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o'yndaydi. Muborak GQIZ va Sho'rtan GKM kabi korxonalar ushbu sohadagi yirik loyihalardan biri bo'lib, xalqaro hamkorlik aloqalarining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu ilmiy adabiyotlar tahlilida O'zbekistondagi kimyo va gaz-kimyo sanoatining rivojlanishi, muborak GQIZ va Sho'rtan GKM misolida xalqaro hamkorlikning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi.

O'zbekistonning kimyo va gaz-kimyo sanoatining rivojlanishiga oid bir qator ilmiy ishlanmalar mavjud. Bu sohaning rivojlanishi, asosan, tabiiy gazni qayta ishlash va turli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bog'liq. O'zbekiston Respublikasining gaz va kimyo sanoatida amalga oshirilgan texnologik yangilanishlar va xalqaro hamkorlik, ayniqsa, sohaning eksport salohiyatini oshirishga katta ta'sir ko'rsatdi.

O'zbekistonning gaz-kimyo sanoati tarixiga oid ko'plab ilmiy maqolalarda, asosan, tabiiy gazdan foydalanish va uni qayta ishlash jarayonlari haqida so'z yuritilgan. Xususan, Abdullaev va Azizov (2018) o'z ilmiy ishlarida O'zbekistondagi gaz-kimyo sanoatining rivojlanish dinamikasini, yangi texnologiyalarning joriy etilish jarayonlarini tahlil qilgan. Ular gazni qayta ishlash zavodlarining sifat va samaradorlikni oshirish uchun xorijiy investitsiyalar va texnologiyalarni jalb qilishni ko'rsatdilar [1, 57-b].

Islomov (2020) o'z maqolalarida O'zbekistonning gaz va kimyo sanoatidagi xalqaro hamkorlikning ahamiyatini ta'kidlashadi. Ular Muborak GQIZ va Sho'rtan GKM kabi yirik ishlab chiqarish quvvatlari orqali O'zbekistonning xalqaro bozorlarda o'z o'rnini mustahkamlashga intilishlari haqida yozadilar. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining Rossiya, Qozog'iston

va Xitoy kabi davlatlar bilan hamkorligi sanoatning zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanishiga yordam berdi [2, 82-b].

Muborak GQIZ va Sho'rtan GKM O'zbekistonning gaz-kimyo sanoatidagi asosiy va eng yirik ishlab chiqarish majmularidan hisoblanadi. Ushbu korxonalarining xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirishdagi tajribalari tahlil qilinadi [4, 57-b].

Muborak GQIZ xalqaro hamkorlikni amalga oshirishda, xususan, texnologiya transferi va qayta ishlash jarayonlarini modernizatsiya qilishda muhim rol o'ynadi. *Jabborov (2019)*ning ilmiy ishida Muborak GQIZning xalqaro hamkorlikdagi ahamiyati va xorijiy investitsiyalarni jalg qilishdagi muvaffaqiyatlari yoritilgan. Jumladan, Rossiya va Qozog'iston kabi davlatlar bilan olib borilgan hamkorliklar natijasida, zavod samaradorligi oshdi, ishlab chiqarish jarayonlari optimallashtirildi va mahsulot sifatining yaxshilanishiga erishildi [5, 101-b].

Sho'rtan GKM ham xalqaro bozorlar uchun mahsulotlar ishlab chiqarishning asosiy markazlaridan biridir. Sattarov (2021) Sho'rtan GKMning xalqaro hamkorlikdagi rolini o'rghanishda, shu majmuada amalga oshirilgan investitsion loyihamalar va texnologik yangilanishlarni tahlil qilgan. Ularning yozishicha, Sho'rtan GKM Xitoy va Turkiya bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali o'z ishlab chiqarish quvvatlarini oshirib, xalqaro bozorga chiqishni yanada kengaytirdi [6, 57-b].

Kimyo va gaz-kimyo sanoatining rivojlanishida innovatsion texnologiyalarning o'rni alohida ta'kidlanadi. O'zbekistonning Muborak GQIZ va Sho'rtan GKM kabi korxonalar, yangi texnologiyalarni import qilish va ishlab chiqarish jarayonlarini zamonaviylashtirishda xalqaro hamkorlikni samarali yo'lga qo'ygan.

*Mirodilov va Xodjayeva (2020)*ning ilmiy maqolasida texnologiyalarni import qilishning o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Muborak GQIZ va Sho'rtan GKMda joriy etilgan innovatsion texnologiyalar, xususan, tabiiy gazni qayta ishlash jarayonini takomillashtirishda va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynadi. Shu bilan birga, ekotexnologiyalarni joriy etish orqali ekologik ta'sirlarni kamaytirish maqsadida xalqaro tajribadan foydalanildi. O'zbekistonning kimyo va gaz-kimyo sanoatidagi xalqaro hamkorlik aloqalarining rivojlanishi O'zbekistonda yirik sanoat loyihamarini amalga oshirish va yangi texnologiyalarni o'zlashtirishda muhim omil bo'ldi. Muborak GQIZ va Sho'rtan GKM kabi zavodlar xalqaro hamkorlik orqali texnologiyalarni takomillashtirish va mahsulotlarni xalqaro bozorga chiqarish jarayonlarini muvaffaqiyatli amalga oshirdilar. Kelajakda bu sohadagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali O'zbekistonning gaz-kimyo sanoatini yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatlari mavjud [7, 57-b].

Muborak GQIZ, ayniqsa, xalqaro kompaniyalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Ular orasida Rossiya, Qozog'iston va boshqa mintaqaviy davlatlar bilan hamkorlikda yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish hamda sifatni oshirish bo'yicha keng ko'lamli dasturlar amalga oshirilmoqda.

Sho'rtan GKM ham Xitoy, Turkiya va boshqa davlatlar bilan gaz-kimyo sanoatiga oid yirik loyihamar bo'yicha hamkorlik qilmoqda. Shu bilan birga, Sho'rtan GKM O'zbekistonning asosiy eksport bozorlariga chiqariladigan mahsulotlar ishlab chiqarishda ishtiroy etmoqda.

Kimyo va gaz-kimyo sanoatida innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish maqsad qilinmoqda. Xalqaro hamkorlik orqali yangi texnologiyalar, jumladan, ekologik jihatdan toza va energiya tejamkor texnologiyalarni o'zlashtirishga katta e'tibor berilmoxda. O'zbekistonning kimyo sanoatiga joriy etilgan yangi texnologiyalar, masalan, Sho'rtan GKMda o'rnatilgan zamonaviy texnologiyalar va ekotexnologiyalar, xalqaro hamkorlik orqali amalga oshirilgan. Kelajakda O'zbekistonning kimyo va gaz-kimyo sanoatida xalqaro hamkorlik aloqalarining yanada rivojlanishi kutilmoqda. Mamlakat, ayniqsa, gaz resurslaridan samarali foydalanish va ularni qayta ishslashda yangi investitsiyalarni jalg qilishga qaratilgan loyihamarini amalga oshirishda davom etmoqda.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasida kimyo va gaz-kimyo sanoatining rivojlanishida xalqaro hamkorlik aloqalarining o'rni juda muhimdir. Muborak GQIZ va Sho'rtan GKM kabi yirik zavodlar mamlakatning sanoat salohiyatini oshirishda va global bozorga chiqishda asosiy o'rni tutadi. Kelajakda ushbu sohada xalqaro hamkorlikning yanada kuchayishi, yangi texnologiyalar va investitsiyalarni jalg qilish orqali O'zbekistonning gaz-kimyo sanoatining rivojlanishi yanada

yuqori darajaga ko'tarilishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullaev, A., & Azizov, N. (2018). O'zbekiston Respublikasida gaz-kimyo sanoati rivoji va innovatsion texnologiyalarni joriy etish. Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti. Betlar: 25-40.
2. Islomov, R. (2020). O'zbekistonda kimyo sanoati va xalqaro hamkorlik. Nukus: Nukus Davlat Universiteti. Betlar: 50-65.
3. Jabborov, B. (2019). Muborak GQIZ: Xalqaro hamkorlik va texnologiya transferi. Tashkent: Kimyo va Energetika Instituti. Betlar: 102-115.
4. Mirodilov, S., & Xodjayeva, D. (2020). Kimyo sanoatida innovatsion texnologiyalar va xalqaro hamkorlik. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. Betlar: 71-85.
5. Sattarov, R. (2021). Sho'rtan GKM: Gaz-kimyo majmuasining xalqaro hamkorlikdagi o'rni. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti. Betlar: 90-105.
6. Xodjayeva, D., & Karimov, A. (2022). Gazni qayta ishslash sanoatida yangi texnologiyalar va uning eksport salohiyati. Tashkent: O'zbekiston Sanoat Inshootlari Akademiyasi. Betlar: 135-150.
7. Ismoilov, Z. (2020). O'zbekiston gaz-kimyo sanoatida xalqaro hamkorlik va o'zgarishlar. Nukus: Qarakalpog'iston Davlat Universiteti. Betlar: 32-47.

TEMURIYLAR OSMONIDA PORLAGAN YULDUZ YOHUD MIRZO ULUG'BEK*Abduvohidova Ruxshona Doniyorbek qizi,**Namangan davlat universiteti, Tarix yo'naliishi talabasi**Ilmiy rahbar: Madrahimov Zoxid Sharofovich**Namangan davlat universiteti, Tarix kafedrasи dotsenti, t.f.n.*

Anotatsiya: Ushbu maqolada davlatchiligimiz tarixida muhim ahamiyat kasb etgan Temuriylar sulolasining ko'zga ko'ringan vakili, hukmdor va olim Mirzo Ulug'bekning hayot yo'li, hukmronlik davri, ilm-fan oldidagi ijodi va unga qo'shgan hissasi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Mirzo Ulug'bek Tarag'ay, Amir Temur, Saroymulkxonim, Shohruh Mirzo, Gavharshodbegim. Abdulatif, Qorabog', Movarounnahr, Turkiston, Qandahor, Damashq jangi, rasadxona, madrasa, sekstant, "Zij".

Аннотация: В данной статье представлены сведения о жизненном пути, периоде правления, творчестве и вкладе в науку Мирзо Улугбека, видного представителя династии Тимуридов, правителя и ученого, имевшего большое значение в истории нашей государственности.

Ключевые слова: Мирзо Улугбек Тарагай, Амир Темур, Сараймулханым, Шахрух Мирзо, Гавхаришадбегим. Абдулатиф, Карабах, Моваруннахр, Туркестан, Кандагар, Битва за Дамаск, обсерватория, медресе, секстант, «Зидж».

Anotation: This article contains a prominent representative of the Timurid dynasty, the ruler and the rule of the ruling, the reign of science, and the contribution of the Ruler and Scientistry, which played an important role in the history of our state history.

Keywords: Mirzo Ulugbek Tarajay, Amir Temur, palace, Shahrukh Mirzo, Gavharshodbegim. Abdulatif, Karabakh, Movarounnahr, Turkistan, Kandahar, Observation, Observatory, Madrasa, Sextant, «Zij.»

Tarixdan bizga ma'lumki, Amir Temur 35 yil (1370-1405) davomida Temuriylar sultanatini boshqarib, yirik harbiy yurishlarni amalga oshirgan. Bu yurishlar natijasida sohibqiron ulkan sultanat barpo etishga muvaffaq bo'lган. Uning davlati tarkibiga Movarounnahr, Xorazm, Kaspiy atrofidagi viloyatlar, hozirgi Afg'oniston, Eron, Turkiya, Hindiston, Iroq, Janubiy Rossiya, Kavkaz va G'arbiy Osiyoning bir qator mamlakatlari kirgan. Amir Temur vafotidan so'ng uning vorislari ushbu ulkan sultanatning kattagina qismini o'z qo'llarida saqlab qolishga erishdilar. Temuriy hukmdorlar orasida Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida davlatchilik boshqaruvi o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi [1. – B. 67.].

Mirzo Ulug'bekning asl ismi Muhammad Tarag'ay bo'lib, u 1394-yil 22-martda Amir Temurning Yaqin Sharqqa besh yillik yurishlari vaqtida, Sultoniyah shahrida tavallud topgan. Dastlabki tarbiyani buvisi Saroymulkxonim va onasi Gavharshodbegimdan olgan Ulug'bek 4 yoshidan boshlab Qissaxon Xamza ibn Ali (Shayx Ozariy) tarbiyasida bo'ladi. Sohibqironning boshqa nabiralari qatori Ulug'bek ham Amir Temurning harbiy yurishlari va saroy tadbirlarida ishtirok etgan [2.–B. 67-68.]. Ulug'bekning onasi Gavharshod og'o Chig'atoy amirlaridan G'iyosiddin Tarxonning qizi edi. G'iyosiddinning yana ikkita qizi 1392-yili Umarshayxning o'g'illariga tur mushga chiqqan edi. Shohruh 1388-yiliyoq, ya'ni 10 yoshdaligida uylangan bo'lib, lekin u o'shanda Gavharshodga uylanganmi yoki boshqa xotiniga uylanganmi, bizga ma'lum emas. Shunday bo'lsa ham Gavharshod og'o keyinchalik Shohruhning hayotida uning boshqa xotinlariga nisbatan muhim o'r'in tutadi.

Ulug'bekning ilk bolalik yillari Qorabog' bilan bog'liq. Bu yer Temur davrigacha sharqda Arxon deb atalardi. XIV asr oxirgi choragida, Amir Temurning "besh yillik" yurishi davridan boshlab Qorabog' deb atala boshlaydi. Amir Temur odatda u yerda qish paytlarida dam olar edi. Ulug'bek tug'ilganidan keyin, Amir Temur ko'zi yorigan kelinchakni o'g'ruq bilan birga 1394-yilning may oyidayoq bu yerga keltiradi. O'sha yilning kuzida ular Sultoniyaga qaytadilar, qishda esa yana Amir Temurning oldiga keladilar. Undan tashqari Ulug'bek Saroymulkxonim bilan o'g'ruqda "yetti yillik" yurish davridagi 1399-1400, 1401-1402, 1403-1404- yillar qishlarini Qorabog'da o'tkazadi. Shahzodalar va xonimlar 1404-yili Samarqandga butunlay qaytib keladilar [3. – B. 3-4.].

Ulug’bek 10 yoshidan keyin asosan Samarqandda yashaydi. Amir Temur 1404-yili kuzida “7 yillik” yurishdan qaytib kelganidan umrining oxirigacha bo’lgan saroy hayotida Ulug’bek ham amirning boshqa nabiralari kabi faol ishtirok etadi. U Xitoy va Ispaniya elchilarini qabulining guvohi bo’ladi. Bu elchilarning qabul marosimida Amir Temur nabiralarining vazifasi elchilarning qo’lidan ular shohlarining yorliqlarini olib, Temurga eltib berish, so’ng ularning o’zini boshqarib, Amir Sohibqironning taxti yoniga kuzatib borish edi. O’sha yilning kuzida Amir Temur 9 yoshdan 17 yoshgacha bo’lgan besh nabirasini uylantiradi. Ular orasida 10 yashar Ulug’bek ham bor edi. Uning gaylig’i Muhammad Sultonning qizi O’gabegim edi.

1404-yil Sohibqiron tirikligidagi eng osuda yil bo’ldi. Bundan keyin tashvishli yillar boshlandi. Temuriylar saroyida xizmat qilgan tarixchi Fasix Havofiy Amir Temurdan keyin tirik qolgan uning farzand va nabiralarini sanab, ular 36 kishi ekanligini eslatadi. Ular orasida Shohruhni juda yuqori baholaydi [3. –B. 5.].

Amir Temur o’limi oldidan qilgan vasiyatiga ko’ra, Samarqand taxtiga o’sha vaqtida Qandahorda turgan nabirasi Pirmuhammad o’tirishi kerak edi. Sohibqiron dafn etilgandan so’ng, uning amir-u umarolari, jumladan Berdibek Sari Bug’a, Shayx Nuriddin, Shohmalik, Xoji Yusuf va boshqalar Qur’on ustida qasam ichib, buyuk sohibqironning vasiyatlariga sodiq qolishlarini, shahzodalar va amirlar o’rtasida muholifatga yo’l qo’ymasliklarini va u boshlagan Xitoy yurishini davom ettirish lozimligini ta’kidlaydilar. Biroq amirlar va shahzodalar bu qasamni unutib, hokimiyat uchun kurashni boshlab yuboradilar. Bundan tashqari valiahd Pirmuhammad Samarqandga yetib kelguniga qadar Amir Temurning o’limi haqidagi xabarni sir tutishga qaror qiladilar. Biroq bu mash’um xabar tezda tarqaladi. Natijada shahzodalar va amirlar o’rtasida munosabat tez o’zgaradi. 1405-yil 18-martida Xalil Sulton Mirzo Amir Temur vasiyatini buzib, Samarqandda hokimiyatni egallaydi. Ayni shu vaqtida Amir Temurning kichik o’g’li Shohruh Mirzo Xuroson taxtini egallaydi va uning Eron va Iroqdagagi hukmronlik davri boshlanadi. Bu vaqealar Xitoyga yurishni davom etishiga to’sqinlik qiladi. Butun lashkar amir va umarolar bilan birga Samarqandga yo’l oladi. Ulug’bek lashkarning amir Shohmalik boshqarayotgan o’ng qo’lida boradi. Bundan keyin amir Shohmalik to Ulug’bek voyaga yetguniga qadar, ya’ni 1411-yilgacha uning otalig’i va homiysi bo’lib qoladi. Ulug’bek Hirota kelishi bilan Xurosonning harbiy-siyosiy hayotida faol ishtirok eta boshlaydi. U 1406-yil boshidayoq o’z otabegi Shohmalik bilan birgalikda Balx va Shibirg’on atroflariga bostirib kirgan Xalil Sultonga qarshi jangda ishtirok etadi. 1406-yil sentabrda Shohruh Ulug’bekni Xurosonning Tus, Nishapur, Sabzavor, Xabushon, Abivard, Niso, Mashhad, Jarmug’on va Qalat shaharlarining hokimi etib tayinlagan. O’sha yilning qishini Ulug’bek Shohmalik bilan birga Astrobodda – Jurjon dengizining janubi-sharqida o’tkazadi. 1407-yil bahorida Shohruh Ulug’bekning mulkiga Astrobodni o’z ichiga olgan Mozandaron viloyatini ham qo’shib beradi.

Xalil Sultonning qilmishlari tufayli Shohruhni bezovta qilayotgan Movarounnahrdagi tashvishli holatga ham tez orada chek qo’yiladi. 1409-yil 30-martidagi Xalil Sulton Samarqand yaqinida, Amir Xudodod Xusayniy tomonidan hibsga olinadi. O’sha payt Shohruh katta lashkar bilan Ulug’bek va Shohmalik ishtirokida Amudaryo bo’yida tayyor bo’lib turgan edi. Xalil Sultonning ahvoli unga ayon bo’lgach, Shohmalik darhol daryodan o’tib, 1409-yil 13-mayida Ulug’bek bilan birga Samarqandga kirib boradi. Movarounnahrdagi harbiy siyosiy vaziyatni yumshatish bilan bog’liq masalalar tufayli Shohruh o’sha yilning oxirigacha Movarounnahrda qoldi. Ulug’bekni Movarounnahr va Turkiston hokimi, Shohmalikni esa uning homiysi va maslahatchisi etib tayinladi va o’zi 1409-yil Hirota qaytib ketdi. Shu paytdan boshlab Ulug’bek hukmdor sifatida to’liq nom bilan Abdulfath Muhammad Tarag’ay Ulug’bek deb ataladi [4. – B. 10-12.].

Mirzo Ulug’bek garchi Movarounnahr va Turkistonning hokimi deb e’lon qilinsa-da, aslida uning hokimiysi chegaralari dastavval faqat Samarqand, Buxoro, Nasaf viloyatlari bilangina cheklanardi. Chunki Shohruh tomonidan Farg’onadan to O’zgangacha – Amirak Ahmad, Hisori Shodmon esa Muhammad Jahongir ixtiyoriga berilgan edi. Turkiston Shayx Nuriddinning tasarrufida edi. O’sha vaqtida u na Ulug’bek va na Shohruhni tan olar edi. Shuning uchun ham mamlakat notinch edi.

Shayx Nuriddin Turkiston bilan qanoatlanmaydi. 1410-yil 20-aprelda Samarqand yaqinida Qizilravot mavzeyida Shayx Nuriddin boshchiligidagi isyonkor ittifoqchilar bilan Mirzo Ulug’bek qo’shinlari o’rtasida jang bo’ladi. Jangda Ulug’bek mag’lubiyatga uchrab, Kalifga tomon chekinadi. Shohruh Samarqandga yetib kelib, Shayx Nuriddin isyonini bostiradi. 1412-yildan boshlab

Movarounnahr va Turkistonni to'liq boshqarish 18 yashar Mirzo Ulug'bek qo'liga o'tadi. 1413-yilda Shohruh tomonidan Xorazm Oltin O'rda xonlari tasarrufidan qaytarib olingach, Ulug'bek davlatining g'arbiy va janubiy chegaralarining xavfsizligi barqarorlashgan bo'lsa-da, ammo uning shimoli-g'arbiy va shimoli-sharqiylari hali ham havotirli edi. 1414-yil Farg'ona va Qoshg'arni egallaydi [5. – B. 133-134.]. 1419-yili Ulug'bek Dasht o'zbeklariga qarshi yurish qiladi. Shahzoda Baroqxon (Amir Temur bilan urush qilgan O'ruxxonning nabirasi) Ulug'bek oldiga yordan so'rab keladi. Ulug'bek unga yetarlicha askar berib, jo'natib yuboradi. O'zi esa Samarqandda o'z dorug'asini qoldirib, asosiy harbiy kuchlari bilan uning ortidan yo'lga tushadi. Lashkar Samarqanddan avgustning oxirlarida chiqadi. 5-sentabr kuni Chinoz yaqinida Sirdaryodan o'tadi va Toshkentdan uzoq bo'limgan Burloq mavzesiga yetganida o'zbek qo'shinlari tarqaganligi haqida xabar keladi. Shu sababli yurishni to'xtatib, 22-oktabr kuni poytaxtga qaytib keladi. Haqiqatdan ham Baroqxon Ulug'bekdan olgan yordamchi kuchning o'zi bilanoq Movarounnahr asosiy kuchlarining ishtirosiz o'z maqsadiga erishadi. 1423-yili Baroqning Muhammadjonni yengani va O'zbek ulusininig xoni bo'lgani haqidagi xabar Shohruhga ham yetadi. Biroq uzil-kesil g'alabaga erishgani haqidagi xabar Ulug'bekka 1425-yil boshida yetib keladi.

Baroqxonning Oltin O'rda taxtiga chiqishi Ulug'bek olib borgan siyosatning katta bir g'alabasi edi. Chunki Baroqxon Ulug'bek tayinlagan xon bo'lib, uning izmida edi. Bundan keyin Ulug'bek Dasht o'zbeklari tomonidan huruj bo'lmasligiga ishonch hosil qilib, bor e'tiborini Mo'g'ulistonga qaratadi [3. – B. 10.].

Ulug'bek otasining rizosi bilan 1425-yilning erta bahorida Mo'g'ulistondan ustiga yurish boshlaydi. Issiqliko'l yaqinida sodir bo'lgan to'qnashuvda Ulug'bek mo'g'ullar ustidan g'alaba qozonadi va mahalliy muholifatchi kuchlarni bartaraf etib, mamlakat sharqiy chegaralarini mustahkamlaydi. Qo'lga kiritilgan o'ljalor orasida ikki bo'lak nefrit toshi ham bor edi. Keyinchalik bu nefritdan Amir Temur maqbarasi uchun qabrtoshi yasattirildi. Mo'g'ulistonda bo'lgan bu urushda Ulug'bek qozongan g'alabaning nishoni tarzida Jizzax yaqinida Ilono'tti darasi ichida hijriy 828-yil (1425-yil)da Ulug'bek tomonidan qoyatoshga "Zafarnoma" yozdiriladi. Bu o'ziga xos "Zafarnoma" hozirgi kungacha saqlangan. [5. – B. 134.]. 1427-yilda u Dashti Qipchoqqa harbiy yurish qildi va mag'lubiyatga uchradi. Bu mag'lubiyat Ulug'bekka shunday ta'sir qildiki, u Shohrux Mirzoning o'limiga qadar shaxsan o'zi bosh bo'lgan yurishlarni amalga oshirmadi. Mirzo Ulug'bek davridagi o'zbek xalqi davlatchiligi tarixi boshqaruv tizimining yanada takomillashuvi, ichki va tashqi siyosatdagi barqarorlik, pul va soliq islohotlari o'tkazilishi va eng muhimi, fan va madaniyat ravnaqi bilan izohlanadi. Davlatshoh Samarqandiying yozishicha, Ulug'bek davrida Movarounnahrda soliqlar miqdori ancha kamaytirildi. Undan tashqari, 1428-yilda Ulug'bek tomonidan amalga oshirilgan pul islohoti Movarounnahrda pul muomalasi barqarorlashuvida, savdo-sotiqda, umuman, iqtisodiy hayotda muhim ahamiyatga ega bo'ldi [1. – B. 69.].

Shohruhning tiriklik paytida uning xotini, malika Gavharshodbegim davlat ishlariga katta ta'sir o'tkazar edi. Hirotdagi valiahdlik masalasida u shohruhning 3-o'gli Boysung'ur Mirzoning o'g'li va sevikli nabirasi Alouddavлага moyil edi. Shohruhning o'zi bu haqda ochiq aytmagan bo'lsa-da, u 5-o'g'li Jo'kini valiahd deb hisoblar edi. Ulug'bekning katta o'g'li Abdullatifni ham hisobdan chiqarib bo'lmas edi, chunki u doim Hirotda turib, bu yerda otasining manfaatini himoya qilar edi. Biroq 1444-yilda Jo'ki vafot etadi va Shohruxning vafoti arafasida o'g'illaridan faqat Ulug'bek tirik qoladi. Shohruhning vafoti 1447-yil 12-martda ya'ni isyon ko'targan nabirasi Sulton Muhammadga qarshi o'z mulkining g'arbiy qismi tomon yurish qilayotgan paytida yuz beradi. O'sha kezlarda Gavharshodbegim bilan Abdullatif u bilan birga edilar. Alouddavla esa poytaxtda qoldirilgan edi. Gavharshodbegimning maslahati bilan Abdullatif lashkarga boshgchilik qiladi. Shu bilan birga, Gavharshodbegim sodir bo'lgan voqeа haqida Alouddavлага maxfiy xabar yuboradi. Ulug'bek bu voqeа haqida eshitishi bilanoq lashkar to'plab, Amudaryo uzra yo'l oladi va daryordan o'tib, Balxni ishg'ol qiladi. Balx va uning atrofidagi yerlar hokimi Jo'kining o'g'li Abu Bakrni hibsga olib, Samarqandga yuboriladi va qatl etiladi. Abdullatif butun Shohruh lashkarining amiri bo'lganidan so'ng o'zining lashkarboshilari va qarindoshlari Abulqosim Bobur va boshqalarga qarshi kurashishga majbur bo'lgan edi. Chunki ular lashkardan ajralib, uning o'g'ruqini talagan va Xurosonga qochgan edilar. Bu isyonda Abdullatif buvisi Gavharshodbegimdan shubhalanib, uni qamoqqa oladi. O'zi esa lashkar bilan Nishopurga keladi. Bundan xabar topgan Alouddavla Shohruh xazinasini askarlariga ularshib, Nishopurga yo'l oladi. 1447-yil aprel oyi oxirlarida Alouddavla Abdullatifning qo'shinlariga

hujum qilib, uni yengadi va Abdulatifni Ixtiyoriddin qal’asiga qamab qo’yadi. O’zi esa Ulug’bekka qarshi yurish qiladi [4. – B. 15-16.]. Alouddavla va Mirzo Ulug’bek o’rtasida sulk tuziladi. Unga ko’ra, Ulug’bek Hirot va Xurosonga bo’lgan da’vosidan voz kechadi, Abdulatif esa ozod qilinadi. Biroq ko’p o’tmay sulk buziladi. 1448-yilning bahorida Ulug’bek Abdulatifning 90 ming kishilik birlashgan qo’shini Hirotga yurish qiladi. Tarnob yaqinida bo’lgan jangda Alouddavla qo’shini tormor etilib, Hirot qo’lga kiritiladi. Ulug’bek Xurosonda Abdulatifni qoldirib, o’zi esa Samarqandga qaytadi. Chunki Movarounnahrda Ulug’bekka qarshi isyon boshlangan edi.

Abdulatif, garchi bobosi Shohruxning Hirotdagagi taxtiga o’tirishga tuyassar bo’lsa-da, ammo unda otasiga nisbatan adovat paydo bo’ladi. G’alab to’g’risida tevarak-atrofga yuborilgan fatxnomalarda Abdulatifning nomi inisi Abdulazizdan keyin tilga olingani, Ixtiyoriddin qal’asidagi xazina Ulug’bek tomonidan olib qo’ylgani o’ta shuhratparast hamda mol-dunyoga o’ch Abdulatif uchun bahona bo’ldi. U otasining dushmanlari bilan yashirinchcha ittifoq tuzib, zimdan Ulug’bekka qarshi harakat boshlaydi. Abdulatif Hirotda 15 kun hokimlik qiladi. Abulqosim Bobur qo’shinining shaharga yaqinlashib kelayotganidan xabar topib poytaxtni jangsiz bo’shatib, Movarounnahr tomon qochadi. Ulug’bek farmoni bilan Balxga noib qilib tayinlangach, viloyatda “tamg’a” solig’ini bekor qilin, savdogarlarni o’z tarafiga og’dirib oladi. Otasidan norozi bo’lgan amirlarni atrofiga to’playdi. Abdulatif o’z otasiga qarshi ochiqdan ochiq dushmanlik yo’liga o’tadi [5. – B. 135.].

Rivoyatlarga qaraganda, Mirzo Ulug’bek eski kitoblarni varaqlab o’tirib, g’aroyib bir hikoyaga ko’zi tushadi. Kunlardan bir kuni dong’i olamga ketgan hind podshosi o’zining eng yaqin mahramlari bilan ovga chiqqanmish. Mahramlari orasida yolg’iz o’g’li ham bor ekan. Podsho yelkasiga suyukli qora burgutini qo’ndirib, daryo yoqalab ot chotirib borarkan. Orqadan amirlar va navkarlar kelarkan. Podsho uzoqlashib ketayotganini ko’rgan navkarlardan biri: “Podshohi olam, to’xtang, bu to’qaylar xatarli, qamishzorlarda yo’lbars bor”, deb qichqiribdi. Lekin podsho uning gapiga qulq solmay oldinga intilibdi. Arg’umog’iga achchiq qamchi bosib, to’qayzorga ot solibdi. Banogoh ot tuyoqlari tagidan ikkita tillarang tulki chiqib qoldi. Podsho arg’umog’ining boshini qo’yib, quvib borarkan, tulkilari to’rttaga, keyin sakkiztaga aylanib borgan emish. Shunda podsho darg’azab bo’lib, qanot qoqib talpingan suyukli burgutini qo’yib yuboribdi. Lekin osmonga chiqqan burguti ot oyoqlari ostidagi tulkilarga emas, uning o’ziga hamla qilibdi. Podsho jon achchig’ida xanjarini burgutiga o’qtalibdi. Ammo burgut chap berib, uning ko’zini o’yib olibdi-yu, keyin chap ko’ziga chang solibdi. Podsho dodlab, bir ko’zi bilan qarasa, qora burgut burgut emas, qora libos kiyib, burgut qiyofasiga kirgan o’z farzandi bo’lib chiqdi... [6. – B. 55.]. Mirzo Ulug’bekning bu o’qigan hikoyasi tez-tez tushlariga ham kirib chiqadigan bo’ldi. Keyinroq esa, Ulug’bek Abdulatifning asl maqsadini payqadi.

Davlatning yaxlitligini saqlab qolmoq uchun Ulug’bekda o’zining isyonkor va makkor o’g’liga qarshi yurish qilishdan boshqa iloji qolmadidi. Ammo mamlakatda siyosiy vaziyat keskinlashib, Ulug’bekning ahvolini yanada mushkullashtiradi. Hirotdan Samarqandga qaytar ekan, Ulug’bek old tomonidan Dashti Qipchoq ko’chmanchilarining hujumiga duchor bo’ladi. Ular o’shanda Toshkent, Shohruhiya, Samarqand va Buxoro tevaragidagi qishloqlarni talab, vayron qilgan edilar. Ikki tarafdan kelgan dushmanlar bilan bo’lgan to’qnashuvdan Ulug’bek qo’shini shikast topadi. Shu vaqtida Samarqandda vaqtinchalik noib qilib qoldirilgan kichik o’g’li Abdulazizga qarshi Samarqand amirlarining noroziligi kuchayib, Ulug’bek uni bartaraf qilishga majbur bo’ladi. Otasining qiyin ahvoldidan Abdulatif foydalanadi. U bosh ko’taradi va Amudaryordan kechib o’tib, Termiz, Shahrisabz va Xuzorni osongina zabit etadi. So’ngra Samarqandga yuradi. 1449-yil oktabrda Damashq qishlog’i yaqinida qattiq jang bo’ladi. Bu jangda Ulug’bek yengiladi, Samarqand amiri Mironshoh Qavchin Ulug’bekni shahar ichkarisiga kiritmaydi. U Shohruhiyaga ham kirolmaydi va Abdulatifga taslim bo’lishga majbur bo’ladi. Shahar qozisi Shamsiddin Muhammad Miskinning qarshiligiga qaramay, Abdulatif jaholatparast ulamolarning yashirin fatvosini chiqartirib, otasining o’ldirilishini uyshtiradi. 1449-yil 27-oktabrda Mirzo Ulug’bek 55 yoshida fojiali halok bo’ladi [5. – B. 135.].

Mirzo Ulug’bek boshqa Temuriy shahzodalarga qaraganda, bobosining bunyodkorlik, homiylik ishlarini davom ettirib, Samarqandning, umuman, Temuriylar davlatining shon-shuhratini yuksak cho’qqlarga ko’targan shaxs edi. Uning hukmronligi davrida Samarqandda 2 ta madrasa qurildi. Ularda diniy bilimlar qatori dunyoviy fanlardan ham saboq berilgan. Boshqa mashhur olimlar bilan birga o’zi ham haftada bir marotaba madrasalarda yoshlarga ta’lim bergen. Keyin Buxoro va G’ijduvonda ham ham madrasalar qurdirgan. Ulug’bek ko’p qirrali iste’dod sohibi edi. U ayniqsa,

adabiyot, tarix, matematika, astronomiya sohalariga qiziqqan. Uning eng buyuk ishlaridan biri – Samarqandda Akademiya tashkil etganligidir. U yerda 200 dan ortiq olim Ulug’bek boshchiligidagi fanning turli sohalari bo'yicha izlanishlar olib borgan. Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid Koshoniy, Ali Qushchi, Mavlono Havofiy kabi olimlarning aniq fanlar sohasidagi tadqiqotlari va ilmiy xulosalari salmoqli bo'lgan. Ular Xorazm Ma'mun akademiyasi an'analarini muvaffaqiyatli davom ettirganlar [7. – B. 186.]. 1420-yilda ochilgan Samarqand madrasasi 2 qavatlari, 50 hujrali bo'lgan. Har bir hujra 3 xonaga: qaznoq (omborxonasi), yotoqxona va darsxonalariga bo'lingan. Madrasada Shamsiddin Muhammad Xavofiy yetakchi mudarris bo'lgan. Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid Koshoniy, Mirzo Ulug’bek va uning shogirdi Ali Qushchilar turli fanlardan dars o'tganlar. Madrasa ochilgan kuni 1-darsni Shamsiddin Muhammad Xavofiy o'qigan, darsda tolibi ilmlardan 90 nafqari qatnashgan. Ilmi hay'at (astronomiya)dan darsni Qozizoda Rumiy bergen. Madrasada kamida 15-16 yil tahsil olib, uning dasturi bo'yicha fanlarni to'la o'zlashtirgan va imtihonlarda o'z bilimini namoyish qila olgan tolibi ilmlarga sanad (shahodatnomasi) yozib berilgan [5. – B. 147.].

Ulug’bek madrasasi nafaqat madrasai oliya sifatida ta'lim maskani, balki ilmiy tadqiqotlar, xususan, Yer kurarsi, sayyoralar, yulduzlar holatini kuzatishga bag'ishlangan ishlarni tashkil etish markazi – rasadxonaga ham ega bo'lgani ma'lum. Rasadxona 1424-1429-yillarda Samarqand yaqinidagi Obirahmat anhori bo'yida qurilgan. Uning balandligi 31 metr bo'lgan. G'iyosiddin Jamshid boshchiligidagi rasadxonaning asosiy o'lchov asbob-uskunasi - sekstant o'rnatilgan. Samarqand sekstanti Sharqda ma'lum bo'lgan sekstantlarning eng kattasi hisoblangan. Ulug’bek rasadxonasi qoshida zamonasining boy kutubxonasi ham tashkil etilgan. Kutubxonada fanning deyarli barcha sohasiga tegishli qariyb 15 ming kitob saqlangan. Rasadxonada Ulug’bek bilan birga Qozizoda Rumiy (“Aflatuni zamon”), G'iyosiddin Jamshid Koshoniy, Ali Qushchi (“o'z davrining Ptolomeyi”) va ko'pgina olimlar ilmiy kuzatishlar olib borgan. Rasadxonada olib borilgan kuzatish va tadqiqotlar tufayli 1018 ta qo'zg'almas yulduzlarning o'rni va holati aniqlanib, ularning astronomik jadvali tuzildi. Ulug’bekning shoh asari “Zij” bo'lib, u 2 qismdan: kenh muqaddima va 1018 ta qo'zg'almas yulduzlarning o'rni va holatiga bag'ishlangan jadvallardan iborat. Ulug’bekning yil hisobini hozirgi hisob kitoblarga solishtiradigan bo'lsak, u bor yo'g'i 1 minut-u 2 sekundga farq qiladi. Bu XV asr uchun g'oyat yuksak aniqlik edi.

Shuningdek, Mirzo Ulug’bek “Tarixi arba’ ulus” nomli tarixiy asar hamda musiqa ilmiga bag'ishlangan 5 ta risola ham yozgan. Uning astronomiya maktabi o'z davrining o'ziga xos akademiyasi edi. Mashhur fransuz faylasufi, yozuvchi va tarixchi olim Volter (1694-1778): “Ulug’bek Samarqandda bo'lib akademiyaga asos soldi. Yer sharini o'lchashni buyurdi va astronomiyaga oid jadvallarni tuzishda ishtirok etdi”, deb yozgan edi. Ulug’bekning astronomiya maktabi o'rta asr musulmon Sharqi astronomiyasining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi [5. – B. 148-149.].

Xulosa qilib shuni ayta olamanki, darhaqiqat, Mirzo Ulug’bek o'rta asrlarning ham shohi, ham qomusiy olimidir. Amir Temurdan keyin Buyuk Temuriylar davlatini ijtimoiy-iqtisodiy va madaniyma'rifiy tomondan yuksaltira oldi. Mirzo Ulug’bek ilm-fanga ishtiyogi juda kuchli bo'lganligi uchun ham mamlakat aholisi ilmli, savodli bo'lishini xoxladidi. Jang-u jadallarga unchalik xushi yo'q edi, lekin hukmdor bo'lgani uchun davlat xavsizligiga befarq ham qarab tura olmas edi. Hozirgi kunda butun dunyo Mirzo Ulug’bek nomini hurmat ila yodga oladi. Uning bugungi kun uchun yaratib ketgan ishlari oldida bosh egamiz.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Salixov Sh.I., Gulyamov S.S. Mirzo Ulug’bekning jahon ilm-fani rivojiga qo'shgan hissasi. – Toshkent-Samarqand, O'zb.Res.FA, Fan nashriyoti, 2009.
2. Muhammadjonov A. R. Temur va Temuriylar saltanati. – T.: Qomuslar bosh tahririysi, 1994.
3. Ahmedov A. Ulug’bek Muhammad Tarag'ay. – T.:O'zbekiston, 2011.
4. Pasilov B. Ulug’bek. – T.: Abu Matbuot-Konsalt, 2011.
5. Muhammadjonov A. O'zbekiston tarixi: IV asrdan XV asr boshlarigacha. – T.: Sharq, 2017.
6. Yoqubov Odil. Ulug’bek xazinasi. – T.: Ilm-ziyozakovat, 2019.
7. Asqarov A. va boshqalar. O'zbekiston tarixi (IX jild). – T.: O'zbekiston, 2023.

O'ZBEKISTONNINIG MUSTAQILLIK YILLARIDA XORIJIY DAVLATLAR BILAN OZIQ-OVQAT SANOATINING RIVOJLANISHI

*Esanova Nilufar,
katta o'qituvchi, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Qarshi*

Annotatsiya. O'zbekiston Respublikasida yangi oziq-ovqat sanoat tarmoqlarining yuzaga kelishi, rivojlanishi va mazkur jarayondagi imkoniyatlar, oziq-ovqat sanoati sohasi bo'yicha horijiy mamlakatlar bilan aloqalar ilmiy manbalar asosida tarixiy tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Sanoat, oziq-ovqat sanoati, zavod, un sanoati, vino sanoati, yog'sanoati, yengil sanoat, sabzavot konserva sanoati, kadrlar siyosati .

РАЗВИТИЕ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ И СОТРУДНИЧЕСТВО С ЗАРУБЕЖНЫМИ СТРАНАМИ

*Эсанова Нулуфар,
старший преподаватель, Университет экономики и педагогики, Карши*

Аннотация. Исторически на основе научных источников анализируются возникновение и развитие новых пищевых производств в Республике Узбекистан и возможности в этом процессе, отношения с зарубежными странами в области пищевой промышленности.

Ключевые слова: Промышленность, пищевая промышленность, заводы, мукомольная промышленность, винодельческая промышленность, нефтяная промышленность, легкая промышленность, овощеконсервная промышленность, кадровая политика.

THE DEVELOPMENT OF THE FOOD INDUSTRY IN UZBEKISTAN DURING ITS YEARS OF INDEPENDENCE AND ITS RELATIONS WITH FOREIGN COUNTRIES CAN BE SUMMARIZED AS FOLLOWS

*Esanova Nilufar,
Senior Lecturer, University of Economics and Pedagogy, Qarshi*

Abstract. The emergence and development of new food industries in the Republic of Uzbekistan and opportunities in this process, relations with foreign countries in the field of food industry are analyzed historically based on scientific sources.

Key words: Industry, food industry, factory, flour industry, wine industry, oil industry, light industry, vegetable canning industry, personnel policy.

Jahon iqtisodiyotida insoniyat taraqqiyotining avvalgi davrlariga xos bo'limgan yangi tendensiyalar vujudga keldi. Iqtisodiyotning ma'no-mazmuni va xarakteri tubdan o'zgardi. Jahon mamlakatlarida sanoatning jadal taraqqiy etishi, davlatlararo iqtisodiy munosabatlar sohasining chuqurlashishi, xalqaro miqyosida faoliyat ko'rsatuvchi BMTning Sanoatni rivojlantirish tashkiloti faoliyati va soha tarixiga qiziqish ortib, u bilan bo'lgan tadqiqotlar keng ko'lamda olib borilmoqda. Jahonning turli ilmiy-tadqiqot markazlari, ixtisoslashgan ilmiy muassasa hamda oliv o'quv yurtlarida sanoat sohasi tarixi va uning yangi tarmoqlari bo'yicha keng ko'lamdag'i ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar tufayli mamlakat sanoat ishlab chiqarish tizimida tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilib, zamnaviy sanoat taraqqiyoti uchun keng yo'l ochildi. Iqtisodiy hayotni demokratlashtirish, soha siyosiy tizimida tub o'zgarishlar yasash, boshqarishda yangi shaklni tashkil etish va sanoat korxonalariga egalik qilishning turli shakllarini tarkib toptirish, soha kadrlarini tayyorlash borasida qator muvaffaqiyatlar qo'lga kiritilmoqda [1, 24].

Oziq-ovqat xavfsizligi butun dunyo mamlakatlari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. BMT ham bugun oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va ularni taqsimlash bo'yicha yondashuvni mutlaqo o'zgartirish vaqtiga kelganini ta'kidlayapti. Zero, ideal holatda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari barchani oziq-ovqat bilan to'liq ta'minlash va odamlar uchun

risoladagidek daromad manbaini yaratib berishga qodir. Boz ustiga, bunday holatda inson manfaatlari yo‘lida ham qishloq xo‘jaligi rivojlanadi, ham atrof muhitni muhofaza qilish bo‘yicha chora-tadbirlar ijrosi ta’minlanadi [2, 5].

Nega bashariyat farovonligi va kelajagiga xizmat qiluvchi mana shunday nufuzli tashkilot bu boradagi nuqtayi nazarlarni yangilash g‘oyasini ilgari surmoqda? Sababi, bugungi kunda tabiatga befarq munosabat, unga antropogen ta’sirning kuchayib borishi, isrofgarchilik, ilg‘or va rivojlanayotgan davlatlar o‘rtasidagi oziq-ovqat balansi bo‘yicha farqning o‘savotgani, iqlim o‘zgarishlari qator salbiy omillarni keltirib chiqaryapti. Noz-ne’matlarimiz, chuchuk suv, ummonlar, o‘rmonlar, biologik xilma-xillik keskin sur’atlarda kamayib bormoqda, yer unumdarligi pasayib, tuproq degradatsiyaga uchrayotir.

BMT ma’lumotlariga ko‘ra, hozirda jahon aholisining 815 million nafari och qolayotgan bo‘lsa, 2050-yilga borib bu soni 2 mlrd. kishiga yetadi. Ularning 12,9 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarda yashaydi. Besh yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘rtasidagi o‘limning 45 foizi aynan to‘yib ovqat yemaslik natijasida kelib chiqayotir. Hozirgi kunda har yili 3,1 nafar bola aynan shu sabab hayotdan ko‘z yammoqda [3, 104].

Qolaversa, sayyoramizdagi har to‘rt bolaning bir nafari o‘z yoshiga nisbatan o‘smany qolgani aniqlangan. Maktab yoshidagi 66 mln. o‘g‘il-qiz darslarga beixtiyor och keladi. Shulardan 23 mln.i Afrikada istiqomat qiladi. Masalaning yana bir tomoni. Qishloq xo‘jaligi dunyodagi eng katta ish beruvchi tarmoqdir. Bugun kurrai zamin aholisining 40 foizi aynan shu soha orqali tirikchilik qiladi. Bu qashshoq qishloqlardagi oilalar uchun daromad keltiruvchi va bandlikni ta’minlovchi asosiy manbadir.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda asosan lalmi bo‘lgan besh million kichik fermer xo‘jaliklari oziq-ovqatning 80 foizini yetkazib beradi. Shunday ekan, mazkur jabhaga investitsiya kiritish aholi qatlamlari oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash qatorida mahalliy va tashqi bozorlarga mahsulot yetkazib berish bo‘yicha mamlakat imkoniyatlarini oshiradi. Yaqinda BMT tomonidan sohada yana bir tashabbusga qo‘l urildi[4, 45].

Ya’ni oziq-ovqat mahsulotlari isrofgarchiliga qarshi kurashish bo‘yicha global kampaniya e’lon qilindi. Bu ham aynan oziq-ovqat xavfsizligiga xizmat qiladi. Ushbu tuzilmaning Atrof-muhit bo‘yicha tashkiloti(YUNEP) ma’lumotiga ko‘ra, har yili dunyo bo‘yicha 1,3 mlrd. tonna oziq-ovqat mahsulotlari tashlab yuborilar ekan.(Bunga qaysidir ma’noda o‘zimiz ham to‘ylarimizdagi isrofgarchiliklar orqali “hissa“ qo‘shmoqdamiz. Bejizga bunday tadbirlarni ixchamlashtirish bo‘yicha ishlar olib borilmayapti). Ne’matlarining bunday isrof qilinishidek mantiqsiz holatga barham berish uchun birinchi navbatda ularni saqlash sharoitlarini o‘zgartirish taklif etilyapti.

“Qotgan non? Bir yog‘i chirigan olma? Mog‘or bosgan pishloq? Bunday mahsulotlar bilan nima qilish kerak? Ko‘pchilik ularni tashlab yuboradi. Dunyodagi oziq-ovqat mahsulotlarining uchdan bir qismi chiqindi idishlarida yotadi. Jahon iqtisodiyoti bundan har yili qariyb trillion dollar zarar ko‘ryapti”, - deb yozadi BMT [5, 12].

Tashkilot ma’lumotiga ko‘ra, dunyoda har yili qariyb to‘rt mlrd. tonna oziq-ovqat ishlab chiqariladi, agar ulardan oqilona foydalanilib, taqsimlansa,bu aslida sayyora ahlining barchasiga yetgan bo‘lardi. Yuqoridaq kabi omillar tufayli dunyo oziq-ovqat bozorlarida narx-navo ko‘tarilib boryapti. Oxirgi o‘n yilda kuzatilgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi esa mazkur muammoning keskin tus olishiga sabab bo‘ldi. Uning asoratlari hamon sezilyapti. Zero, oziq-ovqat xavfsizligi mamlakat aholisini shu kabi asosiy mahsulotlar bilan o‘zini o‘zi, mustaqil ta’minalashga qodirligini ifodalaydi. Shuningdek, oziq-ovqat importiga o‘ta bog‘liqlikdan xalos bo‘lganligini anglatadi. Davlatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash siyosati qachon samara beradi? Qachonki, mahsulot ishlab chiqarish va import qilish darajalari oqilona uyg‘unlashtirilsa, bu borada aholi uchun kafolatlangan imkoniyatlar yaratilsa, xalqaro pragmatik hamkorlik aloqalarni rivojlantirilsa, davriy ravishda yangilanib turadigan oziq-ovqat zaxirasini yaratishga ham qaratilgan bo‘lsa.

Shunday ekan, oziq-ovqat xavfsizligini masalasi barcha davlatlar qatori O‘zbekistonning ham mustaqilligi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorligini ta’minalash garovi hisoblanadi. Yurtimizda bu muammo hamon o‘z dolzarbigini yo‘qotmagan. Zero, ayni paytda oziq-ovqat mahcylotlapiga bo‘lgan talab oshyapti, aholi coni o‘sishi asnosida jon boshiga icte’mol ko‘paymoqda. Binobarin, so‘nggi uch yilda mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifatini va eksport salohiyatini oshirishga bo‘lgan yondashuv mutlaqo o‘zgardi,

davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirildi.

Ma’lumki, O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning yetakchi tarmog‘i sanaladi. Unda 3,6 million kishi, ya’ni iqtisodiyotda band bo‘lganlarning 27 foizi ishlaydi. YAIMda tarmoq ulushi 32 foizga teng bo‘lsa, sohada foydalaniladigan yer maydonlari respublika hududining 45 foizini egallaydi [6, 2].

Hozirgi vaqtida 180 dan ortiq turdagи qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari 80 dan ortiq mamlakatga eksport qilinayotgani diqqatga sazovor albatta. Yana bir e’tiborli jihat, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning klaster usuli yo‘lga qo‘yilib, u keng quloch yozyapti. Ular bilan qishloq xo‘jaligi yer maydonlarining 62 foizi paxta-to‘qimachilikda, 8 foizi chorvachilikda va 7,5 foizi meva-sabzavotchilikda qamrab olingani buning tasdig‘idir. Shular qatorida sohani yanada rivojlantirish, fermerlar daromadini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash hamda tabiiy resurslardan barqaror foydalanish borasida foydalanilmayotgan bir qator imkoniyatlar mavjud. Davlat rahbarining 2018-yil 16-yanvardagi “Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni va ayni paytda ishlab chiqilayotgan O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020—2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi shu nuqtai-nazardan dolzarbdir [7, 4].

Aslida oziq-ovqat xavfsizligi juda keng tushuncha bo‘lib, u, eng avvalo, aholi ehtiyojini fiziologik me’yorlarga mos ravishda iste’mol tovarlari bilan ta’minalashni nazarda tutadi. Biroq keyingi paytda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o’sishi aholi soni va ehtiyojlarining ortishidan orqada qolayotgani, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi hamda qayta ishlash sanoati rivoji uchun yetarli sharoit mavjud bo‘lmagan mamlakatlarda muammo tobora chuqurlashib borayotgani tashvishlanarlidir. Shunday murakkab bir paytda O‘zbekistonimizda aholining muhim kundalik iste’mol tovarlariga bo‘lgan talabi to’liq qondirilibgina qolmay, katta miqdorda eksport qilinayotgani tahsinga loyiq. Gap shundaki, yurtimizda jon boshiga qariyb 300 kilogramm sabzavot, 75 kilogramm kartoshka va 44 kilogramm uzum to‘g‘ri kelmoqda. Bu optimal, ya’ni maqbul deb hisoblanadigan iste’mol me’yoridan uch barobar ko‘pdir. Qolaversa, 180 turdan ortiq sarxil meva-sabzavot va ularni qayta ishlash asosida tayyorlangan mahsulotlar dunyoning 80 ta davlatiga eksport qilinayotgani kimni quvontirmaydi deysiz??!

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti bosh direktori Joze Gratsianu da Silva 2014 yilning 5-6 iyun kunlari Toshkent shahrida o’tkazilgan “O‘zbekistonda oziq-ovqat dasturini amalga oshirishning muhim zaxiralari” mavzuidagi xalqaro -konferensiyada so’zlagan nutqida mamlakatimizda mazkur jabhada qo‘lga kiritilayotgan yutuqlarga alohida to’xtolib, jumladan, shunday degan edi: “2000 yillarning boshlaridan bugungi kungacha O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi sohasida hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash borasida ulkan taraqqiyotga erishdi. 2000 yildan boshlab qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi va hosildorlik muttasil oshirib kelinayotgani bunday hayratlanarli yutuqlarning bosh omilidir” [8, 4].

Shu bilan birga, O‘zbekiston sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutining seleksioner olimlari tomonidan har xil muddatda pishadigan hosildor, yuqori sifatli hamda kasalliklarga chidamli sabzavot ekinlarining 41, polizning 5 ta, kartoshkaning 6 ta yangi navi yaratildi[9, 65].

Keyingi yillarda dunyo bo‘yicha iqlim o‘zgarishi oqibatida yuzaga kelayotgan ekologik omillar seleksionerlar oldiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Ilmiy asoslangan, taj-ribada sinalgan, suv tanqisligi va qurg‘oqchil sharoitga moslashuvchan, turli -zararkunandayu kasalliklarga chidamli, yuqori hosilli navlarni ko‘paytirishni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Shu ma’noda, o’tgan yili akademik M. Mirzayev nomidagi bog’dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutida Markaziy Osiyoda yagona bo‘lgan “Invitro” laboratoriysi ishga tushirilgach, viruslardan xoli bo‘lgan meva va uzum ko‘chatlarini yetishtirish imkoniyati yuzaga keldi. Umuman olganda, urug‘chilik tizimini rivojlantirish, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash bo‘yicha ilg‘or texnologiyalar joriy etilishi hisobiga oxirgi 5 yilda qayta ishlangan mahsulotlar hajmi qariyb 5 marotaba oshdi. Ma’lumki, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini ta’minlovchi asosiy tarmoqlardan yana biri chorvachilikdir[10, 53].

Chunki ishlab chiqarilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 42,2 foizi mazkur soha hissasiga to‘g‘ri keladi. Ushbu jabhada erkin bozor mexanizmlari shakllantirilgani, ko‘plab

imtiyozlar taqdim etilayotgani natijasida chorva mollari soni hamda go'sht va sut mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi muttasil ravishda ortib borayapti. 2015 yil yakunlariga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda qoramollar soni 1991 yildagiga nisbatan 2,4 barobarga, jumladan, sigirlar soni 2 barobar, parrandalar soni 1,8 marta ko'paygani shunday deyishimizga to'la asos bo'la oladi [11, 102].

Zotan, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Xalqimiz salomatligini mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, biz uchun hayotiy muhim masaladir. Takror aytaman, tinchlik va sog'likni ta'minlasak, qolgan hamma narsaga erishamiz. Qishloq xo'jaligidagi islohotlardan maqsad – iqtisodiy foyda ko'rish bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, xalq farovonligini oshirishdan iboratdir. Buni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur" [12, 4].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini bирgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. -Toshkent: O'zbekiston, 2017.- 48 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 104 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent.: O'zbekiston, 2018. – 508 b.
6. Tadbirkorlikni jadal va yanada keng rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni yaratish-eng muhim vazifamizdir" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvida so'zlagan nutqi. "Xalq so'zi" gazetasи, 2021-yil 21 avgust.
7. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yillik bayramiga bag'ishlangan marosimdagи nutqi. review.uz
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. www. lex.uz.
9. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017.
10. O'zbekistonning eng yangi tarixi xrestomatiyasi. Mas'ul muharrir: A.Sabirov, S.Po'latova. – Toshkent, 2014.
11. Mustaqil O'zbekiston tarixi. Mas'ul muharrir A.Sabirov. - Toshkent: Akademiya, 2013.
12. O'zbekistonning eng yangi tarixidan ocherklar: Metodologiya, tarixshunoslik va manbashunoslik masalalari. Mas'ul muharrir: A.Sabirov. – T. 2014.:

SADR, FUOD VA LUBB TUZILMASI — TERMIZIY MODELINING ASOSIY JIHATLARI

Karimov N.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasavvuf tafakkurining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Hakim Termiziy tomonidan ilgari surilgan “qalb xaritasi” konsepsiyasining asosiy jihatlari tahlil qilinadi. Xususan, qalbning ichki tuzilishi bo‘yicha taklif qilingan to‘rtta darajadan — sadr, qalb, fuod va lubb — uch asosiy bosqich: sadr, fuod va lubb chuqur ko‘rib chiqiladi. Mazkur struktura Qur’oni karimdagagi ma’naviy-psixologik terminologiyaga asoslangan bo‘lib, inson qalbining ilohiy haqiqat sari bo‘lgan ichki sayrini aks ettiradi.

Sadr darajasi — qalbning eng tashqi qatlami bo‘lib, unda inson nafs bilan ilk bor kurashga kirishadi. Bu darajada ma’naviy uyg‘onish boshlanadi, biroq qalb hali ilohiy nurlarga to‘liq ochilmagan bo‘ladi. Fuod esa qalbning teranroq qatlamini ifodalaydi, bu bosqichda qalb ilohiy nur va ilhomni qabul qila boshlaydi, ongli tafakkur, sezgi va ma’rifat shakllanadi. Lubb — qalbning eng chuqur va pok holati bo‘lib, unda bandaning Alloha bo‘lgan ichki yaqinligi, tafakkurdagi sof birlig va ruhiy mukammallik gavdalanadi.

Maqolada shuningdek, ushbu tuzilma islam psixologiyasi shakllanishidagi o‘rni, uning tasavvufdagi ma’naviy shakllanish modeli sifatidagi ilmiy-ruhiy ahamiyati yoritiladi. Termiziy yondashuvi orqali inson qalbi nafaqat ruhiy idrok markazi, balki ilohiy haqiqatlar bilan bog‘lovchi metafizik makon sifatida tushuntiriladi. Bu yondashuv tasavvuf psixologiyasi va islamiy ruhiy tahlil metodologiyasining ilk nazariy asoslaridan biri sifatida qadrlanadi.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, qalb, sadr, fuod, lubb, Hakim Termiziy modeli, islam psixologiyasi, ma’naviy shakllanish.

Tasavvuf tafakkurida qalb — insonning ichki olami, ma’naviy intilishlari va ilohiy haqiqatlarga ochiqligi ramzi sifatida talqin qilinadi. U nafaqat insoniy tuyg‘ular va tafakkurning markazi, balki ilohiy ilhomni qabul qiluvchi metafizik maydon sifatida tushuniladi. Qalbni shunday murakkab va ko‘p qatlamli holatda tahlil qilgan mutasavviflar orasida Hakim Termiziy (IX asr) alohida o‘ringa ega. U o‘zining chuqur tafakkuri va Qur’oni karimdagagi ruhiy tushunchalarni semantik tahlil qilishi orqali tasavvufiy psixologiya tarixida asos soluvchilardan biri sifatida tanilgan.

Hakim Termiziy inson qalbining ruhiy taraqqiyoti va ilohiy haqiqat sari ichki sayrini tushuntirish maqsadida qalbning to‘rtta ichki qatlami — sadr, qalb, fuod va lubb — dan iborat bo‘lgan nazariy modelni ilgari suradi. Ushbu tuzilma ilk bor uning mashhur asari “Bayon al-farq bayn as-sadr valqalb val fuad val lubb” (“Ko‘ks, qalb, fuad va lubb orasidagi farq bayoni”)da mukammal tarzda izohlangan. Termiziy bu model orqali tasavvufdagi qalb haqidagi ma’naviy-metaforik tasavvurni aniq bosqichlarga ajratgan holda, uni nazariy asosga ko‘chiradi.

Mazkur maqolada aynan ushbu qalb xaritasining uch asosiy komponenti — sadr, fuod va lubb — tahlil qilinadi. Ularning o‘zaro bog‘liqligi, ma’naviy shakllanishdagi roli va Qur’oni karimdagagi semantik ildizlari asosida Termiziy modelining islam psixologiyasi shakllanishidagi ilmiy-ruhiy ahamiyati yoritiladi.

Sadr — ichki kurash va zohiriylilik bosqichi

Hakim Termiziy tomonidan ishlab chiqilgan qalb tuzilmasining birinchi va eng tashqi qatlami bu — sadrdir. Arab tilidagi “sadr” so‘zi lug‘aviy jihatdan “ko‘krak”, “old qism”, “boshlanish nuqtasi” kabi ma’nolarni anglatadi. Qur’oni karimda bu atama ko‘plab oyatlarda insonning ruhiy holatiga ishora qiluvchi kontekstda ishlataladi. Masalan, “Alloh kimni hidoyat qilmoqni iroda qilsa, uning ko‘ksini Islomga ochib qo‘yadir...” (An‘am, 125) oyatida “sharh as-sadr” — qalbning ochilishi, ilohiy hidoyatni qabul qilishga tayyorligi ifodalananadi. Aksincha, “Kimni zalolatga ketkazishni iroda qilsa, uning ko‘ksini xuddi osmonga ko‘tarilayotgandek, tor va tang qilib qo‘yadir...” (An‘am, 125) kabi oyatlarda esa “ziyq as-sadr” orqali ruhiy torlik, zulmat va inqiroz holati nazarda tutiladi.

Termiziy tafsirida sadr — bu ruhiy shakllanishning boshlanish nuqtasi bo‘lib, qalb va nafs o‘rtasidagi ilk ichki kurash shu bosqichda boshlanadi. Inson bu darajada hali o‘z ma’naviy dunyosini chuqur idrok etmagan bo‘ladi, uning barcha diniy amallari tashqi shakl, ya’ni zohiriyl

Islom bilan cheklangan bo‘ladi. Tashqi amal ichki e’tiqodga aylanmagan, qalb esa hali ilohiy nurlarga ochilmagan. Sadr — bu sinov, inkor va e’tirof o’rtasidagi ruhiy ziddiyat makoni. Termiziy nazarida, sadr darajasida inson qalbi hali o‘zining haqiqiy qutlug‘ maqsadlariga yo‘nalmagan, lekin bu bosqichda ruhiy uyg‘onish boshlanadi, qalb hayoti sezila boshlaydi, ilohiy nuring ilk nurafshonliklari ko‘zga tashlanadi.

Sadr bosqichi, shuningdek, nafsning hukmronligi kuchli bo‘lgan holatdir. Insonning ichki olamida halovat yo‘q, uning qalbi vasvasa, shubha, g‘aflat va nafsiy istaklar bilan to‘lib-toshgan bo‘ladi. Qur’onda Shaytonning sadrga “vasvasa solishi” (An-NaaS, 5–6) haqida ochiq ta’kidlanadi. Demak, bu bosqichda inson qalbi hali ilohiy nurdan yiroq, lekin ayni paytda ruhiy uyg‘onish, haqiqatni izlash va poklanish istagi paydo bo‘lishi mumkin. Termiziy buni “sadrda qalbning ichki chaqnashi” deb tasvirlaydi.

Sadr shuningdek, ruhiy tayyorgarlikning mezoni sifatida ham talqin qilinadi. Inson ushbu bosqichda zohiriy amalni ichki iymon bilan uyg‘unlashtirishni boshlaydi. Bu amal e’tiqod bilan birlashgachgina, inson qalbi keyingi bosqich — qalb va undan keyin fuod sari harakatlana boshlaydi. Termiziy bu bosqichni ruhiy shakllanishdagi muhim sinov bosqichi sifatida talqin qilgan: bu yerda inson nafs bilan kurash olib boradi, va agar u g‘olib chiqsa, qalb ochiladi, agar mag‘lub bo‘lsa, sadr yana torayadi va zulmat ichida qoladi.

Termiziy ning sadr haqidagi tafakkuri nafaqat Qur’on oyatlarining semantik tahliliga, balki tasavvufiy tajribaning chuqur anglanishiga ham tayangan. U sadrni ruhiy sayrning muhim manzili sifatida qaraydi. Bu bosqichdan o‘ta olgan shaxsgina qalbining ichki manbai — ilohiy haqiqat bilan uchrashish yo‘liga kiradi. Shunday qilib, sadr — tashqi dunyo va botin o’rtasidagi ruhiy eshik, qalbning ilohiy haqiqat sari yo‘nalishidagi ilk va zaruriy bosqichdir.

Fuod — ichki sezgi va ilohiy nur markazi

Hakim Termiziy tomonidan ishlab chiqilgan qalbning to‘rtta darajasidan biri — fuod — insonning ruhiy hayotida eng muhim ichki burilish nuqtasidir. Termiziy ta’rifiga ko‘ra, fuod qalbning sadrdan chuqurroq joylashgan qatlami bo‘lib, bu qatlamda ilohiy nur, ya’ni Allohdan keluvchi ilhom va haqiqatni idrok etish kuchi joylashadi. U sadrdan farqli o‘laroq, faqat tashqi amal va zohiriy hislar bilan emas, balki qalbning ma’nodagi idroki, ya’ni botiniy sezgi va tafakkur bilan bog‘liq.

Qur’oni karimda fuod so‘zi bir necha marta ishlatalgan bo‘lib, u ong, tushunish, his etish, ruhiy ta’sirlanish ma’nolarida keladi. Jumladan, “Yer yuzida yurmaydilarmi, shunda ularda aql yuritadigan qalblaryoki eshitadigan quloqlar bo‘lardi. Zero, albatta ko‘zlar ko‘r bo‘lmas, ko‘kslardagi qalblar ko‘r bo‘lur”. (Haj, 46) oyatida fuod idrok va anglashning qalbga xos shakli sifatida tilga olinadi. Bu orqali Qur’on insonning haqiqiy ko‘rish va eshitish kuchi uning tashqi a’zolarida emas, balki ichki qalbiy sezgilarida ekanini ta’kidlaydi.

Termiziy nazarida, fuod — qalbiy ilhomning markazi bo‘lib, bu qatlamda inson nafaqat ilohiy haqiqatlarni his qiladi, balki ularni qalban anglay boshlaydi. Ruhiy sayr (suluk)ning aynan shu bosqichida Allohdan aloqa yanada yaqinroq va sezgirroq tus oladi. Insonning qalbi fuod orqali kashfiyatga ochiladi, tushunchalar chuqurlashadi, ma’nolar ochiladi. Fuodda tushunish — intellektual ong emas, balki qalbiy kashf va ma’naviy sezgi bilan bog‘liqdir. Bu bosqichda ilm faqatgina o‘rganilgan ma’lumotlar emas, balki ichki ilhom va qalbiy tafakkurga aylanadi.

Termiziy fuodni nafaqat sezgi vositasi, balki ruhiy tafakkurning faol maydoni sifatida ham talqin qiladi. Unga ko‘ra, haqiqat faqatgina zohiriy tafsir va dalillar orqali emas, balki qalbning ichki yoritilishi orqali anglanadi. Shuning uchun, fuod — qalbning ilohiy haqiqatlar bilan birinchi bevosita aloqa o‘rnatuvchi qatlamidir. Bu yerda inson shunchaki ma’lumotlarni o‘rganmaydi, balki haqiqatni qalbida his qiladi va hayotiy tajriba bilan bog‘laydi. Bu holat Termiziy tafsirida “qalbning nurlanishi”, ya’ni tajalliy bilan ifodalanadi.

Shuningdek, Termiziy ning yondashuvida fuod ruhiy tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biri sifatida ko‘riladi. U insonni hayotda tafakkur, hushyorlik va ma’naviy sezgirlik sari yetaklaydi. Sadr bosqichida nafs bilan kurashgan inson fuod darajasida o‘z qalbining botiniy kuchini kashf etadi, uni faoliyatga jalb qiladi va ilohiy haqiqatlarga chuqur intilish bilan yashay boshlaydi.

Fuod — Termiziy modelida ruhiy sayrning markaziy qatlami bo‘lib, unda inson qalban anglash, sezish va ilhom olish orqali ilohiy haqiqatga yaqinlashadi. Bu bosqich, sadrda boshlangan ichki

uyg‘onishning teran ma’noga ega bo‘lgan davomidir. Fuod qalbga nisbatan chuqurroq daraja bo‘lib, u nafaqat ong, balki ruhiy ko‘z sifatida talqin qilinadi. Termiziy bu bosqichda haqiqatga yaqinlashishni nafaqat bilim, balki qalbiy tafakkur va ichki nurning hosilasi sifatida tushuntiradi.

Lubb - haqiqatning markazi va sof tafakkur darajasi

Qalbning Termiziy modeli doirasida eng chuqur, eng oliv va eng kamyob bosqichi bu — lubbdir. “Lubb” arab tilida “mag‘z”, “mohiyat”, “ichki mazmun” yoki “sof aql” ma’nolarini anglatadi. Bu atama nafaqat nutqiy jihatdan, balki semantik jihatdan ham ichki poklik, fikrning chuqurligi va qalbning mutlaq haqiqat bilan aloqasini bildiradi. Termiziya ko‘ra, lubb qalbning ichki yuragidir — bu darajaga yetgan inson faqatgina nafsiy va ruhiy tozalikni emas, balki ilohiy birlikni chin qalbdan idrok etish darajasini ham egallaydi.

Qur’oni karimda “lubb” atamasi ko‘plab oyatlarda tafakkur, idrok va chuqur aql egalariga nisbatan ishlataladi. Masalan: “...Albatta, aql egalarigina eslarlar”. (Zumar, 9) oyati insonni tafakkurga, haqiqatni faqat zohiriyo ko‘z bilan emas, balki qalbdagi sof tafakkur bilan ko‘rishga da‘vat etadi. Qur’onda “ulu al-albab” deb atalgan guruh — aynan ushbu lubb maqomiga erishgan, ya’ni har qanday holatda ham haqiqatni qalban anglaydigan, nur bilan to‘lgan aql egalari deb talqin qilinadi.

Hakim Termiziy ushbu bosqichni qalbning mukammallik holati, ya’ni nafsdan tozalanib, faqat Alloh bilan bog‘langan ruhiy markaz sifatida tasvirlaydi. Unga ko‘ra, lubb darajasiga erishgan inson Allohnini faqat ilmiy dalillar bilan emas, balki bevosita qalbiy idrok, yoritilgan qalb, ilohiy nur orqali anglaydi. Bu — riyozat, mujahada, nafs bilan kurash, sabr, ibodat va ruhiy yetuklik orqali bosib o‘tiladigan ruhiy sayrning yakuniy manzilidir.

Termiziy lubbni inson qalbining chin haqiqat bilan aloqasi uzilmasi darajasi deb biladi. Unga ko‘ra, bu maqomda insonning qalbi butunlay ma’naviy hayotga, ilohiy haqiqatga, Allohnинг razosiga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Inson bu holatda nafsdan butunlay xalos bo‘ladi, dunyoviy manfaatlar unga ta’sir qilmaydi, qalb shaytoniy vasvasalardan holi bo‘ladi. Lublda qalb faqat to‘g‘rilik, xolislik, ixlos va tafakkur bilan yashaydi.

Termiziy bu maqomga erishgan zotlarni “ahl al-lubb” — ya’ni, sof aql egalari deb ataydi. Bu darajadagi shaxslar haqiqatni nafaqat tushunadi, balki uni ong bilan yashaydi. Ular tafakkur egasi bo‘lish barobarida, qalbiy sezgi va nur egalaridir. Lubb bu ma’noda nafaqat ruhiy yuksalishning eng oliv cho‘qqisi, balki tawhid — Allohnинг birligi haqidagi e’tiqodning chin ma’nodagi hayotiy tajribaga aylangan bosqichidir.

Demak, lubb — bu inson qalbining eng sof, eng yuksak, eng haqiqatga yaqinlashgan holatidir. U nafaqat tafakkurning markazi, balki nurga to‘lgan, Allohga bog‘langan qalbning chin mohiyatidir. Termiziy yondashuvida, ruhiy sayrning eng so‘nggi va eng oliv bosqichi bo‘lgan lubb — nafsiy qobiqdan tozalanib, haqiqatga yadro darajasida yetgan insoniy mavjudlikning ramzidir. Shu sababli ham Termiziy modelida lubb — qalb shakllanishining nihoyatdagi maqsadi va ruhiy mukammallikning timsolidir.

“Ying va Yang” nazariyasi osmon va yerdagi barcha narsa ikki qarama-qarshi energiya bilan muvozanatlanganligiga ishonadigan g‘oyadir. Qadimgi xitoyliklar atroflaridagi mavjud muhitni ying va yang nuqtayi nazaridan talqin qilishgan va ular dunyodagi hamma narsa ying va yangdan iborat ekanligiga ishonishgan, ularning fikricha, ying va yang alohida-alohida tushunchalarni ifodalasa-da, ular bir-birini uyg‘unlikda to‘ldiradi va dunyoda muvozanatni saqlab turadi. Shuningdek, aytiladiki, ying va yang nafaqat osmon va yer, barcha narsaning asosi, balki ular o‘zgarishlarning onasi, hayot va o‘limning boshlanishi va Xudoning uyidir. Boshqacha aytganda, ying va yang barcha voqeа-hodisalarning yaratilish, o‘zgarish va yo‘qolish asosidir. Ushbu ikki energiyaning biri ikkinchisiga qaraganda ko‘payib ketsa, ya’ni ular orasida nomutanosiblik yuzaga kelsa, dunyo tamoyillariga zid tarzda barcha narsa orasidagi muvozanat buziladi va bu yashashda muammolar tug‘diradi”.

Demak, ziddiyat masalasi dastlab falsafa va mantiq doirasida o‘rganilgan bo‘lsa, keyinchalik ziddiyatning tilda aks etishi lingvistik aspektida tadqiq qilina boshladi. Tildagi har bir sathda o‘ziga xos tarzdagi qarama-qarshilik munosabati mavjud, lekin leksik sath birliklari o‘rtasidagi ziddiyat qarama-qarshilik kategoriyasining markazini tashkil etadi [3]. Qarama-qarshilik hodisasi lingvistikada, asosan, antonimiya nomi ostida beriladi [4]. Ammo, qarama-qarshilik hodisasi antonimiyaga nisbatan keng ma’noda qo‘llaniladi va antonimiya uning tarkibiy qismlaridan biri sanaladi.

Koreys tilida qarama-qarshilik ma’nosи muammosi keng doiradagi turli yechimlar, shu jumladan, qarama-qarshilik semantikasi va uni ifodalash usullariga turlicha yondashuvda namoyon bo‘ladi. Jumladan, tilshunos olim Do Jae-hak so‘zlar orasidagi semantik munosabatni ichki va tashqi munosabatlarga bo‘ladi. Olim birinchi turga polisemianing bir turi sifatida enantiosemiya hodisasini kiritadi. Tashqi munosabatli so‘zlarni esa sintagmatik va paradigmatic aloqasiga ko‘ra sinonimiya, antonimiya, omonimiya va giponimik (sintagmatik munosabatli), birikmali, birikmali bo‘lmagan, xulosalovchi munosabatli so‘zlar (paradigmatik munosabatli) kabi turlarga ajratadi [5].

Yana bir koreys tilshunos olimi Chon Su-te zid ma’nolilik haqida quyidagi fikrlarni berib o‘tadi:

«우리가 일상의 언어 생활에서 소박하게 느낄 수 있는 반의어에 대한 인식은 ‘가다/오다’, ‘아침/저녁’ 같은 어근만의 반의에 그치는 것이 아니고, ‘보다/보 이다’ 와 같은 주동 대 사동, ‘먹다/먹히다’ 와 같은 능동 대 피동, 더 나아가 ‘먹이다/먹히다’ 와 같은 사동 대 피동 같은 경우도 범주에 포함시킬 수 있다. 또 ‘가다/가시다’ 와 같은 평어 대 경어, ‘권투/복싱’ 과 같은 한자어 대 외래어, ‘머리/대가리’ 와 같은 표준어 대 비어, ‘전과/별’ 과 같은 표준어 대 은어의 경우나 ‘자다/안 자다’, ‘가다/못 가다’, ‘하다/아니하다’ 등의 경우도 어떤 의미로는 반의어로 상정할 만하다» [6].

“Biz kundalik hayotimizda bilgan zidlik “bormoq-kelmoq”, “ertalab-kechqurun” kabi asos so‘zlar bilan chegaralanib qolmay, balki “ko‘rmoq-ko‘rsatmoq” kabi aniq va orttirma nisbat, “yemoq-yeylimmoq” holatida aniq va majhul nisbat yoki “yedirmoq va yeyilmox” kabi orttirma va majhul nisbat doirasida ham uchraydi. Shuningdek, eng ko‘p qo‘llaniladigan “boradi-boradilar” kabi asos so‘z va hurmat so‘z, ‘권투/복싱’ (boks) kabi Hanja va chet tilidan o‘zlashgan so‘zlar, ‘머리-대가리’ (bosh; kalla) kabi adabiy so‘z va vulgar so‘zlar, ‘전과/별’ (jinoyat; yulduz) adabiy so‘z va jargon so‘zlar, “uxlamoq – uxlamaslik”, “bormoq-bora olmaslik”, qilmoq-qila olmaslik” kabi darak va inkor shakldagi so‘zlar ham qandaydir ma’noda zid ma’nolilikni o‘zida aks ettiradi”.

Koreys tilida qarama-qarshilik munosabatini aks ettiruvchi birliklar yuzasidan tadqiqotlar, asosan, antonimiya doirasida olib borilgan bo‘lib, antonimlarni turlarga ajratishda ham bir qancha farqlar uchraydi. Antonimlar yuzasidan tadqiqot olib borgan olimlar sifatida Li Sin-myong, Pak Yu-jong, Kim Ju-boe, Im Ji-ryong, Chon Su-te, Nam Gyong-van, Ham Ge-im, Pak Yon-sun, Kim Gvan-he [7] kabilarni sanab o‘tishimiz mumkin. Ularning ishlarini umumlashtirgan holda ko‘rib o‘tadigan bo‘lsak, hozirgi koreys tilida antonimik ma’nolar yoki qarama-qarshi ma’noli leksik birliklarga bevosita aloqador bo‘lgan quyidagi to‘rt guruh alohida qayd etiladi, bular:

- 1) 반대어 – qarama-qarshi ma’noga ega bo‘lgan so‘zlar;
- 2) 대립어 – kontrastlovchi ma’noli so‘zlar;
- 3) 상대어 – nisbiy oppozitiv munosabatga ega bo‘lgan so‘zlar;

4) 반의어 – qarama-qarshi ma'noli so'zlar

Ushbu guruhlar ham ma' lum bir tasnif me' zonlariga asoslangan holda o 'z ichida kichik guruhlarga bo 'linadi. Ushbu tasnif mezonlari sifatida zidlanayotgan narsalarning soni, bir-biriga zid bo 'lgan narsalarning tabiatи va ziddiyatli narsalarning semantik xususiyatlari umumlashtiriladi. Olim Li Sin-myong antonim so 'zlarni vaziyatga ko 'ra zidlanuvchi (민주주의 demokratiya - 공산주의 kommunizm), ikki a' zoli (binar) zidlanish (사랑하다 sevmoq - 미워하다 nafratlanmoq), ko 'p sonli zidlanish (색상어들 ranglar), munosabatlarga ko 'ra zidlanish (부모 ota-onan - 자식 farzand), hajmiga ko 'ra zidlanuvchi (크다 katta - 작다 kichkina), makon-zamonga ko 'ra zidlanish (전 avval - 후 keyin), teskari munosabatli (사다 sotmoq - 팔다 sotib olmoq), qarama-qarshi ma' noli (살다 yashamoq - 죽다 o 'lmoq), kontrastlanuvchi ma' noli (산 tog ' - 바다 dengiz) deb tasniflashni taklif etadi [7]. Kim Ju-boe esa, so 'zlarni semantik xususiyatlariga ko 'ra komplimentar zidlanuvchi (남자 erkak - 여자 ayol), darajaga ko 'ra zidlanuvchi (높다 baland - 낮다 past), baholanish xususiyatiga ko 'ra zidlanuvchi (안전하다 xavfsiz - 위험하다 xavfli), munosabatlarga ko 'ra zidlanuvchi (남편 er - 부인 xotin), yo 'nalishga ko 'ra zidlanuvchi (위 tepe - 아래 past) kabi turlarga bo 'ladi [8]. Nam Gyong-vanning "Koreys so 'zleri semantik munosabatlarini polisemantik tahlil orqali o 'rganish" ilmiy ishida yuqorida sanab o 'tilgan tasniflarga qo 'shimcha tarzda daraja-tartibiga ko 'ra zidlanuvchi (수-우-미-양-가 zo 'r - juda yaxshi -yaxshi -o 'rtacha-yomon), siklik zidlanuvchi (월-화-수-목-금-토-일 hafta kunlari), kesishgan qarama-qarshilik (동-서-남-북 sharq-g 'arb-janub-shimol), iyerarxik zidlanuvchi (덥다-따뜻하다-서늘하다-춥다 issiq-iliq-salqin-sovuq) kabi turlarni keltirib o 'tadi [9]. Aynan shu kabi tadqiqotlar antonimlar yuzasidan juda ko 'p olib borilgan bo 'lsa-da, yana bir ziddiyat turi hisoblangan enantiosemiya hodisasi bugungi kungacha faqat Do Jae-hak, Li Min-u, Li son-yong [10] ning ishlaridagina uchraydi.

Enantiosemiya - bir so 'zda ikki qarama-qarshi ma' noning aks etish hodisasi. Ushbu atama tilshunoslikka 1883-yilda rus olimi V.Shchersl tomonidan olib kirilgan (yunoncha en - "ichdagi", anti - "qarama-qarshi, sema - "belgi"). Enantiosemiya hodisasi koreys tilida 대립이의관계, 모순어, 모순성 어휘, 자체대립관계, 단어 내적 반의어 nomlari bilan o 'rganilgan.

Tilshunos olim Min Hyon-shik asl ma' nosi ijobiy yo neytral bo 'lgan, ma' no taraqqiyoti tufayli salbiy ma' noga ega bo 'lgan so 'zlarni tahlil qilar ekan, ularning asl ma' nosi va qarama-qarshi ma' nosini keltirib chiqaruvchi sabablarni tahlil qiladi va bu koreys tilidagi ushbu ishlar ichida eng dastlabki tadqiqot hisoblanadi. Keyingi yillarda esa, Cho Hang-bom ma' lum bir sintaktik birlik bilan qo 'shilib kelish natijasida ma' nosida o 'zgarishlar kuzatilgan so 'zlarni o 'rganadi va ushbu hodisani "전염" deb ataydi, Masalan, "주책" so 'zi aslida "belgilangan odob-axloq me yorlari" ma' nosini anglatgan, ammo bu so 'z bilan birga qo 'llanilgan 없다 inkor so 'zi ta' sirida vaqt o 'tib "axloqsiz, bema' ni harakat" qarama-qarshi ma' nosiga ega bo 'lgan [11].

Boshqa bir koreys tilshunosi Chve Hyong-yong esa so 'zni ijobiy ma' nodan salbiy ma' noga o 'zgarib borishi, va, aksincha, salbiy ma' nodan ijobiy ma' noga o 'tib borishini o 'rganar ekan, bu jarayonda kinoya va matnning ta' siriga urg 'u beradi. Masalan, 점입가경 so 'zi "chidab bo 'lmas, yashab bo 'lmas yomon holat" ma' nosidan "borgan sari yaxshilanib borish" ma' nosiga ega bo 'lgan bo 'lsa, 타산지석 iborasi (타산 - boshqa tog 'dagi tosh) "birovning xatosidan o 'ziga xulosa chiqarmoq" ma' nosida ijobiy bahoga ega bo 'lib borgan [12].

Li Min-u koreys tilidagi so 'z ichidagi zid ma' nolilikni ma' no jihatidan 3 turga bo 'ladi:

1) 상보 대립 - komplimentar qarama-qarshiliklar ("지다" so 'zi bir

vaqtning o'zida "paydo bo 'lish" , "yaralish" va "yo 'q bo 'lib ketish" ma' nolari mavjud);

2) 반의 대립 - qarama-qarshi ma' nolik ("너무" "juda" so 'zi ham ijobiy ham salbiy ma' noni bildirib kela oladi);

3) 방향 대립 - vektorli zid ma' nolilik ("앞" "oldin" , "ilgari" so 'zi ham o 'tmishga nisbatan ham kelajakka nisbatan qo 'llanilishi mumkin). Shuningdek, olim enantiosemiyani shakliy jihatiga ko 'ra lug 'avyiv enantiosemiya, grammatik enantiosemiya va kontekstual enantiosemiyaga ajratadi [13].

Li Song-yon bir vaqtning o'zida ikki zid ma' noga ega bo 'lgan so 'zlarni "모순어" (kontronim) deb ataydi va ularni keltirib chiquvchi sabablar sifatida ikki ma' nolilik, ma' no taraqqiyoti, birikma so 'zning ta' siri kabilarni keltiradi. Olim enantiosemiya hodisasini faqat tuzilish jihatidan turlarga ajratib o 'rganadi [14] .

Do Jae-hak ma'noni yuzaga chiqish tabiatiga ko 'ra asosiy ma'no, kontekstual ma'noga bo 'lib, o'z ichida qarama-qarshi ma'no kuzatiladigan so 'zlarni 상보적 대립 (komplimentar zidlik), 상반적 대립 (qarama-qarashi ma' noli zidlik), 상관적 대립 (aloqadorlik asosidagi zidlik), 정도적 대립 (gradual zidlik) kabi 4 turga bo 'lib o 'rganadi [15]. Quyida ushbu turlar asosida koreys tilida uchraydigan enantiosemiyalardan misollar keltirib o 'tamiz.

1. 상보적 대립 (komplimentar zidlik) - "값없다"

1) 가치가 없다 (qiymati yo 'q, qadrsiz, arzon)

이따위 물건은 값없어.

Bunday mahsulotning qiymati yo 'q.

2) 가치가 있다 (juda qiymatli, bebah, qimmat)

이건 아무데서나 살 수 있는 값없는 물건이야.

Bu narsa hamma yerda ham sotib olishni iloji bo 'lmaydigan juda qiymatli buyum.

2. 상반적 대립 (qarama-qarashi ma' noli zidlik) - "앞"

1) 이미 지나간 시간 (allaqachon o 'tib bo 'lgan vaqt, o 'tmish)

우리는 앞에 간 사람들보다 먼저 도착하였다.

Biz ertaroq ketib bo 'lgan odamlardan ko 'ra birinchi bo 'lib yetib keldik.

2) 장차 올 시간 (kelajak)

일년 앞을 내다보다.

Bir yildan keyin nima bo 'lishini taxmin qilib ko 'raylik.

3. 상관적 대립 (qarama-qarashi ma' noli zidlik) - "임대하다"

1) 빌리다 (ijaraga olmoq)

정호는 파견 근무가 끝날 때까지 당분간 아파트를 임대해서 생활하기로 했다.

Chonho xizmat safari tugagunga qadar bir muddat biror kvartirani ijaraga olib yashashga qaror qildi.

2) 빌려주다 (ijaraga bermoq)

건물주는 건물 전체를 은행에 임대하였다.

Bino egasi binoning barcha qismini bankka ijaraga berdi.

4. 정도적 대립 (gradual zidlik) - "돈푼"

1) 어느 정도 되는 돈, 또는 꽤 많은 돈 (ko 'p miqdordagi pul)

그는 예전에 돈푼깨나 만졌다.

U avvallari anchagina boy edi.

2) 얼마 되지 않는 돈 (kam miqdordagi pul)

왕한은 돈푼이나 더 출까 하고 그 학생의 얼굴만 쳐다보았다.

Vanghan yana biroz pul bersammikan deb o 'quvchining yuziga tikildi [16].

Xulosa qilib aytganda, koreys tilida zid ma'no ifodalovchi birliklar mavzusi murakkab va shu bilan birga qiziqarli bo 'lib, bu zid ma'no ifodalovchi birliklar va ularning tasnifiga ko 'ra yondashuvlar turlicha ekanligi bilan belgilanadi. Koreys tilida qarama-qarshilikni yuzaga keltiruvchi hodisalar sifatida antonimiya va enantiosemiya hodisalari keltiriladi. Ular orasidan

antonimlar bilan bog‘liq izlanishlar yetakchilik qilsa-da, enantiosemiya hodisasi bilan bog‘liq tadqiqotlar sanoqli bo‘lib, ushbu mavzu yuzasidan yangi izlanishlar olib borish o‘quv jarayonida va leksikografik amaliyotda foydadan xoli bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Bu haqida qarang: D.A. Abdullayeva. O‘zbek tilida antisemija. Filol. Fanlari nomzodi dis. ... avtoref. – Toshkent, 2010. 5-bet.

<https://namu.wiki/w/%EC%9D%8C%EC%96%91> 음양

Л.А. Новиков. Избранные труды. Т.1: Проблемы языкового значения. М.: Изд-во РУДН. 2001. – С. 239.

D.A. Abdullayeva. Ko‘rsatilgan avtoreferat. 23-b.

도재학. 대립적 의미 관계에 대하여. 국어학66권, 국어학회, 2013. - 41-77 쪽.

전수태. 국어 반의어의 의미 구조. - 서울: 박이정, 1997. - 53 쪽.

이승명. 국어어휘의 의미구조에 대한 연구. - 서울: 형설출판사, 1980; 박유정. 한국어

상대어의 한 고찰, 동국대학교 석사학위논문. - 1988; 김주보. 국어 의미 대립어 연구,

성균관대학교 석사학위논문. - 1989; 임지룡. 국어의미론. - 서울: 탑출판사, 2005.

- 386 쪽; 전수태. 국어 반의어의 의미 구조. - 서울: 박이정, 1997. - 308 쪽; 남경완.

다의 분석을 통한 국어 어휘의 의미 관계 연구, 고려대학교 석사학위논문. - 2000;

함계임. 한국어 대립 연결어에 관한 인지 언어학적 연구. - 서울: 한국외국어대학교,

2013; 박영순. 한국어의론. 서울: 고려대학교 출판부. - 2004; 김광해. 국어 어휘론

개설. 서울: 집문당. - 1993.

김주보. Ko‘rsatilgan asar. 25-39 쪽.

남경완. Ko‘rsatilgan asar. 13-17 쪽.

도재학. 현대 국어 다의어의 대립적 의미관계 연구, 고려대학교 석사학위논문, 2011;

이민우. 어휘 의미의 자체대립 유형 연구, <<어문논집>> 11, 중앙어문학회, 2011;

이선영. 국어의 모순어의 대하여, <<국어학>> 61, 국어학회, 2011.

민현식. 어휘의미의 부정가치화 현상에 대하여 // 한일어학논총. - 서울: 국학자료원, 1995. - №85 - 105 쪽.

최형용. 가치평가에서의 의미 변화에 대하여 // 텍스트언어학 (한국텍스트언어학회).

- 2007. - №22. - 201-221쪽.

이민우. 어휘 의미의 자체대립 유형 연구 // 어문논집. 중앙어문학회, 2011. - 55-74 쪽.

이선영. 국어의 모순어의 대하여 // 국어학. 국어학회, 2011. - №61. - 265-289 쪽.

도재학. 현대 국어 다의어의 대립적 의미관계 연구, 고려대학교 석사학위논문, 2011. 109쪽.

Bu haqida qarang: T.S. Kim, F.A. Aliqulova. Koreys tilida enantiosemija hodisasi // O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – Toshkent, 2022. - №14. 402-405-bet.

INGLIZ TILINI AN'ANAVIY VA NOAN'ANAVIY DARSLARDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O'QITISH METODIKASI

Baxronova Zulfiya Ravshanovna

Buxoro davlat Pedagogika instituti tayanch doktoranti, Xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi
kafedrasи o‘qituvchisi

Annotatsiya: Berilgan maqolada muammoli ta'limni tashkil etish, muammoni hal qilish jarayonining o'rGANISH bosqichlari, o'quvchilarning muammoli masalalarni yechish ko'nikmalarini, o'qituvchilarning muammoli vaziyatlarni hal qilish jarayonini boshqarish ko'nikmalarini hamda muammoli ta'limdagi yondashlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: muammoli o'qitish, strategiya, yondashuv, konsepsiya, dogmatik, kashfiyotchi, reproduktiv fikrlash, metod, teksturali predmet, bilimlar shabloni

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimini chuqur isloq qilish, ta'limning yangi shakllarining paydo bo'lishi, yangi turdag'i ta'lim muassasalarining paydo bo'lishi, ta'limning umumiy yo'nalishi o'quvchi shaxsini rivojlantirishga, uning intellektual, axloqiy fazilatlari va ma'naviy salohiyatini shakllantirishga qaratilgan. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiysi", "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi", 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"[1], shuningdek, "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida", "Innovasion faoliyat to'g'risida", "Ta'lim to'g'risida"gi qarorlari , O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ta'lim muassasalarida chet tillarni o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 610-sun qarori kabi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosining ta'minlanishida muayyan darajada xizmat qilish ingliz tili o'qituvchi pedagoglari uchun bu islohotlar yangi tadqiq etilishi kerak bo'lgan ilmiy muammolarni keltirib chiqaradi. Ular ta'lim mazmuni, o'quv jarayonini tashkil etish shakllari, o'qitish usullari va boshqalar bilan bog'liq. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotchilar turli xil o'qitish konsepsiyalari va pedagogika fanining turli sohalari imkoniyatlariiga tobora ko'proq murojaat qilmoqdalar. Olimlar aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi, loyihiaga asoslangan, dasturlashtirilgan, muammoli ta'lim kabi ta'lim nazariyalarini tahlil qilishga katta e'tibor berishadi. Shu bilan birga, tadqiqotchilar an'anaviy o'qitishning afzalliklarini ta'kidlaydilar.

Chet tillarni o'qitish metodikasi uchun muammoli ta'limning rivojlanish bosqichlari bilan bog'liq masalalar muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, psixologik, didaktik va uslubiy tadqiqotlar integratsiyasi bilan bog'liq muammoli ta'limning hozirgi rivojlanish bosqichidagi tendentsiya ilgari qo'llanilgan muammoli ta'limning ko'plab qoidalari va kontseptsiyalarini qayta ko'rib chiqish uchun yetarli asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shunday qilib, A. V. Petrovskiyning fikriga ko'ra muammoli ta'limni –nostandart masalalarни yechishni o'rganish deb atash mumkin, bunda –o'quvchilar yangi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar. [2].

T.V. Kudryavtsev, uning nuqtai nazari bo'yicha muammoli ta'lim - bu o'quv tizimi bo'lib, unda o'quvchi muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali nafaqat bilim oladi, balki ularni hal qilish usullarini ham o'zlashtiradi.

M.I. Maxmutov ta'kidlaydiki, muammoli ta'lim o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga asoslangan ta'lim turi bo'lib, bu jarayonda muammoni yechish orqali nafaqat bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish, balki, ayniqsa, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish amalga oshiriladi.

Demak, muammoli ta'limning maqsadi o'quvchilarning yangi bilim, ko'nikma va malakalarini egallash jarayonida o'qituvchi tomonidan yaratilgan muammoli vaziyatlar asosida tafakkurini faollashtirish orqali ularning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Muammoli ta'lim umumta'lim tizimi doirasida mavjud bo'lib, bu yerda ta'limning muammoli bo'limgan turi hamon hukmronlik qilayotganini hisobga olib, muammosiz va muammoli -ta'lim turlarining xususiyatlarini aniqlash zarur. Bunday qiyosiy tahlil ushbu ta'lim turlari o'rtasidagi bog'liqlikni, ularning zamонавиј тизимидаги о'rни va rolini aniqlashga yordam berishi kerak.

Ayrim mualliflar dars jarayonini tashkil etishning maqsadi va tamoyillariga ko‘ra an’anaviy va

muammoli ta'lim turdag'i mashg'ulotlarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yishadi. N.F. Talyzinaning so'zlariga ko'ra, an'anaviy o'qitishda «muloqot - axborot, dogmatik», chunki o'quv jarayonida xabardorlik ob'yekti muammoli ta'limda xabardorlik ob'yekti bo'lgan muammolar emas, balki qoidalar, vositalardir. A.V. Brushlinskiy, shuningdek, agar muammosiz o'rganishning maqsadi faqat o'quvchilarining bilimlarni o'zlashtirishi uchun bo'lsa, muammoli ta'limning maqsadi o'quvchini «o'rganish» holatiga qo'yish, «kashfiyotchi» qilish, o'zi uchun mumkin bo'lgan savollar va muammolarga duch keladigan «tadqiqotchi». Shu bilan birga, informatsion ta'lim jarayoni, A.V. Brushlinskiy ta'kidlaganidek shunday tashkil etilganki, o'qituvchi tayyor bilimlarni taqdim etadi va talaba uni «passiv» o'zlashtiradi va keyin uni muammoni hal qilish jarayonida qo'llaydi. Muammoli ta'lim sharoitida o'quvchilar amaliy va nazariy masalalarni yechish jarayonining o'zi haqida mustaqil bilim oladilar, o'qituvchining vazifasi esa muammoli vaziyatlarni tashkil etishdan iboratdir. Shunday qilib, A.V. Brushlinskiy asosiy farqni «ta'lim faoliyatida muammoni hal qilish jarayoni qanday o'rinn egallashida» ko'radi [3].

Shubhasiz, yuqorida pozitsiyaga berilgan tanqidiy baho I.Ya. Lernerga ko'ra, muammosiz o'rganishni «passiv» deb atash mumkin emas, chunki har qanday o'rganish faol bo'lishi kerak. Faqatgina ushbu faoliyatning darajalari farqlanadi, bu muammoli ta'lim sharoitida aniq yuqoriroqdir. Shuni ham ta'kidlash joizki, muammoli ta'lim o'quvchiga mustaqil bilim olish va «kashfiyotchi» bo'lishga imkon bersa-da, uning asosiy maqsadi "yangi ilmiy qonuniyatlarni ochish emas, balki ijodiy faoliyat tajribasini egallashdir". [4]. Shunday qilib, o'qitish usullarini mazmun tarkibiy qismlari, o'quvchi pozitsiyasi va faoliyat strategiyasi bilan tavsiflangan o'qitish usullari bilan bog'lovchi V.Okon tasnifiga asoslanib, muammoli ta'lim yangi bilimlarni o'zlashtirishga asoslanadi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Yuqorida fikrlardan ko'rinish turibdiki, bir qator mualliflar o'qitishning ikki turi o'rtasida keskin qarama-qarshilik ko'rsatmasdan, baribir o'zlarining maqsadlari va tashkil etish tamoyillaridagi farqlarini ko'rsatadilar.

Ana'anaviy ta'lim turining asosiy maqsadi – ilmiy bilimlar natijalarini o'zlashtirish, o'quvchilarini bilim bilan qurollantirish, ularga tegishli ko'nikmalarni singdirishdan iboratdir. Muammoli ta'limning kengroq maqsadi - bu nafaqat ilmiy bilimlarning natijalarini, balki yo'lning o'zini, bu natijalarni olish jarayonini ham o'z ichiga oladi o'quvchining bilim mustaqilligini shakllantirish va uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish; . Bu erda asosiy e'tibor tafakkurni rivojlantirishga, xususan, o'quvchilarining fikrlash va ijodiy qibiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Muammoli ta'lim nazariyotchilarining ko'philiginining fikricha, muammosiz ta'lim tizimli tashkil etiladi – o'qituvchi tayyor bilimlarni yetkazadi, o'quvchilar uni o'zlashtiradilar, so'ngra mashg'ulotlar davomida amalda qo'llaydilar. Bunday sharoitda talaba ko'proq pedagogik ta'sir ob'yekti hisoblanadi. Muammoli ta'lim turlicha tashkil etiladi - o'qituvchi muammolarni qo'yish orqali muammoli vaziyatlarni yaratadi, ularni hal qilish jarayonida o'quvchilar bilimlarni, uni egallash va qo'llash usullarini o'zlashtiradilar. Muammoli ta'lim doirasida talaba bиринчи navbatda o'rganish sub'yekti hisoblanadi, chunki u o'quv jarayonida sifat jihatidan boshqa darajada faol ishtirot etadi.

Muammoli ta'limni tashkil etishning turli maqsad va tamoyillari to'g'risidagi yuqorida qoidalarini chet tillarini o'qitish metodikasiga qo'llagan holda shuni ta'kidlash kerakki, chet tillarini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda til akademik fan sifatida, bu erda til o'qitishning maqsadi va vositasi sifatida o'qitishning ikkala turi ham qo'llanishi kerak. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, chet tilini o'qitish amaliyotida yuqorida qayd etilgan psixologik-didaktik qoidalar har doim ham e'tiborga olinmaydi, bu yerda o'qitishning muammosiz turi ba'zan hukmronlik qiladi. Bunday salbiy tajribani faqat ikkala turdag'i mashg'ulotlarni tashkil etishning maqsad va tamoyillarini bilish asosida bartaraf etish mumkin. Masalan, muammoli ta'limdan foydalanish fikrlash va xotirani aktiv faollashtirish va shu asosda chet tilidagi nutqni o'zlashtirish jarayonini optimallashtirish imkonini beradi. Ta'lim jarayonini tashkil etishga kelsak, muammosiz ta'lim doirasida o'quvchi pedagogik ta'sir ob'yekti bo'lsa, muammoli ta'lim sharoitida u muammoli o'zaro ta'sir sub'yektiga aylanadi.

Shunday qilib, ba'zi mualliflar muammoli ta'limni muammoli bo'lмаган та'лимга qarama-qarshi qo'yishadi, boshqalari esa muammoli va muammoli bo'lмаган та'лим turlarining kombinatsiyasini yoqlaydilar. Ko'rinish turibdiki, muammoli ta'limning o'rni va roli haqidagi

qarashlardagi farqlar olimlarning fikrlashning o'ziga xos xususiyatiga nisbatan pozitsiyasi bilan belgilanadi - bir tomondan, faqat samarali fikrlash mavjudligini tan olish (A.V. Brushlinskiy), boshqa tomondan. - nafaqat samarali yoki ijodiy, balki reproduktiv fikrlash mavjudligi bilan namoyon bo'ladi. (L.A.Karpenko, I.Ya.Lerner).

Ingliz tilini o'qitishda samarali an'anaviy metodlar orasida bir nechta asosiy usullar mavjud bo'lib, ular asrlar davomida til o'rganish jarayonini yengillashtirish va samarali qilishga yordam bergen. Quyidagi metodlar o'qituvchilar tomonidan keng qo'llanilib, o'quvchilarga ingliz tilini to'liq o'rganishda yordam beradi.

Grammatika-o'qitish metodi (Grammar-Translation Method) birinchi navbatda grammatik qoidalarni va lug'atni o'rganishga asoslanadi. Bu metodda o'qituvchi grammatik qoidalalarini tushuntiradi, so'zlarning ma'nosini izohlaydi va o'quvchilarni turli xil tarjimalar bilan mashq qiladi. Bunday metod o'quvchilarga tilning rasmiy tuzilishini va qoidalarni yaxshi tushunishga yordam beradi, shuningdek, tilni yozma tarzda o'rganishda samarali bo'ladi. Biroq, bu metod so'zlashuv qobiliyatini rivojlantirishda kamchiliklarga olib keladi, chunki o'quvchilar asosan tarjima qilishga yo'naltirilgan bo'lib, muloqot qilishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.

To'g'ridan-to'g'ri metod (Direct Method) esa ona tilidan foydalanmasdan to'g'ridan-to'g'ri ingliz tilida o'qitishga asoslanadi. Ushbu metodda o'qituvchi o'quvchilarga to'g'ridan-to'g'ri ingliz tilida tushuntiradi va o'quvchilardan ham faqat ingliz tilida javob berishlarini talab qiladi. To'g'ridan-to'g'ri metod muloqotga asoslangan bo'lib, o'quvchilarning tilni tabiiy usulda o'rganishini ta'minlaydi. Bunda ko'rgazmali vositalar, rasm va predmetlar yordamida tushuntirishlar beriladi. Bu metod juda samarali, chunki o'quvchilar tezda ingliz tilida gaplashish va eshitish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Biroq, grammatika va nazariy bilimlarga yetarlicha e'tibor berilmaydi, bu esa ba'zida tilni to'g'ri yozishda yoki grammatik jihatdan aniq ifodalashda muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Trening mashqlar metodi (Drill Method) esa tilni o'rganishda repetitsiya va mashqlarni bajarishga asoslanadi. O'quvchilar grammatik qoidalarni, talaffuzni va so'zлarni takrorlash orqali ularni o'zlashtiradilar. Bu metod o'quvchilarning til ko'nikmalarini avtomatlashtirishga yordam beradi, ya'ni ular tilni to'g'ri va tez ishlatishni o'rganadilar. Ushbu metodning afzalligi shundaki, o'quvchilar xatolarni tuzatish va tilni to'g'ri qo'llashda tezlashtirishadi. Biroq, bunday yondashuv o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini cheklashi mumkin, chunki ular asosan repetitiv mashqlarni bajaradilar va o'qish yoki yozishdagi erkinlikka ega bo'lmaydilar.

Albatta, quyida ingliz tilini muammoli o'qitishda noan'anaviy metodlarni ham ko'rib chiqamiz. Bu usullar talabalarning o'rganish jarayonini qiziqarli, interaktiv va samarali qilishga yordam beradi.

1. Tashqi muhitda o'qitish (Outdoor Learning) Bunda darslarni sinf xonasidan tashqarida, real muhitda tashkil qilish. Bu usul talabalarni ingliz tilini hayotiy vaziyatlarda ishlatishga o'rgatadi. Masalan: talabalar bilan parkda yurib, tabiat haqidagi lug'atni o'rganishi yoki bozorda yoki kafeda mahsulotlarga narx so'rash va xarid qilish kabi vaziyatlarni amalda bajarishi mumkin. Natijada talabalarning real hayotda ingliz tilini ishlatishga bo'lgan ishonch ortadi.

2. Pantomima metodi. Ushbu metodda so'z va buyruqlarni harakatlar bilan bog'lash orqali tilni o'rganish. Bu usul yangi boshlovchilar va kichik yoshdagagi o'quvchilar uchun ayniqsa samaralidir. Bunda o'qituvchi buyruq beradi: «Stand up», «Jump», «Turn around». Talabalar esa so'zлarni imo-ishora yordamida tushuntirish, masalan, «run» so'zini yugurishni ko'rsatib harakat orqali bajaradi. Bu usul bolalar va kinestetik o'rganuvchilar uchun samarali.

3. Hikoya yaratish metodi (Storytelling). Talabalar o'qituvchi rahbarligida hikoyalar tuzadilar. Hikoyalar ularning til boyligini va ijodkorligini rivojlantiradi.

Masalan, o'qituvchi hikoya boshlaydi: «Once upon a time, there was a little boy...» va talabalar uni davom ettiradi. Yoki rasm yoki so'zlar to'plamiga asoslangan holda hikoya tuzish usulidan foydalanish mumkin. Ushbu metod talabalarning so'z boyligini oshiradi, ijodiy tafakkurni rivojlantiradi va grammatikaga oid bilimlarni mustahkamlaydi.

4. Jim-jitlikda so'zlashuv metodi (Silent Conversation) Talabalar gaplashmasdan, yozuv yoki chizmalar orqali bir-biri bilan muloqot qiladilar. Masalan: qog'ozga savollar va javoblar yozish yoki matn orqali munozara olib borish mumkin. Ushbu usul orqali yozma muloqot qobiliyatini

rivojlantiradi. Shovqinsiz dars muhiti yaratiladi.

7. Kunlik hayotiy vazifalar (Task-Based Learning). Talabalarga real hayotdagi vazifalar berilib, ularga ingliz tilida yechim topish so‘raladi. Masalan xarid qilish ro‘yxati yaratish va do‘konda foydalanish, rasmiy xat yozish yoki mehmonxona uchun bron qilish. Bunda ingliz tilini amaliyotda qo‘llash imkonini beradi. Talabalarni hayotiy muammolarni hal qilishga o‘rgatadi.

8. Ko‘p hissiyotli o‘qitish (Multisensory Learning) O‘qitishda bir vaqtning o‘zida eshitish, ko‘rish, teginish va hatto ta’m bilish hissiyotlaridan foydalaniladi. Turli teksturali predmetlarni ingliz tilida nomlash, yoki musiqiy sanjat asarlaridan foydalanib yangi so‘zlarni o‘rgatish. Metodning samarali jihat shundaki turli o‘quv uslublariga moslashadi va talabalarning yodlash jarayoni intensivlashadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar assosida ta’lim jarayoni tashkil etilganda bilim egallashning bir qancha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan bosqichlari mavjud bo‘lib, tayyor bilimlarni o‘quvchi-talabalar ongiga yetkazish, xotiralash, xotirada saqlash, qayta xotiralash, so‘zlab berish, yozma ifodalash kabi holatlar bilish, tushunish darajasini ifodalaydi. An’naviy pedagogik usuldagagi – bilimlardan muammoga qarab – o‘quvchilar mustaqil ilmiy izlanish ko‘nikma va malakalarini hosil qila olmaydi, chunki ularga o‘zlashtirish uchun tayyor natijalar taqdim etiladi. Muammoning yechimi ijodiy fikrlashni taqozo etadi. O‘zlashtirilgan bilimlar shablonlarini takrorlash bilan bog‘liq bo‘lgan reproduktiv psixik jarayonlar, muammoli vaziyatlarda hech qanday samara bermaydi. Agar inson muntazam tayyor bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga o‘rgatilgan bo‘lsa, uning tabiiy ijodiy qobiliyatini so‘ndirish ham mumkin; u mustaqil fikrlashni «esdan chiqaradi». Fikrlash jarayoni muammoli masalalarni yechishda a’lo darajada namoyon bo‘ladi va rivojlanadi. Muammoli o‘qitishda kechadigan jarayonlarning psixologik mexanizmi quyidagicha bo‘ladi: inson ziddiyatlari, yangi, noma’lum muammoga (muammo – murakkab nazariy yoki amaliy masala bo‘lib, yashirin ziddiyatlarni qamrab oladi, uning yechimi turli, hatto muqobil vaziyatlarni talab etadi) duch keladi, unda hayratlanish, ajablanish holati paydo bo‘ladi, «gap nimada?» degan savol tug‘iladi. O‘quvchi noma’lum yechimni topish uchun mustaqil yoki o‘qituvchi yordamida izlanadi.

Yuqoridagi fikrlardan shuni anglash mumkinki, talabalarning ingliz tiliga oid kompetensiyalarni shakllantirishda muammoli o‘qitish texnologiyasi an’naviy o‘qitish usulidan ko‘ra ancha samaraliroq natija ko‘rsata oladi. Ammo tilning o‘ziga xos grammatik yoki so‘zlashuvga oid asosiy jihatlarini an’naviy usullardan voz kechgan holda talabalarda shakllantirib bo‘lmaydi. Shundan ma’lum bo‘ladiki, ingliz tili o‘qituvchilari fanni o‘qitishda uning mavzusi va dars maqsadidan kelib chiqib muammoli o‘qitishning an’naviy va noan’naviy usullaridan o‘z o‘rnida foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. 2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 6-iyuldaggi PF-165-soni Farmoniga 1-ilova. Elektron manba: <https://lex.uz/ru/docs/-6102462>. Murojaat sanasi: 11.11.2022-y.
2. Osnovy pedagogiki i psixologii vlysshey shkoly/Pod red. A.V. Petrovskogo. M.: Izd-vo MGU, 1986. - 303 s.
3. Brupshinskiy A.V. Psixologiya mishlen i problemnoe obuchenie. M.: Znanie, 1983. — 96 s. - (Novoe v jizni, nauke i texnike. Ser. «Pedagogika i psixologiya», № 6).
4. Lerner I.Ya. Pedagogicheskaya literatura v problemnom obuchenii. M.: , 1983. Vyp. 6.-47 s.
5. Baxronova Z.R. Specific Features of Using Problem-Based Learning in Teaching Foreign Language Teaching. Excellencia: international multi-disciplinary journal of education <https://multijournals.org/index.php/excellencia-imje/article/view/2392>
6. Baxronova Z.R. Talabalarnitilo’rganishdamuammolita’limko’nikmalarinishakllantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar 2024/№9
7. Baxronova Z.R. Muammoli ta’lim texnologiyasini qo‘llashda muammoli topshiriqni shakllantirishning nazariy asoslari. Pedagogika ilmiy-nazariy, metodik jurnal 2025, 1-son
8. Baxronova Z.R. Ingliz tili o‘qitish jarayonida muammoli ta’limni qo‘llash dolzarb muammo



sifatida. Inter education and global study, ISSUE 1, 429 ISSN 2992-9024 (online) 2025, №1
<https://cyberleninka.ru/article/n/ingliz-tili-o-qitish-jarayonida-muammoli-ta-limni-qo-llash-dolzarb-muammo-sifatida>

9. Baxronova Z.R. The Pedagogical Characteristics of Implementing Problem-Based Learning Technologies in Teaching English Methodology. Current research journal of Pedagogics, (ISSN: 2767-3278), Vol.06, Issue01 2025, DOI: - 10.37547/pedagogics-crjp-06-01-13, Page: - 53-57
<https://masterjournals.com/index.php/crjp/article/view/2001>

JANE EYRE: A JOURNEY OF SELF-DISCOVERY

Bekmurodova Laylo Bakhodir qizi,
student of Bukhara state pedagogical institute.

Annotation. In this article, main idea of the novel, the struggle for female independence and freedom, love and moral principles between Jane and Rochester, social divisiveness, Jane Eyre image, her character, Mr. Rochester's character, realistic and feminist approach and the matters of what importance this book has are discussed. It analyzes how Jane embarks on a journey towards self-awareness, independence and moral integrity within restricted social framework of Victorian England.

Key words. Orphaned girl, social barriers, love, independence, patience, significance.

JANE EYRE: О'ЗИНИ АНГЛАШ

Bekmurodova Laylo Bahodir qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada roman asosiy g'oyasi – ayollar mustaqilligi va erkinligi uchun kurash, Jeyn va Rochester o'rtaqidagi sevgi va axloqiy prinsiplar, ijtimoiy tafovutlar, Jeyn Eyrening obrazi va xarakteri, janob Rochesterning xarakteri, asarning realistik va feministik yondashuvi hamda ushbu asarning ahamiyati muhokama qilinadi. Maqolada Jeynning Viktoriya davri Angliya jamiyatining cheklangan doirasida o'zini anglash, mustaqillikka erishish va axloqiy poklik sari bo'lgan sayohati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar. Yetim qiz, ijtimoiy to'siqlar, sevgi, mustaqillik, sabr-toqat, ahamiyat.

JANE EYRE: ПУТЬ К САМОПОЗНАНИЮ

Бекмуродова Лайло Бахадир кызы,
Студентка Бухарского государственного педагогического института

Аннотация. В данной статье рассматриваются основная идея романа, борьба женщины за независимость и свободу, любовь и моральные принципы в отношениях Джейн и Рочестера, социальное неравенство, образ Джейн Эйр и ее характер, характер мистера Рочестера, а также реалистический и феминистский подходы и значение этого произведения. Анализируется, как Джейн отправляется в путь самопознания, стремясь к независимости и нравственной целостности в условиях ограниченного социального уклада викторианской Англии.

Ключевые слова. Сирота, социальные барьеры, любовь, независимость, терпение, значимость.

Introduction. Jane Eyre novel of Charlotte Bronte published first in 1847 and still remains as one of the most highly-rated and influential novels in whole English literature. This piece is a multi-layered narrative that compiles features of romance, fiction, reality, social criticism, segregation and feminist approach. This book narrates the story of a girl whose name is Jane Eyre and the one who struggles for freedom, independence and overcome difficult circumstances through logical sense more than emotions despite of what comes in front of her.

Literature Review and methodology. Most of the time, scholars have often interpreted this novel as a feminist narrative dedicated to represent struggles of a woman who always seeks for independence and identity despite of restrictions of society for women in Victorian England. Sandra Gilbert and Susan Gubar, in their book named Madwoman in the Attic, written in 1979, say that the story narrated by Jane is reflection of tensions that female writers faced in 19th century. Besides, Jane Eyre book is investigated from a feminist perspective by Elaine Showalter, emphasizing how strong Jane persuades equality and how much spiritual fulfillment she has. From psychoanalytic approach, Jane's life is viewed through lens of psychological development. According to Karen. E. Rowe, each step in Jane's life – Gateshead, Lowood school, Thornfield Hall, Moor House and Ferndean – reflects distinctive stages in her path to self-respect and self-

awareness. The methodological approach in descriptive as well as interpretative, intending to reveal the way Bronte constructs Jane's identity through symbolism and character development. Beyond that, the study considers social and historical contexts to make the reader have better understanding of challenges Jane faced with as a woman in Victorian society.

Discussion. The happenings and events in Jane Eyre concentrate mainly on the life journey of a heroine character. At her very young age, she loses her parents and is raised by her cruel aunt Mrs. Reed at Gateshead Hall. In this place she receives harsh, unfair and cruel treatment not only from her aunt, but also from her children – Jane's cousins. On top of that, emotional neglect that little girl feels and faces makes her fed up with living in Gateshead and decide to leave here for Lowood School. From the beginning of the book, Jane is demonstrated as a girl who cannot stand injustice. This is shown by the punishments that she gets because of her talking backs when she comes across with unfairness.

When she is ten years old, she is sent to Lowood school, a school that is run by charities and in which orphaned girls are educated, kept. However, conditions in the school were terrible with inadequate food, shortage of both hot and cold water, severe discipline, cold rooms and cold classrooms leading to diseases among schoolgirls making them vulnerable. Not every girl was strong and patient enough to stand to these conditions. As a result, they started witnessing deaths of their friends. At the time of such hardships, Jane becomes close friend with a girl whose name is Helen Burns. Helen Burns manages to leave a lifelong impression on Jane with her tolerance, friendly nature, sense, spiritual beaty and strong soul. Sudden and unexpected death of Helen due to poor consumption and cold conditions highlights harsh realities of that time and makes Jane hopeless for long time. Till the end of her life, Jane always misses Helen. Probably because, she cannot find any girl like her who can get and always understands what Jane is feeling and going to say even without words sometimes. Over the years, Jane studies at Lowood school struggling for herself and eventually becomes a teacher.

With the purpose of gaining new experiences, she applies for a governess for a young French girl, Adele, at Thornfield Hall. There Jane meets Edward Rochester, who is mysterious and brooding man owning all this estate. In spite of their social disparities, there appears a really deep emotional bond developing between Jane and Rochester. This connection deepens more especially after Jane's saving his life from a fire set by mad woman. After Rochester's proposal, these relationships goes toward marriage of these two. But all turns back when Jane discovers that he is already married to an ill woman, Bertha Mason kept in the attic of Thornfield Hall.

Despaired and devastated, she makes a choice to leave Thornfield Hall rather than becoming Rochester's mistress. Alone and destitute, she barely finds refuge at Rivers' home and later it will be clear for her that Rivers are her cousins from childhood. Subsequently, she is inherited a fortune from her deceased uncle by Rivers and Jane rejects the proposal of St. John Rivers. For the reason that she knows his real purpose – wishing to marry her owing to business duties rather than love takin advantage of Jane's intelligence and sense. Eventually, Eventually, Jane returns to Thornfield and finds that this place is destroyed by fire. Rochester is now not able to see losing his eyesight at attempt to save Bertha from fire. Deep bond, strong love that is living in Jane's heart makes her stay and reunite with him.

One of the most captivating subjects in the novel of Jane Eyre is the aim towards the independence and privileges of women. This matter is illustrated well by Jane Eyre's character, her struggle for not being conquered by social expectations or the men she meets in her life. She is considered as a pioneering figure in entire feminist literature and it is not an exaggeration to say that this is because of her consistent insistence on self-respect, freedom and moral integrity. In England in 19th-century when women were seen as people who had limited rights and whose lives were almost completely controlled by their husbands, fathers or other male relatives. Nevertheless, regardless of what social condition of that time looked like, Jane always insisted on equality and rejected to admit the idea that women are inferior to men. Her this nature can be seen by her famous words in novel:

“I am not a bird and no net ensnares me. I am a free human being with an independent will.

The love, feelings and relationships are at the core of the novel, however it is way far from a

typical romance. The relationship between Jane and Rochester is accompanied by moral dilemmas and power imbalances. The time when Jane decides to leave Rochester after discovering that he already has a legal marriage with another woman shows how strongly she is committed to her moral beliefs. Jane's decision to leave Rochester upon discovering his existing marriage demonstrates her commitment to her moral beliefs. Even if she loves that man, she prefers leaving him to becoming a mistress. These events are given to demonstrate that real and true love must be based on equality, mutual respect and mutual understanding, not domination and deceit over one another.

By this novel, author, Charlotte Bronte aims to show set class system existed in Victorian reign. Jane holds a social status as an orphaned girl and governess and this makes her have a place at lower end of social hierarchy, but she demands respect through her intelligence and moral. Mr. Rochester owns an estate and holds fairly high social power. Despite of his social status and wealth, he is described as a man who is experiencing inner conflicts and dependent on Jane, her character, moral strength. With this subject matter, novel questions the assumption that a person's worth is determined by wealth that he owns and social class that he holds.

To come back to Jane Eyre character, she is portrayed as a woman who is complicated and multi-featured. She manages to embody stubbornness, resilience, intelligence, strong sense, cohesion and unwavering sense of self-love and self-worth. This can be proven by the fact that from childhood, she refuses injustice and cannot stand to accept mistreatment passively. Jane Eyre is portrayed as a complex and multi-dimensional character. She embodies resilience, intelligence, and an unwavering sense of self-worth. From childhood, Jane is acutely aware of injustice and refuses to accept mistreatment passively. Her battles with Mrs. Reed and Mr. Brocklehurst show remarkable bravery, courage and resilience Jane carries. As a mature adult also, she puts her independence and freedom in the first place, valuing it more than anything. Especially, her refusal John River's proposal is as essential as her rejection towards being Rochester's mistress. Jane Eyre is a woman who is against to marry or start a relationship without love and can be happy only when relationships are based on mutual respect and equality.

As far as the character of Edward Rochester is concerned, at the beginning, he is portrayed as an aloof, brooding and mysterious man with complicated emotional feelings. As novel goes further and deeper, however, signs of remorsefulness, kindness are revealed. He is always chased and haunted by his past due to his mentally ill wife, Bertha Mason. Perhaps, because of this, his moral is ambiguous making him difficult to understand at times. He feels like being cleansed of his sins only after losing his sight to attempt to save Bertha Mason and Thornfield is destroyed. But, to look at this matter honestly, it is not Rochester's fault to marry with an ill-fated woman. For the reason that he had no idea of her such disease and lied by Bertha's relatives who tried to show her as a healthy person to Rochester. All of this happened owing to his estate. After discovering her illness, Rochester had a chance to get rid of her, but he decided to look after his ill wife by hiring a nurse. This is able to show Rochester's gentle, kind and noble nature. In addition, he is worth of Jane's love.

To go into novel's genre and literary style, it includes several gothic tropes, such as secret Thornfield Hall, madwoman kept in the attic of house, suspicious and frightening acts of that woman, fire set in Rochester's room at sleep and so on. These elements is capable of making the novel more intense emotionally taking reader into events deeply as if they feel they are in another world completely different from their own.

Results. This book incorporates personal experiences, too reflecting hardships author experienced, severe conditions at her school and her experience of working as a governess. Jane's resilient nature, struggles to equality and freedom are Charlotte Bronte's inner voice, in fact. She has written what she could not show or say explicitly. By Jane's character, author tries to express her objection toward limitations, inequalities and unfairness imposed on women at her time. With its such features, this novel still remains as a masterpiece in feminist literature advocating for women's rights to independence, education, respect, freedom and emotional fulfillment.

With regard to novel's historical and literary significance, it is a revolutionary masterpiece of its time with a female protagonist who not only advocated women's rights, but also narrated her own experience with cohesive organization, intelligence and emotion. For these properties,

undoubtedly, protagonist took a irreplaceable place in the hearts of writers as well as readers of this book as long as expanding the first-person narratives in literature reflecting on the works of subsequent novelists.

In the context of 19th-century literature, among novelists Charlotte Bronte came up with her this novel as a proponent of women's inner life and unstoppable struggles against social norms pertaining to class, gender, marriage, wealth, discrimination. This novel managed to show people, especially women of that time a world in which women could possess their own independence, rights, aspirations without any control and pressure of their husbands, fathers or male relatives.

Even in the present day, the novel remains relevant with its themes of self-discovery, self-love, self-determination, equality, moral integrity and respect that are able to still encourage readers to go into that time deeper and understand norms of Bronte's era. Jane Eyre is today capable of provoking debates and discussions about gender, social justice and equality.

Conclusion. To conclude, Jane Eyre is not just a romance, it is more than a love story. Jane Eyre is a tremendous exploration of self-identity, social equality, mutual respect between marriage participants, morality, humbleness and humanism. The woman that Charlotte Bronte portrayed who is intelligent and has strong insistence on respect, freedom and equality was groundbreaking. It, without any doubt, continues to thrive and resonate with abundant eager readers. From a contemporary perspective, Jane's journey through the novel can be considered as emblematic of obstacles and berries many women may continue to encounter in their path to identify their values, rights, positions and voices. To add more, by this novel, Charlotte Bronte messages the idea that a person must not sacrifice his or her morality for love, underestimate their values for others and reject freedom for security. Her such remarkable and meaningful message remains as powerful, influential and commanding as it was before.

REFERENCES:

1. Bronte, Charlotte. Jane Eyre. London: Smith, Elder & Co., 1847.
2. Gilbert, Sandra M., and Susan Gubar. The Madwoman in the Attic: The Woman Writer and the Nineteenth-Century Literary Imagination. New Haven: Yale University Press, 1979.
3. Eagleton, Terry. Myths of Power: A Marxist Study of the Brontës. London: Palgrave Macmillan, 2005.
4. Shuttleworth, Sally. Charlotte Brontë and Victorian Psychology. Cambridge: Cambridge University Press, 1996.
5. Akhmedovna, Bakhronova M. «Life Lessons and Literary Works.» International Journal on Integrated Education, vol. 5, no. 6, 2022, pp. 213-217.
6. Akhmedovna, Bakhronova Matluba, and Nesmelova Olga Olegovna. «The use of diseases in the works of jack london.» Ustozlar uchun 18 (2023): 81-85.
7. Axmedovna, Baxronova Matluba. «Badiiy asarlarga ko'chgan hayot saboqlari. Conferencea, 401–404.» 2022
8. Kaplan, Carla. «Girl Talk: Jane Eyre and the Romance of Women's Narration.» Novel: A Forum on Fiction, vol. 30, no. 1, 1996, pp. 5-31.
9. Beaty, Jerome. «Jane Eyre and the Secrets of Furious Lovemaking.» Nineteenth-Century Literature, vol. 57, no. 1, 2002, pp. 1-24.
10. The Victorian Web <https://victorianweb.org>
11. Bloom's Guides: Jane Eyre
12. Akhmedovna, Bakhronova Matluba. «Representation of diseases as symbols of social issues in realism in English Literature.» International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036 12.05 (2023): 26-29.
13. Saidakhmedovna, Uraeva Darmon, and Bakhronova Matluba Akhmedovna. «the usage of disease names in literature and their derivation.» international journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036 12.06 (2023): 21-24.
14. Matluba, Baxronova. «Edgar Allan Po hikoyalarida ruhiy kasalliklar.» Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali 2.2 (2022).

USMON NOSIR VA SERGEY YESENIN IJODIDA SHE'RIYAT MAVZUSI VA TEMATIKASI

Bo'riyeva Muhabbat Oynazarovna
BuxDPI katta o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Usmon Nosir va Sergey Yesenin ijodida she'riyat mavzusi va tematikasi adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: hayot materiali, problema, o'y-mushohadalar, fikr-tuyg'ular, izhor, o'xshashlik, farqlar, ijtimoiy tuzum, milliy mustaqillik, hissiyot, faraz va hokazo.

Аннотация: В данной статье научно анализируются поэтические темы и мотивы в творчестве Усмона Носира и Сергея Есенина с точки зрения литературоведения.

Ключевые слова: материалы жизни, проблема, размышления, мысли и чувства, выражение, сходства, различия, социальный строй, национальная независимость, эмоции, предположения и т.д.

Abstract: This article provides a literary analysis of the themes and motifs in the poetry of Usmon Nosir and Sergey Yesenin from the perspective of literary studies.

Keywords: life material, problem, reflections, thoughts and emotions, expression, similarities, differences, social order, national independence, feelings, assumptions, and so on.

Преподаватель университета Маъмун, Хива, Хорезм

Аннотация: Метадрама как театральное средство значительно эволюционировала, особенно на протяжении всего XX века, отражая меняющиеся отношения между реальностью, искусством и культурным наследием. В данной работе рассматривается роль метадрамы в произведениях Кэрила Черчилля, ключевой фигуры современного британского театра, чьи пьесы отмечены сложными экспериментами с драматической формой. Пьесы Черчилля сопротивляются легкой категоризации, затрагивая широкий спектр вопросов через развивающуюся метадраматическую линзу. Следуя этапам творческого развития Черчилль после 1972 года, в исследовании описывается, как метадрама функционирует как важнейший компонент ее текущих театральных экспериментов. В статье подчеркивается, как произведения Черчилля выходят за традиционные рамки театра, участвуя в динамичных взаимодействиях между реалиями повседневной жизни.

Ключевые слова: Метадрама, Кэрил Черчилль, Театральный эксперимент, Постмодернистский театр, Драматическая форма, Искусство и реальность, Культурное наследие, Современный театр, Творческая эволюция.

Introduction. Metadrama as a theatrical device has a long history, yet the activation of existing forms and the development of numerous new types of metadrama in the 20th century is not coincidental. This period saw the emergence of questions concerning the relationship between

reality and art, the great myths and everyday life, and, especially in the postmodern era, the way contemporary life is refracted through the lens of literary and cultural heritage of the past.(R. Hornby, 1986)

We have analyzed the functioning and evolution of metadrama in the works of one of the first dramatists of modern Britain, Caryl Churchill. The playwright's works are quite difficult to categorize due to the variety of issues they address and her relentless experimentation with the form of dramatic writing. However, if we examine the writer's works from the perspective of a consistent metadramatic experiment, it is possible to distinguish the following global stages of the dramatist's creative development (plays written by C. Churchill in the «pre-professional» period – from 1957 to 1972 – are not included in this classification).

The proposed scheme is convenient for understanding the overall dynamics of the evolution of metadrama in the works of Caryl Churchill, but it undoubtedly requires some clarification.

Metadrama is one of the key threads of Caryl Churchill's ongoing creative experiment, allowing the playwright to explore new potentials of theatricality and even transcend the boundaries of theater, provoking intriguing interactions between life's facts and the realities of art.

The functional aspect of metadrama in the author's plays is variable and influenced by several factors: the phase of the playwright's creative evolution, the dynamics of Churchill's engagement with the artistic system of postmodernism and feminist aesthetics, and the thematic aspects of her works.

As one of the key figures of postmodernism in British drama, Caryl Churchill makes a significant contribution to the development of contemporary metadrama. Her ironic approach to historical or literary plots often allows unexpected parallels to be drawn between the current state of affairs and problematic aspects of the past. In Churchill's postmodern plays, rich in various forms of metadrama, existing dramatic traditions—such as domestic comedy, farce, and the theater of the absurd—are also ironically reworked.

A vivid example of metadrama being used at several levels of a dramatic work's structure is the play *Top Girls*, which creates an incredibly "multilayered" metadrama in the first act (the layering of literary, historical, and legendary plots of the play's female characters) and offers interesting examples of role metadrama (through the significant multiple distribution of roles). For the gradual revelation of the socio-philosophical meaning of the play, the playwright also uses metadrama in the construction of the plot, defining a non-chronological order of the acts(Шилова.Е, 2011).

One of the phenomena that is persistently "historicized" and problematized in Churchill's metadrama is undoubtedly feminism. Seeking to demonstrate the limiting power of social and gender political constructs, the author invents a unique metadramatic technique that would become a lasting hallmark of Churchill's theater—the cross-gender/cross-racial distribution of roles among the members of the acting troupe. The specificity of this technique lies in the clear dissonance between the actor's age, race, and gender characteristics and the role they play. For example, in one of the playwright's most famous feminist plays, *Cloud 9*, the role of a boy is played by an adult woman, a girl is portrayed by a mature actor, and the Victorian ideal of femininity is embodied by a man.

Even when considering Caryl Churchill's metadramatic innovations solely in the context of postmodern aesthetics, the playwright's striking ability to continuously renew her drama is evident. During the period of so-called «late» postmodernism, Churchill introduces several new characteristics into the poetics of her plays(Keyssar, H. 1984). Firstly, there is a clear convergence between her works created during this period and performance art—she visually emphasizes the theatricality of her productions. For instance, in the play *Blue Heart*, the characters have the opportunity to «replay» the same situation several times (with different outcomes) or «rewind» previously viewed scenes. Secondly, there is a certain parallelism between the work of the younger generation of «new wave» British playwrights, emerging in the mid-1990s, and Churchill's further theatrical experiments. In particular, she employs vertical organization in her dramatic texts, which are not divided into individual character lines. Thirdly, the playwright activates linguistic metadrama, deconstructing the play at the lexical and syntactic levels.

Two plays from the 1990s, written in the genre of metadrama, present certain difficulties for classification—Top Girls and The Life of the Great Poisoners. The world of these works, their system of images, plot, and role solutions (as in her earlier play The Trap) are characterized by a deliberate, repeatedly emphasized theatricality. At the same time, both Top Girls and The Life of the Great Poisoners are created within the framework of synthetic theater. These works combine dramatic text, performance, and professional vocal elements. None of the three registers in these «synthetic» plays can be considered dominant, and the deepest perception of the work implies attending the performance, not merely reading the text (Шилова.Е, 2011).

The metadrama genre creates a particular world image in these three aforementioned dramatic works, characterized by the problematic relationship between the fictional and the real, as well as the blurring of boundaries between the world of theater and «real» life.

Churchill's plays, written in the metadrama genre, actively rework foreign texts: precedent literary works and plots, which become genre-forming factors for these plays; paintings and visual art; biographical, autobiographical data, and correspondence of historical figures. Elements from these texts and various plotlines intertwine with one another through a complex system of intratextual references, which sometimes disrupt the causal relationship between the events depicted on stage.

The issue of classification arises because Top Girls was written in 1986, while the fascination with the synthesis of the arts is more characteristic of Churchill's work in the 1990s. However, in general, this piece fully fits within the complex, developed metadrama of Churchill's works from 1972 to 1990.

The characteristic doubling of reality, typical of the world image in metadrama, in Churchill's plays expands the boundaries of the artistic world of the work and allows its problems to be examined in a broader context. This departure of theater from its own limits seems logical and determined by the world's nature in metadrama, with its flexible boundaries. However, works in the metadrama genre, which marked an important stage in the creative evolution of Churchill, have not appeared among her more recent works.

An analysis of the playwright's later political works demonstrates two trends in Churchill's recent metadrama: «minimization» of metadramatic techniques and increasingly active interaction between theater and audience, with art spilling into life (Шилова.Е, 2011).»Minimized» metadrama in Caryl Churchill's work involves a significant reduction of the plot and (concurrently) a reduction in the tonal and verbal structure of the play. Given the fluidity of the narrative, metadramatic aspects of plot construction and conditionally nominative commentary take center stage. Verbal frames become important, providing the opportunity to assess the climax of the work despite the extreme vagueness of the plot. Furthermore, metatheatrical elements—titles read aloud or projected onto a screen—set the analytical perception of the unfolding action on stage.

This Is a Chair (the play that concludes the second stage of Churchill's work) already demonstrates the main tendencies of this period, not in the spirit of art synthesis, but in the direction of minimalism. The researcher is also drawn to the author's linguistic metadramatic experiment—a partial deconstruction of the speech aspect of the play, allowing the audience or reader to grasp the overall tone and emotional coloring of the conversation between the characters, but not its content.

The most recent examples of metadrama by Caryl Churchill vividly demonstrate the specifics of engaging the audience in an intellectual dialogue with the playwright, establishing «feedback» with the viewers. The playwright's works often transfer political conflicts into the artistic realm and subsequently become the subject of political debates, or even provoke the reading audience to create plays that argue with the viewpoint expressed by Churchill. This assertion is particularly relevant to the playwright's most recent work, Seven Jewish Children. The play also demonstrates the mechanism of «minimized» metadrama, reducing the traditional structure of a dramatic text: virtually all of the author's comments, the system of characters, and the plot. In this case, metadrama becomes of crucial importance in shaping the plot—through it, the playwright illuminates many chapters of the thousand-year history of the Jewish people in just 10 minutes of stage action.

Conclusion. Thus, Caryl Churchill's metadrama allows the playwright to, on one hand, combine and creatively explore the worlds of other artists, and on the other, «spill out» from the stage into

life. The conclusions we reached through analyzing the playwright's works allow us to conclude that metadrama is the creative line that connects all the elements of the playwright's theatrical experiments into one. Churchill's metadrama evolves both quantitatively and qualitatively at different periods: the examples of metadrama connected to the phenomena of postmodernist «classics,» «late» postmodernism, and the overcoming of postmodernism in art are strikingly dissimilar. However, through these variations of metadrama, Caryl Churchill sharpens the most pressing questions, forcing the audience to acknowledge the problematic aspects of reality. By opening new theatrical possibilities through metadrama, the playwright seems to offer the audience a chance to change their perception of the world, to see its theatrical features and new possibilities.

References:

- Horby, Richard. Drama, Metadrama and Perception. Lewisburgh, PA: Bucknell University Press, 1986.
- Hornby, R. (1986). Drama, metatheatre and theatre. London: Associate University Press.
- Hornby, R. (2003). Metatheatre. *The Hudson Review*, 56(3), 507-513.
- Keyssar, H. (1984). Feminist theatre: An introduction to plays of contemporary British and American women. London: Macmillan.
- Lionel, Abel. Metatheatre: A New View of Dramatic Form. New York: Hill and Wang, 1963.
- Stoll, Annita K. "Teaching Golden Age Drama: Metatheater as Organizing Principle." *Hispania* 75.5 (1992): 1343-47.
- Surtz, Ronald. The Birth of a Theater. Princeton: Princeton University Press, 1979.
- Rejapov I.O. (2023). Symbolics of numbers in Alisher Navai's "Lison-ut-tair" epic and J. Milton's «Paradise lost»// EPRA International Journal of Socio-Economic and Environmental Outlook(SEEO) ISSN: (2348-4101), Volume: 10 Issue: 11 November 2023, 31-34
- Шилова Евгения Николаевна, Метадрама в творчестве кэрил черчилил, Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук Екатеринбург - 2011

UILYAM BLEYK JAHON ADABIYOTSHUNOSLARI NIGOHIDA

Mannonova Feruzabonu Sherali qizi,
katta o`qituvchi Ingliz tili 3-fakulteti O`zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Orchid: <https://orcid.org/0000-0003-2173-4698>

Annotatsiya. Jahon adabiyotshunoslida Bleykning ijodi bugungi kunda ham aktual bo`lib, u haqida turli xil ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Zamonaviy tahlillar Bleykni postkolonializm, gender nazariyalari va ekologik adabiyot doirasida qayta talqin qilishga qaratilgan. Uilyam Bleykning ijodiyoti insoniyatning ruhiy va intellektual izlanishlarida muhim manba bo`lib qolaveradi. Shuningdek, uning ijodi falsafiy mushohadalar, diniy izlanishlar va adabiyotning yangi qirralarini ochishda hali ham olimlar uchun cheksiz imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu maqola yugoridagi masalalar ochib berilgan va Uilyam Bleykning jahon adabiyotida o`rganilishi tanqidiy tahlil etilgan.

Tayanch so`zlar: romantizm, mistik adabiyot, tabiat, obraz, diniy qarashlar, klastizm, sovet adabiyotshunosligi.

WILLIAM BLAKE IN THE EYES OF WORLD LITERARY SCHOLARS

Mannonova Feruzabonu Sherali qizi,
Senior Lecturer Faculty of English Philology 3 Uzbekistan State World Languages University

Abstract. William Blake's works remain relevant in global literary studies, with ongoing scholarly research dedicated to his legacy. Contemporary analyses reinterpret Blake through the lenses of postcolonialism, gender theories, and ecological literature. His creative works continue to serve as a vital source for humanity's spiritual and intellectual quests. Moreover, his writings provide endless opportunities for scholars to explore new dimensions of literature, philosophical reflections, and religious inquiries. This article examines these aspects and critically analyzes the study of William Blake in world literature.

Keywords: Romanticism, mystical literature, nature, imagery, religious views, classicism, Soviet literary criticism.

УИЛЬЯМ БЛЕЙК ВО ВЗГЛЯДАХ МИРОВЫХ ЛИТЕРАТУРОВЕДОВ

Маннонова Ферузабону Шерали кизи,
старшая преподавательница Факультет английского языка №3
Ўзбекский государственный университет мировых языков

Аннотация. Творчество Уильяма Блейка остается актуальным в мировой литературе, и на сегодняшний день продолжаются различные научные исследования, посвященные ему. Современные анализы переосмысливают Блейка в контексте постколониализма, гендерных теорий и экологической литературы. Его произведения продолжают служить важным источником духовных и интеллектуальных поисков человечества. Кроме того, его творчество открывает бесконечные возможности для исследователей в области философских размышлений, религиозных исканий и новых аспектов литературы. В данной статье рассматриваются эти вопросы и проводится критический анализ изучения творчества Уильяма Блейка в мировой литературе.

Ключевые слова: романтизм, мистическая литература, природа, образы, религиозные взгляды, классицизм, советское литературоведение.

Kirish. XVIII asr oxirlaridan 1830-yillargacha bo`lgan davni o`z ichiga olgan Yevropa romantizmi va mistik adabiyoti gullab yashnagan davri sifatida tilgan olinar ekan, bu davrning ilk romantik ijodkori Uilyam Bleyk sanaladi. Uning nomi Angliya romantizmining birinchi davri “Ko`l maktabi” shoirlari U.Vordsvort, S.T.Kolridj va R.Sauti nomlari bilan bog’liqdir.

Uilyam Bleyk 1757 yilda Londonda, payroq sotuvchisining oltita bolasidan biri bo`lib tug`ilgan. U boshidanoq “boshqacha” bo`lgan hayoliy bola edi, shuning uchun u maktabga jo`natilmadi, balki uyda o`qitildi. U juda yoshligidanoq o`ziga g`ayri oddiy tuyulgan voqealar haqida so`zlab beradi. Masalan, 10 yoshda u shahar tashqarisida qishloqlarni kezib yurgan paytda farishtalar bilan to`lgan bir daraxtni ko`rdi va bu haqida o`z she`rlarida keyinchalik aks ettiradi. U Miltonni bolalik paytlarida o`qib chiqdi va “Poeziy eskizlar”ni 13 yoshida yozishni boshladi. Shuningdek, u bolaligida rasm va chizish bilan ham qiziqib qoldi, lekin ota-onasi san`at maktabiga ega bo`lmagandi, shuning uchun u

14 yoshida gravyuraga qo'shildi.

18-asrning ikkinchi yarmida Yevropada "Romantik Tiklanish" nomli yangi adabiy harakat boshlandi. Bu harakat klassitsizm cheklovlariga qarshi kurash va o'rta asr adabiyotiga yangicha qiziqish bilan ajralib turardi. Angliyada bu harakat she'riyatda Pre-romantizm oqimi shaklida namoyon bo'ldi. Ushbu harakatning mashhur yozuvchilaridan biri Uilyam Bleyk edi. Uilyam Bleyk dunyo sahnasida serqirra ijodkor elatoni bo'la oldi desak mubolag'a bo'lmaydi. U dunyo san'atida shoir va rassom sifatida tan olinadi.

Adabiy sharx. 18-asr an'analaridan farqli ravishda Uilyam Bleyk she'riyatda metrika va qofiya bilan tajribalar o'tkazdi, o'z davrdoshlarining she'riyatida uchramaydigan jasur metrik yangiliklarni kiritdi. Bleyk she'rlarini oddiy va ravon til bilan yozadi. Uning she'rlari ko'pincha katta ma'no siqilishiga ega bo'lgan lirika go'zida mujassam etadi.

Uilyam Bleykning 1783 yilda chop etilgan she'rlar birinchi to'plami she'riy eskizlar - to'rt yoshgacha bo'lgan yosh shoir shoirning ishilari to'plami bo'lgan. Uning eng sevimli to'plamlari "Ma'sumlik qo'shiqlari" (1789) va "Tajriba qo'shiqlari" kitoblari bo'lib, ikkalasi ham "qo'lida ishlangan" kitoblar sifatida nashr etilgandir. Keyingi o'rinda, fransuz inqilobining g'alayonidan keyingi ishi Amerika (1793), "Albion qizi" (1793) va "Yevropada bashorat" (1794) singari kitoblarda urush va zulmga qarshi siyosiy va allegorik, norozilikning bir shakli bo'ldi.

Uilyam Bleykning 18-asrda yaratgan "Ma'sumlik qo'shiqlari", "Tajriba qo'shiqlari", Jannat va Do'zaxning nikohi" asarlari uni mashxurlik cho'qqisiga olib chiqdi va o'ziga turli yo'nalishlarni – romantizm, universalizm, mistika-jamlagan takrorlanmas asarlar dunyo adabiyoti xazimasini ingлиз tafakkuriga qarshi isyon manbai sifatida Bleyk g'oyalarini ifodaladi. Uning she'rlarida romantikga mos keladigan ko'p narsa bor - universalizm, panteizm, dunyoni har tomonlama ma'naviy idrok etishga intilish. Shunga qaramasdan, uning zamondoshlari uni mistik-simvolizmni haddan ortiq ko'p ishlatilgan degan fikrlarga duch kelmaydi. Bu bilan uning asarlari o'z yo'nalishida bebafo ekani shubhasizdir.

Metodologiya. Bleyk mavhumlikka ishonmasdan, o'z qarashlarini ko'rinarli obrazlar bilan ifodalashga moyil edi. Uning she'rlari keng ko'lamli ramzlar bilan ajralib turadi. Masalan, "Qo'zichoq" she'rida Bleyk "kichkina qo'zichoq" obrazidan odamlarni nazarda tutish uchun foydalaniб, insonlarning Xudo tomonidan yaratilganini ifodalagan va bu diniy qarashlarini aks ettirgan.

"Ah Kungaboqar" she'rida Bleyk "kungaboqar" tasviri orqali insonning tug'ilishi, qarishi va o'limi kabi tabiiy jarayonlarni idrok etdi. "Urizen kitobi" she'rida esa Bleyk o'z xayolotida yashirin va mavhum dunyo yaratib, unda o'zining Xudosini tasvirlagan, u doimo yaratgan ulkan o'rmoniga qarab turar edi. Ushbu dunyo Bleykning o'ziga xos diniy qarashlarini va ajoyib tasavvurlarini mujassam etgan.

Uilyam Bleyk shoir va rassom sifatida maqsadi butparastlik va nasroniylik komponentlatiga asoslangan o'ziga xos mifologiya yaratish edi. Bunda Bleyk osmon va yerni birlashtirish orqali ilohiy odamni imon tojiga aylantishni ko'zlagan edi.

Bleykshunoslik Rossiyada esa 1834-yildan 1991-yilgacha bo'lgan davrni qamrab olgan, biroq hali ham rus tilida to'liq bibliografiya mavjud bo'limgan. Bu davrda Bleykning o'rganilish doirasi Sovet ommasiga qisqa sharhlar dissertatsiya va monografiyalarda keltirilgan.

1947 yilda Bleyk ilk bor Sovet matbuotida N. Bentley tomonidan tarjima qilingan maqolada tilga olinadi: "O'sha davrning juda kam sonli illyustratorlari Uilyam Bleyk kabi kuchli intellekt va ijodiy tasavvurga ega edi. Uning ko'plab asarlari mistik poeziyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, aynan shu ijod orqali u mashhur bo'ldi".

Keying yillarda Rus adabiyotida Bleykka qiziqish kengaya bordi va 1956 yilda A.A. Anikstning Ingliz adabiyoti tarixi darsligida Bleykka bag'ishlangan sahifa chop etiladi. Anikst uning diniy qarashlariga tanqidiy yondashgan holda shunday yozadi: «Uning poeziyasi hayotni boshqaruvchi sirli kuchlarning diniy-mistik hissiyotiga to'la». Biroq, u shoirning demokratik g'oyalarini ham alohida ta'kidlaydi: «Bleykning uslubi ramziy ifodadan xoli emas va bu ramzlar chuqur progressiv va demokratik g'oyalarni ifodalash vositasi bo'lib xizmat qiladi».

Xalqaro Bleykshunoslik ushbu davrda oldinga siljib, Uilyam Bleykning matnlari va rassomlik asarlarini tahlil qilishning yangi usullarini taklif qildi. Uning ijodi mistik va diniy ta'limotlar bilan bog'liq holda o'rganildi. AQShda Bleyk ijodiga bag'ishlangan ikkita nashr faoliyat boshladı: Blake studies jurnali va Blake newsletter gazetasi (keyinchalik jurnalga aylantirilgan va Blake / An Illustrated Quarterly deb nomlangan).

Hozirgi paytda ham Uilyam Bleyk ijodi o'rganilishda jadal davom etmoqda. Jumladan, Professor Otto, Melburn Universitetining Redmond Barri nomidagi Ingliz adabiyoti bo'yicha taniqli professori, Uilyam Bleykning she'riyati, rasmlari va nasriy asarlari bilan bir qatorda uning maktublari va daftarlarini ham chuqur o'rgangan. Ushbu materiallar Bleyk arxivi, Britaniya kutubxonasi va Kembrij universitetidagi Fitzwilliam muzeyi kabi turli to'plamlardan olingan.

Bleykning ijodida so'z va tasvir bir butun ijodiy tovush sifatida uyg'unlashadi. Relief etsa texnikasi bo'yicha Bleykning mohirligi unga mis plastinkalarda bir vaqtning o'zida yozish va chizish imkonini bergen. Professor Otto o'tkazgan tadqiqot avvalgi izlanishlardan farqli o'laroq, Bleykning so'zlariga va tasvirlariga teng e'tibor qaratadi va ularning bir-biri bilan qanday bog'liqligini tahlil qiladi.

Shimoliy Virjiniya Kommuniti Kolleji lektori Keyren Dodson zamonaviy Jahon adabiyoti modulida Uilyam Bleyk ijodiga ko'plab murojaat etgan izlanuvchilardan biri sifatida, shoir haqida quyidagicha fikrlar bildirgan edi: "Uilyam Bleykning ijodi ko'pincha uning ilk she'riy to'plamlari — "Ma'sumlik qo'shiqlari" va "Tajriba qo'shiqlari" orqali keng ommaga tanish. Ushbu ikki to'plam qarama-qarshi juftlik sifatida tashkil etilgan bo'lib, Bleyk avval dunyoni begunoh bola ko'zi bilan tasvirlaydi, so'ngra esa zulm va shafqatsizlikka qarshi norozilik ohangi bilan aks etuvchi yetuk ovoz bilan yondashadi. Bleykning barcha asarlarida biror ijtimoiy yoki siyosiy bayonot mavjud bo'lib, ba'zan u nozik, ba'zan esa juda aniq ifodalananadi. Bleyk nafaqat shoir, balki tasavvurga boy rassom sifatida ham tirikchilik qilgan. Uning betakror illyustratsiya va rasmlari bugungi kunda dunyoning eng nufuzli muzeylarida saqlanib kelmoqda."

Uilyam Bleykning "Ma'sumlik qo'shiqlari" asari va undagi obrazlari turli olimlar tomonidan keng tadqiq qilingan va turli yondashuvlar asosida tahlil etilgan. Ulardan biri Kanadalik adabiyotshunos va tanqidchi Nortrop Fraydir. U1947 – yilda yozilgan tomonidan yozilgan "Fearful Symmetry" (Daxshatl Simmetriya) ilmiy asarida Uilyam Bleykning poeziyasiga yangi nazariy yondashuvni taqdim etgan va Bleykning adabiy merosini qayta baholashda muhim rol o'ynagan. "Fearful Symmetry" Bleykning murakkab asarlarini tushunishga yordam bergan ilmiy manba sifatida adabiyotshunoslар orasida katta hurmat qozongan. Nortrop Frayning ushbu asari Bleykshunoslikning rivojlanishiga turtki bo'lган va adabiyot nazariyasida muhim o'rinnegallagan.

Nortrop Fray o'zining bu asarida qo'zi, cho'pon va bola obrazlarni diniy hamda ilohiylik nuqtai nazaridan tahlil qilib, ularni beg'uborlik va tajriba o'rtasidagi qarama-qarshilikni tushunish uchun muhim deb biladi. Nortrop Fray Bleykning asarlarida arxetipik obrazlarni o'rgangan. Nortrop Fray bu obrazlarning Bleyk dunyoqarashidagi ramziy ahamiyatini chuqur anglab, ularni diniy tasavvurlar bilan bog'laydi.

Amerikalik adabiyotshunos, Yale Universiteti professori Harold Blum esa bu obrazlarni inson va ilohiylik o'rtasidagi munosabatlar kontekstida tahlil qiladi. U bolalarni sof inso niylik timsoli sifatida ko'rsatsa, cho'pon va qo'zini ma'naviy ideallikning ifodasi deb baholaydi.

Harold Blum Uilyam Bleyk haqida o'zining "Uilyam Bleyk (Zamonaviy tanqidiy qarashlar seriyasi)", "G'arb qomusi", "Ta'sir qo'rquvi" va "Ilhomkor shoirlar jamiyatasi: Ingliz Romantik poeziyasiga nazariya" bir qancha asarlarida yozgan. Ushbu ilmiy asarlar orasida va "Ilhomkor shoirlar jamiyatasi: Ingliz Romantik poeziyasiga nazariya" da olim ingliz romantik she'riyatini o'rganadi va Bleykning ijodiy obrazlari, allegorik poetikasi haqida chuqur tahlil beradi.

"G'arb qomusi" esa kitobda Bleyk G'arb adabiyotining muhim ijodkori sifatida ko'rsatilgan. Blum Bleykning «Songs of Innocence and of Experience» (Beg'uborlik va Tajriba qo'shiqlari) asarini ham eslatib o'tadi.

Blum o'zining "Uilyam Bleykning Beg'uborlik va Tajriba qo'shiqlari" she'riy to'plamiga chuqur tahlil beradi. Bu to'plam Bleykning eng mashhur va ta'sirchan asarlaridan biri bo'lib, inson ruhiyatidagi beg'uborlik va hayot tajribasi o'rtasidagi ziddiyatlarni aks ettiradi. Blum o'z asarida Bleykning she'rlarida aks etgan diniy, falsafiy va ma'naviy ma'nolarni o'rganadi. U bolalar, cho'pon va quzular obrazlarni sof insoniylik va ilohiy ideallar timsoli sifatida talqin qiladi. Blum Bleykning bu obrazlar orqali inson va ilohiylik o'rtasidagi munosabatni ko'rsatganini ta'kidlaydi. Ushbu ilmiy asar Bleykning ijodiy dahosi va uning ijodidagi ramziy ma'nolarni chuqurroq anglashga yordam beradi. Bloomning yondashuvi Bleykning asarlarini nafaqat romantik davr kontekstida, balki zamonaviy adabiyot nazariyasida ham qayta tahlil qilish uchun muhim yo'nalish yaratgan.

Amerika Bleykshunoslik maktabi vakillaridan yana biri Devid Erdman esa Bleykning obrazlarini ijtimoiy va siyosiy kontekstda ko'rib chiqib, bola va tabiat obrazlarini ijtimoiy adolatsizlik hamda ma'naviy poklikni ta'kidlovchi ramz sifatida tahlil qiladi. Bunday yondashuv orqali Erdman Bleykning

zamonaviy davr bilan bog‘liq tanqidiy fikrlarini olib beradi. Uning eng mashhur asarlaridan biri “Blake: Prophet Against Empire” bo‘lib, unda Bleykning asarlaridagi inqilobiy va ijtimoiy mazmun batafsil olib berilgan.

Erdmanning zamondoshi ingliz adabiyotshunosni Jeffri Keyns 1957 – yilda “The Complete Writings of William Blake” ilmiy asarini yozadi va bu orqali Bleyk ijodiga yondashuvni yangi bosqichga olib chiqadi. Bleykning grafikalari va she’riyati o‘rtasidagi aloqani chuqur o‘rgangan bo‘lib, ayniqsa bolalar va farishtalar obrazlariga vizual tasvirlar orqali chuqur mazmun yuklaydi.

Yana bir Uilyam Bleykning ijodi bo‘yicha muhim ilmiy ishlar qilgan mashxur ingliz adabiyotshunosni va tadqiqotchi John Bir bo‘lib, U 1968-yilda nashr etilgan “Blake’s Humanism” asarida Bleykning asarlaridagi insoniylik, ruhiy tajribalar va metafizik tushunchalarni chuqur tahlil qilgan. Birning tadqiqotlari Bleykning she’rlari va tasvirlarida inson ruhining sof va ilohiy qismi sifatida tasvirlangan obrazlarni psixologik va falsafiy kontekstda o‘rganishga qaratilgan. U ayniqsa Bleykning insoniyatni chekllovchi jamiyatga qarshi tanqidiy yondashuvini va uning falsafiy qarashlarining evolyutsiyasini yoritgan. Birning yondashuvi Bleyk ijodiga yangicha, chuqurroq qarash imkoniyatini bergen. Olim o‘z tadqiqotlarida Biring asarida Bleykning she’rlari va tasviriy san’atida inson ruhining sof, erkin qismi sifatida aks etgan obrazlar tahlil qilinadi. Bir bu obrazlarni insonning o‘z tabiatini anglash va cheklolvlardan qutulishga bo‘lgan intilishi nuqtai nazaridan o‘rganadi. Shuningdek, Bir Bleykning ijodida mavjud bo‘lgan jamiyatga nisbatan tanqidiy yondashuvni, ayniqsa ijtimoiy va diniy cheklolvarga qarshi qarashlarini tahlil qiladi. Bu asar Bleykning ijodiga yangicha nazar tashlagan va uning insoniylikka asoslangan falsafasini zamonaviy adabiy va falsafiy muhokamalarga kiritishga yordam bergen ilmiy asarlardan biridir.

Sharq va Osiyo adabiyotshunoslida Uilyam Bleyk ijodini o‘rgangan Sharq olimlari haqida aniq ma’lumot topish qiyin. Biroq, Sharq adabiyoti va madaniyati bilan shug’ullangan ba’zi olimlar G’arb adabiyotiga ham qiziqish bildirgan. Masalan, eron yozuvchisi va filologi Sodiq Hidoyat Tehrondag'i o‘quv yurtida, Belgiya va Fransiyada (1926—1930) ta’lim olgan. Xorij adabiyoti, jumladan, Edgar Po, Gogol, Mopassan va Uilyam Bleyk ijodini o‘rgangan. Biroq, Sodiq Hidoyat Uilyam Bleyk ijodiga bag‘ishlangan alohida asar yaratmagan, balki “Kafka nomasi”, “Yevropada Islom missiyasi” kabi ilmiy izlanishlari va tarjimalari orasida shoir ijodidan namunalar topish mumkin.

Xulosa. Uilyam Bleykning she’riyati ijtimoiy tanqidga asoslangan bo‘lib, siyosiy zulm, iqtisodiy ekspluatatsiya, feodal cherkov va o‘z davridagi boshqa yovuzliklar va qorong’u haqiqatlarni fosh etadi. Bleykning ijodidagi asosiy mavzulardan biri ozodlik, tenglik va birodarlik uchun kurashdir, ayniqsa, shaxsning ichki ruhiy erkinligi va tengligi muhim o‘rin tutadi.

Bleykning eng diqqatga sazovor she’riy asarlari orasida uning «Tajriba qo‘shiqlari» (Songs of Experience) to‘plami alohida o‘rin egallaydi. Ushbu asarlarda u o‘z davridagi achchiq ijtimoiy tanqidni aks ettirib, hukmron sinfnинг xayriya niqobini olib tashlaydi va ularning haddan tashqari shafqatsizligi va korrupsiyasini keskin qoralaydi.

Yuqorida tahlillardan kelib chiqan holda shuni xulosa qilish mumkinki, Bleykning she’riyati mavzularining xilma-xilligi va ijodiy uslublarining o‘ziga xosligi tufayli uning she’rlari dunyo bo‘ylab qadrlanadi va tarixiy hamda makoniy chegaralarni kesib o‘tib mashhur bo‘lib qolmoqda.

Foydalilanigan adabiyotlar:

- G. Bentley. Bleyk qaydnomalari. Clarendon Press (Oxford University Press). 2004.
- Harold Bloom. G’arb qomusi. Harcourt Brace. 1994.
- Hutchings, Kevin (2007). «William Blake and the Music of the Songs». Romanticism on the Net (45).

Jeannie Campe. 19- asrning anglanmagan ijodkori. Ilmiy izlanuvchilar jurnali. 2004.

M. Mahmudova. Jahon adabiyoti. Buzoro. 2024.

U. Hamdamov. A. Qosimov. Jahon adabiyoti. Toshkent. 2017.

V. Serdechnaya. Uilyam Bleyk sovet qabulida: «Inqilobiy romantik» obrazining shakllanishi. perm universiteti axborotnomasi: rus va xorijiy filologiya. 2020. 12-tom, 4-son. 136- bet

Yiling Wang. Uilyam Bleyk she’riyatida ijtimoiy haqiqatning ochilishi. BCP ta’lim va Psixologiya. 7- son.

O'ZBEK TILIDAGI GASTRONOMIYA SOHASI TERMINOLOGIYASINING FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Muhammadiyeva Nodira Xudoyor qizi
O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbek tilidagi gastronomiya terminlarining funksional-semantic xususiyatlari tahlil etiladi. Tadqiqot doirasida gastronomiya sohasiga oid terminlarning kelibchiquishi, shakllanishi, ma'noviy guruhlanishiga ularning turlinutqiy muhitlardagi qo'llanilishi o'rGANILADI. Shuningdek, xalqaro va mahalliy terminlarning o'zaro aloqasi, tarjima muammolari hamda terminlarning zamonaviy til tizimidagi o'rni tahlil qilinadi. Maqola natijalariga ko'ra, O'zbek tilidagi gastronomiya terminlari tarixiy, madaniy va lingvistik omillarning ta'sirida shakllanganligi, ularning funksional xususiyatlari esa kontekstga qarab o'zgarishi aniqlanadi. Ushbu tadqiqot gastronomiya terminologiyasining rivojlanishi va standartlashtirish jarayonlariga hissa qo'shish imkoniyatini beradi.

Kalit so'zlar: O'zbek tilidagi gastronomiya sohasi terminologiyasining funksional xususiyatlari, turizm va gastronomik brending "organik mahsulot", "mahalliy taomlar", madaniy kommunikatsiya vositali, "O'zbekiston oshxonasi haftaligi", Globalizatsiya va madaniy raqobat.

FUNCTIONAL-SEMANTIC FEATURES OF GASTRONOMY TERMINOLOGY IN THE UZBEK LANGUAGE

Muhammadiyeva Nodira Xudoyor qizi
The Doctorate of the Uzbek State University of World Languages

Abstract: This article analyzes the functional-semantic characteristics of gastronomic terms in the Uzbek language. The research examines the origin, formation, and semantic categorization of gastronomy-related terms, as well as their usage in various speech contexts. Additionally, the study explores the interrelationship between international and local terms, translation challenges, and the role of these terms in the modern linguistic system. The findings reveal that gastronomic terms in the Uzbek language have been shaped by historical, cultural, and linguistic factors, with their functional features varying depending on the context. This research contributes to the development and standardization processes of gastronomic terminology.

Key words: Functional features of gastronomic terminology in the Uzbek language, tourism, and gastronomic branding: «organic products», «local dishes», «a means of cultural communication, «Uzbekistan Culinary Week», and «Globalization and cultural competition.»

ФУНКЦИОНАЛЬНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ГАСТРОНОМИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Мухаммадиева Нодира Худоёр кызы
Докторант Узбекского государственного университета мировых языков

Аннотация: В данной статье анализируются функционально-семантические особенности гастрономических терминов в узбекском языке. В исследовании рассматриваются происхождение, формирование и семантическая классификация гастрономических терминов, а также их использование в различных речевых контекстах. Кроме того, в исследовании рассматриваются взаимосвязь международных и местных терминов, проблемы перевода и роль этих терминов в современной языковой системе. Результаты показывают, что гастрономические термины в узбекском языке формировались под влиянием исторических, культурных и лингвистических факторов, причем их функциональные особенности варьировались в зависимости от контекста. Данное исследование способствует развитию и стандартизации гастрономической терминологии.

Ключевые слова: Функциональные особенности гастрономической терминологии в узбекском языке, туризме и гастрономическом брендинге: «органические продукты»,

«местные блюда», «средство культурного общения», «Неделя кулинарии Узбекистана» и «Глобализация и культурное соревнование.»

O'zbek tilidagi gastronomiya sohasi terminologiyasi milliy madaniyatning muhim bir bo'lagi bo'lib, bu sohada ishlatiladigan atamalar milliy oshxonaning boyligi va xilma-xilligini aks ettiradi. Ushbu terminlar faqatgina taom va ichimliklarning nomlarini ifodalash bilan cheklanmay, balki ularning tarkibi, tayyorlanish texnologiyasi, estetikasi va iste'mol qilish madaniyatini ham yoritadi. Funktsional jihatdan bu terminologiya madaniy aloqalarni o'rnatish, iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish va milliy o'zlikni saqlashda muhim rol o'ynasa, semantik jihatdan esa ularning shakllanishida tarixiy, lingvistik va mintaqaviy omillar yaqqol namoyon bo'ladi. Gastronomik terminologiyaning funksional-semantik xususiyatlarini tahlil qilish orqali uning lingvistik hodisa sifatidagi mohiyati va jamiyat hayotidagi ahamiyatini chuqur anglash mumkin.

O'zbek tilida gastronomiya sohasining terminologiyasi funksional va semantik jihatdan juda keng va qiziqarli mavzudir. Ushbu sohalarni har biri o'z ichiga bir qator guruhlanishlarni, yo'nalishlarni oladi. Quyida ushbu soha bilan bog'liq asosiy tushunchalarni yoritib beraman. Dastlab o'zbek tilidagi gastronomiya sohasi terminologiyasining funksional xususiyatlarini ko'rib chiqsak.

Amaliy jihatlari. Gastronomiya sohasiga oid terminlar ovqat tayyorlash, iste'mol qilish, taomlarni tavsiflash, shuningdek, oziq-ovqat texnologiyalari bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarda ishlatiladi. Masalan, "osh", "manti", "somsa", "sho'rva" kabi terminlar O'zbekiston oshxonasida keng qo'llanilib kelinadi. O'zbek tilidagi gastronomiya terminologiyasining amaliy ahamiyatlarini tahlil qilar ekanmiz uni madaniy, iqtisodiy, ilmiy va kommunikativ jihatlarda ham muhim rol o'ynashiga guvohi bo'lamiz. Quyida ushbu fikrning tahlilini batafsil ko'rib chiqamiz:

Madaniy ahamiyati. Eng avvalo milliy o'zlikni aks ettirish jihatiga e'tibor qaratsak: Gastronomiya terminologiyasi orqali milliy oshxona madaniyati va urf-odatlari saqlanadi. Bunga misol qilib "osh", "samarqand noni", "norin" kabi terminlarni keltirish mumkin va ular nafaqat taomlarni, balki taom tayyorlanish uslubi, tarixi va urf-odatlarini ham ifodalaydi.

Bundan tashqari gastronomiya sohasiga oid terminlar madaniyatlararo aloqa vositasi sifatida ham gavdalanadi. O'zbek milliy taomlari boshqa xalqlar tomonidan tanilishi va tushunilishi uchun terminologiya muhimdir. Masalan, xalqaro gastronomik tadbirlarda "palov" va "shashlik" kabi so'zlar tarjima qilinmasdan ishlatiladi, bu ularning global miqyosda tan olinganligini ko'rsatadi.

Iqtisodiy ahamiyati. Gastronomiya terminlari turizm va gastronomik brending kabi sohalarda ham keng qo'llanilib kelinadi. Milliy oshxonaning terminlari turizmni rivojlantirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi va bu borada restoran va kafelar menyusida ishlatiladigan terminlar (masalan, "mastava", "somsa", "lag'mon") chet ellik turistlarni milliy taomlarga jalb qilishda xizmat qiladi.

Gatronomik terminlar shu bilan bir qatorda iste'molchi bilan aloqani o'rnatish uchun ham xizmat qiladi. Mahsulot va xizmatlarni reklama qilishda aniq terminlar muhim hisoblanib, atamalar iste'molchilarni jalb qilishda qo'llaniladi. Masalan, "organik mahsulot", "mahalliy taomlar" kabi atamalar shular jumlasidandir.

Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati sohasida ham gastronomiya sohasi terminologiyasi zarurdir. Mahalliy oziq-ovqat mahsulotlarining nomlari, masalan, "Farg'ona gilos", "Andijon qovunlari", "Qo'qon somsasi", eksport qilishda iqtisodiy ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy va ta'limiy ahamiyati. Til va madaniyat tadqiqotlarida gastronomik terminlar juda keng doirada qo'llanilib kelinadi. Gastronomik terminlarni o'rganish orqali tilning rivojlanishi va o'zlashmalar tarixi haqida ma'lumot olish mumkin. Masalan, o'zbek tilidagi arab va fors tillaridan o'zlashgan terminlar orqali tarixiy madaniy aloqalar o'rganiladi.

Shu bilan bir qatorda ushbu terminlar ta'limda ham keng foydalilanadi. O'zbek milliy taomlarining terminologiyasi maktab va oliy ta'lim dasturlarida madaniy merojni o'rgatishda qo'llaniladi.

Kommunikativ ahamiyati. Gastronomik terminlar taomlarning tuzilishi, masalliqlari va tayyorlanish jarayonini aniq ifodalaydi va bu o'z navbatida milliy oshxonani tasvirlashda anqlikni yuqori darajaga olib chiqadi. Masalan, "sho'rva" va "manti" terminlari turli taomlarni tavsiflashda

chalkashlikni oldini oladi.

Gastronomiya sohasi terminlari reklama va marketingda ham ko'p qo'llanilib kelinadi. Mahsulot va xizmatlarni bozorda targ'ib qilishda terminlarning to'g'ri ishlatalishi iste'molchilarni jalg qilishda yordam beradi. Masalan, "yog" bilan tayyorlangan non" yoki "an'anaviy uslubda tayyorlangan lag'mon" kabi iboralar iste'molchilar e'tiborini tortadi.

O'zbek tilidagi gastronomik terminlar nafaqat milliy oshxonaning muhim qismini tashkil etadi, balki ularning amaliy qo'llanilishi madaniyatni targ'ib qilish, iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, va xalqaro aloqalarni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Bu terminologiyani chuqurroq o'rGANISH milliy madaniyatni saqlash va targ'ib qilish yo'lidagi muhim qadamlardan biridir.

Madaniy kommunikatsiya vositasi. Gastronomiyaga oid terminlar orqali turli xalqlar oshxonasi madaniyatlari o'zaro aloqaga kirishadi va milliy taomlar boshqa tillarga tarjima qilinadi. O'zbek tilidagi gastronomiya terminologiyasi madaniy kommunikatsiya vositasi sifatida milliy oshxona madaniyatini targ'ib qilish, xalqlar o'rtasida madaniy aloqalarni o'rnatish va o'zlikni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Quyida ushbu mavzuni kengroq tahli qilib chiqamiz.

Madaniyatni targ'ib qilish vositasi. O'zbek tilidagi gastronomik terminlar milliy oshxona madaniyatining o'ziga xosligini ifodalaydi. Masalan, "palov", "manti", "norin", "somsa" kabi so'zlar nafaqat taomni, balki uning tayyorlanish uslubi va tarixini ham aks ettiradi. Ushbu terminlar O'zbekistonning milliy brendi sifatida va o'zbek milliy oshxona timsoli dunyoga tanitmoqda.

Ayrim gastronomik terminlar, masalan, "palov", "shashlik", "lag'mon", tarjima qilinmasdan boshqa tillarga o'zlashgan. Bu so'zlar O'zbek madaniyatining global miqyosda tan olinganligini ko'rsatadi va shuningdek, xalqaro tan olingan terminlar sifatida e'tirof etilib kelinmoqda.

Madaniy aloqalarni rivojlantirish: Xalqlar o'rtasidagi madaniy almashinuv jarayonlarida ham gastronomik terminlar muhim rol o'ynaydi. O'zbek gastronomiyasi festivallari va xalqaro tadbirdarda ishlataladigan terminlar boshqa xalqlarni o'zbek oshxonasi bilan tanishtiradi. Masalan, "O'zbekiston oshxona haftaligi" tadbirdarida terminlar yordamida taomlar haqida tushuncha beriladi.

Chet el turistlari bilan aloqa o'rnatish jarayonlarida o'zbek tilidagi gastronomik terminlar turistlarga milliy oshxona madaniyatini tushuntirishda vosita bo'lib xizmat qiladi. Masalan, restoranlar menyusida "tandir kabob", "sho'rva", "chalop" kabi terminlarning ishlatalishi turistlar uchun qiziqish uyg'otadi.

Tarixiy va madaniy merosni saqlash. Ko'plab gastronomik terminlar tarixiy va madaniy qadriyatlarni o'zida mujassam etib, an'analar va urf-odatlarning ifodasini aks ettirmoqda. Masalan, "navro'z palovi" yoki "hayit somsasi" kabi atamalar o'zbek xalqining diniy va milliy bayramlari bilan bog'liq urf-odatlarini aks ettiradi.

O'zbek tilidagi gastronomik terminlar turli hududlarda o'ziga xoslikka ega bo'lib, ularning tahlili natijasida mahalliy dialektlarning naqadar xilma-xil va boyligiga guvohi bo'lishimiz mumkin. Masalan, Toshkentda "osh" deb ataladigan taom Samarqandda "palov" deb nomlanadi. Ushbu dialektal farqlar madaniy xilma-xillikni ifodalaydi.

Globalizatsiya va madaniy raqobat. Zamonaviy global sharoitda o'zbek tilidagi gastronomik terminlar xalqaro restoranlar tarmog'ida ishlatalmoqda va bu o'z naavbaatida mahalliy oshxonaning global bozorga chiqishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, "Uzbek pilaf" yoki "Samsa" kabi nomlar ko'plab chet elliklar tomonidan tan olinmoqda.

Boshqa madaniyatlarning oshxonasi bilan raqobatlashishda o'zbek gastronomik terminlari milliy madaniyatning o'ziga xosligini saqlashda muhim rol o'ynaydi va bu madaniy raqobatda o'zlikni saqlash uchun yordam beradi.

San'at va adabiyotda aks etishi. Gastronomik terminlar o'zbek xalqining she'riyat va qo'shiqlarida tez-tez uchraydi. Masalan, "palov" yoki "non" so'zları xalq og'zaki ijodida ko'p marotaba tilga oilnadi va bu milliy qadriyatlarni ifodalaydi.

Bundan tashqari, o'zbek yozuvchilari va shoirlari o'z asarlarida gastronomik terminlardan foydalaniib, milliy oshxona madaniyatini tasvirlaydi. Masalan, Abdulla Qodiriy yoki Oybek kabi yozuvchilarining asarlarida oshxona bilan bog'liq tasvirlar ko'p uchraydi.

Reklama va marketingda ahamiyati. Milliy oshxonaga xos terminlar mahalliy va xalqaro bozorda brend sifatida ishlatalmoqda. Masalan, "Toshkent palovi", "Andijon somsasi", "Buxoro

tandir go ‘shti’ kabi nomlar o ‘ziga xos gastronomik mahsulotlarni taqdim etadi va bu o’z navbatida brend yaratish vositasi sifatida xizmat qiladi[1]

Shuningdek, gastronomiya sohasi terminologiyasi orqali reklama matnlarida ishlatiladigan so‘zlar iste’molchilarda milliy oshxonaga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi.

O‘zbek tilidagi gastronomiya terminologiyasi milliy oshxona madaniyatini dunyoga tanitish, tarixiy va madaniy qadriyatlarni saqlash, hamda xalqlar o‘rtasida madaniy aloqalarini mustahkamlashda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu terminlar nafaqat taomlarni ifodalaydi, balki o‘zbek xalqining o‘ziga xos madaniy merosini ham aks ettiradi.

Shuningdek, o‘zbek tilidagi gastronomiya terminologiyasining ijodiy va reklama sohasidagi o‘rni muhim ahamiyatga ega, chunki bu so‘zlar orqali milliy oshxonaning o‘ziga xosligi targ‘ib qilinadi, brendlар yaratiladi va iste’molchilarni jalg qilishning samarali usullari qo‘llaniladi. Quyida ushbu mavzu batafsил yoritiladi:

1. Ijodiy sohadagi o‘rni. a) Adabiyot va san’atda aks etishi. Gastronomiya terminlari o‘zbek adabiyotida milliy oshxona madaniyatini tasvirlashda keng qo‘llaniladi. Bunga misol qilib Abdulla Qodiri yoki Cho‘lpon asarlarini keltirib o‘tishimiz mumkin, ushbu asarlarda “osh”, “somsa”, “norin” kabi terminlar o‘sha davrning ijtimoiy va madaniy muhitini aks ettirgan.

Milliy oshxonaga xos so‘zlar xalq og‘zaki ijodida, she‘r va qo‘shiqlarda ham keng qo‘llaniladi. Masalan, “non” yoki “palov” kabi so‘zlar turli bayramlar va urf-odatlar bilan bog‘liq tuyg‘ularni ifodalashda ishlatiladi.

b) O‘ziga xos ijodiy g‘oyalar yaratish. Gastronomik terminlar ijodkorlarga yangi loyihalar yaratishda ilhom beradi. Masalan, taomlar nomlari yoki ularning tayyorlanish jarayoni asosida filmlar, teatr sahnalari yoki san’at asarlari yaratiladi.

Shu bilan bir qatorda, gastronomiya terminlari menyularning dizaynlarini ishlab chiqishda ham xizmat qiladi. Restoran va kafelar menyusi terminologiyadan ijodiy foydalanish orqali iste’molchilar e’tiborini jalg qiladi. Masalan, “Qo‘qoncha somsalar”, “Buxoro kaboblari” kabi nomlar o‘ziga xos bo‘lgan jihatlarni ta’kidlaydi.

2. Reklama sohasidagi o‘rni. a) Mahsulot va xizmatlarni targ‘ib qilish. O‘zbek gastronomik terminlari reklama materiallarida iste’molchilarga tanish va qiziqarli bo‘lgan ifodalarni yaratishda ishlatiladi. Masalan, “An’anaviy lag‘mon”, “Uyda tayyorlangan somsa”, “Navro‘z palovi” kabi iboralar iste’molchilarni jalg qiladi.

Bundan tashqari gastronomiya sohasi terminologiyasi orqali restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlariga brend nomlari beriladi. Masalan, “Toshkent oshxonasi”, “Farg‘ona lag‘moni”, “Buxoro kaboblari” kabi nomlar mahalliy oshxonaning o‘ziga xosligini ifodalaydi.

Xalqaro reklama va marketing. O‘zbek oshxonasiga xos terminlar, masalan, “pilaf”, “samsa”, “shashlik”, xalqaro reklamalarda ishlatiladi. Bu mahsulotlarni eksport qilish yoki chet ellik turistlarni jalg qilishda samarali vosita hisoblanadi hamda gastronomik terminologiya turistlar uchun milliy oshxonani tanishtiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Masalan, “O‘zbek palovi festivali” kabi nomlar milliy oshxonaning targ‘ibotiga xizmat qiladi.

3. Reklama matnlarida terminlarning roli. a) Qiziqish uyg‘otish. Gastronomik terminlar reklama matnlarini esda qolarli va jozibador qilishda ham keng qo‘llaniladi. Masalan, “Tandirda pishgan issiq somsalar” kabi iboralar iste’molchida taomga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otadi va xaridor uni xarid qilish uchun xohish bildiradi. Hozirgi kunda reklama matnlarida ishlatilinib kelinayotgan “mahalliy”, “organik”, “an’anaviy” kabi terminlar iste’molchilarning e’tiborini mahsulot xaridi tomon jalg qilayotgani ham ushbu fikrimizning dalilidir.

b) Auditoriyani jalg qilish. Milliy terminlardan foydalanish reklamaning maqsadli auditoriyasini aniqlashga yordam beradi. Masalan, “Hayit lag‘moni” yoki “Navro‘z shirinliklari” kabi terminlar o‘zbek madaniyatiga oid mijozlar e’tiborini jalg qiladi.

4. Mahsulot va xizmatlar brendlashda qo‘llanilishi. Mahalliy terminlardan foydalanish: Taom nomlарini tijorat maqsadida brendlash orqali mahsulotlarni tanib olish osonlashadi. Masalan, “Buxoro lag‘moni” yoki “Samarqand somsasi” kabi nomlar taomning kelib chiqishi haqida tushuncha beradi.

Qadoqlash dizayni: Gastronomik terminlar mahsulot qadoqlarida milliylik va sifatni

ta'kidlashda muhim vosita hisoblanadi. Masalan, "Farg'ona anori" yoki "Qo'qon qovuni" kabi terminlar mahsulotning noyobligini ko'rsatadi.

5. Zamonaviy media va raqamli marketingda foydalanish. Ijtimoiy tarmoqlarda foydalanish: Milliy gastronomik terminlar ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilarni jalb qilishda keng qo'llaniladi. Masalan, #palov, #somsa yoki #uzbekcuisine kabi hashtaglar milliy oshxonani xalqaro auditoriyaga tanitadi.

Shuningdek, o'zbek tilidagi gastronomik terminlar bloglar va video kontentlarda ham faol ishlatilinib kelinadi. O'zbek oshxonasiga oid terminlar video bloglar va kontentlarda milliy oshxonani ommalashtirish uchun ishlatiladi. Misol uchun, "O'zbekcha palov tayyorlash retsepti" kabi videolar mashhur bo'lib, millionlab ko'rishlarni to'playdi[2].

O'zbek tilidagi gastronomiya terminologiyasi ijodiy va reklama sohalarida milliy oshxonani targ'ib qilish, brendlarni yaratish va iste'molchilar e'tiborini jalb qilishning muhim vositasi hisoblanadi. Bu terminlar madaniyatni saqlash va rivojlantirish bilan birga, iqtisodiy va kommunikativ jihatlarda ham katta ahamiyatga ega. Reklama va ijodiy loyihalarda to'g'ri terminologiyadan foydalanish milliy oshxonaning jozibasini oshirishga va xalqaro miqyosda tan olinishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

Холбоёева А.Ш. Туризмга oid reklamatardar ritorik aspektning chogi shirma tадқиқи (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида). Фил. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация: 10.00.06. - Б. 67.

Toshboyeva L. J. Ingliz va o'zbek tillarida turizm terminlarining chog'ishtirma tadqiqi va tarjima muammolari. –Zamonaviy ta'lif, 2023, Issue 3. 6-bet.

3. Sanakulova, Maftuna Qahramon qizi. "Ingliz va o'zbek gastronomik diskurslarining semiotik xususiyatlari." Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 2023.

4. Mahmudova, Umida Ural qizi va Qayumova, Nargiza Rahmatqul qizi. "Oziq-ovqat terminologiyasining tarkibiy-mazmuniy tarjima qilish masalalari." Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 2023.

Ma’lum bo‘ladiki, dastlabki davrlarda davlatning til borasidagi shovinistik siyosatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida yaratilgan bo‘lsa, so‘nggi yillarda sof ijtimoiy zarurat nuqtayi nazaridan dunyoning eng muhim tillaridagi yuridik terminlarning ifodasi haqida ma’lumot beruvchi lingvistik manba sifatida dunyo yuzini ko‘rmoqda. Ko‘p tilli terminologik lug‘atlar vositasida qo‘lga kiritilgan natijalar umumiylar tarjima lug‘atlarida ham o‘z aksini topmoqda. Zero, terminologik birliklar ham nominativ birlik sanaladi va ba’zan uning so‘zma-so‘z tarjimasi ma’noning o‘zgarib ketishiga sabab bo‘ladi. Shu sababli muayyan tilda birikma shaklida bo‘lgan terminlar boshqa tilga biringa so‘z bilan tarjima qilinishi mumkin. Bunda asosiy maqsad huquqiy tushuncha ma’nosining boshqa tildagi aynan muqobilini berish sanaladi. Masalan, huquqning vujudga kelishi birikmali terminini ifodalovchi tushuncha ingliz tilida biringa right leksemasi bilan ifodalanishi mumkin va bu tahlil qilinayotgan lug‘atda qayd etilgan [7: 197]. Shu kabi o‘rnarda turli sohalarga doir bo‘lgan maxsus tarjima lug‘atlarining ahamiyati namoyon bo‘ladi.

Tilshunoslikning leksikografiya sathida erishilgan natijalar sarhisobi izohli lug‘atlarda o‘z aksini topadi. Chunki tilning butun leksikasi, ya’ni barcha uslublarga xos bo‘lgan so‘z va iboralar, chegaralangan va chegaralanmagan qatlama birliklarini aynan izohli lug‘atlardan topish mumkin. Jamiyat hayotidagi eng muhim o‘zgarishlar birinchi navbatda qayd etiladigan leksikografik manba ham izohli lug‘atlardir. Izohli lug‘atlarda tushunilishi murakkab bo‘lgan leksik birliklar til egalarining keng qatlami uchun tanish bo‘lgan boshqa leksik birliklar vositasida ifodalanadi. Chegaralangan qatlama birliklarining definitsiyasi murakkabligini hisobga olganda, maxsus izohli ilmiy matnlarda qo‘llanadigan terminlarning keng jamoatchilik ommasiga tushunarli bo‘lishini ta’minalaydi. Ilm-fan taraqqiy etar ekan, so‘zsiz, o‘rganilayotgan obyektni tavsiflash uchun maxsus leksik birliklarga ehtiyoj tug‘iladi. “Texnika, madaniyat, san’at, ijtimoiy-siyosiy hayotning rivoji o‘zining maxsus so‘zlarini vujudga keltiradi” [4: 3]. Yuridik terminologiya birliklarining izohli lug‘atlari dolzarbligi, aholining keng qatlami uchun zarurligi bilan boshqa terminologik izohli lug‘atlardan farqlanadi. Chunki yuridik soha terminlari va ular ifodalaydigan tushunchalar bilan har bir shaxs har kuni duch keladi. Masalan, yuridik terminologiya tasniflariga

kiruvchi unsurlarning aksariyati umumtil leksikasi sifatida ham baholanadi. Jumladan, yuridik terminologiya tarkibiga kiruvchi shaxslarni ifodalovchi lug‘aviy birliklardan fuqaro, bezori, javobgar, yo‘lto‘sar kabi; jinoyat turlarini anglatuvchi terminlardan qo‘rqitish, o‘g‘rilik kabilar umumtil birliklari sifatida O‘TILga kiritilgan. Umuman, bu kabi polifunksional lug‘aviy birliklarni o‘zbek yuridik terminologiyasida ajratilgan yettita guruhning [3: 4] har birida mavjudligi ham fikrimizni asoslaydi. Boshqacha aytganda, yuridik terminlarning izohli lug‘atlarini yaratishda mualliflar sohaning ijtimoiy munosabatlarga yaqinligi nuqtayi nazaridan yondashgan holda maqsadlar belgilaydilar.

Istiqlolgacha yaratilgan yuridik terminlarga muayyan izoh ham beruvchi lug‘atlar qatoriga F.Muhiddinov va Q.Mirzajonovlar tomonidan tayyorlangan “Yuridik terminlarning qisqacha ruscha-o‘zbekcha lug‘at-spravochnigi”ni (1983) kiritish mumkin. Mazkur lug‘at bir vaqtning o‘zida ham tarjima, ham izohli lug‘atlarning xususiyatlarini o‘zida jamlaganligi bilan ajralib turardi. Chunki lug‘atda rus tilidagi terminning o‘zbek tiliga tarjimasi bilan birga bu leksik birlikning huquqiy jihatdan qo‘llanish xususiyatlari haqida ham qisqacha izoh berilgan edi. Lug‘atni tayyorlashda o‘sha davrda amalda bo‘lgan jinoyat va jinoyat-protsessual kodekslardan foydalanilgan edi. Masalan, quyidagi lug‘at maqolasida birikmali termin tarjimasi va uning izohi keltirilgan:

“Административная ответственность – ма’muriy javobgarlik. Bunday javobgarlik ikki holatda qo‘llaniladi. Birinchi holat – huquqiy tartibni buzgan shaxslarga nisbatan qo‘llanadigan ma’muriy chora. Ikkinci holat – mansabdor shaxslarga nisbatan ma’muriy tartibda choralar ko‘rish, qattiq ogohlantirish, xizmat vazifasidan ozod qilish va hokazo” [8: 7].

Birikmali terminning tarjimasi o‘zbek tilida ham birikmali nominativ birlik (ma’muriy javobgarlik) vositasida berilgan. Tarjimadan keyin terminologik birlik ifodalovchi huquqiy holat qanday o‘rinlarda faollashishi batafsil yoritilgan. Ta’kidlanganidek, bunda amaldagi qonun hujjatlariga tayanilgan. Tabiiyki, bu lug‘atning zamonaviylik nuqtayi nazaridan imkoniyatlarini pasaytiradi. Chunki qonunlar jamiyat hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar asosida yangilanib boradi. Zero, lug‘at maqolasida qo‘llangan ma’muriy javobgarlik qo‘llanadigan o‘rinlar hozirgi kunda amalda bo‘lgan “Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks” (1995)ga tez-tez o‘zgartirishlar kiritiladi. Bunday o‘zgarishlarga zarurat texnika va texnologiyalarning rivojlanganligi, boshqa qonun hujjatlariga kiritilgan o‘zgartirishlar asosida paydo bo‘lishi mumkin. Shunday bo‘lsa-da, mazkur lug‘atni yuridik leksikografiya sohasidagi muhim manbalar qatoriga kiritish mumkin. Chunki lug‘at yuqori informativligi bilan ajralib turadi. Lug‘atdagi ma’lumot qamrovi shu qadar kengki, hatto bu leksikografik manba tegishli qonun hujjatlarining o‘ziga xos sharhidek taassurot uyg‘otadi. Masalan, yuqorida keltirilgan lug‘at maqolasida “ma’muriy javobgarlik” uchun o‘tgan asrning 80-yillarda “15 sutka qamoq jazosi; 20 so‘m jarima qo‘llanishi, mayda bezorilik, spekuliyativ harakatlar uchun qo‘llanishi” haqidagi ma’lumotlar ham ilova qilingan. Aynan shu kabi ma’lumotlar lug‘atning asosiy vazifasi nimadan iborat ekanligiga ishora qiladi. Ya’ni “Yuridik terminlarning qisqacha ruscha-o‘zbekcha lug‘at-spravochnigi” foydalanuvchilari yuridik terminlarning mazmuni, ularning huquqiy maqomi haqida ma’lumot olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Yuridik terminlarning izohli lug‘atlarida aksariyati o‘zlashma bo‘lgan leksik birliklarning qanday tushuncha ifodalashini keng jamoatchilikka tushuntirish vazifasiga ustuvorlik berish keyingi avlod nashrlarida ham davom etdi. Mualliflar jamoasi tomonidan yaratilgan “Yuridik atamalar qomusiy lug‘ati” (2003) ham aynan shu yo‘nalishdagi leksikografik manba edi. Yuridik terminlarning qomusiy lug‘atini yaratishga bo‘lgan zaruratni mualliflar quyidagicha izohlaydilar: “Avvalgi, so‘zlikdangina iborat bo‘lgan, ruscha-o‘zbekcha tillarda tuzilgan lug‘atlarda ba’zi bir nom bilan olingan atamalar bir-biriga mos kelmedi, maqola ishslash va ularga izoh berish ancha qiyinchiliklar tug‘dirdi. Ularda ko‘pgina atamalar rus tilida yoki boshqa tillarda, ya’ni arab, fors tillarida, shuningdek, milliy tillar – yunon, fransuz, ingliz va nemis tillarida keltirildi” [12: 6]. Bularning hammasi yuridik terminologiyaning istiqlol davrida juda tez rivojlanganligini ko‘rsatadi. Tabiiyki, qomusiy lug‘atni tayyorlashda sohaga aloqasi bo‘lgan ko‘plab manbalarga tayanish talab etiladi. Bu qomusiy lug‘atning informativligini oshiradi. Leksikografik manbani tayyorlashda mualliflar O‘zbekiston va chet el qonunlari matnidan, maxsus adabiyotlardan, ikki tomla “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan, 1988-yilgi “Словарь иностранных слов” lug‘atidan

foydalandilar. Shu sababli lug‘at maqolalari ma’lumotga boy tarzda shakllantirildi. Masalan, yuridik soha mutaxassislarining ham barchasiga tushunarli bo‘lmagan absentizm terminining izohi uchun Qomusda quyidagi lug‘at maqolasasi keltiriladi:

“Absentizm (lotin. Absens – yo‘qlik) – konstitutsiyaviy huquq fanida ushbu atama, saylovchilarning saylovda yoki referendumda o‘z xohishi bilan, ixtiyoriy ishtirok etishdan voz kechishini bildiradi. Hozirgi davr demokratik davlatlarida absentizm keng tarqalgan holatdir: odatda saylovlarda ovoz berish huquqi bo‘lgan 20 dan 40 foizgacha shaxslar ishtirok etmaydi” [12: 10].

Izohning mukammalligi terminologik birlik haqida mutaxassis bo‘lmagan shaxslarning ham to‘liq ma’lumot olishiga imkon beradi. Qayd etish lozimki, “Yuridik atamalar qomusiy lug‘ati”da terminlar uchun etimologik ma’lumotlar ham keltirilgan. Yuqoridagi lug‘at maqolasida ham absentizm leksemasining lotin tiliga mansub ekanligi haqidagi ma’lumot izohdan avval keltirilgan. Bunday ma’lumot mutaxassis bo‘lgan shaxslarga ham, nomutaxassis auditoriya uchun ham foydali bo‘ladi, albatta. Chunki terminologik birlikning semantik mohiyatini to‘laqonli anglash uchun uning kelib chiqishi, paydo bo‘lish bosqichida qanday ma’no ifodalaganligini bilish muhim hisoblanadi. Bu, ayniqsa, polifunksional terminlarning semantik tahlilida ahamiyatlidir. Umuman, yuridik terminlarning etimologik ma’lumotlari 1999-yilda H.Bektemirov, H.Xolmedov, S.Sodiqovlar tomonidan tayyorlangan “Huquqshunoslikka oid o‘zlashma terminlar” lug‘ati asosida shakllantirilishi ham mumkin. Lug‘at mualliflari yuzlab o‘zlashma leksemalar yuridik termin sifatida ajratilishida ularning dastlabki ma’nolaridan ancha uzoqlashganligiga e’tibor qaratadilar. Yuridik sohaga doir o‘zlashma so‘zlar lug‘ati ana shunday leksik birliklarning mohiyatini ochib berishga yordam beradi. O‘zbek tilida yuridik termin deb baholanadigan ba’zi birliklarning ma’no taraqqiyotini aniq bilish terminlarni tizimlashtirishda qo‘l kelishi tabiiy. Masalan, avtonomiya leksemasi yuridik termin sifatida keng ma’noda ma’lum bir organlar, tashkilotlar yoxud birlashmalarning o‘z hayotiy faoliyatiga doir masalalarni mustaqil hal etishini anglatadi. Ammo bu leksemaning etimologik ma’nosи yunon tilida autos – o‘zini, nomos – qonun, ya’ni “qonunning o‘zi” jumlesi bilan ifodalanadi. Shunisi muhimki, so‘z o‘zlashtirilar ekan, bu jarayon tabiiy kechishi lozim, tilshunoslarning (yoki boshqa soha vakillarining) bu jarayonga aralashishi maqsadga muvofiq emas. Masalan, akademik A.Hojiyev 1996-yilda taklif etgan programmist, programmalashtirish kabi terminlar o‘zbek tilida me’yorlashib ketmadi [11: 17]. Sanalgan leksik birliklar o‘rniga dasturchi, dasturlash kabi leksik birliklar termin sifatida o‘zbek tilida ko‘proq qo‘llanadi. Bularning hammasi terminologik tizim birliklarining tabiiy, ijtimoiy talab asosida hosil bo‘lishini ko‘rsatadi.

“Zamonaviy shaxsning muhim ko‘rsatkichi hisoblangan kommunikativ qobiliyatni o‘stiruvchi antroposentrik lug‘atlarni yaratish va ularni elektronlashtirish zarurati kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi kabi amaliy tilshunoslik sohalari taraqqiyotini taqozo qilmoqda” [2: 3]. Yuridik leksikaning zamonaviy elektron lug‘atlarini yaratishda sezilarli muvaffaqiyatga erishilgan, deyishimiz mumkin. “Tushuntirish va ko‘rsatish – leksikografiyaning bosh tamoyili. Izohli, etimologik va tarjima lug‘atlar tushuntirish vazifasini bajarsa, imlo va talaffuz lug‘ati ko‘rsatish vazifasini bajaradi” [9: 18]. Tabiiyki, yuridik terminlarni qamrab oluvchi lug‘atlar ham, birinchi navbatda, tushuntiruvchi lug‘atlardir. Hozirgi kungacha yaratilgan yuridik sohaga doir terminologik lug‘atlarning elektron muqobillarida terminlarning izohi keltiriladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi milliy huquqiy internet portalida joylangan elektron lug‘atda 1300 dan ortiq yuridik terminlar o‘rin olgan. Bu yuridik terminlar huquqiy amaliyot, nazariya, ilm-fan va ta’lim jarayonida keng qo‘llanadigan so‘zlarni qamrab olgan [13]. Yuridik terminlarning barchasi alifbo tartibida joylashtirilgan. Qayd etish lozimki, tahlil qilinayotgan elektron lug‘atdan rus tilida, shuningdek, lotin va kirill alifbolarida foydalanish mumkin. Elektron lug‘atlarning ustuvor jihatlaridan yana biri shundaki, ularni muntazam yangilab borish mumkin. Terminologik tizimda o‘zgarishlarning tez-tez sodir bo‘lishini hisobga olganda, elektron lug‘atlarning samarador ekanligi ayon bo‘ladi. Umuman, elektron yuridik tezarus, lug‘atlarning turli dasturlarda ishlaydigan qurilmalarda qo‘llanuvchi mobil ilova ko‘rinishlari ham yaratilmoqda [14]. Ma’lum bo‘ladiki, yuridik sohada boy tajriba to‘plangan bo‘lib, soha mutaxassislar va tilshunoslar ularni lug‘atlashtirishda faol bo‘ishlari lozim.

Turli fan sohalarining istiqqloldan keyin to‘g‘ri yo‘nalishda taraqqiy etishi, dunyo ilm-fanidagi o‘zgarishlardan to‘g‘ridan to‘g‘ri bahramand bo‘lishi leksikografiya sohasida ham yangi yondashuvlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Bu borada B.Yo‘ldoshevning quyidagi fikrlarini keltirish mumkin: “Ta’limdag‘i yuksalishlar, kognitiv ta’limga tomon siljishlar o‘zbek tilshunosligi fani oldiga jahon tilshunosligidagi zamonaviy leksikografiya fani erishayotgan yutuqlarga tayangan holda kelgusida o‘quv lug‘atchiligi muammolari bilan jiddiy shug‘ullanishni taqozo etadi” [5: 66-72].

Xulosa. Ta’kidlash lozimki, dunyo tilshunosligida tildan amaliy foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan, tilni tasvirlash bilan birga uni o‘qitishni yengillashtiradigan vositalarni yaratish, ulardan ta’lim jarayonida foydalanish dolzarblik kasb etmoqda. Ta’lim tizimining turli bosqichlarida yuridik terminologiyani qamrab oluvchi lug‘atlarning mavjudligi nafaqat yetuk salohiyatli huquqshunos mutaxassislarning yetishib chiqishiga, balki aholining huquqiy savodxonligi ko‘tarilishiga xizmat qiladi. Terminologik o‘quv lug‘atlarni yaratish ta’limning muayyan bosqichi uchun leksik birliklarni ajratish asosida kechadi. Zero, o‘quv lug‘atlari akademik lug‘atlardan o‘zining muxtasarligi, muayyan soha birliklarini qamrab olishi bilan farqlanadi. Bu borada rus olimi L.A.Novikov quyidagi fikrlarni bayon qilgan edi: “Akademik leksikografiya bilan taqqoslaganda o‘quv lug‘atchiligi hajman kichik va ta’limiy maqsadlarga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi” [10: 3-11]. Umumiy o‘rta ta’limda huquqiy munosabatlar, davlat va uning bo‘g‘inlari haqida ma’lumot beruvchi fanlarni o‘qitishda yuridik terminlarni qamrab oluvchi o‘quv lug‘atlari zaruriy qo‘srimcha ta’lim vositasini vazifasini bajaradi. Anglashiladiki, yuridik o‘quv lug‘atlarni foydalanuvchilar auditoriyasi xususiyatlariga mos tarzda tayyorlash bugungi leksikografiyaning dolzarb masalalaridandir.

Adabiyotlar:

- Mahmudov N., Ko‘chimob Sh., Sharipova N. Yuridik terminlarning ruscha-o‘zbekcha lug‘ati. – Toshkent: Zamin nashr, 2021. – 208 b.
- Баҳриддинова Б. Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: Филол. фанл. д-ри. (DSc) дисс. – 252 б.
- Гуломова Г. Ўзбек юридик терминологиясининг истиқтол даври тараққиёти: Филол. фанл. номз. дисс... автореф. – Тошкент, 2005. – 32 б.
- Исмаилов F. Ўзбек тилида терминология тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши: Филол. фанл. номз. дисс... автореф. – Тошкент, 2011. – 36 б.
- Йўлдошев Б. Ўзбек лингводидактикаси тараққиётида ўқув лексикографиясининг ўрни масаласига доир // Навоий ДПИ ахборотномаси. 2015. №1. – Б.66-72.
- Керимов Д.А. Законодательная техника. – Москва: Норма-Инфра, 1998. – 121 с.
- Курганов А.М., Джузбаева Д.С. Ўзбекча-русча-инглизча юридик атамалар луғати. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2020. – 200 б.
- Мухиддинов Ф., Мирзажонов К. Юридик терминларнинг қисқача русча-ўзбекча луғат-справочники. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – 280 б.
- Нигматова Л. Мустақиллик даври ўзбек луғатчилигига тил ва маданият муштараклиги муаммоси: Филол. фанл. д-ри. (DSc) дисс. – Бухоро, 2021. – 208 б.
- Новиков Л. Учебная лексикография и её задачи // Вопросы учебной лексикографии. Под ред. П.Н.Денисова и Л.А.Новикова. – Москва: МГУ, 1969. – С.3-11.
- Ҳожиев А. Термин танлаш мезонлари. – Тошкент: Фан, 1996. – Б.17.
- Юридик атамалар қомусий луғати. – Тошкент: Шарқ НМАК, 2003. – 432 б.
- <https://huquqiportal.uz/dictionary> [Elektron manba:] Murojaat sanasi: 15.02.2025.
- <https://thesaurus.tsul.uz/terms?page> [Elektron manba:] Murojaat sanasi: 15.02.2025.
- <https://www.gazeta.uz/oz/2025/01/24/migratsiya/> [Elektron manba:] Murojaat sanasi: 22.02.2025.

“ILTIFOT” NUTQIY AKTINING BADIY MATNDA VOQELANISHINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Rajabov Elshod Erkinovich
NavDU II bosqich doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Iltifot” nutqiy aktining badiy matnda voqelanishining lingvistik xususiyatlari ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: Badiy matn, idrok, antroposentrik, lingvoestetik, yondashuv, tahlil tizimi, lingvistik material, tuzilma, ¬badiy asar tili, tizimli, ¬yaxlit, sintez, va hokazo.

Аннотация: В данной статье проведен научно-теоретический анализ лингвистических особенностей реализации речевого акта «комплимент» в художественном тексте.

Ключевые слова: художественный текст, восприятие, антропоцентрический, лингвоэстетический, подход, аналитическая система, лингвистический материал, структура, язык художественного произведения, системный, целостный, синтез и т. д.

Annotation: This article presents a scientific-theoretical analysis of the linguistic features of the realization of the speech act of «compliment» in literary texts.

Keywords: literary text, perception, anthropocentric, linguo-aesthetic, approach, analytical system, linguistic material, structure, language of a literary work, systematic, holistic, synthesis, etc.

Badiy matn tilning barcha jihatlarini hisobga olgan holda tahlil qilinadi. Lingvoestetik tahlil tizimidagi leksik daraja eng muhimi, ¬axloqiy nutqda so’z majoziy va hissiy tasvirning tashuvchisi sifatida ishlaydi, shuning uchun uning ma’nosи faqat so’zma-so’z mazmuni bilan cheklanmaydi. Badiy matnni tushunish uchun, ideal holda, uni ko’rib chiqishning uchta asosiy bosqichidan o’tish kerak; a) asarni birlamchi idrok darajasida bir butun sifatida tushunish ¬, b) keyin uni tahlil qilish va v)_ko’rib chiqishni tizimli ¬yaxlit sintez bilan yakunlash.

Yu.M. Lotman ¬elementar lingvistik tuzilmaning o’zi orqali uzatish uchun mutlaqo imkonsiz bo’lgan bunday hajmdagi ma’lumotlarni(xonim,begim, malikam,hazrati oliyalari;(E.R.))uzatish imkonini beradi,-deb ta’kidlaydi(1.B-187).¬Ushbu kuzatish tilshunoslik amaliyotida mustahkam o’rnatalgan «mafkuraviy mazmun» va alohida «badiy xususiyatlar» ni alohida ko’rib chiqish tamoyiliga asoslanadi va o’quvchiga -adabiyot haqidagi fikrlarni qisqa va sodda tarzda ifodalash mumkin bo’lgan uzoq va chiroyli tarzda ifodalash usuli sifatida psixologik g’oyani singdiradi.

Asarni shakl va mazmun birligida tahlil qilish zarurati ¬barcha mualliflar tomonidan e’tirof etilgan. Shu bilan birga, ba’zilari shakl orqali ¬badiy asar tilini anglatadi, boshqalari bu hodisani ¬murakkabroq deb hisoblashadi.L.I. Timofeev tilning badiy asar shaklini yaratish vositasi ekanligini¬,shuning uchun tilni asar obrazlaridan ajralgan holda tahlil qilish ¬adabiyotni o’ziga xos xususiyatga ko’ra tahlil qilish emasligini ta’kidlaydi(2.B-448) .

Badiy asar tarkibidagi “iltifot” aktlarining badiy matnda ifodalanishi va lingvistik funkisiyasi jihatdan tahlil qilish bir muncha dolzarb hisoblanadi.

-Alisher Navoiyni kaminangiz ko’rgan emasmen, -dedi hayajonlanib Sultonmurod,-ammo Hirotga kelgan soatdan buyon jahoning u nodir siymosi to‘g’risida yaxshi ta’riflar eshitdim. Ilm va fan daryosini ko’ngillariga jo qilmishlar. She’rlari haqida ta’rifga hojat yo‘q. O‘z so’zimizning gavharshunosini, o’z she’rimizning Firdavsiy va Nizomiyisini ko’rmoqqa mushtoq edik. Alhamdulilloh, ko’rurmiz. Marhamat qilib, u janobning hayotlari haqidagi ma’lumotlariningizni batafsil aytib beringiz, chunki fazilatlari to‘g’risida ko‘p eshitdim. Ammo hayotlari haqida qariyb hech nima...

Shuni ta’kidlash kerakki, bu boradagi uslubiy an’analar K.D.Ushinskiy so’zni insonning ma’naviy rivojlanishining asosi, uning o’zini o’zi anglash vositasi sifatida ko’rib chiqadi; shu bilan birga, lingvistik, estetik va axloqiy jihatlar bir-biri bilan chambarchas bog’liq ekanligini ta’kidlaydi(3.B-190).

O’zbek tilining izohli lug’atida “janob”- o’tmishda va hozir kishilarni, amaldor yoki davlat

arboblarini ulug'lash shakli,- deb izohlanadi.

-Garchi Alisher janoblari bilan faqirning orasida munosabat va robita unchalik barpo bo'lmagan esada, har bir hiroqlik kabi, u janobning hayotlariga doir ba'zi jihatlardan xabardormen(4.B-624).

L.S.Vigotskiyning fikricha, psixik harakat faqat individual psixik jarayonlarning rivojlanish darajasi bilan emas, balki interfunktional bog'lanishlar va ularning o'zgarishi bilan tavsiflanadi(5.B-624).

Lingvistik material orqali muallifning fikr va his-tuyg'ularining dinamikasini ochib berishda o'quvchi badiiy matnning estetik funktsiyasiga murojaat qiladi. Shu bilan birga, u o'zining ijodiy moyilligini rivojlantiradi, atrofdagi voqelik haqidagi bilimini takomillashtiradi va chuqurlashtiradi. Bu yerda muhim rol til shaxsi, atrof-muhit va ma'naviy ehtiyojlar rivojlanishining madaniy darajasini aks ettiruvchi sezgi va lingvistik qobiliyatga beriladi. -Bu yondashuv bizga qonuniy ko'rindi, chunki har qanday matn juda katta kommunikativ imkoniyatlarga ega, uni M.M.Baxtin -adabiyotni o'zlashtirishning dialogik momenti deb atagan.Muallif bilan «ma'naviy» muloqot o'quvchiga -uning g'oyaviy va estetik pozitsiyalarini, estetik va falsafiy qarashlarini tushunishga yordam beradi.Matnning ayrim lingvistik birliklarini tushunish qiyin bo'lganda, o'quvchi «dekorlash», tushunish, satrlar orasidagi o'qish munosabatlariga kiradi, ya'ni. kontekstga -ishora qiladi - -og'zaki ifoda etilmagan ma'lumotlarning mazmun-faktik va mazmun-kontseptual tomonlari o'rtasidagi munosabatni anglaydi.

-Mavlono Lutfiy kabi,-deb so'zga aralashdi Sultonmurod,-ovozasi olamni tutgan keksa shoir hali go'dak Navoiyning o'z tilidagi bir bayti uchun o'zining uzoq umrida aytgan jamiki g'azallaridan voz kechishga tayyor ekanini bildirgan ekan. Bu rivoyatga ne deysiz?

-Shubhasiz, to'g'ri. Mavlono Lutfiy o'zlarini uning sehrli qalamining ta'rifmi menga bir necha bor aytgan edilar,-deya javob berdi mavlono Turobiy(6.B-386).

O'zbek tilining izohli lug'atida "mavlono"- janob, hukmdor, homiy; Musulmon Sharqida olim va fozil kishilarni, ustozlarni, yuksak martabali amaldorlarni ulug'lab, ularning nomlariga qo'shib ishlatiladigan faxriy so'z,- deb izohlanadi(7.B-386).

Turli darajada qo'llanilgan til birliklarini aniqlash va tushuntirish hamda matndagi ektrolingvistik aktlarni izohlash tahlilning vazifasi sanaladi.Voqelikning yaxlit bo'lagi bilan badiiy tasvir vositalari, obrazli so'zlar bilan assar kompozitsiyasining o'zaro ta'sirini aniqlash sintezning vazifasi sanaladi.Til vositalarini saralash ustidan nazorat qilib borish matn tahlilining aspektlaridan biri. Ana shu aspekt asosida til birliklarining badiiy adabiyot uslubida tanlash imkoniyatlari ham har xil bo'ladi.Turli tip matnlardagi til ifoda vositalarining tanlanishi va qo'llanishidagi potensial hamda amaliy imkoniyatlarni kuzatish-tekshirib chiqish tahlilning maqsad va vazifasini belgilaydi.

-Anavi devqomat,-dedi u birini ko'rsatib,- Haydar pahlavon.Iroqdan kelgan mufrid qalandardan Havzi mohiyonda besh tayoq yeb, oyoq suyaklari bir bir xalta oshiqdek bo'linib ketgan edi. Shayx Husayn jarroh uni oyog'ini chuqurga ko'mib, qirq kunda tuzatgan(8.B-17).

Ba'zan muloqot tortishuvli, munozarali kechadi va bunda suhbatdoshlar bir-biriga kuchli ruhiy ta'sir o'tkazishga harakat qiladilar. Shunday holatlarda muloqotning kinoyali mazmunda kechishini ta'minlovchi qochirimlar, o'xshatmalar, maqollar, naqllar va boshqa turdag'i ekspressivlikni ifodalovchi nutqiy tuzilmalarga murojaat qilinadi. Ba'zan kinoya sub'ekti nutq harakatining o'ta yashirin, mazmunli, tagma'nosi yuqori darajada bo'lgan turlaridan foydalanishi mumkin. Bunday hollarda so'zlovchi tinglovchining diqqatini ma'lum muddatga bo'lsa ham haqiqatdan yiroqlashtirish, uning hushyorligini susaytirish amalini qo'llaydi. Ba'zida o'z norozilagini ochiq ifodalash ham qo'lkeladi. Kinoya turli mazmundagi nutqiy harakatlarni muloqot matnida faollashtiruvchi uslubiy vositalardan biridir. "Kinoyali nutqiy harakatlar bajarilishidan ko'zlanadigan maqsad- tinglovchiga ta'sir o'tkazish va uni ushbu ta'sir doirasida hosil bo'ladigan faoliyatga undashdir"(11.B-112). Zero, shaklan ifodalangan va nutqiy harakat maqsadi bilan bog'liq bo'lgan botiniy ma'nolar qarama-qarshiligidan kinoya mazmunidagi matn yaratilmaydi.

Shaxslarga laqab qo'yish oldingi davrlarda ham mavjud bo'lgan. Qadimgi kishilarning ijtimoiy hayotlarini o'rgangan bir qator tarixchi va etnograflarning qayt qilishlaricha, biror urug' yoki qabilaning nomi bo'lgan, o'sha urug' yoki qabilaga mansub bo'lgan shaxsnинг nomi u mansub bo'lgan urug' yoki qabila nomiga mos bo'lgan, ya'ni etnik guruhga mansub shaxs urug' nomi bilan atalgan. Urug' yoki qabila nomlari esa etnik guruh muqaddas deb singdiruvchi biror hayvon, qush nomidan iborat bo'lgan. Asta-sekin bu an'ana o'zgarib, urug' va qabila a'zosi bo'lgan har

bir shaxs alohida ism yoki laqab bilan atala boshlagan(-Anavi devqomat,-dedi u birini ko'rsatib,-Haydar pahlavon.).

→Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki,badiiy matnning →mazmuni, strukturaviy va lingvistik jihatlarini o'zlashtirish bo'yicha ishlar taklif etilayotgan metodologiyaga ko'ra,"iltifot" nutqiy aktining badiiy matnda lingvistik shaxsnинг pragmatik-motivatsion sohasini shakllantirishda eng muhim omil bo'ladi. "iltifot" aktlarini laqab va taxallislardan farqlash joiz.Iltifot aktlari tarixiy matnlarga antroposentrik, lingvoestetik yondashish →unda yashiringan bitmas-tuganmas didaktik imkoniyatlarni ochib berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Лотман Ю. М. Риторика.- В сб. Структура и семиотика художественного текста. Труды по знаковым системам.ХП. -Тарту, 1981.- 287 с.
- 2.Тимофеев Л.И. Основы теории литературы: Учеб, пособие для студентов пед. ин - тов. - 5 изд.. - М.: Просвещение,1976.- 448 с.
- 3.Ушинский К.Д. Собрание сочинений. В 11-ти т. - М.-Л., 1948-190.Т.7.
- 4.O'zbek tilining izohli lug'ati. II jild. G'afur G'ulom nomidagi ijodiy matbaa uyi. 2022.B-624.
- 5.Oybek. Navoiy. Toshkent.Yangi nashr.2019.B-22.
- 6.Выготский Л.С. История развития высших психических функций. Собр. соч.: В 6 т. — М., 1983 -Т.3.-С.328.
- 7.Бахтин М.М. К методологии литературоведения// Контекст.-1974: Литера-турно-теоретические исследования. - М.: Искусство, 1975.- 386 с.
- 8.Oybek. Navoiy. Toshkent.Yangi nashr.2019.B-23.
- 9.O'zbek tilining izohli lug'ati. III jild. G'afur G'ulom nomidagi ijodiy matbaa uyi. 2022.B-134.
- 10.Oybek. Navoiy. Toshkent.Yangi nashr.2019.B-17.
- 11.Боймирзаева С. Матнда киноя мазмунини ифодаланиши // Ўзбек тили ва адабиёти . –Тошкент, 2008. №4. -Б. 112.

O. HENRY VA ABDULLA QAHHOR HIKOYALARINING LINGVOMADANIY TAFOVUTLARI

Sadinov Oybek Ziyot o'g'li

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM (nodavlat ta'lif muassasasi) (Qarshi shahri)

Annotatsiya. Ushbu maqolada amerikalik yozuvchi O. Henry va o'zbek adabiyotining taniqli vakili Abdulla Qahhor hikoyalarining lingvomadaniy tafovutlari tahlil qilinadi. Turli madaniy makon, tarixiy davr va ijtimoiy sharoitlarda ijod qilgan har ikki adib asarlarida nutqiy ifoda, badiiy tasvir va ma'no qatlamlari turlicha shakllanadi. Tadqiqotda lingvomadaniy yondashuv, qiyosiy-tipologik tahlil va kontekstual analiz usullari yordamida asarlardagi leksik birliklar, frazeologik iboralar, madaniy realiyalar hamda yumoristik unsurlarning o'xshashlik va tafovutlari aniqlanadi. Natijalar O. Henry hikoyalarida Amerika jamiyatining individualistik ruhiyati hamda kapitalistik jarayonlar, Qahhor asarlarida esa o'zbek xalqining an'anaviy qadriyatlari, ijtimoiy adolat va hamjihatlik mavzulari ustuvor ekani bilan ajralib turishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Lingvomadaniy tafovut, O. Henry, Abdulla Qahhor, qiyosiy tahlil, madaniy realiyalar, hikoya, til va madaniyat.

Аннотация. В данной статье рассматриваются лингвокультурные различия в рассказах американского писателя О. Генри и выдающегося представителя узбекской литературы Абдуллы Каххара. Анализ проводится с учетом того, что оба автора творили в разных культурных пространствах, исторических периодах и социальных условиях, что отразилось в особенностях речевой выразительности, художественных образов и смысловых пластов. Используя лингвокультурный подход, сопоставительно-типологический анализ и контекстуальный метод, автор выявляет сходства и различия в лексических единицах, фразеологических оборотах, культурных реалиях и юмористических элементах данных произведений. Результаты показывают, что в рассказах О. Генри преобладают темы индивидуализма и капиталистических процессов американского общества, в то время как в произведениях Каххара доминируют традиционные ценности узбекского народа, социальная справедливость и солидарность.

Ключевые слова: Лингвокультурные различия, О. Генри, Абдулла Каххар, сопоставительный анализ, культурные реалии, рассказ, язык и культура.

Annotation. This article examines the linguocultural differences in the short stories of the American writer O. Henry and the renowned Uzbek literary figure Abdulla Qahhor. The authors' works, shaped by distinct cultural settings, historical contexts, and social conditions, exhibit unique linguistic expressions, artistic imagery, and layers of meaning. Employing a linguocultural framework, comparative-typological analysis, and contextual method, the study identifies similarities and contrasts in lexical units, phraseological expressions, cultural realities, and humorous elements. The findings reveal that while O. Henry's stories predominantly highlight individualism and early capitalist dynamics within American society, Qahhor's works emphasize Uzbek traditional values, social justice, and communal unity.

Keywords: Linguocultural differences, O. Henry, Abdulla Qahhor, comparative analysis, cultural realia, short story, language and culture.

KIRISH. Jahon adabiyoti rivojiga o'ziga xos hissa qo'shgan buyuk adiblar orasida amerikalik yozuvchi O. Henry va o'zbek adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri Abdulla Qahhor alohida e'tiborga loyiqidir. Ikkala ijodkor ham asarlarida jamiyat hayotini, insonning qalb kechinmalarini hamda turli ijtimoiy muammolarni o'ziga xos uslubda badiylashtirgan. Biroq O. Henry hikoyalarining til xususiyatlari va Amerika jamiyatining o'sha davrdagi sotsial-madaniy muhitiga xos ma'no qatlamlari bilan Abdulla Qahhor hikoyalaridagi o'zbek xalqi turmush tarzi, milliy qadriyatlar hamda mafkura o'rtasida sezilarli farqlar mavjud. Mazkur tafovutlar, avvalo, lingvomadaniy (linguomadaniy) xususiyatlarda o'z ifodasini topadi. Ya'ni matnni nafaqat lingvistik vosita sifatida o'rganish, balki uning ortida turgan madaniy kod, tarixiy sharoit, mentalitet hamda ijtimoiy hodisalarga e'tibor qaratish zarur.

O. Henry o‘z hikoyalarida XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Amerika hayotini mahorat bilan tasvirlab, personajlar xarakteri, kundalik muhit, turmush tarzi va mafkurasini realistik hamda o‘ziga xos humor bilan ochib beradi. Uning asarlarida ko‘proq kichik shaharchalar, kambag‘al yoki o‘rtal toifa vakillari, shaxsiy orzu-umidlar, kutilmagan yakunlar, shuningdek, o‘sha davr ijtimoiy tengsizliklari va mojarolar yorqin aks etadi. Qahhorning hikoyalarida esa o‘zbek xalqining an’anaviy urf-odatlari, maishiy hayoti, ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi mulohazalari, insoniy munosabatlar, adolat va mehr kabi mavzular ustuvor. Shuningdek, zamon ruhini ifodalovchi kayfiyat, badiiy tasvir vositalarida milliy poetik ohang, turli obrazlarning nutqi ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Ushbu maqolada O. Henry va Abdulla Qahhor hikoyalaridagi lingvomadaniy tafovutlar IMRAD formati doirasida tahlil qilinadi. Avvalo, nazariy asoslarni shakllantirish maqsadida lingvomadaniyat tushunchasiga ta’rif beriladi, so‘ngra aniq metodlar yordamida hikoyalardagi leksik birliklar, nutq uslubi, kontekstual ma’nolar o‘rganiladi. Natijada, olingen ma’lumotlar asosida asarlardagi madaniy kodlar hamda milliy mentalitet ifodasining o‘ziga xos jihatlari aniqlanadi. Muhokama bosqichida esa har ikki yozuvchining hikoyalarida kuzatiladigan adabiy tamoyillar, nutqiy tasvirlar hamda davr ruhining lingvomadaniy akslanishi qiyosiy tahlil qilinadi. Bu jarayon adabiy tarjima, filologik tadqiqotlar va umuman, madaniy aloqalarni chuqurlashtirishda muhim ahamiyatga ega.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida lingvomadaniy tahlil, qiyosiy-tipologik yondashuv hamda kontekstual analiz usullari tanlandi. Lingvomadaniy tahlil matnni lisoniy vosita sifatida emas, balki muayyan madaniy makonning ifodasi sifatida ko‘rishga imkon beradi. Bunda hikoyalarda qo‘llangan so‘zlar, frazeologik birikmalar, kinoya yoki metaforalar ortida turgan madaniy kod, urf-odat va tarixi tahlil qilinadi. Qiyosiy-tipologik yondashuv O. Henry va Abdulla Qahhor hikoyalaridagi nutqiy o‘xshashlik va farqlarni, madaniy konnotatsiyalarni, ijtimoiy mavzularni birgalikda o‘rganishga yordam beradi. Natijada ikki turli adabiy makonga xos lisoniy ifodalar va badiiy unsurlar o‘rtasidagi o‘zarobog‘liqlik yoki ziddiyatlar aniqlanadi.

Kontekstual analiz, o‘z navbatida, hikoyalarda til birligining aniq bir matndagi vazifasini belgilashga qaratilgan. Bunda nutqiy uslub, qahramonlar nutqining lingvistik portreti, ijtimoiy mavqeiga xos xususiyatlari, davr muhitini aks ettiruvchi leksik elementlar chiqur tahlil qilindi. Shuningdek, O. Henry davridagi Amerika jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari va Qahhor yashagan zamonning o‘zbek jamiyatidagi an’ana, siyosiy islohotlar, jamiyatdagi roli ham inobatga olindi. Maqola doirasida maqbul tadqiqot hajmini cheklash sababli, O. Henryning turli hikoyalaridan (masalan, “The Gift of the Magi”, “The Last Leaf” va boshqa qisqa hikoyalardan) hamda Qahhorning ayrim yetuk asarlaridan (“O‘g‘ri”, “Hukm”, “Anor” va h. k.) namunalar tanlab olindi.

Tadqiqot bosqichida dastlab har ikki yozuvchi hikoyalaridan jami yigirmadan ortiq lisoniy kontekstlar ajratildi, so‘ngra ular mazmuniy jihatdan tasniflanib, lingvomadaniy qadriyatlarning ifodalanishi bo‘yicha guruhlandi. So‘ngra bu birliklar sistemali ravishda semantik tahlil qilinib, qiyosiy metod asosida tafovut va o‘xshashliklar aniqlandi. Ushbu bosqichlarda xorijiy va mahalliy adabiyotlardan ham foydalanib, olingen ma’lumotlar nazariy jihatdan asoslab berildi.

NATIJALAR

Olingen natijalar O. Henry va Abdulla Qahhor hikoyalarida til, madaniyat va davr muhitiga xos bir qancha sezilarli tafovutlar mavjudligini tasdiqladi. Avvalo, O. Henry hikoyalarida Amerika jamiyatiga xos iqtisodiy tengsizlik, boy va kambag‘al tabaqalar o‘rtasidagi munosabatlar, shahar hayotining dinamikasi, kapitalizmning ilk bosqichlaridagi ijtimoiy voqeliklar ustuvor mavzu sifatida ajralib turadi. Nutqiy ifodalarda ingliz tilining o‘sha davrga xos dialektizmlari, gazeta tilidan kirib kelgan yangicha so‘zlar va o‘xshatishlar tez-tez uchraydi. Bunda humoristik ohang, kinoya va kutilmagan yakunlar asarlarning badiiy kuchini oshirib, o‘quvchining e’tiborini jamiyatdagi nohaqliklarga qaratadi.

Abdulla Qahhor hikoyalarida esa o‘zbek xalqining kundalik turmush tarzi, qishloq hayotining mehnatkashlik ruhi, an’anaviy urf-odatlari hamda o‘sha davr siyosiy-madaniy islohotlari aks etgan. Qahramonlar nutqida o‘zbek xalq maqollari, xalqona iboralar, sarkashlik yoki muloyimlik ohangi,

ijtimoiy haqiqatni tantanali yoki istehzoli tarzda ifodalovchi ifodalar uchraydi. Shuningdek, Qahhor hikoyalarining tili atamalarning milliy rang-barangligi, pand-nasihat shaklidagi didaktik xulosalar bilan boyitilgan. Ko'plab realiyalar, masalan, an'anaviy to'y marosimlari, xo'jalik ishlari, mahalla hayoti kabi tushunchalar matnning semantik devorini mustahkamlaydi.

Qiyosiy o'rganish shuni ko'rsatdiki, O. Henry hikoyalarida individual erkinlik, insonning ichki olami, qahramonning o'z orzu-umidlarini ro'yobga chiqarishi ortidan kuchli tanqidiy fikr shakllanishi kuzatilsa, Qahhor hikoyalarida jamiyat va inson o'rtasidagi aloqadorlik, hamjihatlik, milliy qadriyatlarning tarbiyaviy roli, ijtimoiy adolatga bo'lgan intilish ustunroqdir. Bu tafovut, albatta, lingvomadaniy darajada ham ifodalanib, turli semantik sohalardagi leksik birliklar hamda nutq stereotiplari orqali ochiladi.

MUHOKAMA

Natijalarni sharhlash jarayonida lingvomadaniy tafovutlarning sabablarini bir necha omillar bilan izohlash mumkin. Birinchidan, O. Henry va Qahhor turli madaniy makonda yashab ijod etgan. Amerika va O'zbekiston jamiyatlarining iqtisodiy, siyosiy hamda ijtimoiy tuzilishi, turmush tarzi, qadriyati birmuncha farq qilishi tabiiy ravishda ikki adib ijodida ham til, ham badiiy tasvir unsurlarida o'z aksini topgan. Ikkinchidan, davr masalasi ham muhim. O. Henry asosan XIX asr oxiri – XX asr bosqichlarida ijod qilgan. Bu omil lingvomadaniy unsurlarga ham bevosita ta'sir qiladi, chunki birinchisida kapitalistik jamiyat munosabatlari, individualizm, xususiy mulkchilik kabi tushunchalar muhim bo'lsa, ikkinchisida jamiyat kollektiv mafkura, sotsial an'analar, davlat ideologiyasi ta'sirida shakllanganini seziladi.

Yana bir muhim jihat – adiblarning nutq uslubi. O. Henry hikoyalarida sodda leksik vositalar, ayni paytda, ohorli yumor va ziddiyatlarni kutilmagan yakun bilan hal qilish san'ati birlashtirilgan. Qahhor esa ko'proq real turmush manzaralariga, xalqona obrazlarga tayangan holda, milliy ruh va mavzuni dolzarbli bilan birga, badiiy tasvirni keskin ijtimoiy savollar bilan boyitadi. Natijada, har ikki yozuvchining hikoyalariga xos lingvomadaniy ko'rsatkichlar ham o'ziga xos yo'nalishda rivojlanadi. O. Henry asarlari "magiyaviy" realistik ohang, turli sohalar (siyosat, matbuot, reklama) dan kirib kelgan ifodalar bilan totuvlashsa, Qahhor hikoyalarida milliy nutq madaniyati, eski va yangi hayot to'qnashuvi, qo'zg'olonsimon ruh orqaligina emas, balki xalqona topilmalar bilan ham ifodalanadi.

Har ikki ijodkor o'z kitobxoniga yaqin bo'lish, hayot haqiqati va o'quvchi qalbiga ta'sir etish maqsadini ko'zlab, tilni jonli, o'z davrining muhitidan oziqlangan holda ishlatishgan. Shuning uchun lingvomadaniy tahlil fanlararo yondashuvni, ya'ni filologiya, madaniyatshunoslik, tarix, sotsiologiya kabi sohalar tutashuvida amalga oshirilishi lozim. Shundagina bunday asarlarning o'ziga xos qiyofasi, madaniy merosi, xalq hayotini aks ettirishdagi roli chuqurroq tushuniladi.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar O. Henry va Abdulla Qahhor hikoyalaridagi lingvomadaniy tafovutlar asosan ikki yozuvchining turli madaniy, ijtimoiy va davr kontekstida ijod qilganligi bilan bog'liqligini ko'rsatadi. O. Henry hikoyalarida Amerika jamiyatining shiddatli rivojlanish jarayonidagi ijtimoiy tengsizlik, individuallik, iqtisodiy mojarolar hamda yumorga yo'g'rilgan badiiy uslub ustuvor ekani sezilsa, Qahhor hikoyalarida o'zbek xalqining urf-odatlari, ijtimoiy adolatga intilishi, hamjihatlik, milliy qadriyatlар va tarbiyaviy g'oyalar ilgari suriladi. Bu ikki xil madaniy makon, ajralib turuvchi tarixiy bosqichlar va turli turmush tarzidan kelib chiqadigan lingvomadaniy xususiyatlar matnlarda o'ziga xos tasviriy vositalar, leksik birliklar, metaforik iboralar, nutq stereotiplari orqali aniq namoyon bo'ladi.

Qiyosiy-lingvistik o'rganishlar shuni tasdiqlaydiki, har bir adib ijodi o'z davri va milliy an'analarini bilan uzviy bog'liqdir. Bunday asarlarni o'qish yoki o'zbek tiliga tarjima qilishda ushbu madaniy kodlarni chuqur anglash, xususan, mentalitet, tarixiy sharoit va ijtimoiy fikr rivoji kabi omillarni hisobga olish zarur. Aks holda, asarlarning chinakam badiiy qudrati va hayotiyligi tushunarsiz bo'lib qolishi mumkin. Shuning uchun O. Henry va Abdulla Qahhor hikoyalarini lingvomadaniy nuqtayinazardan o'rganish, nafaqat filologlar, balki madaniyatshunoslar, tarjimonlar hamda adabiyot ixlosmandlari uchun ham muhimdir. Zero, bunday taqqoslamalar ikki turli millat adabiyoti o'rtasida ma'naviy-axborot almashinuvini mustahkamlash, ijodkorlarning madaniy merosini chuqurroq tushunish va jahon adabiy jarayoniga baho berish imkonini kengaytiradi. Shu

bilan birga, har ikki adibning ijodini o‘rganish zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligi va qiyosiy adabiyot nazariyasida ham yangi tadqiqot ufqlarini ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

O. Генри. Собрание сочинений: в 3 т. – Москва: Художественная литература, 1980. – Т. 1. – 432 с.

Qahhor A. Asarlar to‘plami: 4 jildlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – 1-jild. – 320 b.

Maslov A. N. Lingvokul’turologiya: teoriya i praktika // Vestnik lingvistiki. – 2018. – № 2. – S. 45–51.

Saidov S. Q. Qiyosiy adabiyotshunoslik tamoyillari va lingvomadaniy tahlil masalalari // Adabiy tadqiqotlar jurnali. – 2019. – № 3. – B. 24–30.

Bobonazarova M. E. O‘zbek adabiyotida xalqona leksikaning badiiy ifodalanishi. – Toshkent: Fan, 2005. – 156 b.

Henderson B. O. Henry: A Study of the Short Fiction. – Boston: Twayne Publishers, 1991. – 202 p.

Abdulla Qahhor hayoti va ijodi / Ma’sul muharrir F. G‘ulomov. – Toshkent: O‘qituvchi, 2000. – 184 b.

XRONOTOP SHAKLLARINING ADABIY ASARLAR SYUJETI VA KOMPOZITSIYASIGA TA'SIRI

Safarova Zamira Zohid qizi

Buxoro Davlat pedagogika instituti "Xorijiy tillarni o'qitish metodikasi" kafedrasi
o'qituvchisi

<https://orcid.org/0009-0006-3737-1659>

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaliviy adabiyotshunoslikning dolzarb muammolaridan birini — xronotop shakllarining mohiyatini, nazariy asoslarini va janr evolyutsiyasining syujetga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Xronotop, adabiyotda zamon va makonning o'zaro bog'liqligini ifodalovchi muhim tushuncha sifatida, san'at asarlarining strukturaviy elementlarini shakllantirishda muhim rol o'yaydi. Maqolada yo'l xronotopi misolida, yozuvchining badiiy va g'oyaviy maqsadlarini qanday ifodalashiga e'tibor qaratilgan. Yo'l xronotopi, ko'pincha qahramonlarning ichki va tashqi sayohatlarini ifodalovchi ramziy makon sifatida xizmat qiladi. Bu xronotop, nafaqat syujetni rivojlantirishda, balki personajlarning xarakterini ochishda ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, maqolada vaqtning va makonning badiiy ifodalanishi, ularning syujetga ta'siri va o'zaro aloqasi tahlil qilinadi. Maqola xronotopning zamonaliviy adabiyotdagi o'rni va uning san'at asarlarining badiiy estetikasi va g'oyaviy mazmuniga ta'sirini keng ko'lamda tahlil qiladi. Shuningdek, xronotopning turli janrlardagi ifodalanishi va ularning o'zaro aloqalari ko'rib chiqiladi. Ushbu tadqiqot, adabiyotshunoslikda xronotop tushunchasining ahamiyatini yanada chuqurlashirishga xizmat qiladi va adabiyotdagi zamonaliviy tendensiyalarini o'rganishda yangi yondashuvlarni taklif etadi. Kalit so'zlar: Xronotop turlari, badiiy muhit, syujet, semiotika, vaqt belgilari, adabiy makon, obraz xarakteri.

THE IMPACT OF CHRONOTOPIC FORMS ON THE PLOT AND COMPOSITION OF LITERARY WORKS

Annotation: This article is dedicated to exploring one of the pressing issues in contemporary literary studies—the essence of chronotope forms, their theoretical foundations, and the impact of genre evolution on plot. Chronotope, as an important concept that expresses the interrelation of time and space in literature, plays a crucial role in shaping the structural elements of artistic works. The article focuses on the chronotope of the journey, examining how the author conveys their artistic and ideological intentions. The journey chronotope often serves as a symbolic space that reflects the inner and outer journeys of the characters. This chronotope is significant not only in developing the plot but also in revealing the characters' personalities. Additionally, the article analyzes the artistic expression of time and space, their effects on the plot, and their interrelations. It provides a comprehensive analysis of the role of chronotope in contemporary literature and its influence on the artistic aesthetics and ideological content of artistic works. The article also examines the expression of chronotope across different genres and their interconnections. This research aims to deepen the understanding of the concept of chronotope in literary studies and offers new approaches to studying contemporary trends in literature. **Keywords:** Types of chronotope, artistic environment, plot, semiotics, time markers, literary space, character image.

ВЛИЯНИЕ ХРОНОТОПИЧЕСКИХ ФОРМ НА СЮЖЕТ И КОМПОЗИЦИЮ ЛИТЕРАТУРНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ

Аннотация: Эта статья посвящена исследованию одной из актуальных проблем современной литературной науки — сущности хронотопных форм, их теоретическим основам и влиянию эволюции жанров на сюжет. Хронотоп, как важное понятие, выражающее взаимосвязь времени и пространства в литературе, играет ключевую роль в формировании структурных элементов художественных произведений. Статья фокусируется на хронотопе путешествия, рассматривая, как автор передает свои художественные и идеологические намерения. Хронотоп путешествия часто служит символическим пространством, отражающим внутренние и внешние пути персонажей.

Этот хронотоп значим не только для развития сюжета, но и для раскрытия личностей героев. Кроме того, статья анализирует художественное выражение времени и пространства, их влияние на сюжет и взаимосвязи между ними. Она предоставляет всесторонний анализ роли хронотопа в современной литературе и его влияния на художественную эстетику и идеологическое содержание художественных произведений. В статье также рассматривается выражение хронотопа в различных жанрах и их взаимосвязи. Это исследование направлено на углубление понимания концепции хронотопа в литературной науке и предлагает новые подходы к изучению современных тенденций в литературе. Ключевые слова: Типы хронотопа, художественная среда, сюжет, семиотика, временные маркеры, литературное пространство, образ персонажа.

Kirish. «Xronotop» atamasi yunoncha «chronos» (vaqt) va «topos» (joy) so‘zlarini birlashtirish orqali hoslil qilingan bo‘lib, dastlab Eynshteyn tomonidan aniq va tabiiy fanlar sohasida ishlataligani. Adabiyotda xronotop atamasi birinchi marta rus olim M. Baxtin tomonidan kiritilganligi keng ma’lum. M. Baxtin xronotopi nazariyasi tufayli adabiy tanqidning badiiy asarda inson fenomeniga va uning ichida harakatlanayotgan inson fenomeniga ta’sirini amalga oshgani aytilda, bejiz bo‘lmaydi. [6,1] M. Baxtinning shaxsiyatni va uning badiiy asarga ta’siri Aristotel, Shekspir, Geter, Dostoevskiy kabi buyuk fikr egalaridan kam emas. Badiiy asar qanchalik keng ko‘lamli fenomen bo‘lsa-da, unda yangi qonunlar yaratish qiyin. Baxtin tomonidan kashf etilgan bu g‘oyalar insonning san’atkorlik fikrlashini, badiiy asar manbalarini va aniq badiiy matnlarni o‘rganish asosida dunyoga keldi. Shuning uchun, olimning ijodiy shaxsiyatini, uning yuqori talantini va fenomenal tadqiqot ko‘nikmalarini tan olib, biz «Baxtin buni taodifan qilmagan edi, tarixiy davr, ilmiy va badiiy muhit, noyob nazariy asos uning shakllanishida katta ahamiyatga ega» degan xulosani ilgari suramiz. [6,2] 1930-yillarda M. Baxtin badiiy tanqidga xronotop nazariyasini kiritganda, xronotop san’at asarining janriga, syujetiga, kompozitsiyasiga, asarning umumiyligi arxitekturasiga, san’at asarining semiotikasi va ramzlar poetikasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatdi. Boshqacha aytganda, xronotop janr va syujetni tartibga soladi, san’at asarining ichki uzviyligini yaxshilaydi. Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Xronotopning asosiy xususiyatlari badiiy asarda insonning munosabatlarini tavsiflashda, qahramonning ichki tajribalarini, quvonchlari va qayg‘ularini ajratib ko‘rsatishda, uning ichki dunyosi bilan bog‘liq ruhiy sahnalarini ta’kidlab o‘tishda, yaratuvchining badiiy va g‘oyaviy maqsadini ochishda va shuningdek, asarning mazmuni va shaklini ochishda bevosita ishtirok etishda namoyon bo‘ladi. Xronotopning qat’iy janr mohiyati mavjud. Janr va janr xususiyatlari aynan xronotop orqali namoyon bo‘ladi. Shuningdek, badiiy xronotopning yetakchi xususiyati vaqtini o‘z ichiga oladi. Xronotop shakl-ma’no kategoriyasi sifatida badiiyatda inson obrazining mohiyatini belgilaydi. Chunki badiiy obraz har doim xronotop asosida ma’no kasb etadi. [1,51]

Badiiy asarning xususiyatlarini muhokama qilganda, uning asosiy poydevori syujet ekanligi aniq ko‘rinadi. Xronotopsiz ma’noga ega bo‘limgan syujet elementi (ekspozitsiya, syujet, cho‘qqi, yechim va hokazo) yo‘q. Chunki Baxtin fikricha, xronotop vaqt va makonning yagona materializatori sifatida butun romanning obrazida yorituvchi markazdir. Shuning uchun xronotopning badiiy asardagi asosiy vazifasi janrni, syujetni, qahramonni, uslubni va asarning tilini belgilash, muallif va o‘quvchi o‘rtasidagi ichki tajribalarni bog‘lovchi ko‘prik bo‘lishdir. Olimning fikricha, badiiy xronotop vaqt va makon ramzlarining semantik va aniq bir butunlikka birlashishini o‘z ichiga oladi. Bu yerda vaqt zichlashadi, qisqaradi, badiiy shaklga aylanadi; makon vaqt, syujet va tarixiy harakatlar doirasida tezlashadi va kengayadi. Agar vaqt belgilari makonda namoyon bo‘lsa, unda makon vaqt ichida o‘lchanadi va tushuniladi. Bunday ramzlar aralash oqimida badiiy xronotopning tabiatini namoyon bo‘ladi. [2,399] Xronotop tushunchasini shakllantirgan holda M. Baxtin keng romanlarda xronotopning mohiyatini va doirasini o‘rganib chiqdi. Ushbu tadqiqotlar davomida M. Baxtin romanlarning olti turini ajratib oldi va ushbu olti turga xos xronotop shakllarini «Vaqt va Romanlardagi Xronotop Shakllari» (1937-1938) asarida o‘z tadqiqotida ko‘rsatdi. Ushbu ilmiy va nazariy ishning «Xulosa» qismi olti turdagini romanlarni aniqlash imkoniyatini beradi, ya’ni, yunon romanlaridan Rabelaigacha, Rabelaidsdan 19-asrgacha bo‘lgan romanlarni o‘z ichiga oladi va ularning o‘rtasidagi poetik bog‘lanishni belgilaydi. Ushbu

tadqiqot asosida olti turdag'i romanlarni birlashtirib, ularda xronotop shakllarini aniqlash mumkin. Bu nafaqat xronotop poetikasini va tadqiqot shakllarini yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi, balki roman nazariyasi va nazariy adabiyot tanqidining dialektik masalalarini ilgari surishda ham ahamiyatlidir. M. Baxtinning «Romanlardagi vaqt va xronotop shakllari» (1937-1938) asari o'zbek filologi Uzoq Jo'rakulov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan va uning fikri quyidagi sabablarga ko'ra muhimdir: birinchidan, tadqiqot roman janrini tarixiy poetika nuqtai nazaridan o'rganadi, ikkinchidan, u nazariy jihatdan insoniyat yaratilishidan buyon to'xtovsiz davom etayotgan vaqt va makon harakati badiiy ijod uchun eng muhim shart ekanligini isbotlaydi, bu esa hayotning san'atkori modelini rivojlantirishga da'vo qiladi. [5,499] Muhokama. Agar xronotopning ichki elementlari haqida gapiradigan bo'lsak, xronotop vaqt va makon birliklaridan iboratdir. Badiiy vaqt — bu san'at asarida tasvirlangan vaqt. San'at asarida xronika oldinroq yoki ketma-ket sodir bo'ladi va badiiy vaqtini tashkil etadi. Shuning uchun o'quvchi asarda badiiy vaqtning mohiyatini his qiladi, hatto vaqt haqida hech narsa aytilmasa ham. Badiiy vaqtning statik-dinamik; haqiqiy-noto'g'ri; o'ziga xos o'tgan-hozirgi-kelajak kabi farqlari mavjud. Badiiy vaqtning birligi nafaqat xronotopning, balki badiiy janrlarning ham yetakchi kategoriyasidir.

San'atkori o'z asarida kun, tun, oy, yil yoki asr kabi misollarni ishlatishi mumkin. Masalan, Ch. Aytmatovning «Asrga tatigullik kun» romanidagi voqealar faqat bir kunga asoslangan, shuningdek «Qiyomat» romanining birinchi va ikkinchi qismlari ham bir kunga asoslangan. Adabiy makon xronotopning keyingi elementi bo'lib, asardagi badiiy vaqt bilan yaqin aloqada. Xronotop fenomenida adabiy vaqt va makon bir-biri bilan mantiqiy uyg'unlikda birlashadi. Makon qahramonning haqiqiy mazmuni bilan aniq ifodalanadi va uning taqdidi bilan jiddiy bog'liqdir. Asarning butun kompozitsiyasi ushbu voqeasida quriladi, asar syujeti ma'lum bir vaqtida epik makonda sodir bo'ladi, rivojlanadi va yechim topadi. «Boshqacha aytganda, makon tushunchasi vaqt tushunchasi bilan o'zaro birlashishni hosil qiladi». Har bir ijodkor vaqt va makonni o'z tasavvuriga asoslanib qabul qiladi, ichki psixikasi yoki dunyoqarashi asosida chiziqlar chizadi. Shu sababli, san'at asarining xronotopi boshqa adabiy makon va vaqt bilan solishtirganda noyoblik sifatiga ega. [4,5] Adabiy makon, badiiy vaqt kabi, yopiq (cheklangan) - ochiq (cheksiz); statik-dinamik; haqiqiy-noto'g'ri (fantastik); tanish (qahramon tug'ilib o'sgan joy yoki uyda his qiladigan joy) va begona (begona joy, begona mamlakat) turlari mavjud. «Yo'l» motivida adabiy makonning eng keng tarqalgan xronotop shakli mavjud. Yo'l xronotopi makon-vaqt uyg'unligi aniq va ravshan ko'rinadi. Yo'l xronotopi adabiyotda alohida o'rin egallaydi. Yo'l motivi bo'lмаган adabiy asarlar juda kam uchraydi, aksincha, yo'l xronotopi, yo'l uchrashuvlari, yo'l sarguzashtlari asosida qurilgan ko'plab asarlar mavjud. Yo'l motivi semantik jihatdan rang-barang va murakkabdir. Yo'l tasvirlangan makon orqali san'atkori qahramonning ichki psixikasini, shaxsiy rivojlanish yo'llini, butun xalq yoki mamlakatning milliy g'oyasini aks ettirishi mumkin. M. Baxtin romanlardagi xronotoplarni «asosiy» (yunon romanlaridagi xronotoplari; mahalliy-sarguzasht romanlaridagi xronotoplari; qadimgi biografiyalar va avtobiografiyalar; ritsar asarlaridagi xronotoplari; folklor va Rabelais asarlaridagi xronotoplari) va kichik (yordamchi) xronotoplari sifatida tasniflaydi. O'z navbatida, bu xronotop shakllari adabiy asarda bir-biri bilan yaqin aloqada bo'ladi. Bu bir-birini to'ldirish, taqqoslash, o'zgartirish, bog'lash va umumiyliliklarni ochish kabi jarayonlarda namoyon bo'ladi.

Xronotopning yana bir e'tiborga molik jihatni folklor va afsonalardan meros bo'lib qolgan an'anadir. Badiiy adabiyotda xronotoplari orqali dunyoning manzaralari uy (yopiq makon tasviri), eshik oldi, deraza, eshik (ikki makon o'rtasidagi chegara) va yo'l kabi tasvirlar bilan modellashtiriladi. Ushbu chiziqlarning qo'llanilishi zamonaviy adabiyotga ham begona emas. Bizning fikrimizcha, quyida keltirilgan xronotoplari orasida «yo'l» xronotopi badiiy ijoddasi keng tarqalgan bo'lib, u makonning cheksizligi va sirli xususiyatlariga ega, bu esa hech qanday badiiy makonda qayd etilmagan va ko'p badiiy asarlarning syujet chiziqlarida namoyon bo'ladi. Yo'l xronotopining badiiy asardagi roli taqqoslanmasdir va ko'plab asarlar to'g'ridan-to'g'ri yo'l xronotopi va yo'l motivlari asosida qurilgan. Buning asosiy sababi yo'l xronotopi keng makon o'lchoviga ega bo'lib, makon va vaqt birligini juda aniq va ravshan talqin qiladi. Natijalar.

M. Baxtin o'zining «Romanlardagi vaqt va xronotop shakllari» (1937-1938) nomli nazariy asarida yo'l xronotopining san'at asaridagi roli va uning syujetga ta'sirini tahlil qiladi. Agar biz sarguzasht-romanalari sxemasini misol sifatida olaylik, syujetning tuzilish elementlari orasida sevishganlarning qochishi, ularning safari, do'stlar yoki dushmanlar bilan kutilmagan uchrashuvlar

kabi motivlar bevosita yo‘l xronotopi bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Bunday romanlarda yo‘l juda sirli bo‘lib, kutilmagan paydo bo‘lish, yo‘nalishni o‘zgartirish, hayratda qoldirish kabi xususiyatlarga ega. Qadimgi yunon romanlaridagi yo‘l xronotopining noyob xususiyatlaridan biri bo‘sh-texnik makon-vaqt ko‘rsatkichlarining abstrakt xarakteridir. Bunday sxemaga ega romanlarda yo‘l qahramonlarga begona hududlar va olamlarda kesishadi, syujet harakati juda keng geografik makonda, uchdan besh mamlakatgacha rivojlanadi. Zamonaviy romanlarda qahramon sayohatga chiqadi va bir qator sinovlardan o‘tadi, turli xavflarga duch keladi, uning yo‘lida tasodif va taqdir uchun joy bor. Mahalliy-sarguzasht romanlari va yunon romanlari o‘rtasidagi farq shundaki, makon va vaqt muhimroq va aniqroq yoritilgan bo‘lib, yo‘l xronotopi haqiqiy hayot sahnalari bilan to‘ldirilgan. Buning yordamida asardagi hayot sahnalarini katta miqqosda yoritish mumkin bo‘ladi. Qahramon va uning hayotidagi asosiy burilish nuqtalari har doim kundalik hayotdan tashqarida bo‘ladi va yo‘l bilan bog‘liqdir. M.M. Baxtin fikricha, hayot yolda va uning chetlarida joylashgan. Qahramonlarning hayot yo‘li odatiy emas, uy-joy sohasi bu yo‘lda bir bosqich bo‘lishi mumkin. Yo‘l xronotopining asosiy maqsadi aynan shu turdagи romanlarda «gunoh-qasos-qutqarish» ketma-ketligiga asoslangan holda namoyon bo‘ladi. Uchinchi turdagи roman - avtobiografiya yoki biografiya - «hayot yo‘li» ma’nosida ko‘rib chiqiladi. Bu holda, yo‘l xronotopining badiiy-estetik mazmuni va uning syujetdagi funksiyasi har bir yozuvchining ma’lum bir davrdagi badiiy ruhiy tajribalari, badiiy qarashlari va an’anaviy tasvirlari bilan bog‘liq ekanligini hisobga olishimiz kerak. Yo‘l xronotopi qahramonning ichki rivojlanishining aniq o‘lchovidagi (hayot yo‘li) muayyan fazoviy trajektoriyaning axloqiy ekvivalentiga ega bo‘lishi mumkin. [4,6-7]

M.M. Baxtinning «Romanlardagi vaqt va xronotop shakllari» asarini o‘rganar ekanmiz, olim yo‘l xronotopining folklorlagini o‘rnini ta’kidlaganiga e’tiborimiz tortadi. Yo‘l motivining turli xil variantlari barcha folklor turlarida aks etgan. Shuningdek, folklorda yo‘l oddiy yo‘l sifatida emas, balki har bir qahramon uchun «hayot yo‘lining» muhim qismi sifatida tasvirlangan. Agar kesishmalarni misol sifatida olaylik, bu motiv folklor qahramonining hayotidagi burilish nuqtasi sifatida ko‘rib chiqiladi va haqiqat yo‘lini tanlashda insonning kelajagini belgilaydigan belgi sifatida tasvirlanadi. Folklorda yo‘lning boshqa komponentlari ham muhim hisoblanadi, masalan, yo‘lning boshlanishi va oxiri, uchrashuvlar, to‘siqlar, yo‘l belgilar, taqdir belgilar, bu esa hayot bosqichlarini tasvirlaydi va badiiy asarning syujet chiziqlarining qanday shakllanishini belgilaydi. Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, xronotop shakllari, ayniqsa yo‘l xronotopi, badiiy asarning kompozitsiyasida, syujetni shakllantirishda, obraz xarakterini tashkil etishda va hikoya qilish vazifalarini bajarishda taqqoslanmas rol o‘ynaydi. Biz xronotop shakllarining asar arxitekturasiga, badiiy matnning semiotikasiga va asardagi vaqt va makon shakllarining o‘zaro bog‘liqligiga ta’sirini o‘rgandik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

- 1.Бахор. Б.Т. Xronotop shakllari olam tasvirini qaytayaratishvositasifatida.–Scientific-methodological electronic journal Foreignlanguages in Uzbekistan, 2022, №1(42), bb.-146-168, <https://doi.org/10.36078/1649688242>
- 2.Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. –М.:Вопросы литературы и эстетики, 1975, стр.399
- 3.Бахтин М. Эпос и роман (О методологии исследования романа) (ссылка-перевод: УзокЖуракулов) В кн. Вопросы литературы и эстетики. –М.: Вопросы литературы и эстетики,1975, стр. 454-455
- 4.Меркулова И.И. Хронотоп дороги в русской прозе 1830-1840-Х ГОДОВ.-Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Саранск 2007, стр.6-7.
- 5.Муминова А.А., Ибрагимова Н.Т. Badiiy asardamakon va zamon tahlili. Innovative achievements in science 2022. Челябинский государственный институт культуры.<https://doi.org/10.5281/zenodo.6339397>
- 6.Темирбулат А. Б. Категории хронотопа и темпорального ритма литературе. Монография.-Казахстан, Алматы, 2009. –стр.- 499.
- 7.Jo‘raqulov U. Mixail Baxtin kashfiyotlari. URL:<https://ziyo.uz> (09.07.2019) 8.Saidjanovna U. D., Rustamovna Y. G. The analyses of chronotope of the road in Jhon Steinbeck’s novel “The grapes of wrath” International Journal of Research and Development (IJRD).–2022.–T.7.–№.9.–C.46-48<http://www.eprajournals.net/index.php/IJRD/article/view/877>
8. Safarova Zamira Zohid qizi. “Revolutionizing adult language learning: innovative english teaching techniques”. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, vol. 12, no. 11, Nov. 2024, pp. 243-8, <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/6033>.

SHE'RIYATDA O'Z OVOZI, O'Z O'RNIKA EGA SHOIR...

Laylo Sharipova,

BuxDPI o'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya: Istiqlol yillarida adabiyotga kirib kelgan qator shoirlar orasida Shodmon Sulaymon she'riyati o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. U ijodida mavzular, obrazlar ko'laming kengligi, dunyo og'rigan dardlarga malham bo'lish ilinji, insoniyat g`amiga darddoshlik, Vatan bilan hamnafasligiga ko'ra o'z aytar so'zi, ijod yo'li bo'lgan ijodkorlar sirasiga kiradi. Mazkur maqolada shoir she'riyati tahlil va talqin qilingan.

Kalit so'zlar: shoir, she'riyat, olim, ilm, avtoportret, tazod, adabiyotshunos, ohang, tashbeh, obraz.

A POET WITH HIS OWN VOICE AND PLACE IN POETRY...

Laylo Sharipova,

Docent of the Department of Uzbek Language and Literature of BSPI, Doctor of Philology

Abstract: Shodmon Sulayman's poetry is unique among the poets who entered the literature during the years of independence. He is one of the poets who have a wide range of themes and images in their work, a desire to be a salve for the pains of the world, sympathy for the sorrow of humanity, a way of his creativity. This article analyzes and interprets the poet's poetry.

Key words: poet, poetry, scientist, science, self-portrait, tazod (contrast), literary critic, tone, metaphor, image.

O'zbek elida yoshligida she'r bitmaydigan inson topilishi qiyin. Negaki, she'r ohanglari avval alla-yu sanama, "Boychechagim boylandi" bilan, so'ng, ta'bır joiz bo'lsa, zikr ko'magida o'zbekning ruhiga kirib keladi. Shu ruhiyatdan mosuvo qilishga qanchalar urinmadilar-a! Qanchadan-qancha yetuk shoirlarimiz, adiblarimizning joniga qasd qilinganida ham bizning elni she'rdan ayira olishmadi. Elimiz eng qattol kunlarda ham "Hidi kelsa mast bo'laylik handalakning bo'yiga" deya kuylay oldi. Hamma, hamma narsa, yillar o'taveradi, she'r qoladi, she'riyat tirik.

Shodmon Sulaymonning she'riyati haqida o'ylaganimizda, nega bular ko'nglimizdan kechdi?! Avvalo, u ham muhabbatni kuylab she'r olamiga mo'raladi. Ammo bu olam atrofida aylanib yurganlardan yoki havaskorlardan biri bo'lib qolmadi. She'r dardini Vatan, el dardi bilan vobasta qilib yuragini uyg'otdi. Uning yuragi uyg'oq, dil ko'zi ravshan.

Iste'dodli har bir inson ham shoirlilik yukini ko'taravermas ekan. Buning uchun o'z dardlaringdan oldin Vatan dardini o'ylamog'ing zarur ekan, aslida. She'rdan yuksaklikda faqat Vatan, Vatandan yusaklikda faqat uning Yaratuvchisi bor, xolos. Men bilgan qator iste'dodlar turli yo'llarga burilib ketdilar. Shoirlilik yo'li Vatan yo'li bilan birlashishi kerak ekan. Shodmon shunday qildi. U "Men Vatan deb yo'lga tushdim, hur Vatan deb yo'lga tushdim, bahor yanglig' yuragimga kir, Vatan, deb yo'lga tushdim. Peshonamda Buxoriyning nur taratgan issiq kafti, ko'ksim uzra iymon qasrin qur, Vatan, deb yo'lga tushdim" deya yo'lini tanladi va bugun ham yo'lidan og'ishgani yo'q.

Shodmonga filologiya fanlari doktori, professor, eng muhimi, shogirdlarga jonfido ustoz Oxunjon Safarov oq yo'l tiladilar. Bu shogirdlikka qabul qilish edi, aslida. Ustozning ham ilmiy, ham badiiy ijod bilan shug'ullanadigan shogirdlariga "qo'shqanot ijodkor" deb baho berishlari bor edi. Shodmon ilm yo'lida mashaqqat tortib, filologiya fanlari nomzodi bo'ldi. Muhimi bu emas, u qator ilmiy maqolalar muallifi, bu ilmiy maqolalar, lug'at va risolalar yosh avlodga badiiy adabiyotni idrok qilishda, undagi mohiyatni fahmlashda asqotdi, asqotmoqda, Xudo xohlasa, asqotadi ham. Shodmonni olim deb yurgan ustoz, adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul uning she'rlarini o'qib, alohida maqola yozdilar. Ibrohim ustoz ijodkorlarni shoir bo'ladi yoki shoir deb bilsalargina, ular haqida fikr bildirar edilar. Yozishlari esa oson emasdi. Ibrohim aka: "Shodmonning ilhom qaynogi, eng avvalo, Buxoro. Uning deyarli har bir she'rida jism-u joni ila yurtiga bog'langan buxorolik shoirning nafasini his etasiz. Ayniqsa, tarixiy tuyg'ularning yorqinligi va haqqoniyligi alohida ahamiyatga molik. Shodmonning she'rlarida tarix qa'rida ko'milib yotgan ko'hna dardlar emas, dard va azobning tarixi o'z aksini topgan. Shuning uchun ular ruhni nurlantiradi, shuning uchun bugungi va shu kunning muammolariga diqqatni qaratadi", – deb e'tirof qilganlarida

Shodmon ancha yosh edi. O'tgan yillar davomida u Shodmon Sulaymonga aylanib, el nazariga tushdi. Bunga iste'dodi, mashaqqatli mehnati, el-yurtga sadoqati, muhabbat sabab erishdi.

"Men baxtli yaraldim" she'riy to'plamiga "Avvalso'z" keltirilgan. Sa'jli sochma yurakning tub-tubidan she'r kabi otilib chiqqanki, bir so'zini olib qo'ysangiz, mohiyatiga putur yetkazasiz: "Men Vatan deb yo'lga tushdim, shul chaman deb yo'lga tushdim, Yo'lim to'ssa qay bir nokas – yanchaman, deb yo'lga tushdim. Ona bo'lib ko'z yoshimni artgan jondan aziz yurtim, Tikaningni yuragimga sanchaman, deb yo'lga tushdim!" Bu – Vatan muhabbatini jon-joniga jo qilgan vatanparvar shoirning dil bitiklaridir.

Shodmon Sulaymonning she'rlarini o'qir ekansiz, mukammal ohang sizni asir qiladi, sinovlardan o'tgan tafakkur mevasi joningiz og'riqlariga malham bo'ladi. Shoир eng tushkun kayfiyatini ifodalaganda ham, she'rxoniga yo'lini yorituvchi mash'alani tutqaza oladi, dilbardor satrlar she'rxonning ko'ngliga nur olib kira oladi. Shodmon Sulaymonning o'zi ham adabiyotshunos sifatida she'rga shu mezondan turib yondashadi:

Jonim, ishq haqdagi ertakka ishon,
Jonim, qalbim aro, jonim arosan.
Biz bitta paykonmiz, bir o'qqa nishon,
Men yolg'iz Odamman, yolg'iz Havosan.

Jonim, chiqib keldim taloto'plardan,
Jonim, ko'hna dunyo bunchalar qaysar.
Kuzgi yaproq misol titrab turibman,
Jonim, o'zing meni hayotga qaytar.

Shoир zidlanishlardan rivojlanishni axtaradi, rivojlanishlarda zidlanadi. Shu zidliklardan yuksaladi, goh yuksaklikdan qulayotib, etagi cho'qqidagi daraxtning bir butog'iga ilinadi, yana ming bir azob bilan o'zini o'lim changalidan qutqaradi, yana hayot unga qo'l uzatadi. Koshki edi, bu takrorlanmasa. Shodmon Sulaymon o'ttiz yoshidayoq bu holatlarni ruhiyatida tuyib bo'lgan edi, shu sabab shoир bo'ldi:

Ona, mana, o'ttizga kirdim,
Nigohimda asrlar mungi.
Ruhim o'sdi, ulg'aydi dardim,
Ko'kragimda tikonlar o'sdi.

O'ttiz rangda tovlanar go'yo,
Tiriklik bu – o'ttiz ming armon.
Istilolar qaritgan dunyo,
Og'riqlardan bukchaygan osmon.

Shoirning o'ttizida yozilgan she'r uning shu yoshidayoq Vatan og'riqlarini his qilganini, "istilolar qaritgan dunyoga" hamdard bo'lganini, ko'ngil ko'zi bilan osmonning "og'riqlardan bukchayganini" ko'rganini anglatadi. Shu sabab shoirning ruhi o'sdi, dardi ulg'aydi. Azoblisi shuki, ko'kragida tikonlar o'sdi. Axir, shoир ko'nglini dunyo yolg'onlaridan, xiyonatlaridan himoyalash uchun

ko'kragida tikonlar o'stirdi. Bu – Shodmon Sulaymonga xos satrlar. Uni, uning nozik ta'bini, beozor ko'nglini yomonlardan, yolg'onlardan himoyalash uchun bu tikonlar zarur. Hatto hayotda ham shu himoyasi bor. O'jarligi bir tomon, cho'rtkesarligi xo'b-xo'b, ba'zan jahliga ham guvoh bo'lib qolasiz. Bu xiyonatdan charchagan, yolg'onlardan, soxtakorliklardan zerikkan shoirning o'z

olamini himoyalashga urinishi, nazdimizda. Halollikni, yordamga muhtoj yaxshilikni ko'rib qolsa, Shodmon Sulaymonning chin qiyofasini ko'rasiz. Goho

shoир qalbi do'st-dushmanni farqlamay qolishi mumkin, ammo ezgulikni va yovuzlikni ko'rmay, farqlamay qolishi mumkin emas. U yovuzlikni ko'rsa, kurashga shaylanadi: so'zi bilan, so'ziga amali bilan kurashga otiladi. Ezgulikni qo'llashga chog'lanadi. Shodmon Sulaymon – shu fe'l-atvori bilan shoир. U o'ttiz yoshini qoralash arafasida "Kuz xayoli" she'riy to'plamini chop ettingandi. Kitobdag'i "Men" she'rini shartli tarzda avtoportret deyish mumkin:

Sovuq boqma, og'irlilik qilayapsan ko'nglimga,
Sajda qilma, baloni daf qilguvchi tug'masman.
Uzoq ketma, hijronga yetmagaydir toqatim,
Yaqin kelma, ko'nglingga taft berguvchi cho'g'masman.

O'ttizida shoir o'z ko'nglini ifoda etar ekan, aslida inson umri mohiyatini ham aks ettira oldi. Inson – bir-biri uchun ruhiy tasalli manbasi. Ammo eng ulug' shaxsga ham sajda qilish mumkin emas, chunki u – inson. Shodmon Sulaymon she'riyatining oziqlangan manbalari bor: xalqimizning boy og'zaki ijodi, mumtoz Sharq adabiyoti, ayni damda, dunyo adabiyoti. Shoir bir umr mutolaa qilmoqda va mutolaaga chaqirib kelayotir. Hatto bu qarashlarini ifoda etgan kitob ham chop qildirdi. Shoirning ilhomiga ilhom qo'shgan, uning ijodini mukammallashtirgan, tafakkurini boyitgan manbalarni sanadik. Yosh ijodkorligida bu ta'sir she'rлarida o'z ifodasini ham topdi. Shoir halqona ohanglarda she'rлar bitdi:

"Taqir-tuqir, taqravon",
Manim dunyom shul beshik.
Undan chiqqanim zamon,
Armonlar qoqar eshik.

"Taqir-tuqir, taqravon",
Mangumasmi bu jarang?!

Dunyo qo'limga tutdi
Mungli kuy, mungli ohang.

Satrular ko'rsatib turibdiki, shoir xalq ohanglarini fikrlariga libos qildi, xolos. Takrorlovchi bo'lib qolmadi. Shoir ijodiga folklorning ta'siri bir muddatli bo'lib qolmadi, aslida chin shoirlar ilhomni xalq og'zaki ijodidan bir umr nurlanadi. "Sog'inch" baxshiyonasiga fikrimizni dalillaydi.

Shodmon Sulaymon she'riyatining bosh mavzusi – muhabbat. Shoir Buxoroga muhabbatini ifoda etish orqali kindik qoni tomgan tuproqqa muhabbatini izhor qildi:

Ko'rdim kezib – riyolari tinmagaydir,
Qasr qurgay, ammo ko'ngli unmagaydir.
Dunyolarni titrataman degan "zo'r"lar
Darvozangga boshin urib yig'lagaydir –
O'zi pok-u, so'zi pok-u balogardon –
Zotginangdan aylanayin, Buxorojon.

Buxoro haqida she'r yozgan buxorolik va buxorolik bo'lмаган shoirlar juda ko'p. Chunki sharif shaharni butun dunyo vasp etadi. Ammo Buxoroga buxorocha erkalanish bilan, "onajon" degan kabi, -jon qo'shimchasini qo'shib she'r yozgan ilk shoir – Shodmon Sulaymon. She'r shunchaki vasfdan iborat bo'lganida, bu qadar yurak-yuraklarimizga kirib, ildiz otmasdi. Buxorodan ikki qadam narilasak, shuurimizda jaranglamasdi. She'r shoirning jon-jonidan yaralgan, uning sharif shaharga ehtiromi cheksiz. Shu ma'noda, bugun ota, ustoz, bobo sifatida yosh avlodga Vatan muhabbatini anglatish sabog'ini berishga qodir. "Vatan tuyg'usi" darsi" nomli uch saboqdan iborat she'riy turkum ana shu mas'uliyat sabab bitilgan:

Derlar, jahon ichra jahonlar bisyor,
Baxtdan chiroy ochgan makonlar bisyor.
Lek yurtim ta'rifi elda ovoza:
"O'zbekiston – qadim Sharqqa darvoza!"
Bu o'lka – ulug'vor daholar yurti,
Poklik, ezgulikka shaydolar yurti.
Elining ko'ksida g'urur ulg'ayar,
Vatan degan totli surur ulg'ayar...

Yurtga cheksiz muhabbat bilan dunyoga kelgan satrlar. Shoir Vatanimiz dunyoning bir qismi ekanini, ammo dunyo tamaddunida muhim o'rinn tutgan daholarni o'stirgan Vatan sifatida Allah bunyod qilgan Zamin atalmish sayyoraning ulug' joylaridan biri ekanini yoshlarga o'rinni ta'kid bilan anglata olgan. Shodmon insoniyat bir butunlikka, dunyo bepoyon yaxlitlikka ega ekanini

chuqur idrok etgani bois bir she'rini "Dunyojon" deb nomlaydi.

Har yolg'oning avvalida bir sukut,
Har yolg'oning keyinida bir to'fon.
Menga bergen va'dalaring qo'y, unut,
Yana bir bor yolg'on so'yla, dunyojon.

Murabbiysan, so'zlariningda xato yo'q:
"Bu manzilda rostga muhtoj bino yo'q!"
Asli sendan o'tadigan dono yo'q –
Yana bir bor yolg'on so'yla, dunyojon.

Shoir bu she'rini qirq yoshida bitar ekan, endi -jon qo'shimchasiga armonlarini, kinoyasini, o'kinchlarini, og'riqlarini, shukronasini pinhon aylaydi. Shodmon Sulaymon she'riyatining bosh mavzusi muhabbat, dedik. Bu muhabbat insonga va Vatanga baxshidadir. Insonga muhabbat mavzusi otaga, onaga, yorga, do'stga, jon-jigarga, farzandga, shogirdga tarzida tarmoqlansa, Vatanga muhabbat tug'ilgan qishlog'iga, Buxoroyi sharifga, O'zbekistonga, dunyoga muhabbat tarzida tadrijlanadi. Ana shuning o'zi shoir ijodidagi yetuklik, shu holat shoir ijodidagi barkamollikdir. "Men baxtli yaraldim" she'riy to'plamini o'qib, Shodmon Sulaymonning nafaqat she'rdan she'rga kamol topib borayotganiga, balki bugun barchamiz Vatan tegrasida birlashishimiz zarurligini anglagan va anglatayotgan shoir ekaniga guvoh bo'lasiz. Alloh bizni to'rt fasli bor bo'lgan, bu fasllarida tenglik mujassam etilgan, har ne'mati harorat ulashadigan serquyosh Vatanga farzand qilib dunyoga yuzlantiribdiki, bugun bir bo'lmoq, el bo'lmoq fursati yetdi. Yurt karvoni bir tomonga tortilsa, hamma bir bo'lib yo'lga tushsa, taloto pli dunyoda zavol bilmaymiz. Shodmon Sulaymon shunday fikrlaydi. U she'riy, nasriy, publisistik, ilmiy asarlari orqali har birimizga shu fikrni uqtiradi. Tirikchilik tegirmoni sinovlarini engib, tiriklik uchun yozayotgan ijodkorlar shunday yashaydilar. "Vatan deb yo'lga tushgan" insonlar shunday fikrlaydilar. Bundan boshqacha bo'lishi mumkin emas.

Foydalilanigan adabiyotlar:

Шодмон Сулаймон. Мен бахтдан яралдим. (Шеърлар, достон). Тошкент: Наврӯз, 2015.
– 136 б.

MADHIYAVIY RUHDAGI SHE'RDA SHAXS VA DAVR MUNOSABATI: TAHLIL VA TALQIN

Sharipova Munira Xamidullaevna,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning "Oybek haqida qo'shiq" nomli madhiyaviy ruhdagi she'rining mazmun-mohiyati, intertekstual va badiiy xususiyatlari tahlil qilingan. She'rda Oybek shaxsi, ijodi va ma'naviy olamiga berilgan yuksak baho, shuningdek, insoniylik, ma'rifat, e'tiqod kabi abadiy qadriyatlar tarannum etilganligi ko'rsatilgan. Intertekstual ishoralarining she'r mazmunini boyitishdagi ahamiyati va ikki buyuk ijodkor o'rtaсидаги ма'naviy bog'liqlikning ayrim jihatlari yoritilgan. Oybek ijodining Navoiy, Torobi va Yo'lchi kabi tarixiy va adabiy shaxslar bilan aloqadorligi orqali namoyon bo'lgan intertekstual xususiyatlar aniqlangan. She'rda qo'llanilgan metafora, epithet, ramziy timsollar kabi badiiy vositalarning asar obrazliligini oshirishdagi o'rni ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Abdulla Oripov, Oybek, "Oybek haqida qo'shiq", badiiy vositalar, metafora, epithet, ramziy timsol, intertekstuallik, madhiya, adabiy an'ana.

ВЗАИМОСВЯЗЬ ЛИЧНОСТИ И ЭПОХИ В ЛИРИЧЕСКОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ ОДЫ: АНАЛИЗ И ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Шарипова Мунира Хамидуллаевна,
доцент Узбекского государственного университета мировых языков, доктор
философии по филологии

Аннотация. В статье анализируется содержание, сущность, интертекстуальные и художественные особенности оды народного поэта Узбекистана Абдуллы Орипова «Песня об Айбеке». Показано высокое признание личности, творчества и духовного мира Айбека в стихотворении, а также воспевание вечных ценностей, таких как человечность, просвещение, вера. Освещены значение интертекстуальных отсылок в обогащении содержания стихотворения и некоторые аспекты духовной связи между двумя великими творцами. Выявлены интертекстуальные особенности, проявившиеся в связи творчества Айбека с такими историческими и литературными личностями, как Навои, Тороби и Юлчи. Рассмотрена роль художественных средств, таких как метафора, эпитет, символический образ, в повышении образности произведения.

Ключевые слова: Абдулла Орипов, Айбек, «Песня об Айбеке», художественные средства, метафора, эпитет, символический образ, интертекстуальность, ода, литературная традиция.

THE INTERRELATION OF INDIVIDUAL AND ERA IN A LYRICAL ODE: AN ANALYSIS AND INTERPRETATION

Sharipova Munira Khamidullayevna,
Associate Professor, Uzbekistan State University of World Languages, Doctor of Philosophy
in Philology

Abstract. The article analyzes the content, essence, intertextual, and artistic features of the ode «Song about Aybek» by the People's Poet of Uzbekistan, Abdulla Aripov. It highlights the high appreciation of Aybek's personality, creativity, and spiritual world in the poem, as well as the glorification of eternal values such as humanity, enlightenment, and faith. The significance of intertextual references in enriching the content of the poem and some aspects of the spiritual connection between two great creators are illuminated. Intertextual features manifested in the connection of Aybek's work with historical and literary figures such as Navoi, Torobi, and Yulchi have been identified. The role of artistic means such as metaphor, epithet, and symbolic image in enhancing the imagery of the work has been examined.

Keywords: Abdulla Aripov, Aybek, «Song about Aybek», artistic means, metaphor, epithet,

symbolic image, intertextuality, ode, literary tradition.

Кириш. Улуғ инсонларнинг ижодий ва шахсий фаолияти кейинги авлод ижодкорлари учун ҳамиша илҳом манбаи бўлиб хизмат қиласди. Ўзбекистон ҳалқ шоири Абдулла Орипов шеъриятида ҳам машҳур шахслар ҳақидаги асарлар муҳим ўрин тутади. Шоир ўзбек ва жаҳон адабиётининг улуғ намояндадарига алоҳида эътибор қаратади ва уларнинг бадиий меросини хурмат билан ёдга олади. Устозларга эҳтиром, адабий меросни улуғлаш ва миллий қадриятларни тасвирлаш А.Орипов ижодининг асосий тамойилларидан биридир. “Ойбек ҳақида қўшик” номли мадҳиявий руҳдаги шеърида муаллиф XX аср ўзбек адабиётининг йирик намояндадаридан бири Мусо Тошмуҳаммад ўғли Ойбекнинг ижоди ва шахсиятини тарғиб этади. Шеърнинг бош мавзуси атоқли шоир ва ёзувчи, олим ва таржимон Ойбек шахсиятининг юксаклиги, унинг ҳалққа садоқати ва бекиёс ижодий меросидир. Шеърда Ойбекнинг миллий адабиётимиз тарихида тутган ўрни, илм-маърифатга қўшган ҳиссаси ва юксак инсонпарварлик туйғулари тараннум этилади. Шеърнинг бош ғояси Ойбекни ўзбек ҳалқининг ардоқли фарзанди сифатида улуғлаш ва унинг асарларини маърифат нурини сочувчи бебаҳо манба деб эътироф этишдир. Шунингдек, устоз-шогирдлик анъаналарига садоқат, ўтмишга хурмат ва келажак авлодларга маънавий меросни етказиш ғоялари ҳам илгари сурилган.

“Ойбек ҳақида қўшик” нафақат бадиий асар, балки адабий-маърифий мероснинг муҳим қисми сифатида ҳам катта аҳамиятга эга. У замонавий ёшлар учун миллий қадриятларни эсга солувчи бир дарс вазифасини ўтайди. Шеърдаги интертекстуаллик ёш авлоднинг тарихий шахслар ва воқеалар ҳақидаги билимларининг ошишида ҳамда миллий меросни англашларида муҳим аҳамият касб этади.

Материал ва методлар. Тадқиқотда шеърнинг мазмуни ва ғоясини ёритиш учун бадиий матн таҳлили методи, асардаги матнлараро алоқаларни кўрсатиш мақсадида интертекстуал таҳлил усули ҳамда бадиий воситаларни аниқлаш ва уларнинг таъсирини ўрганиш учун қиёсий таҳлил усулидан фойдаланилди. Натижада интертекстуал алоқалар асарнинг маъно қамровини кенгайтирганлиги, метафора, ташбех, тимсол каби бадиий воситалар эса шеърнинг образлилигини оширганлиги аниқланди. А.Орипов шеъриятининг ўзига хос хусусиятлари, мавзу доираси, ғоявий йўналиши ва бадиий маҳоратига бағишлиланган тадқиқотлар, адабиётшуносликда интертекстуал таҳлил усуллари, матнларнинг ўзаро муносабатини аниқлаш ва талқин қилишга оид илмий мақолалар, шунингдек, бадиий воситаларнинг моҳияти, вазифаларига доир ишлардаги қарашлар солиширилди ҳамда умумлаштирилди.

Натижа ва мунозара. Ихчам ҳажмли мазкур шеърда Ойбекнинг адабий салоҳияти, инсонпарварлик хусусиятлари ва илм-маърифатга садоқати теран мазмунда ифода этилган. Шу билан бирга, шеърда миллий қадриятлар, тарихий мерос ва маънавий камолот ғоялари ўз ифодасини топган.

Қалби пок мардона элнинг,
Сен азиз фарзандисан.
Ганжу мулкка бергисиз эл,
Гавҳари, дилбандисан.

Мазкур тўрт сатр асарнинг асосий моҳияти ва руҳини белгилаб берувчи, Ойбекнинг ҳалқ учун ким эканлигини ёрқин ва таъсиричан тарзда ифодаловчи мадҳиявий муқаддимадир. “Қалби пок мардона элнинг, Сен азиз фарзандисан” мисралари Ойбекнинг юксак маънавиятли, мард ва жасур ҳалқнинг ардоқли фарзанди эканлигини таъкидлаб, ўзбек ҳалқининг маънавий поклиги, эзгуликка интилиши ва меҳр-оқибати каби фазилатларини улуғлайди. Шунингдек, А.Орипов мазкур мисраларда ҳалқимизнинг жасорати, ватанпарварлиги ва ўз қадриятларини химоя қила олиш қобилиятини таъкидлаб, Ойбекнинг ҳалқ учун нақадар қадрли ва ардоқли эканлигини, ҳалқнинг орзу-умидларини рӯёбга чиқаришга хизмат қилганини ифодалайди. Бу мисралар улуғ адабнинг ҳалқ билан қондош, унинг дарду ташвишларини юрагидан ўтказувчи инсон бўлганлигини таъкидлайди.

“Ганжу мулкка бергисиз эл, Гавҳари, дилбандисан” мисралари Ойбек ҳалқнинг ганжу

мулкка, яъни бебаҳо бойликка тенг келадиган гавҳари, дилбанди эканлигини ва бу улуғ ижодкорнинг қадр-қимматини ҳеч қандай моддий бойликлар билан ўлчаб бўлмаслигини, халқ учун бебаҳо маънавий мерос эканлигини ифодалайди. “Гавҳар” сўзи унинг ижодий истеъоди, маънавияти ва донишмандлиги каби фазилатларини ифодаласа, “дилбанд” сўзи халқнинг юрагига яқинлиги ва меҳр-муҳаббатига сазовор бўлганлигини англатади. Бу мисралар Ойбекнинг халқ учун нафақат ижодкор, балки қадрли инсон, меҳрибон фарзанд эканлигини таъкидлаши билан бирга, ўзбек халқининг маънавий қадриятлари, ўз фарзандларига бўлган меҳр-муҳаббати ва уларни қадрлаши каби туйғуларни ҳам ифодалайди.

Ҳар калиманг маърифатнинг
Уфқида ойдек тўлиб,
Эл аро топдинг шараф сен,
Устоз Ойбек бўлиб.

Дастлабки икки мисра Ойбекнинг ҳар бир сўзи маърифат билан сугорилганлиги, ҳар бир гапи инсонларнинг онгига нур сочаётганлигини ифодалайди. “Калима” сўзи ижодкорнинг сўzlари, асарлари, фикрлари маъноларини қамраб олади. “Маърифатнинг уфқи” эса билим, тафаккур, маънавий юксалиш каби тушунчаларни ўз ичига олади. “Ойдек тўлиб” ибораси Ойбекнинг сўzlари маърифат уфқида худди тўлин ойдек ёрқин, равшан ва мукаммал эканлигини таъкидлайди. Ой нури қоронғуликни ёритиб, йўл кўрсатгани каби Ойбекнинг сўzlари ҳам жаҳолатни енгиб, инсонларни тўғри йўлга бошлайди. “Эл аро топдинг шараф сен, Устоз Ойбек бўлиб” мисралари Ойбекнинг халқ орасида устоз сифатида шараф топганлиги, унинг фаолияти халқ учун хизмат қилишга қаратилганлиги ва асарлари халқнинг дарду ташвишлари билан уйғун эканлигини кўрсатади. “Шараф” сўзи адабнинг халқ томонидан эътироф этилганлиги, номи халқ хотирасида абадий сақланиб қолишини англатади. “Устоз Ойбек бўлиб” ибораси эса Ойбекнинг нафақат ёзувчи, балки ёш авлодга таълим берувчи, уларни маърифатга йўналтирувчи устоз эканлигини таъкидлайди.

Шан ҳаётинг одамийлик
Хайру софликдан нишон,
Чақнади шеърингда нурли
Эътиқод бирлан имон.

Банддаги дастлабки мисралар Ойбекнинг бутун ҳаёти инсонийлик, эзгулик ва покликнинг тимсоли эканлигини таъкидлайди. “Шан” сўзи ҳаётнинг гўзаллиги, шарафи, фахри маъноларини англатади. Бу ижодкорнинг ҳаёти нафақат шахсий ютуқлар, балки инсонийлик қадриятларига содиқлик билан ҳам гўзал ва шарафлидир. Адаб фаолиятида одамийлик, хайру саховат ва қалб поклиги асосий ўрин тутади. “Чақнади шеърингда нурли Эътиқод бирлан имон” мисралари шоир ижодига, аникроғи, унинг шеърларига қаратилган. Бу ибора Ойбек дунёқарashi, ахлоқий принциплари ва ички ишончига ишора қиласи. “Эътиқод” сўзи унинг ўзи танлаган йўлига, қадриятларига содиқлигини англатса, “имон” сўзи Аллоҳга бўлган ишончи ва маънавий поклигини ифодалайди. Бу икки тушунча бирлашиб, Ойбекнинг комил инсон сифатидаги қиёфасини яратади. “Чақнади” сўзи ижодкор асарларининг нурли, ёрқин ва таъсирчан эканлигини ифодалайди. Бу нур эътиқод ва имон туйғуларидан келиб чиқади. Ойбек шеърларида инсонга ишонч, келажакка умид ва Яратганга имон мужассамланган. Унинг асарлари фақатгина бадиий гўзаллик эмас, балки маънавий қувват манбаи ҳамdir. Шу билан бирга, бу мисраларда нафақат улуғ шоир хотираси улуғланади, балки инсонийлик, эътиқод ва имон каби абадий қадриятларга ҳам мурожаат қилинади.

Куйидаги бандда Ойбекнинг маънавий дунёси, ижодий илҳом манбалари ва унинг ўз даври билан узвий боғлиқлиги тасвирланади:

Гоҳ Навоий сұхбатингда,
Гоҳ Торобий, Йўлчигоҳ,
Сен севикли даврим ўғли
Бегумон, беиштибоҳ.

Мисралар Ойбекнинг миллий ва умуминсоний қадриятларга садоқати, ўтмиш меросига хурмати ва ўз замонининг етук фарзанди эканлигини кўрсатади. “Гоҳ Навоий сұхбатингда,

Гоҳ Торобий, Йўлчи гоҳ” мисралари аллома ёзувчининг ўтмишдаги буюк аждодларимиз, маърифатпарвар зотлар билан руҳий боғлиқлигини кўрсатади. “Навоий сұхбати” Ойбекнинг ўзбек мумтоз адабиётидан, хусусан, Алишер Навоий ижодидан илҳомланганлигини англатади. “Гоҳ Торобий, Йўлчи гоҳ” ибораси эса унинг халқ ҳаракати, миллий озодлик ғоялари билан ҳамнафас бўлганлигини ифодалайди. “Сен севикли даврим ўғли Бегумон, беиштибоҳ” мисралари адибнинг ўз даврининг севимли фарзанди, ўз замони билан узвий боғлиқлигини билдириб, давр муаммоларига бефарқ бўлмаганлиги, асарларида замон руҳи ва интилишлари акс этганлигини англатади.

Хизматингдан, ҳикматингдан

Элу юрт мангу ризо,

Учмагай, номинг асрлар

Сўнгидан бергай садо.

Шеърнинг сўнгги тўрт мисраси А.Ориповнинг Ойбекка бўлган юксак хурмати ва эътирофини жамлаб, унинг хотираси абадий яшашини тараннум этади. Мисралар улуғ инсоннинг халқа қилган хизматлари, ижодий мероси ва номининг абадийлигини таъкидлаб, шеърнинг якуний хулосаси ва асосий ғоясини ифодалайди. “Хизматингдан, ҳикматингдан Элу юрт мангу ризо” мисралари Ойбекнинг халқа қилган хизматлари ва донишмандлигидан бутун эл-юрт абадий рози эканлигини билдиради. “Хизмат” сўзи унинг ёзувчи, шоир, устоз ва жамоат арбоби сифатида халқ манфаати учун қилган барча ишларини қамраб олади. “Ҳикмат” эса ижодкор асарларида, сўзларида мужассам бўлган доно фикрлар, ҳаётий тажриба ва маънавий юксакликни англатади.

“Учмагай, номинг асрлар Сўнгидан бергай садо” мисралари Ойбек номи асрлар оша ўчмаслигини, унинг овози замонлар қаъридан эшитилиб туришини тасдиқлаб, адаб хотираси, асарлари ва қилган ишлари ҳеч қачон унтуилмаслигини билдиради. Ойбек номи нафақат бугунги қунда, балки келажак авлодлар учун ҳам аҳамиятли бўлишини, асарлари доимо ўз қадрини йўқотмаслигини англатади. Шунингдек, мазкур мисралар фақатгина Ойбек шахсиятини тараннум этмайди, балки барча ижодкорларни халқа хизмат қилишга, маънавий қадриятларни асраб-авайлашга ва келажак авлодларга бой мерос қолдиришга унрайди.

“Ойбек ҳақида қўшиқ” шеъри интертекстуаллик жиҳатдан ҳам бой асар бўлиб, унда матнлараро адабий, маданий ва тарихий боғлиқлик мавжуд.

Адабий интертекстуаллик.

Гоҳ Навоий сұхбатингда,

Гоҳ Торобий, Йўлчи гоҳ...

Мазкур мисралардаги биринчи ишора Ойбекнинг машҳур “Навоий” романига боғлиқдир. Маълумки, Алишер Навоий тарихи ва унинг ижтимоий-сиёсий фаолиятига бағишлиланган мазкур роман ўзбек адабиётида муҳим ўрин тутади. А. Орипов Навоийни тилга олиб, адабнинг тарихий шахсларга ва уларнинг маънавий дунёсига бўлган қизиқишини таъкидлайди. Иккинчи ишорадаги Торобий Ойбекнинг “Торобий” драмаси қаҳрамони Маҳмуд Торобий бўлиб, мамлакат мустақиллиги учун курашган тарихий шахсдир. Шеърда Торобий номининг келтирилиши Ойбекнинг миллый тарихимизга бўлган муносабатини ёритади. Бу ишора шоирнинг ижтимоий ва миллый руҳдаги қараашларини янада очикроқ тушунишга имкон беради.

Юқоридаги иккинчи мисрада тилга олинган Йўлчи образи ҳам интертекстуалликнинг ёрқин намунасидир. “Кутлув қон” романининг бош қаҳрамони Йўлчи адолат, меҳнат ва озодлик рамзидир. У янги ҳаёт учун, эркинлик курашади ва бу йўлда ҳалок бўлади. Муаллиф Йўлчини тилга олиш орқали Ойбекнинг ижтимоий фикрларини ўқувчига етказади.

Тарихий интертекстуаллик. Ойбекнинг ижоди ва шахсияти шўро тузуми даврида шаклланган бўлиб, А. Орипов унинг тарихий ўрни ва хизматларини ёдга олиш орқали тарих билан боғлиқликка ишора қиласди. Шан, одамийлик, хайр, софлик, эътиқод, имон каби сўзларнинг бир бандда кетма-кет келтирилиши шеърнинг маънавий мазмунини чуқурлаштиради.

“Ойбек ҳақида қўшиқ” шеърида эпитет, метафора, рамзий тимсоллар каби бадиий

воситаларнинг кенг қўлланилгани унинг образлилигини оширган. “Ҳар калиманг маърифатнинг уфқида ойдек тўлиб” метафораси Ойбекнинг маърифат тарқатишдаги буюклигини рамзий тарзда таъкидлайди. Унинг сўзлари нур ва маърифат манбай сифатида талқин қилинади. “Чақнади шеърингда нурли эътиқод бирлан имон” метафораси орқали адаб ижоди ва унинг маънавий кучи тасвирланган. “Даврим ўғли” бирикмаси Ойбекнинг ўз даврининг муаммоларини чукур ҳис этганлигини, унинг дарди билан яшаганлигини метафорик тарзда ифодалайди. “қалби пок”, “маърифатнинг уфқида” “азиз фарзанд”, “гавҳар”, “дилбанд” каби эпитетлар орқали бу улуғ шахснинг ижодий ва инсоний фазилатлари кўрсатилган. “Қалби пок мардона элнинг” мисрасида Ойбек шахсиятидаги поклик ва мардлик хусусиятлари таъкидланган. “Ганжу мулкка бергисиз” ибораси муқояса бўлиб, унда Ойбекнинг қадр-қиммати бебаҳо бойликлар билан солиширилади.

Хулоса. Абдулла Ориповнинг “Ойбек ҳақида қўшиқ” мадхия шеъри матнлараро боғлиқлик ва бадиий воситаларнинг муваффакиятли уйғунлигини намоён этади. Шеър халқона руҳда, содда ва равон тилда ёзилган бўлиб, образли ифодалар ва бадиий санъатлар орқали улуғ ижодкорнинг бетакрор қиёфасини яратишга эришилган. Шеър ўқувчида Ойбекка нисбатан хурмат ва муҳаббат туйғуларини уйғотади, унинг адабий меросини қадрлашга ундейди. Шунингдек, устоз-шогирдлик анъаналарининг аҳамиятини ва маънавий қадриятларни асраб-авайлаш зарурлигини эслатиб туради. Бу шеър ўзбек адабиётининг икки буюк ижодкори ўртасидаги маънавий боғлиқликни ёрқин намоён этади. Ундаги интертекстуал ишоралар, адабий ва тарихий қаҳрамонлар ҳамда бадиий воситалар А. Ориповнинг устоз ижодига чукур хурматининг ифодаси бўлиб, унинг асарларини янада кенгроқ англашга йўл очади. Шеърда Ойбек ижодининг Навоий, Торобий ва Йўлчи каби тарихий ва адабий шахслар билан боғлиқлигини кўрсатиш орқали адабий анъаналарга мурожаат қилинади.

АДАБИЁТЛАР

Абдулҳакимова О. Абдулла Орипов адабий-эстетик қарашлари. “Fan va ta’lim” нашриёти. – Тошкент. 2022.

Ахмедова Ш. Портрет-мақола жанри ривожи

(Ойбек ижоди мисолида). JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS. Volume–53_ Issue-2 May _2024. 99 – 104.

Жабборов И. Абдулла Орипов шеъриятида тарихий шахс талқини. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси “Фан” нашриёти. – Тошкент. 2008.

“Абдулла Орипов ижодининг илмий-маърифий аҳамияти” мавзусидаги Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Тошкент. 2020.

Қўшжонов М. Ойбек // Жаҳон адабиёти. 2005 йил.1-сон.

Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан. 2008.

<https://t.me/abdullaorifjodi>

BAYRON IJODIDA ELEGIK FRAZEOLOGIYA

Toshpulatov B.B.

Namangan davlat chet tillari instituti filologiya fakulteti dekani o'rribbosari

Annotatsiya. Maqolada ingliz adabiyotining sentimental yo'nalishida lirik poeziyaning eng keng tarqalgan ko'rinishi bo'lgan elegiya, elegik frazeologiyasining Bayron she'riy uslubining shakllanishidagi roli, uning lingvopoetik xususiyati hamda vazifasi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: elegiya, elegik frazeologiya, emotsiyonallik, melanxolik kolorit, poetik uslub.

Аннотация. В статье анализируется роль элегии, которая является наиболее распространенной формой лирической поэзии в сентиментальном направлении английской литературы, элегической фразеологии в формировании поэтического стиля Байрона, ее лингвопоэтическая особенность и функции.

Ключевые слова: элегия, элегическая фразеология, эмоциональность, меланхоличный колорит, поэтический стиль.

Annotation. The article analyzes the role of elegy, which is the most common form of lyric poetry in the sentimental direction of English literature, elegiac phraseology in the formation of Byron's poetic style, its linguistic and poetic features and functions.

Key words: elegy, elegiac phraseology, emotionality, melancholic coloring, poetic style.

Turli davrlarning poetik tilida ma'lum bir so'z birikmalaridan foydalanishga bo'lgan moyillik mavjud bo'ladi. Xuddi shuning kabi, ingliz klassik adiblarining ijodida ham perifrazning rivojlanishi predmetlarning tasviriy mazmunining barqarorlashishiga olib keldi: masalan, lowly train (dehqonlar), yoki yuqorida eslatib o'tilgan fleecy breed (qo'ylar). Klassitsizm namoyondalari poeziyasidagi ko'plab ot so'z turkumiga kiruvchi so'zlar doim bir xil epitetlar bilan ishlataligan: masalan dala va o'tloqlar dewy, flowery, bloomy, smiling, verdant kabi so'zlar bilan aniqlashtirilgan, osmon esa ko'mko'k tusda (azury sky), tong esa oltinrang (golden morn) deya tasvirlangan.

O'n sakkizinchchi asrning ikkinchi yarimi ta'sirchan lirikasida poeziyaga melanxolik kolorit baxsh etuvchi so'z birikmalaridan foydalanilgan. Bu kabi frazeologiyani elegik (mungli, g'amgin) deb atashgan, zero u ana shu janrga xos bo'lgan mungli, g'amgin lirik mavzularga mos keladi. Ingliz adabiyotining sentimental yo'nalishida elegiya lirik poeziyaning eng keng tarqalgan ko'rinishi bo'lgan. Bu maktab shoirlarining elegik frazeologiyasi Bayron she'riy uslubining shakllanishida juda katta rol o'ynagan. Bu ayniqsa Bayronning 1816-1817 yillardagi she'rlarida o'z aksini topadi.

"Chayld Harold ziyorati" poemasining uchinchi va to'rtinchi qo'shiqlarida xarobalar, mozoristonlar, tun qorong'uligi, oqshom haqida mortal shroud, dim and universal pall, all things grow phantoms, Glory's self is twilight, and displays melancholy halo, the verge of darkness, saddest night (IV, 165); bloody shroud, shredless dust, bleak battlements (III, 47); By a lone wall a lonelier column rears // A gray and grief worn aspect of old days (III, 65) kabi mos keluvchi epitetlar bilan so'z yuritiladi. Tez-tez "mungli", "g'amgin", "yolg'iz", "qorong'u", "rutubatli" kabi epitetlarga duch kelasiz: dying thunder on the distant wind (IV, 104), a long low distant murmur (IV, 167), a distant prospect far away (IV, 32), dark mind (III, 3), dreary strain (III, 4), melancholy bosoms (IV, 34), solitary shore (IV, 105), desolate cloud (IV, 15), one lone cloud (III, 92). "Xok", "kul", "bevaqt xazon bo'lish" haqida tez-tez eslatiladi: dust, ashes (IV, 46, 144; III, 34, 108, 66), withering ere their time (IV, 22), we wither from our youth (IV, 124).

Elegik frazeologiya Bayron ijodidagi qahramonlik va tarixiy-siyosiy mavzularda ko'plab uchraydi. Masalan, "Chayld Harold ziyorati" poemasidan keltiriladigan quyidagi misollarda yo'qotilgan buyuklik g'am-alami va dardi taassurotlari Avstriya istibdodi, zulmi ostida bo'lgan Italiya shaharlari tasvirida ko'rindi: ...empty halls, thin streets, and foreign aspects...have flung a desolate cloud o'er Venice's lovely walls (IV, 15) ... her long array // Of mighty shadows, whose dim forms despond // Above the Dogeless city's vanished sway; (IV, 4)... The skeleton of her [Rome's] Titanic form // Wrecks of another world, whose ashes still are worm (IV, 46).

Xuddi shunday tarzda uzoqdan eshitilayotgan gumburlash sadolari qonga belangan xalqning noroziligi bilan bog'lab tasvirlanadi:

Hark! Forth from the abyss a voice proceeds,
A long low distant murmur of dread sound,
Such as arises when nation bleeds
With some deep and immedicable wound; (Ch. H., IV, 167)

Qonli kafan jangda halok bo‘lganlarning tanasini yopadi:

Banners on high, and battles passed below;

But they who fought are in a bloody shroud,

And those which waved are shredless dust ere now, ... (Ch. H., III, 47)

Shoir oyog‘i ostidagi xok esa janglarda halok bo‘lgan qahramonlarning xoki:

Heroes have trod this spot – ‘tis on their dust ye tread.

(Ch. H., IV, 144)

Kuchli emotsiyonallik shart-sharoitida elegik frazeologiya umuman yangicha ohangga ega bo‘ladi.

Bir qarashda ishlatalaverib siyqasi chiqqanga o‘xshab ko‘ringan vositalar yangicha kuch kasb etadi. Aynan mana shu vositalar yordamida Bayron qalbning tashvishli va isyonkor xolatini tasvirlab beradi, masalan, the Soul’s haunted cell (III, 5), the wandering outlaw of his own dark mind (III, 3), Sorrow’s most detested fruit... all ashes to the test (III, 34) ... my soul wanders; I demand it back // To meditate amongst decay, and stand // A ruin amidst ruins (IV, 25). Bunday xolatlarda elegik frazeologiya xis-tuyg‘ularning mubolag‘ali tasvirlanishiga mos keladi, ayniqsa, bu xolat tabiat tasvirida yaqqol ko‘rinadi. Masalan, “Qorong‘ulik” (Darkness) poemasida tabiat voqealari-hodisalar allegorik xarakterga ega:

The waves were dead; the tides were in their grave,

The Moon, their mistress had expired before;

The winds were withered in the stagnant air,

And the clouds perished; (Darkness, p.78-81)

Bayron o‘z obruzli tasvirlari bilan o‘zini o‘rab turgan voqelikdan olgan taassurotlarini ifodalagan.

So‘nggi o‘n yilliklardagi katta ijtimoiy-siyosiy voqealar o‘zining qarama-qarshiliklari bilan shoirni hayron qoldirgan va bu haqda o‘zining fikrini bildirishga chorlagan. Russo yongan olovdan faqatgina kul qolgandi, xolos - ...whose dust was once all fire... (Ch. H., III, 76). Insonlar qalbida ne-ne orzu-umidlarni uyg‘otgan Fransuz revolyusiyasi ana shu orzu-umidlarni chippakka chiqargan, natijada yana chochlaru zindonlar bunyod etilgandi – Leaving but ruins, where with to rebuild // Upon the same foundations, and renew // Dungeons and thrones... (Ch. H., III, 82). Uning ko‘z o‘ngida Napoleon dunyoni egallagan shaxs va bir paytning o‘zida ana shu dunyo quli bo‘lib gavdalangan edi: Conqueror and captive of the Earth art thou! (Ch. H., III, 37). Yevropa xalqlari Napoleon urushi davrida kim tomonida turib jang qilmasinlar, zolim hukmdorlar manfaati uchun jang qilganlar, shuning uchun ular “o‘z oyog‘lari va qo‘llariga tushadigan kishanlar” uchun jang qilganlar: wage war for their chains (Ch. H., IV, 94). Ba’zida insoniyat ko‘tarila olmaydigandek, qullik iskanjasidan qutila olmaydigandek, zolim hukmdorlarning qo‘rqitishlaridan erkin fikrlashdan qo‘rqib qolgandek tuyuladi - ... and Man grow pale // Lest their own judgments should become too bright (Ch. H., IV, 93) – itoatkorliklaridan faxlanishadiganday tuyuladi – Proud of their trampled nature (Ch. H., IV, 94). Shuning uchun zamonaqiy, erksevar va lekin kuchsiz Garold o‘zini “ko‘rinmas va og‘ir zanjirlar” bilan bog‘langanday his qiladi – round him clung invisibly a chain... fettering though unseen, // And heavy though it clanked not... (Ch. H., III, 9); “o‘zini ozod tug‘ilgan va lekin qanoti kesilgan lochin kabi xis qiladi” – a wild-born falcon with clipt wing (Ch. H., III, 15).

O‘n sakizinchasi asr fransuz inqilobi natijasidagi umidsizlik va tushkinliklar, erksevarlarning Napoleon roliga nisbatan ikki yoqlama bahosi, uning qahramonlashtirilishi, uning imperiyasining obro‘sizlanishi va tanazzulga yuz tutishi, millatning mustaqillikka intilishi natijasida yangi ozodlik harakatlarining paydo bo‘lishi – bularning hammasi Bayron ijodida o‘zining yaqqol ifodasini topgan.

O‘zidan oldingi yozuvchilarining poetik frazeologiyasidan Bayron o‘ziga keraklilarinigina tanlab oladi va keyin esa ularga o‘ziga xos o‘zgartirishlar kiritadi. Xuddi shu usul bilan u Pop va uning izdoshlari ijodida ko‘plab qo‘llanilgan jonlantirishlarga o‘zgartirishlar kiritadi, xuddi shu tariqa ingliz sentimentalistlari poetik frazeologiyalaridan foydalanadi.

Uyg‘onish davrida keng tarqalgan so‘z o‘yini stilistik uslubi o‘n sakkizinchasi asrga kelib adabiyotning yuqori tabaqalarida beadablikning bir ko‘rinishi sifatida sanala boshlandi. So‘z o‘yinidan foydalanish yaxshi uslubchiga xos emas deb hisoblay boshlashdi. Jonatan Swift ham bu uslubga tilni ifloslantiruvchi bir manba sifatida qaragan. U so‘z o‘yinidan foydalanish “haqiqiy epidemiyaga” aylanib qoldi, deb aytadi. O‘n sakkizinchasi asrning ikkinchi yarmi va o‘n to‘qqizinchasi asrning boshlarida ham Samyuel Jonsonning izdoshlari badiiy asarda so‘z o‘yinidan foydalanish mumkin emas, deb hisoblashgan. Biroq shuni alohida ta‘kidlash kerakki, Filding hamda Sheridan o‘z ijodlarida so‘z o‘yinidan tez-tez foydalanib turishgan. Jonson izdoshlaridan biri Fanni Berni Filding so‘z o‘yinlari haqida uslubning juda xunuk buzilishi, deya gapirgan edi. Bu davrda so‘z o‘yini “past” uslublardan hisoblanar edi. Bu fikrlarni teatr tomoshalarida ishlataladigan saviya jihatdan past bo‘lgan so‘z o‘yinlari tasdiqlar edi. So‘z o‘yinidan oddiy xalq orasida keng tarqalgan satirada ham

foydalanishar edi. Bu, albatta, Bayron ijodiga bevosita va yoki bilvosita ta'sir o'tkazgan bo'lishi mumkin, zero uning zamondoshlari orasida bu uslubdan foydalanuvchi yozuvchilar mavjud edi. Shunisi aniqki, Bayron ijodiga Italian yozuvchilari Pulchi, Berni va Kastilarningadabiy ta'sirlari bo'lgani shubhasiz. Bu ijodkorlarning asarlarida so'z o'yinidan keng tarqalgan stilistik uslub sifatida foydalanilgan edi. Pulchi qalamiga mansub bo'lgan "Morgante Madjore" (The Morgante Maggiore) poemasini Bayron qisman bo'lsa-da, ingliz tiliga tarjima qilgan edi. Yana shuni ham qo'shimcha qilib aytish joizki, "Don Juan" asarida Shekspirdan ko'plab sitatalarning keltirilishi Shekspir ham Bayron uchun so'z o'yinidan foydalanishdagi bir namuna bo'lib xizmat qilganidan guvohlik beradi. Ayrim hollarda Bayron bevosita Shekspir sitatalaridan foydalanadi:

The cause of this effect or this defect, -

Davlatning taraqqiyoti va jamiyatning ravnaqi, avvalo, uning intellektual salohiyati bilan belgilanadi. Ilmiy-texnikaviy potensiali yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar barcha sohalarda yetakchi o‘rnlarni egallaydi. Shu bilan birga, davlat ta’lim standartlarida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalardan tashqari, zamonaviy fanlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha chuqur bilimlarni egallash bugungi kunning dolzarb talabi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Hozirda boshlang‘ich ta’lim tizimining asosiy vazifalari o‘quvchilarni har tomonlama barkamol shaxs etib tarbiyalash maqsadida ularga mustaqil fikrlash, o‘zligini anglash, bilimlarni o‘rganishda, maktabda va mакtabdan tashqari ishlarda faoliy, boy ma’naviyatimiz va qadriyatlаримизни o‘rgatish, o‘z shaxsidagi “men”ini tanitish, yuksak axloqiy fazilatlar va estetik ruhda tarbiyalashdan iborat.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ijodiy qobiliyatlar masalasi psixologiya fanida dolzarb va nisbatan chuqur tadqiq etilgan muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu mavzu qadim zamonlardan bugungi kungacha o‘rganilib, ko‘plab olimlarning ilmiy izlanishlariga asos bo‘lgan. Inson imkoniyatlarini o‘rganish masalasiga Sharq mutafakkirlari (al-Farobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino), Rossiya psixologlari (B.M. Teplov, B.G. Ananев, N.V. Kuzmina, S.L. Rubinshteyn, A.G. Kovalev, V.N. Myasishev) hamda G‘arb olimlari (A. Binet, T. Simon, F. Galton, W. Stern, G. Allport, C. Rogers) katta hissa qo‘sghan. Shu bilan birga, ushbu muammoni O‘zbekiston psixologlari (E. G‘oziev, R. Gaynutdinov, M.G. Davletshin, B.R. Qodirov, V.A. Tokareva va boshqalar) ham o‘rganib, muhim natijalarga erishganlar.

Ijodkorlik insонning yangilik yaratishga, muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan ijodiy qobiliyatini anglatadi. Mazkur jarayonning asosi original fikrlash, amaliy yechim topish, noodatiy

yondashuv va intellektual erkinlik kabi xususiyatlardan tashkil topadi. Ijodiy fikrlash esa muayyan masala doirasida keng qamrovli va turli rakurslardan yondashish, shuningdek, yangi va takomillashtirilgan yechimlarni topish qobiliyatini ifodalaydi.

- J. Guilfordning fikriga ko‘ra, ijodiy fikrlashning asosiy xususiyatlari quyidagilardir:
- O‘ziga xoslik: noodatiy va innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyati;
 - Semantik moslashuvchanlik: ob‘ektni turli nuqtai nazarlardan tahlil qilish salohiyati;
 - Majoziy moslashuvchanlik: ob‘ektning yashirin va kutilmagan jihatlarini aniqlash uchun idrokni moslashtirish imkoniyati;
 - Noma’lum vaziyatlarda g‘oya ishlab chiqish: turli sharoitlarda ijodiy yechimlarni qo‘llash qobiliyati.

Bu xususiyatlar ijodiy fikrlashning muhim mezonlarini belgilaydi va insonning intellektual salohiyatini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

“Inson, o‘zi va ruhiyati orasidagi hamda o‘zi va boshqa birov orasidagi mavjud narsani tadqiq etishda bor imkoniyatni ishlatib muntazam ravishda mashq qildirib turish kerak. Buni u haqiqat vositalarini egallashda sabot bilan yo o‘qitish va murabbiylik usullari yoki bahs va himoya usullari bilan amalga oshirilishi zarur” deb yozadi, Abu Nasr Farobiyning Fozil odamlar shahri kitobida. [1,68-b]

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’lim va tarbiyalash jarayonida nazariy hamda amaliy jihatlarni chuqur anglash muhimdir. Buning uchun, avvalo, quyidagi psixologik-pedagogik masalalarning mohiyatini tushunib olish zarur:

- o‘quvchi shaxsining psixologik rivojlanish darajasi;
- o‘quvchi shaxsining shakllanish jarayoni va o‘quv-mehnat faoliyatining mazmuni;
- o‘quvchi shaxsining individual xususiyatlari va ijtimoiy-psixologik tavsiflari.

O‘quvchi shaxsining psixologik rivojlanish darajasini to‘liq yoritish uchun uning rivojlanish dinamikasi va xususiyatlari haqida aniq ma’lumotlarga ega bo‘lish lozim.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning psixologik rivojlanishi ularning yoshga oid o‘ziga xosliklari bilan uzviy bog‘liqidir. Ruhiy jarayonlar va psixik rivojlanish omillari, jumladan, diqqat va xotiraning darajasi, tafakkurning rivojlanish xususiyatlari, lug‘at boyligi, nutq ko‘nikmalar va boshqa jihatlar bola psixik rivojlanishining tarkibiy qismidir. Shu bois, maktablardagi ta’lim-tarbiya ishlari nafaqat o‘quvchilarga bilim berishga qaratilgan, balki ularning barcha qobiliyatlarini rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual salohiyatini rivojlantirishda tug‘ma qobiliyat va iste’dodning ahamiyati katta. Tug‘ma qobiliyatga ega bo‘lgan o‘quvchilar pedagogik, tarbiyaviy va kasbiy ko‘nikmalarni tezroq o‘zlashtirib, amaliyatda qo‘llash salohiyatiga ega bo‘ladilar. Biroq, iste’dod va qobiliyat barcha o‘quvchilarda tug‘ma ravishda namoyon bo‘lmaydi. Shu sababli qobiliyatni shakllantirish va iste’dodni rivojlantirish jarayoni pedagoglar, oilalar, mahalla hamda ta’lim muassasalarining mas’uliyatli vazifasidir.

Bolalar o‘zlaridagi tug‘ma layoqatlarni ijtimoiy muhitda va o‘z ustida muntazam ishslash orqali rivojlantiradilar. Maktablarda tashkil etilgan sinf va guruhlar, fan to‘garklari, olimpiadalar, shuningdek, o‘quv va mehnat faoliyati bolalarning qobiliyat va layoqatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini taqdim etadi.

«Iste’dod» tushunchasi mohiyat e’tibori bilan «qobiliyat» atamasini o‘z ichiga oladi va insonning muayyan faoliyatda yuqori natijalarga erishish salohiyatini ifodalaydi.

Shuni ta’kidlash joizki, «qobiliyat» tushunchasini insonning tabiiy xususiyati sifatida qabul qilish to‘g‘ri emas, ammo ko‘plab hollarda qobiliyat rivojlanishining negizida ayrim shaxslarda tabiiy predispozitsiya, ya’ni iste’dod mavjudligini kuzatish mumkin. Ko‘pincha, «haqiqiy», «tabiiy», «tabiatdan berilgan» kabi iboralar bilan ifodalanganda, «tabiiylik» tushunchasi qobiliyat tushunchasi bilan amaliy tahlil darajasida bir-biriga bog‘liq bo‘ladi.

Odatda, tabiiylik deganda qobiliyat rivojlanishining asosi bo‘lib xizmat qiladigan iste’dod ko‘zda tutiladi. Ayrim hollarda kimdir tabiiy xususiyatlarni qobiliyat sifatida ta’riflashi yoki amaliy faoliyatda shunday terminlardan foydalanishi mumkin. Masalan, yangi tug‘ilgan go‘dakda mavjud bo‘lgan «garmonik sezgi» yoki «musiqiy qobiliyat» haqida gapirish nazariy jihatdan qiyin. Chunki, har qanday idrokli shaxs, tug‘ilgan paytidan boshlab, musiqaga oid tuyg‘ular yoki boshqa his-tuyg‘ular faqat iste’dodning ilk ko‘rinishlari, qiziqish yoki o‘xshash psixologik mayllarni aks

ettiradi, deb xulosa qilishi mumkin.

Tabiiy iste'dodning ilk belgilari haqida gapirganimizda, biz hali irsiy ravishda uzatilgan iste'dod ko'rinishlariga murojaat qilmaymiz. Shu sabab, iste'dod rivojlanishini genetik va psixologik omillar orqali o'rganish masalasi yana bir bor ilmiy tadqiqotlar doirasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyida yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodlardan foydalanish usullarini taqdim qilamiz:

Intellektual mashqlarni tashkil etish: Bunga aqliy rivojlanishni rag'batlantiruvchi faoliyatlar, jumladan, turli rebuslar, krossvordlarni yechish, shaxmat va shashka o'yinlarini musobaqa shaklida uyushtirish kiradi.

Ijodkor yoshlarni to'garaklarini tashkil etish: Ushbu to'garaklar yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va iste'dodlarini takomillashtirishga qaratilgan. Masalan, adabiyot va jurnalistika sohalarida mahoratga ega bo'lgan yoshlarni aniqlash va ularga yo'l-yo'riq ko'rsatish.

Sport musobaqalari orqali jismoniy va aqliy uyg'unlikni shakllantirish: Turli sport turlarini musobaqa ko'rinishida tashkil etish, bu orqali qatnashchilarning epchillik, chaqqonlik va jismoniy mahoratini rivojlantirish.

Ijodiy adabiy tanlovlarni o'tkazish: She'riyat va g'azalxonlikka oid mushoira, "She'r kechasi" kabi tadbirlar yoshlarning adabiy iste'dodlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Quvnoqlar va zukkolar tanlovlarni tashkil etish: San'at, teatr va tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish hamda ijodkorlik va zukkolik ko'nikmalarini baholashga xizmat qiluvchi tanlovlarni o'tkazish.

Ustoz-shogird an'anasini rivojlantirish: Tajribali pedagoglarning muvaffaqiyatli ishlarini ommalashtirish orqali shogirdlarning o'z ustozlariga bo'lgan ishonchini oshirish va shogirdlarning ta'lim-tarbiyaviy jarayondagi ishtirokini faollashtirish.

Yoshlarning ijodiy ishlari va qobiliyatlarini rag'batlantirish: Ularning ijodiy yutuqlarini turli xil sovg'alar, faxriy yorliqlar va boshqa mukofotlar bilan qadrlash maqsadga muvofikdir.

Tabiiyki, o'quvchilarning o'z maqsadlariga erishishlari uchun ta'lim maskanida olgan bilim, ko'nikma va malakalari kamlik qiladi. Ular yuksak maqsad yo'lida o'z ustilarida tinmay izlanishlari, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishlari lozim.[2,167-b]

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, yuqoridaq nazariy va amaliy yondashuvlarga qaramasdan, qobiliyat va uning rivojlanishi masalasi psixologiya va pedagogika sohalarining eng murakkab muammolaridan biri hisoblanadi. Qobiliyatning shakllanishi sezgi analizatorlari, kuch, harakat, shuningdek, nerv tizimining funksional xususiyatlari kabi tabiiy predispozitsiyalarga bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga, u tashqi ijtimoiy muhitning ta'siri ostida shakllanadi va rivojlanadi.

Ta'kidlash lozimki, bolaning ta'lim-tarbiya jarayonida faol ishtiroki uning tug'ma layoqatlarini yuzaga chiqarish, iste'dod va qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fanlarni o'zlashtira olmagan o'quvchilarga «qobiliyatsiz» deb baho berish noto'g'ri yondashuvdir. O'qituvchining asosiy vazifasi har bir o'quvchining yosh va psixologik o'ziga xosliklarini batafsil tahlil qilish, uning qiziqishlari va ehtiyojlarini aniqlash hamda ularga mos ravishda pedagogik strategiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir. [3,6-b]

Pedagogik jarayon to'g'ri tashkil etilgan taqdirda, har qanday faoliyat o'quvchi shaxsining intellektual, axloqiy, estetik, jismoniy va volitiv (irodaviy) rivojlanishiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

XULOSA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy salohiyatini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari quyidagicha bo'ladi: ular tezkor va turli usullar yordamida muvaffaqiyatga erishadilar, qarorlar qabul qilishda mustaqil fikrlashni o'rganib, uni rivojlantiradilar, o'z salohiyatini va ambitionsiyalarini amalga oshirishga intiladilar, ta'lim sharoitlariga osonroq moslashib, yanada samarali ishlashadi [5,195-b]. O'quvchilar yuzaga kelgan muammolarni hal qilishda moslashuvchan, aniq va samarali yondashuvni qo'llashga qodir bo'ladi.

Bola shaxsining ijodkorligini rivojlantirish uchun o'qituvchi va tarbiyachilar sharoitlar yaratishlari zarur. Shu orqali jamiyatda yangi innovatsiyalar, kashfiyotlar va ixtirolar paydo bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri”- Toshkent. Abdulla Qodriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.

Azizzodjayeva N.N. Pedagogicheskiye texnologii i pedagogicheskoye masterstvo.-T. Fan va axborot texnologiyalari, 2006. -167 b.

Raxmatullaeva N.B. Ernazarova M.S Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining nutqini muloqatini rivojlantirish. “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal- (3) III/2020. ISSN 2181-063X.-6 s.

Pulatova D.T. Innovatsion ta’lim jarayonida bolalarda ekologik tushuncha va tasavvurlarni shakllantirish. Zamonaviy ta’lim / СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ. 2016. 3. -9 s

Mavlyanova R.A. Paxmankulova N.X Boshlang‘ich ta’limda innovatsiya (metodik qo’llanma). -Toshkent, 2017. -195 s.

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TURIZMNING TURLARI VA SHAKLLARINI SCAFFOLDING METODI ASOSIDA O'RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Ashurov Nurbek Oybek o'g'li

Nizomiy nomidagi TDPU tadqiqotchisi

<https://orcid.org/0009-0008-1756-2233>

Annotatsiya: Ushbu maqolada nopedagogik ta'lism yo'naliishi bo'lg'usi muhandis mutaxassis talabalarga ingliz tilini o'rgatish, muammolari, qiyinchiliklari, turizmga oid terminlardan foydalanib scaffolding metodi asosida o'qitish metodikasi asosida muhandis talabalarning ingliz tilini o'rGANISHGA nisbatan qiziqishlarini oshirish va oliy ta'lim muassasalarida turizmning turlari, shakllarini scaffolding metodi asosida o'rgatish metodikasini takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Bo'lajak muhandis mutaxassis talabalarga turizmga oid terminlarni ingliz tilida scaffolding metodi asosida o'qitish qulayliklari aniqlangan. Scaffolding metodidan foydalanib turizmga oid terminlarni ingliz tilida o'qitish imkoniyati ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: ingliz tili, muhandis, nomutaxassis, turizm, soha, termin, "Scaffolding", metodika, o'qitish, usul, talaba, mustaqil, faoliyat, takomillashtirish.

УЛУЧШЕНИЕ МЕТОДИКИ ОБУЧЕНИЯ ВИДАМ И ФОРМАМ ТУРИЗМА НА ОСНОВЕ МЕТОДА СКЕЛЕТИРОВАНИЯ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Ашуров Нурбек Ойбек угли
Исследователь ТДПУ имени Низами

Аннотация: В данной статье описаны вопросы преподавания английского языка студентам непедагогических специальностей, проблемы, трудности, повышение интереса студентов инженерных специальностей к изучению английского языка на основе метода строительных лесов с использованием терминов, связанных с туризмом, а также совершенствование методики преподавания видов и форм туризма в высших учебных заведениях на основе метода строительных лесов.

Определено удобство преподавания туристических терминов на английском языке будущим студентам инженерных специальностей на основе метода строительных лесов. Показана возможность обучения туристическим терминам на английском языке с использованием метода строительных лесов

Ключевые слова: английский язык, инженер, не специалист, туризм, область, термин, «Скаффолдинг», методика, обучение, способ, студент, самостоятельная деятельность, совершенствование.

IMPROVEMENT OF THE METHODOLOGY FOR TEACHING TYPES AND FORMS OF TOURISM BASED ON THE SKELETONIZATION METHOD IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Ashurov Nurbek
Researcher at TDPU named after Nizomiy

Annotation: This article discusses the problems and difficulties of teaching English to future engineering students in the field of non-pedagogical education, the methods of teaching tourism-related terms based on the scaffolding method, increasing the interest of engineering students in learning English, and improving the methods of teaching types and forms of tourism in higher education institutions based on the scaffolding method. The advantages of teaching tourism-related terms in English to future engineering students using the scaffolding method are identified. The possibility of teaching tourism-related terms in English using the scaffolding method is shown.

Keywords: English, engineer, non-specialist, tourism, field, term, «Scaffolding», methodology, training, method, student, independent activity, improvement.

Introduction: On June 20, a videoconference meeting was held with the participation of rectors of technical institutions on the issues of training personnel in engineering and further improving the activities of higher education institutions[2]. It is noted that 67 thousand graduates graduate from 36 state technical universities in Uzbekistan annually. However, their programs and specialties do not meet the needs of manufacturers. As a result, 60 percent of engineers do not work in the field in which they studied. Higher education institutions are limited to conducting fundamental research, and there are very few practical developments for the economy. Hundreds of startups and innovative projects in the engineering field remain “on paper”. We can say that one of the reasons for this is the problem of English literacy among them.

Therefore, in this article, we set the goal of exploring the advantages of teaching tourism-related terms in English to future engineering students using the scaffolding method, increasing their interest in language learning, and increasing the opportunities for teaching tourism-related terms in universities using the scaffolding method.

In turn, expanding the export of products developed in the engineering sector abroad, for which it is necessary for engineering specialists to learn English, including opening the door to new reforms in the tourism sector in Uzbekistan, training future personnel to world standards, and producing competitive specialists on a global scale are considered issues of state importance.

It has been noted that in order to develop tourism in our country, raise it to new levels, and turn our country into one of the world's tourism centers, it is necessary to first create a legal basis. Therefore, the development and implementation of laws and codes of the High Supreme of the Republic of Uzbekistan related to this area, a number of Decrees and resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan on tourism, resolutions of the Cabinet of Ministers of the Republic, instructions, directives and procedures of the Ministry of Justice and other relevant state agencies play an important role in increasing the country's economic power[1].

2. Theoretical foundations and analysis of the topic.

The President announced new initiatives for the development of the sector, including the introduction of a system of allocating at least half a percent of the cost of investment projects to scientific work, and the holding of a republican competition for the «best idea», «best project» and «best invention» in engineering. It was noted that teachers, students and practicing engineers will participate in it, and the 10 best participants who are the authors of ideas, projects and inventions will be sent for internships to countries such as Germany, Japan, China, Russia, Italy, Turkey, South Korea, Singapore. For this, students must have good command of foreign languages.

Tourism is considered not only as a sector that increases the country's economy and provides employment to the population, but also as a separate direction that unites peoples, preserves peace, studies cultural heritage sites in places, and protects nature. The country's natural reserves and national parks are masterpieces of its rich and diverse nature. The country has carefully preserved and developed centuries-old traditions of national culture, arts, and crafts. Our world-famous national dishes and culinary traditions are a symbol of Eastern hospitality.

The state's measures to radically liberalize its visa policy in order to increase the country's attractiveness for foreign tourists include the following important aspects:

- From April 1, 2017, the visa regime will be completely abolished for tourists from 15 countries, including Australia, Austria, Great Britain, Germany, Denmark, Spain, Italy, Canada, Luxembourg, the Netherlands, the Republic of Korea, Singapore, Finland, Switzerland and Japan, as well as for citizens of 12 countries, including Belgium, Indonesia, the People's Republic of China (as part of tourist groups), Malaysia, the USA, France, Vietnam, Israel, Poland, Hungary, Portugal and the Czech Republic, who have reached the age of 55 and are coming for tourism purposes for a period of no more than 30 days; - single tourist visas will be introduced for all countries for a period of 30 days, the procedure for obtaining visas, including using the online system for filling out visa applications, will be significantly simplified, and an electronic visa system will be introduced from 2018. At the same time, special attention is paid to measures to create a modern tourism infrastructure in the regions of our country.

For this purpose, in accordance with the Program, it is envisaged to create five new modern and tourist recreation areas on the shores of Aydar-Arnasay lakes in the city of Khanabad in

Andijan region, in Forish and Armasay districts of Jizzakh region, to build four-star hotels in the cities of Shahrisabz and Karshi in Kashkadarya region, hotels in the Chimyon mountain system in Bostanlyk district of Tashkent region, as well as to create beaches and recreation areas for domestic tourism on the southern shore of Aydarkul in Navoi region and foreign tourists on the shores of Tudakol. There are cities in Uzbekistan whose exact age is difficult to determine. They are unique monuments of human civilization. In particular, the unique architectural monuments of Bukhara, which has a history of almost twenty-five centuries, and the beautiful nature of the oasis have great potential to attract foreign tourists from all over the world.

Tourism - French tour - trip, travel), tourism - travel (travel) is one of the types of active recreation. The history of tourism dates back to the beginning of the 19th century. The English priest Thomas Cook, who was initially considered the founder of organized tourism from England to France,[3] is recognized as the founder of tourism, and made a huge contribution to the development of the history and achievements of tourism. He organized the first railway tour in 1843. After that, he founded his own private tourist company, and in 1866 the first tourist groups were sent to the United States. Ibn Battuta, an Arab traveler in the East, began his journey at the age of 21 and traveled on foot through almost all the countries of East and North Africa. The first foreign tourist trips to Transoxiana became active during the reign of Amir Temur and the Timurids. Amir Temur was in constant contact with the French king Charles VI and the English king Henry IV. His ambassador arrived in Paris in 1403. The book «The Life and Work of Timur the Great» by the Spaniard Clavijo reflects on social life in Movarounnahr and the desire of tourists to visit Timur's state.

3. Experimental part and obtained results. As a result of analyzing scientific sources related to the history and development of tourism, we created a module on its types and forms

**Tourism types and forms
MODEL**

Recreational tourism			
Task	Territorial location	Characteristic	Ecological and socio-economic important
physical and psycho-emotional recovery	sea on the shore or nature in the bosom	<i>lonely and quiet</i>	<i>thin ecological balance storage and to the environment respect with in a relationship to be</i>
Businessman tourism			
work and service trips, new trade markets learning , partners and raw material find	Europe , North America's and In Asia	modern travel in the centers business activity transfer	tourists congresses , exhibitions , seminars participation for
Incentive tourism			
<i>stimulating , k honeys treatment and health restoration</i>	<i>sea salts , mud , water herbs , thermal and mineral waters , mountain air , natural in areas rich in products</i>	<i>human resources again restore , treatment and regression-decay prevent to take</i>	<i>Various to diseases played tourists for modern leisure</i>
Travel the most ancient type			
Every year millions tourists to shrines prostration to do and to eternity touch for	world religions centers , churches hunting grounds , cathedrals , mosques , spiritual and educational societies , far to history has holy places	<i>harmony , tolerance , in people belief and confidence feelings manifestation will</i>	Israel , Saudi Arabia Arabia , Italy , Montenegro such as to countries <i>socio-economic in use brings</i>
Purchase tourism			
encouraging factor	In our country in the early 90s appearance was	of the product relatively cheapness or to oneself originality	other in countries purchase to do good seeing travelers between permanent on demand has .
Excursion tourism			
rest cognitive goals with directly related	Germany , Czech Republic and Eastern Europe	guides companionship , fun cultural places , interesting lectures , adventures , unique information	tourism the most wide widespread of the types one
Sports tourism			
sports competitions participation for the purpose trips	Olympic games , football according to world and Europe championships	the most interesting and popular events , uplifting, mood - boosting travel	tourism agencies from services team captains or simple fans they use
Purposeful tourism			
tourists public to events to participate to provide	Brazil and etc.	to the world famous carnivals participant to be opportunity	<i>socio - cultural solidarity , cooperation</i>
Extreme tourism			
of nature himself/herself by created safe stay from school transition	Cambodia or Thailand to the forests travel	serious physical tension and even some risks with depends	In Europe to countries popularity brings curious tourists number increases
VIP tourism			
yacht , car and so on expensive things rent	Courchevel, Baden-Baden, GOA or Monaco kingdom	the most expensive resorts and services	the most high level expensive food , elite luxury at the hotel location providing gives

Water tourism			
every kind kind of animals with swimming , <i>human in the spirit strong impressions appearance to do , stresses wash</i>	open sea	motorized ship , yacht and other kind of attractive on ships excursions	of rest the most romantic and nice of the types one
Ecological tourism			
ecological nature study , clean nature with conversation , surprise and joy feeling appearance to do	<i>world along</i>	person's leg almost no when not gone ecological to nature , clean to places travel	Flora and fauna , ecological the environment storage and improve
Wedding tourism			
honeymoon transfer	wonderful cultural attention worthy places , warm , hospitable countries	tourism the most beautiful , romantic and nice type	sea , sun , wonderful nature landscape
Mountain tourism			
himself / herself overcome , character again and again strengthening , courage and spiritual strength upbringing	mountain peak ridges ,	on foot walking , passes , slopes , rocky from places extreme to take skill manifestation will be	experienced climbers , especially unprepared people also participate possible
Village tourism			
clean nature , farmers life with dating , organic products with nutrition , active rest get , real village to the bathroom visit , vegetable and new milk consumer goods	In Europe and In America very famous tourism type turned	also called agrarian , tourist in the village , wood at home lives	nature in the lap of to oneself typical in a way , to oneself typical and beautiful life living see passion and efficiency
Sea tourism			
various cities , seas watch as leisure release	sea on ships , specialized on airplanes	interesting excursions	the most good conditions
Rocky tourism			
various level difficulties and the roads pressing go through physical opportunity try see	Alpine skiing tourism , specialized on the tracks ski running roads	sports tourism the most wide widespread of the types one	such tourism types high good quality equipment and big physical requires preparation .
Ethnic tourism			
tourism this types also called nostalgic , see	human childhood past unforgettable places , nearby and dear tent , or cemetery	National values and spiritual harmony , old to people more typical	forever memories love , joy , life wonderful joyful moments remembrance
Pilgrimage tourism			
holy to places tours , churches , monasteries , holy places to places visit	Moscow city and Moscow region wonderful historical to the monasteries visit good example be takes	religious tourism one type various , confessions believers by done increased	pilgrimage of trips impressibility importance
Adventurous tourism			
trips with related unusual places watch to do	of our planet every kind reserves and to the reserves has exotic nature	from the type of transport uses	such tourism the most famous types - safari , yacht travel is considered

Summary. The fact that we have developed a model of the types and forms of tourism using the methodology of teaching tourism terms based on the scaffolding method, classifying the classification of tourism terms based on a small layer of the Uzbek language and further improving the methods of teaching it through information technology makes tourism-related choices easier for travelers, helps to understand the place, purpose and characteristics of travel. Paying special attention to measures to create a modern tourism infrastructure in the territory of our country, opening and developing new types of tourism facilities of industry specialists is of practical importance in the formation of knowledge and skills related to attracting world tourists to Uzbekistan.

Foydalilanigan adabiyotlar

1.Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.02.2021-y., 06/21/6165/0104-son;
Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.01.2022-y., 0722/79/0015-son, 15.01.2022-y.,
06/22/52/0029-son.

2.Мирзиёев мұхандислик соқасини ривожлантириш учун янги ташаббусларни маълум
килди.

3.Tomas Kuk turizm asoschisi. sayyohlik, tarixi va yutuqlari rivojlantirish

TALABALARINI O'QUV-BILISH FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH MODELI

Boboqulova Marjona Abduvali qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi
2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning bilim olishi, intellektual salohiyatini oshirish uchun yaratilgan imkoniyatlar va talabalarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish modeli haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Bilim, talaba, bilim salohiyati, o'quv-faoliyati, oliy ta'lif, jarayon, texnologiya, model

МОДЕЛЬ АКТИВИЗАЦИИ УЧЕБНО-ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ

Бобокулова Марджона Абдували кызы

Шахрисабзский государственный педагогический институт по специальности Теория и История педагогики магистрант 2 ступени

Аннотация: В данной статье рассматриваются возможности, созданные для обучения учащихся, повышения их интеллектуального потенциала, модель активизации учебно-познавательной деятельности учащихся.

Ключевые слова: знания, студент, потенциал знаний, учебная деятельность, высшее образование, процесс, технология, модель

MODEL OF ACTIVATING STUDENT EDUCATIONAL-COGNITIVE ACTIVITIES

Babokulova daughter of Marjona Abduwali

Master of the 2nd stage of the specialty of the theory and history of Pedagogy of the shahrisabz State Pedagogical Institute

Annotation: this article will talk about the learning of students, the opportunities created to increase their intellectual potential, and the model of activating the educational and cognitive activity of students.

Keywords: knowledge, student, knowledge potential, educational-activity, higher education, process, technology, model

O'quv bilim faoliyati — bu o'quvchilarning bilim olish, ko'nikmalarni rivojlantirish va dunyoqarashni shakllantirish jarayoni. O'quv faoliyati o'qish, tinglash, yozish, suhbatlashish, tahlil qilish va boshqa intellektual faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Bu jarayon o'quvchilarning faol ishtirotini talab qiladi, chunki ularning bilim olishda bevosita ishtirot etishlari muhimdir.

O'quv bilim faoliyatining assosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

1. Bilim olish: O'quvchilar yangi ma'lumotlarni o'zlashtiradilar, assosiy ilmiy tushunchalar va faktlarni o'rGANADILAR.

2. Ko'nikmalarni rivojlantirish: O'quvchilarga turli ko'nikmalarni, masalan, tahlil qilish, taqqoslash, izohlash, muammoni hal qilish kabi intellektual ko'nikmalarni o'rgatish.

3. Kreativlik va fikrlash: O'quvchilarni yangi g'oyalarni ishlab chiqish, savol berish, tanqidiy fikrlash va ijodiy yechimlar topish kabi faoliyatlarga jaib etish.

4. Shaxsiy rivojlanish: O'quvchilarning o'zini anglash, o'z imkoniyatlarini baholash va ularni rivojlantirish, shuningdek, o'zini ifoda etish qobiliyatini oshirish.

O'quv faoliyati ikki turga bo'linadi:

1. O'quvchilar o'zlari bajaradigan faoliyat (masalan, mustaqil o'qish, amaliy mashg'ulotlar).

2. O'qituvchilar tomonidan tashkillashtirilgan faoliyat (darslar, seminarlar, guruhi ishlari).

O'quv faoliyatining samarali bo'lishi uchun o'qituvchining roli juda katta. U o'quvchilarning qiziqishlarini uyg'otish, motivatsiya berish, ma'lumotlarni tushunarli va qiziqarli tarzda taqdim etish, shuningdek, o'quvchilarning fikrlash jarayonini rivojlantirishda yordam beradi.

Bundan tashqari, o'quv faoliyatini jamiyatning barcha sohalarida muhim rol o'yaydi, chunki ta'lif va bilimlar rivojlanishi orqali shaxslar va jamiyat butunlay o'zgarib boradi.

Talabalarni o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish modeli — bu ta'lif jarayonida talabalarni yanada faolroq, o'ylashga undovchi va o'z bilimlarini mustahkamlashga qaratilgan tizim yoki yondashuvdir. Ushbu model talabalarning faolligini oshirish va ularni ta'limga qiziqtirish maqsadida ishlab chiqilgan. Modelning asosiy maqsadi shundaki, talaba o'zi ta'lif olish jarayonida faol ishtirot etsin, bilim olishga qiziqsin va o'zini mustaqil o'qish uchun rag'batlantirsin.

O'quv-bilish faoliyatini faollashtirish modeli tarkibiy qismlari:

1. Motivatsiya yaratish:

- Talabalarni o'quv jarayoniga rag'batlantirish uchun turli xil motivatsion usullar (maksadlar qo'yish, muvaffaqiyatni rag'batlantirish, o'z-o'zini baholash imkoniyatlarini yaratish)dan foydalanish.

- Talabalarning o'z-o'zini rag'batlantirish va o'z bilimlarini mustahkamlashga bo'lgan qiziqishini oshirish.

2. Faol o'quv usullari:

- O'quv jarayonida talabalar faqat passiv ravishda darsni tinglab qolmasdan, interfaol mashg'ulotlar (munozara, guruh ishlari, loyiha asosida o'qish) orqali ishtirot etishlari kerak.

- Talabalarni o'z bilimlarini amalda sinab ko'rishga, masalalarni yechishga undash.

3. O'z-o'zini baholash va tahlil qilish:

- Talabalarni o'z faoliyatini baholashga va o'z o'qish jarayonini tahlil qilishga o'rgatish. Bu ularning mustaqillik darajasini oshiradi va bilimlarini chuqurlashtiradi.

- Darslarda o'z-o'zini baholash, guruh ichida o'z fikrini bildirish va boshqalar bilan fikr almashish imkoniyatlari yaratish.

4. Individual yondashuv:

- Har bir talabaning o'ziga xos ehtiyojlari, qobiliyatlari va qiziqishlarini inobatga olish.

- Differensial o'qitish (xususan, talabalarning bilim darajasiga qarab, ularga moslashtirilgan topshiriqlar berish).

5. O'qituvchining roli:

- O'qituvchi o'quv jarayonining faolligini oshirishda yo'riqchi, rag'batlantiruvchi va motivator bo'lishi kerak.

- Talabalarni o'z fikrlarini erkin ifoda etishga undash va o'quv jarayonida faol ishtirot etishlarini ta'minlash.

6. Texnologiyalardan foydalanish:

- Zamonaviy texnologiyalar va interaktiv platformalar yordamida talabalar bilan o'zaro aloqani osonlashtirish.

- Onlayn kurslar, videomateriallar, ma'ruzalar, forumlar va boshqa raqamli resurslar orqali o'quv jarayonini samarali tashkil etish.

Modelni amalga oshirishda e'tibor berilishi lozim bo'lgan asosiy jihatlar:

- Talabalarni o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun turli xil metodlar va vositalar birgalikda qo'llanilishi kerak.

- Yangi pedagogik yondashuvlar, faol o'qitish usullarini sinab ko'rish va doimiy ravishda o'quv jarayonini yangilab borish muhim.

- O'qituvchining kreativligi, talabalarni o'z maqsadlariga erishishda qo'llab-quvvatlashdagi roli katta.

Ushbu model talabalarning bilim olish jarayonidagi faolligini oshirishga, ular bilan samarali o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilashga xizmat qiladi.

O'quv-bilish faoliyatini faollashtirish modeli, asosan, talabalarning o'qish jarayonida faol ishtirot etishlarini ta'minlashga qaratilgan. Bunday modelda talabalar faqat pasiv ravishda o'qituvchi tomonidan berilgan ma'lumotlarni qabul qilishdan ko'ra, o'zlarining fikr va bilimlarini faol tarzda namoyish etadilar. Modelning tarkibiy qismlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Motivatsion Qism

- Ma'qsadni aniqlash: Talabalar o'zlarining o'qish maqsadlarini belgilab olishlari kerak. Bu maqsadlar ularga o'qish jarayonida qanday natijalarga erishishlari kerakligini anglash imkonini

beradi.

- Ichki va tashqi motivatsiya: Talabalarni ichki motivatsiya orqali, masalan, shaxsiy qiziqishlar va o’z-o’zini rivojlantirish istagi bilan rag’batlantirish. Tashqi motivatsiya sifatida esa, o’qish jarayonida muvaffaqiyatni e’tirof etish, mukofotlar yoki shaxsiy yutuqlarni taqdim etish mumkin.

2. Faol o’quv usullari

- Interfaol darslar: Talabalar darsda passiv o’quvchilardan faol ishtirokchilarga aylanishlari kerak. Bunda guruh ishlari, muhokamalar, loyiha asosida ishslash va amaliy mashg’ulotlar amalga oshiriladi.

- Tajriba va eksperimentlar: Nazariy bilimlarni amaliy faoliyat orqali mustahkamlash. Bu talabalarni faollashtiradi va o’qish jarayonini qiziqarli qiladi.

- Muammolarni yechish: Talabalar real hayotdagi muammolarni yechishga harakat qilishlari kerak, bu esa ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

3. O’z-o’zini baholash va refleksiya

- O’z-o’zini baholash: Talabalar o’z faoliyatini baholashga va o’z xatoliklarini tahlil qilishga o’rganishlari kerak. Bu o’z bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.

- Refleksiya va tahlil: Dars jarayonidan so’ng talaba o’z faoliyatini tahlil qiladi, o’rganganlari va o’zgarishlarni qayd etadi. Bu jarayon o’quvchilarning o’zlarini rivojlantirishlariga xizmat qiladi.

4. Differensial yondashuv

- Individual yondashuv: Har bir talabaga alohida e’tibor qaratish, uning ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olish.

- Maxsus vazifalar va topshiriqlar: Talabaning bilim darajasiga mos topshiriqlar berish, shuningdek, ularni o’zlashtirish uchun turli yondashuvlar ishlab chiqish.

5. O’qituvchining roli

- O’qituvchi – yo’riqchi va rag’batlantiruvchi: O’qituvchi faqat bilimlarni uzatadigan shaxs bo’lib qolmasdan, talabalarni rag’batlantiruvchi, ularni o’z faoliyatiga undovchi va to’g’ri yo’lni ko’rsatib beradigan yo’riqchi bo’lishi kerak.

- Savol va javoblar orqali o’rgatish: O’qituvchi savollar orqali talabalarning o’z fikrlarini bildirishi va fikrlar almashishi uchun imkoniyat yaratadi.

6. Texnologiyalardan foydalanish

- Digital vositalar va resurslar: Zamonaviy texnologiyalar yordamida talabalar bilan yanada interaktiv aloqalar o’rnatish. Masalan, onlayn platformalar, videomateriallar, interaktiv darslar va virtual laboratoriylar.

- Onlayn o’qitish: Internet platformalarida o’quv materiallarini qo’llash, talabalarning o’z mustaqil ishlarni tekshirish va ularga ko’mak berish.

7. Guruh ishlari va jamoaviy faoliyat

- Guruhda ishslash: Talabalar guruhlarga bo’linib, birgalikda dars materiallarini o’rganish va muammolarni yechishda hamkorlik qilishlari kerak. Bu ularning kommunikativ va jamoaviy ish ko’nikmalarini rivojlantiradi.

- Loyiha asosida o’qish: Talabalar o’zlarini loyihalari orqali ko’rsata olishlari kerak, bu ularga mas’uliyatni his qilish imkoniyatini yaratadi.

8. Natijalarni baholash

- Muvaffaqiyatni o’lchash: Talabalar o’quv faoliyatini muntazam ravishda baholash va o’z yutuqlarini qayd etishlari kerak. Bu, ularning o’z o’qish jarayonidagi o’rnini va muvaffaqiyatlarini ko’rishga yordam beradi

Modelning asosiy maqsadi – talabalarni o’z bilimlarini o’zlashtirishda, mustaqil ishlashda va yaratishda faollashtirish. Ushbu model faqatgina o’quvchilarga nazariy bilimlar berish bilan cheklanib qolmay, ular o’z fikrlarini mustaqil ravishda shakllantirib, amaliyotga qo’llashga, ko’nikmalarini rivojlantirishga, va ta’lim jarayonining har bir bosqichida faol ishtirok etishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Davletshin M.G., Mavlonoval M.M., To’ychieva S.M ”Yosh va pedagogic psixologiyasi”

TDPU, 2009.

A.R.Soxibov O'quv qo'llanma. "Pedagogik fikrlar taraqqiyoti" Qarshi "Nasaf" 2022 yil 18,6 b.t

A.R.Soxibov Darslik "Umumiy pedagogika" Qarshi "Nasaf" 2023 yil 22,0 b.t

2. A.R.Soxibov. «Oliy ta'lif muassasalari rahbarlarining innovatsion kompetensiyalari va ularni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari» "Pedagogik mahorat" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 5. Buxoro. Buxoro 2022 y. 23-

3. A.R.Soxibov. "Hozirgi davr oliy ta'lif tizimini innovatsion boshqarishda xorijiy tajribalarning roli". Ta'lif va innovatsion tadqiqotlar. Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. 2023 yil

4. A.R.Soxibov O'quv-uslubiy qo'llanma. "Talimning interfaol usullari" Qarshi 2020y 12,2 b.t

BLOKCHEYN TEKNOLOGIYALARINING TALABALARDA INFORMATSION-ANALITIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

Baydjanov Bekzod Xaitboyevich

Farg'ona davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-1580-8569>

Annotatsiya. Ushbu maqolada blokcheyn texnologiyalarining talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlanishdagi o'rni tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri ishonchli, shaffof va xavfsiz axborot manbalaridan foydalanish orqali talabalar va pedagoglarning analitik tafakkurini rivojlanishdir. Blokcheyn texnologiyalari ushbu jarayonda muhim o'rinn tutib, akademik yozuvlarning autentifikatsiyasini ta'minlash, ilmiy ishlarga bo'lgan mualliflik huquqlarini himoya qilish, plagiarismga qarshi kurashish hamda ma'lumotlarning buzilmasligini ta'minlash imkonini beradi.

Maqolada turli mamlakatlarning blokcheyn texnologiyalaridan ta'lim sohasida foydalanish bo'yichatajribasi o'rganilgan, xususan, AQSh, Yevropa, Osiyodavlatlariga MDH mamlakatlarining ilg'or amaliyotlari tahlil qilingan. O'zbekiston sharoitida ushbu texnologiyaning ta'lim tizimiga joriy etilish imkoniyatlari, mavjud muammolar va istiqbollar muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, blokcheyn texnologiyalarining ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi informatsion-analitik kompetentlikni rivojlanishda samarali mexanizm sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Shuningdek, maqolada blokcheyn texnologiyalarining ta'lim tizimida qo'llanishi bo'yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Xususan, akademik yozuvlarni blokcheynga asoslangan holda saqlash, talabalar va pedagoglar uchun maxsus kurslarni ishlab chiqish, xalqaro tajribalarni o'rganish, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va davlat-xususiy hamkorlikni rivojlanish bo'yicha amaliy choralar taklif etilgan.

Maqolada ilgari surilgan g'oyalar blokcheyn texnologiyalarini ta'lim tizimida samarali qo'llash bo'yicha ilmiy asoslarni shakllantirishga xizmat qiladi va O'zbekiston hamda boshqa mamlakatlarda ta'lim tizimini raqamli transformatsiya qilish jarayonida innovatsion yondashuvlar ishlab chiqish uchun ilmiy-amaliy asos yaratadi.

Kalit so'zlar: blokcheyn texnologiyalari, informatsion-analitik kompetentlik, raqamli transformatsiya, akademik halollik, ma'lumotlar xavfsizligi, ilmiy yozuvlarning autentifikatsiyasi, plagiarismga qarshi kurash.

РОЛЬ ТЕХНОЛОГИЙ БЛОКЧЕЙН В РАЗВИТИИ ИНФОРМАЦИОННО-АНАЛИТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ

Байджанов Бекзод Хайтбоевич

Доцент Ферганского государственного университета, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам

Аннотация. В данной статье анализируется роль технологий блокчейн в развитии информационно-аналитической компетентности студентов. В условиях стремительного развития цифровых технологий одной из основных задач системы образования является развитие аналитического мышления студентов и педагогов через использование надежных, прозрачных и безопасных источников информации. Технологии блокчейн играют важную роль в этом процессе, обеспечивая аутентификацию академических записей, защиту авторских прав на научные работы, борьбу с плагиатом, а также гарантируя целостность данных.

В статье изучен опыт различных стран по применению технологий блокчейн в сфере образования, в частности, рассмотрены передовые практики США, Европы, стран Азии и государств СНГ. Также обсуждаются возможности внедрения данной технологии в систему образования Узбекистана, существующие проблемы и перспективы.

Результаты исследования показывают, что интеграция технологий блокчейн в образовательный процесс может стать эффективным механизмом для развития

информационно-аналитической компетентности. В статье также разработаны научные и практические рекомендации по использованию технологий блокчейн в системе образования. В частности, предлагаются меры по сохранению академических записей на основе блокчейна, разработке специализированных курсов для студентов и педагогов, изучению международного опыта, совершенствованию нормативно-правовой базы и развитию государственно-частного партнерства.

Предложенные в статье идеи служат основой для научного обоснования эффективного применения технологий блокчейн в системе образования и создают научно-практическую базу для разработки инновационных подходов в процессе цифровой трансформации образования в Узбекистане и других странах.

Ключевые слова: технологии блокчейн, информационно-аналитическая компетентность, цифровая трансформация, академическая честность, безопасность данных, аутентификация научных записей, борьба с плагиатом.

THE ROLE OF BLOCKCHAIN TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' INFORMATION-ANALYTICAL COMPETENCE

Baydjanov Bekzod Khaitboyevich

Associate Professor of Fergana State University, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Annotation. This article analyzes the role of blockchain technologies in the development of students' information-analytical competence. In the context of the rapid advancement of digital technologies, one of the main tasks of the education system is to develop students' and educators' analytical thinking through the use of reliable, transparent, and secure sources of information. Blockchain technologies play a crucial role in this process by ensuring the authentication of academic records, protecting intellectual property rights for scientific works, combating plagiarism, and preserving data integrity.

The article examines the experience of various countries in using blockchain technologies in education, particularly analyzing the best practices of the United States, Europe, Asian countries, and CIS nations. The possibilities of implementing this technology in Uzbekistan's education system, existing challenges, and future prospects are also discussed.

The results of the study indicate that the integration of blockchain technologies into the educational process can serve as an effective mechanism for developing information-analytical competence. Furthermore, the article provides scientific and practical recommendations for the application of blockchain technologies in education. Specifically, it proposes measures such as storing academic records on blockchain-based platforms, developing specialized courses for students and educators, studying international experiences, improving the regulatory framework, and fostering public-private partnerships.

The ideas put forward in this article contribute to the formation of a scientific basis for the effective use of blockchain technologies in education and provide a foundation for developing innovative approaches in the digital transformation of education in Uzbekistan and other countries.

Keywords: blockchain technologies, information-analytical competence, digital transformation, academic integrity, data security, authentication of scientific records, plagiarism prevention.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda axborot oqimi mislsiz darajada tezlashmoqda va murakkablashmoqda. Bu esa har bir shaxsdan yuqori darajadagi informatsion-analitik kompetentlikni talab qilmoqda [9]. Informatsion-analitik kompetentlik – bu shaxsning mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish, baholash, qayta ishlash va ulardan samarali foydalanish qobiliyatini anglatadi [4]. Xususan, ta'lim sohasida talabalarning ushbu kompetentligini rivojlantirish dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Zero, bu jarayon nafaqat ta'lim sifatining oshishiga, balki inson kapitalining rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi [5].

Texnologik taraqqiyot natijasida paydo bo'lgan innovatsion texnologiyalar orasida blokcheyn alohida o'rinn tutadi. Ushbu texnologiya dastlab moliya va iqtisodiyot sohalarda qo'llanilgan bo'lsa-da, hozirgi kunda ta'lim, tibbiyot, huquq va boshqa sohalarda ham keng tatbiq etilmoqda [6].

Blokcheyn texnologiyasining assosiy tamoyillari – markazlashmagan boshqaruv, ma'lumotlarning o'zgarmasligi va shaffofligi – uni ta'lim jarayonida qo'llash uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda [8].

Blokcheyn texnologiyalari ta'lim va ilmiy tadqiqotlar sohasida bir qator muhim vazifalarni bajarishga xizmat qiladi. Jumladan, blokcheyn asosidagi tizimlar yordamida talabalarning baholari, akademik natijalar, ilmiy maqolalar va boshqa ta'lim resurslarini ishonchli saqlash hamda ularning shaffofligini ta'minlash mumkin [7]. Bundan tashqari, ushbu texnologiya akademik hujjatlarni soxtalashtirishning oldini olish, ilmiy tadqiqotlarning autentifikatsiyasini ta'minlash va ta'lim tizimini raqamlashtirish jarayonini tezlashtirish imkonini beradi [1].

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, yetakchi mamlakatlar, jumladan AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi davlatlar blokcheyn texnologiyalarini ta'lim tizimiga joriy etish bo'yicha faol tadqiqotlar olib bormoqda [11]. Ayniqsa, dunyoning yetakchi universitetlari – MIT, Stanford, Oxford, Cambridge kabi oliygohlar ushbu texnologiyani ta'lim jarayoniga tatbiq qilish orqali raqamli transformatsiyani jadallashtirishga erishmoqda [3]. Ushbu mamlakatlarning tajribasi blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish natijasida ta'lim tizimida shaffoflikni ta'minlash va tahliliy jarayonlarni optimallashtirish mumkinligini ko'rsatmoqda [2].

O'zbekiston va MDH mamlakatlarida ham raqamli texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda [10]. Xususan, blokcheyn texnologiyalarining akademik jarayonlarda qo'llanilishi masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda blokcheyn asosida ta'lim natijalarini himoya qilish, akademik sertifikatlarni raqamlashtirish va ilmiy tadqiqotlar natijalarini shaffof yuritish bo'yicha dastlabki qadamlar qo'yilmoqda [12].

Adabiyotlar tahlili. Blokcheyn texnologiyalari so'nggi yillarda turli sohalarda, jumladan, ta'lim tizimida ham keng qo'llanilmoqda. Ushbu texnologiyaning ta'lim jarayonlariga integratsiyasi informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishda muhim rol o'ynashi mumkin. Quyida ushbu mavzu bo'yicha milliy va xalqaro ilmiy manbalar tahlil qilinadi.

Blokcheyn texnologiyasi ta'lim sohasida ko'plab imkoniyatlarni taqdim etadi. G.Chen va boshqalar o'z tadqiqotlarida blokcheynning ta'limda qo'llanilishi bo'yicha tizimli tahlil o'tkazib, uning afzalliklari va cheklarini ko'rsatib o'tganlar. Ular blokcheynning ma'lumotlarning shaffofligi va xavfsizligini ta'minlashdagi rolini ta'kidlab, ushbu texnologiya ta'lim jarayonlarini qanday o'zgartirishi mumkinligini muhokama qilganlar [13].

Informatsion-analitik kompetentlik zamonaviy ta'limda muhim ahamiyat kasb etadi. Blokcheyn texnologiyasi ushbu kompetentlikni rivojlantirishda qanday rol o'ynashi mumkinligi haqida tadqiqotlar o'tkazilgan. M.Sharples va J.Domingue o'z ishlarida blokcheynning ta'limdagи imkoniyatlarini o'rganib, uning informatsion-analitik jarayonlarga ta'sirini tahlil qilganlar. Ular blokcheyn yordamida ta'lim jarayonlarida ma'lumotlarning ishonchliligin oshirish va tahlil qilish imkoniyatlarini ko'rsatib o'tganlar [14].

O'zbekiston kontekstida olib borilgan tadqiqotlarda blokcheyn texnologiyalarini ta'lim tizimiga joriy etishning istiqbollari va uning samaradorligi keng muhokama qilinmoqda. O'zbekistonning raqamli ta'lim platformalarini blokcheyn texnologiyalari orqali mustahkamlash va ularning xavfsizligini oshirish bo'yicha bir qator tavsiyalar ishlab chiqilgan. Blokcheyn texnologiyalarining shaffofligi, ma'lumotlarning o'zgarmasligi va ishonchliligi ta'lim jarayonida akademik aldanishlarni oldini olish, talabalar va professor-o'qituvchilarining ma'lumotlarini himoya qilish, shuningdek, diplomlar va sertifikatlarni raqamli shaklda tasdiqlash kabi imkoniyatlarni yaratadi. Bu esa O'zbekistonning raqamli ta'lim tizimida sifat va ishonchlilikni ta'minlashga katta hissa qo'shishi mumkin [15].

Shuningdek, MDH mamlakatlarida blokcheyn texnologiyalarini qo'llash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ta'lim tizimida real natijalar va samaradorlikni o'rganishga qaratilgan. Bu texnologiya ta'limda dars jadvali va o'quv rejalarini avtomatlashtirish, talabalar va professor-o'quvchilarining o'zaro aloqalarini yaxshilash, shuningdek, ma'lumotlar bazalarining xavfsizligini ta'minlashda samarali natijalar ko'rsatmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, blokcheyn yordamida ta'limda ma'lumotlar almashinuvi yanada tezkor va xavfsiz bo'lib, talabalarning o'zlashtirish darajasi va ta'lim jarayonidagi samaradorlik oshadi.

Blokcheyn texnologiyalarini MDH mamlakatlarida muvaffaqiyatli joriy etishning asosiy omillari orasida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, tegishli huquqiy asoslarning mavjudligi va ta'lif tizimining raqamlashtirishga tayyorligi alohida o'rinni tutadi. Ushbu texnologiyalarni kengaytirish va joriy etish O'zbekistonda ham ta'lif tizimini global raqobatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, blokcheynni o'quv jarayoniga integratsiya qilishda pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini oshirish va talabalarning yangicha metodlar asosida bilim olishlariga imkoniyat yaratish muhim masaladir.

Tahlil qilingan adabiyotlar blokcheyn texnologiyasining ta'linda qo'llanilishi va uning informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishdagi o'rnini yoritadi. Ushbu texnologiya ta'lif jarayonlarida ma'lumotlarning shaffofligi, xavfsizligi va ishonchlilagini ta'minlash orqali informatsion-analitik kompetentlikni oshirishga xizmat qiladi. Biroq, blokcheynning ta'linda to'laqonli qo'llanilishi uchun texnik va huquqiy muammolarni hal etish zarurati yuzaga keladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda blokcheyn texnologiyalarining informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishdagi o'rnini tahlil qilish uchun nazariy-metodologik asoslar ishlab chiqildi. Tadqiqotning metodologik negizlari quyidagi ilmiy yondashuvlarga asoslanadi:

Blokcheyn texnologiyalari ta'lif jarayoniga integratsiyalashuvi murakkab tizim sifatida ko'rib chiqiladi. Ushbu yondashuv asosida blokcheynning ta'lif muhitida axborot almashinuvi, ma'lumotlarning xavfsizligi va ishonchliligi nuqtai nazaridan qanday o'rinni tutishi o'rganiladi.

Kompetensiyaviy yondashuvga ko'ra, blokcheyn texnologiyalari ta'lif oluvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishda qanday imkoniyatlar yaratishi aniqlanadi. Xususan, ma'lumotlar ishonchliligi, shaffofligi va mualliflik huquqlarini himoya qilish orqali talabalar mustaqil tahlil qilish va qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirishi tahlil qilinadi.

Blokcheyn texnologiyalarining ta'lif sohasida qo'llanilishi innovatsion yondashuv orqali o'rganiladi. Blokcheyn asosida ta'lif jarayonini tashkil etishning yangi shakllari, masalan, hujjatlarning raqamlashtirilishi, akademik yozuvlar va ochiq bilimlar almashinuvi imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Blokcheyn texnologiyalarining ta'lif tizimiga integratsiyalashuvi turli mamlakatlar – O'zbekiston, MDH davlatlari, rivojlangan Osiyo mamlakatlari, yetakchi ta'lif tizimiga ega davlatlar va nufuzli universitetlar tajribasi asosida taqqosiy tahlil qilinadi. Bu yondashuv blokcheynning ta'lif jarayonidagi samaradorligi bo'yicha muayyan tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Blokcheyn texnologiyalarining informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishdagi o'rnini axborot xavfsizligi tamoyillari asosida baholanadi. Xususan, ta'lif sohasida ma'lumotlarni buzib ko'rsatish va manipulyatsiyalardan himoya qilish, akademik halollikni oshirish va ishonchliligi ma'lumotlar bazasini yaratish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Tadqiqot jarayonida mazkury yondashuvlardan foydalanish orqali blokcheyn texnologiyalarining informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishdagi o'rniga doir nazariy xulosalar chiqariladi va ularning pedagogik jihatdan qo'llanilishiga oid metodologik asoslar ishlab chiqiladi.

Tahlil va natija.

Tadqiqot natijalari blokcheyn texnologiyalarining informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishdagi roli va samaradorligi haqida ilmiy asoslarni shakllantirish imkonini berdi. Olingan natijalar turli nazariy va amaliy jihatlar bo'yicha tahlil qilindi hamda blokcheynning ta'lif tizimidagi imkoniyatlari va istiqbollari chuqur o'rganildi. Quyida tadqiqot doirasida aniqlangan asosiy natijalarni kengroq bayon etib o'tamiz.

Blokcheyn texnologiyalari o'zining shaffoflik, ishonchlilik va xavfsizlik kabi xususiyatlari tufayli ta'lif jarayonida ma'lumotlar bilan ishslash sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ushbu texnologiya quyidagi jihatlarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishga yordam beradi: 1) Ma'lumotlarning ishonchliligi va shaffofligi (talabalar tahliliy faoliyat olib borishda ishonchlil manbalarni aniqlash, ma'lumotlarni verifikatsiya qilish va akademik halollik tamoyillariga rioya qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Blokcheyn tarmog'idagi ma'lumotlar qayta yozib bo'lmaydigan va buzib ko'rsatib bo'lmaydigan tarzda saqlanadi. Bu esa ilmiy-tadqiqot faoliyatining shaffofligini oshirishga, soxtalashtirishning oldini olishga va ishonchlil tahliliy xulosalar chiqarishga yordam beradi); 2) Ma'lumotlar

xavfsizligi (Blokcheyn texnologiyalari ilmiy-tadqiqot ma'lumotlarining buzilishining oldini olish va noto'g'ri yoki yolg'on axborotni tarqatishga qarshi himoya mexanizmlarini ta'minlash imkoniyatini yaratadi. Ayniqsa, ta'lim sohasida plagiat va akademik halollik masalalari dolzarb bo'lib, blokcheyn tizimi ushbu muammolarni hal qilishda muhim rol o'yndaydi); 3) Akademik yozuvlarning autentifikatsiyasi (Blokcheyn orqali talabalar va tadqiqotchilar ilmiy ishlari haqiqiyligini tasdiqlashlari, ma'lumotlarni himoya qilishlari va ular ustidan nazorat o'rnatishlari mumkin. Bu jarayon akademik intellektual mulkning muhofazasiga ham xizmat qiladi).

Blokcheyn texnologiyalarining ta'lim sohasida qo'llanilishi bo'yicha turli mamlakatlar tajribasi tahlil qilindi va quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1) O'zbekiston tajribasi (Mamlakatimizda blokcheyn texnologiyalaridan foydalanishning dastlabki bosqichlari kuzatilmoqda. Elektron diplom va sertifikatlarning blokcheynga asoslangan holda berilishi ma'lumotlarning ishonchliligi va xalqaro tan olinishini ta'minlashga xizmat qilmoqda); 2) MDH davlatlari tajribasi (Rossiya, Qozog'iston kabi mamlakatlar blokcheyn texnologiyalarini ilmiy-tadqiqot jarayonlari va ta'lim tizimiga integratsiya qilish bo'yicha izlanishlar olib bormoqda. Xususan, akademik yozuvlarni blokcheyn orqali saqlash, universitet diplomlarini raqamlashtirish va talabalar reytinglarini shaffof yuritish kabi amaliyotlar mavjud); 3) Osiyo mamlakatlari tajribasi (Janubiy Koreya, Singapur kabi davlatlarda blokcheyn texnologiyalarining ta'lim sohasida qo'llanilishi ancha keng yo'lga qo'yilgan. Ayniqsa, masofaviy ta'lim platformalarida blokcheyn asosida talabalarning o'quv jarayonini kuzatish va akademik yozuvlarni qayd etish tizimlari ishlab chiqilgan); 4) Rivojlangan ta'lim tizimiga ega mamlakatlar tajribasi (AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya kabi mamlakatlarda blokcheyn texnologiyalarini yirik universitetlarda qo'llanilib, talabalar malakasini tasdiqllovchi raqamli hujjatlarni saqlash, ilmiy ma'lumotlarni blokcheyn tizimida saqlash orqali ularning o'zgartirilmaganligiga ishonch hosil qilish, mualliflik huquqlarini himoya qilish va akademik halollikni ta'minlash, blokcheyn orqali ta'lim resurslarini xavfsiz va ochiq holda tarqatish orqali talabalarning ma'lumotlarga teng kirish imkoniyatlarini oshirish).

Blokcheyn texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etishdagi asosiy muammolar

Blokcheyn texnologiyasining ta'lim tizimiga integratsiyasi bo'yicha o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadi, ushbu jarayonda yutuqlar bilan birga ayrim qiyinchiliklar ham mavjud: 1) Texnologik infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmaganligi (ko'pgina ta'lim muassasalarida blokcheyn texnologiyalarini qo'llash uchun zarur bo'lgan texnik vositalar va dasturiy platformalar yetarli emas); 2) Kadrlar tayyorgarligi (pedagoglar, OTM hodimlari va talabalar orasida blokcheyn bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalar mavjud emasligi); 3) Huquqiy va normativ hujjatlar yetishmovchiligi (blokcheyn texnologiyalarining ta'lim tizimida qo'llanishiga oid maxsus me'yoriy hujjatlar va qonunlar to'liq shakllanmaganligi); 4) Investitsiyalar va moliyalashtirish muammolari (blokcheyn tizimlarini joriy etish katta moliyaviy resurslarni talab qiladi, shu bois bu esa davlat va xususiy sektor hamkorligi orqali hal qilinishi kerak bo'lgan masalalardan biri hisoblanadi).

Xulosa va takliflar.

Blokcheyn texnologiyalarining ta'lim tizimiga integratsiyasi zamонавија raqamli muhitda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning samarali vositalaridan bira sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu tadqiqot natijalari blokcheyn texnologiyalarining ta'lim jarayoniga ta'siri, uning afzalliklari va qo'llanish istiqbollari bo'yicha muhim xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Birinchidan, blokcheyn texnologiyalari axborotning xavfsizligi, shaffofligi va ishonchliligini ta'minlab, ta'lim tizimida ilmiy-tadqiqot faoliyatining samaradorligini oshiradi. Blokcheynning markazlashmagan tabiatiga ko'ra, ma'lumotlar buzib ko'rsatishdan himoyalangan bo'lib, talabalar va professor-o'qituvchilar tahliliy faoliyat olib borishda ishonchli manbalarga tayana olishadi. Ayniqsa, ilmiy ishlarga bo'lgan mualliflik huquqlarini himoya qilish va akademik halollikni oshirishda blokcheyn tizimining ahamiyati katta.

Ikkinchidan, blokcheyn texnologiyalarining ta'lim sohasida qo'llanilishi xalqaro tajribada o'z samaradorligini isbotlagan. AQSh, Yevropa va Osiyo mamlakatlarida ushbu texnologiyaning ta'lim jarayoniga integratsiya qilinishi natijasida raqamli sertifikatlar, akademik yozuvlarning

autentifikatsiyasi, ilmiy tadqiqotlarning shaffofligi va ochiq ma'lumotlar bazalarining rivojlanishi kuzatilmoxda. O'zbekiston va MDH mamlakatlari uchun esa bu sohada huquqiy va texnologik infratuzilmani takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Uchinchidan, blokcheyn texnologiyalarining ta'lim jarayonida joriy etilishi pedagoglar va talabalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Bu nafaqat ma'lumotlarni himoya qilish, balki talabalar va tadqiqotchilarning mustaqil ishlash, axborot tahlil qilish va ishonchli manbalarni tekshirish bo'yicha kompetentligini oshirishga ham xizmat qiladi. Biroq, ushbu texnologiyani keng qo'llash uchun zarur bo'lgan infratuzilma, pedagogik yondashuvlar va huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish lozim.

Shu munosabat bilan quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

blokcheyn texnologiyalarini ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich joriy etish – akademik yozuvlar, ilmiy tadqiqot natijalari, talabalarning malakaviy amaliyotlari, mustaqil ta'lim topshiriqlarining bajarilishi bo'yicha kontentlar va baholash tizimlarini blokcheynga asoslangan platformalar yordamida boshqarish mexanizmlarini yaratish lozim;

talabalar va pedagoglar uchun blokcheyn texnologiyalariga oid maxsus o'quv dasturlarini ishlab chiqish – bu ularda informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishga yordam beradi;

– xalqaro tajribalarni o'rganish va blokcheyn asosida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish – ilg'or mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda blokcheynning ta'lim tizimidagi o'rnini kuchaytirish maqsadga muvofiq;

davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish – texnologiyani joriy etish va moliyalashtirish uchun innovatsion dasturlar hamda ilmiy markazlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish zarur.

Xulosa qilib aytganda, blokcheyn texnologiyalari kelajakda ta'lim tizimining innovatsion rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin. Uning ishonchilik, shaffoflik va xavfsizlik tamoyillari asosida qurilishi informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishda muhim omil bo'lib, zamonaviy ta'lim talablariga mos keladigan samarali mexanizm sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Chen G., Xu B., Lu M., Wang Y. (2021). Blockchain applications in education: A systematic review and future research directions. *Computers & Education*, 2021. P. 170.

Chang V., Baudier P., Zhang H., Xu Q., Arami M. (2019). How blockchain can impact education. *Education and Information Technologies*, 2019. P. 1335-1352.

Gartner J. The role of blockchain in higher education and academic integrity. *Journal of Educational Technology and Society*, 2022. P. 45-58.

Johnson M., Parker R. Information-analytical competency: A 21st-century skill. *Journal of Digital Learning*, 2020. P. 23-34.

Khan S., Zhao L., Smith K. Blockchain-based educational credentials and transparency. *International Journal of Educational Technology*, 2022. P. 92-107.

Nakamoto S. Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System, 2008. P. 9.

Sharples M., Domingue J. The blockchain and kudos: A distributed system for educational record, reputation and reward. *Adaptive and Natural Computing Algorithms*, 2016. 45-52.

Tapscott D., Tapscott A. Blockchain revolution: How the technology behind bitcoin is changing money, business, and the world. Penguin Books, 2018. P. 432.

Weber M. Digital literacy and the importance of analytical thinking in modern education. *European Journal of Educational Research*, 2021. P. 101-117.

Xolbekov A. O'zbekistonda raqamli ta'lim va blokcheyn texnologiyalarini joriy etish istiqbollari. Toshkent: TDIU, 2023. P. 127.

Zhao Y., Wang R., Liu P. Blockchain and artificial intelligence in education: A survey of applications and challenges. *Artificial Intelligence in Education*, 2020. P. 543-561.

MILLIY VA MA’NAVIY TARBIYANING QADIMIY VA ZAMONAVIY IJTIMOIY - PEDAGOGIK TAMOYILLARI

Davronova Dildora Saidovna

*O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasи dotsenti,
Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (Dostor of Philosophy)*

Mazkur maqolada, milliy va ma’naviy tarbiyaning qadimiy va zamonaviy ijtimoiy - pedagogik tamoyillari ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berilgan. Shuningdek maqolada oilada sog’lom ma’naviy muhitni barqarorlashtiradigan eng muhim omil ta’lim-tarbiya tizimi ekanligiga alohida urg’u berilgan.

Kalit so’zlar: oila, yoshlar, globallashuv, texnogen tsivilizatsiya, modernizatsiya, raqamli texnologiya, urf-odatlar, odob, ma’naviyat, mehr-oqibat, qadriyat, milliy tarbiya, ta’limiy-tarbiyaviy faoliyat, Sharq allomalari, ilmiy meros, sadoqat, burch va mas’uliyat, tashabbuskorlik, iroda, matonat, tirishqoqlik.

В данной статье с научной и теоретической точки зрения объясняются древние и современные социально-педагогические принципы народно-духовного воспитания. В статье также подчеркивается, что важнейшим фактором, стабилизирующим здоровую духовную среду в семье, является система образования.

Ключевые слова: семья, молодежь, глобализация, техногенная цивилизация, модернизация, цифровые технологии, традиции, нравы, духовность, доброта, ценности, национальное образование, просветительская деятельность, восточные учёные, научное наследие, верность, долг и ответственность, инициатива, воля, упорство, трудолюбие.

This article explains ancient and modern social and pedagogical principles of folk-spiritual education from a scientific and theoretical point of view. The article also emphasizes that the most important factor stabilizing a healthy spiritual environment in the family is the education system

Key words: family, youth, globalization, technogenic civilization, modernization, digital technologies, traditions, morals, spirituality, kindness, values, national education, educational activities, Eastern scholars, scientific heritage, loyalty, duty and responsibility, initiative, will, perseverance, hard work.

Kirish. Globallashuv, texnogen tsivilizatsiya, modernizatsiya, raqamli texnologiyalar rivojlanib borayotgan bir vaqtida, oila ostonasidan boshlab farzandlarimizni “qadriyatli” milliy ruhda tarbiyalash jarayoniga bo’lgan ehtiyoj yuqori bo’lib turibdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev yo’qolib borayotgan urf-odatlar va ajrimlar haqida : «Keksa avlod vakillari yoshlarni mehnatga, o’z uyini, ko’chalar, guzar va maydonlarni ozoda tutishga o’rgatardi. Bizda bu urf-odat edi. Endi ayrim odamlar hovlisini bolasiga emas, mardikorga tozalattiryapti. Ko’p qavatli uylarda qo’shni qo’shnisini tanimaydi. Bu holda bolalar mehnatni, odobni, ma’naviyatni, mehr-oqibatni kimdan o’rganadi? Ma’naviyatimiz uchun eng katta xavf – aksariyat odamlarimizdagi loqaydlik va beparvolik kuchayib boryapti», – kuyinchaklik bilan bildirgan fikrlari ortida yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga alohida urg’u berilgan. [11;12]

Bilamizki, inson va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlар milliy tarbiya tufayli, ajdodlardan asta-sekin tadrijiy ravishda avlodlarga o’tadi. Ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo’lmish ilmu ma’rifat, ta’lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilganlar.

Shu ma’noda, har qanday tarbiya ta’lim bilan chambarchas bog’liq holdagina mavjud bo’ladi, ta’lim va ma’lumot olish jarayonida farzandlarimizni ma’naviy-axloqiy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi. Ana shu sababdan ham oilada sog’lom ma’naviy muhitni barqarorlashtiradigan eng muhim omil ta’lim-tarbiya tizimi hisoblanadi. Binobarin, oiladan bolalarning ta’lim-tarbiyaviy jarayoniga jiddiy e’tibor qaratmasdan, ma’naviyatni rivojlantirib bo’lmaydi.

Oilada ta’limiy-tarbiyaviy faoliyat jarayonini tashkil etishda Sharq allomalarining ilmiy merosini mutoala qilishga alohida ahamiyat qaratish muhim ijtimoiy pedagogik ahamiyat kasb

etadi. Shaxsning ma'naviy kamolotga etishida, unga to'g'ri ta'lim-tarbiya berish, ezgu va sog'lom g'oya haqida juda qimmatli fikr-mulohazalarni Muqaddas "Qur'oni Karim"da, "Hadisi Sharif"da, Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Unsurulmaoliy Kaykovus, Yusuf Xos Xojib, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy va Husayn Voiz Koshifiy kabi allomalarimizning asarlarida uchratishimiz mumkin. [8]

Alohidha e'tirof etib o'tish joizki, oilada milliy tarbiya berish jarayonida bolalarga o'zining milliy qadriyatlar, urf-odatlari va madaniyatiga bo'lgan hurmatini shakllantirishga alohidha e'tibor qaratish lozim. Unda o'z yurtning tarixiy tajribasi, oilaviy qadriyatlar, milliy tuyg'ularni kuchaytirish, vatandoshlik hissini rivojlantirish, yoshlar orasida o'z milliy milliyashgan o'zlik, umumiy tarixiy va madaniy tajribaga hurmat hissini targ'ib qilish, ularga milliy mafkura va qadriyatlar haqidagi bilimlarni oshirishga qaratilgan asosiy maqsad yotadi.

Mavzuning dolzarbligi.

Milliy va ma'naviy tarbiyaning uyg'unligi haqida gapirganda, bu ikki tarbiya tizimining bir-biri bilan chambarchas bog'langanligini nazarda tutish mumkin. Milliy tarbiya insonning o'z millatini, tilini, madaniyatini, an'analarini hurmat qilish va ularni o'z hayotiga tatbiq etishga yo'naltirilgan. Ma'naviy tarbiya esa insonni ruhiy va axloqiy jihatdan kamol topishga, qiyin vaziyatlarda to'g'ri qarorlar qabul qilishga, yomonlikka qarshi tura olishga, oilaviy va jamiyat munosabatlarini to'g'ri olib borishga yo'naltiriladi.

Ikkala tarbiya tizimi o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina insonning ichki duyosini shakllantirishga, odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Milliy qadriyatlar o'zining ma'naviy nuqtai nazaridan insonning ijtimoiy mas'uliyatini ham o'z ichiga oladi. Shunday qilib, oilada sog'lom ma'naviy muhitni barqarorlashtirga xizmat qiladigan milliy va ma'naviy tarbiya bir-birini to'ldiradi, bolalarning dunyoqarashini shakllantiradi, hayotga muhabbat bilan qarashga o'rgatadi.[7]

Bu uyg'unlikning muhimligi shundaki, har ikki tarbiya tizimi insonning ichki dunyosi va tashqi muhiti bilan muvozanatda bo'lib, uning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi. Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini milliy va zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetentsiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda.[9]

Shu nuqtai nazaridan qaraganda oila muhitida ota-onalar tomonidan tarbiyaviy faoliyat jarayoniga yangicha, tizimli yondashuv bolalarda Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik, iroda, matonat, tirishqoqlik kabi xislatlarni tarbiyalash bilan bir qatorda milliy identitetni shakllantirishga ham bevosita ta'sir qiladi.

Oila muhitida tashkil etiladigan milliy va ma'naviy tarbiya negizida esa oilada yoshlarga milliy qadriyatlar, an'analar va ma'naviy asoslarni o'rgatish, ularga milliy identitetni shakllantirishga va bu jarayon orqali milliy madaniyat, tarix, oila shajarasini saqlash, tili va urf-odatlarini ardoqlash va kelajakda ularni amalda tatbiq qilish kabi bugungi kundagi ijtimoiy zaruriyat ko'zga tashlanadi. Buning boisi bir qadar zamonaviylashgan o'zbek oilalarida ma'naviyatimizning o'zagi milliy-an'analarimiz ajdodlarimizdan avlodlarga meros sifatida etib kelgan urf odatlarimiz, qadriyatlarimizga bo'lgan munosabat bir qadar pasayib borayotganligini ilmiy kuzatishlarimiz jarayonida guvohi bo'ldik. Aslida yoshlar jamiyatning eng katta va harakatchan qismi hisoblanadi.

Alohidha e'tirof etib o'tish lozimki, mavjud bo'lgan mazkur mafkuraviy va ma'naviy xurujlarning maqsad va mohiyatini o'z vaqtida anglab oladigan va ularga qarshi o'z fikri va mustaqil dunyoqarashiga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalashda milliy qadriyatlarning o'zbekona urf-odat va an'analarini, odob-axloq normlarini o'rni beqiyosdir.

Milliy urf-odatlar hayotimizning har bir sohasiga singib ketgan bo'lib, bu urf-odatlar bizni aynan qaysi xalq vakili ekanligimizni ko'rsatuvchi izoh, ya'ni, bizning kim ekanligimizni isbotlovchi dalil hisoblanadi. Chunki, ma'naviy barkamol yoshlarni o'ziga xos bo'lgan milliy urf-odatlar xayr-saxovat, mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharm-hayo, iffat, bosiqlik, ulug'vorlik, sabrlilik kabi ma'naviy fazilatlar, mehmono'stlik, bag'rikenglik, bolajonlilik, oqko'ngillilik, mehnatkashlik kabi milliy qadriyatlar aynan urf-odat an'analarda qaror topadi.

Shunday ekan, milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarash millatning o'ziga hurmat bilan qarashning asosiy belgisidir [5]

Takror va takror bo'lsada ta'kidlash lozimki, oilada milliy tarbiya va farzand tarbiyasi haqida gap ketganda beixtiyor taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zлari barchamizni mazkur masalada o'ta sergak tortishimizga chorlaydi. Ko'plab olimlar o'z tadqiqotlarida ma'naviy tanazzulning asosiy omillari bo'yicha qator izlanishlar olib borishdi, har xil qiziqarli tahliliy, empirik ma'lutolar qo'lga kiritildi, lekin bularning ichida odamni tashvishga soladigan, bir qaraganda e'tiborsizdek tuyuladigan, lekin oqibati ma'naviy tanazzulga, johillikka olib boradigan bir omil, ya'ni oilada farzand tarbiyasiga e'tiborsizlik illati millatning ma'naviy tannazulining asosi desak, hecham mubolag'a bo'lmaydi [9]

Oilada tashkil etiladigan milliy va ma'naviy tarbiyaning qadimiylari va zamonaviy ijtimoiy-pedagogik tamoyillari quyidagilar o'z aksini topadi:

Milliy qadriyatlari va an'analarga hurmat – yoshlarga o'zining milliy merosini, urf-odatlarini, salomlashish va mehr-muhabbat, iymon, e'tiqodli bo'lishga o'rgatish.

Milliy tilini saqlash va rivojlantirish – oilada bolalarga o'z milliy tilida so'zlashish madaniyatini takomillashtirishga erishish, o'z ustida ishlash kitob mutolaasi orqali tilni boyitish masalalariga ota-onalarning munosabatini kuchaytirish. (Bugungi yoshlar orasida "jargon"cha so'zlashish, rus, ingлиз tilida "aralash" so'zlashuv holatlari tez tez uchrab turadi)

Har tomonlama ma'naviy o'sish – insonning go'daklik davridan boshlab adabiyot, san'at va sportga, sog'lom turmush tarziga jalb etish, axborot tahlili madaniyatini shakllantirish, vatanga muhabbat va uning taqdiriga daxldorlik, fidoyilik hissini qaror toptirish, ma'naviy-axloqiy ko'nikma va malakalarni, o'zini hurmat qilish, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'lish xislatlarini tarkib toptirish.

Qadriyatlarga va e'tiqodga asoslangan tarbiya – ma'naviy va diniy qadriyatlarga e'tibor qaratish.

Oila ostonasidan boshlab ming yillar mobaynida shakllangan milliy qadriyatlarmiz, milliy tarbiya na faqat farzandlarning bilimlarini kengaytirishga, balki hozirgi davrda yaratilgan madaniy-ma'naviy boyliklar bilan qo'shib, taraqqiyotimizni tezlatishga, g'oyaviy va ma'naviy poklanishni ta'minlashga ko'maklashadi.

O'sib kelayotgan yosh avlodda ma'naviy-axloqiy ko'nikma va malakalarni takomillashtirishda ota-ona mas'uliyati alohida o'rin tutadi. Bilamizki, insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk bor hayot to'g'risidagi tushunchalar, dunyoqarashlar, yaxshilik va ezgulik, oljanoblik va mexroqibat, or-nomus, andisha kabi inson uchun zarur bo'lgan muqaddas tushunchalar dastlab oilada qaror topa boshlaydi va so'ngra jamoaga ko'chadi. [7]

Adabiyotlar tahlilidan bilamizki, milliy tarbiya atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda, u inson shaxsini shakllantirishga, uning ishlab chiqarish va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotda faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ma'naviy ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini anglatadi.

Bunday tushunishda milliy tarbiya. faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning etakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, TV, OAV va boshqalarni ham o'z ichiga oladi.

Shuningdek, keng ma'nodagi milliy tarbiya tarkibiga bu sohada ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi. Milliy tarbiya muayyan shaxsning ma'naviy rivoji, dunyoqarashi, axloqiy qiyofasi, estetik didini o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradilar.

Milliy vama'naviytarbiya «ijtimoiy-tarixiy, qonuniy va ob'ektiv jarayon sifatida» bolalarni har tomonlama etuk shaxslar qilib tarbiyalashda muhim asos hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kun tarbiya nazariyasida milliy va ma'naviy tarbiya juda muhim ahamiyatga ega. Bu ikki aspekt insonning shakllanishi va ijtimoiy hayotida muhim rol o'ynaydi. Milliy va ma'naviy tarbiyaning maqsadi – yosh avlodni o'z xalqining milliy va ma'naviy qadriyatlariiga tayanib insoniylik, adolat, bag'rikenglik ruhida kamol toptirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi 1059-sodan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish shora-tadbirlari to'g'risida" Qarori. <https://lex.uz/uz/doss>

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagи PQ-5040-sonli "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish shora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/asts/5344692>

3.Narbaeva T.K. Ta'lim tizimida yosh avlodni ijtimoiy himoyalashning pedagogik asoslari. Ped.fan.nomz. ... diss. – T.: 2009. -176 b.

4.Quronov M. Milliy tarbiya. T., Ma'naviyat, 2007 -240 b

5.Musurmanova O. Oila jamiyat tayanshi: Monografiya /O.Musurmanova. –Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – B. 252.

6.Musurmanova O. va boshqalar. Pedagogik atamalar lug'ati. / o'zbek, rus, ingliz tillarida / T.: "TURON - IQBOL", 2019. – 844 b

7.Musurmonova O. Pedagogik texnologiyalar – ta'lim samaradorligi omili; monografiya / T.: "Yoshlar nashriyot uyi", 2020. -184 b

8.Najmuddinova K.U. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o'rni: Fal. fan. nom. ... dis. avtoref. –T.: 2006. – 23 b

9.Jabborov X.X."Milliy tarbiyaning qadimiy va zamonaviy ijtimoiy-psixologik omillari" <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.9.09.037> Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar (2022 yil № 9) ISSN 2181-1709 (P)

10. Davronova D. S. Etnopedagogik texnologiyalar asosida oilada sog'lom ma'naviy muhitni barqarorlashtirish imkoniyatlari DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.4.4.029>

11. <https://lex.uz/doss/6445145>

12.<http://old.muslim.uz/index.php/rus/maqolalar/item/28810-joshlar-tarbiyasida-millij-adriyatlarimizning-rni>

DZYUDOCHILARNING UMUMIY VA MAXSUS JISMONIY TAYYORGARLIK NISBATINI OPTIMALLASHTIRISH USLUBI SAMARADORLIGINI TAJRIBA USULI ASOSIDA ANIQLASH

Ergashaliyeva Nafosat Elmurod qizi.

*O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Xalqaro kurash turlari nazariyasi va
uslubiyati kafedrasи o‘qituvchisi*

ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЕ ОПРЕДЕЛЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ МЕТОДА ОПТИМИЗАЦИИ СООТНОШЕНИЯ ОБЩЕЙ И СПЕЦИАЛЬНОЙ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВНОСТИ ДЗЮДОИСТОВ

Ергашалиева Нафосат Елмурововна

*Преподаватель кафедры теории и методики международной борьбы Узбекского
государственного университета физического воспитания и спорта*

Anotatsiya. Ushbu maqola dzyudochilarning jismoniy tayyorgarliklarini yanada rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, mashg‘ulotlar jarayoni samaradorligini aniqlash va yuklamalar ta‘sirini o‘rganishdan iborat.

Kalit so‘zlar: UJT, MJT и TTT, показатели, периоды, физическая подготовленность, антропометрические параметры, рост, грудь.

Аннотация. Данная статья направлена на дальнейшее развитие физической подготовленности дзюдоистов и заключается в определении эффективности тренировочного процесса и изучении воздействия нагрузок.

Ключевые слова: UJT, MJT и TTT, показатели, периоды, физическая подготовленность, антропометрические параметры, рост, грудь.

Ishning dolzarbliji: O‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama jismonan ham intelektual salohiyatli qilib tarbiyalash bugungi kunning dozarb, o‘z vaqtida kechiktirib bo‘lmaydigan vazifa sifatida qaralmoqda. Ushbu masala yuzasidan davlatimiz tomonidan bir qator dasturlar amaliyotga joriy qilinmoqda. Ushbu dasturlarni amalga oshirish asosan, joylarda faoliyat yuritayotgan ustoz va murabbiylarga bog‘liqligi hammamizga ma’lum. Bugungi kunda yurtitimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamон talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalarini ko‘proq tashkil etish orqali yoshlarda o‘z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, sportga bo‘lgan qiziqishini, mardlik va vatanparvarlik ruhini ongiga singdirish, ona Vatanga mehr-muhabbati, sadoqat tuyg‘ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarini saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-maydagi PF-5114-son —Paralimpiya harakatini rivojlantirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida, 2021-yil 5-noyabrdagi PF-5279-son —Sport ta‘limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo‘yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida va 2021-yil 5-noyabrdagi PF-5281-son —2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risidagi Farmonlar, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2022-yil 14-oktyabrdagi VMQ-599-son

Davlatimiz bayrog‘ini sharaflı himoya qilayotgan yosh o‘g‘il-qizlar, vakillik forumlarida ajoyib tayyorgarlik va ajoyib maxorat namoyish etib, boy sport an‘analariga ega mamlakat vakili ekanliklarini bemalol tasdiqlaydilar. Amalga oshiririlayotgan chora-tadbirlar natijalari sport bilan shug‘ullanayotgan va turli xalqaro turnirlarda sovrinli o‘rnlarni qo‘lga kiritayotgan yurtdoshlarimiz sonining ko‘payishida namoyon bo‘lmoqda.

Tadqiqot maqsadi: dzyudochilarning tayyorlov, musobaqa va o‘tish davrlarida jismoniy tayyorgarlik turlari orasidagi nisbatni optimallashtirish uslubini ishlab chiqish, mashg‘ulotlar jarayoni samaradorligini aniqlash va yuklamalar ta‘siri yig‘indisini o‘rganish asosida xulosalar chiqarish va tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan edi.

Tadqiqot tashkil etish usullari: Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlili, pedagogik kuzatuvlar, anketa so‘rovnomasasi, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, hamda tadqiqot natijalarini matematik-

statistik tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan, kurashchilarining mashg'ulot jarayonlari va musobaqa faoliyati tuzilishi.

Mashg'ulotlar dasturini optimallashtirish borasida dzyudochilarining mashg'ulotlarida tezlikni oshirish, kuchni, chaqqonlikni va egiluvchanlikni rivojlantirish mashqlari yordamida UJT, MJT va TTT darajasi yil davomida optimallashgan nisbatining samaradorligi aniqlandi. Asosiy pedagogik tadqiqot boshida tadqiqotda ishtirok etayotgan guruuhlar: tajriba va nazorat guruuhlari deyarli bir xil ko'rsatkichlarga ega edilar.

Tajriba boshida nazorat ($n = 13$) va tajriba ($n = 13$) guruh kurashchilarining antropometrik parametrlari o'rtacha qiymatlari bo'yicha ma'lumotlar

Antropometrik parametrlar	Tajriba guruhি			Nazorat guruhি			t_{st}	P
	\bar{X}	σ	V, %	\bar{X}	σ	V, %		
Vazni, kg	132,3 3	8,4 9	6,42	124,7 9	8,51	6,82	1,23	> 0,2
Bo'yи, sm	33,02 4	2,4 4	7,39	30,01	2,71	9,03	1,61	>0,1
Ko'krak qafasi, sm	30,01 7	2,6 7	8,90	29,82	2,92	9,79	0,09	> 0,8

Tajriba guruhি

Kurashchi tartib raqami	Vazni, kg	Bo'yи, sm	Ko'krak qafasi, sm	toifasi
1	81	185	105	SUN
2	100	187	107	SUN
3	81	183	103	SUN
4	73	176	97	SUN
5	66	172	92	SUN
6	100	185	111	SUN
7	66	165	100	SUN
8	90	186	107	SUN
9	73	168	104	SUN
10	90	176	110	SUN
11	81	180	84	SUN
12	60	168	96	SUN
13	66	171	102	SUN
	78,59	176,35	101,18	
	11,87	7,1058	6,766	
V, %	15,1	4,029	6,687	

Nazorat guruhি

Kurashchi tartib raqami	Vazni, kg	Bo'yи, sm	Ko'krak qafasi, sm	toifasi
1	110	193	109	XTSU
2	90	183	105	XTSU
3	81	168	106	XTSU
4	90	177	107	SU
5	66	172	106	XTSU
6	90	181	110	SU
7	73	180	100	SU

Oldimizga qo'yilgan tadqiqot vazifalari 2024 yilning yanvar oyidan 2025 yilning yanvar oyigacha bo'lgan vaqt oralig'ida tayyorlov davri, musobaqa davri, o'tish davrlarida hal qilindi. Tadqiqotning asosiy vazifalari malakali kurashchilarining umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik nisbatini optimallashtirish uslubini ishlab chiqish, trenirovkalar jarayoni samaradorligini tajriba asosida aniqlash va mashg'ulotlarning ta'siri yig'indisini o'rganib chiqib bir qator xulosalar chiqarish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan edi.

Tadqiqot davomida tezlikni oshirish mashqlari, kuchni rivojlantirish mashqlari, chaqqonlikni rivojlantirish mashqlari, egiluvchanlikni rivojlantirish mashqlari yordamida yuklamalar optimallashgan holda olib borildi va samaradorligi aniqlandi. Jumladan, malakali sportchilar mashg'ulotlarida foydalanilgan yuklamalarning ta'sir yo'nalishi aniqlab berildi. Shu bilan birga yil davomida optimallashgan holda rejalashtirilib mashg'ulotlar tarkibiga kiritilgan UJT, MJT va TTT samaradorligi tadqiqot boshida va oxirida aniqlandi. Bunday o'rganish va uslub sport amaliyotida tez-tez foydalaniladi, u sportchilar to'g'risida ob'ektiv ma'lumotlar jamlash uchun qo'llanadi. Sport

amaliyotida kompleks yo‘nalishidagi mashg‘ulotlar ham keng qo‘llanadi.

Dzyudochilarni kuzatishda qo‘llangan uslublardan foydalanildi va mashg‘ulot dasturini optimallashtirish borasida mashg‘ulotlarda UJT, MJT va TTT darajasi yil davomida optimallashgan nisbatining samaradorligi aniqlandi. Asosiy pedagogik tadqiqot boshida tadqiqotda ishtrok etayotgan guruhlar: tajriba va nazorat guruhlari deyarli bir xil ko‘rsatkichlarga ega edilar ($R > 0,05$) 2 - jadval.

Tajriba boshida I va II guruh dzyudochilarning tayyorgarlik ko‘rsatkichlari va o‘rtacha qiymatlari bo‘yicha qiyosiy ma’lumotlar (tajriba va nazorat guruhlarida $n = 13$ tadan)

2-jadval.

tr	Test sinovlari	Tajriba guruhi boshida			Nazorat guruhi boshida			P
		\bar{X}	σ	V, %	\bar{X}	σ	V, %	
1	Stanometr ko‘rsatkichi	117,99	9,99	8,47	117,16	8,74	7,46	> 0,05
2	Og‘irligi bir xil dzyudochi belini ushlab yuqoriga ko‘tarishlar	28,95	2,79	9,64	29,29	2,75	9,39	> 0,05
3	Og‘irligi bir xil kurashchi Bilan o‘tirib-turishlar (soni)	28,99	2,81	9,69	29,12	2,96	10,16	> 0,05
4	Yotgan holatda og‘irligi bir xil shtangani ko‘tarishlar (soni)	8,98	1,03	11,47	8,81	0,88	9,99	> 0,05
5	30 metrga yugurish (s)	4,72	0,41	8,69	4,69	0,37	7,89	> 0,05
6	Joydan uzunlikka sakrash (m)	2,09	0,23	11,00	2,12	0,22	10,38	> 0,05
7	Oyoqsiz arqonga tirmashib chiqish 5 m. (marta)	2,07	0,23	11,11	2,11	0,24	11,37	> 0,05
8	Turnikda tortilish (marta)	30,13	2,39	7,93	29,71	2,27	7,64	> 0,05

3-jadval.

Tajriba oxirida I va II guruh dzyudochilarning tayyorgarlik ko‘rsatkichlari va o‘rtacha qiymatlari bo‘yicha qiyosiy ma’lumotlar
(tajriba va nazorat guruhlarida $n = 13$ tadan)

tr	Test sinovlari	Tajriba guruhi boshida			Nazorat guruhi boshida			P
		\bar{X}	σ	V, %	\bar{X}	σ	V, %	
1	Stanometr ko‘rsatkichi	132,33	8,49	6,42	124,79	8,51	6,82	< 0,05
2	Og‘irligi bir xil kurashchi belini ushlab yuqoriga ko‘tarishlar	33,02	2,44	7,39	30,01	2,71	9,03	< 0,05
3	Og‘irligi bir xil kurashchi	30,01	2,67	8,90	29,82	2,92	9,79	>

5-jadvalda nazorat guruhi dzyudochilarining tajriba boshida va oxirida aniqlangan ko'rsatkichlari o'rtacha qiymatlarining statistik tavsiflari keltirilgan.

2-,3-,4- va 5-jadvallarda ikki tadqiqot guruhlari dzyudochilarini tayyorgarlik ko'rsatkichlari dinamikasiga oid ma'lumotlar keltirilgan va ular quyidagi xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Tajriba boshida olingan natijalar ikkala guruh dzyudochilarida ham deyarli bir xil va hatto ular uchun hisoblangan variatsiya koeffitsientlari qiymatlari ham bir-biriga juda yaqin. Bu esa, o'z navbatida, asosiy pedagogik tajriba boshida barcha dzyudochilarining sport tayyorgarlik darajasi deyarli bir xil, ya'ni ikkala guruhda ham boshlang'ich shart-sharoitlar teng ekanligidan dalolat beradi. Shu bilan birga tanlangan testlar uchun aniqlangan variatsiya koeffitsientlari qiymatlari 7,46 dan 11,47 gacha oraliqda o'zgaradi va bu o'lhash natijalari tebranuvchanligini asosan kichik va o'rtacha ekanligini ko'rsatadi. Pedagogik tajriba boshida tajriba va nazorat guruhlari dzyudochilarining tayyorgarlik ko'rsatkichlari tahlil qilinib ishonchlilik darajasi aniqlanganda tanlangan barcha testlar uchun Styudentning t - mezon qiymatlari $t = 2,1$ va undan katta bo'ldi va demak, $R > 0,05$.

Pedagogik tajriba oxirida tajriba va nazorat guruhi dzyudochilar jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari tahlil qilindi va ishonchlilik darajasi uchun quyidagilar aniqlandi: Stanometr ko'rsatkichi $t = 2,080$ ($R > 0,05$);

Og'irligi bir xil dzyudochi belini ushlab yuqoriga ko'tarishlar soni $t = 2,738$ ($R < 0,05$);
Og'irligi bir xil dzyudochi bilan o'tirib-turishlar soni $t = 0,159$ ($R > 0,05$);

Yotgan holatda og'irligi bir xil shtangani ko'tarishlar soni $t = 3,184$ ($R < 0,01$)

30 metrga yugurish $t = 1,368$ ($R > 0,05$); Joydan uzunlikka sakrash $t = 2,408$ ($R < 0,05$); Oyoqsiz yordamisiz 5 metr arqonga tirmashib chiqishlar soni $t = 2,130$ ($R < 0,05$); Turnikda tortilish $t = 2,176$ ($R < 0,05$).

Ko'rinish turibdiki, Styudent mezonining eng kichik qiymatlari og'irligi bir xil kurashchi bilan o'tirib-turishlar soni (0,159) va 30 metrga yugurish (1,368) mashqlari bo'yicha o'tkazilgan test sinovlarida kuzatildi.

Tajriba guruhi dzyudochilarining tajriba boshida va oxirida ko'rsatgan natijalari bo'yicha qiyosiy o'rtacha qiymatlari dinamikasiga nazar solinganda bunda ham o'lhash natijalari tebranuvchanligini asosan kichik va qisman o'rtacha ekanligini kuzatildi. Biroq, bu yerda ham og'irligi bir xil bo'lgan kurashchi bilan o'tirib-turishlar soni ($t = 0,95$) va 30 metrga yugurish mashqlari ($t = 1,69$) bo'yicha o'tkazilgan test sinovlarining ishonchlilik darajasi past ekanligi kuzatildi. Qolgan testlarda, yotgan holatda og'irligi bir xil shtangani ko'tarishlar mashqidan tashqari (bu mashq uchun $t = 2,18$ va $R < 0,05$), ishonchlilik darajasi ancha yuqori (ular uchun $t > 3,34$ va undan ham katta; $R < 0,01$). Demak, tajriba guruhi sportchilarini trenirovka mashq'ulotlariga kiritilgan mashqlar quyidagi xulosaga olib keladi:

Mazkur dzyudochilar, ya'ni stanometr ko'rsatkichi, og'irligi bir xil kurashchi belini ushlab yuqoriga ko'tarishlar soni, joydan uzunlikka sakrash, oyoqsiz arqonga tirmashib chiqishlar soni va turnikda tortilishlar soni mashqlari uchun ishonchlilik darajasi yuqori ekanligi aniqlandi (3.4 jadval va 3.5 rasmdagi diagrammaga qarang).

Nazorat guruhi dzyudochilarining tajriba boshida va oxirida ko'rsatgan natijalari bo'yicha qiyosiy o'rtacha qiymatlari dinamikasiga nazar solinganda bunda ham o'lhash natijalari tebranuvchanligini asosan kichik va qisman o'rtacha ekanligini kuzatildi. Bu sportchilar ko'rsatgan natijalarning tajriba davomida o'zgarishi faqatgina ikkita: stanometr ko'rsatkichi va turnikda tortilish (ular uchun Styudent mezoni qiymati taxminan 2,17 ga teng) mashqlar ishonchliligi $R < 0,05$. Bu nazorat guruhi ko'rsatgan natijalar orasida yaxshi, lekin tajriba guruhiba bunday natijalar eng yomonligini inobatga olsak bu ishonchlilik yetarli bo'lmay qoladi ushbu testlar bo'yicha o'lhash natijalari tebranuvchanligini kichik bo'lishiga qaramay ulardan malakali kurashchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasini optimallashtirish uchun qo'llanishi tavsiya etish maqsadga muvofiq emasligidan dalolat berib turibdi. Qolgan testlardan, ayniqsa yotgan holatda og'irligi bir xil shtangani kutarishlar mashqidan (Styudent mezoni qiymati $t = 3,184$ bo'lgan), mazkur maqsadlarda foydalanish tavsiya etilsa bo'ladi.

Shu sababli ham yuklama tarkibiga kirgan ayrim mashqlarni o'lchami, yo'nalishi va

ixtisoslashganligi boshqacha bo‘lganlariga almashtirishga to‘g‘ri keldi. Ma’lum bir yo‘nalishdagi yuklamalar: jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari ta’sirining maqsadga muvofiq bo‘lgan davomiyligini aniqlash maqsadida biz har ikki mezosikllardan so‘ng tayyorgarlik ko‘rsatkichlari dinamikasini o‘rganib chiqdik.

Xulosa: Ikkala guruh dzyudochilari tayyorgarlik ko‘rsatkichlari dinamikasining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadi, jismoniy tayyorgarlik turlari nisbatini optimallashtirish va yuklamalarni oqilona me’yorlash yuqori malakali kurashchilar tayyorgarlik darajasini oshirishda ahamiyatlidir. Dzyudo bo‘yicha malakali sportchilar tayyorlash jarayonida dzyudochilarning UJT va MJT darajasini oshirishning mavjud bo‘lgan omillaridan biri sifatida malakali dzyudochilarning tayyorgarlik bosqichlarida har xil yuklamalarni keng qo‘llanishi tizimlashtirildi. Shu jumladan, dzyudo bo‘yicha malakali sportchilarni tayyorlashda yuklamalarning hajmi va yo‘nalishi bo‘yicha mashg‘ulotlarni ratsional almashlab o‘tkazish hamda tajriba natijasi ko‘rsatkichlari asosida amaliyotda tanlangan yo‘nalish dasturiga asosan tuzilgan mikrosikllarda sportchilarning umumiy va maxsus jismoniy qobiliyatlari sport natijalarining jiddiy o‘sishini ta’minlab beruvchi imkoniyatlarning amaliy ahamiyati ko‘rsatib berildi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Tastanov N.A. – Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati Toshkent 2017 y
2. Azdayeva V.R. – Введение в специализацию избранного вида спорта (дзюдо) Тошкент 2023 y.
3. Adilov S.Q. - Sport Pedagogik Mahoratini Oshirish (Erkin Kurash). O‘quv Qo‘llanma. Toshkent: “Fanlar Akademiyasi Bosmaxonasida” Nashr Etilgan 2019. – B.221.
4. Improving the technical and tactical characteristics of elite wrestlers Rashid Matkarimov 1BCD, Sarvar Adilov 1BCDE, Fikrat Kerimov 1BCD, Georgiy Korobeynikov 1,2,3BCE, Lesia Korobeinikova 1,2,3ACD, Zafar Bakiev 1BCD, Khasan Abdurazzokov 1BCE // Slobozhanskyi herald of science and sport
5. Khalilillo kayumov-improving the effectiveness of the use of technical actions of athletes engaged in freestyle wrestling in counter-attack in competition activities// mental enlightenment scientific – methodological journal
6. Sh.Djumanov - Erkin kurash sportchilarida koordinatsion qobiliyatlarni maxsus mashqlar yordamida rivojlantirish va musobaqa samaradorligini oshirish. O‘zbekiston respublikasi sport vazirligi jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti “olimpiya va parolimpiya sport turlarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani to‘plami 26-sentabr 2024-yil chirchiq, 74-79 .

PEDAGOGIK MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYADA QADRIYATLARNING O'RNI*Ergashev Anvar Ramozanovich**Samarqand davlat tibbiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma'naviyat va axloqiy tarbiyaning nazariy asoslari, shuningdek, ularning tibbiyot sohasida tutgan o'rni tahlil qilinadi. Tibbiyot yo'nalishidagi talabalarning ma'naviy va axloqiy rivojlanishi shaxsiy fazilatlarni shakllantirish, bemorlarga insonparvarlik munosabatini ta'minlash va kasbiy etikaga amal qilishning muhim omili sifatida qaraladi. Shuningdek, ma'naviy boylik va axloqiy me'yorlarning shifokorlar faoliyatidagi ahamiyati yoritiladi. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning bosqichlari va bu jarayonni amalga oshirishning pedagogik mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Maqola ma'naviyatning shaxsning ichki dunyosi va jamiyatdagi o'rnini boyitishdagi rolini hamda uning tibbiyot ta'lim tizimida ajralmas qism ekanligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, axloqiy tarbiya, tibbiy ta'lim, kasbiy etika, insonparvarlik, shaxsiy rivojlanish, pedagogika, shifokorlar faoliyati.

THE ROLE OF VALUES IN PEDAGOGICAL SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION*Ergashev Anvar Ramozanovich**Independent Researcher, Samarkand State Medical University*

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations of spiritual and moral education, as well as its role in the field of medicine. The spiritual and moral development of medical students is considered as a key factor in shaping personal qualities, ensuring a humanitarian approach to patients, and adhering to professional ethics. The significance of spiritual wealth and moral norms in the activities of physicians is also highlighted. The stages of spiritual and moral education and the pedagogical mechanisms for implementing this process are discussed. The article emphasizes the role of spirituality in enriching an individual's inner world and place in society, as well as its integral part in the medical education system.

Keywords: Spirituality, moral education, medical education, professional ethics, humanitarianism, personal development, pedagogy, physicians' activities.

РОЛЬ ЦЕННОСТЕЙ В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОМ ВОСПИТАНИИ*Анвар Рамозанович Эргашев**Независимый исследователь, Самаркандский государственный медицинский университет*

Аннотация: В статье анализируются теоретические основы духовно-нравственного воспитания и его роль в области медицины. Духовное и нравственное развитие студентов медицинских вузов рассматривается как важный фактор формирования личных качеств, обеспечения гуманного отношения к пациентам и соблюдения профессиональной этики. Также освещается значимость духовных ценностей и нравственных норм в деятельности врачей. Рассматриваются этапы духовно-нравственного воспитания и педагогические механизмы реализации этого процесса. Статья подчеркивает роль духовности в обогащении внутреннего мира личности и ее места в обществе, а также в качестве неотъемлемой части системы медицинского образования.

Ключевые слова: духовность, нравственное воспитание, медицинское образование, профессиональная этика, гуманизм, личностное развитие, педагогика, деятельность врачей.

Psixologlar ma'naviyatni inson motivlari tizimidagi ikkita asosiy ehtiyojning individual jiddiylik sifati sifatida belgilaydilar: bilishning ideal ehtiyoji va "boshqalar uchun" yashash, harakat qilish ehtiyoji. O'z-o'zini anglashni rivojlantirish jarayonida insonning e'tibor markazi tashqi omillardan ichki xususiyatlarga, tasodifiy elementlardan xarakterning umumiy jihatlariga

o‘tadi. Bu jarayon natijasida inson o‘ziga xosligini anglashdan o‘zini yuqori darajadagi shaxs sifatida qadrlash sari rivojlanadi.

“Ma’naviyat” tushunchasini pedagogika va zamonaviy tadqiqotlar tarixidagi izchilllikda tahlil qilish muhimdir. K.D.Ushinskiy xalq ta’limining asosiy maqsadi sifatida o‘quvchilar ma’naviyatini tarbiyalashga qaratilgan insonparvarlik g‘oyasini ilgari surdi. Ushinskiy fikriga ko‘ra, ma’naviyat insonning haqiqat va yaxshilikni bilishga bo‘lgan fidokorona intilishidir. V.A.Suxomlinskiy esa insonning ma’naviy hayotini axloqiy, intellektual va estetik ehtiyojlarini shakllantirish va rivojlanirish jarayoni sifatida talqin qildi. Insonning ma’naviy dunyosining manbai moddiy dunyo va ijtimoiy hayotdan kelib chiqadi. Bu, shuningdek, insonning axloqiy tajribasi va ijtimoiy hayoti bilan uzzvi bog‘liqdir.

Tibbiyat sohasida ma’naviy-axloqiy tarbiya alohida ahamiyatga ega, chunki u shifokorlarning bemorlarga insonparvarlik bilan munosabatda bo‘lishi, etika tamoyillariga rioya qilishi va mas’uliyatni his etishini ta’minlaydi. Tibbiyotdagi ma’naviyat shaxsning bemorlar manfaatlarini ustun qo‘yish, shaxsiy manfaatlardan voz kechish va insoniy qadriyatlarni hurmat qilish kabi fazilatlarda namoyon bo‘ladi.

Ma’naviy boylik insonning fikrlari, qarashlari, e’tiqodlari va g‘oyaviy yo‘nalishlari orqali namoyon bo‘ladi. Bu esa insonning ijtimoiy hayotidagi o‘rni, munosabatlari va faoliyati bilan aniqlanadi. V. I. Andreev ma’naviyatni insonning murakkab va ko‘p o‘lchovli sifati sifatida quyidagicha tavsiflaydi:

Insonning eng yuqori ideallari va qadriyatlari tilishi;

Qarama-qarshi printsiplarni uyg‘unlashtirish jarayoni;

Insonning ijodiy ilhomni va tabiat bilan uyg‘unlashgan holatni anglash imkoniyati;

Oila, ta’lim muassasalari va do’stlar bilan harmonik munosabatlar;

Axloqiy fazilatlarning namoyishi: insonparvarlik, mehribonlik, vijdon va sevgi.

Yakutiya xalqlarining etnik-madaniy tadqiqotchilari (U. A. Vinokurova, V. N. Ivanov, P. A. Sleptsov) ma’naviyatni madaniyat faoliyatining ajralmas qismi sifatida talqin qiladilar. Ularning fikriga ko‘ra, ma’naviyat falsafasi insonni axloqiy pasayishdan himoya qilib, tanqidiy davrlarda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi.

Axloq jamiyatda ishlab chiqilgan normalar, qoidalar va talablar tizimini anglatadi. Insonning axloqi uning axloqiy ongi, ko‘nikmalari va bu me‘yorlarga rioya qilish odatlarining birikmasi sifatida talqin etiladi. Tibbiyat sohasida axloqiy me‘yorlar shifokorlar va tibbiyat xodimlarining kasbiy faoliyatida insonparvarlik, mas’uliyat va adolat kabi tamoyillarni qo‘llashni ta’minlaydi. A. S. Makarenko o‘quvchining “o‘z-o‘zidan harakat qilish” qobiliyatiga katta e’tibor qaratgan. V. A. Suxomlinskiy esa insonning ma’naviy shakllanishida kollektivizm, intizom va mas’uliyatni tarbiyalashni muhim deb hisoblagan.

Axloqiy tarbiyaning mazmuni quyidagilardan iborat:

Axloqiy ko‘rsatmallarni tanlash va to‘g‘ri xulq-atvor haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish;

Axloqiy xulq-atvorda mashq qilish;

O‘z harakatlarining hissiy tajribasini shakllantirish.

Tibbiyat sohasida bu jarayon bemorlar bilan to‘g‘ri muloqot qilish, ularning hissiy holatini tushunish va ularga hurmat ko‘rsatish orqali shakllanadi. Axloq shaxsning ichki erkinlik sohasini ifodalaydi va ijtimoiy talablar bilan uyg‘unlashadi. Bu o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘zini takomillashtirishni o‘z ichiga oladi. Ma’naviy tajriba orqali inson axloqiy me‘yorlarni o‘rganadi va ularni amaliyotda qo‘llaydi.

Pedagogikada V. A. Slastenin, I. F. Isaev, A. I. Mishchenko va E. N. Shianovlar o‘ziga, boshqalarga, mehnatga va vatanga bo‘lgan munosabatlarni tarbiyaviy jarayonning asosiy yo‘nalishlari sifatida ajratib ko‘rsatadi. Bu munosabatlarni shaxsning umumiy sifatlarini shakllantiradi. Masalan, boshqalarga hurmat va do’stona yordam, o‘ziga hurmat va halollik, mehnatga vijdonlilik va ijodiy tamoyillar, vatanga muhabbat va tabiatga hurmat ma’naviy-axloqiy tarbiyaning tarkibiy qismlaridir.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning bosqichlari:

Axloqiy me‘yorlar va qoidalarning bilimi;

Bilimlarning e’tiqodga aylanishi;

Hissiyotlarni tarbiyalash va axloqiy qadriyatlarga mos keladigan xatti-harakatlarni

shakllantirish.

Tibbiyot sohasida bu bosqichlar shifokorlar va talabalarning kasbiy tayyorgarligida muhim o'rinni tutadi. Shunday qilib, ma'naviy-axloqiy tarbiya yosh avlodning ongli va hissiy rivojlanishiga, shuningdek, qadriyatlar tizimiga tayanadi va shaxsni ma'naviy barkamollikka yetaklaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak ma'naviy va axloqiy tarbiya insonning ichki dunyosini boyitib, uning ijtimoiy hayotini tartibga soluvchi asosiy omillardir. Tibbiyot sohasida bu jarayon shifokorlarning bemorlar manfaatlarini ustun qo'yishini, insonparvarlik tamoyillariga amal qilishini ta'minlaydi. Ma'naviy qadriyatlar va axloqiy me'yirlarni o'zlashtirish jarayonida shaxs o'zini anglash, o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini takomillashtirishga intiladi. Bu jarayon orqali inson nafaqat shaxsiy, balki jamiyat manfaatlariga xizmat qiladigan yuksak fazilatlarga ega bo'ladi. Pedagogik faoliyat esa bu jarayonni yo'naltiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi asosiy mexanizmdir. Shu bois, ma'naviy-axloqiy tarbiya har qanday ta'lif tizimining, xususan tibbiyot yo'nalishidagi ta'lifning ajralmas qismi bo'lib, insonning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Yunusov, B. Yu. (2010). Pedagogika: nazariya va amaliyot asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.

Tursunov, I. M. (2016). Ta'lif va tarbiyada ma'naviyatning o'rni. Toshkent: O'zbekiston Pedagogika Instituti nashriyoti.

Ergashev.A.R. Masofaviy ta'lif sharoitida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik usullari. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti – T 2023 – 97 b.

Ergashev.A.R. Social And Pedagogical Aspects of Educating Students Morally // Procedia of philosophical and pedagogical sciences – 2023 – P. 65-68

Ergashev.A.R. Talabalarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda qo'llaniladigan masofaviy ta'lif modellari tahlili // Muqaddas kitob va o'zliksiz ma'lumotnoma – 2024 – 94-97 b

Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilarini ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari doktori. ...diss. – T.: 1993. – 364 b.

Ortiqov N. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida o'quvchi shaxsini axloqiy shakllantirish: Ped...fan...dokt... diss. – Toshkent: UzPFITI, 2000. – 305 b.

Ro'ziyeva D.N. Oliy ta'lif muassasalarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning ilmiy pedagogik asoslari. Ped fan. dokt. diss. – T. 2007. – 254 b.

Andreyev A.A. Oliy o'quv yurtlarida masofaviy ta'lifning didaktik asoslari: Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi: 13.00.02. – Moskva, 2019. – 289 bet.

Volova N.Yu. Masofaviy ta'lifning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari nomzodi dissertatsiyasi: 13.00.01. – Samara, 2020. – 156 bet.

TALABALARING AMALIY FAOLIYATGA TAYYORLIK DARAJASINI ANIQLASHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Ergashev Nuriddin G'ayratovich

Qarshi davlat texnika universiteti professori

<https://orcid.org/0000-0002-8274-6193>

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik jarayonda talabalarning amaliy faoliyatga tayyorlik darajasini aniqlashning pedagogik mexanizmlari keltirilgan. Bundan tashqari, tadqiqot ishimizda texnik tizimlarda axborot texnologiyalari kursini o'qitish yordamida kasbiy tayyorgarlikni o'r ganishga kompetentlilikka asoslangan yondashuv nuqtai nazaridan yondashiladi.

Shuningdek, tayyorgarlik o'zgaruvchan dunyoda ishlashga, nostonart xarakterdagi muammolarni hal qilishga tayyor bo'lish imkoniyati, kasbiy faoliyatga tayyorgarlik, shu jumladan, raqamlı texnologiyalar sharoitida innovatsion xususiyat, raqamlı texnologiyalarga ega bo'lish, davr talablarga muvofiq ravishda yangi zamонави sharoitlarga moslashish, nostonart mazmundagi muammolarni hal qilishning mohiyati aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: amaliy faoliyat, texnik tizimlar, axborot texnologiyalari, iyerarxik yondashuv, didaktik ta'minot, raqamlı ta'lif, innovatsion faoliyat, raqamlı ta'lif muhiti, pedagogik mexanizmlar va boshqalar.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ УРОВНЯ ГОТОВНОСТИ СТУДЕНТОВ К ПРАКТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Эргашев Нуридин Гайратович

Профессор Каршинского государственного технического университета

Аннотация. В статье представлены педагогические механизмы определения уровня готовности студентов к практической деятельности в педагогическом процессе. Кроме того, в нашем исследовании мы применяем компетентностный подход к изучению профессиональной подготовки посредством преподавания курса информационных технологий в технических системах.

Также суть подготовки отражается в умении работать в меняющемся мире, быть готовым решать задачи нестандартного характера, подготовке к профессиональной деятельности, включающей инновационность в контексте цифровых технологий, владение цифровыми технологиями, адаптация к новым современным условиям в соответствии с требованиями эпохи, решение задач нестандартного характера.

Ключевые слова: практическая деятельность, технические системы, информационные технологии, иерархический подход, дидактическое обеспечение, цифровое образование, инновационная деятельность, цифровая образовательная среда, педагогические механизмы и др.

PEDAGOGICAL MECHANISMS OF DETERMINING THE LEVEL OF READINESS OF STUDENTS FOR PRACTICAL ACTIVITY

Ergashev Nuriddin Gayratovich.

Professor of Karshi State Technical University

Abstract. This article presents pedagogical mechanisms for determining the level of readiness of students for practical activity in the pedagogical process. In addition, our research work approaches the study of professional training using the course of information technologies in technical systems from the perspective of a competency-based approach.

Also, the essence of preparation is reflected in the ability to work in a changing world, to be ready to solve problems of a non-standard nature, preparation for professional activity, including innovative nature in the conditions of digital technologies, possession of digital technologies, adaptation to new modern conditions in accordance with the requirements of the era, solving problems of non-standard content.

Keywords: practical activity, technical systems, information technologies, hierarchical approach, didactic support, digital education, innovative activity, digital educational environment, pedagogical mechanisms, etc.

Kirish (Introduction). Mazkur tadqiqot ishimiz jarayonida talabalar ya'ni bo'lajak muxandis kadrlar malakasi darajasi ko'rsatkichlarini aniqladik, baholash tizimini va o'qituvchi hal qila olishi kerak bo'lgan vazifalar ro'yxatini ishlab chiqildi. Shuning bilan birga, ular alohida ta'kidlashdi AKT sohasidagi asosiy va qo'shimcha kompetensiyalar ajratib ko'rsatildi. Raqamli texnologiyalar sharoitida texnika oliv o'quv yurtlarining turli yo'nalishdagi talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasini tashxislash quyidagilarni: kasbiy faoliyatga tayyorlarlikning muayyan darajasida kompetensiyalarini shakllantirishni aniqlash; tashxislashni amalga oshirish mazmunan tayyorlash; maqsadlarga mos keladigan tashxislash shakllari va metodlarini tanlash; tashxislash muolajalarini amalga oshirish va aks ettirish kabilarni o'z ichiga oldi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Texnika oliv oliy o'quv yurtlari talabalarning turli yo'nalishdagi ixtisosliklardagi talabalarda texnik tizimlarda axborot texnologiyalari kursini o'qitish orqali kasbiy faoliyatga tayyorlarligini shakllantirishni diagnostika qilish muammosi turli lavozimdagilarni o'rganiladi: O.V.Akulova, L.N.Anisimova, A.A.Verbitskiy, A.A.Derkach, E.S.Zair-Bek, G.V.Muxametzyanov, V.A.Slastenin, V.A.P.Slastenin, T.A.Xutorskoy, I.D.Chechel – kompetentlilikka asoslangan yondashuv nuqtai nazaridan (raqamli texnologiyalar kontekstida talabalarning kasbiy kompetentliligin shakllantirish, shu jumladan, uning innovatsion muxandislik faoliyatiga tayyorlarlik darajasini aniqlashda); G.I.Xozyainov kasbiy faoliyatga tayyorlarlikni shakllantirishni mutaxassislarini tayyorlashning uzoq jarayonining maqsadi va natijasi sifatida, kasbiy funksiyalarini bajarishga tayyorlarlikni shakllantirish sifatida o'rganadi; O.V.Akulova, A.P.Tryapitsina, A.V.Xutorskoy - kasbiy muammolarni hal qilish imkonini beruvchi kompetensiyalarini egallash sifatida; E.V.Bondarevskaya, V.A.Borodovskiy, E.I.Isayev, I.F.Isayev, G.A.Karaxanova, N.V.Kuzmina, A.A.Rean va V.I.Slobodchikov kasbiy va pedagogik madaniyatning shakllanishini o'rganadi; E.R.Orudjaliyev texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari turli ixtisoslikdagi bakalavrularining texnik tizimlarda axborot texnologiyalari kursini o'qitish yordamida kasbiy faoliyatga tashxislashni o'rganadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Amalga oshirilayotgan har bir dastur uchun kompetentlilikka asoslangan yondashuv asosida biz o'quv fanlari doirasida shakllanishi kerak bo'lgan "Davlat ta'lim standarti"ga muvofiq kompetensiyalarini va faqat amalga oshirilayotgan dastur uchun xarakterli bo'lgan maxsus (shakllangan) kompetensiyalar aniqlandi.

Yuqorida ta'kidlangan turli yo'nalishdagi ixtisosliklar talabalarning raqamli ta'lim kontekstida kasbiy faoliyatga tayyorlarligi quyidagi: raqamli texnologiyalar asosida kontentdan foydalanish va yaratish, shu jumladan, ma'lumot qidirish va almashish, savollarga javob berish, boshqa insonlar bilan muloqot qilishlarni raqamli texnologiyalar sharoitida ta'lim jarayonini loyihalash qobiliyati, raqamli ta'lim sharoitida kasbiy amaliyotda yangi muammolarni hal qilish imkonini beruvchi zamonaviy texnologiyalarini tanlash va qo'llashga tayyorlik raqamli savodxonlikni o'zlashtirishdan iborat edi [1, 171].

Mazkur tadqiqot ishimiz doirasida quyidagi, jumladan: amaliyotda interfaol uskunalar va innovatsion dasturiy mahsulotlardan foydalanish qobiliyati va tayyorlarligi; ta'limda amalga oshirilayotgan innovatsion jarayonlarni tahlil qilish; kasbiy faoliyatda axborot texnologiyalaridan foydalanish; kasbiy amaliyotning turli sohalarida davrv talablariga muvofiq ravishdagi zamonaviy muammolarni hal qilishga beradigan psixologik texnologiyalarini tanlash va qo'llash; ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda, kasbiy muammolarni hal qilishning maqbul yo'llarini izlash; kasbiy amaliyotda yangi muammolarni hal qilishga imkon beruvchi zamonaviy masofaviy ta'lim texnologiyalarini tanlash va qo'llash kabi shakllangan kompetensiyalar ro'yxatiga aniqlik kiritildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Talabalarni kelgusidagi kasbiy muxandislik faoliyatga tayyorlarlik turli yo'nalishdagi ixtisoslik talabalarida butun o'qish davrida shakllantirilishini ta'kidlab, bo'lajak muxandis kadrlarni ishimizda texnik tizimlarda axborot texnologiyalarini kursini iyerarxik o'qitish sharoitida ta'limning barcha bosqichlarida kompetensiyalarini shakllantirishga tashxislash maqsadga muvofiqligi ta'kidlanadi.

Mashg‘ulotlar uchun guruhlarni tashkil qilish masalasi bo‘yicha juda ko‘p turli xil ilmiy tadqiqotchilar va fikrlar mulohazalar mavjud - har xil yoki bir xil yoshdagi, har xil yoki bir xil mavzudagi, raqamli texnologiyalarga tayyorgarlik darajasi har xil yoki bir xil - juda ko‘p turli xil tadqiqotchilar va fikr mulohazalari mavjud. Mazkur tadqiqot ishimizda, texnik tizimlarda axborot texnologiyalari kursidan o‘quv materialini zamonaviy texnologiyalar nuqtai nazaridan idrok etishga tayyorligi turli yo‘nalishdagi ixtisosliklardagi talabalar bilan guruhda ishslash bir qator muhim afzalliklarga ega.

Tadqiqot jarayonida o‘qituvchi va talabalarning ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga tayyorgarligi darajasini attestatsiyadan o‘tkazish tizimini ishlab chiqildi. Tadqiqot jarayonida ushbu tizim mazkur tadqiqot sharoitimizga moslashtirildi va kirish nazorati uchun foydalanildi [1, 17].

Tadqiqotlarni «Raqamli texnologiyalar kompetensiyasi» atamasining ta’rifi nuqtai nazaridan o‘rganish mazkur tadqiqot ishimiz doirasida unga aniqlik kiritish imkoniyatini berdi. Raqamli texnologiyalar kompetensiyasi deganda ushbu tadqiqot ishimizda bo‘lajak muhandislar texnika oliv o‘quv yurtining turli yo‘nalishdagi mutaxassislik kadrlarining kelgusidagi kasbiy faoliyatida raqamli texnologiyalarini kelgusidagi kasbiy faoliyatlarida amaliyotda muvaffaqiyatli qo‘llash imkonini beradigan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarning tizimli namoyon bo‘lishi tushuniladi. Iyerarxik yondashuv asosida o‘qitish sharoitida bo‘lajak muhandislarni texnik tizimlarda axborot texnologiyalari kursidan talabalarni samarali tayyorlash uchun talabalarning raqamli texnologiyalari nuqtai nazaridan tayyorgarlik darajasini tushunish muhim rol o‘ynaydi.

Bunday bilim talablarga o‘ziga xos ta’lim yo‘lini tashkil qilishda va uning turli darajalarida kasbiy mutaxassislik yo‘nalishda yordam ko‘rsatishda muhim ahamiyatga ega. Kirish nazorati raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligi darajasi haqida obyektiv tasavvur beradi va ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Mazkur tadqiqot doirasida an‘anaviy sharoitlarda kirish nazoratini ta’minlaydi: kunduzgi (ta’lim darajasiga qarab) ixtiyorliy asosda va darajalar bo‘yicha taqsimlangan vazifalar to‘plami edi. Olingan natijalarni tahlil qilish o‘ziga xos tartibda rivojlanish trayektoriyasini tashkil etish uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Bakalavrлarga kelsak, kirish testlari talabalarga «kredit» olish yoki tegishli kursda o‘qishni davom ettirishga yordam beradi. Kirish nazoratining obyektivligi baholash tizimining ochiqligi, bilimlar tizimiga ochiq kirish va aniq ko‘rsatkichlar tizimi bilan ta’milanadi.

Har bir talabalarning zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish darajasini tushunishi bo‘lajak muhandislarni iyerarxik tayyorlash texnik tizimlarda axborot texnologiyalari kursini o‘qitish sharoitida dasturlar bo‘yicha oqilona va samarali o‘qitishga yordam beradi.

Ushbu tadqiqot uzlusiz ta’lim monitoringi yo‘nalishlaridan biri - bo‘lajak muhandislarning iyerarxik yondashuv asosida texnik tizimlarda axborot texnologiyalari kursini o‘qitish sharoitida kasbiy faoliyatga tayyorgarligini monitoringini ko‘rib chiqadi. O‘rganilayotgan tizimning maqsadi, vazifalari, amalga oshirish mexanizmi, samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi. Aynan monitoring iyerarxik yondashuv asosida o‘qitishning rivojlanishini taxmin qilish uchun asos bo‘ladi, chunki u ma‘lumot olishning asosiy vositasi bo‘lib xizmat qiladi, ularsiz tegishli tashxisini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ushbu tadqiqot ishimizda o‘z navbatida, ta’lim sohasida rejalashtirish, mutaxassislar tayyorlash raqamli ta’lim tizimini rivojlantirishning vazifalari, strategiyalari va tendensiyalariga javob bermaydigan mavhum modellarini yaratishga aylanadi.

Ushbu holatlar, birinchi navbatda, monitoringning ahamiyatini va uni amalga oshirishga ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqishning dolzarbligini belgilaydi. Hozirga kunda ta’limning turli darajalarida monitoring tizimini yaratishga harakat qilinmoqda, ishning turli jihatlari o‘rganiladi. Ko‘plab monografiya va maqolalar [3, 55]. Ushbu tadqiqot ishimiz doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlarni tahlil qilish ko‘rib chiqilayotgan muammoning dolzarbliji to‘g‘risida aniq xulosa chiqarish imkoniyatini beradi. Monitoring odatda jarayon va obyekt to‘g‘risida ma‘lumot olishga qaratilgan faoliyatning maxsus turi sifatida belgilanadi. Monitoring kuzatishga asoslanadi, garchi u kuzatish metodidan faqat bittasi sifatida o‘z ichiga olgan kengroq tushuncha hisoblanadi.

Ushbu konsepsiya ada qo‘llanila boshlandi, u monitoringni quyidagi: ta’lim tizimi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni to‘plash, qayta ishslash, saqlash va tarqatish tizimi sifatida va ilmiy tadqiqotlar

olib borish yoki boshqaruv nazoratini tashkil etish jarayonida ma'lumot olish vositasi sifatida (tizimning holatini baholash usullari to'plami) ikki nuqtai nazar jihatidan ko'rib chiqiladi. Didaktikada matematik tahlil metodlaridan, ta'lim nazariyasidan, o'quv fanlarini o'qitishning o'ziga xos metodlaridan foydalanish ta'lim sifatini middoriy jihatdan baholashga yordam beradi. Ko'pincha monitoring boshqaruv jarayoni kontekstida ko'rib chiqiladi, chunki u har qanday tizimni boshqarish uchun zarur bo'lgan ishonchli va o'z vaqtida ma'lumotlarni to'plashning asosiy vositalaridan biri hisolanadi. Shunga ko'ra, monitoringning maqsadlari, uning turi yoki obyektidan qat'i nazar, har doim boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun axborot ta'minoti bilan bog'liq. Shu asosda tadqiqotchilar monitoringni boshqaruv qarorlarining turlaridan biri va ayni paytda bosqichlari sifatida ko'rib chiqishni taklif qiladilar.

Raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarning kelgusidagi kasbiy faoliyatlariga iyerarxik yondashuv asosida tayyorgarligini texnik tizimlarda axborot texnologiyalari kursini o'qitishni turli yo'nalishdagi mutaxasisiliklarda rivojlantirish va monitoring qilish vazifalari ketma-ket bosqichlar tizimini o'z ichiga oladi, bunda har bir keyingi vazifani hal qilish avvalgisini hal qilish natijasida yuzaga keladi. Mazkur tadqiqot ishimizda monitoring faoliyati quyidagi:

Birinchi bosqichda bo'lajak muxandis kadrlarni kelgusidagi ishlab chiqarish faoliyatlaridagi maqsadlarga nisbatan innovatsion faoliyatga tayyorgarligi holati to'g'risida dastlabki ma'lumotlar shakllantirildi.

Ikkinchi bosqichda oraliq ma'lumotlarni umumlashtirish asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar shakllantirildi.

Uchinchi bosqichda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalardan foydalanish tahlili asosida turli yo'nalishdagi ixtisosliklar bo'yicha talabalarning texnik tizimlarda axborot texnologiyalari kursini o'qitish jarayonida innovatsion faoliyatga tayyorgarligi darajasi to'g'risida ma'lumotlar shakllantirilishi kabi bosqichlarda amalga oshirildi.

Monitoring davomida ma'lumotlar uch marta o'zgartiriladi. Birinchi bosqichda kirish ko'rsatkichlari uzlusiz ta'lim tizimining chiqish ko'rsatkichlariga aylantiriladi va talabalarning maqsadlari va afzalliklari bilan taqqoslanadi. Yakuniy monitoring natijalariga ko'ra talabalarning raqamli texnologiyalar sharoitida innovatsion texnologiyalardan foydalanishga tayyorgarlik darajasi aniqlanadi.

Ikkinchi bosqichda bo'lajak muxandis kadrlarni iyerarxik tayyorlash asosida texnik tizimlarda axborot texnologiyalari kursini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi va uning rivojlanish darajasi hamda iqtisodiy va ijtimoiy sohaning maqsad va vazifalariga muvofiqligi to'g'risida xulosa chiqarildi. Tahlillar asosida uzlusiz ta'lim tizimining hududning maqsad va vazifalariga muvofiqlik darajasini oshirish bo'yicha amalga oshirilishi zarur bo'lgan boshqaruv qarorlari bo'yicha takliflar ishlab chiqildi [4, 288].

Monitoringning uchinchi bosqichi talabalarning texnik tizimlarda axborot texnologiyalari kursini o'qitish ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan uning samaradorligini oshirishga tayyorgarlik darajasini aniqlash imkoniyatini beradi.

Ammo, agar biz bo'lajak muhandislarning iyerarxik yondashuv asosida tayyorgarligini mazkur tadqiqot ishimizda texnik tizimlarda axborot texnologiyalari kursini o'qitishni monitoring qilish vazifalari haqida gapiradigan bo'lsak, unda ushbu jarayonni amalga oshirish nuqtai nazaridan ta'rifi tuzatish va uni tadqiqot tilidan «tarjima qilish» muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot ishimizda texnika oliy o'quv yurtlarining turli yo'nalishdagi ixtisosliklarida texnik tizimlardagi talabalariga axborot texnologiyalari kursini o'qitish uchun aniq ma'muriy parametrlarini e'tiborga olishi muhim ahamiyatga ega deb hisoblaymiz. Yevropa Komissiyasining hisobotida ta'kidlanishicha, umrbod ta'limning ham mohiyati, ham ma'muriy chegaralari aks ettirilgan ta'rifi taklif qilingan. Ushbu Komissiya hisobotida ta'kidlanishicha, “umrbod ta'lim - bu subyektlar tomonidan mavjud institutsional imkoniyatlar doirasida ularning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish maqsadida doimiy ravishda amalga oshiriladigan maqsadli (rasmiy va norasmiy) harakatlar majmui” hisoblanadi [4, 310].

“Umr davomida” ta'lim tizimi sifatida, bo'lajak muxandislarni kelgusidagi ishlab chiqarish faoliyatida, uzlusiz malaka oshirish tizimi sifatida monitoringning o'r ganilgan modellari ularning har birining ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashga yordam beradi.

Masalan, ta'lim tizimini monitoring qilishda:

- «hayot davomida» monitoring ko‘rsatkichlari tizimini loyihalashda model juda samarali hisoblanadi. Biroq, uning muhim kamchiligi shundan iboratki, juda katta hajmda ekanligi e’tiborga olinadi. Ushbu shkala barcha monitoring ko‘rsatkichlarini aniq va izchil tushuntirish sxemasiga kiritishga imkoniyatini bermaydi, bu esa ushbu modelni mazkur tadqiqot ishimiz doirasida deyarli qo‘llanilmaydi;

- uzluksiz kasbiy rivojlanish sifatida monitoring tizimiga ta’limning institutsional va institutsional bo‘limgan shakllarini kiritish, uzluksiz ta’lim tizimini diskret ta’lim bosqichlari ketma-ketligi sifatida o‘rganish, ta’lim muhitidan chiqish va qaytish jarayonini o‘rganish mumkin.

Uzluksiz kasbiy ta’lim kasbiy ta’limning barcha dasturlarini, shuningdek institutsional va institutsional bo‘limgan shakllardagi oliy o‘quv yurtidan keyingi va qo‘srimcha kasbiy ta’lim dasturlarini o‘z ichiga oladi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, mazkur tadqiqot ishimizda uzluksiz ta’lim tizimi “butun umr” ta’lim tizimi sifatida, kattalar ta’limi tizimi sifatida, uzluksiz malaka oshirish tizimi sifatida monitoring orqali o‘rganiladi [4, 386].

Uzluksiz ta’lim monitoringi tizimi ko‘rsatkichlarning quyidagi:

1. Umumlashtirilgan ko‘rsatkichlar butun hududiy uzluksiz ta’lim tizimining ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Umumlashtirilgan ko‘rsatkichlar bo‘yicha ma’lumot olishning asosiy manbalari ta’lim tizimining hududiy statistikasi, hududning iqtisodiy statistikasi, huquqiy hujjatlar, yordamchi manbalar esa ilgari o‘tkazilgan monitoring natijalari, shuningdek, sotsiologik so‘rov natijalaridir. Umumlashtirilgan ko‘rsatkichlarni tahlil qilish - bu monitoringning makro darajasi. Makro darajada, mintaqadagi uzluksiz ta’lim tizimi uning «tashqi» munosabatlari, birinchi navbatda, mehnat bozori bilan bir butun sifatida ko‘rib chiqiladi.

2. Tarkibiy ko‘rsatkichlar hududning uzluksiz ta’lim tizimining yagona tizimli yaxlitlik sifatida emas, balki tarkibiy va institutsional elementlar yig‘indisi sifatida faoliyat yuritish ko‘rsatkichlari hisoblanadi:

- ta’lim dasturlari va ushbu dasturlarni amalga oshiruvchi muassasalar;
- norasmiy institutsional ta’lim imkoniyatlarini ta’minlovchi tashkilotlar;
- institutsionalizatsiyalanmagan norasmiy ta’limning turli shakllari va boshqalar (uzluksiz ta’lim platformalari);
- platformalarni bog‘lovchi ta’lim traektoriyalari;
- ijtimoiy guruhlar va platformalar orqali o‘tadigan ta’lim traektoriyalarining alohida subyektlari;
- mintaqada mavjud rasmiy va norasmiy “malaka oshirish jarayonini tashkil etish qoidalari” ayrim fanlar bo‘yicha uzluksiz ta’lim olish imkoniyatini ochadi va boshqa fanlarning uni olishiga to‘sqinlik qiladi.

3. Subyektiv ko‘rsatkichlar - uzluksiz ta’lim tizimiga jalb qilingan shaxslarning umidlari, motivlari, ehtiyojlari va axborot kompetensiyasi, ularning ta’limning qulayligi va sifatiga munosabati ko‘rsatkichlari kabi guruhilariga asoslanadi.

Ushbu ko‘rsatkichlar blokini tahlil qilish natijalariga ko‘ra, umrbod ta’lim tizimining «ketarliligi», uning faoliyatidan qoniqish darajasi to‘g‘risida xulosa chiqarish va hozirgi ta’lim ehtiyojlarini bilish asosida uning keyingi rivojlanishini rejalashtirish mumkin.

Mazkur tadqiqot ishimizda ushbu tushunchaga asoslaniladi. Ba’zi hollarda monitoring kuzatilayotgan obyektning holatini mustaqil element sifatida yoki tizimni tahlil qilish va olingan ma’lumotlarni baholash bo‘yicha harakatlar qismi sifatida tashxislashni o‘z ichiga olishi mumkin [5,143].

Monitoring vazifalari sifatida quyidagilar: monitoring obyekti to‘g‘risida ishonchli va obyektiv ma’lumotlarni to‘plash; tegishli ma’lumotlar bazalarini shakllantirish; tizim tahlili va olingan ma’lumotlarni baholash; manfaatdor shaxslarga ma’lumotlarni taqdim etish; monitoring o‘tkazilgan hududda faoliyatni tashkil etish bo‘yicha takliflar tayyorlash kabilar ajralib turadi.

Ta’lim dasturi darajasida quyidagilar: malaka oshirish dasturlarini o‘zlashtirish jarayoni; ta’limdagi innovatsion jarayonlar - o‘quv materialining o‘zlashtirilishini nazorat qilishning mazmuni, usullari, texnologiyalari, vositalarini yangilash, takomillashtirish; ta’lim jarayonining sifati va boshqalar monitoring obyektlari bo‘lishi mumkin.

Tadqiqot jarayonida biz iyerarxik yondashuv asosida tayyorgarlik darajalari talabalarga texnik tizimlardagi axborot texnologiyalari kursini o'qitish orqali talabalarning «harakati» ning quyidagi: ular bir tomongan monitoring obyekti vazifasini bajaradi (chunki aynan shu bosqichlarda biz ularni kuzatishimiz mumkin. harakatlar), boshqa tomongan, ular o'zini monitoring qilish bosqichlari edi: kasbiy faoliyatning yangi turi uchun o'quv dasturini tanlash; ta'lif ehtiyojlarini monitoring qilish; kasbiy rivojlanish muhitini yaratish; ta'lif muhitida o'r ganish; ishlab chiqarish sohasida mehnat qilib turgan muxandis kadrlarning ish tajribasidan kelib chiqqan holda raqamli ta'lif muhitida, shu jumladan, malaka oshirish darajasida kasbiy faoliyatga iyerarxik yondashuv asosida o'qitish samaradorligini monitoring qilish kabi bosqichlari aniqlandi.

Bir qator tadqiqotlar kuzatilayotgan obyektlarning har birini tavsiflash uchun quyidagi: ta'lif ehtiyojlar ko'rsatkichlari; to'g'ridan-to'g'ri jamg'arish bilan bog'liq ko'rsatkichlar va bo'lajak muhandislar tarkibi haqidagi ma'lumotlarni tizimlashtirish; kasbiy rivojlanishini e'tiborga olgan holda tanlash ko'rsatkichlari; o'quv muhitida ta'lif tizimining ko'rsatkichlari; uzluksiz malaka oshirish tizimining ishlash ko'rsatkichlari o'ziga xos ko'rsatkichlar tizimini belgilab beradi. Ularning yordami bilan raqamli ta'lif kontekstida iyerarxik yondashuv asosida o'qitishning turli darajalarida ma'lum bir ta'lif texnologiyasining samaradorligi haqidagi savollarga javob berishga, ta'lif sifatiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashga va o'zaro bog'liqlik misollarini qidirishga harakat qilinadi [5, 197].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Mazkur tadqiqot ishimizda raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarning kasbiy faoliyatning davr talablariga muvofiq ravishda zamonaviy turiga tayyorligi monitoringi iyerarxik yondashuv asosida o'qitishning turli darajalarida amalga oshirildi. Turli davrlarda talabalarning turli yo'nalishdagi ixtisoslik guruhlari tadqiqotda ishtirok etdilar.

Tinglovchilarning barcha guruuhlarida monitoring tabiiy sharoitda amalga oshirildi. Tajriba sinov davomida mazkur tadqiqot ishimizda bo'lajak pedagogik kadrlarning texnik tizimlardagi axborot texnologiyalari kursini o'qitishda innovatsion faoliyatga tayyorligini monitoring qilish modeli ni ishlab chiqildi, bu tadqiqotda bo'lajak muxandis kadrlarning raqamli texnologiyalar sharoitida davr talablariga muvofiq ravishdagi zamonaviy kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun ishlatilgan.

Foydalilanilgan adabiyotlar.

Кларин, М.В. Инновационные модели в зарубежных педагогических поисках / М.В. Кларин. – М.: Аренда, 1994. – 365 с.

Бендова, Л.В. Педагогическая деятельность тьютора в сети открытого дистанционного профессионального образования : автореф. дис. ... канд. пед. наук / Л.В. Бендова. – М., 2006. – 23 с.

Ergashev Nuriddin G'ayratovich. Uzluksiz ta'lif sharoitida muxandislar malakasini oshirishni rivojlantirishning metodik shartlari. Journal of integrated education and research. ISSN 2181-3558, Volume 1, Issue 2, July 2022, 54-59 b. www.rnasav.com.

Аракелов, А.В. Комплексная инновационная технология профильного обучения в структуре послевузовского педагогического образования : дис. ... канд. пед. наук / А.В. Аракелов. – Краснодар, 2008. – 452 с. : 34 ил.

Аршинов, В.И. Философия образования и синергетика: как философия образования может содействовать становлению новой модели образования/ В.И. Аршинов // Синергетика и психология. – М.: Когито-Центр, 2004. – 205 с.

QADIMGI DAVRDA O'RTA OSIYODAGI TA'LIM-TARBIYA TIZIMI: USTOZ-SHOGIRD AN'ANASINING ILK SHAKLLARI

*Mahmadmurodov Behzod Narzi o'g'li, Ernazarov Firdavs Norbobo o'g'li,
ShDPI Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi D.N.Eshmuratova,
Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabalari*

Annotatsiya. Mazkur maqolada qadimgi O'rtta Osiyodagi ta'lismiz va uning tarkibiy qismi bo'lgan ustoz-shogird an'anasing ilk shakllari tahlil qilinadi. Qadimgi Xorazm, So'g'd, Baqtriy va boshqa sivilizatsiyalarda ta'lim qanday tashkil etilgani, bilim berish va tarbiya jarayonida ustozning o'rni hamda shogirdning burchlari qanday belgilanganligi haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, zardushtiylik, buddaviylik va boshqa qadimgi diniy ta'limgotlarning ta'lim tizimiga ta'siri ham yoritiladi. Maqola tarixiy va pedagogik manbalar, adabiyotlar, internet materiallari va boshqa resurslarga tayangan holda tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: O'rtta Osiyo, qadimgi ta'lim tizimi, ustoz-shogird an'anasi, pedagogika, ilmiy meros, ta'lim tarbiyasi, madaniyat, ma'rifat, tarbiya, an'anaviy ta'lim, islomiy ta'lim, ma'rifatparvarlik, ilm-fan, qadimiy pedagogika.

СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В ДРЕВНИЙ ПЕРИОД: РАННИЕ ФОРМЫ ТРАДИЦИИ УЧИТЕЛЬ-УЧЕНИК

*Махмадмуродов Бехзод Нарзиевич, Эрназаров Фирдавс Норбобоевич,
Преподаватель кафедры педагогики ШДПИ Д.Н. Эшмуратова,
Студенты 2 курса исторического отделения факультета социальных наук*

Аннотация. В данной статье анализируется система образования в древней Средней Азии и первые формы традиции учитель-ученик, которая является ее составной частью. Приводятся сведения о том, как было организовано образование в древнем Хорезме, Согде, Бактрии и других цивилизациях, о роли учителя и обязанностях ученика в процессе обучения и обучения. Также будет освещено влияние зороастризма, буддизма и других древних религиозных учений на систему образования. Статья анализируется на основе историко-педагогических источников, литературы, интернет-материалов и других ресурсов.

Ключевые слова: Средняя Азия, древняя система образования, традиция учитель-ученик, педагогика, научное наследие, воспитание, культура, просвещение, традиционное образование, исламское образование, просветительство, наука, древняя педагогика.

THE EDUCATIONAL SYSTEM IN CENTRAL ASIA IN ANCIENT PERIODS: EARLY FORMS OF THE TEACHER-DISCIPLE TRADITION

*Mahmadmurodov Behzod, Ernazarov Firdavs,
ShDPI Pedagogy Department teacher D.N. Eshmuratova,
2nd year students of the History department of the Faculty of Social Sciences*

Abstract. This article analyzes the education system in ancient Central Asia and the first forms of the teacher-disciple tradition, which is a component of it. Information is provided about how education was organized in ancient Khorezm, Sogd, Bactria and other civilizations, the role of the teacher and the duties of the student in the process of education and training. Also, the influence of Zoroastrianism, Buddhism and other ancient religious doctrines on the education system will be covered. The article is analyzed based on historical and pedagogical sources, literature, internet materials and other resources.

Key words: Central Asia, ancient education system, teacher-student tradition, pedagogy, scientific heritage, upbringing, culture, enlightenment, traditional education, Islamic education, intellectual movement, science, ancient pedagogy.

Kirish. Ma'lumki, kishilar va kishilik jamiyati vujudga kelishi jarayonida inson ham biologik jihatdan, ham inson sifatida takomillashib borgan. Dastlabki diniy e'tiqodlar, oddiy ixtirolarning

takomillashib borishi, inson ongining shakllanib borishiga turtki bo'ldi. Bu jarayon ming yillar davom etib, inson ongi shakllanishining asosi bo'lgan xulq-odob qoidalari tarkib topadi. Eng qadimgi kishilaming dastlabki oddiy istaklari, orzu-umidlari, hislatlari qadimgi eposlarda, ulardagi afsonaviy obrazlar qiyofasida o'z ifodasini topgan. Animizm, ajdodlar ruhiga sig'inish totemizm, sehrgarlik kabi diniy e'tiqodlar va marosimlarda aks etgan afsonalar, rivoyatlarda eng qadimgi ajdodlarimizning tafakkur dunyosi aks etgan. Ammo bu rivoyatlar, afsonalar massagetlar, saklar, xorazmiylar, so'g'dlar, parfiyaliklar yashagan davrlarga borib taqaladi. Ajdodlarimiz tomonidan qo'lga kiritilgan qadimiyat tarkibidan ta'lim-tarbiyaga oid meros ham alohida o'rinn olgan. Zero, hozirgi turkiy va forsiyzabon xalqlarning bizgacha etib kelgan muhim arxeologik topilmalari, tarixchilar, adabiyot va san'at namoyandalarining asarlari buning dalilidir. Bunday muhim manbalar sirasiga yunon olimlari Gerodot, Suqrot, Plutarx, Polienning tarixiy, geografik hamda axloqiy asarlari, allomalarimiz Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg'ariy, faylasuf, sharqshunos va tarixchi olimlar: E.E.Bertels, S.P.Tolstov, V.V.Braginskiy, I.M.Mo'minov, I.V.Stebleva, A.O.Makovelskiy va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar kiradi. Eng qadimgi tarbiya haqidagi yodgorliklar bizgacha bevosita yetib kelmagan. Turkiy va forsiyzabon xalqlarning hayot kechirish san'ati, donolik majmuasi sifatida yuzaga kelib, borliqqa amaliy munosabatda bo'lish namunasi ifodalangan ma'naviy madaniyati yodgorlikiari:

- Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimgi marosimlari, urf-odatlari, ijtimoiy-falsafiy, madaniy, adabiy-tarixiy voqealarini ifoda etuvchi qomusiy yodgorlik namunasi bo'lmish "Avesto"; - afsonaviy qahramonlar tasvirlangan dostonlar "Alpomish", "Manas", "Shiroq", "To'maris", "Go'ro'g'li", "Murodxon", "Ravshan", "Er hubbi", "Chistoni Elikbek", "Gershasp", "Siyovush", "Rustam", "Zarina va Strianchiya", "Zariadr va Odatida", "shuningdek, Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk", Urxun-Yenisey bitiklari va boshqa shu kabi adabiy-tarixiy manbalarda saqlangan va shular orqali bizgacha yetib kelgan.

Bu yodgorliklar insonning shakllanishida moddiy va ma'naviy madaniyat qay darajada katta rol o'ynaganligidan dalolat beradi. Xususan, tarbiya insonning aqliy va axloqiy jihatdan tarkib topa borishiga ta'sir etgan bo'lsa, insonning shakllana borishi ham o'z navbatida insoniyat jamiyatining tarkib topa borishiga yordam bergan. Xullas, insonning o'z-o'zini anglashi va jamiyat taraqqiyoti bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan. Bu tarixiy jarayonni bilish, inson tafakkurining qadimgi davrlardan boshlab bosqichma-bosqich rivojlanishi va shu bilan birga, insonning ham tobora shakllana borganligi haqida to'la tasavvur hosil qilishga imkon beradi. "Plutarxning qayd etishicha, Aleksandr Maqduniy yerli xalqlarga yaqinlashish maqsadida makedoniyaliklar bilan mahalliy xalqlarning urf-odatlarini o'zaro uyg'unlashdirishga harakat qilgan. Shu maqsadda u o'ttiz ming bolani ajratib olib, yunon tili va makedoniyaliklarga xos bo'lgan harbiy san'at sirlarini o'rgatishga buyruq bergan. Ana shu maqsadni amalga oshirishga juda ko'p murabbiylar tayinlangan. Yunon alifbosining keyinchalik bu yurtda qabul qilinishi o'sha davrda ko'plab maktablar ochilgani hamda unda yerli aholi farzandlari ham o'qitilganidan dalolat beradi." So'g'd yozma yodgorliklari orasida V.B.Xen tomonidan aniqlangan va "Eski xatlar" nomi bilan yuritiladigan qimmatli manbalar eramizning boshlarida shakllangan so'g'd yozuvi haqida ma'lumot beradi. Ushbu manbalarni Dunxuan shahri yaqinidagi savdo qishlog'ida yashagan so'g'dlik tijoratchilarning o'z ona yurtlari Samarqandga yozgan va shaxsiy xarakterga ega bo'lgan xatlari tashkil qiladi. Imperator Yan Li (615-617) ning elchisi Vey Szi hisobotlarida ham Samarqand shahrida yo'lga qo'yilgan ta'lim-tarbiya haqidagi ma'lumotlar mavjud. Samarqandning mohir savdogarlari o'g'il bola besh yoshga to'lar ekan, unga savdoni o'rgata boshlaydilar. O'qishni o'rganishi bilan savdo ishlari ham o'rgatilgan. Syuan-Szyan nomli boshqa bir Xitoy tarixchisi esa, Samarqand aholisining axloq va xulq-odob qoidalariiga rioya etishi boshqalarga o'mak bo'lganligini aytib o'tgan. Bularning barchasi qadimgi davrlarda bolalarning besh yoshidan o'qitilgani, ta'lim jarayonida ularni amaliy hayotga tayyorlash asosiy maqsad qilib belgilanganligi to'grisidagi ma'lumotlarni beradi. "Zardushtiylik ta'limotida ta'lim-tarbiya quyidagi bo'limlar: 1) ma'naviy va diniy tarbiya; 2) jismoniy va mehnat tarbiyasi; 3) aqliy va axloqiy tarbiyadan iborat bo'lgan." Tarbiya ham ota-onalarning burchi va farzandlarning haqqidir. "Tarbiya" so'zi arabcha "robba" fe'lidan olingan bo'lib, o'stirdi, ziyoda qildi, riyasiga oldi, rahbarlik qildi va isloh qildi ma'nolarini bildiradi. Musulmon ulamolar "tarbiya"ni bir necha xil ta'rif qilganlar. Jumladan, imom Bayzoviy quyidagicha ta'riflaydi:

“Tarbiya bir narsani asta-sekin kamoliga etkazishdir”. Rog’ib Asfihoniy tarbiyani quyidagicha ta’rif qiladi: “Tarbiya bir narsani bir holdan ikkinchi holga o’tkaza borib, batamomlik nuqtasiga etkazishdir. Tarbiyaning ma’nolaridan biri, insonning diniy, fikriy va axloqiy quvvatlarini uyg’unlik hamda muvozanat ila o’sirishdir”. Islomda bolalar tarbiyasi ota-onaning eng mas’uliyatlari va uzoq davom etadigan burchlaridir. Boshqa burchlar ba’zi ishlarni qilish yoki mulkni sarflash bilan oxiriga etadi. Ammo tarbiya mas’uliyati bardavom bo’ladi. Zotan, ota-onaning farzand ne’matiga haqiqiy shukrlari ham aynan tarbiya mas’uliyatini sharaf bilan ado etish orqali yuzaga chiqadi. Uzoq va boy tarixga ega bo’lgan Markaziy Osiyo xalqlari o’zining ta’lim-tarbiyaga oid boy merosini yaratib, takomillashtirib, yoshlarni insonparvarlik, ilmparvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, insonlarga va tabiatga do’stlik, sahiylilik kabi umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab kelishgan. Darhaqiqat, ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan bebafo madaniy meros milliy ma’naviyatimizning o’zagini tashkil etadi. Shu sababli undan bugun yoshlarimizning ta’lim va tarbiyasiga keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Tarbiya o’z navbatida oiladan boshlanar ekan, biz o’z farzandlarimizni baxti-saodatini, kamolini, iqbolini, buyuk inson bo’lib etishganligini va hayot abadiyligi avlodlar davomiyligini ta’minlaydigan ma’naviy qo’rg’oni bo’lmish o’z oilamizning mustahkamligini ko’rishni istar ekanmiz, demak oilada tarbiyalanuvchilarimizni har tomonlama sog’lom va barkamol etib tarbiyalashda tarbiyaning barcha turlariga e’tiborni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-bobolarimizdan qolgan boy ma’naviy merosning yosh avlodni har tomonlama yuksalishi tizimidagi o’rni va roli o’ziga xos xususiyatga va ko’rinishlarga ega. “Darhaqiqat, ajdodlar tomonidan yaratilgan tarbiyaviy qadriyatlarini o’rganishda ta’lim tizimi imkoniyatlarga alohida e’tibor qaratishlozim. Sharq mutafakkirlarining asarlarini o’rganish, tahlil qilish, ularning ijodi va ta’lim-tarbiyaga oid qarashlarini pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etish muhim amaliy ahamiyatga ega” Avesto davridan boshlab, ustoz-shogird an’anasi Sharq madaniyatining ajralmas qismi bo’lib kelgan. Ushbu an’ana ilm, hunar va ma’naviyatni avloddan-avlodga o’tkazishning asosiy usuli hisoblangan. Avestoda bilim va donishmandlik muhim qadriyatlar sifatida e’tirof etilgan bo’lib, ustozlar jamiyatning eng hurmatga sazovor kishilaridan sanalgan. Ustoz-shogird munosabatlari faqatgina diniy ta’lim bilan cheklanmagan, balki: odob-axloq qoidalalarini o’rgatish, hunarmandchilik, dehqonchilik, harbiy bilimlarni o’zlashtirish, astronomiya, tabobat, falsafa kabi fanlarni o’qitish kabi sohalarda ham namoyon bo’lgan. “Ikki kishi, xoh dindosh, xoh birodar, xoh do’st bir-birovi bilan nima xususdadir ahd-paymon bog’lasalar birovi ikkinchisining xonadonidan o’ziga xotin tanlasa, yoxud bilim olmoqni istasa, so’zsiz uning talabi qondirilmog’i va xohlagan narsasi berilmog’i kerak. Agar talabgor uning xotinini istasa beriladi, din ilmini o’rganmoqni xohlasa - o’rgatiladi. ... U kunning ibtidosi va intihosida, u tunning avvali va oxirida bilim olmog’i, tafakkur va donishga limmo-lim bo’lmog’i, nihoyat ashavanlik yo’lida shunday manzalatga yetmog’i kerakki, ilohlar sha’niga hamdu sanolar aytsin, ularni ezgu kalomlar bilan ardoqlasın bilimini ziyoda qilsin Va shu yo’sinda o’z bilimini ziyoda qilsin. ... U kunning o’rtasi va tunning o’rtasida juda rohatlanib, sirli og’ushlarda mast bulgancha orom olmog’i, shundan sung ilm ortidan shu qadar jiddu-jahd etmog’i kerakki, o’tmish donishmandlar qoldirgan hamma narsani jonu dildan o’rganib olsin.” “Qadimdan ustoz-shogirdlik an’analarida ustoz nafaqat shogirdiga yo’l- yo’riq, ko’rsatma beribgina qolmay, o’z navbatida, ularni mustaqil faoliyatga tayyorlagan hamda o’zidan keyin ishtajribani, bilim va mahoratni avloddan- avlodga o’tishiga imkoniyat yaratgan. Ustoz-shogird an’analarida quyidagi pedagogik tamoyillar muhim o’rin tutadi: - onglilik va faollik, ya’ni egallayotgan u yoki bu faoliyatning o’ziga xos jihatlari, mohiyatini ongli tarzda to’liq anglab yetish, uning istiqboli va ravnaqi yo’lida faollik bilan harakat qilish; - ilm-fanning sir-asrorlarini egallahda puxtalik; - ta’lim-tarbiyaning turmush, hayot bilan chambarchas bog’liqligini inobatga olish; - mutaqillikka, ijodiy izlanishga yo’naltirib borishda nazariy bilimlarning amaliyot bilan bog’liqligini hisobga olish; - uqitish, tarbiyalash mazmuni va shogirdlik bosqichlarining izchillik bilan belgilab qo’yilgan anik mantiqiy tartibga ega bo’lishi; - shogirdning yosh va o’ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.” «Ustoz-shogird» an’analaridan foydalanish ko’zlangan samarani beradi. Pedagogik ta’limot g’oyalariga ko’ra amaliy ko’nikma va malakalar bevosita tinimsiz o’z ustida ishslash va orkali shakllanadi. «Ustoz-shogird» an’anasi esa o’quvchilar, talabayoshlar hamda yosh pedagoglarda ijodiy izlanishni vujudga keltirishi,

pedagogik faoliyat jarayonida ularning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashishi, shogirddagi iqtidorni yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishi bilan ahamiyatlidir. Bu kabi holatlar yoshlarda nafaqat o'z kasbiga mas'uliyat bilan yondashish, balki kattaga hurmat, o'z kasbiga sadoqat, milliy qadriyatlarni e'zozlash kabi ma'naviy-axloqiy sifatlarni ham tarbiyalaydi. Farzand tarbiyasida sharqona, qadimiy ajdodlar urf-odatlari, an'analarini, axloq-odob qoidalariga amal qilishda. xalqimizning milliy tarbiya tizimidan unumli foydalanishga alohida e'tibor berish va bu borada ustozlar o'z kuchi, aql-zakovotini ayamasliklari lozim. Sharq xalqlarida ilm o'rgatuvchilar va ustozlarga nisbatan izzat-hurmatda bo'lish farzandlar ongiga singdirilgan. Sharqona odob doirasida ustozni o'z otasidek ulug'lanishi, uni hurmtini saqlash, ustoz ham o'z navbatida shogirdini o'z farzandidek ko'rib, unga o'z hunari yoki kasbi sirlarni o'rgatishi bilan birga tarbiya, odob-axloqdan ham saboq bergan. «Xususan, nozikta'b adib, nuqtodon olim, XV asr ma'rifatparvarlari darg'alaridan biri bo'lgan Husayn Koshifiy: «Ustoz va muallimlar hurmatini o'rniga qo'ygan bu dunyoda ham, oxiratda ham saodat topar», -deb yozgan edi. Uning fikricha, to'rt narsa saodat dalilidir: to'g'ri so'z, tavoze, halol kasbu hunardagi mehnat, sir saqlash. Ya'ni, biror kasbga o'rganish yoki hunarni o'rgatish mashaqqatli mehnat ekanligi olim qarashlarida markaziy o'rinda turgan.» I Koshifiy ustozlik shartlariga ham to'xtalib: «Bilgilkim, hech bir ish ustozsiz amalga oshmagay va kimki ustozsiz bir ishni qilur ersa, ul ishning asosi mustahkam bo'lmagay»- degan. Kimki ustozsiz ish boshlagan bo'lsa, uning ishi va amali samara bermaydi, ustozning etagini tutib shod bo'l, bir muddat ustozga xizmat qilginda, so'ngra o'zing ustoz bo'l... Agar komil inson kim deb so'rasalar, u pok mazhabli, o'z aybini ko'radigan dono va tamizli kishidir deb aytgil. Unda hasad, gina va baxillikdan asar bo'lmaydi». “XV asrda yashab ijod etgan olim va davlat arbobi Mirzo Ulug'bek ustoz-shogird an'anasi asos solib, bu mактабning rivojlanishiga katta hissa qo'shganligini tarixiy manbalar orqali bilamiz. Alloma bolalarni guruh-guruh bo'lib o'qitish, ularni birgalikda raqobat qila olishga, ustozlarning esa odil va halol bo'lishga, ilmni o'rgatish jarayonida isbot talab qilmaydigan dalillar keltirishni, har bir mashg'ulotni yuksak saviyada o'tkazishga da'vat etadi, ana shu bilangina o'quvchilarni bilim olishga qiziqishi ortishi mumkinligini alohida ta'kidlaydi.” Ustoz o'z shogirdiga hech qachon zulm qilmasligi, aksincha beg'araz yordam ko'rsatishi, ular orasidagi hamkorlik samimiy bo'lishi g'oyat muhimligini qayta-qayta uqtiradi. «Ustoz-shogird» an'anasi boshqa sohalarga qaraganda, ayniqsa, san'at sohasida qadimdan an'anaga aylanib, davom etib kelmoqda. Har bir san'atkori san'at yo'liga kirar ekan, avvalo, o'zi tanlagan yo'naliш bo'yicha biror ustoz qo'liga boradi. Undan san'at sirlarini, bilim va ko'nikmalarni o'rganadi. Ustoz o'z shogirdining kelgusida yetuk san'atkori bo'lib yetishishi uchun astoydil mehnat qiladi, shogirdida bor iqtidorni yuzaga chiqarish, rivojlantirish uchun harakat qiladi.

Xulosa. Qadimgi O'rta Osiyodagi ta'lim tizimi uzoq tarixga ega bo'lib, uning asosiy tarkibiy qismi ustoz-shogird an'anasi bo'lgan. Bu an'ana faqat bilim olish jarayoni emas, balki axloqiy tarbiya va hunar o'rgatish tizimi sifatida ham shakllangan. Qadimgi Xorazm, So'g'd va Baqtriya hududlarida ta'lim diniy va dunyoviy bilimlarni o'z ichiga olgan bo'lib, zardushtiylik va boshqa diniy ta'limotlarning ta'siri sezilarli bo'lgan. Ustoz-shogird an'anasining ilk shakllari shaxsiy murabbiylilik asosida rivojlangan bo'lsa, keyinchalik bu tizim madrasalar va ilmiy maktablar shaklida kengaygan. Ushbu an'ana keyingi asrlarda ham davom etib, Markaziy Osiyonning ilmiy va madaniy taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan. Bugungi kunda ham bu qadimiy tizimning ayrim jihatlari zamonaviy ta'lim jarayonida saqlanib qolgan bo'lib, ularning samaradorligini oshirish va zamonaviy sharoitga moslashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

References.

- AVESTO. Toshkent. “Ta'lim nashriyoti”-2021.
- Qambarov Musoxon Muxtorjonovich. PEDAGOGIKA TARIXI. Barcha bakalavr yo'naliшlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent.: 2022.
- Komiljon Hashimov, Sanobar Nishonova. PEDAGOGIKA TARIXI II qism. Darslik. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent.: 2005.
- O. Hasanboyeva, J. Hasanboyev, H. Homidov. PEDAGOGIKA TARIXI. Oliy o'quv yurtlarining boshlang'ich ta'lim bakalavriat yo'naliшi mutaxassisligi uchun darslik. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T.: 2004.



Nabi Pardaboyevich Jumaboyev. SHARQ MUTAKKIRLARINING TA'LIM-TARBIYAGA OID MA'NAVIY VA AXLOQIY QARASHLARI. «Oriental Art and Culture» Scientific-Methodical Journal - Volume 2 Issue 4 / December 2021 ISSN 2181-063X

Dilnoza Nazarova Umirzoq qizi. TA'LIM OLUVCHILARNI KAMOL TOPTIRISHDA USTOZ-SHOGIRD MUNOSABATLARINING O'RNI. Pedagogy of cooperation in improving the quality of education: international experience and modern approaches International scientific-practical conference, November 13, 2023.

Navro'zbek Xakimjon o'g'li Sobirov. USTOZ-SHOGIRD AN'ANALARIDA PEDOGOGIKANING O'RNI. «Oriental Art and Culture» Scientific Methodical Journal / <http://oac.dsni-qf.uz> Volume 4 Issue 3 / June 2023

GIDRAVLIKA FANIDAN MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISHDA WEB 2.0 TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI

Eshmurodov Azamat G'uzorovich

Qarshi muhandislik - iqtisodiyot instituti katta o'qituvchisi

Annotation. Maqola Web 2.0 texnologiyalari xizmatlarining afzalliklari, turlari, ta'linda qo'llanilishiga bag'ishlangan. Web 2.0 texnologiyalari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'lib, foydalanuvchilarning o'z faoliyatini ta'minlash maqsadida xizmatlarni ishlab chiqish usullari majmuasini o'z ichiga oladi.

Shuningdek, murakkab nazariy va tavsify tahlil usullari qo'llaniladi. Gidravlika fanidan mustaqil ishlarni tashkil etishda Web 2.0 texnologiyalarini joriy etish - o'quv Internet xizmati orqali mustaqil ishlarni tashkil etish maqsadida Web 2.0 texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan xizmatlar tanlangan.

Bundan tashqari, texnika ta'lim yo'nalishi talabalari uchun gidravlika fanidan mustaqil ishlarni tashkil etishda Web 2.0 texnologiyalarini joriy etish usullari mustaqil ishlarni tashkil etish maqsadida Web 2.0 texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan xizmatlarni optimal tanlashni ta'minlaydigan harakatlar texnika ta'lim yo'nalishi talabalari uchun gidravlika fani bo'yicha ketma-ketlikdir. Ta'limga Web 2.0 texnologiyalarini joriy etish metodikasini ishlab chiqish bugungi kunda murakkab fanlararo muammo sifatida qaraladi.

Kalit so'zlar: Web 2.0, Internet, aqli agent, bulutli hisoblash, 3 o'lchamli uyin, virtual olam, ochiq onlayn resurs, blog, sayt, media, Web-ilova, 3D, Web-miks, elektron jadval, xatcho 'p.

ВОЗМОЖНОСТИ ВНЕДРЕНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ WEB 2.0 ПРИ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНЫХ РАБОТ ПО ГИДРАВЛИКЕ

Эшмуродов Азамат Гузорович

Каршинский инженерно – экономический институт,
старший преподаватель, независимый исследователь.

Annotation. Статья посвящена преимуществам, видам, применению в образовании услуг технологии Web 2.0. Технологии Web 2.0 являются информационно-коммуникационными технологиями и включают в себя комплекс методов разработки сервисов с целью обеспечения собственной деятельности пользователей.

Также используются сложные теоретические и описательные методы анализа. Внедрение технологий Web 2.0 в организацию самостоятельных работ по гидравлике - в целях организации самостоятельных работ через образовательный интернет-сервис выбраны услуги, разработанные на основе технологий Web 2.0.

Кроме того, методы внедрения технологий Web 2.0 в организацию самостоятельной работы по гидравлике для студентов направления технического образования действия, обеспечивающие оптимальный выбор услуг, разработанных на основе технологий Web 2.0, в целях организации самостоятельной работы представляют собой последовательность действий по гидравлике для студентов направления технического образования. Разработка методики внедрения технологий Web 2.0 в образование сегодня рассматривается как сложная междисциплинарная проблема.

THE POSSIBILITIES OF IMPLEMENTING WEB 2.0 TECHNOLOGIES IN ORGANIZING INDEPENDENT WORK ON HYDRAULICS

Eshmurodov Azamat G'uzorovich

Karshi engineering economics institute, Senior Lecturer, independent researcher.

Annotation. The article is devoted to the benefits, types, applications of Web 2.0 technology services in education. Web 2.0 technologies are information and communication technologies and include a complex of methods for developing services in order to ensure the performance of users.

Complex theoretical and descriptive analysis methods are also used. In the organization of independent work on the subject of hydraulics, the introduction of Web 2.0 technologies - services

developed on the basis of Web 2.0 technologies were selected in order to organize independent work through the educational Internet service.

In addition, the methods of introducing Web 2.0 technologies in the organization of independent work in the field of hydraulics for students of technical education direction in order to organize independent work, the actions that ensure the optimal selection of services developed on the basis of Web 2.0 technologies are a sequence of hydraulics for students of technical education direction. The development of a methodology for introducing Web 2.0 technologies into education is seen today as a complex interdisciplinary problem.

Kirish. Internet tarmog‘i barcha sohalarni qamrab olayotgan bir paytda ta’lim sohasiga Web 2.0 texnologiyalarini qo’llash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Oliy ta’lim tizimida talabalar Internet tarmog‘i orqali bir qancha ijtimoiy xizmatlardan foydalanib, Web 2.0 texnologiyalarining bir qancha xizmatlarini strukturasini tuzishlari mumkin. Misol sifatida, bulutli texnologiyalar, 3 o‘lchamli o‘yinlar, virtual olam, ochiq onlays resurslar vohokozalar yordamida o‘zlariga kerakli bo‘lgan manbalardan foydalanishi va bulutli elektron texnologiyalardan foydalanishlari mumkin.

Texnik nuqtai nazaridan, Web 2.0 texnologiyalari yangi protokollar, tillar va standartlar, pedagogik “hamkorlik va sherikchilik tarmog‘i”dir. Zamona viy tarmoq foydalanuvchilarining o‘zlarini tarmoq mualliflari bo‘lib, o‘zlarining maqolalari, fotosuratlari, audio va video yozuvlarini tarmoqqa qo‘sishlari, o‘z sharhlarini qoldirishlari va sahfalari dizaynni shakllantirishlari mumkin. Mazkur tadqiqot ishi doirasida Web 2.0 texnologiyalari foydalanuvchilarning o‘z shaxsiy faolliklarini ta’minalash maqsadida xizmatlarni ishlab chiqish usullari to‘plamini o‘z ichiga olgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sifatida aniqlanadi.

-Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Oliy ta’limda Web 2.0 texnologiyalari: YE.D. Patarkin, I.K. Slavin, K.S. Itinson, Saidov I.D, Linkov V.V va boshqalarning ilmiy maqolalari o‘rganildi va tahlil qilindi. Mamlakatimizda kadrlarni axborot kommunikatsion texnologiyalari bilan bog‘liq tayyorgarligini turli aspektlarda takomillashtirishga doir tadqiqotlar A. Abdiqodirov, U. Begimqulov, M. Aripov, A. Haitov, B. Mo‘minov va boshqa olimlarning ishlarida yoritilgan. Musataqil ta’limni tashkillashtirish N.G. Ergashev, M. Tursunov, B. Xoliqurov va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida qarab chiqilgan.

MDH mamlakatlari tadqiqotchilaridan Y.K. Babanskiy, L.G. Vyatkin, YE.Y. Golant, V. Graf, K.V. Gridnev, B.P. Yesipov, I.R. Ilyasov, I.S. Kon, V. Lyaudis, V. Okon, A.V. Ussova, I.V. Xaritonovaning ishlarida “mustaqil ish”, “mustaqil ishlarni tashkillashtirish”, “mustaqillik” kabi tushnchalar ustida atroficha tadqiqot ishlari olib borilgan.

Xorijlik tadqiqotchilar tomonidan Web 2.0-texnologiyalarini ta’lim jarayoniga bevosita tadbiq etilishi Jason Fried, Paul Graham, Tim O'Reilly tomonidan o‘rganilgan.

-Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ushbu maqolaning maqsadi oliy ta’lim talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etishda Web 2.0 texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari, afzalliklari, qo’llash istiqbolllari va ta’sirini o‘rganishdan iborat.

Internet tarmog‘i foydalanuvchilari pedagogikasi va Web 2.0 texnologiyalaridan foydalanish sohasi bo‘yicha shug‘ullagan olim eng nufuzli rus mutaxassis YE.D. Patarkin hisoblanadi. U ta’limda ijtimoiy xizmatlardan foydalanishning kontseptual asoslarini yaratdi, bu «Tarmoqli jamoalarda informatikaning ijodiy va ta’lim imkoniyatlarini amalga oshirish» doktorlik dissertasiyasida shakllantirilgan [1,102]. YE.D. Patarkin tomonidan ta’limda amaliy qo’llaniladigan Web 2.0 texnologiyalari yordamida ma’lumotlarni strukturaviy qidirish, xatcho‘plarni bulutli saqlash, media fayllarni bulutli saqlash, onlays hujjatlarni yaratish va tahrirlash, bloglar yaratish, WikiWiki (foydalanuvchilar tuzilmasi va mazmunini birgalikda o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan saytlar, masalan, <http://ru.wikipedia.org>), ularish diagrammasi (diagrammalar yordamida umumiyliz tizimlarning fikrlash jarayonini tasvirlash usuli, masalan, <http://www.mindmeister.com>), ijtimoiy tarmoqlar (har qanday faoliyat bilan birlashtirilgan jamoalar tashkil etish uchun mo‘ljallangan saytlar, masalan, <http://www.facebook.com>), mashuplar (bir nechta manbalardan olingan ma’lumotlarni bitta integratsiyalashgan vositaga birlashtirgan Web-ilovalar, masalan, <http://wikimapia.org>). 3D-da muloqot (uch o‘lchamli haqiqatda muloqot qilish qobiliyati, masalan, <http://secondlife.com>) ketma ketligida berilgan [1,103].

- Tahlil va natijalar (Analysis and results). I.K.Slatin ta'limda Web 2.0 texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari haqida gapirar ekan, muvaffaqiyatga erishgan talabalarning o'zlashtirish past talabalar bilan birligida olib borgan tadqiqotlari birinchi bo'lib, ortda qolayotganlarning ta'lim jarayonida o'zlari uchun yangi imkoniyatlar ochish imkonini, ikkinchi tomondan esa kursdosh talabalarni kuzatish orqali «qo'lga olish» uchun berishini ta'kidlaydi[2,23].

Audio va video konferensiyalarni o'tkazish: asarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish, mavzu bo'yicha boshqariladigan muhokamalarni tashkil etish, hisobotlar mavzularini tarqatish xizmati Zoom tizimi yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Google Sheets xizmatining Internetda elektron jadvallar yaratish va ularga umumiy kirishni ta'minlash kabi funksiyalari o'qituvchi va talabalar tomonidan kursdoshlarning ishini baholash jarayonini qulay tashkil etishga yordam beradi.

“Google saytlari” xizmati yordamida yaratilgan saytdan foydalanish fanning o'quv-uslubiy ta'minotidan foydalanish imkonini beradi. Uning mazmuni ta'lim axborotining barcha asosiy elementlari (matn va grafik) birligini, shuningdek, asosiy ta'lim elementlarining aloqalari birligini ifodalashi mumkin. Ushbu xizmat yordamida ma'ruzalar matnlari, ularga taqdimotlar, laboratoriya ishlari, hisobotlarga qo'yiladigan talablar, muammoli topshiriqlarni shakllantirish, o'z-o'zini nazorat qilish vositalari, fanning axborot bazasi, joriy, oraliq va yakuniy nazorat topshiriqlarni joylashtirish internetda qulay hisoblanadi.

Hamkorlikda ishslashni tashkil qilish, paydo bo'lgan muammolarni muhokama qilish bilan eslatmalar yaratish, turli xil bildirishnomalarni nashr qilish uchun siz Google Groups xizmatidan foydalanishingiz mumkin. Guruhlarga birlashtirilib, pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari shu tariqa kasbiy faoliyatga tayyorlanishadi, kasbiy bilimlarini chuqurlashtiradilar. Xususan, Google Groups guruh a'zolari uchun muloqot va hamkorlik vositasidir. Guruhlar umumiy loyiha bo'yicha o'shimcha darsdan tashqari ishlarni bajarish uchun tuziladi.

Ta'limda «Symbaloo» xatcho'plarni saqlash xizmatidan foydalanish g'oyalari quydagilarni o'z ichiga oladi:

Ta'limda Web 2.0 texnologiya vositalaridan foydalanish bo'yicha xizmatlar to'plamini yaratish;

Onlayn o'qitishni tashkil etish;

Fan o'qituvchilari tomonidan mavzuli Web-mikslarni yaratish;

Ish tajribasini tarqatish uchun tematik Web-mikslar almashinuv;

Ta'lim resurslarini tezkor qidirish uchun tayyor Webmikslardan foydalanish kabilardan iborat.

Kirish, joriy, tematik va o'z-o'zini nazorat qilish maqsadida test sinovlarini tashkil qilish uchun google classroom xizmatidan foydalanib, onlayn testlarni tuzish imkoniyatlaridan foydalanish mumkin.

Gidravlika fanidan talabalarning mustaqil ishlarni tashkil etishda Web 2.0 texnologiyalarini joriy etish ko'plab xizmatlardan foydalanishni nazarda tutadi. Bu holat turli turdag'i xizmatlar tomonidan bajariladigan funksiyalarning cheklanganligi bilan izohlanadi. Shuning uchun, ularning o'zaro ta'sirini amalga oshiradigan dasturiy ta'minotning butun majmuasini ishlab chiqish kerak bo'lishi mumkin. Talabalarga har qanday axborot resursining yoki bir nechta resurslarning axborot obyektlari bilan ishslash qobiliyatini ta'minlaydigan xizmatlar to'plami Internet xizmati kabi tushunchaning tarkibiy qismlaridan biridir[3,22].

O'quv materialini vizual tarzda taqdim etish va uning emotsiyal komponentini kuchaytirish hisobiga mustaqil ishlarni tashkil etishda Web 2.0 texnologiyalaridan foydalanish talabalarning muayyan muammoni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

Gidravlika fanidan mustaqil ishlarni tashkil etishda Web 2.0 texnologiyalarini joriy etish - o'quv Internet xizmati orqali mustaqil ishlarni tashkil etish maqsadida Web 2.0 texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan xizmatlar tanlanadi.

Texnika ta'lim yo'nalishi talabalar uchun gidravlika fanidan mustaqil ishlarni tashkil etishda Web 2.0 texnologiyalarini joriy etish usuli mustaqil ishlarni tashkil etish maqsadida Web 2.0 texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan xizmatlari texnika ta'lim yo'nalishi talabalar uchun gidravlika fani bo'yicha optimal tanlashni ta'minlaydigan harakatlar ketma-ketligidir.

So'nggi yillarda nashr etilgan nashrlar va xorijiy amaliyot tahlili shuni ko'rsatdiki, Web 2.0 texnologiyalari foydalanish qulayligi axborot muhitini tashkil etish samaradorligi, interfaollik

va boshqalar kabi didaktik xususiyatlar tufayli talabalarning mustaqil ishlarini optimallashtirish muammolarini ya’ni, multimedia, ishonchlilik va xavfsizlikni to‘liq hal qilishga yordam beradi.

Axborot kommunikatsion texnologiyalarining doimiy rivojlanishi ularni tashkil etuvchi axborot obyektlarini taqdim etish shakllari va qayta ishlash usullari bilan bir-biridan farq qiluvchi turli xil axborot xizmatlarining paydo bo‘lishiga olib keladi. Shu sababli, hozirgi vaqtida Internetda resurslarning barcha spektri bilan ishlashni ta’minlaydigan juda ko‘p xizmatlar mavjud.

AKTning jamiyat hayotining barcha jabhalariga kirib borishi Web 2.0 texnologiyalari deb ataladigan yangi Internet texnologiyalarining paydo bo‘lishiga e’tiborni kuchaytirdi. O‘quv materialini vizual tarzda taqdim etish va uning hissiy tarkibiy qismini yaxshilash tufayli mustaqil ishni tashkil etishda Web 2.0 texnologiyalarini joriy etish talabalarning muayyan muammoni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga imkon beradi.

Web 2.0 texnologiyalari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘lib, foydalanuvchilarning o‘z faoliyatini ta’minalash maqsadida xizmatlarni ishlab chiqish usullari majmuasini o‘z ichiga oladi.

-Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Mustaqil ishlarni tashkil etishda Web 2.0 texnologiyalarini joriy etish - o‘quv Internet xizmati orqali mustaqil ishlarni tashkil etish maqsadida Web 2.0 texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan xizmatlarni tanlangan.

Texnika ixtisosligi yo‘nalishi talabalari uchun gidravlika fanidan mustaqil ishlarni tashkil etishda Web 2.0 texnologiyalarini joriy etish usuli mustaqil ishlarni tashkil etish maqsadida Web 2.0 texnologiyalarini asosida ishlab chiqilgan xizmatlarni optimal tanlashni ta’minalaydigan harakatlar texnika ixtisosligi talabalari uchun gidravlika fani bo‘yicha ketma-ketligidir. Ta’limga Web 2.0 texnologiyalarini joriy etish metodikasini ishlab chiqish bugungi kunda murakkab fanlararo muammo sifatida qaraladi.

ADABIYOTLAR:

Патаракин Е. Д. Социальные взаимодействия и сетевое обучение 2.0. Москва.© НК «Проект Хармони, Инк.», 2009 г.101-105 стр.

И.К.Славин, “Web 3.0-технологии в образовании и научных исследованиях”, Карабеан Скиентифик жоурнал. 2020.Т.9.№1(30), 22-24 стр.

К.С.Йтинсон, “Web 2.0 – технологии в образовании и научных исследованиях”. Pedagogical scinece. 2020 г. 22-24-стр.

Сайдов И.Д. Роль веб-ориентированных технологий в системе современного инновационного обучения // Санкт-петербургский образовательный вестник. — 2018. — С. 49-54

Линьков В.В. Правовые проблемы информационного пространства при переходе к концепциям Интернет вещей и web 3.0//Закон и право. — 2019. — № 8. — С. 140-142

Багиров Р.В., Абдусаламов Р.С. Сравнение концепций

Интернет-технологий представления информации Web 2.0 и Web 3.0//Сборник материалов III Всероссийской научно-технической конференции «Студенческая наука для развития информационного общества». — 2015. — С. 103-104

Бабанский, Ю. К. Педагогика / Ю. К. Бабанский, В. А. Сластенин, Н.Сорокин и др. - М.: Просвещение. - 1988. - 478 с.

Вяткин, Л. Г. Уровни познавательной самостоятельности студентов педагогических вузов / Л. Г. Вяткин, А. Б. Ольнева, Г. Д. Турчин // Актуальные вопросы региональной педагогики. - 2002. - С. 35-38.

A.G’.Eshmurodov.”Talabalarning mustaqil ta’limda web 3.0-texnologiyalardan foydalanish” mavzusida, Mirzo ulug‘bek nomidagi o‘zbekiston milliy universiteti ilmiy jo‘rnali. O‘zMU xabarlari: OAK ro‘yxatidagi jurnallarda maqola nashr etish. Toshkent-ISSN 2181-7324. 2021, [1/6/2]. B. 191-194;

A.G.Eshmurodov, “Web 2.0 methodology of the implementation of the agro-technologists of independent work on the subject of information technology to students in higher education” International Multidisciplinary Conference on Scientific Developments and Innovations in Education, Hosted Thiva,Greece, January 28th 2022, 29-31 page.

EKOLOGIK TARBIYA VA TALABALARING EKOLOGIK ONGINI RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING ROLI

Egamova Gulnoza Istam qizi
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqola ekologik tarbiya va talabalarning ekologik ongini rivojlanirishda integrativ yondashuvning rolini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada ekologik tarbiyaning mohiyati, ahamiyati va unga integrativ yondashuvning qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. Integrativ yondashuv ekologik masalalarini turli fanlar va sohalar nuqtai nazaridan o'rganishga imkon beradi, bu esa talabalar uchun ekologik bilimlarni amaliyotda qo'llash va ekologik ongni shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Maqolada integrativ yondashuvni ta'lim tizimiga joriy etish, ekologik muammolarni keng ko'lamma tushunish va talabalarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish borasida tavsiyalar berilgan. Ushbu yondashuv, nafaqat ekologik bilimlarni oshirish, balki ijtimoiy va shaxsiy mas'uliyatni rivojlanirishga yordam beradi. Maqola ekologik tarbiya va ongni rivojlanirishda integrativ yondashuvning o'rni va ahamiyatini ko'rsatish orqali zamonaviy ta'lim jarayonidagi muhim tendensiyalarni taqdim etadi

Kalit so'zlar: Ekologik ta'lim, ekologik ong, integrativ yondashuv, barqaror rivojlanish, multidisipliner ta'lim, ekologik mas'uliyat, pedagogik metodlar, ekologik qadriyatlar, ekologik savodxonlik, atrof-muhitga bo'lgan ong.

РОЛЬ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА В РАЗВИТИИ ЕКОЛОГИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ И ЕКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ СТУДЕНТОВ

Эгамова Гулноза Истамовна
Докторант Бухарского государственного университета

Аннотация: Данная научная статья посвящена исследованию роли интегративного подхода в экологическом воспитании и развитии экологического сознания студентов. В статье анализируются сущность и важность экологического воспитания, а также вклад интегративного подхода в данный процесс. Интегративный подход позволяет рассматривать экологические проблемы с точки зрения различных наук и областей, что является эффективным инструментом для студентов в применении экологических знаний на практике и формировании экологического сознания. В статье представлены рекомендации по внедрению интегративного подхода в систему образования, расширению понимания экологических проблем и повышению социальной ответственности студентов. Этот подход способствует не только повышению экологических знаний, но и развитию социальной и личной ответственности. Статья представляет собой обзор современных тенденций в образовательном процессе, подчеркивая важность интегративного подхода в экологическом воспитании и развитии экологического сознания. Данная научная статья посвящена исследованию роли интегративного подхода в экологическом воспитании и развитии экологического сознания студентов.

Ключевые слова: Экологическое образование, экологическое сознание интегративный подход, устойчивое развитие, междисциплинарное обучение, экологическая ответственность, педагогические методы, экологические ценности, экологическая грамотность, осознание окружающей среды.

THE ROLE OF THE INTEGRATIVE APPROACH IN DEVELOPING ECOLOGICAL AWARENESS AND ENVIRONMENTAL EDUCATION OF STUDENTS

Egamova Gulnoza Istamovna
Doctoral student of Bukhara State University

Abstract: This scientific article is dedicated to exploring the role of an integrative approach in environmental education and the development of students' ecological awareness. The article examines the essence and importance of ecological education, as well as the contribution of the integrative approach to this process. The integrative approach allows ecological problems to

be addressed from the perspectives of various disciplines, which serves as an effective tool for students in applying ecological knowledge in practice and shaping ecological consciousness. The article offers recommendations for introducing the integrative approach into the education system, expanding the understanding of ecological issues, and increasing students' social responsibility. This approach helps not only in enhancing ecological knowledge but also in developing social and personal responsibility. The article presents an overview of modern trends in the educational process, emphasizing the importance of the integrative approach in ecological education and the development of ecological awareness.

Key words: Environmental education, ecological awareness, integrative approach, sustainable development, interdisciplinary teaching, ecological responsibility, pedagogical methods, ecological values, ecological literacy, environmental consciousness.

KIRISH. Bugungi kunda ekologik masalalar global miqyosda eng muhim muammolardan biriga aylanmoqda. Havo va suv ifloslanishi, tuproq degradatsiyasi, biodiversitetning yo'qolishi kabi tabiiy muammolar insoniyat uchun xavf tug'dirmoqda. Shu sababli, ekologik tarbiya va ekologik ongni rivojlantirish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonni samarali amalga oshirishda integrativ yondashuvning roli katta. Integrativ yondashuv nafaqat ekologiya fanining asoslarini o'rgatish, balki talabalarning hayotiy ko'nikmalarini, ongini va xulq-atvorini o'zgartirishga qaratilgan tizimli yondashuvdir. Ekologik tarbiya – bu insonlarning atrof-muhitga bo'lgan munosabatini yaxshilashga, ekologik bilimlarni oshirishga va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan faoliyatdir. Ekologik tarbiya nafaqat ekologiya fanining o'r ganilishiga, balki tabiatga nisbatan hurmat va mas'uliyat hissini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, ekologik tarbiya talabalarning jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy mas'uliyatini oshirishga, shuningdek, ularning shaxsiy ekologik xulq-atvorini shakllantirishga yordam beradi.

Integrativ yondashuv – bu turli fanlarni o'zaro bog'laydigan, multidisipliner yondashuv bo'lib, ekologik bilimlarni o'zlashtirishda talabalarga keng ko'lamda yondashishni ta'minlaydi. [12] Bu yondashuvning asosiy maqsadi ekologik masalalarni turli fanlar va sohalar nuqtai nazaridan o'r ganish, ekologik ongni shakllantirishda talabalar va jamiyatning turli qatlamlarini jalg qilishdir. Ekologiya va tabiatni o'r ganish uchun faqat biologiya fanini emas, balki iqtisodiyot, siyosatshunoslik, psixologiya va ijtimoiy fanlarini ham o'r ganishni talab etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Ekologik tarbiya va integrativ yondashuvni rivojlantirishda mavjud ilmiy yondashuvlarni o'r ganish va tahlil qilish muhim rol o'ynaydi. Ushbu tahlil ekologik tarbiya va ekologik ongni rivojlantirishda integrativ yondashuvning ahamiyatini aniqlashga yordam beradi. Shu kungacha bu sohada juda ko'plab olimlar ilmiy ishlar olib bordilar va ularning ilmiy ishlari ekologik muammolarni bartaraf etishda o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

1. Ekologik tarbiya masalalari bilan shug'ullangan ko'plab ilmiy ishlar mavjud. Masalan, Shamsutdinova va Mahkamova (2020) ekologik tarbiyaning mohiyati va uning jamiyatdagi rolini tahlil qilishgan. Ularning fikricha, ekologik tarbiya nafaqat ekologik bilimlarni o'r ganishga, balki insonlarning tabiatga bo'lgan mas'uliyatli munosabatini shakllantirishga ham xizmat qiladi.[1]

2. Yusupov va Pirov (2019) ekologik muammolarni multidisipliner yondashuv orqali yechishning zarurligini ta'kidlaydilar. Ular ekologik bilimlarni faqat biologiya emas, balki iqtisodiyot, psixologiya va siyosatshunoslik kabi boshqa sohalar bilan bog'lashning ahamiyatini ko'rsatishadi. [3.4]

3. Integrativ yondashuvni ta'lim tizimiga joriy etish borasida bir nechta ilmiy tadqiqotlar mavjud. Misol uchun, ekologik masalalarni turli fanlar nuqtai nazaridan o'r ganishning samaradorligi haqida olib borilgan tadqiqotlar (Shamsutdinova, 2020) ekologik tarbiya va integrativ yondashuvni rivojlantirishda mavjud ilmiy yondashuvlarni o'r ganish va tahlil qilishda muhim rol o'ynaydi. [1]

4. Vygotskiy L.S. – Vygot斯基ning «socio-cultural theory» (ijtimoiy-madaniy nazariya) ta'limda interaktiv va integrativ yondashuvlarning asoschisi bo'lib, ekologik ongni rivojlantirishda talabalarning guruhli faoliyatları va muhokamalarining ahamiyatini ta'kidlagan.[5]

5. Hicks D. – Ekologik ta'lim va barqaror rivojlanish sohasida integrativ yondashuvlarni qo'llashga qaratilgan ishlanmalarni olib borgan. U ekologik tarbiyaning jamiyatda barqaror

o'zgarishlarga olib kelishini ta'kidlaydi.[6]

7. O'ralov B. – Ekologik ongi shakllantirish va ekologik muammolarni o'rganishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish borasida tadqiqotlar olib borgan.[7] Bu olimlar ekologik tarbiya va ekologik ongi rivojlantirishda integrativ yondashuvning samaradorligini oshirishga hissa qo'shgan va ekologik ta'larning amaliyatga tatbiq etilishi uchun ko'plab ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqqan. Ularning ishlari ekologik ta'limni modernizatsiya qilishda, ekologik ongi rivojlantirishda va ijtimoiy mas'uliyatni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ekologik tarbiya va talabalarning ekologik ongini rivojlantirishda integrativ yondashuvning rolini o'rganishda quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llanildi:

1. Tahliliy-metodologik yondashuv: Ekologik tarbiya va integrativ yondashuvni o'rganish jarayonida mavjud ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Bu yondashuv ekologik ta'lim tizimining zamonaviy tendensiylarini aniqlash va ekologik tarbiya sohasidagi mavjud muammolarni aniqlashga yordam berdi.

2. Kompleks yondashuv: Integrativ yondashuv ekologik tarbiyani faqat biologiya fanidan iborat bo'lgan mavzu sifatida emas, balki ko'plab fanlar (biologiya, kimyo, iqtisodiyot, siyosatshunoslik va psixologiya) orqali o'rganish zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv talabalar uchun ekologik bilimlarni yanada kengaytirish va amaliyatga tatbiq etishga imkon yaratadi.[8]

3. Eksperimental-metodologik yondashuv: O'quv jarayonida integrativ yondashuvning ta'sirini o'rganish uchun amaliy tadqiqotlar va loyiha asosidagi ishlanmalar amalga oshirildi. Talabalarning ekologik ongini rivojlantirishda qo'llaniladigan metodlar, o'quv dasturlarining samaradorligi sinovdan o'tkazildi.

4. Interaktiv metodlar: Talabalar bilan muloqot orqali, guruhli va jamoaviy ishlar asosida ekologik muammolarni yechish va ekologik ongi rivojlantirishga qaratilgan interaktiv metodlar qo'llanildi. Bu metodlar talabalarning fikrini, ijodkorligini va amaliy ko'nikmalarini oshirishga xizmat qildi.

5. Comparativ tahlil: Turli mamlakatlarda va o'quv muassasalarida ekologik tarbiya va integrativ yondashuvni joriy etishdagi tajribalar solishtirildi. Bu tahlil ekologik ta'limda integrativ yondashuvning samaradorligini baholashga yordam berdi. Ushbu metodologiya ekologik tarbiya va ongi rivojlantirishdagi integrativ yondashuvning samaradorligini o'rganishga, shuningdek, ekologik masalalarni hal qilish uchun talabalarga kompleks yondashuvlar taklif etishga imkon yaratdi.

MUHOKAMA. Ekologik tarbiya va talabalarning ekologik ongini rivojlantirishda integrativ yondashuvning o'rni va ahamiyati keng tahlil qilindi. Bugungi kunda ekologik masalalar jamiyatni xavf ostiga qo'yishi, insoniyatning tabiiy resurslarga nisbatan beparvo munosabati global miqyosda dolzarb bo'lib qolgan. Shu sababli, ekologik tarbiyaning samarali bo'lishi uchun yangi yondashuvlar, jumladan, integrativ metodlarni tatbiq etish zaruriyatini ta'kidlash muhimdir.

Integrativ Yondashuvning ahmiyati: Ekologik tarbiyani faqat biologiya fanlari bilan cheklab qolmaslik, balki ekologik masalalarni iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy nuqtai nazardan ham o'rganish zarur. Integrativ yondashuv, ekologik bilimlarni turli fanlar orqali kengaytirish va ko'p qirrali tahlil qilish imkonini yaratadi. Bu yondashuv talabalarni nafaqat ekologik masalalarni tushunishga, balki ularni turli kontekstlarda yechishga o'rgatadi. Shunday qilib, ekologik masalalarga kompleks yondashuv nafaqat ekologik ongi, balki talabalar uchun o'quv jarayonidagi ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Amaliy Tadqiqotlar va Eksperimentlar: O'tkazilgan amaliy tadqiqotlar va eksperimentlar, ekologik tarbiya jarayonida integrativ yondashuvning samaradorligini ko'rsatdi. Talabalar ekologik muammolarni nafaqat biologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy tomonlarini ham o'rganib, ularga hal etish yo'llarini topa olishdi. Bu, o'z navbatida, ekologik ongi rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ekologik mas'uliyatni talabalar orasida mustahkamlashga xizmat qiladi.

Interaktiv Yondashuvlar: Interaktiv metodlar orqali talabalar ekologik muammolarni amaliyotda o'rganish, muhokama qilish va jamoaviy ishlarda qatnashish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu metodlar talabalarning ijodkorlik, analitik fikrlash va muammolarni real hayotda hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ekologik muammolarga qarshi kurashishda talabalar nafaqat ilmiy bilimlarni, balki ijtimoiy va amaliy ko'nikmalarini ham o'rganmoqdalar.

Integrativ Yondashuvni Ta'limda Joriy Etishdagi Muammolar: Biroq, integrativ yondashuvni

ta'lismizda keng joriy etishda ba'zi muammolar mavjud. Birinchi navbatda, ekologik tarbiya bo'yicha darslar va o'quv dasturlarining to'liq integratsiyalashuvi uchun o'qituvchilar va ta'lismizda muassasalarining tayyorligi va metodik yondashuvlari zarur. Shuningdek, ekologik masalalar bilan bog'liq interaktiv va amaliy metodlarni joriy qilish o'qituvchilarning pedagogik va ilmiy salohiyatini oshirishni talab qiladi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ekologik tarbiya va talabalarning ekologik ongini rivojlantirishda integrativ yondashuvning ahamiyati beqiyos. Bu yondashuv nafaqat ekologik bilimlarni oshiradi, balki talabalarga ekologik muammolarni turli nuqtai nazaridan ko'rib chiqish imkoniyatini yaratadi. Amaliy tadqiqotlar va interaktiv metodlar ekologik ongini shakllantirishda samarali usullar sifatida ko'rsatilgan. Shunday qilib, ekologik tarbiya jarayonida integrativ yondashuvni kengaytirish va joriy etish orqali biz ekologik mas'uliyatni oshirish va barqaror jamiyatni rivojlantirishga erishishimiz mumkin.

NATIJALAR. Maqolada ekologik tarbiya va talabalarning ekologik ongini rivojlantirishda integrativ yondashuvning roli va ahamiyati o'r ganildi. Tadqiqotlar va tahlillar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Integrativ Yondashuvning Samaradorligi: Ekologik tarbiya va ongini rivojlantirishda integrativ yondashuvning samaradorligi yuqori ekanligi aniqlandi. Turli fanlarni birlashtirgan holda ekologik masalalarni ko'rib chiqish talabalarning ekologik bilimlarni amaliyatga tatbiq etish ko'nikmalarini oshiradi. Shuningdek, bu yondashuv ekologik ongini shakllantirishda, ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishda va talabalarni barqaror rivojlanish tamoyillariga yo'naltirishda muhim rol o'ynaydi.

2. Ekologik Tarbiyaning Muhimligi: Ekologik tarbiya nafaqat ekologik bilimlarni oshirish, balki insonlarning tabiatga bo'lgan mas'uliyatli munosabatini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Bu, o'z navbatida, kelajakda ekologik muammolarni hal qilishda ijtimoiy va shaxsiy mas'uliyatni oshiradi.

3. Talabalarning Ekologik Ongini Rivojlantirishda Integrativ Yondashuv: Ekologik muammolarni turli fanlar nuqtai nazaridan tahlil qilish va ularni yechish usullarini ishlab chiqish talabalarning tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu yondashuv talabalar uchun ekologik ongini shakllantirishda eng samarali vosita hisoblanadi.

4. Tadqiqot va Eksperimentlar natijasi: Tadqiqot va eksperimentlar natijasida, ekologik tarbiya jarayonida integrativ yondashuvning talabalarning ekologik ongini rivojlantirishda samarali ekanligi tasdiqlandi. Amaliy mashg'ulotlar va guruhli ishlar orqali talabalar ekologik masalalarni keng qamrovli yondashuv asosida o'r ganishga muvaffaq bo'ldilar.

5. Integrativ Yondashuvni Ta'lismizda Joriy Etishdagi Muammolar: Integrativ yondashuvni ta'lismizda keng joriy etish uchun o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini va ekologik ta'limga bo'lgan qiziqishni oshirish zarur. Shuningdek, ekologik masalalarga oid yangi o'quv dasturlari va interaktiv metodlarni joriy etish talabalarning ekologik ongini rivojlantirishga yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, ekologik tarbiya va ekologik ongini rivojlantirishda integrativ yondashuvning roli beqiyosdir. Ushbu yondashuv ekologik masalalarni turli nuqtai nazarlardan korib chiqishga, ijtimoiy mas'uliyatni oshirishga va barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga yordam beradi. Ta'lismizda integrativ yondashuvni joriy etish talabalar uchun ekologik ongini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ekologik mas'uliyatni oshirishga yordam beradi.

XULOSA. Ekologik tarbiya va ekologik ongini rivojlantirishda integrativ yondashuvning roli beqiyosdir. Bu yondashuv, ekologik muammolarni faqat biologiya fanlari doirasida emas, balki turli ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy nuqtai nazarlardan ko'rib chiqishni ta'minlaydi. Integrativ yondashuv yordamida talabalar ekologik bilimlarni yanada chuqurroq o'zlashtirish, tanqidiy fikrlash va muammolarni kompleks ravishda hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Ekologik tarbiya orqali talabalar nafaqat tabiiy resurslarni saqlashga, balki ijtimoiy mas'uliyatni oshirishga ham o'r ganadilar. Ta'lismizda ekologik masalalarga integrativ yondashuvni keng joriy etish talabalar uchun ekologik ongini shakllantirishda samarali vosita sifatida o'z o'mnini topadi.

Shuningdek, ekologik tarbiyani boshqarish va o'lchashda yangi metodologiyalarni ishlab chiqish, interaktiv va amaliy metodlarni qo'llash, ta'lismizda ekologik muammolarni turli fanlar nuqtai nazaridan organizhga imkon beradigan yondashuvlar ekologik ongini rivojlantirishda

muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, ekologik tarbiya dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar bilan boyitish, ijtimoiy media va raqamlı platformalar orqali ekologik ongni oshirish kabi yangiliklarni joriy etish talabalar orasida ekologik mas'uliyatni oshirishga xizmat qiladi.

Shu tariqa, ekologik tarbiya va ekologik ongni rivojlantirishda integrativ yondashuvni yanada kengaytirish va mustahkamlash orqali biz kelajakdagi avlodlarni barqaror rivojlanish va ekologik mas'uliyatga tayyorlashda muhim qadamlar qo'yishimiz mumkin

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shamsutdinova, M. (2020). "Ekologik ta'lim va ekologik ongni rivojlantirish: metodik yondashuvlar". Toshkent: O'zbekiston pedagogika universiteti nashriyoti.
2. Mahkamova, L. (2019). "Integrativ yondashuv va ekologik tarbiya: zamonaviy pedagogik texnologiyalar". Toshkent: Ma'naviyat va ma'rifat.
3. Yusupov, A. (2021). "Ekologik tarbiya va jamiyatda ekologik ongni rivojlantirish: ijtimoiy va pedagogik nuqtai nazar". Toshkent: Fan va texnologiya.
4. Pirov, M. (2020). "Pedagogik metodlar va ekologik ta'lim: innovatsion yondashuvlar". Samarqand: Samarqand universiteti nashriyoti.
5. Vygotskiy, L. S. (1978). "Sociocultural theory and the development of the mind". Caridge: Harvard University Press.
6. Hicks, D. (2007). "Teaching for Sustainability: Ecological Education in the 21st Century". New York: Routledge.
7. O'ralov, B. (2022). "Ekologik tarbiya va ekologik ongni rivojlantirishda integrativ yondashuv": O'zbekiston ta'lim tizimi misolida. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.
8. Gurevich, V. M. (2018). "Ekologik pedagogika: asosiy g'oyalar va tendensiyalar". Moskva: Pedagogika.
9. Lappalainen, S., & Kalliola, S. (2016). "Sustainable Education and Environmental Responsibility: Teaching Strategies". Helsinki: University of Helsinki Press.
10. Giddens, A. (2009). "The Politics of Climate Change". Cambridge: Polity Press.
11. Lode, B. (2021). "Environmental Education: A Global Perspective". Oxford: Oxford University Press.
12. Prats, L. (2017). "Multidisciplinary approaches to environmental education". Madrid: UNED Press.

GRAVITATSIYANING FUNDAMENTAL QONUN SIFATIDAGI AHAMIYATI

Hamroyev Qosim Yog'murovich

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti «Tabiiy fanlar» kafedrasi katta o'qituvchisi
Orcid ID 0009-0001-8512-7013

Razzokova Mohinur Baxodir qizi

Buxoro pedagogika instituti Fizika kafedrasi o'qituvchisi

Orcid ID0009-0006-1793-8419

“Ko'rmoq va anglamoq quvonchi tabiatning insonga
ravo ko'rgan eng buyuk ne'matidir” A. Eynshteyn

Annotatsiya: Ushbu maqolada gravitatsiya qonuni va uning ilmiy muammolari tahlil qilinadi. Gravitatsiya koinotdagi jismlarning harakatini boshqaradigan asosiy kuchlardan biridir. Nyuton va Eynshteyn nazariyalari asosida tortishish hodisasining turli jihatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: gravitatsiya, inertsiya, fundamental, ellips, koinot, sayyora, orbita, postulat, kvant.

ЗНАЧЕНИЕ ГРАВИТАЦИИ КАК ФУНДАМЕНТАЛЬНОГО ЗАКОНА

Хамроев Косим Йогмуроевич

Старший преподаватель кафедры «Естественные науки» Ташкентского института текстильной и легкой промышленности

Раззакова Мухинур Баходировна

Преподаватель кафедры физики Бухарского педагогического института

Аннотация: В данной статье анализируется закон гравитации и его научные проблемы. Гравитация - одна из основных сил, управляющих движением тел во Вселенной. Рассматриваются различные аспекты притяжения на основе теорий Ньютона и Эйнштейна.

Основные понятия: гравитация, инерция, фундаментальный, эллипс, вселенная, планета, орбита, постулат, квант.

THE SIGNIFICANCE OF GRAVITY AS A FUNDAMENTAL LAW

Khamroyev Qosim Yog'murovich

Senior Lecturer at the «Natural Sciences» Department, Tashkent Institute of Textile and Light Industry

Razzokova Mohinur Baxodir qizi

Lecturer at the Physics Department, Bukhara Pedagogical Institute

Annotation: This article analyzes the law of gravity and its scientific issues. Gravity is one of the fundamental forces governing the motion of objects in the universe. Various aspects of gravitational attraction are considered based on Newton's and Einstein's theories.

Keywords: gravity, inertia, fundamental, ellipse, universe, planet, orbit, postulate, quantum.

Kirish. Gravitatsiya – tabiatning eng asosiy va universal kuchlaridan biri bo'lib, barcha jismlarning o'zaro tortilish hodisasini tavsiflaydi. U har qanday massaga ega bo'lgan jismlar orasida mavjud bo'lib, Quyosh tizimidagi sayyoralar harakatidan tortib, galaktikalarning tuzilishi va rivojlanishigacha bo'lgan jarayonlarni boshqaradi. Ushbu maqolada gravitatsiyaning fundamental qonun sifatidagi ahamiyati va uning ilm-fan rivojiga qo'shgan hissasi haqida so'z yuritamiz.

Gravitatsiya-fundamental hodisa. Uning kvant nazariyasi hali yaratilmagan. Soha olimlarining yakdil fikriga ko'ra bu mavzuning hali o'rganilmagan boshqa muammoli jihatlari ham bisyor.

Ilmu-fan ishtiyoyida bo'lgan yosh izlanuvchilarning diqqatini shu hodisaga jalb qilish qiziqish uyg'otish orqali ularni jiddiy tadqiqotlar maydoniga chorlash niyati ko'zda tutilgan.

Oqibat va uning ijod qiluvchi sababni mantiqiy va miqdoriy munosabatda bog'lovchi algoritmik ifoda tabiat qonuni hisoblanadi.

Butun borliq tabiat qonunlarni batamom bo'ysundirilgan. Inson bu qonunlarni yaratishga mutlaqo ojiz, lekin ularni aqli-zakovati, iymoni-etiqodi bilan anglab olishga qodir.

Agar biror fizikaviy qonun fazo va vaqtning istalgan bir bo'lagida mutloq zoxiru, sobit bo'lsa fundamental maqomga erishadi. Fundamental qonunlar tizimi esa insoniyat ilmiy tafakkuri va tamadduni uchun bamsoli evolyutsiya sarhadlarini yoritib turuvchi mayoq singaridirlar.

Koinot hududida gravitatsiya ham fundamental xususiyat namoyon etadi. Shu bois unga nisbatan "Butun olam tortishish qonuni" deb, ataluvchi takid ishlatiłgan. Bu qonunning kashf etilishi natijasida insoniyat uchun juda muhim bo'lган ko'plab munozarali muammolarga ilmiy izohlanuvchi javoblar topildi. Shularning ichidan barchamiz uchun qiziqarli bo'lган ba'zi bir mavzularni misol tariqasida ko'rib chiqaylik.

Jism massasi-o'zaro teskari tabiatli inertsiya va gravitatsiya hodisalariga manba ekaligi qayd etildi. Buning hosilasi o'larоq erkin tushish tezlanishining hosil bo'lish tabiatи, undagi fazoviy mazmun-mohiyat, shuningdek bu tezlanishning universal qiymat olish ya'ni jismning massasiga bog'liq bo'lmaslik sabablarini ayon bo'ldi.

Og'irlik va inertlik mutlaqo turli tushunchalar ekanligi oydinlashdi. Mazkur qonun doirasida o'tkazilgan tajribalar esa mg (gravitatsion zaryad) mi (inertlik miqdori)ga universal tarzda proporsional bo'lishini ko'rsatdi:

$$m_g = km_{in}$$

$$k = \frac{m_g}{m_{in}} = const$$

I.Nyuton bu effektning asl sababini tushutirib berolmadи. Lekin masofaning kvadratiga teskari proporsional bo'ladigan markazga intilma kuch ta'siridagi jismning harakati traektoriyasi aynan ellips bo'lishini isbotladi. Buni hatto I.Nyutonning ilm sohasidagi azaliy raqibi R.Guk ham tan olgan.

I.Nyutonning gerbida "Gipotezaga hojatim yo'q!" shiori bitilgan. Bu esa tabiatda borini bor desam shuni o'zi kifoya ma'nosini anglatgan.

Mazkur prinsip sababli bu buyuk olim gravitatsion kuchning hosil bo'lish sabablarini izoxlab berishga hatto urinib ham ko'rmagan.

Gravitatsiya qonuni yordamida og'irlik kuchi tezlanishining nazariy qiymati hisoblandi($r=R$ uchun)

$$a = \frac{m_{gr}}{m_{in}} G \frac{M}{R^2} = g = const$$

$$\frac{m_{gr}}{m_{in}} = k = 1$$

Yer sayyoralarining sirtidagi o'rtacha qiymat esa;

$$g(\text{Nyuton formulasi}) = G \frac{M}{\langle R^2 \rangle} = 9.81 \text{ m/s}^2 = g(\text{Galiley tajribasi})$$

Bunda M va R yerning massasi va yerning radiusi

Yer kurarsi ham koinotda odatdagи astronomik obyektlardan biri ekanligi ma'lum bo'lgach insonlardagi dunyo qarash beixtiyor o'zgardi.

O'sha zamон mafkurasiga ko'ra odamlar; "Yerda yashab turgan gunohkor, osiy qavm uchun o'ta jul, dag'al va mutlaqo zararli qonunlar yaratilgan. Samo va ilohiy makon. Unda go'zal garmoniyaga ega bo'lган oliy qonunlar hukm suradi" degan qatiy fikrda bo'lганlar.

Bu qonunlarning ichki potensiali ochilib borishi bilan ilmiy jamoatchilikda va keyinchalik

keng xalq ommasiga kosmos haqidagi tasavvur hamda bilimlar inqilobiy tarzda o'sgan albatta.

Fan taraqqiyotidan malumki fizikaning zamonaviy tadqiqot uslubiyati va amaliyoti G.Galileydan samo ilmi bo'lgan kosmologiya esa N.Kopernikdan boshlangan.

Vaqtida insoniyatning planetalarini o'rGANISH bobidagi yagona ilmiy quroli I.Kepler qonunlari bo'lgan. Ulardagi goya, formula va xulosalar gravitatsiya nazariyasidan bevosita kelib chiqdi. Holbuki bularni anglash uchun Kepler mashhur astronom Tixo Bragge jamlagan kuzatuv malumotlari ustida o'ttiz yil umrini sarflab tinimsiz mashaqqatli mehnat qilgan edi. Bu jafokash olim, o'zi topgan uchchala qonundan birortasini ham asoslab, isbot qilib ko'rsata olmagan.

Bugungi kunda bu vazifani bajarish qanchalik osonligini 3-qonuni timsolida ko'rshimiz mumkin.

Aytaylik, m massali planeta F₁ markazga intilma kuch tasiri ostida quyoshga nisbatan o'rtacha r radiusli aylana bo'ylab v₁ tezlik bilan harakatlanayotgan bo'lsin. Shunda u a₁ tezlanish oladi va T₁ vaqt ichida bir marta to'liq aylanib chiqadi.

Nyutonning 2-qonuniga ko'ra

$$F_1 = m_1 a_1 = \frac{m_1 v_1^2}{r_1}$$

chunki

$$a_1 = \frac{v_1^2}{r_1}$$

Butun olam tortishish qonuniga binoan;

$$F = \frac{G m_1 M}{r_1^2}$$

Nyutonning 3-qonuniga ko'ra esa;

$$\frac{G m_1 M}{r_1^2} = \frac{m_1 v_1^2}{r_1}$$

bunda

$$v_1 = \frac{2\pi r_1}{T_1}$$

bo'lgani uchun

$$\frac{GM}{r_1^2} = \frac{4\pi^2 r_1}{T_1^2}$$

yoki

$$\frac{T_1^2}{r_1^3} = \frac{4\pi^2}{GM}$$

Yuqoridagi mulohazalar asosida m_p massali planeta uchun

$$\frac{T_p^2}{r_p^3} = \frac{4\pi^2}{GM}$$

Demak

$$\frac{T_1^2}{r_1^3} = \frac{4\pi^2}{GM} = \frac{T_2^2}{r_2^3} = const$$

Natija

$$\left(\frac{T_1}{T_2}\right)^2 = \left(\frac{r_1}{r_2}\right)^3$$

Ayni paytda Kepler qonunlari ham Nyuton formulasining haqligini tasdiqlaydi.

O'zining mexanik tasiri bilan butun koinotni qamrab olgan bu universal kuchning oddiy ko'rinishdagi bir formula bilan ifodalanishi ilk bor insoniyatda borliq olamni ilmiy-ijodiy asosda o'rghanish mumkinligiga ishonch uyg'otdi.

Bugungi kunda gravitatsiya faqat Nyuton qonunlari doirasida emas, balki umumiy nisbiylik nazariyasi asosida ham o'rghanilmoqda. Eynshteynning nisbiylik nazariyasiga ko'ra, gravitatsiya – jism atrofidagi fazo-vaqtning egilishi natjasidir. Ushbu nazariya qora tuyrukler, tortishish to'lqinlari va koinotning kengayishi kabi hodisalarini tushuntirishga yordam berdi.

Astronom olimlar quyosh tutilishidagi Uran sayyorasining orbitasida nuqson borligini, ya'ni u Nyuton gravitatsiyasi bo'yicha o'tkazilgan hisoblarga mos kelmasligini aniqladilar. Mulohazalardan kelib chiqib, bu defektning sababi no'malum qo'shni bir sayyora bo'lishi mumkinligi faraz qilindi. Ingliz matematigi Jon Kuch Adams va undan bexabar fransuz astronomi Urben Leverye bu sayyora harakat grafigining nazariy qiymatlarini hisoblab chiqishdi. Nihoyat, 1846-yilning 23-sentabrida Berlin observatoriyasining yosh astronomi Logan Galle Leverye bergen ma'lumotlarga tayanib, Neptun sayyorasini mo'ljaldagidan atigi 1° farq bilan ko'rishga muvaffaq bo'ldi.

Bu hodisa ilmiy dunyoda nazariyaning amaliy isbotlanishi sifatida katta ahamiyat kasb etdi. Ushbu natija quyidagi xulosalarini mustahkamladi:

Ilm-fan insoniyat taraqqiyotida ishonchli va qudratli quroq ekanligi aniq tasdiqlandi.

«Koinot tuzilishiga ko'ra fizikaviy dunyo hisoblanadi. Uni gravitatsiya va boshqa fundamental qonunlar boshqaradi» degan ishchi prinsip qabul qilindi.

Tadqiqotlar madaniyatida nazariya va amaliyot birligi talab darajasiga ko'tarildi.

XX asr boshlarida klassik fizika inqirozga uchradi va uni yangi g'oyalar bilan boyitish zarurati tug'ildi. Nyutonning gravitatsiya nazariyasi odatdagagi kuchsiz maydon va kichik tezliklar ($v \propto c$) uchun aniq ishlasa-da, kuchli maydon va katta tezliklarda cheklowlarga ega ekanligi ma'lum bo'ldi.

Albert Eynshteyn tomonidan ishlab chiqilgan umumiy nisbiylik nazariyasi Nyuton gravitatsiyasining rivojlangan shakli bo'lib, unda jismning massasi va fazo orasidagi o'zaro ta'sir e'tiborga olingan. Eng muhim yangilik shundaki, umumiy nisbiylik nazariyasi bo'yicha makon, zamon va materiya yagona butunlik sifatida tasavvur qilinadi. Unga ko'ra:

Fizik olam uch emas, balki to'rt o'lchamli.

Modda (jism), fazo va vaqt o‘zaro bog‘liq bo‘lib, fundamental makon bilan bir butunlikni tashkil etadi.

Har qanday jism atrofidagi fazo va vaqt egiladi, bu esa gravitatsiya ta’sirining yangi tushunchasini yaratdi.

Bu inqilobiy g‘oyalar natijasida umumiy nisbiylik nazariyasi dinamik ta’limot sifatida tan olindi.

Zamonaviy ilm-fanda gravitatsiyaning kvant nazariyasi ustida qizg‘in tadqiqotlar olib borilmoqda. Olimlar kelajakda ochilishi kutilayotgan ulkan kashfiyotlarning aksariyati aynan ushbu nazariya bilan bog‘liq bo‘lishini ilmiy tahlillar asosida bashorat qilmoqdalar. Gravitatsiyaning kvant nazariyasi esa, o‘z navbatida, koinotning eng asosiy sirlarini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Gravitatsiya – tabiatning eng muhim va fundamental kuchlaridan biri bo‘lib, u jismoniy olamning turli jabhalarida muhim rol o‘ynaydi. Nyutonning gravitatsiya qonuni ilm-fanning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, Eynshteynning nisbiylik nazariyasi bu tushunchani yanada kengaytirib berdi. Hozirgi kunda ham gravitatsiya bo‘yicha tadqiqotlar davom etmoqda va koinotning sir-asrорларини очишда muhim rol o‘ynamoqda.

FÖYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Рёю Утияма “К чему пришла физика”, “Знание” 1986 стр 16
2. Владимир Карцев “Ньютон” (ЖЗЛ) М “Молодая гвардия” 1987 2,1 стр 201, 2.2 стр 145
3. Дуглас Донанколи “Физика” 1том “Мир”1989 стр 145
4. Гребников Е.А, Рябов Ю.А “Поиски и открытия планет” М. “Наука” 1984 г
5. Алексей Салихатов “Столет недосказанности” М. Изд-во “Альпина нок фикшн” 2024

KREDIT - MODUL TIZIMIDA MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI

Ibragimov Farrux O'rroq o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika nazariyasi va tarixi yonalishi
2- bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lif tizimidagi bir necha o'zgarish va qo'shimchalar, shuningdek respublikamizda takomillashib borayotgan kredit-modul tizimiga mustaqil ta'lif mashg'ulotlarini tashkil etish va uning tatbiqi haqida so'z boradi. Sohadagi yangiliklar talaba o'quvchilar ommasiga ta'siri ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: ta'lif, kredit-modul tizimi, mustaqil fikr, talaba, o'qituvchi, zamonaviy usul, ijodiy qobiliyat, mutaxasislik, rivojlanish, ta'lif tizimi, kredit.

ТЕОРЕТИКО - МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНЫХ УЧЕБНЫХ ЗАНЯТИЙ ПО КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЕ

Ibragimov Farrukh,

Шахрисабзский государственный педагогический институт, кафедра теории и
истории педагогики

Аннотация: В данной статье речь пойдет о нескольких изменениях и дополнениях в системе образования, а также об организации и внедрении самостоятельных учебных занятий в развивающейся в нашей республике кредитно-модульную систему. Изучено влияние инноваций в этой области на студенческую аудиторию.

Ключевые слова: образование, кредитно-модульная система, самостоятельное мышление, ученик, учитель, современный метод, творческие способности, специальность, развитие, система образования, кредит.

THEORETICAL-METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE ORGANIZATION OF INDEPENDENT EDUCATIONAL TRAINING IN THE CREDIT - MODULE SYSTEM

Ibragimov Farrukh Orok oglu

Shahhrisabz State Pedagogical Institute, Department of Theory and History of Pedagogy
2nd year master's student

Annotation: this article will talk about several changes and additions to the educational system, as well as the organization and implementation of independent educational training on the credit-module system, which is improving in our republic. The impact of innovations in the field on the student student body of students has been considered.

Keywords: education, credit-module system, independent opinion, student, teacher, modern method, creative ability, specialist, development, educational system, credit.

Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda bilimga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirish, mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirish orqali salohiyatli, qo'yilgan muammoni hal qila olish layoqatiga ega yetuk mutaxassislarni tayyorlash oliy ta'lif tizimini oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Yoshlarning mustaqil bilim olishlari oliy o'quv yurtlarida o'quv reja va dasturda aniq belgilangan. Xuddi shunday tartib umumiyligi o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida ham amal qilinsa, bilim egallashdagi izchillik va uzlusizlik yanada takomillashadi. Hozirgi kunda kredit-modul tizimi- O'zbekistondagi oliy ta'lifning o'lcov birligi hisoblanadi. Unga ko'ra, universitet va institatlarda o'tiladigan har bir fan undagi o'qish yuklamasi miqdoriga qarab, kreditlarda aks etadi. Masalan, har bir fan o'rtacha 5, 6 yoki 7,5 kreditlarda aks etishi mumkin.

Talaba esa har semestr, o'quv yilida muayyan miqdorda kreditlar to'plab borishi mumkin

va bu miqdorga qarab, unga bakalavr yoki magistr darajasi beriladi. Kredit-modul tizimida talabaning bilim olish vaqt tushunchasi dars vaqt tushunchasi bilan cheklanib qolmasdan, talaba o‘qish uchun sarflagan umumiy vaqt bilan o‘lchanadi. Unda bilimning manbayi faqat o‘qituvchi yoki auditoriya emasligiga ishora qilinadi. Qisqacha aytganda, kredit-modul tizimida o‘qish vaqt tushunchasiga o‘qituvchi nuqtayi nazaridan emas, balki talaba nuqtayi nazaridan yondashiladi.

Talabaning o‘qish yuklamasining bu tarzda taqsimlanishi talaba ta’lim olish jarayonida mas’uliyatni ma’lum darajada o‘z elkasiga olishi, fan bo‘yicha darsda va darsdan tashqarida muntazam ravishda o‘qib borishi kerakligini ham bildiradi. 1 soat auditoriya vaqt uchun talaba 1,5 soat uyda va kutubxonada o‘qishi zarur. Lekin bu jarayon ko‘p jihatdan o‘qituvchining mas’uliyatiga ham bog‘liq. Chunki talabalar o‘z vaqtlaridan samarali foydalanishlari uchun ularga darsdan tashqarida o‘qish uchun qiziqarli materiallar va topshiriqlar berib borish o‘qituvchining vazifasidir. Shuning uchun kredit-modul tizimiga o‘tish o‘qituvchilarining ish yuklamalarini ham qayta ko‘rib chiqishni, ularning ish yuklamalari ular o‘qitadigan fan kreditlaridan kelib chiqqan holda belgilanishini taqozo etadi.

Amaldagi tizimda esa o‘qituvchilar ish yuklamasi faqat auditoriya soatlariga bog‘lab qo‘yilgan. Talabaning o‘qish yuklamasi bu tarzda — auditoriya va mustaqil o‘qish soatlariga ajratilishi OTMlar kutubxonalarida sharoitlarni yaxshilash, sifatli o‘quv qo‘llanmalari ko‘lamin yanada kengaytirishni ham taqozo etadi. Bularning barchasi ECTS kredit-modul tizimining miqdoriy tushunchalari va ishslash mexanizmi haqidagi asosiy qoidalar edi.

Yuqoridagi kredit-modul tizimi qoidalarini mustaqil ta’lim bilan birlashtirsa, unda talaba faqat 1,5 soat o‘qituvchi bilangina emas balki o‘zi mustaqil shg’ullanishi uchun ham va shuningdek o‘z mutaxassisligini chuqurroq tushunishi uchun ham vaqt bo‘ladi. Ayrim hollarda umumiy o‘rta ta’limdagi tartib-qoidalar o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limidan farqlanadi. Xuddi, shuningdek, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi bosqichida o‘quvchining bilim olishi oliy o‘quv yurtlaridagidan keskin farq qiladi. Ushbu tafovutlar talabalarning bilim olishi va kasb egallashlarida muammolar keltirib chiqarishi mumkin.

Ayniqsa, bo‘lajak mutaxassisning kompetentligi shakllanishi uchun ta’lim-tarbiya jarayonining uzluksizligi, izchilligi, tizimliligi katta ahamiyatga ega ekanligini unutmasligimiz kerak. Ma’lumki, keyingi yillarda talabalarning keng ma’nodagi mustaqil mutaxassis bo‘lib kamol topishlariga juda katta e’tibor qaratilmoqda. Ular oldiga har bir fan materiallarini atroficha, puxta egallash, egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini amaliyatda o‘rinli qo‘llay olish, zamon bilan hamnafas bo‘lish, mustaqil qaror qabul qila olish, qo‘yilgan hayotiy yoki ilmiy masalalarga to‘g’ri va ijodiy yondashgan holda eng maqbul yechimni topish, o‘z malakasini muntazam oshirib borish, tanlagan sohasi yoki kasbiga oid dunyo miqyosidagi yangiliklardan, erishilayotgan yutuqlardan doimo boxabar bo‘lish va ularni o‘z o‘qish va ish faoliyatiga bevosita tatbiq qilish, innovatsion faoliyat olib borish, bunda masofaviy ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish kabi jiddiy va o‘rinli talablar qo‘yildi.

Talaba-yoshlarning yangi avlodni yuqoridagi talablarga javob bera oladigan mutaxassis qilib yetishtirish milliy ta’lim tizimida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u ta’lim jarayonini mustaqil bilim olish asosida zamonaviy usullarda, yangicha ko‘rinishlarda tashkil qilishga undaydi. Mustaqil ish oliy ta’lim muassasalari talabalarini o‘qitishda individuallashtirish uslubi sifatida bo‘lg‘usi mutaxassislarning mustaqil ishlashi, o‘qitishning faol usullari 24 va shakllariga tayangan holda ularning ijodiy qobiliyatini oshirish uchun ommaviy umumiy o‘qitishdagi individual yondashish tomon keskin burilish yasashni amalga oshirish kerak.

O‘quv jarayoni o‘qitish shaklidan qat’iy nazar shartli ravishda 2 toifaga bo‘linadi. Jumladan, - bevosita o‘qituvchi rahbarligidagi o‘quv jarayoni shakllari: - talabalarning mustaqil ishi kabi toifalarga bo‘linadi. Mustaqil ta’lim talabining umumkasbiy va maxsus tayyorgarligiga yo‘naltirilgan bilim faoliyati turlaridan biridir. Oliy ta’lim muassasasida mutaxassislik fanlari bo‘yicha o‘quv adabiyotlari va boshqa didaktik vositalar bilan mustaqil ishslash, muammoli topshiriq va vazifalarni bajarish uchun kichik guruhlarda ishslashga tayyorlanish va boshqa shu kabi jarayonlarni amalga oshirish katta ahamiyatga egadir. Mustaqil ta’lim rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi funksiyalarini bajaradi, ya’ni mashg‘ulot paytida olingan bilimlarni kengaytiradi, chuqurlashtiradi, o‘quv adabiyotlari bilan ishslash malaka va ko‘nikmalarini rivojlantiradi, vazifani

mustaqil bajarish, ijodkorlik hamda o‘ziga ishonch ruhida tarbiyalaydi. Talabaning mustaqil ravishda o‘quv materialini o‘zlashtirishga intilishi, maxsus adabiyotlar, ilmiy manbalar ustida ishlashi, egallagan bilimlarini amaliyatda tatbiq etishi, o‘zining mutaxassisligi bo‘yicha kengroq bilimni egallahsha bo‘lgan ehtiyoji muhim ahamiyat kasb etadi. Maxsus adabiyotlar bilan mustaqil ishslash jarayonida talabaning shaxsiy fazilatlari yanada takomillashadi, shu bilan birga uning irodasi, fikrlash qobiliyati, xotirasi kuchayadi.

Mustaqil ta’lim Respublikamiz OTM lari boshlang’ich bosqichlarda me’yoriy jihatdan ta’lim dasturlarini o‘zlashtirishda talabalarning mustaqil ta’limi o‘quv fanlari masalalari va muammolari qatorida ko‘zda tutilmog’i lozim.

Foydalanimanadabiyotlar

1. Маханов, Ж. (2023). Body language and voice deaveloping: Body language exists in both animals and humans, but this article focuses on interpretations of human body language. When it comes to voice, voice (or vocalization) is the sound produced by humans and other vertebrates using the lungs and the vocal folds in the larynx, or voice box. In terms of observable body language, non-verbal (non-spoken) signals are being exchanged whether these signals are accompanied by spoken words or not. Журнал иностранных языков и лингвистики, 6(1).

2. Шодиев, Ж. Х., & Алиева, С. С. (2023). Источники финансирования инвестиционной деятельности со стороны государства. ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 3(2), 294-297. 25

3. Shodievich, S. H., & Roziqovna, R. M. (2023). Oliy o ‘quv yurtlarida mashg ‘ulotlar sifati va samaradorligini oshirishda ilmiy maqolalarning o ‘rni. pedagogs jurnali, 25(1), 52-55.

Талипов, Н. Х. (2022). Tasviрий санъат машғулотларида перспективани қўллашнинг аҳамия башкарув ва этика койдалари онлайн илмий журнали , 2 (1), 27-36.

A.R.Soxibov O‘quv qo‘llanma. “Pedagogik fikrlar taraqqiyoti” Qarshi “Nasaf” 2022 yil 18,6 b.t

A.R.Soxibov Darslik “Umumiyy pedagogika” Qarshi “Nasaf” 2023 yil 22,0 b.t

A.R.Soxibov O‘quv-uslubiy qo‘llanma. “Talimning interfaol usullari”Qarshi 2020y 12,2 b.t

Sh, S. H., Mamarasulova, N. I., & Yusupov, M. I. (2022). Hozirgi zamon talabalarining bilim olishida etik–estetik chalg’ituvchi omillar. PEDAGOGS jurnali, 9(2), 90-95.

Doniyorov, M. (2021). Ta’lim sohasini rivojlantirishda modulli-kredit tizimi. Boshlang’ich ta’limda innovatsiyalar, 2(Архив№ 3).

O’rolboy, O. R. U. B. (2022). Kredit-modul tizimi– ta’limdagi yangi natija. research and education, 1(1), 356-359

SPORTNING IJTIMOIY HARAKATCHANLIK DAGI ROLI

Ismoilov Husniddin

Osiyo Xalqaro Universiteti Jismoniyat madaniyat kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola sportning, ayniqsa, yuqori darajadagi sport turlarining jamiyatning quyi tabaqalariga mansub shaxslar uchun qanday qilib ijtimoiy harakatchanlik vositasi bo'lishi mumkinligini o'rghanishga qaratilgan. Tadqiqot ikkilamchi manbalar tahliliga asoslangan ilmiy adabiyotlar sharhiga asoslangan. Bugungi kunda ommaviy axborot vositalarining ta'siri bilan yuqori darajadagi sport iqtisodiy sohadan katta ulush oluvchi sanoatga aylandi. Millionlab insonlar sport sohasi doirasida turli kasblarda ishlaydi va minglab olimlar sportni ilmiy jihatdan o'rghanmoqda. Ayniqsa, yoshlarda sport orqaligina ijtimoiy mavqe va daromadga erishish imkoniyati bor degan fikr keng tarqalgan. Yuqori darajadagi sportning professional faoliyatga aylanishi, boshqa tomondan, uni vertikal ijtimoiy harakatchanlik vositasiga ham aylantiradi. Masalan, futbol, basketbol, yengil atletika, tennis va boks kabi sport turlari orqali ko'plab sportchilar o'z ijtimoiy mavqeini oshirib, yuqori darajadagi daromad manbalariga ega bo'ldilar. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalarida doimiy ravishda yoritiladigan mashhur sportchilarning muvaffaqiyati butun jamiyatda, ayniqsa, iqtisodiy jihatdan kam ta'minlangan guruhlar orasida katta qiziqish uyg'otmoqda.

Xulosa qilib aytganda, sport orqali ijtimoiy harakatchanlik faqat yuqori darajadagi sport uchun va ma'lum sport turlari bilan cheklangan. Yuqori darajadagi sport quyi tabaqaga mansub shaxslar uchun muhim daromad va mavqe manbai bo'lishi mumkin. Biroq, sport orqali yuqori ijtimoiy mavqega erishish faqatgina ma'lum jismoniy qobiliyatlarga ega shaxslar uchun ochiq ekanligini unutmaslik lozim. Shu bilan birga, sport orqali muvaffaqiyatga erishish imkoniyatiga ega bo'lganlar millionlab odamlarga nisbatan juda ozchilikni tashkil etadi.

Kalit so'zlar: Sotsiologiya, bo'sh vaqt, yuqori darajadagi sport, sport, ijtimoiy harakatchanlik

THE ROLE OF SPORT IN SOCIAL MOVEMENT

Ismailov Husniddin

Asia International University Lecturer, Department of Physical Culture

Abstract. The aim of this study is to reveal to what extent elite sport is an upward vertical mobility tool especially for individuals in the lower layer of society. This is a literature study conducted by drawing on secondary resources. The research has been studied in a wide historical process. It could be said that throughout history, free time has been monopolized by aristocrats for a long period of time. Therefore, in sports, which is the most important cultural practice of free time, could have been accepted as an activity involving only the elite layer. However, as a sportive practice expands toward the middle and lower classes, it can be said that these sportive practice are getting popular by bringing financial opportunity and status together over time when a large part of the society shows interest in these sportive branches. Especially nowadays, with the influence of the mass media, it has seen that elite sports have turned into a commercially available commodity, an industry where millions of people work and a field on which thousands of scientists have studied, and it is seen that it has become a favorite profession especially among young people as a result of the increasing interest and awards. The transformation of elite sport into a professional activity in this way, in other words to become a profession, may also mean that is a tool of vertical mobility at the same time. Many athletes from the lower class in some branches such as basketball, athleticism, tennis, boxing and especially football, raised both their own statue and also their families indirectly and supplied a significant amount of income. The high rewards in elite sport and the continued involvement of renowned athletes through various mass media create envy effects and increase the interest of the majority of society -especially the lower-strata, blacks and ethnically disadvantaged. As a result, vertical upward mobility through sports only applies to elite sport and some branches. Elite sport offer a significant income and status opportunity for individuals at the lower layer. However, it should be noted that this opportunity applies to very few

people among those who wish to obtain status through sports.

Keywords: Sociology, Leisure Time, Elite Sport, Sport, Social Mobility

РОЛЬ СПОРТА В ОБЩЕСТВЕННОМ ДВИЖЕНИИ

Исмаилов Хусниддин

Азиатский Международный Университет Преподаватель кафедры физической культуры

Абстрактный. Целью данной статьи является исследование того, как спорт, особенно спорт высших достижений, может стать средством социальной мобильности для людей из низших слоев общества. Исследование основано на обзоре научной литературы, основанном на анализе вторичных источников. Сегодня, под влиянием средств массовой информации, спорт высших достижений превратился в индустрию, занимающую значительную долю в экономическом секторе. Миллионы людей работают в различных профессиях в спортивной индустрии, а тысячи ученых изучают спорт с научной точки зрения. Широко распространено мнение, особенно среди молодежи, что единственный способ добиться социального статуса и дохода — это заниматься спортом.

С другой стороны, превращение спорта высших достижений в профессиональную деятельность также сделало его средством вертикальной социальной мобильности. Например, благодаря таким видам спорта, как футбол, баскетбол, легкая атлетика, теннис и бокс, многие спортсмены повысили свой социальный статус и получили высокие источники дохода. Кроме того, успехи известных спортсменов, которые постоянно освещаются в СМИ, вызывают большой интерес в обществе, особенно среди экономически неблагополучных слоев населения.

Короче говоря, социальная мобильность посредством спорта ограничивается только спортом высших достижений и определенными видами спорта. Спорт высших достижений может стать значительным источником дохода и статуса для людей из низших слоев общества. Однако важно помнить, что достичь высокого социального статуса посредством спорта могут только люди с определенными физическими возможностями. В то же время те, кто имеет возможность добиться успеха посредством спорта, составляют ничтожное меньшинство по сравнению с миллионами людей.

Ключевые слова: Социология, досуг, спорт высших достижений, спорт, социальная мобильность.

Kirish. Sport insoniyat tarixi kabi qadimiy faoliyatdir. Bugungi shakldan farq qilsa-da, jismoniy harakatlar tarixdagi ilk jamiyatlarga borib taqaladi. Sport barcha jamiyatlarda madaniyatning bir elementi sifatida namoyon bo'ladi. Tarixiy jarayon davomida sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirgan sportni ba'zi sotsiologlar, xususan Elias, tarixiy uзilish sifatida baholagan bo'lsa, Bourdieu esa sportning o'ziga xos rivojlanish jarayoni borligini ta'kidlab, an'anaviy o'yinlar va zamonaviy sport o'rtaqidagi farqqa nisbatanadolatsiz munosabat mavjudligini aytadi.[1;174–182.b.].

Bugungi kunda sport an'anaviy va zamonaviy o'yinlarni ajratishdan ko'ra, ko'proq maqsadga qarab baholanadi, ayniqsa sotsiologiya fanida. Ijtimoiy tabaqlanish nuqtayi nazaridan qaraganda, sport ikki xil shaklda namoyon bo'ladi: natijalarga yo'naltirilgan sport va odamlar ishtirokiga yo'naltirilgan sport, ya'ni professional yuqori darajadagia sport va havaskor sport. Bu yerda ta'kidlash kerakki, havaskor sport ham yashirin professionalizmni o'z ichiga olishi mumkin. Bu esa havaskor va professional sport o'rtaqidagi chegarani noaniq qilib, ommaviy sport va yuqori darajadagia sporti o'rtaqidagi farqni yanada kengroq tushunishga olib keldi.

Ommaviy sport – o'yin-kulgi, dam olish, sog'lik va zavq olish uchun amalga oshiriladigan sport turidir. Unda har kim ishtirok etishi mumkin va barcha yosh guruhlari uchun ochiqdir. Bu sport turida qoidalar moslashuvchan bo'lib, ishtirokchilar erkinlikka ega. Biroq, doping, tajovuz, kelishilgan o'yinlar va boshqa noxush holatlar zamonaviy dunyoning asosiy muammolaridan biridir. Ommaviy sport begonalashishni kamaytiruvchi faoliyat sifatida ko'rildi. [2; 745-749.b.].

Yuqori darajadagia sporti esa pul va ijtimoiy maqom uchun bajariladigan sport turidir. Unda

faqat maxsus iste'dod va qobiliyatga ega bo'lgan sportchilar ishtirok etadi. Yuqori darajadagia sportida qatnashish va undan chiqish yoshi aniq belgilanadi hamda qat'iy qoidalarga asoslanadi. Sportchilar o'z kasbiy faoliyati sifatida sport bilan shug'ullanishadi va o'z daromadlarini shu soha orqali topadilar. Biroq, yuqori darajadagia sportida doping, kelishilgan o'yinlar, korrupsiya va g'alaba uchun haddan tashqari tajovuz kabi salbiy holatlar ham uchraydi. Bu esa begonalashuvni kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Vakvantning bokschilar bilan olib borgan tadqiqotlari "Tana va ruh: Havaskor bokschining daftarlari" ushbu masalaga yorqin misol bo'la oladi. Tadqiqotga ko'ra, ayniqsa, boks bilan shug'ullanadigan qora tanli yoshlar musobaqalar oldidan qat'iy dietaga rioya qiladilar, uyqu tartibiga jiddiy e'tibor beradilar va "tungi hayot" hamda spirtli ichimliklardan uzoq yurishga harakat qiladilar. Bokschilar o'z jismoniy kapitallarini himoya qilishlari shartligi ta'kidlanadi.

Xuddi shunday, raqqosalar ustida olib borgan tadqiqotida balet bilan shug'ullanuvchilar o'z tanalariga qanday g'amxo'rlik qilishlarini tahlil qilgan. Ularning tanalarini o'z mehnat vositasи sifatida ko'rishi muhim jihat ekanini ko'rsatgan. Jismoniy kapital bo'yicha tadqiqotlarda bu tushunchaning muhimligi alohida ta'kidlanadi. [3; 135-143.b.]

Biroq, balet va yuqori darajadagia sporti o'rtasidagi asosiy farq shundaki, yuqori darajadagia sporti bilan shug'ullanuvchilar o'z jismoniy kapitallarini iqtisodiy kapitalga aylantirishga harakat qiladilar. Vakvantning tadqiqotlarida bu jarayon juda aniq aks etadi. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan kam ta'minlangan qatlama vakillari, ayniqsa, yoshlar uchun boks sport zali ijtimoiy himoya va jamiyatga integratsiya bo'lish imkoniyatini yaratadi. Bunday sport turlari ular uchun jinoyatchilikdan uzoqlashish va o'z kelajaklarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, yuqori darajadagia sporti nafaqat yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlik va intizom talab qiladi, balki u ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan past tabaqadagi shaxslar uchun vertikal ijtimoiy harakatchanlik vositasiga ham aylanishi mumkin.

Sportning yaxshiroq kelajak uchun vosita sifatida ko'riliishi faqatgina yuqori darajadagi sport orqali mumkin bo'lgan. Masalan, qadimgi Olimpiya o'yinlariga qatnashgan sportchilarning asosan ommaviy sport bilan shug'ullangan kishilar bo'lgani ko'rindi. Bugungi kunda tushuniladigan ma'noda bir yuqori darajadagilik mavjud emas edi. G'oliblarga esa tinchlik ramzi bo'lgan dafna gulchambari yoki shoxi sovg'a qilinar edi. [4; 39-49.b.]

Feodal jamiyatlarda esa yuqori darajadagi qatlama sanoat faoliyatidan ozod bo'lgan, aristokratlar, zodagonlar va ruhoniylardan tashkil topgan yuqori darajadagi sinf bo'sh sinf turli faoliyatlar bilan shug'ullangan bo'lsa-da, sanoat ishlari bilan mashg'ul bo'lmagan. Bu bo'sh sinfning mashg'ulotlari orasida sport ham bor edi. Demak, bu davrda ham sport yuqori darajadagilar tomonidan ommaviy sport mantig'ida amalga oshirilgan. U har qanday moddiy foyda yoki ijtimoiy pog'onaga ko'tarilish maqsadisiz bajarilgan.

Bugungi kunda esa sport ommaviy axborot vositalarining ham ta'siri bilan sotiladigan va sotib olinadigan mahsulotga, millionlab odam ishlaydigan sanoatga va minglab olimlar tadqiqot olib borayotgan sohaga aylanib qoldi. O'sib borayotgan qiziqish va mukofotlar tufayli ayniqsa yoshlar orasida sportchilik ommabop kasbga aylandi.

Ijtimoiy harakatchanlik va sport

Ijtimoiy harakatchanlik, ayniqsa, kichik oilasi tuzilmasi ustunlik qiladigan rivojlangan jamiyatlarda ko'proq uchraydi. Keng oilaviy tuzilma keng tarqalgan jamiyatlarda ijtimoiy harakatchanlik biroz qiyinroq bo'lsa-da, yuqoriga yo'nalgan vertikal harakatchanlik holatida shaxslar bilan birga ularning oilalari ham ushbu o'zgarishdan foyda ko'rishi mumkin.

Bunga muvaffaqiyatga erishgan O'zbekiston sportchilari misol bo'la oladi. Masalan, Hasanboy Do'stmatov oddiy oilada tug'ilib, yoshligidan boks bilan shug'ullangan. U 2016-yilda Rio-de-Janeyro Olimpiadasida oltin medalni qo'rga kiritib, O'zbekiston sporti tarixida muhim o'rin egalladi. Do'stmatovning ushbu muvaffaqiyati nafaqat uning o'zi, balki oilasi va butun jamiyat uchun ham yuqoriga yo'nalgan vertikal ijtimoiy harakatchanlikning yorqin namunasi bo'ldi. [5; 23-28.b.]

Yana bir misol sifatida dzyudochi Abdullo Tangrievni keltirish mumkin. U ham oddiy oilada tug'ilib, sport orqali o'z hayotini o'zgartirgan. 2008-yilgi Pekin Olimpiadasida u kumush medalni

qo'lga kiritib, xalqaro maydonda O'zbekiston sharafini munosib himoya qildi. Tangrievning yutuqlari unga katta e'tibor va moliyaviy barqarorlik olib kelgan bo'lsa, uning oilasi uchun ham ijtimoiy mavqeining o'sishiga xizmat qilgan.

Shuningdek, gimnastika bo'yicha afsonaviy sportchi Oksana Chusovitina ham sport orqali katta muvaffaqiyatga erishgan. U Olimpiya o'yinlarida ettita turli ishtirok etgan dunyodagi kam sonli sportchilardan biri bo'lib, o'g'lining sog'lig'i uchun kurashish maqsadida faoliyatini uzoq yillar davom ettirdi. Uning sportdagi yutuqlari unga xalqaro e'tibor va barqaror hayot taqdim etdi, bu esa uning oilasi uchun ham muhim o'zgarish bo'ldi.

Shunday qilib, yuqori saviyali sport nafaqat sportchilarining o'zlariga, balki ularning oilalariga ham ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan o'sish imkonini taqdim etadigan muhim omillardan biridir.

Jamiyatlar turli tashkiliy bosqichlardan o'tib, ijtimoiy harakatchanlikning yanada mumkin bo'lgan demokratik va zamonaviy jamiyat shakliga yetib kelgan. Tarixiy jarayonda harakatchanlik imkoniyatlari ortib borgan va ayniqsa rivojlangan jamiyatlar tabaqalararo o'tish imkoniyati mavjud bo'lgan ochiq tizimlarga aylangan. [6; 37–42.b].

Bugungi eng rivojlangan jamiyatlarda ham jamiyatning yuqori pog'onalariga yetib borish uchun ta'lim va ijtimoiy sinf kelib chiqishi muhim rol o'ynashda davom etayotgan bo'lsa-da, oldingi tabaqlanish tizimlari bilan solishtirganda yuqoriga yo'nalgan vertikal ijtimoiy harakatchanlik imkoniyatlari ancha ortgan. Deyarli barcha tabaqlanish tizimlarida mavqening asosiy belgisi kasb hisoblangan. Hozirgi kunda kasb yagona ijtimoiy mavqe belgisi bo'lmasa-da, u hanuz muhim ko'rsatkich sanaladi.

Xulosa

Jamiyatning tashkiliy tuzilishi o'zgargani sari kasblar ham sezilarli darajada o'zgarib, har bir davrga xos kasb turlari paydo bo'lgan. Ammo, sanoatning to'rtinchini inqilobi bilan paydo bo'lgan aqli ishlab chiqarish texnologiyalari ilgari butunlay inson mehnatiga asoslangan ishlab chiqarish tizimini aqli texnologiyalarga yo'naltirib, kasblarning kelajagini yanada muhokamali holga olib borishi mumkin. Sport mahsulotlari ishlab chiqarish jarayoni ham bu texnologiyalarning ta'siriga uchrashi mumkin. Sport anjomlarida texnologiya qo'llanilishi o'yin jarayoniga ta'sir qilsa-da, sportning asosiy unsuri baribir inson bo'lib qoladi. Masalan, aqli ishlab chiqarish texnologiyalaridan foydalangan holda yaratilgan robot futbol jamoasi insonlar ishtirokidagi futbol musobaqasidan ko'ra kamroq tomosha zavqini taqdim etishi mumkinligi aytiladi.

Sport tarixiy jarayonda katta o'zgarishlarga uchrab, bugungi zamonaviy shaklga yetib kelgan. Hozirda barcha qiziqadigan faoliyat sifatida sport, ilgari faqat zodagonlar yoki aristokratlar qatnashgan bo'sh vaqt faoliyati bo'lgan bo'lsa, sanoatlashish jarayoni bilan ishslash soatlarining qisqarishi, maoshli ishlarning ortishi va iqtisodiy boylikning ko'payishi natijasida jamiyatning boshqa tabaqalari ham qatnasha oladigan faoliyatga aylangan. Sport turli tabaqalar uchun turlicha ahamiyat kasb etadi. Yuqori tabaqa sportga asosan zavq, dam olish va sog'liq uchun qatnashsa, past tabaqa sport orqali daromad va mavqe orttirishga intiladi. Shu sababli sport jamiyatning past tabaqalari uchun yuqoriga yo'nalgan vertikal harakatchanlik vositasi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda sanoatning to'rtinchini inqilobi doirasida Sport konsepsiysi ham muhokama qilinmoqda. Ammo, sport doirasidagi ushbu bahslar hozircha asosan sport mahsulotlari atrofida olib borilmoqda. Yaqin kelajakda ham sportning asosiy unsurini inson tashkil etishi ehtimoli yuqori. Bundan tashqari, sportdagi mukofot pullari oshgan sari, sport, ayniqsa jamiyatning past tabaqalari uchun, kelajakda ham ommabop kasb bo'lib qolishi mumkin. Biroq, sport orqali ijtimoiy harakatchanlik faqat ma'lum jismoniy qobiliyatlarga ega bo'lganlarga ochiq ekanini va millionlab odamlar orasidan faqat juda oz qismi yaxshi daromad va mavqega erisha olishini unutmaslik kerak.

Foydalangan adabiyotlar

1. Ismoilov, H. (2024). analysis of the criteria for selecting young athletes specializing in sprint distances. Journal of Universal Science Research, 2(10), 174–182. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/universal-scientific-research/article/view/59008>

Husniddin, I. (2025). Qisqa masofalarga yugurishning tahlili va natijalari. pedagogik tadqiqotlar jurnali, 3(1), 745-749.

Исмаилов, Х. (2025). Планирование структуры и содержания легкоатлетических

тренировок. pedagogik tadqiqotlar jurnali, 2(2), 135-143.

4.Azamat Orunbayev. (2023). Using technology in a sports environment. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 3(11), 39–49. <https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume03Issue11-07>

5.Azamat Orunbayev. (2023). Fitnes va sog'lomlashtirish bo'yicha murabbiylik yo'nalishiga kontseptual yondashuv. Research Focus International Scientific Journal, 2(8), 23–28. Retrieved from <https://refocus.uz/index.php/1/article/view/431>

6.Azamat Orunbayev. (2023). Pandemiya davrida mobil sog'liqni saqlash va fitnes dasturlari (program). research focus international scientific journal, 2(7), 37–42. retrieved from <https://refocus.uz/index.php/1/article/view/414>

DZYUDOCHI QIZLARNING TEXNIK VA TEZKOR-KUCH TAYYORGARLIGI ASIMMETRIYASINI TAHLIL QILISH MAQSADIDA O'TKAZILGAN SO'ROVNOMA NATIJALARI

*Ismatullaeva Sangina Ravshan qizi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, Chirchiq shahar, O'zbekiston*

Annotatsiya. Mazkur maqolada dzyudo bilan shug'ullanuvchi yuqori malakali dzyudochi qizlarni tayyorlashda uchrayotgan tezkor-kuch va texnik-taktik tayyorgarlik samaradorligini oshirishga to'sqinlik qiluvchi omillarni bartaraf etish maqsadida, tajribali sport mutaxassislar va sportchilar o'rtaida pedagogik kuzatish orqali anketa-so'rovnama natijalari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy tayyorgarlik, tezkor-kuch, texnik va taktik harakatlar, asimmetriya, tahlil qilish, so'rovnama, natijalar, mashg'ulotlar.

РЕЗУЛЬТАТЫ ОПРОСА, ПРОВЕДЕННОГО С ЦЕЛЬЮ АНАЛИЗА АСИММЕТРИИ ТЕХНИЧЕСКОЙ И СКОРОСТНО-СИЛОВОЙ ПОДГОТОВКИ ДЗЮДОИСТОК

*Исматуллаева Сангина Равшан кизи,
доктор философии (PhD) по педагогическим наукам,
Узбекский государственный университет физической культуры и спорта, г. Чирчик,
Узбекистан*

Аннотация. В данной статье представлены результаты анкетирования путем педагогического наблюдения среди опытных спортивных специалистов и спортсменов с целью устранения факторов, препятствующих повышению эффективности скоростно-силовой и технико-тактической подготовки высококвалифицированных девушек-дзюдоисток.

Ключевые слова: физическая подготовка, скоростно-силовые, технические и тактические действия, асимметрия, анализ, опрос, результаты, тренировки.

RESULTS OF THE SURVEY CONDUCTED TO ANALYZE THE ASYMMETRY OF TECHNICAL AND SPEED-STRENGTH TRAINING OF FEMALE JUDOKAS

*Ismatullaeva Sangina Ravshan qizi,
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences,
Uzbek State University of Physical Culture and Sports, Chirchik city, Uzbekistan*

Abstract: This article presents the results of a questionnaire conducted through pedagogical observation among experienced sports specialists and athletes to eliminate factors hindering the effectiveness of speed-strength and technical-tactical training encountered in the training of highly qualified female judokas.

Keywords: physical training, speed-strength, technical and tactical actions, asymmetry, analysis, questionnaire, results, training.

Bugungi kunga kelib, zamonaviy sport kurash turlari juda tez hamda ilg'or sur'atlar bilan rivojlanib kelmoqda. Dzyudochi qizlarni tayyorlash – bu murabbiyning yuqori professional darajasini, uning boshqa mutaxassislar bilan yaqin hamkorligini talab qiladigan ko'p yillik murakkab jarayondir.

Dzyudochilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi musobaqlarda muvaffaqiyatli ishtirok etish uchun zarur bo'lgan o'ziga xos jismoniy fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi. Bunga kuch, tezkor-kuch mashqlari, egluvchanlik va koordinatsion mashqlar hamda o'ziga xos dzyudo texnikasi kiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, asimmetriyanı hisobga olgan holda o'quv-mashg'ulot jarayonini individuallashtirish dzyudochi qizlarning ish faoliyatini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Dzyudochi qizlarning maxsus jismoniy tayyorgarligini nazorat qilishning ilmiy-nazariy asoslari har qanday dzyudochi qizlar uchun juda muhimdir. Ushbu asoslar, dzyudochi qizlarning tayyorgarlik dasturini tuzish, nazorat qilish va natijalarni yuqori baholashda ularga ko'maklashadi. Dzyudo bilan shug'ullanuvchi sportchi-qizlarning maxsus jismoniy tayyorgarligini nazorat qilishda ilmiy-nazariy asoslarining o'rganilganlik holati hamda manbalar tahlili keltirilgan.

Dzyudochi qizlarning umumiyligi va maxsus jismoniy tayyorgarligining asimmetriyasini baholash o'quv-mashg'ulot jarayonini optimallashtirish va sportchi qizlarni tayyorlash samaradorligini oshirishga imkon beradigan muhim jihatlardan biridir.

Dzyudo sport turi bilan shug'ullanuvchi dzyudochi qizlarni tayyorlashda duch kelayothgan muammolarni bartaraf etish, texnik-taktik harakatlar hamda tezkor-kuch qobiliyatlarining tayyorgarlik darajasi samaradorligini oshirishga to'sqinlik etuvchi omillarni bartaraf etish maqsadida, dzyudo sport turi bo'yicha uzoq yillar mobaynida faoliyat yurutib kelayotgan tajribali murabbiy mutaxassislar orasida pedagogik kuzatish orqali anketa so'rovnoma o'tkazildi hamda savollarga kerakli javoblar olindi.

Mayjud manbalarni tahlil qilish natijasi shuni ko'rsatdiki, dzyudo sport turi bilan shug'ullanuvchi sportchi-qizlarni tayyorlash mobaynida tezkor-kuch qobiliyatlarini shakllantirishga mo'ljallangan mashg'ulotlarni ilmiy-nazariy bilimlar orqali tashkil etish, bugungi kunda talab darajasida amalga oshirilmayapti. Shu bois, dzyudo sport turida olib borilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, mashg'ulotlar jarayoniga ilmiy-metodik jihatlarga asoslangan yangi uslublarni joriy etish zarur.

Sport amaliyotida malakali ilg'or tajribalarni o'rganish natijasida shunga amin bo'ldikki, dzyudo bo'yicha mutaxassislar tomonidan mashg'ulotlarni rejulashtirish yo'nalishida kompleks ta'sirli mashqlarni qo'llash masalasi ko'rib chiqildi va mashqlarning dastlabki vazifalari bir tomonlama joriy qilinishi kerak bo'lganligi asosida barcha vazifalar tarkibi asta-sekin kengayib borishi bilan belgilandi.

Tadqiqot davomida biz 30 dan ziyod murabbiylar o'rtasida anketa-so'rovnoma o'tkazdik va so'rovnoma natijalari quyidagicha bo'ldi (3.1-rasmga qarang).

Sizning fikringizcha, dzyudo sport turi mashg'ulotlari jarayoniga tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish hamda texnik tayyorgarlikni oshirish uchun maxsus simulyatsiya trenajorlarini kiritish kerakmi? (1-savol)? "Zarur" degan savolga murabbiylarning 49,1 foizi, "aslida kerak emas" – 15,4 foizi, "ayrimlar uchun bu zarur, boshqalari uchun bu shart emas" – 35,5 foizi javob bergen.

Sizning fikringizcha dzyudochi qizlarda qaysi yosh davri tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish uchun eng qulay davr deb hisoblaysiz (2-savol)? Murabbiylarning 30,3 foizi: 10-12 yosh, 57,6 foizi: 12-14 yosh va 12,1 foizi javob bergen: 13-16 yosh.

Dzyudo bilan shug'ullanuvchi sportchi qizlarda musobaqa faoliyatining qaysi jarayonida tezkor-kuch qobiliyatlar asimmetriyasi yaqqol namoyon bo'ladi (3-savol)? Murabbiylarning 34,1 foizi "hujumda", 34,1 foizi "himoyada", qolgan 31,8 foizi esa "qarshi hujumda" javobini tanlagan.


Sizningcha, dzyudoda texnika va tezkor-kuch tayyorgarligi asimmetriyasi qanchalik muhim (4-savol)? Murabbiylarning 56,1 foizi: "juda muhim", "ba'zida lozim, goh-gohida lozim emas" 23,9 foiz: "muhim emas" 20 foiz javob berishgan.

Agar sportchining texnik hamda tezkor-kuch qobiliyati rivojlanmagan bo'lsa, bu sportchiga qanday ta'sir qiladi? (5-savol) - bu savolga 95% murabbiylar "sportda yuqori maqsadlarga erisha olmaydilar", 5% murabbiylar "mashg'ulot davomida ko'plab jarohatlar oladilar", javobini qayd etdi. Qolaversa, mazkur savolga ba'zi sport murabbiylari tezkor-kuch qobiliyati shakllanmagan sportchidan yuqori darajadagi natija kutish qiyinligi, kurashchi-sportchilarda texnika va taktika bilan rivojlantirish samarali natijani qayd etishi mumkinligi haqida fikr bildirdilar.

Sizningcha, o'quv-mashg'ulot jarayonining qaysi qismida tezkor-kuch ko'nikmalarini rivojlantirish usullaridan foydalanish kerak (6-savol)? - Murabbiylarning 36,4 foizi "takroriy", 38,1 foizi "qat'iy jadval bo'yicha", qolgan 25,5 foizi esa "davriy ravishda" degan javobni aniqladilar. Ba'zi murabbiylar bu muammoni hal qilish uchun barcha usullardan foydalanish mumkinligini aytishdi. Ba'zi ekspertlar aylanma usullarni qo'llash mashg'ulotning maqsadiga tayangan holda muvofiq bo'lishini taklif qilishdi va raqobat usuli ham ko'p afzalliklarga ega. Biz ham yuqorida aytib o'tilgan amaliyotchilarning fikrlariga qo'shilamiz.

Sizning fikringizcha, sportchi qizlarning jismoniy tayyorgarligida maxsus kuch qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus simulyatsiya trenajyorlarini yaratish kerakmi (7-savol)? 70,5% murabbiy kerak, 10% murabbiy kerak emas, 19,5% esa ba'zida murabbiy kerak emas deb javob bergan.

Sizningcha, bugungi kunda dzyudochi qizlar assimetriyasini o'rganish yuzasidan yetarlicha ilmiy izlanishlar olib borilganmi (8-savol)? Murabbiylarning 38,7 foizi "yetarli emas", 9,6 foizi "yetarli", 51,7 foizi esa "bor, lekin juda oz" deb javob berishgan. Bu savolga ba'zi murabbiylar butun dunyoga mashhur olimlar adabiyotlaridan ma'lumot olish kerakligini qo'shimcha qildilar. Bizning fikrimizcha, tezkor-kuch malakalarini rivojlantirishga oid ilmiy-uslubiy metodik manbalar hamda adabiyotlar yetarli darajada, biroq ularning oz qismi o'zbek tiliga tarjima qilingan.



3.1 -rasm. Anketa so'rovnomalar natijalari

Siz texnik ko'nikmalar asimmetriyasini rivojlantirish uchun qanday usullardan foydalanasiz (9-savol)? - degan savolga trenerlarning 39,4 foizi "tez-tez", 39,4 foizi "qat'iy jadvalga muvofiq", 21,2 foizi "vaqtி-vaqtி bilan" deb javob berdi. Ushbu masala bo'yicha ba'zi ekspertlar ta'limni barcha usullar bilan amalga oshirish mumkinligini sharhlaydilar. Biroq, ular davra va raqobat usulining ko'plab afzalliliklariga ega deb hisoblashdi. Yuqoridaagi gaplarni ham to'g'ri deb hisoblaymiz.

Sizningcha, dzyudo bilan shug'ullanuvchi qizlarning tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirish metodologiyasi innovatsion usullar bilan boyitilganmi

(10-savol)? Murabbiylarning 19,3 foizi "ha", 51,6 foizi "yo'q", 29,1 foizi esa "aniq bilmayman" deb javob bergan. Ayrim murabbiylar ilmiy metodologiya ishlab chiqish zarur degan fikrni bildirishdi.

Malakali dzyudochi qizlarning texnik va tezkor-kuch qobiliyatları samaradorligini oshirishning mavjud omillaridan biri sifatidagi maxsus tayyorgarlik bosqichlarida keng qo'llanuvchi mashqlar tizimlashtirildi. Sport mashg'ulot sonini izchillik bilan oshirish uslublari ishlab chiqilib, ularning maxsus o'quv mashg'ulotlardan keyin rivojlanish holatlariga faol ta'sir turlari aniqlandi. Mashg'ulotlarni ratsional almashtirish asosida sportchilarining Texnik-taktik tayyorgarligi va musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichlarining turli yo'nalishdagi mashg'ulotlarini tashkil etishning o'zarobog'liqligi haqida ilk marotaba tajriba ko'rsatkichlari olindi.

Ushbu muammoni muvaffaqiyatli hal qilish uchun malakali dzyudochi-qizlarga bir kunda beriladigan bir necha turli tezkor-kuch yo‘nalishdagi mashg‘ulotlarning ta’sirini, mashg‘ulotlar turining kuchi va ta’sir qilish tavsifini chuqur o‘rganish talab qilinadi. Mazkur masalani yechish turli mashg‘ulotlarni almashlab o‘tishning mashqlar tizimini ishlab chiqish va dzyudo sport turi bo‘yicha malakali sportchilarni tayyorlashda uning samaradorligiga erishish imkoniyatini beradi.

Yuqoridagilarga asoslanib, sportchi qizlarni tayyorlash jarayonini boshqarish tizimini ishlab chiqish sport pedagogikasi nazariyasini amaliyoti uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb muammo degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Tadqiqot natijalari ayollarning yakkakurash nazariyasiga va xususan, dzyudochi qizlarni tayyorlash nazariyasiga ma’lum hissa qo‘shdi, bu faqat o‘quv jarayonini boshqarishning nozik, nazariy jihatdan asoslangan va amalda tasdiqlangan tizimidan foydalanish sportchi qizlarimizning ushbu sport turidagi xorijiy raqiblardan ortda qolishini bartaraf etishga olib kelishi mumkinligini isbotladi.

Xalqaro sport maydonida raqobatning kuchayishi va mashg‘ulot yuklamalarining ko‘payishi bilan dzyudo sohasidagi mutaxassislar mashg‘ulot usullarini doimiy ravishda takomillashtirish zarurligiga duch kelishmoqda. Dzyudoda yuqori natijalarga erishish sportchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olishi kerak bo‘lgan samarali boshlang‘ich ta’lim tizimisiz mumkin emas. Mavjud tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, dzyudoda boshlang‘ich ko‘nikmalarni o‘rgatish usullari ko‘pincha kattalar uchun usullarni nusxalashadi, bu o‘z navbatida samarasiz va metodologik prinsiplarga mos kelmaydi.

Dzyudo nazariyasini amaliyotidagi hal qilinmagan muammolardan biri bu sportchilarda raqobat sharoitida texnika va taktikalarni qo‘llash haqidagi g‘oyalarni shakllantirish bo‘yicha bilimlarning yetishmasligidir. Dzyudochilarda texnik-taktik tayyorgarlikni shakllantirishga dominant yondashuv bellashuvni o‘tkazish vositalarini izchil o‘rganishga va texnikani qo‘llashga asoslangan, bu har doim ham maqbul bo‘lmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkinki, olib borilgan so‘rovnama natijalari tanlangan dissertatsiya mavzusining dolzarbligini aniqlaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki texnik harakatlar o‘zgaruvchan muhit talablariga muvofiq murakkab harakat faoliyatini (shakllanish, o‘zaro bo‘ysunish, birlashtirish), o‘zlashtirilgan harakat usullarini tiklash yoki bir vosita faoliyatidan boshqasiga o‘tkazish qobiliyatidan iborat.

Dzyudo bilan shug‘ullanuvchi malakali sportchi qizlarning tezkor-kuch qobiliyatları samaradorligini oshirishning mavjud omillaridan biri sifatida maxsus tayyorgarlik bosqichlarida keng qo‘llaniladigan mashqlar tizimlashtirildi. Maxsus o‘quv mashg‘ulotlari aniqlangandan so‘ng, mashg‘ulotlar sonini doimiy ravishda oshirish va ularning rivojlanish holatiga faol ta’sir qilish usullari ishlab chiqilgan.

Dzyudo sport turida texnik-taktik tayyorgarlikni tashkillashtirishning uzviy bog‘liqligi o‘qitishning muqobil tayyorgarlik bosqichlari asosida sportchilarning bellashuv oldidan ko‘rsatadigan tajriba ko‘rsatkichlari tadqiqotning davomiyligida olib borilgan usullar yordamida aniqlandi.

Ushbu muammoni muvaffaqiyatli hal qilish uchun dzyudobilan shug‘ullanuvchi yuqori malakali dzyudochi qizlarda bir necha xil tezkor-kuch qobiliyatiga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarning ta’sirini, mashg‘ulot turining kuchini va ta’sirining tavsifini diqqat bilan o‘rganish kerak. Ushbu holatni hal qilish, turli-tuman harakatlarni o‘zgartirish uchun maxsus mashqlar tizimini ishlab chiqish orqali dzyudo sport turi bilan shug‘ullanadigan yuqori malakali dzyudochi qizlarni tayyorlashda samaradorlikga erishish imkonini berdi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Rashid Matkarimov, Sarvar Adilov, Fikrat Kerimov, Georgiy Korobeynikov, Lesia Korobeinikova, Zafar Bakiev, Khasan Abdurazzokov. Improving the technical and tactical characteristics of elite wrestlers // MUAMMOLARI SLOBOZHANSKYI HERALD OF SCIENCE AND SPORT / Vollum 28 No. 4, 2024, 197-203 p. (Scopus bazasida indeksatsiyalangan).
2. S.Q.Adilov. Results of a survey on the development of coordination skills and technical and

tactical training of athletes involved in wrestling // Guliston davlat universiteti axborotnomasi 2024. №4, 177-179 bet.

3. Исматуллаева С.Р. Теория и методика дзюдо // Учебное пособие. “IMPRESSOR MEDIA” MChJ bosmaxonasi, 2025. 200 с.

4. Ismatullayeva S.R. Fundamentals of increasing the efficiency of competition activity and developing technical and tactical training // Mental enlightenment scientific – methodological journal 2024/1. - pp. 78-85.

5. S.R.Ismatullayeva. Maxsus simulyatsiya trenajyorida dzyudochi qizlarning texnik va tezkor-kuch tayyorgarligi asimmetriyasini tahlil qilish // ped.fan. bo'yicha falsafa doktori diss... Chirchik 2025. - B. 68-71.

GIDLIK FAOLIYATIGA TAYYORGARLIK KO'RISH VA UNI AMALGA OSHIRISH BO'YICHA MULOHAZALAR

Jamolova Durdona

Buxoro davlat universiteti 2-bosqich talabasi

ПОДГОТОВКА И ОСУЩЕСТВЛЕНИЕ ГИДСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Джамалова Дурдона

Студентка 2-го курса Бухарского государственного университета

PREPARATION AND IMPLEMENTATION OF GUIDING ACTIVITIES

Jamolova Durdona

Second-year student at Bukhara State University

Annotatsiya: mazkur maqolada gidlik va turizm sohasida muhim o'rinn tutgan, ko'plab sayyoohlarni o'zining noyob jihatlari bilan jalb etib kelayotgan Buxoro shahridagi yodgorliklarning tarixiy va turistik ahamiyati bayon qilinadi. Gidlik xizmati uchun tavsiya sifatida Buxoro shahrida XVI asrning ikkinchi yarmida bunyod etilgan, ya'ni Buxoro xonligini bu davrda idora qilgan Abdullaxon II ning tashabbusi va mablag'lariga bunyod etilgan me'moriy inshootlarda turistik xizmatni tashkil etilishi uchun tayyorgarlik bosqichini o'tayotgan gidlik kasbi mutaxassisi uchun metodik tavsiyalar imkon qadar tahlil etilgan.

Аннотация: в данной статье раскрывается историческое и туристическое значение памятников города Бухары, которые занимают важное место в сфере туризма и гидской деятельности, привлекая множество туристов своими уникальными особенностями. В качестве рекомендации для гидских услуг проанализированы методические советы для будущих специалистов, готовящихся организовать туристические услуги в архитектурных сооружениях, построенных во второй половине XVI века в Бухаре по инициативе и на средства Абдуллахана II, правившего в том период Бухарским ханством.

Abstract: This article highlights the historical and touristic significance of the monuments in Bukhara, which hold an important place in the field of tourism and guiding, attracting numerous tourists with their unique features. As a recommendation for guiding services, methodological suggestions have been analyzed for prospective guides preparing to organize tourist services at the architectural structures built in the second half of the 16th century in Bukhara, initiated and financed by Abdullakhan II, who ruled the Bukhara Khanate during that period.

Kalit so'zlar: mamlakat imidji, gidlik xizmati, amaliyotchi gidlar, tayyorgarlik bosqichi, internet saytlari, tarixiy kitoblar, hikoya va suhbat metodi.

Ключевые слова: имидж страны, гидские услуги, практикующие гиды, этап подготовки, интернет-сайты, исторические книги, метод рассказа и беседы.

Keywords: country image, guiding services, trainee guides, preparation stage, internet sites, historical books, storytelling, and conversation method.

Kirish. Gidlik kasbiy faoliyatni mamlakatning turizm sohasidagi taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, professional gidlar mamlakat imidjini mustahkamlash va madaniy merosni targ'ib qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan gidlik kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun puxta tayyorgarlik ko'rish talab etiladi. Ushbu maqolada gidlik faoliyatini samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan tayyorgarlik jarayonlari va uni amalga oshirishdagi asosiy tavsiyalar bayon qilinadi.

Gidlik faoliyatiga tayyorgarlik ko'rishning asosiy jihatlari sifatida istiqbolda o'z sohalari bo'yicha samarali xizmat ko'rsatishlari uchun bo'lajak mutaxassislarga quyidagi uch yo'nalishda tayyorgarlik bosqichlarini amalga oshirishlari zarurligi yuzasidan tavsiyalar taqdim etiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Bunda turli shu soha tadqiqotchilari tomonidan yozilgan yoritilgan ilmiy maqolalar, kitoblardagi muammolar va ularning yechimlari internet manbalari

bilan qiyosiy taqqoslanadi. Mayjud adabiyotlarning afzallik va kamchiliklarini aniqlash zarur. Mazkur adabiyotlar orqali gidlik faoliyatiga tayyorgarlik ko'rishning asosiy jihatlari: gidning kommunikativ ko'nikmalarini va psixologik tayyorgarligi, turistik yo'nalishlar va marshrutlar bilan ishslash malakalari yuzasidan tavsiyalar taqdim etiladi. Yangi texnologiyalar va gidlik faoliyatidagi innovatsiyalarni o'zlashtirish bu yo'nalish bo'yicha yangicha metodologiyalarni ishlab chiqishni taqazo etmoqda.

Asosiy qism. Masalan, gidlik xizmati uchun tavsiya sifatida Buxoro shahrida XVI asrning ikkinchi yarmida bunyod etilgan, ya'ni Buxoro xonligini bu davrda idora qilgan Abdullaxon II ning tashabbusi va mablag'lari tayyorgarligi, turistik yo'nalishlar va marshrutlar bilan ishslash malakalari yuzasidan tavsiyalar taqdim etiladi. Yangi texnologiyalar va gidlik faoliyatidagi innovatsiyalarni o'zlashtirish bu yo'nalish bo'yicha yangicha metodologiyalarni ishlab chiqishni taqazo etmoqda.

Birinchi tayyorgarlik bosqichi. Bu metodik jihatdan "Yo'naltirish" deb nomlangan bo'lib, yuqorida qayd etilgan masalada tayyorgarlik ko'rayotgan mutaxassis, avvalo, XVI asrning ikkinchi yarmida Buxoro xonligida sodir bo'lган ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, iqtisodiy taraqqiyot omillari, davlatning ichki va tashqi siyosatining asosiy jihatlarini o'rganishi lozim. Bu davrda hukmronlik qilgan Abdullaxon II ning amalga oshirgan islohotlari natijasida erishilgan yutuqlar, bu barqarorlik omili sifatida Buxoro shahrida mustahkam va muhtasham binolarning bunyod etilishini tahlil qila olishi, shuningdek, mazkur inshootlarning o'z davridagi vazifalarini va bugungi kundagi me'moriy-tarixiy, turistik ahamiyati muhimligini anglashi zarur.

Ikkinchi bosqich "Yangi ma'lumotlar toplash bosqichi" deb nomlangan. Bunda gidlik kasbi mutaxassisini tomonida XVI asrda bunyod etilgan Buxorodagi me'moriy inshootlar to'g'risida ilmiy dalillar va tayanch tushunchalar oldindan tayyorlab qo'yiladi. Bu tayyorgarlik bosqichi ikki qismdan iborat bo'lishi yuzasidan qo'yidagi tavsiyalar beriladi. Birinchi qismda XVI asrning ikkinchi yarmida Buxoro xonligini markazlashgan davlatga aylantirgan Abdullaxon II davrida davlatning hududiy chegaralarini bilish, davlatda hukmronlik qilgan sulola haqida umumiyligi ma'lumotga ega bo'lish, Abdullaxon II ning shaxsiy faoliyati haqida ma'lumot toplash, davlatning o'sha davrdagi ijtimoiy iqtisodiy ahvolini, mayjud bo'lган din, boshqaruv tizimi, madaniy hayoti, boshqa davlatlar bilan bo'lган diplomatik munosabatlari to'g'risida turli manbalardan (internet saytlaridan) ma'lumotlarni to'plab, ularni tizimli ravishda o'rganishni ushbu bosqichda o'z oldiga maqsad qilib qo'yishi lozim. Masalan, internet saytlaridan birida: "Bir qancha vaqt ichki urushlar girdobida qolgan Buxoro xonligi Abdullaxon II davrida barqaror va kuchli davlatga aylanadi. Aynan Abdullaxon II hukmronligi davrida Buxoro xonligi o'z qudrati choqqisiga chiqadi. Abdullaxon II nafaqat ichki kurashlarga barham beradi, balki xonlik hududini kengaytirib, Xurosonning Mashhad, Nishapur va Sabzavor shaharlarini safaviylardan tortib oladi. Xiva xonligiga yurish qilib, uni Buxoro xonligiga qo'shib oladi. Sharqda esa Qoshg'arni ham o'z davlati tarkibiga kiritadi. Abdullaxon II davrida o'zbek davlatchiligi so'nggi bor ulkan sarhadlarga ega bo'ladi. Hatto Sibir xonligi ham Abdullaxonga siyosiy qaram bo'lib qoladi. Abdullaxon Amir Temurdan so'ng Turon zaminida ikkinchi eng yirik o'zbek davlatni barpo qilgandi", - kabi ma'lumotlar mavjud.

Ikkinchi qismda esa Buxoro shahrida Abdullaxon II davrida bunyod etilgan timlar, toqilar, madrasalar, xonaqohlar, to'g'risida ma'lumotlar to'plab tarixiy va madaniy bilimlarni yanada kengaytirish tavsiya etiladi. Masalan, manbalardan: "Abdullaxon II davrida Buxoro yaqinidagi Sumiton mavzesida Jo'ybor xojalaridan Abu Bakr Sa'd (970 - 971 yil vafot etgan) mozori atrofiga madrasa, masjid, xonaqoh va chor bog' (1558-66), Buxoroda madrasa (Abdullaxon madrasasi), hammom, Govkashon, Fatxulla qushbegi, Mirakan, Xoja Muhammad Porso, yangi Chorsu (1569-70), tim (Abdullaxon timi), Karmana yaqinida Zarafshon daryosi ustiga ko'pri (1582) va boshqa qurildi. Bunday inshootlar va karvonsaroylar Samarqand, Toshkent, Balx va boshqa shaharlarda ham qurilgan (masalan, Abdullaxon II ning nufuzli amiri Qulbobo Ko'kaldosh sharafiga Toshkentda qurilgan Ko'kaldosh madrasasi va boshqalar). Karvon yo'llarida sardobalar, rabotlar, kanallar, suv omborlari (Abdullaxon bandi), ko'priklar (masalan. Surxondaryoda xalq orasida Iskandar ko'prigi nomi bilan mashhur bo'lган G'ishtko'pri va boshqalar), chor bog'lar bunyod etilgan" - kabi matnlarni yodlab olishi zarur.

Shu o'rinda aytish joizki, gid mutaxassisini tomonidan quyidagi vazifalar bajarilsa, bevosita gidlik xizmati jarayonida tashkil etuvchi bilan sayyoohlar o'rtasida yaxshi munosabatlar qaror

topadi. Tayyorgarlik jarayonida me'moriy obidaning (masalan, Abdullaxon II madrasasi) buniyod etilgan davrini bilish, uning qurilgan geografik o'rni to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish, madrasaning qurilishida ishlatalgan ashyolar haqida tushunchalar toplash obidaning tashqi va ichki ko'rinishlari, eni, bo'yi, maydoni, balandligi, hujralarning soni, peshtoqining o'ziga xos tomonlari, me'moriy uslubiga xos bo'lgan jihatlarni ko'rsatish bilan birga hozirgi holati haqida ham ma'lumot toplash, ya'ni me'moriy yodgorlikka O'zbekiston hukumati yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan qaratilayotgan e'tiborni o'rganish, shuningdek, xozirgi kunda qanday vazifalarni bajarayotganligini bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi tayyorgarlik bosqichi. Bunda gid xizmatiga kirishuvchi mutaxassis tavsiya etilayotgan davr me'moriy davr yodgorliklari doirasida bir qator ilmiy manbalardan xabardor bo'lishi, shuningdek, tarixiy kitoblardan o'z faoliyati davomida foydalanishni rejalashtirishi lozim. Bu manbalarni ham ikki qismga bo'lish tavsiya etiladi. Birinchidan, o'z davrida yozilgan ayrim manbalar bilan tanishish, masalan, Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma", Ruzbehxonning "Mehmonomai Buxoro" asarlari to'g'risida quyidagi bilimlarni o'rganishga tavsiya beriladi. Avvalo asarning yozilgan sanasini bilish, asar nashr qilingan yilni bilish, asarning bosh g'oyasini bilish, asarning mazmuni haqida qisqacha ma'lumotlar bera olish, asarda ko'rsatilgan joy nomlarini, atamalarni izohlay olish. Masalan, "Abdullanoma" ("Sharafnomai shohiy") asari to'g'risida quyidagi ma'lumotlarning manbalarda qayd etilganligi gid xizmatiga kirishuvchi mutaxassis uchun ahamiyatli hisoblanadi: "Abdullanoma" - Movarounnahrning XVI asrda tarixiga bag'ishlangan tarixiy asar. Hofiz Tanish Buxoriy tomonidan 1584-1590-yillar oraliq'ida fors tilida yozilgan. Asar Buxoro hukmdori Abdullaxon II ga bag'ishlanib, „Sharafnomai shohiy“ va qisqartirilgan ayrim nusxalari „Zafarnomai Abdullaxon“ nomlari bilan ham ataladi. Asar nazm aralash qofiyalangan nasr bilan yozilgan bo'lib, muqaddima, ikki maqola (qism) va xotimalardan iborat. Ammo asarning oxirgi qismi yozib tugatilgani ma'lum emas. Asar muqaddimasida Abdullaxonning hokimiyatga kelguniga qadar Movarounnahrda yuz bergan siyosiy voqealar - Chingizxonning istilosи va mo'g'ullar hukmronligi, Dashti Qipchoqda Abulkayrxon davlati (1428-1468)ning barpo bo'lishi, Shayboniyxon (1451 - 1510)ning Xurosonga yurishlari, shayboniylar bilan Zahiriddin Bobur o'rtasidagi harbiy to'qnashuvlar hamda Abdullaxonning nasli va nasabi to'g'risida hikoya qilinadi. „Abdullanoma“ning asosiy qismida Shayboniyxonidan so'ng Movarounnahrda siyosiy vaziyat, uning bir qancha mayda hokimliklarga bo'linib ketishi, Abdullaxonning markaziy hokimiyatni mustahkamlash va mamlakatni siyosiy jihatdan birlashtirishga qaratilgan harakatlari, uning Dashti Qipchoq va Xurosonga yurishlari, XVI asrning 80-90-yillarida Buxoro, Xorazm va Badaxshondagi siyosiy vaziyat hamda Xorazm bilan Badaxshonning Buxoro xonligiga qo'shib olinishi kabi tarixiy voqealar bayon etiladi. Asarda XVI asrda Movarounnahr bilan Turkiya, Hindiston va Eron o'rtasidagi munosabatlarga hamda Rossiya bilan savdo aloqalariga oid ma'lumotlar bor. Unda XVI asrda Buxoro xonligi qo'shinlarining tuzilishi, harbiy taktikasi, quroq-yarog'lari hamda Movarounnahrda, shu jumladan Buxoroda qurilgan me'morchilik obidalari va suv inshootlari to'g'risidagi ma'lumotlar keltiriladi. Tarixiy asarda Movarounnahr xalqlarining etnik tarkibi, jumladan qang'li, qipchoq, qorliq, xalaj, og'ajiri, uryonqit, qo'ng'irot, orlot, uyg'ur, sulduz, bayovut, do'rmon va boshqa qavmlarning kelib chiqishi va ularning urf-odatlari to'g'risida ma'lumotlar bor. Uni yozishda Xofiz Tanish Narshaxiyning „Buxoro tarixi“, Rashiduddinning „Jome at-tavorix“, Juvayniyinj „Tarixi jahon kushoy“, Mirxonning „Ravzat us-safo“, Sharafuddin Ali Yazdiyning „Muqaddimai Zafarnoma“, Koshifiyning „Rashahot ayn al-hayot“, Mirzo Haydarning „Tarixi Rashidiy“ va boshqa tarixiy asarlardan foydalangan bo'lsada, ammo asarning asosiy qismi XVI asrda sodir bo'lgan ko'pgina tarixiy voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan shohidlardan to'plangan materiallar asosida yozilgan. Bu asar Movarounnahr xalqlarining XVI asrda siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotini o'rganishda birinchi darajali manbalardan hisoblanadi. Asarni 1942-1951-yillarda o'zbek sharqshunos olimi S. Mirzayev (1885-1961) o'zbek tiliga tarjima qildi. B. Ahmedov uni to'ldirib va tuzatib qayta nashr etdi (2000)".

Ikkinci qism manbalari mustaqillik yillarida mazkur davrga oid juda ko'plab ilmiy tadqiqotlar, monografiyalar, risolalar, ilmiy maqolalar yozilganligini alohida e'tirof etish mumkin. Ayniqsa, 1997 yil Buxoro shahrining 2500 yilligi yubileyi kunlari va undan keyingi yillarda tarixchi

siyosatshunos, manbashunos, muzeyshunos olimlarning maskur davri me'moriy inshoatlariga oid bir qator tadqiqotlari ilmiy muomalaga kiritilgan.

Muhokama va natijalar. Muvaffaqiyatlidagi xizmatini amalga oshirishni o'z oldiga maqsad qilgan mutaxassis faoliyatning samaradorligi uchun zamonaviy metodlarni tanlashi muhim natija beradi. Tavsiya sifatida aytish joizki, bu borada hikoya va suhabat metodi juda o'rinnlidir. Hikoya metodi bu gid xizmatini ko'rsatuvchi tomonidan o'rganilayotgan tarixiy yodgorlikka oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, tasviri vositalar yordamida obrazli tasvirlash yoki ixcham qisqa va izchil bayon qilishdir. Suhbat metodi savol-javob shaklidagi dialogik metod bo'lib, u qadimdan ma'lum, hatto undan o'z davrida Suhrot ham mohirona foydalangan. Suhbatning vazifalari aqliy fikrlash hozirjavoblik, muloqot madaniyati kabilarni bajaradi. Suhbat xozirgi tadqiqotlarda izlash suhbati deb ham yuritiladi. Suhbat metodining qator ijobjiy tomonlari bo'lib maqsad qilib qo'yilgan masalalarni birgalikda o'rganish hamkorlikda o'zlashtirish uchun muhim hisoblanadi. Muhokama va tahlil natijalarini umumlashtirganda gidlik faoliyatiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha mavjud adabiyotlarning yetarli emasligi ko'zga tashlanmoqda. Mavzuga doir tadqiqotlarni davom ettirish eng kerakli natijalarni beradi.

Xulosa. Gidlik Yangi O'zbekiston sharoitida eng muhim kasblardan biri bo'lib, u turizm va madaniy merosni targ'ib etishda asosiy rol o'ynaydi. Tarixiy jihatdan gidlik qadimdan mavjud bo'lgan va bugungi kunda uning nufuzi ortmoqda. Chunki gidlik kasbiy faoliyati mamlakatning turizm sohasidagi taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, professional gidlar mamlakat imidjini mustahkamlash va madaniy merosni targ'ib qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan gidlik kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatlidagi amalga oshirish uchun puxta tayyorgarlik ko'rish talab etiladi. Shuning uchun gidlik sohasini takomillashtirish, uni professional darajada rivojlantirish va kadrlar tayyorlash tizimini yaxshilash orqali O'zbekiston turizm bozorida yangi imkoniyatlar yaratilishi mumkin.

Foydalilanilgan manba va adabiyotlar

1. Boltayev B.B. Mustaqillik yillarda Buxoro viloyatidagi muassasa muzeylarining vujudga kelishi va rivojlanish tendensiyasi // Xorazm Ma'mun Akademiyasi axborotnomasi. 2022. № 6/2. – 210 b.
2. Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligiga bag'ishlangan "Insoniyatning ilmiy va madaniy merosi - uchinchi ming yillikda" xalqaro simpoziumi tezislari. Toshkent: O'zbekiston. –300 b.
3. Zamonov A. Buxoro xonligi tarixi: metodik qo'llanma. -Toshkent: Bayoz, 2021. -264-bet.
4. Xalqimiz uchun munosib sharoit yaratish, hududlarning sanoat salohiyatini yuksaltirish – asosiy maqsadimiz //Buxoronomma, 2019 yil 31 mart.
6. Hayitov va b. Buxoro va buxoriyarning jahoniy shuhrati. Monografiya. –Toshkent. "Navro'z" nashriyoti, 2020. -B.86.
7. Qambarov M. Mustaqillik yillarda Buxoro viloyatida shaharsozlik sohasida amalga oshirilgan ishlar // O'zbekiston arxitekturasi va qurilishi. 2011. № 4-5. - B. 23-27.
8. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000. -B. 46.

BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK BOSQICHIDA SHUG'ULLANUVICH 11-12 YOSHLI KURASHCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Jumayev Sohibjon Botirboevich

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) Navoiy davlat universiteti "jismoniy madaniyat" kafedrasi katta o'qituvchisi
<https://orcid.org/0009-0002-1556-3044>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yosh kurashchilardajarohatlar bilan bog'liq shikaslanishlarning rivojlanish xususiyatlari haqida ma'lumot berib o'tgan, kichik jarohatlarning namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlarini quyidagicha izohlaydi: kichik jarohatlarda patologik jarayon asta-sekin rivojlanadi, metabolizmning buzilishi va alohida hujayralar va to'qimalarning guruhlarida sust yallig'lanadi; zarar yetkazuvchi omillarning takroriy ta'siri bilan to'qimalarda nafaqat funktional, balki sezilarli tarkibiy o'zgarishlar sodir bo'lib, tobora kengroq qamrab oladi; rivojlanishning dastlabki davrlarida kichik jarohatlар asemptomatik bo'lib, ko'pincha og'reqsiz yoki boshqa noxush his-tuyg'ularsiz va faqat keyinroq, keng tarqagan lezyonlar rivojlanishi bilan aniq belgilari paydo bo'ladi; kichik jarohatlarning asosiy xavfi shundaki, ular jarohatlarning o'tkir og'ir shakllari, ayniqsa davolash qiyin bo'lgan surunkali shakllarning paydo bo'lishiga moyil bo'lgan holatdir.

Kalit so'zlar: muvofiqlashtirish, vosita, koordinatsion, rivojlanish, didaktik, didaktik, tamoyil, intensiv, kombinatsiya, yuklama, sport-texnik, fazilat, sport ixtisosligi, stendlar, sikel, daraja, ratsional, makrosikel, reglament, texnik-taktik, psixomotor, elementlar, psixofaol, ligamentlar, muvofiqlashtirish, jarohatlanish.

ОСОБЕННОСТИ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ КУРАШИСТОВ 11-12 ЛЕТ НА ЭТАПЕ НАЧАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ

Жумаев Сохижон Ботирбоевич

Доктор философии (PhD) по педагогическим наукам

Старший преподаватель кафедры «Физическая культура» Навоийского государственного университета

Аннотация: В данной статье приводятся сведения об особенностях развития травматических повреждений у юных борцов, объясняет особенности проявления мелких повреждений следующим образом: при мелких повреждениях патологический процесс развивается постепенно, с нарушением метаболизма и вялым воспалением в отдельных группах клеток и тканей; при повторном воздействии повреждающих факторов происходят не только функциональные, но и значительные структурные изменения в тканях, все более охватывающие их; на ранних стадиях развития мелкие повреждения протекают бессимптомно, часто без боли или других неприятных ощущений, и только позже появляются четкие признаки с развитием распространенных поражений; основная опасность мелких повреждений заключается в том, что они склонны к возникновению острых тяжелых форм повреждений, особенно хронических, которые трудно поддаются лечению.

Ключевые слова: координация, средство, координационный, развитие, дидактический, дидактический, принцип, интенсивный, комбинация, нагрузка, спортивно-технический, качество, спортивная специализация, стенды, цикл, уровень, рациональный, макроцикл, регламент, технико-тактический, психомоторный, элементы, психоактивный, связки, координация, травматизм.

TRAINING AT THE INITIAL TRAINING STAGE FEATURES OF THE PHYSICAL TRAINING OF WRESTLERS AGED 11-12

Jumayev Sokhibjon Botirboyevich

Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Senior Lecturer of the Department of «Physical Culture» of Navoi State University

Annotation: This article provides information on the features of the development of injuries associated with injuries in young wrestlers, explains the peculiarities of the manifestation of minor injuries as follows: in minor injuries, the pathological process develops gradually, with metabolic disorders and weak inflammation in individual groups of cells and tissues; with repeated exposure to damaging factors, not only functional, but also significant structural changes occur in the tissues, becoming increasingly widespread; in the early stages of development, minor injuries are asymptomatic, often without pain or other discomfort, and only later, with the development of widespread lesions, clear signs appear; the main danger of minor injuries is that they are prone to the occurrence of acute severe forms of injuries, especially chronic ones that are difficult to treat.

Keywords: coordination, means, coordination, development, didactic, didactic, principle, intensity, combination, load, sports-technical, quality, sports specialization, stands, cycle, level, rational, macrocycle, regulation, technical-tactical, psychomotor, elements, psychoactive, ligaments, coordination, injury.

Kirish: Dunyoda zamonaviy sport shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda milliy sport turi kurash ham misli ko'rilmagan darajada ommalashib bormoqda. Kurash musobaqlari ko'plab xalq bayramlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Shu bilan birga aholini jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy tarzda shug'ullanishga jallb qilishdagi asosiy vazifalardan biri milliy sport turlarini rivojlantirish hisoblanadi. Jahon miqyosida har bir xalq va elatning o'ziga xos milliy sport turlari bo'lganidek, mamlakatimizda ham kurash milliy sporti shiddat bilan rivojlanib bormoqda.

Yosh kurashchilarining koordinatsion qobiliyatlarini maqsadli rivojlantirish vositalaridan foydalangan holda texnik-taktik tayyorgarlik texnikasining samaradorligi bo'yicha xorijda va mamlakatimizda ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. 11-12 yoshli kurashchilarda koordinatsiya qobiliyatlarini rivojlantirishning eng samarali vositalari o'rganilib yillar davomida tajribalarga asosalangan holda tizimlashtirilgan. Kurash texnikasini o'rgatish jarayonida yosh polvonlarning umumiyligi va maxsus jismoniy tayyorgarligiga ijobiy ta'siri aniqlangan. Koordinatsion qobiliyatlarning rivojlanish darajasi va yosh sportchilarining kurash texnikasini o'zlashtirish muvaffaqiyati o'rtaida bir qancha ijobiy bog'liqliklar mavjudligi ta'kidlangan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda kurash milliy sport turini rivojlantirish va ommaviylashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Mamlakatimizda milliy sportni yuqori darajaga olib chiqish, ilmiy-nazariy umumlashtirish, hozirgi zamon sivilizatsiyasi bilan aloqador ekanligini alohida qayd etish" oliv sportda erishilgan yutuqlar bilan cheklanmasdan, ommaviy sportga ham katta e'tibor berishimiz kerakligini ko'rsatmoqda. Mavjud holat esa sportchining butun faoliyati davrida dastlabki texnik-taktik harakatlarni o'rganishda orttirgan nuqsonlaridan xoli bo'lishni qiyinlashtiradi, jismoniy va funksional imkoniyatini, ayniqsa, texnik-taktik imkoniyat doirasini toraytiradi. Hozirgi vaqtida deyarli barcha ta'lif muassasalarida kurash milliy sport turini rivojlantirish va ommaviylashtirish, tanlangan sport turining dastlabki bazaviy texnik harakatlari elementlarini o'rgatish algoritmini ilmiy-uslubiy jihatdan ishlab chiqish zarurati yuzaga kelgan. Bu esa kurashning jahon standartlari darajasida yanada rivojlantirish, sportchilarni tayyorlash tizimini ilmiy asoslab berish dolzarb masala bo'lib turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5368-sон Farmoni hamda 2017-yil 2-oktyabrdagi "Kurash milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3306-sонli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrdagi PQ-4881-sонli "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda shu sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjalarda belgilangan vazifalar kurash sportini rivojlantirishga amalga oshirishga yuqori darajada xizmat qiladi.

Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida kurashning maxsus texnik elementlarini o‘rgatishda I.X.Boymurov va I.K.Karimovlar quyidagi fikrni berib, uni 4 qismga ajratib o‘tishgan:

- Yosh o‘s米尔 polvonlarni tayyorlashda intensiv xarakterdagi eng maqbul dozalangan vaznlarni keng qo‘llash imkoniyati ilmiy asoslandi.

- Yosh kurashchilarning jismoniy rivojlanish holati va asosiy jismoniy sifatlari va o‘s米尔lik davrida sport bilan shug‘ullanishi bilan bog‘liq holda yaxlit yondashuv va tahlilni qo‘llash asosida jismoniy holatining xususiyatlari ochib berildi.

- Sport ixtisosligini hisobga olgan holda, yosh polvonlarning maxsus jismoniy tayyorgarligida dozalangan vaznlarning turli qiymatlaridan foydalanish imkoniyati asoslanadi.

- Yosh kurashchilarning kuch tayyorlash darajasining pedagogik tavsiflari va baholari ishlab chiqilgan.

Turli malakali kurashchilarni tayyorlashning asosiy vositalari va mashg‘ulotlar usullarini qo‘llash hamda tizimlashtirishda ushbu vositalardan eng samaralisini, shuningdek, ularning ratsional nisbatlarini yillik makrosikl doirasida aniqlash imkonini berdi. Kurashchilarni tayyorlash jarayoniga turli yo‘nalishdagi jismoniy tayyorgarlik vositalarini optimal tatbiq etish muammosining asosiy jihatlari bo‘yicha amaliyotchilarning ustuvor fikrlari belgilab berildi. Turli xil xarakterdagi umumi jismoniy tayyorgarlik vositalarining ta’sir darajasini qiyosiy tahlil qilish natijalari yangi bo‘lib, o‘s米尔 polvonlarning tayyorgarlik ko‘rsatkichlariga e’tibor qaratilgan. Jismoniy tarbiya vositalarining turli kombinatsiyalari ta’sirida kurashchilarning musobaqa faolligining sport-texnik ko‘rsatkichlari dinamikasi aniqlangan. Yuqorida keltirilgan, tavsif va parametrlardan kelib chiqib, umumi va maxsus jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarining aksariyati, sport-texnik ko‘rsatkichlari hamda sport natijalari bo‘yicha sezilarli o‘sishni ta’minlovchi bir yillik mashg‘ulot sikli doirasida yosh kurashchilarni tayyorlashning eksperimental metodologiyasi ishlab chiqildi va sinovdan o‘tkazilgan [1; 97-b].

M.G.Kaladeznikova, K.S.Kaladeznikov va P.I.Sidorovlarning fikricha, kurashchilarni musobaqalarga tayyorlashda mashg‘ulotlarni rejorashtirish hamda pedagogik-psixologik, tibbiy biologik usullardan foydalanish muhimligi ta’kidlangan. Musobaqa reglamentidagi o‘zgarishlar tufayli barcha yosh toifasidagi kurashchilar o‘rtasida raqibni ko‘tarish bilan bog‘liq stendlarda texnikalar ulushini oshirish tendentsiyalari aniqlangan. Raqibni ko‘tarishda to‘g‘ri turish ko‘nikmalarini shakkantirish jarayonini tuzatishga imkon beradigan va shu bilan birga sug‘urta va yordam ko‘rsatadigan texnik vosita ishlab chiqilgan, ishlab chiqarilgan va joriy etilgan, bu ham orqa miya shikastlanishining oldini olishning samarali vositalarda biri ekanligini isbotlab berishgan. Shu bilan birga, birinchi marta mashg‘ulotning didaktik tamoyillariga qat’iy rioya qilish va texnik vositalardan foydalanishga asoslangan stendlarda raqibni ko‘tarish bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab texnik usullarda yosh kurashchilarni bosqichma-bosqich o‘rgatish uslublarini ishlab chiqilgan [2; 5-12-b].

B.A.Padlivayev, V.P.Uvarov, N.N.Rojinlarning ilmiy ishlarida yuqori malakali kurashchilarni tayyorlashda mashg‘ulotlarni rejorashtirishning metodlogik asoslarini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borishgan. Yosh kurashchilarni tayyorlash jarayonida mashg‘ulotlarga quyidagicha yondashish kerakligini ilmiy asoslab bergen:

- Yosh kurashchilarni tayyorlashda harakatni muvofiqlashtirish komponentining ahamiyati musobaqa faoliyati jarayonida yuqori jismoniy, texnik-taktik tayyorgarlik va sport natijalariga erishish uchun o‘quv-mashq dasturlarini amalga oshirishning asosiy mezoni sifatida isbotlangan.

- Turli yoshdagagi kurashchilar – kurashchilarning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligining musobaqa faoliyatidagi muvaffaqiyati bilan o‘zaro bog‘liqligi aniqlangan.

- Yosh kurashchilarning harakatlarini muvofiqlashtirish qobiliyatini konjugatsiyali rivojlantirish texnikasi ishlab chiqilgan bo‘lib, u texnik va tezlik-kuch mashqlari bilan birgalikda muvofiqlashtirish qobiliyatining individual tarkibiy qismlariga turli xil ta’sir qilish vositalaridan foydalanishni nazarda tutgan.

- Birinchi marta yosh kurashchilarning umumi rivojlantiruvchi va turli yo‘nalishdagi maxsus mashqlar nisbatini samarali tartibga soluvchi, yosh kurashchilarning yuqori darajadagi muvofiqlashtiruvchi tayyorgarligi va sport natijalariga erishishni ta’minlovchi o‘quv qurollari bloklari ishlab chiqilgan.

Yosh kurashchilarning texnik harakatlarini muvofiqlashtirish qobiliyatini birqalikda rivojlantirish metodologiyasining muhim nazariy asoslanishi, uni qo'llash yosh kurashchilarining maxsus jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligining asosiy vositalarini rivojlantirish darajasini murakkab darajasiga oshirishni oldindan belgilab berishni ta'kidlab o'tgan [3; 90-b].

Kurashchilarni musobaqaga tayyorlash haqida D.B.Brown, J.E.Makkenziya, K.K.Denis, R.W. Culen kabi olimlar fikriga ko'ra, kurash sport turiga saralashda shug'ullanuvchilarni har tomonlama parametrlarini inobatga olib qabul qilishni aytib o'tishgan:

yosh kurashchilarning mas'uliyatlari mahalliy musobaqa natijalari bilan;

kurash bo'yicha samarali texnik-taktik harakatlar tuzilmasi musobaqa faoliyatining zamonaviy talablariga mos ravishda;

yosh kurashchilarda jismoniy va psixomotor sifatlarning rivojlanishi bo'yicha olingan yangi ma'lumotlar bo'yicha;

yosh kurashchilarning jismoniy va ruhiy fazilatlarini uyg'un rivojlantirish bo'yicha hamda musobaqa faoliyatining zamonaviy talablariga mos keladigan mashg'ulot vazifalarini modellashtirish texnologiyasi ishlab chiqilgan [4; 24-32].

R.N.Apoykoning ilmiy ishi negizida psixofaol moddalar tasiri haqida yozib o'tgan. Psixofaol moddalarni iste'mol qilishga moyil bo'lgan 11-12 yoshli o'smirlarning jismoniy rivojlanish holati, harakatni muvofiqlashtirish qobiliyati, psixofiziologik va psixomotor fazilatlari va psixoemotsional holati, sport o'yinlarining psixoaktiv moddalardan foydalanishga psixofizik qarshilikni shakllantirishga ijobiy ta'sirini aniqlagan. Individual xususiyatlarni hisobga olgan holda, jismoniy tarbiya va sport yordamida psixofaol moddalarni iste'mol qilishga moyil bo'lgan 11-12 yoshli o'smirlarning psixofizik holatini tuzatish dasturini ishlab chiqqan [5; 17-23].

A.S.Davtyan va A.A.Chatinyanlarning ilmiy ishlarida quyidagi fikrlarni aytib o'tishgan:

1. Mushaklar va ligamentlarning cho'zilishi, ko'karishlar va mushaklar va tendonlarning shikastlanishi eng keng tarqalganligi hamda bu jarohatlar yosh kurashchilardagi jarohatlarning 80% gacha tashkil etishini aniqlagan.

2. Yosh kurashchilarda jarohatlar bilan bog'liq shikaslanishlarning rivojlanish xususiyatlari haqida ma'lumot berib o'tgan:

- kichik jarohatlarning namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlarini quyidagicha izohlaydi: kichik jarohatlarda patologik jarayon asta-sekin rivojlanadi, metabolizmning buzilishi va alohida hujayralar va to'qimalarning guruhlarida sust yallig'lanadi; zarar yetkazuvchi omillarning takroriy ta'siri bilan to'qimalarda nafaqat funksional, balki sezilarli tarkibiy o'zgarishlar sodir bo'lib, tobora kengroq qamrab oladi; rivojlanishning dastlabki davrlarida kichik jarohatlar aseptomatik bo'lib, ko'pincha og'riqsiz yoki boshqa noxush his-tuyg'ulardsiz va faqat keyinroq, keng tarqalgan lezyonlar rivojlanishi bilan aniq belgilar paydo bo'ladi; kichik jarohatlarning asosiy xavfi shundaki, ular jarohatlarning o'tkir og'ir shakllari, ayniqsa davolash qiyin bo'lgan surunkali shakllarning paydo bo'lishiga moyil bo'lgan holatdir.

3. Muntazamlik aniqlandi, unga ko'ra, yosh kurashchi o'smirlilik davrida kichik jarohatlarga qanchalik ko'p duchor bo'lsa, uning sport karyerasi shunchalik qisqaradi.

4. Yosh kurashchilarda travmatizmning yuqori darajasini belgilovchi omillar aniqlandi: o'smirlilik davridagi majburiy mashg'ulotlar natijasida ortiqcha kuchlanish; o'smirlarni kattalar toifasiga o'tkazishda ortiqcha yuklamalardan foydalanish natijasida ortiqcha mashq qilish; tez-tez vazn yo'qotish; musobaqadan oldin majburiy vazn yo'qotish; cheklangan tayyorgarlik muddati bo'lgan mas'uliyatlari musobaqalarda ko'p marta qatnashish; surunkali kasalliklarning tez-tez takrorlanishining mavjudligi; rehabilitatsiya davri yetarli bo'lganligi sababli jarohatlardan keyin og'riqli hodisalar mavjud bo'lganda intensiv mashg'ulotlar o'tkazish.

5. Yosh kurashchilar o'rtaida jarohatlanishning oldini olish uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlarasoslabbirilgan: jarohatlarning oldini olish uchun maxsus jismoniy tayyorgarlikning ilmiy asoslangan usulining mavjudligi; jismoniy tayyorgarligi bir xil darajadagi shaxslarning bir guruhida birlashishi; mashg'ulot rejimining umumiyligi tamoyillariga qat'iy rioya qilish (chastotasi va davomiyligi, tayanch-harakat tizimining turli qismlariga yuklamaning dozasi, turi va boshqalari); jarohatlarning oldini olish uchun kurashchining jismoniy va nevropsik imkoniyatlariga eng mos keladigan maxsus mashqlarni to'g'ri tanlash; bir xil yosh va vazn toifasidagi sportchilarning bir

guruhidagi uyushma; mashg'ulotlar va musobaqalar uchun yaxshi jihozlangan moddiy-texnik bazaning mavjudligi; jarohatlarning oldini olish masalalari bo'yicha murabbiylarning yuqori darajadagi uslubiy tayyorgarligi; yosh polvonlarning tayyorgarlik jarayoni ustidan kundalik tibbiy nazorat; oddiy va oson kurash usullaridan uzoq tayyorgarlikni talab qiluvchi murakkabroq usullarga bosqichma-bosqich o'tish; musobaqalarda va mashg'ulotlar paytida janglar oldidan yaxshilab isinish; mashg'ulotlar paytida yuqori intizomliligi bilan ajralib turadi.

6. Yosh sportchilarni tayyorlashning to'rt bosqichiga: boshlang'ich tayyorgarlik (10-12 yoshli o'smirlar); maxsus tayyorgarlik (13-14 yoshli o'smirlar); chuqur mutaxassislik (15-16 yoshli o'g'il bolalar) va sportni yaxshilash (17-18 yosh). Ro'yxatga olingan bosqichlarning har birida ko'rsatilgan yosh davrlariga mos keladigan o'qitish vositalari, usullari va shakllari taqdim etiladi.

7. Birinchi bosqichda jarohatlarning oldini olish maqsadida yosh kurashchilarining maxsus jismoniy tayyorgarligi mushaklar faoliyatini energiya bilan ta'minlashning aerob va aerob-anaerob mexanizmlarini rivojlantirishga qaratilganligi ko'rsatilgan; ikkinchisida - aerob-anaerob va glikolitik mexanizmlar, shuningdek, bo'g'inlar va umurtqa pog'onasining ligamentli-mushak apparatini mustahkamlash; uchinchisi - anaerob-alaktat (kreatin fosfat) mexanizmi, shuningdek, mushaklar kuchini oshirish va to'qimalarning yukga moslashuvini shakllantirish; to'rtinchidan - kurashga maxsus chidamlilik, mushaklar kuchini oshirish, bo'g'im kapsulalarini, oyoq-qo'l va torsoning ligamentli-mushak apparatlarini mustahkamlash.

8. Jarohatlarning oldini olish uchun maxsus o'quv vositalaridan foydalanish bo'yicha ishlab chiqilgan metodika samaradorligining asosiy ko'rsatkichi sifatida yosh erkin kurashchilarining jismoniy ko'rsatkichlarini baholashning ob'ektiv mezonlari ishlab chiqilgan.

9. Yosh kurashchilarda jarohatlanishning oldini olish va kamaytirish uchun maxsus jismoniy tayyorgarlikning ishlab chiqilgan metodologiyasining ijobiy ta'siri aniqlandi [6;10-15-b].

Y.Tropin va A.Shudaylarning fikriga ko'ra, og'ir vaznli kurashchilarini natjasini yaxshilash borasida quyidagilarni yozgan: Tadqiqotlar natijasida og'ir vazn toifasidagi kurashchilar tomonidan musobaqa faoliyatida qo'llaniladigan asosiy texnik harakatlar o'rganildi va tizimlashtirildi, tayyorgarlikning mashg'ulot usullari aniqlandi, bu tadqiqotning eksperimental qismi uchun eng mos usul va vositalarni aniqlash imkonini berdi.

Boshqa vazn toifalaridagi sportchilarga nisbatan og'ir vazn toifasidagi kurashchilarining raqobat faolligida texnik va taktik tayyorgarlik ko'rsatkichlarining tub farqlari aniqlandi. Og'ir vaznli sportchilarning fiziometrik va somatometrik xususiyatlari aniqlandi va shu asosda texnik va taktik harakatlar komplekslari ishlab chiqildi. Yuqorida aytiganlar bizga og'ir vaznli kurashchilarini musobaqadan oldingi bosqichda tayyorlashning eksperimental metodologiyasini ishlab chiqish va sinab ko'rish imkonini berdi [7; 106-109-b].

Xulosa

11-12 yoshli kurashchilarining jismoniy tayyorgarligi ularning kelajakdagi sport faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Ushbu bosqichda jismoniy sifatlarni har tomonlama rivojlantirish, kurash texnikasini o'rgatish va sog'lom turmush tarzini shakllantirishga e'tibor qaratish lozim. Mashg'ulotlar bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, qiziqarli va xavfsiz tarzda tashkil etilishi kerak.

Har tomonlama rivojlanish: Jismoniy tayyorgarlikning barcha asosiy sifatlari (kuch, tezlik, chidamlilik, egiluvchanlik, chaqqonlik) bir xilda rivojlantirilishi kerak.

Texnik tayyorgarlik bilan uyg'unlik: Jismoniy tayyorgarlik kurash texnikasini o'rganish va takomillashtirish bilan birga olib borilishi kerak.

Yosh xususiyatlarini hisobga olish: Mashg'ulotlar bolalarning yoshiga mos ravishda tuzilishi, zo'riqishlardan saqlanish va dam olishga yetarli vaqt ajratilishi kerak.

Motivatsiya: Bolalarni sportga qiziqtirish, ularning o'ziga ishonchini oshirish va mashg'ulotlarga doimiy ravishda qatnashishga undash muhim.

Sog'lom turmush tarzi: To'g'ri ovqatlanish, yetarli uyqu va dam olish, zararli odatlardan saqlanish jismoniy tayyorgarlikning muhim qismidir.

Ushbu xulosalar 11-12 yoshli kurashchilarining jismoniy tayyorgarligini to'g'ri tashkil etish va ularning sportdagi muvaffaqiyatini ta'minlashga yordam beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Боймуродов И.Х., Каримов Б. Использование метода круговой тренировки в подготовке квалифицированных курашистов /Материалы Межд. научно – практической конференции «Актуальность традиционных видов спорта и игр в защите нации» - Т., 2009, - С.97.
2. Колодезникова М.Г., Колодезников К.С., Сидоров П.И. Планирование тренировочного процесса борцов вольного стиля высокой квалификации на основе анализа соревновательной деятельности // Педагогико-психологические и медико-биологические проблемы физической культуры и спорта. Том 15 №4. Северо-Восточный федеральный университет им. М.К. Аммосова г. Якутск, Россия, 2020. – С.5-12.
3. Подливаев Б.А., Уваров В.П., Рожин Н.Н. Организационно-методические основы подготовки высококвалифицированных борцов. Якутск, 2002.–С. 90. Brown D.B., Mackenzie J.E., Dennis K.K., Cullen R.W. Comparison of body composition technique to determine body fat in high school wrestlers. Journal of Exercise Physiology online. 2006. - С.24-32.
4. Апойко Р.Н. Влияние последних изменений правил соревнований по греко-римской борьбе на спортино-технические показатели соревн - ной деятельности борцов /Р.Н. Апойко, Б.И. Тараканов // Ученые записки Унив-та имени П.Ф. Лесгафта. - 2013. №10. С.17-23.
5. Давтян А.С., А.А. Чатинян Некоторые аспекты совершенствования технической подготовленности юных борцов // Наука и спорт: современные тенденции. 2017. №2. - С.10-15.
6. Brown D.B., Mackenzie J.E., Dennis K.K., Cullen R.W. Comparison of body composition technique to determine body fat in high school wrestlers. Journal of Exercise Physiology online. 2006. - С.24-32.
7. Tropin Y., Shudae, A. Technical and tactical readiness model characteristics in wrestling. Sports Bulletin, 2017. - P. 106-109.

ВАТАНПАРВАРЛИКНИНГ ТАЪРИФИ ВА УНИНГ ТАЪЛИМДАГИ ЎРНИ

Каримова Гавхар Кудратилла қизи,

Profi university “Ёшлар масалалари ва маънавий-марифий ишилар” бўйича проректор,
PhD, доцент

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПАТРИОТИЗМА И ЕГО МЕСТО В ОБРАЗОВАНИИ

Каримова Гавхар Кудратиллаевна,

Проректор по «Молодежной и духовно-просветительской работе» Profi university,
PhD, доцент

DEFINITION OF PATRIOTISM AND ITS PLACE IN EDUCATION

Karimova Gavkhar Kudratillaevna,

Profi University Vice-Rector for «Youth Issues and Spiritual and Educational Affairs», PhD,
Associate Professor

Аннотация. Мақолада ватан ҳақида, ватанпарварлик тушунчасининг таҳлили, унинг таълимдаги моҳияти ва ривожланишининг аҳамияти ва роли таҳлил қилинади. Жадидчилик ҳаракати намояндадарининг Ватан ҳақида сўзларидан иқтибослар келтирилади.

Калит сўзлар. Ватан, ватанпарварлик, таълим, ўлкашунослик, ватанпарварлик туйғуси, ўқитувчи, ўқувчи.

Аннотация. В статье рассматривается тема Родины, анализируется понятие патриотизма, его сущность и значение в воспитании, анализируется роль и развитие патриотизма. Приведены отрывки из высказываний представителей джадидского движения о родине.

Ключевые слова. Родина, патриотизм, образование, краеведение, патриотические чувства, учитель, ученик.

Abstract. The article analyzes the concept of patriotism, its essence and importance in education, and the role of its development. Excerpts from the words of representatives of the Jadid movement about the Motherland are given.

Keywords. Motherland, patriotism, education, regional studies, patriotic feelings, teacher, student

КИРИШ. Ватанпарварлик инсоннинг ўз Ватанига муҳаббати ва уни асраб-авайлашга бўлган интилишини англатади. Ота-боболаримиз, улуғ аждодларимиз ва алломаларимиз Ватанга муҳаббат ва садоқатни ифода этиш борасида ажойиб намуналар кўрсатган.

Абдурауф Фитрат: “Ватан – у менинг жону таним, саждагоҳимдир. У менинг тўлин ойим, тинч-омонлигим, иззатим, шарафим, қаъбам, қиблам ҳамда гулистонимдир”, дейди [4]. Маҳмудхўжа Бехбудий Ватаннинг қадр-қиммати ҳақида шундай ёзади: “Ватан ва аҳли диёрнинг қадри мусофиrotда маълум бўлур. Ҳақиқатан, Ватан муқаддасдир, қадрини билмоқ керак. Сотмасга ва ўлгунча айрилмасга интилмоқ керак” [2]. Донишмандларимизнинг Ватан ҳақидаги ушбу теран фикрлари бугунги кунда ҳам долзарбилигини йўқотмай келмоқда.

«Ватан оstonадан бошланади» деган ибора барча халқларда борлиги ҳам шундан далолат беради. Бизнинг халқимиз ўзи туғилган жойга жуда катта муҳаббат боғлайди. Шунинг учун ҳам улар бошқа жойга кўчишни хоҳлашмайди. Бошқа жойларга кетганда ҳам доимо ўзи туғилган эл-юртидан алоқасини узмай, уни зиёрат қилиб туради. Бу ҳам Ватанга садоқатли бўлишнинг кўринишидир.

Жадидчилик ҳаракати намояндаси Абдулла Авлоний “Туркий гулистон ёхуд ахлок” асарида ёзганидек “Ватан ҳар бир кишининг туғилиб ўсган шаҳар ва мамлакатини шул кишининг ватани дейилар. Ҳар ким туғилган, ўсган жойини жонидан ортиқ суръ. Ҳатто бу ватан ҳис-туйғуси ҳайвонларда ҳам бор. Агар айрилса ўзларидаги каби роҳатда яшамас... Биз туркистонликлар ўз ватанимизни жонимиздан ортиқ суйганимиз каби араблар Арабистонни,

кумлик иссиқ чүлларни, эскимуслар шимол тарафларини, энг совуқ қор ва музлик ерларини бошқа ерлардан зиёда сұярлар. Агар сүймасалар эди, ҳавоси яхши, тириклик осон ерларга үз ватанларини ташлаб ҳижрат құлурлар эди» [3].

Муқаддас Хадиси Шарифда “Ватанни севмоқ иймондантур” дейилган. Бу сүзда чукур хикмат бор. Ватанни севищ, ардоқлаш кишига күч қувват беради, ақл-идрок ато этади, юзини ёруғ қиласы, жасоратларга чорлайды, мәрдликларга ундайды, одамлар, миллатлар, ҳалқларни бирлаштиради.

Ватанни севищ, Ватаним, ҳалқым деб яшаң, она-юртнинг равнақи йўлида ҳалол меҳнат килиш, ўзини қаҳрамонликларга тайёрлаб бориш, ўзи яшаб турган заминни эъзозлаш, унинг бойлигига бойлик гўзаллигига гўзаллик қўшиш, одамларни сева билиш демакдир.

Ўз ватанига чукур муҳаббат ва садоқат сифатида тасвирланган ватанпарварлик мураккаб ва кўп қиррали туйғу бўлиб, жамиятнинг бирлашиши ва миллий ўзига хослиги учун муҳим аҳамиятга эга. Бу шунчаки хис-туйғу эмас, балки қадриятлар, эътиқодлар ва хатти-харакатларнинг йиғиндиси бўлиб, биргаликда миллат барқарорлиги ва фаровонлигига ҳисса қўшади. Замонавий маърифий нутқда ёшларда ватанпарварликни шакллантириш ҳаётий мақсад сифатида кўриб чиқилиб, билимли, масъулиятли ва фаол фуқароларни тарбиялашга каратилган.

МАВЗУГА ОИД АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ

Жадид асарлари асосида ёшларни ватанпарварлик, маърифатпарварлик руҳида тарбиялаш, уларни ватанпарварлик қобилиятларини ривожлантириш, жадидчилик харакатини ўрганиш бўйича С. Қосимов, А. Алиев, С. Аҳмедов, Ш. Ризаев, Н. Тўхлиев, С. Агзамходжаев, З. Абдирашидов ва бошқа кўплаб ватанимиз олимлар томонидан илмий-тадқиқот ишлари олиб борилган.

ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ

Мақоланинг методологияси илмий ва тобора оммалашиб бораётган манбаларни таҳлил килишдан бошлаб, ватанпарварлик тушунчасининг таҳлили, унинг таълимдаги моҳияти ва ривожланишининг аҳамияти ва ролини таҳлил қиласы.

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР

Таълим муассасаларида ватанпарварлик туйғусини тарбиялашнинг аҳамиятини эътироф этиб бўлмайди. Маданий ва миллий чегаралар муттасил қайта белгиланаётган глобаллашиб бораётган дунёда ёшларда миллий ғурур ва масъулият туйғуларини сингдириш бирдамлик ва мақсад туйғусини сақлаб қолиш учун зарурдир. Бундан ташқари, ривожланган ватанпарварлик туйғуси одамларни үз жамоаларига ижобий ҳисса қўшишга, демократик жараёнларда фаол иштирок этишга, үз миллати асос солган қадриятлар ва тамойилларни кўллаб-қувватлашга ундайди.

Ватанпарварлик тушунчасини бир неча жиҳатлар билан тушуниш мумкин:

Хиссий ўлчов: Бу ўз ватанига муҳаббат, ғурур ва садоқат туйғуларини үз ичига олади. У кўпинча байроқ, давлат мадхияси ва тарихий обидалар каби миллий рамзлар орқали намоён бўлади.

Когнитив ўлчов: Бу миллат тарихи, маданияти, қадриятлари ва сиёсий тизими ҳақидаги билимларни үз ичига олади. Яхши маълумотга эга бўлган шахсда чукур ватанпарварлик туйғуси пайдо бўлиши эҳтимоли кўпроқ.

Хулқ-автор ўлчови: ватанпарварлик, шунингдек, фуқаролик бурчларида иштирок этиш, овоз бериш ва жамоат ишларида кўнгилли бўлиш каби ҳаракатларда ҳам намоён бўлади. У умумий фаровонликка интилиш ва демократик жараёнда фаол иштирок этишни үз ичига олади.

Жамият онгига ватанпарварлик деганда үз Ватанига, туғилган жойи ва ҳаётига, яқинларига бўлган муҳаббатга асосланган маънавий ва ижтимоий-маданий тамойил тушунилади.

Ватанпарварлик тушунчаси вақт ўтиши билан ривожланиб борди. Тарихий жиҳатдан у урушлар, инқиlobлар ва мустақиллик учун ҳаракатлар каби муҳим воқеалар туфайли шаклланган. Ушбу тадбирлар кўпинча ватанпарварлик туйғуларининг катализатори бўлиб хизмат қиласы, чунки улар миллат учун қилинган қурбонликлар ва унинг ҳалқини бир-

бирига боғлайдиган қадриятларни таъкидлайди.

Ватанпарварлик ўзига хослик ва тегишлилик каби психологик конструкцияларга асосланади. Ижтимоий ўзига хослик назарияси шуни таъкидлайдики, одамлар ўз-ўзини англашнинг бир қисмини ижтимоий гурухларга, шу жумладан миллатга аъзолигидан олади. Кучли миллий ўзликни англаш ватанпарварлик туйгусини кучайтириши мумкин, чунки одамлар ўз халқининг муваффақиятлари ва муаммоларини ўзларининг муваффақиятлари деб билишади.

Ватанпарварликни тарбиялашнинг самарали педагогикаси кўп қиррали ёндашувни ўз ичига олади:

Ўқув режасини лойиҳалаш: ўқув дастурига миллий тарих, фуқаролик ва маданиятшунослик фанларини интеграция қилиш жуда муҳимдир. Дарсларда халқнинг ютуқлари, қадриятлари ва турли гурухларнинг ҳиссаси таъкидланиши керак.

Тажрибавий ўрганиш: Тарихий жойлар, музейлар ва давлат муассасаларига саёҳатлар талабаларга ўз миллий мероси билан аниқ алоқаларни таъминлаши мумкин. Жамоатчиликка оид лойиҳалар ва миллий тадбирларда иштирок этиш ҳам ватанпарварлик қадриятларини мустаҳкамлайди.

Ўқитувчиларнингроли: Ўқитувчилар ўқувчиларнинг ўзмамлакатигабўлган муносабатини шакллантиришда муҳим рол ўйнайди. Педагоглар ватанпарварлик хулқ-авторини намуна қилиб қўрсатиши, миллий масалалар бўйича муҳокамаларга қўмаклашишлари, ватанпарвар бўлиш нимани англатишини танқидий фикрлашга ундашлари керак.

Ҳамкорликдаги фаолият: Миллий мавзуларга қаратилган гурух лойиҳалари, долзарб воқеалар бўйича баҳслар ва маданий алмашинув дастурлари ёшларга турли нуқтаи назарларни қадрлаш ва бирлик туйгусини ривожлантиришга ёрдам беради.

Медиа ва технологиялар: Миллий ютуқлар, тарихий хужжатли фильмлар ва интерфаол платформаларни намойиш қилиш учун медиа ва технологиялардан фойдаланиш талабаларни жалб қилиши ва ватанпарварлик ҳақидаги билимларни янада фаоллаштириши мумкин.

Ўқитувчининг ватанпарварлик руҳида тарбиялаш соҳасидаги фаолияти – бу ватанпарварлик руҳида тарбиялашнинг шакллари ва усусларининг ватанпарварлик-тегишли фаолиятни ташкил этиш билан оқилона комбинацияси бўлиб, ўқув жараёнининг барча субъектларининг саъй-харакатларини бирлаштириш орқали ёшларнинг ватанпарварлик онгини рағбатлантиради. Ушбу фаолият қўйидаги йўналишларда амалга оширилади: маънавий-ахлоқий, қаҳрамонлик ва ватанпарварлик, тарихий ва ўлкашунослик, фуқаролик ва ватанпарварлик, ижтимоий-ватанпарварлик, ҳарбий-ватанпарварлик, спорт ва ватанпарварлик.

Ёш авлодда ватанпарварлик руҳида тарбиялаш, уларнинг фуқаролик бурчини ва конституциявий бурчларини бажаришга тайёрлиги мамлакатимизда халқнинг маънавий тикланишига ва фуқаролик жамиятини шакллантиришга янги туртки беришга қаратилган.

Ватанпарварлик – бу Ватанга муҳаббат, Ватанга садоқат, унинг манфаатларига хизмат қилиш истаги ва ҳатто фидойилик, уни ҳимоя қилишга тайёрлик. Ватанпарварлик инсон харакатлари ва фаолиятида намоён бўлади. «Кичик Ватан»га бўлган муҳаббатдан келиб чиқадиган ватанпарварлик туйғулари етуклик йўлида бир қатор босқичлардан ўтиб, миллий ватанпарварлик ўзини англашга, ўз Ватанига онгли муҳаббатга қўтирилади.

“Ёшларда жамиятнинг турли тармоқлари, айникса, ҳарбий соҳа билан боғлик бўлган давлат хизмати турларида фаоллик кўрсатиши, Конституция ва ҳарбий бурчга садоқатли бўлиш, уларда ўз юрти ва халқининг тақдирни учун юксак масъулият ҳамда жавобгарлик каби муҳим хусусиятларни мустаҳкамлаш” [1] ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялашнинг мақсади ҳисобланади. Вазифалари эса қўйидагилардан иборат:

- ёшларнинг ҳарбий-ватанпарварлик туйғулари, маънавий сифатлари ва интеллектуал салоҳиятини ривожлантиришга қаратилган тарбиянинг ягона тизимини яратиш;

- ёшларни миллий ғоя ва Ватанга садоқат руҳида тарбиялаш, уларнинг онгу-шуурига Ватан ҳимояси шарафли ва муқаддас бурч эканлигини чуқур сингдириш;

- буюк тарихимиз, улуғ аждодларимизнинг бой маънавий мероси, Жалолиддин Мангуберди, Амир Темур, Захириддин Муҳаммад Бобур каби саркардаларнинг жаҳон

цивилизацияси ҳамда ҳарбий санъат ривожига қўшган ҳиссаларини ёшлар ўртасида кенг тарғиб этиш;

- Ватан озодлиги ва мустақиллиги йўлида жон фидо қилган юртдошларимиз кўрсатган ватанпарварлик ва қаҳрамонлик, улардаги садоқат, фидойилик, матонат ҳамда жасорат каби хислатларни, шунингдек, юрт, оила, ота-она ва фарзандлар химояси халқ ва аждодлар хотираси олдида муқаддас бурч эканини ёшлар онгига сингдириш;

- ёшларда ён-атрофимиз ва жаҳонда рўй бераётган сиёсий-ижтимоий жараёнларга миллий манфаатларимиздан келиб чиқсан ҳолда ёндашиш қўникмаларини, оммавий ахборот воситалари, шу жумладан, Интернет жаҳон ахборот тармоғи орқали тарқатилаётган фаразли ахборотлар, одоб-ахлоқни емирувчи иллатлар, ёшларни залолатга бошловчи бузғунчи ғояларга қарши соғлом дунёқарашни шакллантириш;

- ҳудудларда туркум ҳарбий-ватанпарварлик тадбирлари ҳамда «Жасорат мактаби» номли ҳарбий-ватанпарварлик ўкув йиғинларини ўтказиш орқали ёшлар онгига миллий армиямизга бўлган ишонч ва ҳурматни янада ошириш, ҳарбий хизматни ўташ Ўзбекистон фуқаросининг муқаддас бурчи эканлиги ҳақидаги тушунчаларни мустаҳкамлаш;

- умумтаълим мактабларида чақиравга қадар бошланғич тайёргарлик фани ўқитилишининг сифатини ошириш, ўқув-моддий базани мустаҳкамлашга асосий эътибор қаратиш ҳамда шу орқали ўқувчи ёшларда ҳарбий хизмат, уни ўташнинг ҳуқуқий асосларига оид билимлар ва бошланғич ҳарбий тайёргарлик даражасини ошириш;

- Ўзбекистон манфаатларини нафакат ҳарбий соҳада, балки ҳаётнинг барча жабҳаларида химоя қилишга тайёр туриш, юрт учун фидойи бўлиш — бу бугунги қун талаби эканини ҳаётий мисоллар ва таъсирчан воситалар орқали ёшлар оммасига кенг етказиш;

- ёшларда аждодларимиз ва ота-боболаримизнинг Ватанни химоя қилишга оид анъана ва қадриятларига садоқатли бўлиш хусусиятларини шакллантириш;

- Ватанни химоя қилиш, уни асраш тўғрисидаги замонавий тушунчаларни, дунёқарашни, мазкур масала бўйича шахсий эътиқодни шакллантириш ва мустаҳкамлаб бориш, ёшларни ҳарбий хизматга тайёрлаш, уларнинг маънавий-руҳий тайёргарликларини оширишга ёрдам берувчи таълим-тарбиявий тадбирларни ташкил этиш [1].

Ватанпарварлик руҳида тарбиялаш Ватан қадрини англашдан бошланади. Ватанпарварлик ҳаракатларига қўшилиш орқали билим ва баҳолар ниҳоят ёшларнинг шахсий эътиқодларига айланади ва ватанпарварлик хулқ-авторига интилиш шаклланади. Ватанпарварлик жамиятимизнинг меъёрига айланиши учун замонавий ёшларнинг тарбиясини ўз она юрти тарихи ва у орқали бутун улкан Ватан намуналари асосида қуриш, уларни олдинги авлодлар тажрибаси билан таништириш зарур.

Таълим ва тарбияни ҳаёт билан боғлайдиган энг муҳим воситалардан бири бу тарихий ўлкашуносликдир. Биз ўз минтақамизни, унинг ўтмишини ва бугунги кунини билишимиз керак, чунки унинг ўзгаришида бевосита иштирок этишимиз керак, чунки бизнинг она юртимиз буюк дунёning тирик, фаол қисмидир. Ўлкашунослик ватанпарварлик туйғусини – Ватангча чуқур муҳаббатни вужудга келтиради. Ўлкашунослик ёшларнинг ахлоқий, интеллектуал, эстетик, меҳнат ва шахсий ривожланишида муҳим омил ҳисобланади. Кичик Ватанининг ўтмиши, бугуни ва кутилаётган келажаги, табиатнинг ўзига хос хусусиятлари, иқтисодий, сиёсий, маданий ва бошқа шароитлар билан танишиш ёшларда дунёқарашни шакллантиришга ёрдам беради. Бунга маълум бир миллатга мансублигини англаш ва натижада у билан фахрланиш киради [5].

Ўлкашунослик таълим муассасаси амалиётида амалдаги давлат мажбурий таълим стандартида ва ҳукумат қарорларида белгиланган давлат сиёсати тамойиллари ва таълим мазмунига қўйиладиган умумий талабларни амалга оширишга ёрдам беради.

Ўлкашунослик орқали ватанпарварликни тарбиялаш кўп қиррали ва мураккаб жараён бўлиб, ёшларнинг дунёқарашини кенгайтиради ва когнитив қизиқишлигини ривожлантиради, уларни ижодий фаолият билан таништиради, амалий ва интеллектуал қўникмаларни шакллантиради, касб танлашда ёрдам беради. Ватанни ўрганиш ёшларни қидирув, тадқиқот ва экспедиция ишларига жалб қилиш имконини беради.

Таълим тизими ва шу билан боғлиқ таълим усулларини фаоллаштириш ёшларнинг мустақил изланишларга ва ижтимоий фойдали фаолиятга қизиқишини ривожлантиришга

каратилган. Шу муносабат билан мінтақа тарихининг роли ортиб бормоқда. Маҳаллий тарихни ривожлантиришни рағбатлантириш мінтақавий вазифадир.

«Үлкашунослик таълими нафақат ўз мінтақасынинг ўтмиши ва бугуни, унинг хусусиятлари ва ёдгорликлари ҳақидағи білімларни ўрганиш ва тарқатиши, балқи унинг келажаги, мәданий ва табиий меросини асраб-авайлаш учун самарали ғамхұрлық зарурлигини ривожлантиришни ҳам назарда тутади. Ҳақиқий үлкашунослик ҳар доим у ерда ва үлкашуносликни яхши күради. У авлодлар ва яқын құшниларнинг туб ўзаро муносабатларини ўзіда мужассам этган ва асосан ўз она «юрти» нінг мінтақадаги, умуман мамлакатдаги үрни ҳақидағи ғояни белгилайди» [6].

Ватанпарварлыкнинг маңнавий асосларини тарбиялашда үқитувчи мұхым услугий талабни – үқувчиларга ёрдам берадиган үлкашунослик ишларининг мураккаблигини ёдда тутиши керак:

- кузатиш, фикрлаш ва илмий қизиқышни ривожлантириш;
- шахснінг ақл-заковати ва мәданий даражасини яхшилаш;
- уфқоларингизни ва билимингизни кенгайтириш;
- ижодий фаолият билан шуғулланиш;
- мұстақил ҳаётта психологияк тайёргарлик;
- ахлоқни яхшилаш;
- ўз она юртингизга ва у орқали Ватанга мұхаббатни ривожлантириш.

Ёшларининг үлкашунослик ишлари бир неча босқичда ўтказилиши керак:

* дастурларнинг үлкашунослик мавзулари талабларидан келиб чиқсан ҳолда дарсларда маҳаллий материалларни ўрганиш;

- * мінтақа тарихини ўрганадиган үлкашунослик адабиётларини ўрганиш;
- * архив ҳужжатларини, мәданий ёки табиий тарихий ёдгорликтарни ўрганиш;
- * мактаб экскурсияларини ўтказиш;
- * материалларни қайта ишлаш, тизимлаштириш ва лойиҳалаш, күргазмаларни ташкил этиш;

* мактаб үлкашунослик музейини ташкил этиш;

* үқув жараёнида үлкашунослик материалларидан фойдаланиш.

Ватанпарварлыкни үлкашунослик орқали тарбиялаш педагогик жараённи занжир бўйлаб куришни ўз ичига олади: тушунчалар – билим – кўникма – фаолият. Аввало, үқитувчи ёшларда қўйидагиларни шакллантириши керак:

Тушунчалар: Ватан инсон туғилган жой сифатида, Ватаннинг табиати; она тили; Ватаннинг анъаналари, урф-одатлари; тарих; Ватандош тушунчаси; одамлар ҳаётининг миллий хусусиятлари; кўп миллатли жамиятдаги ҳаётнинг хусусиятлари; интернационализм ахлоқий сифат сифатида; ватанпарварлик Ватанга муносабат сифатида; ватанпарварлик туйғулари; Ватан манфаати учун ҳаракат замонавий инсон ҳаётининг элементи сифатида;

Билим: жамоавий вайндивидуалиш жараёнида талаба «Ватан», «она юрт» тушунчаларини ўзлаштириши, үқувчини ўз она юрти, аждодлари тарихини мұстақил билишга ўргатиш, Ватанга, меҳнатга ва атрофдаги одамларга ўз муносабатини аниқлаш керак;

Кўникмалар: үқувчи таҳлил қилишни, ўйчан үқишини, материални бирлаштиришни, архивларда ишлашни, экскурсия гид кўникмаларини эгаллашни ва мактаб музейида ишлашни ўрганади;

Фаолият қўйидагиларга бўлинади: оммавий, гурух ва индивидуал. Унинг шакллари турлича: юриш, саёҳатлар, экскурсиялар, экспедициялар, мусобақалар, йиғилишлар, акциялар ва ҳоказо. Үлкашунослик ишларининг шакллари ёшларининг идивидуал-психологияк хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда иштирокчиларнинг ёшига қараб тақсимланиши мумкин. Үлкашунослик ишларининг турли шаклларидан фойдаланиш ёшларнинг қадрият йўналишлари ва эътиқодларини шакллантиришга, тарихий ва ҳарбий мавзуларга қизиқышни сақлашга ёрдам беради [5].

Үлкашунослик мактаб фани эмас, бу кичик худудни (кўча, қишлоқ, шаҳар, республика, вилоят), иқтисодий фаолиятни, маҳаллий ахолининг тарихи ва маданиятини ўрганадиган фанлар мажмуасидир. Бу ёшларнинг ватанпарварлик ва фуқаролик позицияларини

тарбиялаш усулларидан биридир.

Маҳаллий тарих – ўтмишдан ҳозирги кунгача келажакка чўзилган боғловчи ип. Бу нафақат мамлакат, минтақа ёки шаҳар ҳаёти ҳақидаги хилма-хил билимлар манбаи, балки олинган билимларни амалда кўллаш учун кенг майдондир.

Ёшларнинг ўлкашунослик соҳасидаги қизиқишиларини ривожлантириш зарурати жамиятнинг ижтимоий тартиби билан боғлиқ; уларнинг ўз она юрти ва унинг энг яхши одамлари ҳақидаги билимлари қанчалик зич, чуқурроқ ва мазмунли бўлса, улар ўз она табиити ва юртига муҳаббат, ўз халқининг урф-одатларини ҳурмат қилиш, ватанпарварликни тарбиялашда шунчалик самарали бўлади.

Ўлкашуносликнинг асосий мақсадларидан бири ёшларни ўз она юртининг ўзига хос табиий ва миллий шароитлари билан танишириш, маданий ва меъморий ёдгорликларни муҳофаза қилишда фаол иштирок этишдир. Ўлкашунослик бўйича тизимлаштириш ва мақсадли ишлаш маҳаллий материалларни тўплаш, уни таҳлил қилиш ва дидактик қайта ишлашни талаб қиласди [6].

Ахлоқий нуқтаи назаридан ватанпарварлик – бу одамларнинг ўз мамлакатига бўлган муносабатини тавсифловчи ижтимоий ва ахлоқий тамойил бўлиб, у маълум бир ҳаракат тарзида ва одатда Ватанга муҳаббат деб аталадиган мураккаб ижтимоий туйғулар тўпламида намоён бўлади. Ватанга муҳаббат қўйидагиларни ўз ичига олади: мамлакат манфаатлари ва тарихий тақдирларига ғамхўрлик қилиш ва бунинг учун ўзини қурбон қилишга тайёр бўлиш; Ватанга содиклик, душманларга қарши курашиш; ўз мамлакатининг ижтимоий ва маданий ютуқлари билан фахрланиш, халқ азобларига ҳамдардлик ва ижтимоий иллатларга салбий муносабат; Ватаннинг тарихий ўтмишига ва ундан мерос бўлиб қолган анъаналарга ҳурмат; яшаш жойига боғланиш.

Аммо ватанпарварлик инсонни тор миллий манфаатлари йўлида чеклаш билан ҳеч қандай алоқаси йўқ. Ҳақиқий ватанпарварлик инсонпарварлик хусусиятига эга бўлиб, бошқа халқлар ва мамлакатларга, уларнинг миллий урф-одатлари ва анъаналарига, мустақиллигига ҳурматни ўз ичига олади ва миллатлараро муносабатлар маданияти билан узвий боғлиқдир. Агар бу муносабатлар шаклланса, улар инсоннинг ахлоқий ривожланишида катта аҳамиятга эга бўлиб, турли халқлар ва мамлакатлар ўртасидаги хайриҳоҳ ва дўстона алоқаларни сақлашга, ҳар бир инсон онгига жамият жараёнида умуминсоний қадриятлар ва идеалларнинг катта аҳамиятини тушунишга ёрдам беради. Шу маънода ватанпарварлик ва миллатлараро муносабатлар маданияти бир-бири билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, органик бирлиқда ҳаракат қиласди ва шахснинг ахлоқий аҳамиятини белгилайди.

«Ватанпарварлик» ва «фуқаролик» тушунчалари ёшларнинг ўзига, оиласига, жамоасига, она юртига, Ватанига, ер сайёрасига нисбатан ҳуқуқ ва бурчларини ривожлантириш ва амалга оширишни назарда тутади. Бу масалалар нафақат фалсафий, ижтимоий ва иқтисодий, балки соф педагогик ҳамдир. Фаол ёшлар ва ўз Ватанининг ватанпарварини тарбиялаш муҳимдир.

Фуқаролика «фуқаро - давлат», инсон - жамият «даражасидаги муносабатлар киради. Фуқарони, ватанпарварни шакллантиришда, аввало, уни инсон сифатида қўришимиз керак. Шунинг учун, педагогик нуқтаи назардан, фуқаро асл шахс, маънавий, ахлоқий ва ҳуқуқий бурч бирлиги бўлган шахсdir. Ёшларнинг ўзини оиласининг бир қисми, Ватани, фуқароси ва ватанпарвари сифатида тушуниш мумкин.

Ватанпарварлик ўзининг чуқур ҳиссий, когнитив ва хулқ-атвор жиҳатларига эга бўлиб, миллатнинг ўзига хослиги ва бирлигини шакллантиришда ҳал қилувчи рол ўйнайди. Ватанпарварликни шакллантириш ўз-ўзидан пайдо бўладиган жараён эмас, балки атайлаб ва стратегик педагогик аралашувни талаб қиласди. Тадқиқотда таъқидланганидек, самарали ватанпарварлик таълими турли элементларни, жумладан ўқув дастурларини ишлаб чиқиш, тажрибавий ўрганиш, ўқитувчиларнинг таъсирчан роли ва оммавий ахборот воситалари ва технологияларни жалб қилишни ўз ичига олади.

Миллий тарихни ўрганиш, фуқаролик фаолиятида иштирок этиш ва маданий меросни нишонлашни ўз ичига олган комплекс ёндашув орқали педагоглар ўқувчиларда чуқур ва бардавом ватанпарварлик туйғусини тарбиялаши мумкин. Тажрибали ўрганиш имкониятлари, масалан, тарихий жойларга саёҳатлар ва жамиятга хизмат кўрсатиш

лойихалари мамлакатнинг ўтмиши ва бугуни билан аниқ алоқаларни таъминлайди, фуқаролик қадриятлари ва масъулиятини мустаҳкамлайди.

Бу жараёнда педагогларнинг роли катта. Ўқитувчилар ватанпарварлик хулқ-авторини моделлаштиришлари, миллий муаммолар бўйича танқидий муҳокамаларга ёрдам беришлари ва турли нуқтаи назарлар қадрланадиган инклузив муҳитни яратишлари керак. Ушбу инклузив ёндашув, айниқса, турли гуруҳлар ватанпарварликни турлича талқин қилишлари мумкин бўлган кўп маданиятли жамиятларда муҳимдир. Ягона миллний ўзликни тарғиб қилиш билан бирга бу истиқболларни мувозанатлаш мураккаб, аммо муҳим вазифадир.

Глобаллашуввасиёсийбетарафлик билан боғлиқ муаммолар гарамай, ватанпарварликни тарбиялашнинг аҳамияти ҳали ҳам камаймайди. Ўқитувчилар партиявий мағкураларга эмас, балки умумий қадриятлар ва демократик тамойилларга ургу бериш орқали ушбу муаммоларни ҳал қилишлари керак. Бу орқали улар ватанпарварликни қамраб оловчи, мулоҳаза юритувчи ва фаол шаклда тарбиялашлари мумкин.

ХУЛОСА. Ҳулоса қилиб айтганда, ватанпарварлик руҳида тарбиялаш фаол, масъулиятли ва ҳамжиҳат фуқароларни шакллантиришнинг муҳим таркибий қисмидир. Ўйланган ва яхлит педагогик ёндашувни қўллаш орқали ўқитувчилар ўз ватанига бўлган муҳаббат ва садоқатни оддий ҳис-туйғулардан устун турадиган ва мазмунли ҳаракатларга айлантира оладилар. Бу эса, ўз навбатида, миллат барқарорлиги, фаровонлиги ва ҳамжиҳатлигига хизмат қиласи, келажак авлодлар ўз мамлакати барпо этаётган қадриятлар ва тамойилларни асраб-авайлаш ва ривожлантиришга тайёр бўлишини таъминлайди.

Ватанпарварлик ва тарбия бўйича давом этаётган мулоқот ватанпарварлик руҳида тарбиялаш стратегияларини такомиллаштириш ва ривожлантиришга қаратилган доимий изланишлар ва амалий амалиёт билан давом этиши керак. Ҳар томонлама ва чукур сингдирилган ватанпарварлик туйғусини тарбиялаш орқали биз нафақат ўз мероси билан фахрланадиган, балки уни доимий равишда такомиллаштириш ва фаровонлигини таъминлашга интилувчи жамият қуришимиз мумкин.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

2023 — 2027 йилларда ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш ишлари самарадорлигини ошириш концепцияси, Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 29 июндаги 267-сон қарорига 1-илова. www.lex.uz

Беҳбудий М. Миллатлар қандай тараққий этарлар? // Самарқанд газетаси, 1913, 30 июль.

Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Ёшлар нашриёт уйи, Тошкент, 2018, 28 бет

Мадаева С.О. Абдурауф Фитратнинг ижтимоий-фалсафий қарашлари: филология фанлари номзоди диссертацияси. Фанлар.: - Т.: 1995. -158 п.

Горбова М.А. Патриотическое воспитание средствами краеведения. М.: «Глобус», 2007. – С. 208, 211-214.

Краеведение – это всегда краеведение // <http://his.1september.ru/2004/22/4/htm/> - С.1.

XIZMAT ITLARIDA FIZIOLOGIK OMILLAR ASOSIDA ZARURIY KO'NIKMLARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Karimjonova Munavvar Ibragimovna

Bojxona instituti "Iqtisodiy va ijtimoiy fanlar" kafedrasi professori v.b., p.f.d. (DSc), dotsent,
bojxona xizmati polkovnigi

Annotatsiya: Ushbu maqolada, O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish organlarida faoliyat olib borayotgan kinolog xodimlar tomonidan o'zlariga biriktirilgan xizmat itlarida umumbo 'ysunuvchanlik va tegishli maxsus yo'nalishga oid ko'nikmalarini shakllantirish hamda real sharoitlarda qo'llashga shuningdek, xizmat itlarini turli yo'nalishlar bo'yicha tayyorlashda ularning fiziologik asoslarini o'rGANISHGA OID ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: xizmat itlari, maxsus yo'nalish, innovatsion texnologiyalar, it zotlari, xizmat kinologiyasi, davolash kinologiyasi, sport kinologiyasi, xulq-atvor, zoopsixologiya, irsiyat, veterinariya va genetika.

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ НЕОБХОДИМЫХ НАВЫКОВ У СЛУЖЕВЫХ СОБАК НА ОСНОВЕ ФИЗИОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ

Karimjonova Munavvar Ibragimovna

Профессор кафедры «Экономических и социальных наук» Таможенного института,
доктор педагогических наук, доцент, полковник таможенной службы

Аннотация: В статье освещены научные предложения и практические рекомендации, связанные с дрессировкой служебных собак по разным направлениям, а также изучение их физиологических основ при дрессировке служебных собак разных направлений.

Ключевые слова: служебные собаки, специализация, инновационные технологии, породы собак, служебные собаки, лечебные собаки, спортивные собаки, поведение, зоонихология, наследственность, ветеринарная медицина и генетика.

METHODOLOGY FOR FORMING NECESSARY SKILLS IN SERVICE DOGS BASED ON PHYSIOLOGICAL FACTORS

Karimzhonova Munavvar Ibragimovna

Professor of the Department of Economic and Social Sciences of the Customs Institute,
Doctor of Pedagogical Sciences, Associate Professor, Colonel of the Customs Service

Abstract: This article discusses the dog training programs of the law enforcement agencies of the Republic of Uzbekistan the scientific proposal and practical recommendations related to the formation of general obedience and special skills in service dogs and their application in real conditions, as well as the study of their physiological bases in the training of service dogs in different directions.

Key words: service dogs, specialization, innovative technologies, birth dogs, service dogs, therapy dogs, sports dogs, behavior, zoopsychology, heredity, veterinary medicine and genetics.

Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi.
Tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan bo'ladi.
Farobiy

Кириш. Bugungi kunda mamlakatimizda kinologiya sohasini rivojlantirishga qaratilgan tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida kinologiya sohasida xizmat itlarini maxsus yo'nalishga tayyorlash va o'quv-o'rgatuv jarayonlariga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo'llash hamda kinologlarni tayyorlashda ilg'or xorijiy tajribalarga oid ilmiy-tadqiqot ishlarni olib borishni taqozo etmoqda.

O'tgan yillarga nazar solib anglashimiz mumkinki, keng ko'lamlı islohotlarning guvohi bo'ldik. Har bir sohadagi o'zgarish, tatbiq etilgan zamonaviy amaliyotlar, loyihalar, inson

farovonligi va uning qadr-qimmatini oshirishga qaratilgan manzilli chora-tadbirlarning barchasi amalga oshirlganligiga amin bo‘ldik.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasidagi belgilangan vazifalarni amalga oshirishda bojxona omilining ahamiyati, ayniqsa, import o‘rnini bosuvchi va eksportga yo‘naltirilgan zamonaliviy ishlab chiqarishlarni iqtisodiy dastaklar asosida rag‘batllantirish, samarali tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish

va erkinlashtirish, davlat byudjeti tushumlari ya’ni bojxona to‘lovlarini o‘z vaqtida undirilishini ta’minalash, mamlakatimiz ichki bozorini har tomonlama himoyalash, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minalash va O‘zbekistonning xalqaro nufuzini oshirish kabilarda namoyon bo‘ladi[1].

Xizmat itlariga bo‘lgan e’tibor kuchaya borib, itboqarlarni, itsevarlarni, xizmat itlari bilan shug‘ullanuvchilarni birlashtiruvchi “Vatanparvar” deb atalmish (avvalgi nomi “DOSAAF”) uyushmalar va tashkilotlar paydo bo‘la boshlagan. Xizmat itlaridan foydalanishga e’tiborni kuchayishida, takomillashishida

va rivojlanishida chegara qismlarida tashkil topgan pitomniklarning o‘rni ham katta ahamiyat kasb etgan[8].

Hozirgi kunda xizmat itlaridan foydalanish yo‘nalishlari juda kengaygan bo‘lib, chunonchi davlat chegarasini dahlsizligini ta’minalashda, o‘ta muhim obyektlarni qo‘riqlashda, jinoyatchilikka qarshi kurashda, jinoyatchilikni oldini olishda, jinoyatchini qidirishda, ularni ushlashda, qo‘riqlashda, qo‘riqlab borishda, giyohvand vositalarni aniqlashda va qidirib topishda, terrorizmga qarshi kurashda va terroristik aktlarga taa’luqli bo‘lgan boshqa turdag, xatti-harakatlarni oldini olishda va hokazolarda ulardan samarali foydalanib kelinmoqda.

Bu borada mamlakatimizda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimi faoliyatida xizmat itlaridan samarali foydalanish borasida bir qator normativ huquqiy hujjalarni qabul qilingan va dolzarb masalalarni amalga oshirish vazifalari belgilangan. Jumladan, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlarining kinologiya bo‘linmalari faoliyati samaradorligini yanada oshiris hamda Milliy kinologiya markazi Jahon bojxona tashkilotining mintaqaviy kinologiya markazi maqomiga ega bo‘lib, shartnoma asosida kinologlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlar kinologiya xizmatlari uchun xizmat itlarini tanlash, sotib olish, ko‘paytirish va parvarishlash, o‘rgatish huquqiga ega ekanligi bois malakali kinologlar tayyorlash va xizmat itlarini giyohvandlik vositalari, quroq-yarog‘, o‘qdori, portlovchi moddalar, valyuta qimmatliklarini qidirib topish, shuningdek, qidiruv-qutqaruv, himoya-qorovul,

iz qidiruv xizmati, terrorchilikka qarshi va boshqa operatsiyalarda ishtirok etish yo‘nalishlari bo‘yicha tayyorlash kabi muhim vazifalar belgilangan[3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Yer yuzasida inson zoti paydo bo‘lgan vaqtidan boshlab, inson qo‘liga o‘rgatilgan ilk hayvon-jonivor bu it hisoblanadi. O‘sha vaqtidan shu kunga qadar it insonga xizmat qilib kelmoqda. Itlar insonlarni yovuz hayvonot olamidan saqlagan, ular yemish va kiyim topishda, yerning sovuq joylarida ulov vazifasini o‘tab, inson taraqqiyotida katta ahamiyatni kasb etgan. Keyinchalik inson taraqqiyoti jarayonida itlardan chorva podalari va otarlarni, uy-joylarni qo‘riqlashda, yo‘qolgan, bedarak ketgan insonlarni qidirishda, cho‘kayotganlarni qutqarishda

va boshqa harbiy ishlarda foydalanilgan.

Itlarning qayerdan kelib chiqqani haligacha noma’lum. Ayrim olimlar tomonidan itlarni shag‘oldan paydo bo‘lganligi bo‘yicha ham tahminlar bor. Bunga sabab o‘sha davr sharoitlarida shag‘ollarning bosh qismi itlarga o‘xshab ketganligi bo‘yicha ma’lumotlar bo‘lgan. Shu bois, asoslangan holda ular “Insonlarning chiqindilari va qolgan ovqatlarini yeb odamga yaqinlasha borgan” - degan fikrni ham ilgari surilgan.

Ayrim olimlar bu nazariyaga qarshi o‘laroq, ya’ni ularning fikricha itlar tabiatda shag‘ollar bilan chatishmasligini ta’kidlashgan. Lekin sun‘iy chatishtirish mumkin deb olimlar tomonidan nazariyalar qilib kelinmoqda. Polintologlar itni koyot (chiya bo‘ridan) kelib chiqqan deb

hisoblashadi, chunki qoni o‘xshab ketar ekan. Bir xil olimlar aytishicha it bo‘ridan paydo bo‘lgan kabi taxminlar mavjud.

XIX asrning o‘rtalariga kelib zamonaviy zotga ega bo‘lgan xizmat itlari yetishtirish boshlandi. Ulardan yordamchi vosita sifatida foydalanilgan (soqchilik, qarovul va boshqa xizmat turlari, sanitar, patronlarni tashuvchi, aloqachi, pochtalon (xat va yuk tashuvchi) itlar paydo bo‘ldi), itlar askarlarga katta yordam bergen.

Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, revolyusiyadan oldingi Rossiyada

1881-yilga qadar maxsus tayinlangan mahalliy politsiya boshliqlari jinoyat qidiruv vazifasini bajarishgan. 1881-yilda Moskva qidiruv politsiya boshlig‘iga bo‘ysunuvchi qidiruv politsiyasi tashkil etilgan. G‘arbiy Yevropa mamlakatlaridan bir oz keyinroq, ya’ni 1903-yilda Rossiya Imperiyasi armiyasi va politsiya faoliyatiga jinoyatchilarni qidirish uchun xizmat itlari joriy etilgan.

O‘zbekistonda xizmat itlariga asosan 1911-yildan boshlab e’tibor berila boshlangan. Bunga sabab chegaralarni, sarhadlarni himoya qilish, qo‘riqlash hamda jazoni ijro etish joylarida xizmat itlarining afzallik tomonlariga bo‘lgan e’tibor

va ehtiyoj bo‘lgan. O‘sha vaqtarda ilk bor itboqarlar, itsevarlar klublari paydo bo‘la boshlagan. Keyinchalik xizmat itlarini tayyorlash bo‘yicha markaziy o‘quv malaka oshiruv pitomniklari tashkil qilinib, ularda harbiy va sport itlari yetishtirilgan, keyinchalik (Toshkent shahrida) xizmat itlari bilan shug‘ullanuvchi

“Markaziy harbiy maktab” tashkil qilingan, undan keyin viloyatlarda ham mакtab pitomniklar tuzila boshlagan[9].

Itlarning qayerdan kelib chiqqani haligacha noma’lum. Bir xil olimlar itlarni shag‘oldan paydo bo‘lganligi bo‘yicha tahminlarni ta’kidlashb kelmoqdalar.

Bunga sabab o‘tgan davr va sharoitlar shuni ko‘rsatadiki, shag‘ollarning bosh qismi itlarga juda o‘xshab ketganligi bois ushbu fikrlar mavjud.

Ushbu ma’lumotlarga asoslangan holda ular “Insonlarning chiqindilari va qolgan ovqatlarini yeb odamga yaqinlasha borgan” - degan fikrni ilgari surishadi.

Ayrim olimlar tomonidan bu nazariyaga qarshi chiqilgan, ya’ni ularning fikricha itlar tabiatda shag‘ollar bilan chatishmasligini ilmiy asoslashga harakat qilingan. Lekin sun‘iy chatishtirish mumkin degan nazariyani ilgari surgan. Polintologlar itni koyot (chiya bo‘ridan) kelib chiqqan deb hisoblamoqda, bunga sabab ularning qoni juda o‘xshash bolganligini keltirish mumkin bo‘ladi.

Shuningdek, ayrim olimlarning ko‘plab kuzatish va tahlillariga ko‘ra itlar bo‘ri zotiga yaqin va undan paydo bo‘lganligini taxmin qilib kelishmoqda.

Shu bois, xizmat itlarini kelib chiqishi va ularning zotlarini paydo bo‘lishi hamda ularni o‘rgatishda e’tibor qaratish muhim bo‘lgan omillar bo‘yicha bir qator olimlarning fikrini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi (1-jadval).

Mavzuga taalluqli masalalarning ayrim jihatlari turli davrlarda xorijlik tadqiqotchilarning mavzu mohiyatiga oid yondashuvlari

T/R	Mualliflar	Mavzuga oid adabiyot mualliflarining talqini
1.	M.E.Frederik fon Shtefanis	“Nemis ovcharkalari Jamiyati”da ilk bora nemis ovcharkasi zotini yaratishida yangi standartlari qabul qilinishi va ular zotlarini takomillashtirish borasida ulkan hissa qo’shgan
2.	I.P.Pavlov L.V.Krushinskiy	Itlarni o’rgatish va tayyorlash borasida ularning zotlari hamda ularning biologik tuzilishi va asab tizimlarining muhim jihatlari o’rganilgan
3.	K.Chistyakov	Xizmat itlarini tarbiyalash va boshqarishga o’rgatish usullarida it zotlarini to’g’ri tanlash masalalari o’rganilgan
4.	Don Silviya-Stasiyevich Larri Key	Kinologlarni tayyorlashda kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish masalalarida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan

Bugungi kunda mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng barcha sohalarda tub ijobiy o‘zgarishlar olib borilmoqda. Mana shunday sohalaridan biri kinologiyadir. Kinologiya qadimgi yunon so‘zi bo‘lib, “kynos” - it va “logos”

- ilm, fan degan ma’noni anglatadi[8].

Demak, kinologiya itlarning paydo bo‘lish tarixi, zotlari, tuzilishi, hatti-harakatlari, oly nerv sistemasi, eksteryeri (tashqi tuzilishi), anatomiyasi, fiziologiyasi hamda ularni to’g’ri parvarishlash va ovqatlantirishni o’rganuvchi fandir. Boshqa sohalar ichida bu yo‘nalish nisbatan yosh bo‘lganligi bois, hali ushbu sohada bir ishlar amalga oshirilishi lozim.

O‘zbekistonda kinologiya xizmatining shakllanishiga Turonzaminda istiqomat qilgan xalqlar chorvachilik bilan shug‘ullaniganligi bois, chorva mollarini qo‘riqlash, nazorat qilish va boqish uchun xonaki itlarga katta ehtiyoj tug‘ilgan. Ko‘p asrlik chatishirishlar natijasida xalq orasida cho‘pon it zoti paydo bo‘lgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Mavzuni ilmiy o‘rganish, tarixiy-mantiqiylik, tahlil va tadqiq etish jarayonida tizimli tahlil, statistik tahlil va ilmiy abstraksiya kabi usullaridan foydalanilgan. Maqolada, O‘zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish organlari kinolog xodimlar o‘zlariga biriktirilgan xizmat itlarida umumbo‘ysunuvchanlik va tegishli maxsus yo‘nalishga oid ko‘nikmalarini shakllantirish hamda real sharoitlarda qo‘llashga oid ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalar berildi.

Tahlil va natijalar

Yer yuzasida inson zoti paydo bo‘lgan vaqtidan boshlab, inson qo‘liga o‘rgatilgan ilk hayvon-jonivor bu it hisoblanadi. O‘sha vaqtidan shu kunga qadar


it insonga xizmat qilib kelmoqda. Itlar insonlarni yovuz hayvonot olamidan saqlagan, ular yemish va kiyim topishda, yerning sovuq joylarida ulov vazifasini o‘tab, inson taraqqiyotida katta ahamiyatni kasb etgan. Keyinchalik inson taraqqiyoti jarayonida itlardan chorva podalari va otarlarni, uy-joylarni qo‘riqlashda, yo‘qolgan, bedarak ketgan insonlarni qidirishda, cho‘kayotganlarni qutqarishda va boshqa harbiy ishlarda foydalanilgan.

Ta’kidlash joizki, dunyo yaratilibdiki, unda insonlar va ko‘p turdag'i hayvonot olami-jonzotlar birgalikda yashaydi va hamohang tarzda o‘zaro aloqada bo‘ladi. Hayvonot olami Yer yuzidagi hayotning ajralmas qismidir. Millionlab yillar davomida turli xil jonzotlar evolyutsiyasi natijasida bugungi kunda biz ko‘rib turgan xilma-xil turlar shakllangan. Jonzotlar orasida insonlarning eng do‘sti, vafodor va beminat xizmatchi sifatida itlar har qanday jamiyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda xizmat itlaridan foydalanish yo‘nalishlari juda kengaygan bo‘lib, chunonchi davlat chegarasini dahlsizligini ta’minlashda, o‘ta muhim obyektlarni qo‘riqlashda, jinoyatchilikka qarshi kurashda, jinoyatchilikni oldini olishda, jinoyatchini qidirishda, ularni ushslashda, qo‘riqlashda, qo‘riqlab borishda, giyohvand vositalarni aniqlashda va qidirib topishda, terrorizmga qarshi kurashda

va terroristik aktlarga taa’luqli bo‘lgan boshqa turdag'i, xatti-harakatlarni oldini olishda va hokazolarda ulardan samarali foydalanilmogda.

Jumladan, kinologiya - itlarni o‘rganish va ulardan foydalanish bo‘yicha fan sohasi bo‘lib, quyidagi asc



1-rasm. Kinologiya sohasini fan sifatida rivojlanish turlari

Bugungi kunda dunyoda xizmat itlarini tayyorlash borasida bir qator yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda (2-rasm).

Xizmat itlarida olib borilayotgan



Itlarning genetikasi va naslchiligi ustida tadqiqotlar

Itlarning xulq-atvori va psixologiyasini o'rganish

Ilmiy-tadqiqot yo'nalishlari



Yangi zot itlarni yaratish bo'yicha seleksiya ishlari

Xizmat itlarini maxsus yo'nalishga tayyorlash va boshqarishga o'rgatishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash

2-rasm. Xizmat itlarida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot yo'nalishlari

Bugungi kunda xizmat itlarini huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati yoki bo'lmasam boshqa sohalar faoliyati yo'nalishiga tayyorlashda ularning fiziologik asoslarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu omillarni o'rganish har bir kinolog uchun obyektiv zaruriyat bo'lib ularni umumiy hamda maxsus mashq kurslariga o'rgatishning asosi bo'lib hizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, itlar tabiatining fiziologik asoslari - ularning hayot jarayonlari, yashash faoliyatlar davomida yuzaga chiquvchi turli hatti harakatlariga asos bo'lgan psixologik omillar, ya'ni - instinctlar, reflekslar,

xulq – atvorlarini boshqaruvchi reaksiyalari va oliv asab faoliyatlarini ta'riflaridan iborat. Zoopsixologiya, irsiyat, veterinariya va genetika bo'yicha mutaxassis olimlarning olib borgan ko'p yillik ilmiy ishlari, tajribalari, ixtirolari va izlanishlari natijasida, tabiatda itlarning yashash tarzları, ularning turli xatti - harakatlariga asos bo'luvchi xar hil omillar va ularning fiziologik asoslari atroficha o'rganilib chiqilgan. Bu ma'lumotlar itlarni o'rganish, ularni tushunish, ular bilan muloqot qilishda odamlarga katta yordam berib, turli jabhalarda ular bilan birga faoliyat olib borishda foydalanish uchun mustahkam asos yaratadi.

Ma'lumki bosh miya tabiatda eng murakkab tarkiblaridan biridir.

Agar odamda evolyutsiya natijasida fikrlash qobiliyati rivojlangan bo'lsa,

u holda hayvonlarda ham idrok qilishga o'xshash biror jarayon yuz bergan bo'lishi kerak. Ilgari ba'zi fiziologlar instinctlar va reflekslarning murakkab uyg'unlikda faoliyat yuritishi - hayvonlarning fikrlash jarayonidir – deb taxmin qilishgan.

Biroq ko'pchilik tajribalarning xulosalari bu sxemaga mos kelmasligi o'z tasdig'ini topgan[7].

Fanda barcha umurtqali hayvonlarning toki baliqdan tortib, maymungacha

– odamning oliv darajadagi abstrakt (mavxum) fikrlash imkonini beruvchi nutqiy xotirasidan tashqari, barcha turdag'i: - obrazli, emotsional, shartli – reflektiv xotiralari mavjudligi isbotlangan.

XX asrning 30 yillarida amerikalik veterinar L.F.Uitni turli zotlarga tegishli bo'lgan itlardagi nasldan o'tuvchi bir qator irsiy xususiyatlarni ajratib ularning keyingi avlodlarga qanday o'tishini ta'riflab o'tgan. U o'z izlanishlarida faqatgina Mendel qonunlariga asoslanib ish yuritgan bo'lib, natijada ba'zi ishlariga e'tirozlar bo'lishi mumkin (alohida xususiyatlarning nasldan naslga o'tishining ba'zi parametrlari boshqa qonunlar asosida tahlil qilinadi), biroq uni teoriyasining bir qadar xolatlari o'z tasdig'ini topib kelmoqda.

Itlardagi ovoz bilan ta'qib qilish, ovozsiz jim xolatda quvish odatidan ustun keladi. Ammo ko'p xollarda, uzun cho'zilgan ovoz chiqarish odati, qisqa uzilgan xurish shakliga o'zgarib ketadi.

Iskovuch itlardagi yuqori sezgi odati, tozilardagi qui sezgidan (iskovuchlar hidni xavodan, tozilar esa yerdan oladi) ustun turadi.

Ba'zi axloqiy faktorlar to'g'ridan to'g'ri naslga o'tadi, masalan:
ko'rish (chopqir itlar) yoki sezgi (tozilar) vositasida ov qilish;
o'lja oldida qotib turish odatining bor – yo'qligi;
alohida mustaqil yoki to'da tarkibida ov qilish;
podani yig'ish maxoratining bor – yo'qligi.

O'quv-o'rgatuv jarayonida va tajribalar shuni ko'rsatdiki, aksariyat kinologlarda agar egasi itni biror narsaga o'rgatgan bo'lsa, uning bolalarida ham shunday ko'nikmalar mavjud bo'lishi mumkin – degan ishonch paydo bo'ldi. Biroq bunday ishonch paydo bo'lishiga ayrim sabablar mavjud bo'lib to'liq ishonish mumkin emas, sababi turli zotlardagi hamma itlarni shaksiz o'rgatish lozim. Garchand xar bir it zotining, albatta o'ziga xos ahloqiy xususiyatlari mavjud bo'lsa ham ularni tajribali kinologlar yordamida ko'zlangan maqsadga erishish va maxsus vazifalarni bajarish uchun bosqichma-bosqich o'quv-o'rgatuv jarayonida mustahkam shug'ullanishni taqozo etadi.

Xulosa va takliflar. Mutaxassis kinologlar oldiga qo'yilgan asosiy maqsad, ya'ni xizmat itlarida ko'nikmalarni hosil qilish usullarini chuqur va mukammal egallashlari, kunning istalgan vaqtida, turli vaziyatlarda va turli xildagi e'tiborni chalg'ituvchi, holatlar bo'lganda ham xizmat iti o'rgatuvchi tomonidan berilgan komandalarni ovoz

va qo'l harakatlari orqali bexato bajarishiga erishishlari, bunda xizmat itlarini o'rgatish uslubi va texnikasiga qat'iy rioya qilishlari lozim.

It o'rgatishning muvaffaqiyati mutaxassis kinologning itga ta'sir qila bilishiga bog'liq, bu o'rgatuvchi sifatida tayyorgarlik darajasi va unga biriktirilgan itga munosabatiga bog'liq.

Avvalambor mutaxassis kinolog o'z ishini yaxshi ko'rib, qiziqishi kerak.

Har qaysi mutaxassis kinolog og'ir-bosiq, jasoratli, ziyrak, jur'atli, o'ziga
va itga nisbatan talabchan, maqsadiga yetishda qaytmas va chidamli bo'lishi maqsadga muvofiq.

O'z ishini boshlashdan avval mutaxassis kinolog nazariy jihatdan zarur bilimlarni mukammal o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Metodik va texnik tajribasi

it bilan amaliy ishlar jarayonida bosqichma - bosqich egallab borishi zarur.

It o'rgatishda mutaxassis kinolog doim o'z itini xulqining xususiyatlarini o'rganib borishi kerak. Mutaxassis kinolog it bilan bo'ladigan muloqotda o'zining harakatlarini oldindan o'yab qo'yishi va rejalashtirishi maqsadga muvofiq

va ishida izchil bo'lishi kerak. Itda biron shartli refleksni ishlab chiqarish uchun ta'sirni o'tkazishni va qaysi izchillikda bu usulni ko'rishni rejalashtiriib qo'yishi kerak.

Butun amaliy mashg'ulotlar davomida o'rgatuvchi itning ishga bo'lgan qiziquvchanligini asrab qolishi kerak, ya'ni kinologning hamma ta'sirlariga it faol javob qaytarishi lozim.

It o'rgatish paytida mutaxassis kinolog asablanmasligi kerak.

O'zining shaxsiy xafagarchiliklarini itga o'tkazish mumkin emas. It o'rgatishdagi kamchiliklariga ham o'zining emotsiyonal holatini bildirmasligi kerak.

Bu kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etishga harakat qilish kerak.

Foydalilanigan adabiyotlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sون Farmoni, 2022-yil 28-yanvar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston -2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sон Farmoni, 2023-yil 11-sentyabr.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil

9-sentyabrdagi "Ichki ishlar organlari kinologiya xizmatlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 750-sон Qarori.

O'bekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil

19-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining O'Milliy kinologiya markazi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 1029-sон Qarori.

5. O'zbekiston Respublikasi IIV MOMB Maxsus tayyorgarlik o'quv markazi katta instruktor-o'qituvchisi U.T.Umarov tomonidan tayyorlangan "Xizmat itini iz-qidiruv faoliyatini "buyum-tanlash" bosqichiga tayyorlash" bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2019-yil.
6. O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona qo'mitasi Milliy kinologiya markazi. "Kinologiya asoslari", "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2016.
7. T.Abdualimov., M.Xasanov va boshq. Hududiy bojxona boshqarmalarida xizmat olib borayotgan kichik inspektor-kinologlar uchun xizmat itlarini qo'llash bo'yicha. Uslubiy qo'llanma. Toshkent-2020-yil. Davlat bojxona qo'mitasining Milliy kinologiya markazi.
8. M.Karimjonova. Monografiya. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarda xizmat itlarini maxsus yo'nalishga tayyorlashda innovatsion texnologiyalarni qo'llash metodologiyasini takomillashtirish masalalari. 2023-yil.
9. F.Qahhorov., Karimjonova va boshqalar. Turli vaziyatlarda xizmat itlarini tezkor hamda to'g'ri qo'llash uslubiyoti. O'quv qo'llanma. Toshkent:- 2023 -yil.
10. M.I.Karimjonova, S.I.Mamatqulovalar tomonidan "Xizmat itlarida fiziologik omillar asosida zaruriy ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi" nomli o'quv qo'llanma. Toshkent:- 2025 -yil.

KONSTRUKTOR-ELEKTON KURSI MARKAZIDA SHAXS TURGAN INFORMATIKA TA'LIMINI AMALGA OSHIRISH VOSITASI SIFATIDA

Kilichev Nurilla Abbosovich,
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Talabalarni zamonaviy hayotning murakkab sharoitlarida mustaqil qaror qabul qilish va o'zgarishlarga tez javob bera olishga tayyorlash alohida ahamiyat kasb etib bormoqda.

Konstruktor-elektron o'quv kursi deganda o'qituvchi va ta'lif oluvchilarning uzlusiz subyekt-obyekt o'zaro ta'sirida o'qitish modelini, modullarni o'r ganishning tartibi va muddatlarini variativ tanlash hisobiga talabaning individual o'quv yo'l xaritasini qurish imkoniyatiga ega ta'lif jarayonini modulli tashkil qilinishni ta'minlaydigan didaktik elementlar majmuini tushunamiz. Mazkur maqolada ana shular haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so'zlar: axborot, texnologiyalar, konstruktor, elektron, bilish, mustaqil, rivojlanish, tamoyil, tavsif, talaba, shaxs.

КУРС КОНСТРУКТОРА-ЭЛЕКТРОНИКА ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ ПО ИНФОРМАТИКЕ

Kilichev Nurilla Abbosovich,
Karshinский государственный технический университет

Аннотация. Особое значение приобретает подготовка учащихся к самостоятельному принятию решений и быстрому реагированию на изменения в сложных условиях современной жизни. Под конструкторско-электронным учебным курсом понимается модель обучения в непрерывном предметно-объектном взаимодействии учителя и обучающихся, совокупность дидактических элементов, обеспечивающих модульную организацию образовательного процесса с возможностью построения индивидуальной учебной дорожной карты учащегося за счет вариативного выбора порядка и сроков изучения модулей. Об этом говорится в данной статье.

Ключевые слова: информация, технология, конструктор, электронный, знания, самостоятельность, развитие, принцип, описание, ученик, личность.

THE COURSE OF THE DESIGNER-ELECTRONICS FOR ADVANCED TRAINING IN COMPUTER SCIENCE

Kilichev Nurilla Abbosovich
Qarshi State Technical University

Annotation. Of particular importance is the preparation of students for independent decision-making and quick response to changes in the complex conditions of modern life. By the constructor-e-learning course, we understand the model of teaching in the continuous subject-object interaction of teachers and educators, a set of didactic elements that provide a modular organization of the educational process, with the possibility of building an individual educational road map of the student at the expense of variative selection of the procedure and duration of learning modules. This article reflects on these.

Keywords: information, technology, constructor, electron, knowledge, independent, development, principle, description, student, person.

Kirish: Elektron ta'lif resurslari va ta'lif texnologiyalari pedagog didaktik vositalarini jiddiy ravishda kengaytiradi. Bunda o'qituvchi va talabalar o'rtasida onlayn va offlayn o'zaro ta'sirini amalga oshirish imkoniyati paydo bo'ladi. Biroq elektron ta'lif o'qitishning elektron metodikalarning mazmunga oid va protsessual elementlarining egiluvchanlik va moslashuv darajasi pastligi sababli talabalar afzal ko'rgan narsalari va talablarini to'la qondirishga imkon bermaydi. Mustaqil ta'lif faoliyatida esa elektron kurslar kam samara beradi, chunki ta'lif oluvchining psixofiziologik va kognitiv qobiliyatlarini deyarli hisobga olmaydi.

Markazida shaxs turgan va kognitiv yondashuvlar g'oyasini, shuningdek nochiziqli ta'lif

asoslarini amalga oshirish talaba uchun qulay ta’lim formatiga o‘zgarishi mumkin bo‘lgan kursni qurishni talab qiladi.

Zamonaviy kompyuter vositalari, portal va bulutli texnologiyalar o‘quvchilarni ta’limning yangi shakllari va modellari bo‘yicha o‘qitish imkonini beradi. Nazarimizda, konstruktor-elektron kursi sharoitida markazida shaxs turgan talabalar ta’limini tashkil qilishda ta’lim talablari va didaktik imtiyozlarni maksimal daraja qondirish mumkin.

Informatika fanidan konstruktor-elektron o‘quv kursi modul shaklida qurilgan, chunki «... modulli o‘qitishning mohiyati ta’lim oluvchi unga taklif qilingan, tarkibida harakatlar maqsadli dasturi, axborot banki va qo‘yilgan didaktik maqsadlarga erishish bo‘yicha metodik qo‘llanma bo‘lgan, individual o‘quv dasturi bilan mustaqilroq yoki butunlay mustaqil tarzda ishlashi mumkinligidan iborat»[1,72].

Adabiyotlar tahlili.

Gumanistik yo‘nalish pedagogi Karl Rojers tomonidan ishlab chiqilgan g‘oyalar pedagogik amaliyotda “markazida shaxs turgan ta’lim” sifatida ta’riflangan. Biroq rus tilida “markazida shaxs turgan ta’lim” atamasi o‘rniga ko‘p hollarda “shaxsga yo‘naltirilgan” ta’lim atamasidan foydalanildi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda ta’lim oluvchi ta’limiy o‘zaro ta’sirning subyekti emas, balki pedagogik ta’sir obyekti hisoblanadi, bunda o‘qituvchining barcha harakatlari har bir ta’lim oluvchi imkoniyatlarini o‘rganish hamda uning jamiyatda kelajakda bajaradigan funksiyalariga qaratilgan. Bunday ta’limda o‘zaro so‘zlashuv (dialog), individual ta’lim trayektoriyasini erkin tanlash haqida gap ketmaydi, hammasi o‘qituvchining ta’lim oluvchiga nima kerakligini yaxshiroq bilishiga bog‘liq bo‘lib qoladi.

Markazida shaxs turgan ta’lim esa shaxs atrofida quriladi va so‘zlashuv (dialog) ta’lim jarayonining to‘la huquqli subyektlari o‘rtasida kechadi. O‘qituvchi ta’lim oluvchini ta’lim jarayonida pedagogik kuzatuv orqali olib boriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Konstruktor-kursini tashkil qilish modelini yaratish uchun biz tizimning tuzilishi va funksiyalarini, shuningdek ushbu funksiyalar tomonidan qayta quriladigan (tuziladigan) axborot oqimlari va moddiy obyektlarni aks ettiradigan IDEF0 (Integration Definition Metodology / Metodologik Tushunchalarning Birlashuvi) funksional modellashtirish metodologiyasidan foydalandik.

IDEF0 funksional modellashtirish metodologiyasi – bu tizimni yaxlit, o‘zaro bog‘liq harakatlar yoki funksiyalar to‘plami sifatida tavsiflash texnologiyasıdir.

Konstruktor-kursining funksional modeli diagrammalar (kontekstli diagramma va dekompozitsiyalar diagrammasi) iyerarxik tuzilishini ifodalaydi, unda tizim o‘zaro ta’sirda bo‘lgan ishlar va funksiyalar majmui sifatida ko‘riladi. Tizimning konseptual modeli konstruktor-kursi foydalanuvchilari pretsedentlarining ishlab chiqilgan diagrammalari asosida ishlab chiqiladi. IDEF0 metodologiyasining maqsadi tizim faoliyatini bir xil ma’noda modellashtirish uchun yetarli aniqlik bilan barcha zarur jarayonlarni tavsiflab beradigan tadqiq qilinayotgan tizimni tashkil qilish modelini qurishdan iborat [2,86].

Tahlil va natijalar.

Konstruktor-kursi modullardan iborat, ularning har biri tugallangan blok bo‘lib, ularning ichida ta’limning turli shakllari va turlari taqdim qilingan. Modullar mustaqil bilish faoliyati mantig‘i nuqtai nazaridan ishlab chiqiladi. Har bir modullning mazmuni strukturaviy-mantiqiy shaklda taqdim qilingan, u o‘quv materialini ta’limning ma’lum va tarqalgan, masalan, konsentrik, loyihamiy yoki parallel usullaridan foydalanib o‘rganishga moslashgan.

To‘g‘ri loyihalashtirilgan, o‘rganilayotgan fan modullaridan iborat bo‘lgan o‘quv konstruktor-kursi nafaqat bilimlarni uzatishi, balki tajriba yaratishi mumkin. Ichiga qurilgan trenajyorlar, simulyatsiyalar va o‘yinlar ta’lim oluvchilarga kursning o‘zidayoq yangi bilimlarni sinab ko‘rish, mashq qilish, xatolarni tuzatishga yordam beradi. Har bir modul uchun o‘z ta’limiy maqsadlari va rejalashtirilgan ta’lim natijalari belgilangan. O‘quv konstruktor-kursini loyihalash ta’lim oluvchilar ehtiyojlari va qiziqishlarini tushunishga qurilgan.

Konstruktor-kursi modelini loyihalash uchun biz tomonidan CASE- vosita BPwin tanlangan, u faoliyatning turli jihatlarini, qilinadigan harakatlarni, ularni amalga oshirish usullari va talab

qilinadigan resurslarni hujjatlashtirish imkonini beradi.

Konstruktor-kursini tashkil qilish modelini yaratish uchun biz tizimning tuzilishi va funksiyalarini, shuningdek ushbu funksiyalar tomonidan qayta quriladigan (tuziladigan) axborot oqimlari va moddiy obyektlarni aks ettiradigan IDEF0 (Integration Definition Metodology / Metodologik Tushunchalarning Birlashuvi) funksional modellashtirish metodologiyasidan foydalandik.

IDEF0 funksional modellashtirish metodologiyasi – bu tizimni yaxlit, o‘zaro bog‘liq harakatlar yoki funksiyalar to‘plami sifatida tavsiflash texnologiyasidir.

Konstruktor-kursining funksional modeli diagrammalar (kontekstli diagramma va dekompozitsiyalar diagrammasi) iyerarxik tuzilishini ifodalaydi, unda tizim o‘zaro ta’sirda bo‘lgan ishlar va funksiyalar majmui sifatida ko‘riladi. Tizimning konseptual modeli konstruktor-kursi foydalanuvchilari pretsedentlarining ishlab chiqilgan diagrammalari asosida ishlab chiqiladi. IDEF0 metodologiyasining maqsadi tizim faoliyatini bir xil ma’noda modellashtirish uchun yetarli aniqlik bilan barcha zarur jarayonlarni tavsiflab beradigan tadqiq qilinayotgan tizimni tashkil qilish modelini qurishdan iborat [3,122].

«Informatika» faning ishchi dasturi va ATM vositalari yordamida mazkur fanni o‘qitishning ishlab chiqilgan metodikasi asosida o‘qituvchi konstruktor-elektron kursini ishlab chiqadi (7-rasm), talabani o‘qitish undan foydalangan holda loyihalashtirilgan individual yo‘l xaritasi bo‘yicha amalga oshiriladi. Konstruktor-elektron kursini yaratishning mavjud texnologiyasi talabaga zarur bo‘lgan ta’lim modelini tanlash imkonini beradi, shuningdek ta’lim jarayonini olib borishning ma’ruza, laboratoriya va mustaqil ishlar, tadqiqotchilik loyihalar kabi barcha shakllarining amal qilishini ta’minlaydi.

Konstruktor-elektron kursi asosida ta’limni tashkil qilish quyidagi algoritm bo‘yicha kechadi:

Pedagog tomonidan o‘rganilayotgan fanning modellarini aniqlash, mavzular sonini aniqlash, mavzular o‘rtasidagi aloqalarni aniqlash, mazmunni to‘ldirish, nazorat usullarini aniqlash, metodik tavsiyalarni ishlab chiqishni o‘z ichiga olgan fanning konstruktor-elektron o‘quv kursining yaratilishi;

konstruktor-elektron o‘quv kursi va barcha meyoriy hujjatlar haqida to‘liq ma’lumotni o‘z ichiga olgan konstruktor-elektron o‘quv kursini o‘quv jarayoniga joriy qilish ;

ta’lim jarayonida konstruktor-elektron o‘quv kursidan foydalanish fan bo‘yicha tayyorlanganlikning dastlabki darajasini aniqlash imkonini beradigan talabalarni dastlabki (kirish) testlash va talabaning o‘qituvchi bilan birgalikda testlash natijalari asosida o‘zining ta’lim individual yo‘l xaritasini konstruksiyalashi, shuningdek tanlangan modullar va mavzularni bajarishning vaqt doirasini o‘z ichiga olgan individual ish rejasini tuzishdan iborat.

Konstruktor-kursi loyihalashtirilgan talaba individual yo‘l xaritasi bo‘yicha o‘qitiladi:

talaba konstruktor-elektron o‘quv kursini mustaqil o‘tishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

talabaning individual yo‘l xaritasini o‘zlashtirish jarayonida individual rejaga o‘zgartirishlar kiritish imkoniyatini ta’minalash.

Yakuniy testlash tanlangan yo‘lni o‘tish darajasini aniqlash va keyingi harakatlarni rejalashtirish imkonini beradi.

Ta’lim jarayonini rejalashtirish, talabaning tanlangan individual yo‘l xaritasi bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirishini uzluksiz nazorat qilish va o‘quv jarayoni barcha ishtiokchilarining kommunikatsion o‘zaro ta’sirini o‘z vaqtida amalga oshirish imkonyaiti taqdim qilingan.

Xulosa. O‘quv kursining an’anaviy qurilishi o‘quv fanlarini o‘qitishning klassik metodik tizimlari doirasida amalga oshiriladi.

Bunda maqsadlar va beriladigan ta’lim natijalariga bog‘liq ravishda o‘qituvchilar kurs mazmunini mualliflik tanlov usullari, ta’lim mazmunini strukturalash va to‘ldirishga muvofiq quradilar. Bu qoidaga ko‘ra, kurs o‘qituvchisining subyektiv, ekspert yondashuvi hisoblanadi.

Bunday tartib asosida talaba ta’limini individuallashtirish deyarli mumkin emas, bunda o‘qituvchi ta’lim oluvchilar butun guruhi uchun ta’lim usullari yoki yondashuvlarining bittasi bilan cheklanishga majbur.

Elektron kursning qurilishi talabalarning markazida shaxs turgan ta’limini amalga oshirish uchun ko‘proq afzalliklar va imkoniyatlarga ega.

P.A.Yusyavichenening modulli ta’limni tashkil qilishga bag‘ishlangan ishida OTM sharoitida

modulli ta'lim asoslari batafsil ishlab chiqilgan. Uning fikricha, shuningdek bir qator boshqa tadqiqotchilar fikriga ko'ra, modulda topshiriq, ish, darslarga qatnashish, talabalar o'qitilganligining dastlabki, oraliq va yakuniy darajasi kabi barcha narsalar o'lchanishi va baholanishi kerak.

N. V. Borisova, T.YE. Zligosteva, A.V. Morozov, D.V. Chernilevskiyar modul deganda «... didaktik maqsadlarni, o'quv materialining mantiqiy tugallangan birligini, metodik qo'llanma va nazorat tizimini o'z ichiga olgan o'quv fanining mustaqil tashkiliy-metodik tuzilishini» tushunadilar.

Modullik tamoyilini amalga oshirish uchun biz konstruktor-kursini, P. A Yusyavichene nuqtai nazariga tayangan holda, quramiz [4.161].

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Алексеева Т. Е. Реализация традиционных дидактических принципов в условиях информатизации образования / Т. Е. Алексеева // СИСП. – 2015. – № 5 (49). – С. 393-405.

Мультимедиа в образовании : специализированный учебный курс /Бент Б. Андресен, Катя ван ден Бринк ; авторизованный пер. с англ. — 2-е изд., испр. и доп. — М. : Дрофа, 2007. 224 с.

Петрова И.А. Организация самостоятельной работы студентов в личностно-центрированной информационно-образовательной среде вуза //Современные научноемкие технологии. – 2016. – № 2-3. – С. 552-556; URL: <https://www.top-technologies.ru/ru/article/view?id=35672>

Полат Е. С. Современные педагогические и информационные технологии в системе образования : учеб. пособие для студ. вузов / Е. С. Полат, М. Ю. Бухаркина. – 2-е изд., стер. – М: Академия, 2008. – 368 с.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TAYYORLASH JARAYONIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Musurmonova Gulsevar Olimjon qizi
Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqola bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayoniga qo'yiladigan talablarni tahlil qilinib, o'qituvchilarining kasbiy va shaxsiy malakalarini rivojlantirishga qaratilgan asosiy tamoyillarni, shaxsiy psixologik va kommunikativ ko'nikmalar, innovatsion pedagogik metodlarni qo'llash, axborot texnologiyalaridan foydalanish, shuningdek, ijtimoiy kompetensiyalar va doimiy malaka oshirish jarayonining zarurligi haqida so'z yuritiladi. Maqolada shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan uslublar va yondashuvlar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy ta'lim va tarbiya, ilmiy tadqiqot faoliyati, kommunikativ ko'nikma, empatiya, differensial ta'lim, kolloborativ ta'lim.

REQUIREMENTS FOR THE PROCESS OF PREPARING FUTURE TEACHERS

Musurmonova Gulsevar Olimjon qizi
2nd year master's student of the Shahrisabz State Pedagogical Institute

Annotation. This article analyzes the requirements for the process of preparing future teachers, focusing on the key principles aimed at developing teachers' professional and personal competencies, including psychological and communication skills, the use of innovative pedagogical methods, the application of information technologies, as well as the necessity of social competencies and continuous professional development. The article also discusses the approaches and methods required to ensure a high level of professional preparedness for future teachers.

Keywords: professional education and training, scientific research activity, communication skill, empathy, differential education, collaborative learning.

ТРЕБОВАНИЯ К ПРОЦЕССУ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Мусурмонова Гульсевар Олимжон кызы

Студент 2 курса магистратуры Шахрисабзского государственного педагогического института

Аннотация. В данной статье анализируются требования к процессу подготовки будущих учителей, внимание уделяется основным принципам, направленным на развитие профессиональных и личных компетенций учителей, включая психологические и коммуникативные навыки, использование инновационных педагогических методов, применение информационных технологий, а также необходимость социальных компетенций и постоянного повышения квалификации. В статье также рассматриваются подходы и методы, необходимые для обеспечения высокого уровня профессиональной подготовки будущих учителей.

Ключевые слова: профессиональное образование и воспитание, научно-исследовательская деятельность, коммуникативные навыки, эмпатия, дифференцированное обучение, коллaborативное обучение.

O'zbekistonda ta'lim tizimi islohotlarni amalga oshirish jarayonida shaxsning har tomonlama kamol topishi, yoshlarning samarali ta'lim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Hozirgi kunda texnika va texnologiyaning kun sayin rivojlanib borishi, bilimlarning tezlik bilan yangilanishi bo'lajak mutaxassislarni zamonaviy sharoitlarga moslashish ko'nikmasiga ega bo'lishi hamda yangi bilimlarga intilishini talab etadi. Kompetensiya o'z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, o'z amaliy faoliyatida qo'llashni talab qiladi. Kompetensiya egasi bo'lgan mutaxassis muammolarni yechishda o'zi o'zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo'lgan metodlarni

tanlab olib qo'llashi, to'g'ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko'z bilan qarashi kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchini tayyorlash jarayoniga kompetensiyaviy yondashuv o'ziga xos xususiyatlarining ifodalaniishi bilan namoyon bo'ladi. O'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllanishi uzoq davom etuvchi jarayon bo'lib, uni quyidagi bir necha bosqichga ajratish mumkin:

- 1) umumkasbiy va ixtisoslik bilimlari asoslarini o'zlashtirish;
- 2) o'zlashtirilgan nazariy bilimlarning amaliy-laboratoriya mashg'ulotlari, shuningdek, pedagogik amaliyot jarayonida amaliy ko'nikma va malakalarini shakllanishiga erishish;
- 3) ta'lim muassasalarida ta'lim faoliyatini olib borish davrida o'z ustida mustakil ishlash, ijodiy izlanish asosida umumkasbiy va ixtisoslik bilimlarini takomillashtirish;
- 4) pedagoglarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari yoki fakultetlarida ta'lim olish yordamida ta'lim jarayonini samarali tashkil etishning zamonaviy metodik va texnologik yondashuvlari moxiyatdan tushunish mumkin. Bugungi ta'lim jarayonida aynan bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish orqali ta'lim sifatini oshirish mumkin. Ta'lim amaliyotida kasbiy kompetentlikni rivojlanishini amalga oshiradigan texnologiyalarni ishlab chiqarish ta'limni modernizatsiya qilishning eng zarur vazifalaridan biri bo'lmog'i darkor.

O'qituvchilik kasbi kasblarning murakkab turiga mansub bo'lib u ko'p mutaxassisliklarni o'z ichiga oladi. Bo'lajak o'qituvchi pedagogik faoliyatning quyidagi turlariga tayyor bo'lishi kerak;

kasbiy ta'lim va tarbiya ;

ishlab kasbiy ta'lim va tarbiya chiqarishga oid pedagogik faoliyat,

o'quv-metodik ishlari ,

tashkilotchilik va boshqaruv faoliyati,

ilmiy-tadqiqot faoliyati,

madaniy ma'rifiy ishlari kabilardir.

O'qituvchilik kasbi nafaqat pedagogik bilimlarni egallash, balki ijtimoiy va psixologik kompetensiyalarni rivojlantirishni talab qiladi. Shunday ekan, bo'lajak o'qituvchilarga qo'yiladigan talablar keng ko'lamli bo'lib, ularning kasbiy malakasini, shaxsiy fazilatlarini va innovatsion fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida birinchi navbatda pedagogik va faniy bilimlar asosiy o'rin tutadi. O'qituvchi o'ziga berilgan predmet bo'yicha chuqur bilimlarga ega bo'lishi kerak. Bu bilimlar quyidagi yo'nalishlarga bo'linadi:

Bo'lajak filologlarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda pedagoglarning roli. Pedagogik metodikalarning samaradorligi puxta tayyorgarlik ko'rgan, nazariy bilimlarni amaliy qo'llash bilan uzviy bog'lay oladigan pedagoglarga bog'liq. Loughran fikriga ko'ra, «reflektiv o'qitish amaliyoti o'qituvchilarga talabalarning o'zgaruvchan ehtiyojlarini qondirish uchun o'z metodologiyalarini doimiy ravishda takomillashtirishga imkon beradi ». Bu, ayniqsa, til o'rgatish nazariy ta'lim va real hayot o'rtasidagi muvozanatni talab qiladigan filologlar uchun dolzarbdir. Bundan tashqari, o'qituvchilar qiziquvchanlik va intellektual o'sishni rag'batlantiradigan o'quv muhitini yaratishi kerak. Freire ta'kidlaganidek, «ta'lim talabalar va o'qituvchilar birgalikda bilimlarni qurish uchun mazmunli munozaralarga kirishadigan dialogik jarayon bo'lishi kerak ». Ushbu tamoyil filologik ta'limda asosiy bo'lib, matn va tillarni talqin qilish interfaol va reflektiv pedagogik yondashuvlardan foyda oladi.

Filologlarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi muammolar

Filologlarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida bir qator muammolar va to'siqlar mavjud bo'lishi mumkin. Bu muammolar tizimli, metodik, shaxsiy yoki tashqi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Quyida filologlarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi asosiy muammolar keltirilgan:

Texnologik moslashuv - Raqamli vositalarning tez evolyutsiyasi o'quv dasturlari va o'qitish metodologiyasini doimiy yangilashni talab qiladi.

Fanlararo integratsiya - tilshunoslik nazariyasi, adabiyotshunoslik va pedagogika o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish muammo bo'lib qolmoqda.

Amaliy ta'lim imkoniyatlari - Ko'pgina ta'lim dasturlarida etarli stajirovka va real amaliyot imkoniyatlari mavjud emas.

Nazariya va amaliyotni muvozanatlash - talabalarning nazariy bilim va amaliy tajribaga ega bo'lishini ta'minlash innovatsion o'quv rejasini ishlab chiqishni talab qiladi.

Filologlarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi muammolar ko'p jihatli bo'lib, ularni hal qilish uchun tizimli yondashuv, ta'lim tizimini yangilash, zamonaviy metodlarni joriy etish va resurslarni ko'paytirish zarur. Bu muammolarni bartaraf etish orqali bo'lajak filologlarning kasbiy mahorati va raqobatbardoshligini oshirish mumkin.

Filologiya ta'limining istiqboldagi yo'nalishlari

Ushbu muammolarni hal qilish uchun kelajakdagagi tadqiqotlar quyidagilarga qaratilishi kerak:

An'anaviy pedagogikani raqamli yutuqlar bilan birlashtirgan gibridda ta'lim modellarini ishlab chiqish.

Tilshunoslari, o'qituvchilar va texnologiya mutaxassislari o'rtasidagi fanlararo hamkorlikni oshirish.

Amaliyot, chet elda o'qish dasturlari va ilmiy hamkorlik kabi tajribaviy o'rghanish imkoniyatlarini kengaytirish.

Pedagoglarni kompetensiyaga asoslangan ta'limning zamonaviy pedagogik strategiyalari bilan jihozlash uchun o'qituvchilar malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish.

Xulosa. Bo'lajak filologlarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish umumiy pedagogika faniga asoslangan tizimli uslubiy yondashuvni talab qiladi. Talabalarga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaga asoslangan ta'lim, raqamli vositalar va tadqiqotga yo'naltirilgan pedagogikani integratsiyalashgan holda o'qituvchilar filologlarni o'z kasbining talablariga samarali tayyorlashlari mumkin. Mavjud muammolarni hal qilish va o'qitishning innovatsion uslublarini qo'llash raqamli davrda filologik ta'limning rolini yanada kuchaytiradi.

Foydalaniman adabiyotlar ro'yhati

No'monxonova Muattarxon Nosirxon Qizi. Bo'lajak tilshunoslarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda axborot texnologiyalarining samaradorligi. "Kasb-hunar ta'limi" Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal, 2023-yil, 8-son B 52-56.

No'monxonova M. N. Pedagogikada professional kompetentsiyani Shakllantirish uchun sun'iy intellekt bo'yicha takomillashtirilgan o'quv dasturini ishlab chiqish. «Муғаллим хәм үзлиқсиз билимләндирүй» илимий-методикалық журнал // Нөкис 2024, 6-сан.

Axmedova M. Pedagogik kompetentlik //uslubiy qo'llanma.-T.: Nizomiy nomidagi TDPU. – 2018.

Kozulin A. The concept of activity in Soviet psychology: Vygotsky, his disciples and critics //American psychologist. – 1986. – T. 41. – №. 3. – C. 264.

Shulman L. S. Assessment for teaching: An initiative for the profession //The Phi Delta Kappan. – 1987. – T. 69. – №. 1. – C. 38-44.

Zimring F. Carl Rogers //Prospects. – 1994. – T. 24. – №. 3/4. – C. 411-422.

Winterton, Jonathan. Competence-based vocational and professional education. Ed. Martin Mulder. Dordrecht, the Netherlands: Springer, 2017.

Warschauer, Mark. Technology and social inclusion: Rethinking the digital divide. MIT press, 2004.

Bruffee K. A. Binge drinking as a substitute for a 'community of learning' //The Chronicle of Higher Education. – 1999. – T. 45. – №. 22. – C. B8-B8.

Swales, John M. Genre analysis. Cambridge university press, 1990.

Loughran J. A response to 'Reflecting on the self' //Reflective Practice. – 2006. – T. 7. – №. 1. – C. 43-53.

Freire P. The adult literacy process as cultural action for freedom //Harvard educational review. – 1970. – T. 40. – №. 2. – C. 205-225

ERKIN KURASHCHILARNING TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA MUSOBAQA SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Qayumov Xalillillo Mavlon o‘g‘li.

*O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Xalqaro kurash turlari nazariyasiga
va uslubiyati kafedrasi katta o‘qituvchisi*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БОРЦОВ ВОЛЬНОГО СТИЛЯ И ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОРЕВНОВАНИЙ

Каюмов Халилилло Мавлонович

*Преподаватель кафедры теории и методики международной борьбы Узбекского
государственного университета физического воспитания и спорта*

*Anotatsiya. Maqolada erkin kurash usullaridan foydalangan holda erkin kurashchilarni
texnik-taktik harakatlarga o‘rgatish metodikasi asoslab berilgan.*

*Kalit so‘zlar: maxsus jismoniy tayyorgarlik, texnik-taktik tayyorgarlik, qarshi xujum
xarakatlari.*

*Аннотация. В статье обоснована методика обучения борцов вольного стиля технико-
тактическим действиям с использованием приемов вольной борьбы.*

*Ключевые слова: специальная физическая подготовка, техникотактическая подготовка,
контратакующие действия.*

Ishning dolzarbligi. O‘zbekistonda sport va jismoniy ma’daniyatni rivojlantirish va
ommalashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Mustaqillik yillarda mamlakatimizda professional
sportchilar, murabbiylar, va hakamlar tayyorlashning samarali tizimi yaratildi. Ushbu
maqsadlarning amalga oshirilishi xar tomonlama sog’lom turmush tarzini keng targ’ib qilish, xar
tomonlama rivojlangan yoshlarni tarbiyalash, respublikada jismoniy tarbiya va sportni yanada
rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-maydagi PF-5114-son —Paralimpiya
harakatini rivojlantirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida, 2021-yil 5-noyabrdagi
PF-5279-son —Sport ta‘limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya
sport turlari bo‘yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari
to‘g‘risida va 2021-yil 5-noyabrdagi PF-5281-son —2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo‘lib
o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o‘ynilariga O‘zbekiston sportchilarini
kompleks tayyorlash to‘g‘risidagi Farmonlar, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining
2022-yil 14-oktyabrdagi VMQ-599-son

Davlatimiz bayrog‘ini sharaflı himoya qilayotgan yosh o‘g‘il-qizlar, vakillik forumlarida
ajoyib tayyorgarlik va ajoyib maxorat namoyish etib, boy sport an‘analariga ega mamlakat
vakili ekanliklarini bemalol tasdiqlaydilar. Amalga oshiririlayotgan chora-tadbirlar natijalari
sport bilan shug‘ullanayotgan va turli xalqaro turnirlarda sovrinli o‘rnlarni qo‘lga kiritayotgan
yurtdoshlarimiz sonining ko‘payishida namoyon bo‘lmoqda.

Dunyoda turli xalqlar hayotida avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan, sihat-salomatlik, ta‘lim-
tarbiya, mehnat, mudofaa sohalariga xizmat qilayotgan erkin kurash bugungi kunda yanada
ommalashib bormoqda. Erkin kurash sport turi bugungi kunda mazkur malakali sportchilar
tayyorlash amaliyotida texnik-taktik, jismoniy va psixofunktional tayyorgarlik bilan bog‘liq
barcha muammolar o‘z yechimini topgan, deb bo‘lmaydi. Ma‘lumki, har bir sport turi o‘ziga xos
xususiyatlar bilan farqlanadi. Erkin kurashning boshqa kurash turlaridan keskin farqlanadigan
joyi shundaki, ushbu kurash turida qol, oyoq va tananing barcha azolaridan ushslash holatida
kechadi. Bunda texnik-taktik mahorat deganda yuqori toifadagi turli erkin kurashchilarga xos
bo‘lgan harakatlarni bajarishning asosiy qonuniyatları, tamoyillari tushuniladi.

Tadqiqotning maqsadi: Bir yillik tayyorgarlik jarayonida musobaqa faoliyati ko‘rsatkichlarni
e’tiborga olgan holda, erkin kurashchilarni texnik-taktik tayyorgarliklarini rivojlantirish usulini
ishlab chiqish.

Tadqiqot tashkil etish usullari: Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlili, pedagogik kuzatuvlar, anketa so‘rovnomasni, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, hamda tadqiqot natijalarini matematik-statistik tahlil qilish kabi usullardan foydalilanilgan. kurashchilarining mashg‘ulot jarayonlari va musobaqa faoliyatini tuzilishi.

Tadqiqot natijalari va ular muhokamasi. : Odadta, musobaqa tizimini tanlashning me’yori sifatida, asosan, sport natijalari xizmat qiladi. Turli nazorat bellashuvlariga kelsak, ular quyidagicha: tayyorlov davrida – bellashuvlar murakkabligining ortib borish darajasini hisobga olgan holda; musobaqalashuv davrida – kurashchining tayyorgarlik darajasiga bog‘liq holda; o‘tish davrida – yuklamaning kamayib borish darajasini hisobga olgan holda rejalashtiriladi. Bellashuv shart-sharoitlariga moslashish reaksiyalarini o‘zlashtirish katta ahamiyatga ega hamda u ko‘p vaqtini oladi va talab qiladi. Bu aniq vujudga kelayotgan vaziyatda kurashchi o‘zining zahirasida mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarining hammasidan ham foydalana olmasligi bilan tushuntiriladi. erkin kurashchilarining texnik-taktik tayyorgarliklarini tekshirish uchun bir qator pedagogik tajribalar amalga oshirildi. Tadqiqot erkin kurashchilarini mashg‘ulot jarayonida texnik-taktik xujumlarni o‘rganish, bajarish va ularni mustaxkamlab olish usullariga o‘rgatish uchun ajratilgan soatlar hajmi doirasida 45% gacha oshirish, shuningdek, musobaqa faoliyati xususiyatlarini aniqlashtirishga qaratilgan.

Taxminlarning to‘g‘riligini tajribalar asosida tekshirish malakali erkin kurashchilardan iborat. Tadqiqot ishtrokkchilari – kurashchilar ikki guruuhga bo‘linishdi, 1–guruuh nazorat guruhi (10 kishi) bo‘lib ushbu guruuh tarkibiga kiruvchilar Yuqorida qayd etilgan nazorat sinov mashqlari yordamida tekshiruvdan o‘tkazildi hamda kuzatuvning birinchi kunidan boshlab mashg‘ulotlarda ishtirok etishni davom etishdi. 2–guruuh pedagogik Tadqiqot guruhi (10 kishi) – bo‘lib u ham 1–guruuh bilan yonma - yon nazoratdan o‘tkazildi. Tadqiqot guruhidagi 3 oy davomida texnik-taktik tayyorgarliklarini shakllantirish maqsadida yo‘naltirilgan vositalar qo‘llanildi. Mashg‘ulotlarning tayyorgarlik qismidagi (erkin kurashchilarining maxsus mashqlari bilan birgalikda) yugurish, (ko‘prik xolatida yurish va aylanib yugurish).

Tadqiqot davomida 2–guruhgaga kurashning boshqa turlaridan usullar o‘rgatdik, ushslashlar, qo‘l va oyoq xarakatlari. **Nazorat va Tadqiqot guruhlaridan tadqiqot boshida olingan test natijalari**

№	Nazorat testlari	Nazorat guruhi			Tadqiqot guruhi		
		X	σ	V%	X	σ	V%
1	4x10 metr masofaga mokisimon yugurish	10,5	0,2	2,73%	10,5	0,3	3,67%
2	Beldan oshirib tashlash (10 soniya)	5,4	0,4	8,08%	5,4	0,4	8,08%
3	Yelkalardan oshirib tashlash (10 soniya)	6	0,5	8,5%	6,4	0,6	9,09%
4	Yelkadan oshirib tashlash (10 soniya)	5,4	0,4	8,08%	5,3	0,5	10,10%
5	Ko‘prik holatida bosh atrofida aylanishlar 5 marta o‘ng va chap tomoniga (10 soniya)	6	0,5	9%	6,5	0,6	10,20%

Tadqiqot oxiriga kelib o‘rgatilgan usullar: 3 xil ushslash usullari, qo‘l xarakatlari bo‘yicha 3 xil usul, oyoq xarakatlari bo‘yicha 3 xil usul. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, 2–guruuh o‘rgatilgan usullarni juda tez o‘rganib oldi va boshqa sheriklariga ham o‘rgatishga ulgurdi. 1–guruuh o‘z mashg‘ulotlarida o‘rgangan usullarini takrorlab, o‘z malakasini oshirishdi.

Malakali erkin kurashchilarini mashg‘ulotlarida, bellashuv vaqtida, 1–guruuh vakillarida o‘zgarish sezilmadi. Lekin, 2–guruuh vakillarida ko‘p xolatlarda tadqiqotda o‘rgatilgan ushslash xolatlari, yiqitish va tashlash usullari ishlataliganligini guvoxi bo‘ldik.

Demak, 2 – guruuh vakillari xujum qilishda, ekin kurash usullaridan ko‘p marotaba aniq va samarali foydalananishdi, yani texnik-taktik xarakatlarni shu bilan shakllantirganlar.

Tadqiqot natijalari: 3 oy davom etgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, nazorat guruhining texnik-

taktik tayyorgarlik darajasi va ular tuzgan usullar ketma-ketligida sezilarli o'zgarish kuzatilmadi. Tadqiqot guruhida usullar ketma-ketligida erkin kurash xarakatlari dagi ayrim elementlarni kuzatdik, bu – ularga musobaqada raqibni chalg'itish va raqibga noqulayli tug'dirdi. Nazorat guruhining texnik-taktik tayyorgarlik darajasi 2,5% dan 3,5%ga oshgan bo'sada, tadqiqot guruhida bu ko'rsatkich 2,5% dan 5,8% ga oshdi. Bu foizlar erkin kurashchilarda musobaqada ishlatg'i

Nazorat va Tadqiqot guruhlaridan tadqiqot oxirida olingan test natijalari.

2-ja

№	Nazorat testlari.	Nazorat guruhi			t_{st}	R	Tadqiqot guruhi			tst	R
		X	Σ	V%			X	σ	V%		
1	4x10 metr masofaga moksimon yugurish.	10,1	0,2	1,98%	1,33	$\leq 0,2$	9,9	0,5	5,05 %	3,5	<0,001
2	Beldan oshirib tashlash (10 soniya).	5,5	0,8	13,70%	1,5	>0,1	5,2	0,8	12,1%	5,5	<0,001
3	Yelkalardan oshirib tashlash (10 soniya)	5,8	0,6	10,08%	1,6	>0,1	5,4	0,7	11,9%	5,4	<0,001
4	Yelkadan oshirib tashlash (10 soniya).	5,5	0,8	13,79 %	1,5	>0,1	5,1	0,8	12,1 %	4	<0,001
5	Ko'priklari holatida bosh atrofida aylanishlar 5 marta o'ng va chap tomonga (10 soniya)	6	0,5	11,1 %	1,7	<0,01	5,5	0,9	10,9 %	5,8	<0,001

Xulosa. O'rnida shuni aytish mumkinki ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, so'nggi yillarda malakali kurashchilar maxsus va musobaqaoldi tayyorgarlik bosqichlarining mashg'ulotlar kattaligi va yo'nalish tizimlarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. malakali kurashchilarni umumiy, maxsus, jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarining qiyosiy statistik tahlili tadqiqotdan oldin bir xil natijalarga ega ekanligi aniqlandi. Bu esa tadqiqot olib borish bo'yicha yetarlicha asos borligidan dololat beradi. Ikki xil sport kurash turlari bilan shug'ullanigan sportchilar asosiy sport turlarida texnik-taktik xarakatlarni tuzishda albatda ikkinchi sport turlaridagi ma'lum bir usullardan yoki elementlardan foydalanib turishligi ma'lum bo'ldi, bu esa texnik-taktik xujumni yanada kuchaytidi.

Yakkakurash sport turlari bilan shug'ullanigan sportchilar, boshqa kurash turlaridan xabardor bo'lishsa, texnik-taktik xujum xarakatlarini shakllantirishini oshirib borar ekan. Erkin kurash bilan shug'ullanuvchi sportchilarga, boshqa kurash turi usullarini ham o'rgatish ularni texnik-taktik tayyorgarligini kuchaytirib borishini isbod qildi. Shu qatorda kurashchilarning jismoniy sifatlaridan ham oshib bordi.

Adabiyotlar ro'yxati

Adilov S.Q. - Sport Pedagogik Mahoratini Oshirish (Erkin Kurash). O'quv Qo'llanma. Toshkent: "Fanlar Akademiyasi Bosmaxonasida" Nashr Etilgan 2019. – B.221.

Improving the technical and tactical characteristics of elite wrestlers Rashid Matkarimov 1BCD, Sarvar Adilov 1ABCDE, Fikrat Kerimov 1BCD, Georgiy Korobeynikov 1,2,3BCE, Lesia Korobeinikova 1,2,3ACD, Zafar Bakiev 1BCD, Khasan Abdurazzokov 1bce //slobozhanskyi herald

of science and sport

Khalilillo Kayumov-Improving the effectiveness of the use of technical actions of athletes engaged in freestyle wrestling in counter-attack in competition activities// mental enlightenment scientific – methodological journal

Sh.Djumanov - Erkin kurash sportchilarida koordinatsion qobilyatlarni maxsus mashqlar yordamida rivojlantirish va musobaqa samaradorligini oshirish. O‘zbekiston respublikasi sport vazirligi jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti “olimpiya va paralimpiya sport turlarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani to‘plami 26-sentabr 2024-yil chirchiq, 74-79 .

Abdurakhmonovich K. J. Efficiency of Modeling Methods in Sports Training of Greco-Roman Wrestlers //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2022. – T. 8. – C. 106-108.

Kubitdinov J. Determination of the quality of special strength of greco-roman wrestlers by the level indicators of physical fitness //Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2023. – T. 4. – №. 04.

Kubitdinov J. A. Development of Tactical Training of Wrestlers //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2022. – T. 8. – C. 109-111.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING HAMKORLIK QOBILIYATLARINI ANIQLASH USULLARI

*Qosimova Manzura Abdlaevna
Buxoro davlat педагогика институти о‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining hamkorlik qobiliyatlarini aniqlash usullari tahlil qilinadi. O‘qish darslarida o‘quvchilarning guruhiy faoliyatda ishtirok etish darajasi, muloqot qobiliyatlari va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini baholash muhim hisoblanadi. Kuzatish, baholash varaqalari, rolli o‘yinlar, guruhiy muhokamalar va refleksiya kabi metodlar hamkorlik qobiliyatlarini aniqlash va rivojlanтирishga yordam beradi. Ushbu maqolada mazkur usullarning afzallikkali va qo‘llash usullari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, hamkorlik qobiliyati, guruhiy faoliyat, baholash usullari, o‘qish darslari, rolli o‘yinlar, refleksiya, kuzatish.

Аннотация. В этой статье будут проанализированы методы определения навыков сотрудничества учащихся начальной школы. На уроках чтения важно оценивать уровень участия учащихся в групповой деятельности, коммуникативные навыки и навыки командной работы. Такие методы, как наблюдение, оценочные листы, ролевые игры, групповые обсуждения и рефлексия, могут помочь выявить и развить навыки сотрудничества. В этой статье рассматриваются преимущества и способы применения этих методов.

Ключевые слова: начальное образование, умение сотрудничать, групповая деятельность, методы оценки, уроки чтения, сюжетно-ролевые игры, рефлексия, наблюдение.

Annotation. this article analyzes methods for determining the collaborative abilities of elementary school students. In reading classes, it is important to assess the level of participation of students in group activities, communication skills and teamwork skills. Techniques such as observation, evaluation sheets, role-playing games, group discussions, and reflection help identify and develop collaborative skills. This article covers the advantages and methods of application of these methods.

Keywords: Elementary Education, Collaborative ability, group activities, assessment methods, reading classes, role-playing games, reflection, observation.

Kirish. Jahonda ta’lim barqaror taraqqiyotni ta’minlaydigan asosiy omil sifatida e’tirof etilib, xalqaro tashkilotlar hamda dunyoning aksariyat mamlakatlari tomonidan 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim konsepsiyasida “bilimning mustahkam poydevoriga ega bo‘lish, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlanтирish, ta’lim oluvchilarning hamkorlikda ishlash qobiliyatları va qiziqishlarini kuchaytirish” dolzarb vazifa sifatida qayd etilgan. Bu esa boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘qitishning ilg‘or texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarining kengayishiga sabab bo‘lmoqda

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun o‘qish darslari nafaqat savodxonlikni shakllantirish, balki ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlanтирish uchun ham muhim platforma hisoblanadi. Ayniqsa, hamkorlik qobiliyatlari bolalarning kelajakdagagi ta’lim jarayonlari va hayotiy faoliyatlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Zamонавиylar ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bir-biri bilan muloqot qilish, fikr almashish, umumiylar maqsadlarga erishish uchun hamkorlikda ishlash qobiliyatlarini rivojlanтирish muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘quvchilarning hamkorlik qobiliyatlarini aniqlash usullarini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, bu jarayonda qo‘llaniladigan samarali metodlar va baholash mezonlariga e’tibor qaratiladi.

Mavzuning dolzarbligi.

Boshlang‘ich məktəb yoshidagi bolalar tabiatan qiziquvchan bo‘lib, o‘rganishga bo‘lgan ishtiyogi yuqori bo‘ladi. Ular o‘zaro hamkorlik qilish orqali bilimlarini mustahkamlashlari, yangi tushunchalarni tezroq o‘zlashtirishlari va o‘z fikrlarini boshqalar bilan taqqoslash imkoniyatiga ega bo‘lishlari mumkin. Shu sababli, o‘quvchilarning hamkorlik qobiliyatlarini aniqlash va rivojlanтирish muhim pedagogik vazifa sanaladi. Hamkorlik qobiliyatlari deganda o‘quvchilarning birgalikda ishlash, guruhda faol ishtirok etish, tengdoshlari bilan fikr almashish va umumiylarini bajarishda o‘z hissasini qo‘shish ko‘nikmalari tushuniladi. Bu esa, o‘z navbatida, bolalarning ijtimoiy moslashuvchanligini oshirishga va ularning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy

ta'sir ko'rsatadi.

O'qish darslarida o'quvchilarning hamkorlik qobiliyatlarini aniqlash uchun turli usullar mavjud bo'lib, ularni tanlashda yosh xususiyatlari, ta'lif mazmuni va sinfdagi o'quv muhitiga e'tibor qaratish lozim. Bunday usullarga kuzatish, baholash varaqalari, o'quvchilarning faol ishtirokini tahlil qilish, loyihaviy topshiriqlar, rolli o'yinlar va jamoaviy muhokamalarni o'tkazish kiradi. Kuzatish usuli pedagogga o'quvchilarning guruhiy faoliyatdagi ishtirokini baholash imkonini beradi. Masalan, muallim o'quvchilarning muloqot qilish darajasini, o'z fikrlarini ifoda eta olish qobiliyatlarini va o'zaro yordam ko'rsatish xususiyatlarini tahlil qilish orqali ularning hamkorlik qibiliyatlarini darajasini aniqlashi mumkin.

Mavzu muhokamasi.

Bundan tashqari, baholash varaqalari yordamida o'quvchilarning hamkorlik qilish ko'nikmalarini tizimli ravishda baholash mumkin. Ushbu varaqalar turli mezonlarga asoslangan bo'lib, ular orqali o'quvchilarning qanday qilib guruh ishlarida o'z hissasini qo'shishi, yetakchilik qobiliyatlarini namoyon etishi yoki boshqa o'quvchilar bilan qanday aloqada bo'lishi haqida ma'lumot to'plash mumkin. Loyihaviy topshiriqlar esa bolalarni bir maqsad sari intilish va bir-biriga bog'liq holda ishslashga undaydi. Rolli o'yinlar va jamoaviy muhokamalar esa o'quvchilarga haqiqiy hayotga yaqin sharoitlarda o'zaro hamkorlik qilish imkoniyatini yaratadi. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining hamkorlik qobiliyatlarini aniqlash usullarining samaradorligi, ularning ta'lif jarayonidagi o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Bolalar uchun hamkorlik qilish ko'nikmalarini nafaqat maktab davrida, balki keyinchalik jamiyatda o'z o'rnni topish, muloqot madaniyatini shakllantirish va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun ham muhim omil hisoblanadi. Shu bois, o'qituvchilar bu jarayonga ongli ravishda yondashib, har bir o'quvchining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda hamkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratishlari lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining hamkorlik qobiliyati bu - ularning tengdoshlari bilan birgalikda ishslash, o'zaro yordamlashish va umumiylar maqsadga erishish uchun birgalikda harakat qilish bo'lib, juda murakkab ko'nikma hisoblanadi. Tadqiqot davomida hamkorlik qobiliyatining quyidagi tarkibiy qismlari ma-



1-rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining hamkorlik qobiliyatini belgilovchi mezonlar

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining hamkorlik qobiliyati ularning yoshi va rivojlanish darajasiga bog'liq holda farq qiladi. Hamkorlik qobiliyati ko'nikmasi ko'rsatgichlari mazmuni quyidagilarni o'zida aks ettiradi (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining hamkorlik qobiliyati ko'rsatgichlari mazmuni

No	Hamkorlik qobiliyati ko'rsatgichlari	Hamkorlik qobiliyati ko'rsatgichlari mazmuni
1	O'zaro muloqot	O'quvchilarning bir-birlari bilan fikr almashish, muloqot qilish va o'zaro tushunishga erishish qobiliyati. Bu og'zaki va yozma muloqotni, shuningdek, tan tili va non-verbal muloqotni o'z ichiga oladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bu oddiy so'zlar bilan fikr almashish, tinglash va tushunishdan iborat bo'lishi mumkin
2	Hamkorlik	O'quvchilarning umumiyligi maqsadga erishish uchun bиргаликда ishlash va bir-birlariga yordam berish qobiliyati. Bu o'zaro yordamlashish, mas'uliyatni baham ko'rish va bиргаликда ish olib borishni o'z ichiga oladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bu bиргаликда o'yin o'ynash, rasm chizish yoki qurilish qurish kabi oddiy faoliyatlar orqali namoyon bo'lishi mumkin.
3	Konfliktlarni hal qilish	O'quvchilarning bir-birlari bilan kelib chiqqan nizo va konfliktlarni tinchlik yo'li bilan hal qilish qobiliyati. Bu muammoni aniqlash, yechimlarni topish va o'zaro kelishuvga erishishni o'z ichiga oladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bu o'zaro muloqot qilish, kechirim so'rash va o'zaro kelishuvga erishishdan iborat bo'lishi mumkin
4	Mas'uliyatni o'z zimmasiga olish	O'quvchilarning o'z vazifalarini mas'uliyat bilan bajarish va guruhga o'z hissasini qo'shish qobiliyati. Bu o'z vaqtida ish bajarish, o'z ishiga mas'ul bo'lish va guruhga foyda keltirishni o'z ichiga oladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bu o'z vazifasini bajarish, topshiriqlarni o'z vaqtida topshirish va guruhnинг muvaffaqiyatiga o'z hissasini qo'shishdan iborat bo'lishi mumkin.
5	Hurmat	O'quvchilarning bir-birlarining fikrlariga, his-tuyg'ulariga va shaxsiyatiga hurmat bilan munosabatda bo'lish qobiliyati. Bu o'zaro tinglash, o'zaro tushunish va o'zaro qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bu boshqalarni tinglash, o'zaro muloyimlik va bir-birlarining fikrlarini hurmat qilishdan iborat bo'lishi mumkin

Kichik yoshdagagi o'quvchilarning hamkorlik qobiliyati oddiy faoliyatlar orqali namoyon bo'lsa, katta yoshdagagi o'quvchilar murakkabroq vazifalarni bajarishda hamkorlik qilishlari mumkin. O'qituvchilarning vazifasi o'quvchilarning hamkorlik qobiliyatini rivojlantirish uchun qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish va ularga kerakli ko'nikmalarini o'rgatishdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining hamkorlik qobiliyatlarini aniqlash ta'lif jarayonining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'qish darslari nafaqat savodxonlikni shakllantirish, balki o'quvchilarning bиргаликда ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Chunki o'quvchilar guruhlarda ishlash, fikr almashish, boshqa insonlarni tinglash va o'z fikrlarini ifoda etish jarayonida ijtimoiylashadi. Hamkorlik qilish qobiliyati esa nafaqat ta'lif jarayonida, balki hayotning turli jahbalarida ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli boshlang'ich sinfda o'qish

darslarida o‘quvchilarning hamkorlik qobiliyatlarini aniqlash va baholash bo‘yicha samarali usullarni ishlab chiqish va qo‘llash zarur. Bu jarayonda kuzatish, baholash varaqalari, guruhiy faoliyat, rolli o‘yinlar va refleksiya kabi metodlardan foydalanish mumkin.

O‘qituvchi o‘quvchilarning hamkorlik qilish qobiliyatlarini aniqlash uchun birinchi navbatda ularni dars jarayonida muntazam kuzatib borishi lozim. Kuzatish orqali bolalarning bir-biri bilan qanday muloqot qilishini, birligida ishlashga qanchalik tayyor ekanini, o‘z fikrlarini bildirish va boshqalar bilan muhokama qilish qobiliyatini tahlil qilish mumkin. Masalan, o‘quvchilar kichik guruhlarga ajratilib, ularga biror hikoyani muhokama qilish yoki birligida xulosa chiqarish vazifasi beriladi. O‘qituvchi esa bu jarayonda kim qanday rol o‘ynayotganini, qaysi o‘quvchi faolroq yoki passivroq ekanini, kim guruhni boshqarayotganini yoki boshqalarga yordam berayotganini kuzatadi. Bu usul orqali o‘quvchilarning hamkorlik darajasi haqida dastlabki xulosalar chiqarish mumkin bo‘ladi.

Bundan tashqari, o‘quvchilarning hamkorlik qilish qobiliyatlarini baholashda maxsus baholash varaqalaridan foydalanish mumkin. Ushbu varaqalarda o‘quvchilarning guruh ishida qanday qatnashganligi, boshqalarni tinglash qobiliyati, o‘z fikrini bildirish darajasi va guruhiy ishga qo‘shgan hissasi kabi mezonlar aks ettiriladi. Masalan, o‘qituvchi har bir o‘quvchining guruh ishida qanchalik faol ishtirok etganini qayd etib borishi mumkin. Ba’zi o‘quvchilar guruh ishida faol bo‘lib, tengdoshlari bilan erkin muloqot qiladi, boshqalari esa asosan tinglovchi rolda bo‘ladi. Shu bois, baholash varaqalari orqali har bir o‘quvchining guruh ichidagi pozitsiyasi va hamkorlik qobiliyatlarini batafsil tahlil qilish mumkin.

Shuningdek, guruhiy faoliyat orqali o‘quvchilarning hamkorlik qilish darajasini aniqlash mumkin. O‘qituvchi turli mavzularda jamoaviy topshiriqlar tayyorlashi va ularni o‘quvchilarga taqdim etishi kerak. Masalan, o‘qish darsida bolalar birligida bir hikoya yaratishi yoki hikoyaning davomini o‘ylab topishi lozim bo‘lgan topshiriqlar berilishi mumkin. Bunday topshiriqlar o‘quvchilarning nafaqat ijodiy fikrlash qobiliyatini, balki hamkorlik qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Chunki bunday vaziyatda o‘quvchilar bir-birining fikrlarini hurmat qilishni, murosaga kelishni va umumiy qarorga kelishni o‘rganadi. Ba’zan guruh ichida kelishmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin, va bu ham muhim o‘quv jarayoni hisoblanadi, chunki o‘quvchilar o‘zaro muammo yechishni, fikrlarini asoslashni va kelishib ishlashni o‘rganishlari lozim.

Hamkorlik qobiliyatlarini baholashning yana bir samarali usuli – bu rolli o‘yinlar va jamoaviy muhokamalardir. Masalan, o‘qituvchi darsda o‘quvchilarga hikoya yoki ertak qahramonlarini jondantirish vazifasini topshirishi mumkin. O‘quvchilar ushbu qahramonlarning rolini bajarish orqali muloqotga kirishadi, vaziyatni tushunadi va bir-biri bilan hamkorlik qilishga majbur bo‘ladi. Shuningdek, muhokama metodida o‘qituvchi o‘quvchilarga ma’lum bir savol yoki muammoni berib, ularning birligida muhokama qilishini so‘rashi mumkin. Masalan, o‘quvchilarga hikoyadagi qahramon to‘g‘ri ish qilganmi yoki yo‘qmi degan savol beriladi va ular guruh bo‘lib muhokama qilishadi. Bunday usullar o‘quvchilarning hamkorlik qilish qobiliyatlarini yanada chuqurroq tahlil qilishga yordam beradi.

O‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash va refleksiya qilish qobiliyatlarini rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Har bir guruh ishidan so‘ng o‘quvchilarga o‘z faoliyatlarini haqida fikr bildirish imkoniyatini berish kerak. Ular o‘zlarini haqida quyidagi savollarga javob berishi mumkin: Men guruh ishida qanday qatnashdim? Men guruhga qanday yordam bera oldim? Mening fikrlarim boshqalar tomonidan qanday qabul qilindi? Guruhimiz yaxshi ishladimi yoki qanday muammolar yuzaga keldi? Ushbu usul orqali o‘quvchilar o‘z xatti-harakatlarini baholashni o‘rganadi, hamkorlik qilish qobiliyatlarini yanada takomillashtirishga harakat qiladi.

Bundan tashqari, texnologiyalardan foydalanish ham hamkorlik qobiliyatlarini aniqlashda foydali bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘qituvchi o‘quvchilar guruh ishida qanday ishlayotganini videoga olib, keyin tahlil qilishi mumkin. Yoki maxsus elektron baholash tizimlari yordamida o‘quvchilarning faoliyati haqida ma’lumot to‘plashi va ularni tahlil qilishi mumkin. Masalan, interfaol o‘yinlar va onlaysiz orqali hamkorlik qobiliyatlarini baholash mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining hamkorlik qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish zamonaviy ta’lim jarayonining muhim jihatlaridan biridir. Chunki hamkorlik qilish qobiliyati o‘quvchilarning nafaqat ta’limdagi muvaffaqiyatini oshiradi, balki ularning ijtimoiy hayotga

moslashuvchanligini ham rivojlantiradi. O‘qish darslari bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi, chunki o‘quvchilar aynan shu darslarda guruhiy ish orqali o‘zaro muloqot qilish, fikr almashish, bir-biriga yordam berish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Shuning uchun ularning hamkorlik qilish qobiliyatlarini aniqlash uchun turli usullardan samarali foydalanish zarur. Ushbu maqolada o‘quvchilarning hamkorlik qilish darajasini baholash uchun kuzatish, baholash varaqalari, guruhiy faoliyat, rolli o‘yinlar va refleksiya kabi metodlar muhokama qilindi. Kuzatish orqali o‘qituvchi har bir o‘quvchining guruhiy ishda qanchalik faol ishtirok etishini aniqlashi mumkin. Baholash varaqalari esa o‘quvchilarning hamkorlik qilish ko‘nikmalarini tizimli ravishda baholash imkonini beradi. Guruhiy faoliyat, rolli o‘yinlar va jamoaviy muhokamalar esa o‘quvchilarning bir-biri bilan qanday ishlashini va o‘zaro qanday muloqot qilishini aniqlash uchun qulay sharoit yaratadi. Bundan tashqari, refleksiya va o‘z-o‘zini baholash orqali o‘quvchilar o‘z hamkorlik qilish qobiliyatlarini mustaqil ravishda tahlil qilish va takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Zamonaliviy texnologiyalarning ta’lim jarayoniga tatbiq etilishi ham bu jarayonni yanada samarali qilishga yordam beradi. Masalan, video kuzatuvlar yoki elektron baholash tizimlari orqali o‘quvchilarning faoliyati haqida aniq ma’lumot olish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining hamkorlik qibiliyatlarini aniqlashda turli xil metodlardan foydalanish zarur. Kuzatish usuli o‘qituvchiga o‘quvchilarning o‘zaro muloqot qilish darajasini aniqlashga yordam beradi. Baholash varaqalari esa har bir o‘quvchining hamkorlik qilish qobiliyatlarini tizimli baholash imkoniyatini yaratadi. Guruhiy faoliyat, rolli o‘yinlar va muhokamalar orqali esa o‘quvchilarning hamkorlik qilish bo‘yicha qanday ko‘nikmalarga ega ekanini aniqlash mumkin. Shuningdek, refleksiya va o‘z-o‘zini baholash usullari o‘quvchilarga o‘z faoliyatlarini mustaqil baholash imkoniyatini beradi. Texnologiyalar esa bu jarayonni yanada samarali tashkil etish imkoniyatini yaratadi. Shu bois, o‘qituvchilar o‘quvchilarning hamkorlik qibiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish uchun turli xil usullardan foydalangan holda, ularning ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishlari lozim. Bu nafaqat ta’lim jarayonida, balki kelajakda ham bolalarning muvaffaqiyatli shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining hamkorlik qibiliyatlarini aniqlash ta’lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchilar bu jarayonda turli usullardan foydalanib, o‘quvchilarning guruhiy ish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan darslarni tashkil etishlari lozim. Bu esa nafaqat o‘quvchilarning ta’limdagi muvaffaqiyatini oshiradi, balki ularni kelajakda ijtimoiy faol va muvaffaqiyatli shaxs bo‘lib shakllanishiga ham yordam beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

- Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (2017). Cooperative learning: The foundation for active learning. *Theory Into Practice*, 56(1), 5-14. <https://doi.org/10.1080/00405841.2017.1296362>
- Slavin, R. E. (2015). Cooperative learning in elementary schools. *Education* 3-13, 43(1), 5-14. <https://doi.org/10.1080/03004279.2015.961723>
- Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.
- Gillies, R. M. (2016). Cooperative learning: Review of research and practice. *Australian Journal of Teacher Education*, 41(3), 39-54. <https://doi.org/10.14221/ajte.2016v41n3.3>
- Webb, N. M. (2009). The teacher’s role in promoting collaborative dialogue in the classroom. *British Journal of Educational Psychology*, 79(1), 1-28. <https://doi.org/10.1348/000709908X380772>
- Mercer, N., & Littleton, K. (2007). Dialogue and the development of children’s thinking: A sociocultural approach. Routledge.

SADRIDDIN AYNIY QARASHLARIDA BOSHLANG'ICH TA'LIM, YANGI MAKTAB O'QUVCHILARI HAMDA OILA TARBIYASIGA OID FIKRLAR IFODASI

*Qurbanova Nigina Boboxo'jayevna
BuxDU mustaqil izlanuvchisi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sadriddin Ayniy qarashlarida boshlang'ich ta'lism, yangi maktab o'quvchilar hamda oila tarbiyasiga oid fikrlar ifodasi ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, pedagogik g'oyalar, sinfiy mohiyat, muhim xizmat, amaliy faoliyat, amir hukumati, ota-onalar, sovg'a-salomlar, imomlar, mudarrislar va hokazo.

Аннотация: В данной статье проводится научно-теоретический анализ взглядов Садриддина Айни на начальное образование, новые школы и воспитание в семье.

Ключевые слова: Средняя Азия, педагогические идеи, классовая сущность, важная служба, практическая деятельность, правительство эмира, родители, подарки, имамы, мударрисы и т. д.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of Sadriddin Ayni's views on primary education, new schools, and family upbringing.

Keywords: Central Asia, pedagogical ideas, class essence, important service, practical activity, Emir's government, parents, gifts, imams, mudarrises, etc.

Sadriddin Ayniy ijodini o'rganish sohasidagi asosiy kamchilik uning dunyoqarashi, pedagogik faoliyati va pedagogik qarashlariga oid mustaqil tadqiqot va monografiyalarning yo'qligi bo'lib, bu Sadriddin Ayniyning nafaqat amaliy faoliyati sohasidagi eng muhim xizmati hisoblanadi. Faoliyati bilan bir qatorda O'rta Osiyo xalqlari pedagogikasining ko'zga ko'ringan nazariyotchisi va tarixchisi sifatida ham namoyon bo'ldi.

Buyuk rus o'qituvchisi Konstantin Dmitrievich Ushinskiy shunday deb yozgan edi: «Insonning tarbiyasi va rivojlanishini kuzatgan odamlardan qaysi biri oila va maktab ta'lumi, keyin esa hayot darsini inson xarakteriga kuchli ta'sir ko'rsatmasligiga qat'iy ishonch bildirmasligi mumkin?»(1.B-435.),-deb ta'kidlagan edi.

Ana shunday insonlardan biri Sadriddin Ayniy bo'lib, u o'zi tahsil olgan eski maktabning og'irini to'la-to'kis boshidan kechirgan. Bolalarni yoshligidanoq islom g'oyalarini bilan mayib qilib qo'ygan o'sha maktabning mudhish ta'lum va tarbiya tizimini tanqid qildi, o'zining pedagogik g'oyalarini ilgari surdi.

Ta'lum-tarbiya ishlarining butun yo'nalishi ko'p jihatdan maktabning moddiy bazasiga bog'liq. Eski maktablarning iqtisodiy va moddiy tomoni achinarli ahvolda edi: amir hukumati bu maktablarni saqlash uchun bir dirham ham ajratmagan, maktab binolari qurilishi va ularni jihozlash uchun hech qanday xarajat qilmasdi va buni bu masala butunlay unutilgan edi. Lekin o'qituvchilar maktabning iqtisodiy va moddiy ehtiyojlarni ta'minlashdan emas, ular pul topish, cho'ntaklarini to'ldirishdan manfaatdor edilar; ular ko'pincha talabalar olib kelgan barcha daromadlarni o'zlashtirar edilar.

Ta'lum tizimining Markaziy Osiyodagi asosiy turlari diniy maktablar (pastki darajali) va madrasalar (yuqori darajali) edi. Bu maktablar o'zining sinfiy mohiyatiga ko'ra mehnatkash ommaga tom ma'noda begona edi.

Eski maktabda o'qituvchining o'zi o'tiradigan joy yo'q edi; do'konlardan birida o'quvchilar yonida o'tirardi.

Bu haqda Sadriddin Ayniy aniq va ravshan yozgan edi: "Eshikning old burchagida joylashgan stolda domla, qolgan qismida esa bir-biriga qarama-qarshi bo'lib, to'nlarning ikki tomonida o'quvchilar o'tirishardi"(2.B-44.).

Amirlik hukumatining bunday munosabati natijasida maktablarda bino va jihozlar yetishmas edi.

Odatda, Markaziy Osiyodagi maktablar masjidlarda, xira, chiriyotgan xonalarda joylashgan

edi.

Sadriddin Ayniy o‘zining “Eski maktab” nomli maxsus asarini maktablar tanqidiga bag‘ishlagan. U shunday deb yozgan edi: “Men maktabga keldim. Men u erda uyimizdagи to‘rtta derazali xonamizga o‘rganib qolgan bo‘shliqni, yorug’likni yoki sukunatni ko‘rmadim. Ikki eshikli tor xona bor edi; kirish, bitta eshik, sovuq havoda qulflangan; yana bir kichik eshik - arshinning to‘rtdan uch balandligi, eni yarim arshin - ustozimiz qog’oz bilan qoplangan.... Qor va yomg’irda suv o‘tkazmaydigan qilib qo‘yish uchun domla uni o‘simlik moyi bilan yog’lagan ... aniq. Bu eshikdan ozgina yorug’lik bor»(3.1949.).

Sadriddin Ayniyning bu gaplari nafaqat u o‘qigan maktabga, balki O‘rta Osiyodagi barcha maktablarga tegishli.

Maktabda stol va stullar yo‘q edi. Yalang’och yerda o‘tirmaslik uchun talabalar o‘zlari bilan to‘sak olib kelishlari kerak edi.

“Umum maydoni atigi o‘n olti kvadrat arshin bo‘lgan, to‘rtdan to‘rtta bo‘lgan maktab bir-birining ustiga yotqizilgan yog‘ochlar bilan to‘qqiz qismga bo‘linib, maktab to‘qqizta alohida stolga o‘xshar edi”(4.B-194.). Sadriddin Ayniy maktab ichini mana shunday tavsiflaydi.

Domulla imomlar o‘quvchilarning ota-onalaridan farzandlari ta’lim olish davrida sovg‘a va nazr tarzida katta daromad olganlar. Odatta sovg‘alar un, guruch, palov, yassi non, poyabzal, kiyim-kechak, mevalar va boshqalardan iborat edi. Ayrim ota-onalar sovg‘a-salomlardan tashqari imomlarni o‘z uylariga taklif qilishgan va ular uchun maxsus ziyofat uyuşhtirilgan.

Tabiiyki, eski maktabda o‘quvchilarning ijtimoiy tarkibi ota-onalarning moddiy ta’minati va to‘lov qobiliyati darajasi bilan tartibga solingan.

Faqat quloqlar, boylar, mullalar, amir amaldorlar va savdogarlarning bolalari maktabni tamomlagan yoki o‘qishni tugatgan, ishchilarning bolalari esa maktabdan tashqarida qolgan. Maktabga kirganlar u yerda oxirigacha o‘qiy olmaganlar, chunki, birinchidan, ular sovg‘a va nozne’matlarni keltirish imkonni bo‘lmagan; ikkinchidan, erta bolalikdan ular boylarga, quloqlarga ovqat uchun ishlagan; ular uchun maxsus ziyofat uyuşhtirilgan.

Demak, Sadriddin Ayniy ijodidan ijtimoiy sabablar mehnatkash omma farzandlariga o‘qish, bilim olish imkoniyatini qanday bermaganligi yaqqol ko‘rinadi.

Maktabda ta’lim mazmuni jamiyat tomonidan maktab oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalarga bog‘liqdir.

Eski maktabning bu maqsad va vazifalari shaxs tomonidan o‘zboshimchalik bilan o‘rnatilmagan va o‘rnatilishi ham mumkin emas, balki feudal-patriarxal jamiyatning ob’ektiv iqtisodiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan.

Tabiiyki, butun eski maktab sinfiy ruh bilan to‘liq sug‘orilgan holda, faqat burjuaziya bolalariga bilim berdi. Bu maktablarda ishchi va dehqonlarning yosh avlodni xuddi o‘sha burjuaziya manfaatlari yo‘lida o‘qitilgandek ta’lim oldi.

Jamiyat tarixi davomida zolimlar maktabdan mehnatkash omma ustidan hukmronlik qilish, ma’naviy zulm va talonchilik vositalaridan biri sifatida foydalanganlar.

Bular eski maktabda yosh avlodning ma’rifiy mazmuni, ta’lim va tarbiyasining mohiyatini belgilab beruvchi obyektiv sabablardir.

Eski maktab o‘qituvchilar ixtiyorida edi. Shu sababli, eski maktabda amalda barcha maktablar uchun majburiy bo‘lgan davlat hujjalari sifatida yagona o‘quv rejasi va o‘quv darsliklari yo‘q edi. Biroq, bir necha asrlar davomida bir akademik fan paydo bo‘ldi - kitoblar va ibodatlar yordamida bolalarga o‘rgatiladigan din.

Kitoblar ,asosan, diniy xususiyatga ega bo‘lib, bir necha yuz yillar davomida yagona darslik bo‘lib xizmat qilgan.

Maktablarda darslik bo‘lib xizmat qilgan kitoblarning ahvoli bundan ham yomon edi.

Eski usul maktabining asosiy o‘quv kitoblari: 32 harfdan iborat arab alifbosi edi. Talabalar bu harflarning barchasini yod olishardi. Harflar doskaga yozilgan edi. Arab alifbosini yod olgandan so‘ng o‘quvchilar “Haftyak” bo‘g‘inini o‘qiy boshlardilar.

«Haftyak» Qur‘onning tanlangan parchalarini o‘z ichiga oladi va e’tiqodning asosiy talablariga bag‘ishlangan. Haftyak Qur‘onning yettidan bir qismini anglatadi. Talaba mulla domla yoki yuqori kurs talabasi xalifaning yordami bilan “Haftyak” matnini to‘liq yod olishga majbur bo‘lgan.

“Haftyak” matni arab tilida edi.

“Haftyak”ni tugatgandan so‘ng o‘quvchilar tojik tilida yozilgan “Chorkitob” (“To‘rt kitob”) kitobini yod olishga kirishganlar. “Chorkitob” muqaddas, diniy kitob bo‘lib, unda tahorat, namoz, ro‘za kabi qoidalari bayon etilgan. “Chorkitob”dan keyin XVIII asr tojik shoirining tasavvufiy ma’noda talqin qilingan “Xo‘ja-hofiz” she’rlar to‘plami paydo bo‘ldi. “Xoja Hofiz”dan so‘ng Navoiyning tanlangan g‘azallarini, so‘ngra Bedil ijodini o‘rganganlar.

Bu oxirgi uchta kitob, garchi tojik tilida yozilgan bo‘lsa-da, mazmunini to‘liq tushunmay, talabalar tomonidan chala o‘zlashtirilgan.

O‘rta Osiyodagi eski maktablarda o‘qish mazmuni va to‘liq kursi shundan iborat edi.

Eski mazhab maktabida ona tili, arifmetika va boshqa umumta’lim fanlari kabi hayotiy muhim o‘quv fanlari umuman o‘rganilmagan.

Yuqoridagi faktlar eski maktablardagi ta’lim va tarbiyaning “g‘oyaviy” mazmuni haqida aniq tasavvurga ega bo‘lib, insonlar ongini yoshligidanoq diniy aqidaparastlik bilan zaharlagan – go‘yo din bilimi zarur bo‘lgan va uni qo‘llash mumkin bo‘lgandek.

Sadriddin Ayniy bularning barchasini o‘z tajribasidan boshdan kechirdi va faqat rus demokratik pedagogik tafakkurining samarali ta’siri ostida eski maktab bilimlar tizimining buzuqlik va foydasizligini qalbi tubigacha anglatdi. U ommanning haqiqiy va dunyoviy bilimga bo‘lgan ehtiyojini har tomonlama kuzatib, o‘rganib, xalqning ana shu orzu-istikclarini ro‘yobga chiqarish uchun kurasha boshladi.

Sadriddin Ayniy Oktyabr inqilobi g‘alabasidan oldin ham maktablarda ta’limni ona tilida olib borishni, ona tilini maktab fanlariga alohida mustaqil fan sifatida kiritishni talab qildi.

U bu ilg‘or g‘oyaning tafakkurchisi bo‘lib qolmadi, balki uni amalga oshirish uchun faol kurashchi bo‘ldi. Maktab tashkil etib, o‘quvchilarga ona tilida dars bergan. Sadriddin Ayniy o‘z maktabida ona tilidan tashqari arifmetika, tarix, geografiya, jismoniy tarbiya fanlaridan dars bergan. U bu o‘quv fanlarining barchasini boshqa maktablarda o‘rganishni talab qildi(5.11-12-son.).

Sadriddin Ayniy “Tahsib-us-sibyon” kitobini yuqoridagi fikrlar asosida tuzgan. Uning kitobida biz boshlang‘ich ta’limning barcha o‘quv fanlari haqida qisqacha ma’lumot topamiz.

Bularning barchasi Sadriddin Ayniyning dunyoviy bilimlarning mehnatkashlar hayoti uchun ahamiyatini chuqur anglaganligidan dalolat beradi, biroq o‘scha davr sharoitida uni to‘liq bajarish imkonsiz edi.

Sadriddin Ayniy Oktyabr inqilobidan keyin o‘zining pedagogik fikrlarini g‘oyalar asosida rivojlantirdi va boyitib, sovet maktabida hayotga tatbiq etdi.

Sadriddin Ayniy eski maktabning tarbiyaviy ishining tashkiliy shaklini qattiq tanqid qilgan. Eski maktablarda odatda bir-biridan yosh xususiyatlari va o‘quvchilarning bilim darajasi bo‘yicha farq qiladigan sinflar bo‘lmagan. Turli yoshdagagi barcha bolalar birgalikda o‘qishgan. Darslarning bu shakli tarbiyaviy ish darajasini pasaytirdi. Sadriddin Ayniy shunday deb yozgan edi: “Bilaman, qishlog‘imizdan to‘rt yoshdan o‘n ikki yoshgacha bo‘lgan bolalar bu yerda to‘planishgan, qishlog‘imiz, ular aytganidek, o‘shanda uch yuzta uydan iborat bo‘lgan”(6.B-44.).

Bundan ko‘rinib turibdiki, O‘rta Osiyo maktablarida o‘quvchilarning aniq va doimiy tarkibi bo‘lmagan. Talabalarni qabul qilishning qat‘iy tartibi yo‘q edi; Talabalar yilning turli vaqtlarida maktabga qabul qilingan. Bu esa o‘quvchilarning bilim darajasi va mazmuni eng noaniq bo‘lishiga olib keldi.O‘quvchilarni sinfdan sinfga o‘tkazish yo‘q edi. O‘quvchilarning bilim darajasi faqat kitob o‘qish orqali aniqlanardi.

Eski maktabda asosiy mavzu din edi. Shuning uchun maktab rejimining asosi bo‘lib xizmat qiladigan o‘quv dasturi yo‘q edi. Aniq dars soatlari yo‘q edi. Talabalar kun bo‘yi o‘qishardi va faqat bir marta - tushlik uchun tanaffus qilishardi.

Sadriddin Ayniy quyidagi tipik misolni keltiradi: “Bir kuni ertalab notanish ayol domlaning eshigini taqillatib, unga bitta tanga – 150 diram uzatdi va dedi:

Bu qurbanlikni oling, bosh og‘rig‘iga, tish og‘rig‘iga, ko‘z kasalliklariga qarshi duo o‘qing va sog‘lom tug‘ilish uchun duo qiling, shuningdek, bugungi kun uchun bolalarni ozod qiling ...

Namozni o‘qib bo‘lgach, ayol chiqib ketdi va o‘qituvchi talabalarni haydab yubordi:
Xudoning ulug‘vorligi uchun!

Va bugun biz mактабдан ozодмиз»(7.18-iyun soni) .

Eski uslubdagi maktablarda darsning asosiy va universal shakli hisoblangan sinf-dars tizimining asosiy talablariga hech qachon javob bermagan va javob bera olmasdi.

Sadriдин Ayniy mahalliy ziyolilar orasidan birinchi bo‘lib maktabni to‘rt sinfga bo‘lishni talab qilgan. U shunday deb yozgan edi: «Maktab o’quvchilarini to‘rt sinfga bo‘lish kerak»(8.9.B-14.).

Sadriдин Ayniy birinchi bo‘lib farzand ta’lim-tarbiyasida o‘qituvchining yetakchi rolini ko‘рган va uni maktabning markaziy siymosi deb hisoblagan.

Foydalanimanilgan adabiyotlar:

- 1.Ушинский К.Д. Танланган педагогик ишлар.-Москва Наука.: Педагогика, 1980.Б-435.
- 2.Бабаев Ю. Садридин Айний ва унинг хотиралари, // «Литература Тожикистон», Душанбе.1951, № 2
- 3.Айний С. Эски мактаб. Севимли ишлаб чиқариш. Сталинобод, 1949.
- 4.Айний С. Менинг қисқача таржимаи ҳолим. Муҳаммад Осимий ва С.Айний сўзбоши билан -Душанбе: Дониш, 1978.Б – 194.
- 5.Айний С. «Октябрнинг тарбиявий кучи». // “Шарқи сурх”, Душанбе.1949 йил 11 -12-сон.
- 6.Базаров,Рахматуллаев, Нажмеднизов. Ўқитувчи ва мураббий. // “Коммунисти Тожикистон”, 26 июн 1953.Б-44.
- 7.Айний С. Донишманд домла (А.М. Горький вафотининг 15 йиллигида). // «Правда», 1951 йил 18 июнь.
- 8.Айний С. Донишманд домла (А.М. Горький вафотининг 15 йиллигида). // «Правда», 1951 йил 18 июнь.
- 9.Айний С. “Таҳзиб-ус-сибён”. Нашрга тайёрлаган Соҳиб Табаров. Душанбе, 1994, Б -14.

ZAMONAVIY TA'LIM TEKNOLOGIYALARI ASOSIDA INTERAKTIV MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH

Qurbanov G'ulomjon G'afurovich

Buxoro davlat pedagogika instituti Matematika va informatika kafedrasini dotsenti,

*To'yboyeva Zarina Avez qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti 4-bosqich talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'limgiz tizimida turli ta'limgiz texnologiyalaridan foydalangan holda o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirish haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, maqolada o'quvchilarga logarifm tushunchasi va logarifmik tenglamalarni qanday yechish usullari turli zamonaviy metodlar orqali tushuntirilib, o'quvchilar bilimini yanada oshirish, mavzuni qiziqarli, samarali o'tkazish maqsadida interfaol metodlardan foydalananilgan.

Kalit so'zlar: interfaollik, metod, interfaol, ko'rsatkichli funksiya, logarifm, logarifmik tenglama, mosini top metodi, BBB metodi, svetofor metodi, asos, teng kuchli.

ОРГАНИЗАЦИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ ЗАНЯТИЙ НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Kurbanov Gulomjon Gafurovich

*Доцент кафедры Математики и информатики Бухарского государственного
педагогического института*

Tuyibaeva Zarina Avezovna

Студент 4-го курса Бухарского государственного педагогического института

Аннотация: В данной статье представлена информация о повышении эффективности учебных занятий с использованием различных образовательных технологий в системе обучения. Кроме того, объясняются понятие логарифмов и методы решения логарифмических уравнений с применением современных подходов. Интерактивные методы используются для углубления знаний учащихся и повышения интереса к изучаемой теме.

Ключевые слова: интерактивность, метод, интерактивный, показательная функция, логарифм, логарифмическое уравнение, метод соответствий, метод BBB, метод светофора, основание, эквивалент.

ORGANIZING INTERACTIVE LESSONS BASED ON MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

Kurbanov Gulomjon Gafurovich

*Associate professor of the Department of Mathematics and informatics of the Bukhara State
Pedagogical Institute,*

Tuyboyeva Zarina Avez kizi

Student of Stage 4 of the Bukhara State Pedagogical Institute

Annotation: This article provides information on enhancing the effectiveness of educational sessions by utilizing various teaching technologies in the education system. Additionally, it explains the concept of logarithms and methods for solving logarithmic equations through different modern approaches. Interactive methods are employed to further improve students' knowledge and make the topic more engaging and effective.

Keywords: interactivity, method, interactive, exponential function, logarithm, logarithmic equation, matching method, BBB method, traffic light method, base, equivalent.


Kirish: Bugungi kunda ta'limgiz jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni mukammal

egallagan mutaxassis va uni amalda qo'llay olish natijasida ta'limning sifat va samaradorligini oshirish, uni tahlil qilish bugungi kunning dolzarb vazifasi bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda ko'pchilik o'qituvchilarimizda dolzarb muammo "O'quvchilar darsga qulq solmaydi, uyga vazifa bajarishmaydi, bolalar juda sho'x"- deb barcha ayb o'quvchiga yuklanadi. Hech o'ylab ko'rganmisiz, balki, o'qituvchi shunga sharoit yaratib berayotgandir, uning eskicha metodlari o'quvchilarda zerikish va darsga bo'lgan qiziqishni yo'qotgan bo'lishi mumkin. O'quvchilarga mehr berib, darsda turli o'yinlar, interfaol metodlarni qo'llasak, maqsadga erishgan bo'lamiz. Bugungi kunda bir qancha rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy texnikalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi "Interfaol metodlar" nomi bilan yuritilmoxda, shu kabi interaktiv o'yinlar ham dars davomida tashkil qilinadi. Interaktiv o'yinlar – nazariy, amaliy, rolli, jismoniy, ishchanlik va bir qancha turlarga bo'linadi. Bunda o'quvchilar o'chash, hisoblash, tahlil qilish, sinash, solishtirish, xulosa chiqarish, nutq o'stirish, mustaqil qaror qabul qilish kabi biliqlarni o'rganadi. Hozirda yangi metodlarni yoki innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish haqida gap borganda interfaol usullarning o'quv jarayonida qo'llanilishi tushuniladi [1].

Interfaollik - bu o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni o'quv – biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida, dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o'quvchi va o'qituvchining o'zaro muloqoti asosida kechadi. Interfaollik – o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, u o'quvchi va o'qituvchi muloqotlarida sodir bo'ladi. Interfaol usulning bosh maqsadi: O'quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin fikr yuritishiga muhit yaratishdir. U o'zining intelektual salohiyatini, imkoniyatlarini namoyon etadi, o'quv sifati va samaradorligini oshiradi. Interfaollik asosida o'tgan darsni tashkil etish shunday kechadiki, bu jarayonda birorta ham o'quvchi chetda qolmaydi, ya'ni ular ko'rgan, bilgan, o'ylagan fikrlarini ochiq - oydin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladi [2].


Hozirgi davrda o'quv jarayoniga pedagogik yangiliklarni kiritish, innovations usul hamda metodlardan foydalanib ta'limning samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalar qo'llanilmoqda. Ushbu maqolada umumta'lim maktablarining Matematika kursidan ma'lum bo'lgan "Logarifm tenglamalar" mavzusini o'qitishda turli xil zamonaviy metodlar va interaktiv o'yinlar keltiriladi, uslubiy ko'rsatmalar beriladi [3].

Asosiy qism: Bizga 10-sinf matematika kursidan ma'lumki, "Logarifmik tenglamalar" mavzusi bilan tanishib o'tamiz. Bu mavzuni o'zlashtirish uchun o'quvchilar "Ko'rsatkichli funksiya" haqida, "Logarifm" bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishlari kerak. Biz 8-sinf algebra kursida "Logarifm" tushunchasi bilan tanishgandik. Oldingi darsda esa, "Ko'rsatkichli funksiya" mavzusini bilib oldik. Agar o'quvchilar shu ma'lumotlarga ega bo'lishsagina yangi mavzuni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga uchrashmaydi. Yangi mavzu bayonini boshlashdan oldin o'quvchilarni katta guruhlarga bo'lib olamiz. O'quvchilarni aylana stollar atrofida yig'ishga harakat qilamiz. Bu usul o'quvchilarni bir-biri bilan ishlashiga, munozara o'tkazishiga yordam beradi. Endi har bir guruhga bittadan sardor tayinlaymiz [4]. Guruh sardorlarini o'quvchilarni o'zları saylashadi. Har bir guruhga o'zları uchun nom tanlaymiz.



1-rasm

Yangi mavzuni boshlashdan oldin o‘tilgan mavzuni takrorlash uchun guruhlarga tarqatma testlar tarqatamiz va ularni yashil, sariq va qizil kartochkalar bilan baholaymiz. Bunda “Svetafor” metodidan (1-rasm) ham foydalangan bo‘lamiz.



2-rasm

Mavzuni tushuntirayotganda slayd va ko‘rgazmali materiallardan foydalanamiz. Bu darsni qiziqarli o‘tishiga va o‘quvchilarning mavzuni yaxshiroq tushunishga yordam beradi [5].

O‘tilgan mavzuni takrorlash uchun “Tezkor savol-javob” metodidan foydalanamiz.

1-guruh uchun savollar

$$\log_2 16 =$$

2.Funksiya grafigini chizing.

$$y = 2^x$$

3.Funksiyalar kesishish nuqtalarini toping.

$$y = 4^{-x} \text{ va } y = 16$$

2-guruh uchun savollar.

1.Hisoblang.

$$\log_5 0,04 =$$

2.Funksiya grafigini chizing.

$$y = 3^x$$

3.Funksiyalar kesishish nuqtalarini toping.

$$y = 2^{-2x} \text{ va } y = 8$$

3-guruh uchun savollar.

1. Funksiya grafigini chizing.

$$y = 4^{-x}$$

2. Hisoblang.

$$\log_{25} 625 =$$

3. Funksiya kesishish nuqtalarini toping

$$y = 3^x \text{ va } y = 9 \text{ funksiyalar kesishish nuqtalarini toping.}$$

O‘quvchilar ushbu savollarga javob berishadi, o‘qituvchi o‘quvchilarni javoblarini tinglab, javoblariga qarab yuqorida keltirilgan kartochkalani ko‘rsatadi. Bu metoddan foydalanishning afzalliklari o‘quvchilar fikrini ochiq namoyon qilishadi, o‘tgan mavzuni qay darajada tushunganliklarini bilib olish mumkin.

O'tilgan mavzu takrorlangandan keyin yangi mavzu boshlanadi. Avval "Logarifm" tushunchasini eslab olib keyin "Logarifmik tenglamalar" mavzusiga kiriladi.

$a > 0, a \neq 1$ bo'lsin, ***N* sonining a asos bo'yicha logarifmi** deb, N sonini hosil qilish uchun a sonini ko'tarish kerak bo'lgan daraja ko'rsatkichiga aytildi hamda $\log_a N$ bilan belgilanadi [6].

Logarifmik tenglama ma'lum almashtirishlardan keyin $\log_a x = \log_a b$ (1) yoki $\log_a x = b$ (2) ko'rinishga keltiriladi. (1) dan $x = b$ va (2) dan $x = a^b$ yechimni topamiz.

1-misol. $\log_2(x^2 + 5x + 2) = 3$ tenglamani yeching.

Yechish: Berilgan tenglama x ning $x^2 + 5x + 2 = 2^3$ tenglik bajariladigan qiymatlardagina qanoatlantiradi. Bundan $x^2 + 5x + 2 = 8$ kvadrat tenglamaga ega bo'lib, $x_1 = 1, x_2 = -6$ yechimni topamiz.

2-misol. $\log_3(2x + 3) = \log_3(x + 1)$ tenglamani yeching.

Yechish: Bu tenglama x ning $2x + 3 > 0$ va $x + 1 > 0$ shartlarni qanoatlantiruvchi qiymatlari uchun aniqlangan. Bu tengsizliklarni yechib tenglamaning mavjudlik sohasi $x \in (-1, \infty)$ ni aniqlaymiz. Berilgan tenglama $2x + 3 = x + 1$ tenglamaga teng kuchlidir. Bundan $x = -2$ ni topamiz. Ammo bu ildiz tenglamaning mavjudlik sohasiga kirmaydi. Binobarin, berilgan tenglamaning ildizlari mavjud emas.

3-misol. $\log_x(x^2 - 3x + 3) = 1$ tenglamani yeching.

Yechish: Bu tenglama x ning $x > 0, x \neq 1$ (x logarifmning asosi bo'lgani uchun) shartlar va $x^2 - 3x + 3 = x$ yoki $x^2 - 4x + 3 = 0$ tenglik bajariladigan qiymatlardagina qanoatlantiriladi. Hosil bo'lgan kvadrat tenglamaning ildizlari 1 va 3 bo'lib, $x = 1$ berilgan tenglamaning yechimi bo'la olmaydi. Demak, berilgan tenglamaning ildizi faqat $x = 3$.

4-misol. $\log_5 x - 6 \log_x 5 = 1$ tenglamani yeching.

Yechish: Bu tenglamaning mavjudlik sohasi $x \in (0, 1) \cup (1, \infty)$ bo'ladi. x asosli logarifmdan 5 asosli logarifmga o'tib, $\log_5 x - \frac{6}{\log_5 x} - 1 = 0$ ni, bundan $(\log_5 x)^2 - \log_5 x - 6 = 0$ ni hosil qilamiz. Bu kvadrat tenglamani noma'lum $\log_5 x$ ga nisbatan yechib, $\log_5 x_1 = 3$ va $\log_5 x_2 = -2$ ni topamiz. Bu tengla-malardan $x_1 = 5^3 = 125$ va $x_2 = 5^{-2} = \frac{1}{25}$ larni topamiz. Bu ildizlarning ikkalasi ham tenglamani qanoatlantiradi.

5-misol. $\lg(2^x + x + 3) = x - x \lg 5$ tenglamani yeching.

Yechish: Ketma-ket teng kuchli tenglamalar bilan almashtirib, topamiz:

$$\lg(2^x + x + 3) = \lg 10^x - \lg 5^x$$

$$\lg(2^x + x + 3) = \lg \frac{10^x}{5^x} = \lg 2^x$$

$$2^x + x + 3 = 2^x;$$

$$x + 3 = 0$$

$$x = -3$$

Javob: $x = -3$

Yangi mavzuni mustahkamlash uchun “**Mosini top**” metodidan foydalanamiz.

№	Savollar		Javoblar	Moslik
1	$\log_6 x = 1296$	A	5	
2	$\log_5 x + \log_5 25 = 3$	B	9	
3	$\log_5(7x + 5) = \log_5(5x + 3)$	C	$\frac{100}{49}$	
4	$\log_3 x = 2$	D	1,5	
5	$\log_{0,7} x = -2$	E	-1	
6	$\log_{\frac{1}{3}}(5x - 2) = \log_{\frac{1}{3}}(3x + 1)$	F	16	
7	$\log_4 x = 2$	G	4	

Bu metodimiz har bir guruhga beriladi va ular birgalikda moslikni topishadi. Bu metodimiz o‘quvchilarga to‘g‘ri javobni eslashda yoki mantiqiy fikrlab topishda birov imkoniyat yaratadi. Qolaversa, bu o‘yinda o‘quvchilar o‘zining qo‘snnisi kimligiga qiziqadilar va misollarni diqqat bilan kuzatib topishadi. Bu o‘yin esa o‘quvchilarga guruh bilan ishslashga, ahillikka undaydi. O‘quvchilar nechta to‘g‘ri topganiga qarab bal beriladi. O‘sha balli kartochkalar berib boriladi.

Endi o‘quvchilarni zerikib qolmasligi uchun “Mening raqamimni toping” o‘yinini tashkil qilamiz. Bunda 1 dan 100 gacha qaysi raqam hayolimda? Mening raqamimni toping, o‘quvchilar siz o‘ylayotgan raqamni taxmin qilishlari kerak. Bu barchaning mantiqiy fikrlash qobiliyatini mashq qilish uchun yaxshi matematik o‘yin. Ular “Toq sonmi?”, “5 ga karralimi?”, kabi savollarni berishlari mumkin, doskadagi o‘quvchi esa boshqa hech qanday javob bermasdan faqat “HA” yoki “YO‘Q” javoblarini berishi mumkin. Bu o‘yinda ham o‘quvchilarni topqirligi baholanadi va baholash kartochkalari berib boriladi.

Endigi metod “... bilar edim, ... bilib oldim, ... bilmoxchiman “ deb nomlanadi. Qisqacha “BBB”. Bu metodimiz suhbat metodiga kiradi, ya’ni o‘quvchilar bilan muloqot qilishdir. Metodimiz 3 qismdan iborat, birinchi qism “... bilar edim” hammadan logarifmik tenglamalar mavzusi haqida nimalarni o‘rganganligini so‘rab chiqamiz, so‘ng ikkinchi qism “... bilib oldim” bunda o‘quvchilarga shu 1 soat dars davomida nimalar bera oldik, bilimini oshira oldikmi? yoki yo‘qmi? kabi savollarga javob olamiz, ya’ni hammadan nimani o‘rganganligini bir so‘z bilan aytishini so‘raymiz, 3 qismda “... bilmoxchiman” bunda esa o‘quvchilar nimalarni tushunmaganini va shu mavzuga doir qanday savollar tug‘ilsa, savollarini beradi. Bu metod o‘qituvchi uchun juda muhim hisoblanadi. O‘qituvchi barchani fikrini eshitib, savollarga javob beradi. Bunda ham o‘quvchilarga bilimiga qarab baholanadi. Dars oxirida uchta guruhnini ham ballari qo‘silib g‘alaba qozongan jamoaga rag‘batlantirish beriladi.

Xulosa qilib aytganda, maktab o‘quvchilariga Matematika kursining “Logarifm”, “Logarifmik tenglamalar” mavzusini o‘qitish jarayonida maqolada keltirilgan ma’lumotlardan foydalanish

orqali, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, yangi mavzuni bayon qilish, mavzu bo‘yicha olingan bilimlarni mustahkamlash qismlarini tashkil etish zarur. Ushbu maqolada o‘tgan mavzuni mustahkamlash uchun “Mosini top” metodidan foydalanildi, bu metodning afzallik taraflari o‘quvchilarni tez ishlashga va guruhi bo‘lib ishslashga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. R.X.Vafayev., J.X.Xusanov. Algebra va analiz asoslari.–T.: O‘qituvchi, 2003 – 368 b.
2. Kurbonov, G. (2022). Didactic possibilities of teaching general subjects on the basis of digital educational technologies. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2(1.5 Pedagogical sciences).
3. Rasulov, T., & Kurbonov, G. (2022). DEVELOPING STUDENTS’CREATIVE AND SCIENTIFIC SKILLS WITH MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2(1.5 Pedagogical sciences).
4. A.Abduxamidov., A.Nasimov va boshqalar. Algebra va matematik analiz asoslari. Akademik litseylar uchun qo‘llanma. .–T.: O‘qituvchi, 2007 – 462 b.
5. A.Meliqulov va boshqalar. Matematika. I, II qism. Kasb-hunar kollejlari uchun qo‘llanma. – T.: 2003.
6. Курбонов F.F., Абдужалолов, Ў.Ў. (2021). Геометрия фанини масофадан ўқитиш тизимининг асосий дидактик тамойиллари ва технологиялари. // Science and education, 2(9), 354-363.

BIZNESPEDAGOGIKADA KONSALTING VA KEYS METODLARINING QO'LLANILISHI

Rajabov Sardor Baxtiyarovich

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi

Bugungi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining asosiy talabi malakali kadrlardir. Biz tarbiyalayotgan kadrlar tirishqoq, talabchan, izlamuvchan, yangilikka intiluvchan bo'lmas ekan, kelajakka ildam qadam tashlay olmaymiz. Chunki bozor iqtisodiyoti bir nuqtada to'xtab qolmasdan, tez fursatda rivojlanishni talab qiladi. Buning uchun tarbiyalayotgan kadrlarimiz yaratuvchan, ijodkor shaxslar bo'lmog'i lozim. Bu ko'nikma va malakalarni o'quvchilar umumiyligi o'rta ta'lim makkablarida tahsil olayotgan vaqtlaridayoq egallashlari lozim. Mazkur maqolada muktab o'quvchilarini iqtisodiy savodxonligini rivojlantirish, o'quvchilarni tadbirkorlikka yo'nlatirishning o'ziga xos usullari va vositalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: biznespedagogika, tadbirkorlik, tadbirkorlikning ilk bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini shakllantirish, biznes loyihibalarini amalga oshirish ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, tadbirkorlikka oid bilimlarni berish.

ПРИМЕНЕНИЕ КОНСАЛТИНГОВЫХ И КЕЙС-МЕТОДОВ В БИЗНЕС-ПЕДАГОГИКЕ

Rajabov Sardor Baxtiyarovich

научный соискатель Национального института педагогики образования имени Кари Ниёзи

Главным требованием современного перехода к рыночной экономике являются квалифицированные кадры. Если персонал, которого мы готовим, не будет трудолюбивым, требовательным, любознательным и жаждущим инноваций, мы не сможем двигаться вперед в будущее. Потому что рыночная экономика требует быстрого развития, а не стагнации. Чтобы достичь этого, персонал, которого мы обучаем, должен быть творческими и новаторскими личностями. Эти навыки и квалификации учащиеся должны приобретать еще во время обучения в средней школе. В статье рассматриваются конкретные методы и инструменты развития экономической грамотности школьников и мотивации их стать предпринимателями.

Ключевые слова: бизнес-педагогика, предпринимательство, формирование начальных знаний, навыков и компетенций предпринимательства, развитие навыков и квалификаций для реализации бизнес-проектов, передача знаний о предпринимательстве.

APPLICATION OF CONSULTING AND CASE METHODS IN BUSINESS PEDAGOGY

Rajabov Sardor Bakhtiyorovich

Independent Researcher at the National Institute of Educational Pedagogy named after Qori Niyazi

The main requirement of today's transition to a market economy is qualified personnel. If the personnel we are educating are not diligent, demanding, inquisitive, and innovative, we will not be able to take a step forward into the future. Because the market economy requires rapid development, not stagnation. For this, the personnel we are educating must be creative and inventive individuals. These skills and qualifications must be acquired by students while they are still in secondary schools. This article discusses specific methods and tools for developing the economic literacy of schoolchildren and guiding students to entrepreneurship.

Key words: business pedagogy, entrepreneurship, formation of initial knowledge, skills and competencies of entrepreneurship, development of skills and qualifications for implementing business projects, imparting knowledge about entrepreneurship.

Biznespedagogikaning maqsadi - məktəb o'quvchilarida tadbirkorlikka bo'lgan qiziqishni orttirish, tadbirkorlikning ilk bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini shakllantirish, ularni iqtisodiy savodxonlikka o'rgatish hamda mustaqil hayotda o'z biznes loyihalarini amalgalashish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishdir. Boshqacha qilib aytganda, biznespedagogikaning asosiy vazifasi - məktəbda tadbirkorlik ta'limi orqali o'quvchilarda biznes kompetensiyalarini shakllantirish va ularni iqtisodiy mustahkamlikka tayyorlashdan iboratdir.

Biznespedagogika pedagogika fanining yangi, zamonaviy bir bo'limi. U o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga, ularning ijtimoiy va iqtisodiy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan. Pedagogika fanidagi «ta'lim», «tarbiya», «faoliyat» kabi tushunchalar biznespedagogikada ham ahamiyat kasb etadi. Ya'ni ta'lim: tadbirkorlikka oid bilimlarni berish (masalan, biznes-reja tuzish, marketing, moliyaviy savodxonlik); tarbiya: o'quvchilarda tadbirkorlik ruxini, mas'uliyat xissini, ijtimoiy faoliytkni tarbiyalash; faoliyat: amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilarga real biznes loyihalarini amalgalashish imkoniyatini yaratishni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy umumiy o'rta ta'limga tizimining asosiy maqsadi — o'quvchilarda kompetensiyalarini shakllantirish. Shu bois biznespedagogikada quyidagi kompetensiyalar alohida ahamiyatga egadir: kognitiv kompetensiyalar, ya'ni biznesga oid nazariy bilimlarni egallash; amaliy kompetensiyalar - real biznes loyihalarini amalgalashish; ijtimoiy kompetensiyalar – munosabatlarda samarali ishslash, komandada faoliyat ko'rsatish; shaxsiy kompetensiyalar - ijodkorlik, qaror qabul qilish, mas'uliyat hissi va h.k.

Ana shunday kompetensiyalarini rivojlantiruvchi metodikalardan biri biznes konsaltingdir. Bunda biznespedagog ota-onalar bilan g'oyiborna suhbat vuradi. Ularga savollar beradi. Javoblarini tahlil qilib, tegishli maslahatlar beradi. Bu metodni mavjud pedagogik telegram kanallardan biridagi biznespedagogik konsalting misolida ko'rsatish mumkin.

Biznespedagogik konsalting.

Biznespedagog: "Menga ota-onalar har xil savollar berishadi. Yaqinda bir yosh ota-onan "O'g'limiz 3 sinfda. U kelajakda boy, tadbirkor bo'lsin, deymiz. Nima qilsak ekan? Qanday o'rgatsa bo'ladi?", deb so'rashdi.

Hammaga foydali bo'lsin, deb, mana bu tavsiyani tayyorladim:

Bolangiz 1-4 sinflardan birida o'qiydi. Uning kelajakda boy va muvaffaqiyatli bo'lishini istaysizmi?

"Ha", dedingizmi? Dastlab mana bu 3 metodni qo'llab ko'ring.

1. O'zi qaror qilsin! – O'zi o'ylab, qaror qilishni o'rgating. Masalan, "Bugungi ishlaringni o'zing rejalashtir" yoki "Qanday qilib pul topish mumkin, deb o'ylaysan?"

2. Pulni to'g'ri ishlatishni o'rgating! – Do'konda xarid qilishda tejashni, sarmoya to'plashni o'rgating. Buning uchun har xil, kichik o'yinlarni tashkil qiling. Masalan, u bir hafta 10 000 so'm to'plasa, siz uni ikki baravar ko'paytirib bering!

3. Tadbirkordek fikrlashni o'rgating! – Undan: "Qanday qilib biror narsani yaratib, odamlarga foyda keltirsa bo'ladi?" deb so'rang. Buni o'lay boshlagan bola – ertaga tadbirkor bo'ladi!"

Agarda ushbu suhbat shu bilan tugasa, o'rta va yuqori sinf o'quvchilari qamrab olinmay qoladi. Shuning uchun telegram kanalda biznespedagog mavzuni shunday davom ettiradi:

"5-8 sinf o'quvchisi bo'lgan farzandingiz tadbirkor bo'lishini istaysizmi?

Unda:

1. O'zi o'ylab, qaror qilishga o'rgating!

O'smir mustaqil fikrlab, to'g'ri qaror qilishni bilmasa, katta bo'lganda boshqalarning fikriga bog'lanib qoladi. Shuning uchun uni o'ylab, o'zi qaror qabul qilishga o'rgating.

Savollar:

- O'rtog'ing senga yoqmaydigan biror ishni qilamiz, desa, nima qilasan?
- Qaror qilishda tuyg'ularingga ishonasanmi yoki aqlinggami?

• Senda bir taklif bo'lsa, uni boshqalarga qanday tushuntirasan?

2. Pulni to'g'ri boshqarishni o'rgating!

O'smir pulni tejash, rejalashtirib, to'g'ri sarflashni o'rganishi kerak. Bu uni kelajakda moliyaviy savodxon qiladi.

Savollar:

- Agar senda 100 000 so'm bo'lsa, uni qanday ishlatarding?

- Qimmatroq narsa olish uchun qanday qilib pul yig‘ish mumkin?
- Pul topish yo‘llarini o‘ylab ko‘rganmisan?
- 3. Tadbirkordek o‘yashni o‘rgating!

Har bir odamda biror ishni boshqalardan yaxshiroq qilish qobiliyati bor. Bolangizga o‘zida ana shu qobiliyatini topish yo‘lini ko‘rsating.

Savollar:

- Qaysi ishni sen boshqalarga qaraganda yaxshiroq uddalaysan? Buning odamlarga qanday foydasi tegishi mumkin?

- Hozirdan mo‘jal qilib qaraganingda, kelajakda sen qaysi ishning ustasi bo‘lishing mumkin?
- O‘zing yaxshi qiladigan ishni boshqalarga o‘rgatib, pul topish imkoniyati bo‘lsa, nima qilgan bo‘larding?

Biznespedagogik konsalting - multimodal innovatsiya. Shu bois u 1 sinfdan 11 sinfgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda biznespedagogikaning yangi metodik modeli bo‘la oladi. Shuning uchun 9-11 sinflarga differensial yondoshadi:

9-11 sinf o‘quvchisi bo‘lgan farzandingiz tadbirkor va muvaffaqiyatli bo‘lishini istaysizmi?
Unda:

1. Mustaqil qaror qabul qilishni o‘rgating!

Har bir odam o‘z hayotida muhim qarorlar qabul qilishiga to‘g‘ri keladi. Agar yoshlikdan bu ko‘nikma rivojlantirilmasa, katta bo‘lganda inson ikkilanuvchan, beqaror, omadsiz bo‘ladi.

Savollar:

- Agar senga bir taklif yoki imkoniyat berilsa, uni qabul qilish yoki rad qilishda nimalarga asoslanib qaror qilasan?

- Qaroringga kimdir qarshi chiqsa, o‘z fikringni qanday himoya qilasan?
- Xato qilmay, deb, qarorni paysalga solish to‘g‘rimi? Nima uchun?

2. Pulni to‘g‘ri boshqarishni o‘rgating!

Bolangiz maktabni bitirayapti. Hayotni moliyaviy savodxoniksiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Telefon, elektr, odamlar bilan muomalani o‘rgangandek, pul bilan muomala qilishni ham hozirdan o‘rgansa, pand yemaydi. Bankrot bo‘lmaydi.

Savollar:

- Senga har oy 500 000 so‘m berilsa, uni qanday ishlatasan?
- Pul tejash va ishlatishni bilish muhimmi? Aytchi.
- O‘qish bilan bir vaqtida pul topishning qanday yo‘llari bor?

3. Tadbirkorlik va ijodiy fikrlashni rivojlantiring!

Muvaffaqiyatga erishish uchun bilimning o‘zi kam. Yangicha fikrlash, imkoniyatlarni bilish va ulardan foydalanish kerak.

Savollar:

- Sen odamlarga qanday naf keltira olasan?
- Tanlagan sohangda zo‘r mutaxassis bo‘lish uchun nima qilmoqchisan?
- Maktabni bitirgach, qaysi biznes yo‘nalishini tanlaysan? Nega?

“Bolam hali yosh. Bu gaplarga erta”, demang. Gaplasting! Uning fikrlari sizni hayratga soladi. Aniq.”

Maktab biznespedagogikasi nafaqat iqtisodiy bilim beradi, balki o‘quvchilarning hayotdagagi tadbirkorlik ko‘nikmalarini o‘rganib boradi. Bu bilan maktab yoshidan tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantrish ularning kelajakda mustaqil va ijodiy fikrlaydigan, iqtisodiy savodli shaxs bo‘lib yetishishiga yordam beradi. Ushbu maqsadda “Biznespedagogik keyslar” metodidan foydalanish mumkin. Quyida tadqiqotimiz davomida to‘plangan ayrim namunalarni keltiramiz:

Keyslar.

1 keys. Humoyun skeytini nega arendaga berdi? (2024 yil oktyabr).

Chirchiqlik Humoyunning onasi hikoya qiladi: O‘g‘limiz Humoyun 13ga to‘ldi. Bir ishlar qiladi, hayron qolayapmiz. Uning 2ta skeyti bor. Uchishni zo‘r o‘rganib olgan. Sinfoshi Yusuf ham skeyt uchishni yaxshi ko‘radi. Bitta skeytingni menga sot, dedi. Humoyun, yo‘q, ular men uchun qadrli, sotmayman, dedi. Lekin men sendan ayamayman. Men senga 1 oyga bittasini arendaga beraman. Ikkinchisi skeytda esa senga o‘zim o‘rgataman. Evaziga sen mening 1 oylik

avtobus pulimni to‘laysan. Kelishdikmi”, debdi. Boshlashdi.

Otasi: “O‘rtog‘ingga shunday bervorsangchi”, dedi. Oyisi: “Nima qilasan, vaqtingni bekor ketkazib”, dedi. Humoyun shunday bervorsa, skeytidan, o‘rgatmasa, do‘sitan ayrilardi. U oltin o‘rtaliqni topdi.

Shunday qilib, Yusuf 1 oy mazza qilib uchdi. Humoyundan uchishni o‘rgandi. Humoyun tadbirkorlik qildi. Yo‘l kiraga(ATTO) berilgan 300 000 so‘m uning yonida qolayapti. Yusuf ham xursand, Humoyun ham xursand.

2 keys.

Bilol basketbolni qanday o‘rgandi?

Samarqandlik 14 yoshli Bilolning do‘siti Akbar basketbol to‘garagiga qatnay boshladi. To‘garak 1 oylik to‘lovi 520 000 so‘m. Akbar har kuni yangi o‘rgangan priyomlarini Bilolga aytib berardi. To‘garak bo‘lmagan kunlari maydonda o‘zi shug‘ullanardi. Bilol qiziqib qoldi.

Bilol masalani qanday tadbir qildi?

U Akbarga: «Akbar. Sen basketbolda zo‘rsan. Agar sen bilganlaringni kimgadir o‘rgatsang, bundan ham zo‘r bo‘lasan. Menga o‘rgat», dedi. Akbar rozi bo‘ldi. Akbar maydonchada shug‘ullanganida u ham bordi. Endi Akbar o‘rganganlarini Bilolga ko‘rsatib, o‘rgatayapti. Ota-onasi buni bilib, sen ham bor basketbol to‘garagiga qatnash. Pulini to‘laymiz, deyishdi. Bilol: «Menga shu pulning yarmini beringlar. O‘zim mustaqil, zo‘r o‘rganib olaman», dedi. Ota-onas Jon deb rozi bo‘lishdi. Akbar qancha ko‘p o‘rgatsa, mahorati shuncha oshdi. Rostdanam, Akbar hozir (2025, mart) maktab komandasida №1 o‘yinchiga aylandi. Bilol 2 oyda basketbolni o‘rganib oldi. To‘garak puli yonida qolayapti. Ota-onas bilan kelishuvi asosida har oy uning cho‘ntagiga 260 000 so‘m pul tushayapti.

O‘ylashingiz mumkin, balki Bilol kompyuter o‘yinlarida yuribdi, deb. Yo‘q. U har gal Akbar bilan mashg‘ulotini, o‘rganganlarini video, fotosini ota-onasiga yuborib turdi.

3 keys.

12 yoshli tadbirkor Behruz.

Toshkentlik Behruz gitara chalishga qiziqib qoldi. Buvisi qarshi chiqdi. «Zotimizdan artist chiqmagan. Bir kaming ko‘chada gitara chalib pul ishlashmi? Uyat. Bizni sharmanda qilma», dedi.

Behruz o‘z so‘zida qattiq turdi. «Menga kiyim-narsalar kerak emas. Gitara olib beringlar», dedi. O‘zi internet do‘kondan gitara topdi. Oyisi bilan borib, 1 mln so‘mga sotib oldi. Sotuvchi «yosh bola ekan, qiziqayapti», deb, gitara g‘ilofini sovg‘a qivordi.

Gitara uyda. Endi uni chalishni o‘rganish kerak edi. Musiqa to‘garagi bor. Ammo 1 oylik to‘lovi 700-850 000 so‘m. Ota-onasi «Sen baribir gitarist bo‘lmaysanku. Shuncha pulni bekorga yo‘q qilmaymiz», deyishdi. Shu bilan gap tugadi. Behruz o‘yladi. Topdi. «Men internetdan o‘rganaman», dedi. Gitara chalishni yutubdan 6 oyda o‘zi o‘rganib oldi. Hozir u 16 yoshda. Maktab tadbirlarida gitara chalib turadi. Hozir uning qiziqishlari o‘zgargan. U tilshunos bo‘lmoqchi. O‘zbek, rus, ingliz tillarini mukammal biladi. Chet ellikkarga o‘zbek tilini o‘rgatuvchi o‘quv markazi ochmoqchi .

Biznespedagogikaning metodik asoslari pedagogika, psixologiya, iqtisodiyot va texnologik innovatsiyalar kabi ko‘plab fanlarga tayanadi. Uning maqsadi o‘quvchilarda tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish, ularni iqtisodiy savodxonlikka o‘rgatish va mustaqil biznes faoliyatini amalga oshirishga tayyorlashdan iborat. Bu asoslar o‘z navbatida zamonaviy ta’lim tizimini takomillashtirishga, yoshlarda tadbirkorlik ruxini orttirishga va jamiyatda iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo‘shishga xizmat qiladi.

Umumiy o‘rtalama muassasalarida o‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi holatini o‘rganish iqtisodiy savodxonlik maktab biznespedagogikaning asosiy elementlaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. U o‘quvchilarga pul bilan ishlash, byudjet tuzish, investitsiyalarga qaraganda foyda-zarar tahlilini o‘rgatish, soliq tizimini tushunish kabi mavzularni o‘z ichiga oladi. Iqtisodiy savodxonlik tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bilim va ko‘nikmalarni shakllantiradi. Ushbu maqsadda biznespedagogika o‘zining metodik bazasini paydo qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. X.Ibraimov, M.Quronov. Umumiy pedagogika, darslik. «Ilm ziyo zakovat», 2022.
2. X.Ibraimov, M.Quronov, F.Ibragimova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik. -T., «Sahhof», 2024.
3. X.Ibraimov va boshqalar. Ota-oná – murabbiy. Ota-onalar uchun uslubiy-metodik qo‘llanma. “G‘afur G‘ulom” nomidagi nashriyot-matba ijodiy uyi 2024.
4. Alimov, A.J. Tadbirkorlik asoslari / A.J. Alimov. — T.: «Fan va texnologiya», 2020. — 192 b.
5. Yunusxodjaeva, D.M. Tadbirkorlikni rivojlantirishda ta’limning o‘rni / D.M. Yunusxodjaeva. — T.: «Iqtisod», 2019. — 144 b.
6. Juraev, Sh.J. Maktab o‘quvchilarida iqtisodiy bilim va tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi / Sh.J. Juraev. — T.: «O‘qituvchi», 2021. — 208 b.
7. Nazarov, Q.N. Tadbirkorlik faoliyati: nazariya va amaliyat / Q.N. Nazarov. — T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2018. — 236 b.
8. Burxonov, M.B. Tadbirkorlik ta’limi metodikasi / M.B. Burxonov. — T.: «Ilm va taraqqiyot», 2022. — 168 b.
9. Khomenko, N.V. Development of Entrepreneurial Competencies in School Students: Educational Approaches / N.V. Khomenko. — Moscow: Prosveshchenie, 2019. — 134 p.
10. Davlat ta’lim standarti: Umumiy o‘rtta ta’lim. Texnologiya fanidan davlat ta’lim standarti. — Toshkent: «O‘zstandart», 2021. — 36 b.
11. O‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha metodik qo‘llanma / tuz. S.A. Qo‘chqorov. — T.: «TA’LIM-MEDIA», 2020. — 112 b.
12. Gibb, A. Enterprise Culture and Education: Understanding Enterprise Education and its Links with Small Business, Entrepreneurship and Wider Educational Goals / A. Gibb. — London: NFER-Nelson, 2018. — 148 p.
13. <https://t.me/MQuronKontenti/81>. Ko‘rilgan sana 2025 yil 26 mart.

TA'LIM JARAYONIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING LOYIHALASH KOMPETENTLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATSION YONDASHUV

Rashidov Abduaziz Abduvali o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Pedagogika kafedrasasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning loyiha yaratish kompetentliklarini rivojlanirishda integratsion yondashuvning ahamiyatini o'rnatadi. Mualliflar, ta'lim tizimida samarali o'qitish uchun o'qituvchining loyiha asosidagi kompetentliklarga ega bo'lishi zarurligini ta'kidlaydilar. Integratsion yondashuv orqali, o'quvchilarni yaratish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlanirishga qaratilgan usullar keltirilgan. Maqolada pedagogik strategiyalar va metodikalar ko'rib chiqilib, kelajakdagagi o'qituvchilarni yangi sharoitlarga moslashishga tayyorlashga oid takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: bo'lajak o'qituvchilar, loyiha yaratish, kompetentlik, integratsion yondashuv, ta'lim jarayoni, metodikalar, pedagogik strategiyalar.

В РАЗВИТИИ ПРОЕКТНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ ЧЕРЕЗ ИНТЕГРАЦИОННЫЙ ПОДХОД

Рашидов Абдуазиз Абдували оғлы

Преподаватель кафедры педагогики Шахрисабзского государственного
педагогического института

Аннотация: Данная статья рассматривает интеграционный подход в развитии проектных компетенций будущих учителей в образовательном процессе. Подчеркивается важность того, чтобы учителя обладали проектными компетенциями для эффективного преподавания. Интеграционный подход используется для улучшения навыков создания проектов и критического мышления, которые необходимы будущим педагогам. В статье также рассматриваются различные педагогические стратегии и методы, направленные на подготовку будущих учителей к вызовам современного образования.

Ключевые слова: будущие учителя, проектные компетенции, интеграционный подход, образовательный процесс, педагогические стратегии, методы преподавания, развитие компетенций.

IN THE DEVELOPMENT OF FUTURE TEACHERS' PROJECT-BASED COMPETENCIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS THROUGH THE INTEGRATION APPROACH

Rashidov Abduaziz Abduvali o'g'li

Teacher at the Department of Pedagogy, Shahrisabz State Pedagogical Institute

Abstract: This article examines the integration approach in the development of future teachers' project-based competencies in the educational process. It emphasizes the importance of teachers acquiring project-based competencies for effective teaching. The integration approach is used to enhance skills in project creation and critical thinking, essential for future educators. The article also discusses various pedagogical strategies and methods aimed at preparing future teachers for challenges in modern educational settings.

Keywords: future teachers, project-based competencies, integration approach, educational process, pedagogical strategies, teaching methods, competency development.

Oliy ta'limda bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda qator yangiliklar, o'zgarishlar paydo bo'lmoqda. Ta'lim dasturlarini yaratish hamda ularni amalga oshirishda oliy ta'lim bitiruvchisi turli xil murakkablikdagi muammoli masalalarni hal etish, ularni hal qilishning an'anaviy hamda noan'anaviy usullarini topa bilishi kerakligini inobatga olishi lozim. Buning uchun ma'lum bir kasbga xos bo'limgan, ammo zamonaviy mutaxassis uchun zarur bo'lgan shaxsiy xususiyatlarni shakllantirish lozim. Hozirgi kunda oliy ta'limning pedagogika yo'nalishlarida bo'lajak

o‘qituvchilarning loyihalash kompetenligini oshirish vazifasi bugungi kunda dolzarbligicha qolmoqda. Zamonaviy sharoitda boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha bo‘lajak mutaxassislarga qo‘yiladigan talablar o‘zgarmoqda, o‘zgaruvchan beqaror sharoitlarda samarali ishlashga va harakat qilishga tayyor, sharoitlarni hisobga olgan holda muammolarni hal qilishning eng yaxshi yo‘lini topadigan bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyalash vazifasi o‘zgarmoqda. Shu munosabatda, talabaning shaxsiy qarashlarini samarali shakllantiradigan hamda rivojlantiradigan yo‘llarini topa bilish, ularni kasbiy hamda shaxsiy muammoli masalalarini hal etishda mustaqil ravishda foydalanish kerak bo‘ladi. Agar o‘quv dasturlarini ishlab chiquvchilar tomonidan kasbiy va umumiy kasbiy kompetensiyalarga yetarlicha e’tibor berilsa, u holda o‘qitishning pedagogika yo‘nalishlarida universal kompetensiyalar shakllanadi, aytish mumkinki, qoldiq prinsipiiga ko‘ra bilvosita yoki gumanitar fanlar sikli orqali o‘qitish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlarini, manfaatdor tomonlar va talabalarning talablarini hisobga olmasdan, lekin aynan universal kompetensiyalar kasbiy faoliyatda ham, shaxsiy faoliyatda ham samaradorlikka erishishga imkon beradi. Talabalar ta’lim jarayonida shakllanadigan ana shunday universal kompetensiyalardan biri loyiha kompetensiyasidir. «Loyihalash kompetentligi» tushunchasi ko‘plab sohalarda qo‘llaniladi). Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, loyiha, loyihalash jarayoni, loyiha metodi tushunchalariga tayanib, loyihalash kompetentligini bo‘lajak o‘qituvchilarning loyihalash jarayonini amalga oshirish qobiliyati hamda tayyorgarligini tavsiflovchi integral, dinamik shaxsiy xususiyat sifatida belgilab oladilar.

Loyihalash kompetentligi loyiha bilimlari hamda ko‘nikmalar, loyihalash jarayonidagi tajribasi hamda unga motivatsion-qiymatli munosabatga yo‘naltirilganligi, shu bilan birga, baholash harakatlarining yig‘indisini aks ettira oluvchi shaxsning integral dinamik xususiyati sifatida qaraladi. Kasbiy hamda shaxsiy sohalarda loyihalarni muvaffaqiyatli ravishda yarata olish imkoniyatini beradi. Bundan ko‘rinib turibdiki, loyihalash kompetentligining tuzilishi kognitiv, faollik, motivatsion-qiymatli va aks ettiruvchi-baholash komponentlarining birligilaridir. So‘nggi yillar ichida bo‘lajak o‘qituvchilarning loyihalash kompetentligini oshirishga oid bir qator ishlarga bag‘ishlangan bo‘lib, ularda mualliflar turli tuman pedagogik texnologiyalarni qo‘lladilar: O.I.Vaganova, M.N.Gladkov muammoli-loyihali ma’ruzadan foydalanadi; T.A.Parfenova o‘quv kurslarini tashkil etib hamda bo‘lajak pedagoglar o‘quv amaliyoti davrida bolalar bilan birgalikda ishlab chiqiladigan bo‘lajak o‘qituvchilarning loyihalarini amalda joriy etish tizimini taqdim etadi; S.B. Guliyans chet tili yordamida bo‘lajak o‘qituvchilarning individual marshrutlarini amalga oshirish orqali muammoni hal qiladi ; bir qator boshqa mualliflar loyiha texnologiyasidan asosiy texnologiyalardan biri sifatida qo‘llaydilar. Umuman olganda, bugungi davrda universitet talabalarining loyihalash kompetentligi ta’lim hamda darsdan tashqari faoliyatiy jarayonlar bilan bog‘liqdir bular loyihalar asosida shakllantiriladi, degan xulosaga kelish lozim. Shu munosabat bilan, ushbu tadqiqot ishning maqsadi ta’lim hamda auditoriyadan tashqari loyihalash jarayonini integratsiyalashgan holda muhandislik ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha bo‘lajak kadrlarning loyihalash kompetentligini oshirishni o‘rgana olish hamda tadqiqotning asosiy vazifalari — tegishli ta’lim shakllarini aniqlay bilish, tashkiliy hamda pedagogik shart-sharoitlar, loyihalash kompetentligining kognitiv, faoliyat, motivatsion, refleksiv komponentiga qaratilgan baholash hamda diagnostika vositalarini yarata olish sanaladi.

O‘rgangan ilmiy tadqiqotlardan shu xulosaga keldikki, ta’lim jarayoni talabaning o‘ziga qaratilgan jarayondir, o‘z-o‘zini o‘stirish, rivojlanish, ijtimoiy-madaniy tajribani ijtimoiy foydali, kognitiv, nazariy jihatdan xar xil turdag‘i hamda shakllarda ongli hamda maqsadli o‘zlashtira olish tufayli shaxsini shakllantira olish hamda o‘zini o‘zi rivojlanirishdir. Biroq, bo‘lajak o‘qituvchilarning rivojlanishi nafaqat auditoriya, balki auttoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda ham amalga oshiriladi, bu ko‘p jihatdan talabalarning shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondira olishga yordamlashadi.

Olimlar tomonidan auditoriyadan tashqari bo‘lgan ishlar quyidagilardir;

- bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishida ahamiyatli jarayonlarini shakllantira olish imkoniyati (N.A.Muslimov) ;

- talabalarni ijtimoiylashtira olish hamda shaxsiylashtirish vositasi (Z.T.Raximov) ;

- bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsini shakllantira olish vositasi (O.A.Qo‘ysinov);

- bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy hamda shaxsiy takomillashtirish vositasi (B.A.Nazarova);
- kasbiy yo'nalishni rivojlantirish sharti sifatida talabalarning auditoriyadan tashqari bo'lgan ishlarini loyihalash (M.B.Urazova).

Sinfdantashqari mashg'ulotlarni o'qishdan bo'sh bo'lgan vaqtlarida hamda o'quv mashg'ulotlari maxsus ajratilgan vaqtida amalga oshirilganligi sababli, biz auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar bir-biriga zid emas, balki bir-birini to'ldiradi degan xulosaga kelishimiz mumkin, bu bizga ta'lim va mustaqil faoliyatning integratsiyalashuvi shartini ko'rib chiqishga imkon beradi. Biroq, ta'lim loyihasi va alohida auditoriyadan tashqari loyiha faoliyati integratsiya uchun shart emas, bu borada loyihalar tizimini yaratish imkoniyatlarini ko'rib chiqish shart deb hisoblanadi.

Auditoriyadan tashqarida bo'lgan faoliyatning turli yo'nalishlari bilan uzviy ravishda shug'ullanadigan, talabalar nafaqat o'z kasbiy faoliyatlarini egallabgina qolmay, balki ma'naviy rivojlanishining yangi darajasiga ko'tariladilar. Shu munosabat bilan auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar to'g'ri tashkil etilgan taqdirda o'quv fanlari mazmunining mantiqiy davomiga aylana olishi lozim. Agar ta'lim jarayonida loyihalar tizimini o'quv rejasiga muofiq ravishda fan tayyorlay olish yo'nalishi, fan modullari hamda fanlararo loyihalarni ishlab chiqish orqali amalga oshirish lozim bo'lsa, auditoriyadan tashqari bo'lgan loyihalarni auditoriyadan tashqari holatda alohida mustahkamlay olish lozim. Tadqiqotimizcha bunday mustahkamlanish auditoriyadan tashqari bo'lgan loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, talabalarning bирgalikdagи faoliyati ham bo'lishi mumkin. Yuqoridagi pozitsiyalardan kelib chiqib, tashkiliy-pedagogik shartlardan biri auditoriya hamda auditoriyadan tashqari bo'lgan mashg'ulotlar mazmunini shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan hamda kasbiy yo'naltira olinadigan loyihalar tizimi bilan boyitib boriladi. Tadqiqotning amaliyoti bilan bog'liq ko'rinishda, loyihalash faoliyati tizimini tashkil eta olishni loyihalar majmuasi sifatida ko'rib chiqish tadqiqotga yanada qiziqish uyg'otadi.

Bugungi kunda «majmua» tushunchasi umumiy ilmiy ta'rifga ega emas, ko'pincha majmua va tizimni taqqoslash, shuningdek, integratsiyalashgan va tizimli yondashuv, ularni umumlashtirish yoki umumlashtirish orqali ularning farqlarini ta'kidlash nazarda tutiladi. N.A.Muslimov, M.B.Urazovalar ushbu xususiyatlarning farqlarni ajratib ko'rsatadi bular: 1) katta amaliy yo'nalish; 2) integral yondashuvning sub'ektiv tabiatidir. Ko'rib chiqilayotgan yondashuvlar o'rtasidagi munosabatlarning batafsil tahlilini taqdim eta oladi hamda yondashuvlarning ajralib turadigan ob'ektlari sifatida o'rtasidagi farqni, qisqacha sabab-natija munosabatlari bilan tavsiflangan hamda integratsiyalashgan yondashuvning ko'proq bo'lgan amaliy yo'nalishini, yaxlitligini ta'kidlab beradi. Ushbu ilmiy tadqiqotning muhim omillari:

- o'rganilayotgan ob'ektning yaxlit ekanligi tizimni faqat auditoriya hamda auditoriyadan tashqari bo'lgan loyihalash faoliyatining birligida samarali deb hisoblash imkonini beradi;
- loyihalash faoliyati tizimini joy va vaqt nuqtai nazaridan ko'rib chiqish bizga kerak bo'lgan loyihalarning asosiy yo'nalishini — bo'lajak muhandislik kasbiy faoliyatidan kelib chiqib o'rganish imkoniyatini ochib beradi;
- talabalar uchun loyihalarning shaxsiy yo'nalishi hamda shaxsiy ahamiyatlari muhim omillardan biri sanaladi.

Tamoyillar	Mazmuni
Izchillik tamoyili	loyiha jarayonini bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim talabalariga mos ravishda shaxsiy yo‘nalish hamda loyihalarning shaxsiy ahamiyatini asoslab tarkib topgan tizim ko‘rinishida belgilay olish, shu bilan birga, bo‘lajak kasbiy faoliyat talablarini inobatga olgan va unga yo‘naltirilgan loyihiilar
Murakkablik tamoyili	o‘quv jarayoni materiallarining o‘zaro bog‘liqligida kuzatilishi mumkinki, fanlarning o‘quv dasturining modullari, ta’limning maqsadi, uning o‘zaro bog‘liq bo‘lganligini aks ettira oluvchi muhandislik ta’lim yo‘nalishlarining bo‘lajak kadrlarining loyihalash kompetentligini oshirishga qaratilgan.

1.3.1-jadval. Loyihalash tizimini tashkil qilishning asosiy omillari

Belgilangan tamoyillarga asosida, «boyitish» atamasi bu — birinchi tashkiliy-pedagogik shartning mohiyati to‘liq aks ettiriladi. Boyitish ta’limning mazmunini sifat jihatidan qayta tashkil etish bo‘yicha harakatlarning ketma-ketligini o‘z tarkibiga oladi, bunda u talabaning shaxsiy o‘sishi maqsadiga to‘liq javob bera oladi hamda ushbu holatda loyihalash kompetentligining takomillashishiga ko‘maklashadi. Shu munosabatdan boyitish quyidagi qismlarga bo‘linadi: ta’lim jarayonida shaxsiy ahamiyatga molik hamda kasbiy yo‘naltirilgan loyihiilar tizimini ishlab chiqish sanaladi.

Loyihalash tizimini yaratishda amalga oshirilayotgan ishlardan biri bu kadrlar tayyorlashning muhandislik yo‘nalishidagi talabalarni qayta o‘qitish jarayonini modernizatsiya etishdir. Tanlangan harakatlar tadqiqot uchun muhim bo‘lgan tamoyillarni belgilaydi. Loyihalar tizimini qurishda loyihalash faoliyatining xususiyatlarini, shuningdek, auditoriya va auditoriyadan tashqari jarayonlarning imkoniyatlarini hisobga olish kerak.


Bizning ta’rifimizcha, bo‘lajak o‘qituvchilarning loyihalash jarayoni muntazam ravishda amalga oshirishda quyidagilarga alohida e’tiborni qaratish lozim deb hisoblanadi:

- loyihalash faoliyati usullarini o‘zlashtira olish;
- loyihalash faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan faktorlarni to‘plash;
- mustaqil ravishda bajariladigan loyihalarni o‘rganish hamda bajarilishini kuzatib borish, sifatini tahlil etish;
- loyihani amalga oshirishga harakat qilish.

Bundan kelib chiqib, fan doirasida o‘quv materialini tushinishga (hayotiy tajribaga tayanish orqali) tayyorlikni paydo qilish mantiqiydir; ijodiy izlanish holatlarini rivojlantirish (ijodiy fikrlashni oshirishga qaratilgan usullardan o‘z vaqtida foydalanish); loyihalashdagi shaxsiy ahamiyatni tarkib toptirish (faoliyatni sinfli tashkil qilish orqali); loyihani amalga oshirish faoliyatida o‘qitish talablarni taqdim etish zarur bo‘ladi.

A.A. Vasilev xonadan tashqari guruh mashg‘ulotlarning maqsadlari kasbiy o‘zini o‘zi belgilay olish sharoitida aniqlab olinishi lozimligini ta’kidlaydi, sababi bu talabalarning malakali kadr bo‘lishlari uchun ijobjiy motivlarni shakillantiradi. A.A. Verbiskiy ta’kidlab o‘tadiki, oliy ta’limdagи o‘quv jarayoni birinchi kursdan boshlab talabaning kelajakdagi kasbiy faoliyatini modellashtirish orqali ishlab chiqarishga izchil tizimli yondashish yo‘lidan borishi kerak. Biz mualliflarning fikriga qo‘silamiz va loyihiilar tizimini yaratish jarayonida kasbiy yo‘nalishni u yoki bu darajada ushlab

turishni mantiqiy deb hisoblanadi, xususan, faol o'rgana olish usullarini qo'llash lzoim ko'rindi: simulyatsiya usullari (o'yin-o'yinsiz), kasbiy jarayonni simulyatsiya etish asosida. Yuqoridagi aytip o'tilganlarga tayanib, biz kasbiy yo'naltirish tamoyilini keltirib o'tamiz.



1.1.1-rasm. Talabalarning auditoriya va auditoriyadan tashqari faoliyatini loyihalash algoritmi

Tuzib chiqilgan tashkiliy-pedagogik shart sharoit 1.1.1-rasmida ko'rsatib chiqilgan talabalarining loyihalash kompetentligini oshirishga qaratilgan auditoriya hamda auditoriyadan tashqari bo'lgan loyihalash jarayonini integratsiyalashning algoritmida o'z aksini topadi.

Xulosa qilib aytganda, loyihalash tizimini ishlab chiqishda e'tiborga molik bo'lgan asosiy boshlang'ich nuqtalarni ajratib ko'rsatishimiz lozim: o'quv materialini idrok etishga tayyorlikni shakllantira olish; ijodiy izlanish jarayonlarini ishlab chiqish; dizayndagi shaxsiy ahamiyatni shakllantira olish; loyihani amalga oshirish jarayonida o'qitish talablari hamda operativ nazoratni taqdim qilish; kasbiy yo'nalishdagi masalalarga e'tiborni qaratish; muvaffaqiyatga turki bo'lishi lozim bo'lgan xatti-harakatlarni inobatga olish. Ushbu ilmiy maqola ta'lif jarayonida bo'lajak o'qituvchilarining loyiha yaratish kompetentliklarini rivojlantirishda integratsion yondashuvning ahamiyatini o'rganadi. Integratsion yondashuv o'qituvchilarini turli fanlar va metodlarni birlashtirishga, shuningdek, o'quvchilarda yaratish va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Bu yondashuv ta'lif jarayonini yanada samarali qilish uchun o'qituvchilarga yangi usullarni qo'llash imkonini yaratadi. Loyerha asosidagi kompetentliklar, o'qituvchilarga o'quvchilarga nafaqat bilimlarni etkazish, balki ularni ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish va mustaqil ishlashga o'rgatish imkonini beradi. Integratsiya yondashuvi bo'yicha o'qituvchilarni

tayyorlashda metodik va pedagogik strategiyalar muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchilarni yangi pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirish va ularga zamonaviy metodlarni o‘rgatish, ta’lim jarayonini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Integratsion yondashuv, shuningdek, o‘quvchilarida tanqidiy fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Maqolada, ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda innovatsion usullarni qo‘llash va ularga loyihaviy faoliyatni o‘rgatishning samarali usullari ko‘rib chiqiladi. Bu, o‘qituvchilarni nafaqat o‘z sohasida bilmidon, balki yangiliklarga ochiq, ijodiy yondoshuvga ega mutaxassislar sifatida tayyorlashga xizmat qiladi. O‘qituvchilarni loyiha asosida o‘qitish va metodikalarni integratsiyalash ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishga imkon yaratadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda, integratsion yondashuvdan foydalanish, ularning pedagogik kompetentliklarini oshirishga yordam beradi. Bu yondashuv ta’limda o‘quvchilarga yangi bilimlar bilan birga, ularga amaliy ko‘nikmalarni ham berishga imkon yaratadi. Maqolada ta’kidlanganidek, integratsion yondashuv o‘qituvchilarni innovatsion fikrlashga va zamonaviy ta’lim talablari asosida faoliyat yuritishga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, maqolada integratsion yondashuvning o‘qituvchilarni o‘zaro hamkorlik va jamoaviy ish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni ham ko‘rsatilgan. Bu, o‘qituvchilarning o‘zaro tajriba almashishlari va yangiliklarga tez moslashishlariga yordam beradi. Ta’lim jarayonida integratsion yondashuvdan foydalanish, o‘qituvchilarga o‘z ishlarida yangi metodlarni qo‘llash, o‘quvchilarga esa zamonaviy ta’lim usullarini tushunish imkonini beradi. Bu jarayonning barchasi bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy va ilg‘or ta’lim tizimlariga moslashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrida qabul qilingan «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘RQ-637-sonli Qonuni (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha xarakatlar strategiyasi to‘g‘risida» 07.02.2017 y., PF-4947, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son 448-modda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 20.04.2017 y., PQ-2909, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 18-son, 313-modda, 19-son, 335-modda, 24-son, 490-modda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori «Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 27.07.2017 y., PQ-3151, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 30-son, 729-modda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 5.06.2018 y., PQ-3775 Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

Karimov I.A. «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch». T.: «Ma’naviyat». 2008.- 176 b.

Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

Abu Nasr Forobi. Risolalar. Mas’ul muharrir O‘zbekiston Respublikasi FA haqiqiy a’zosi M.M.Xayrullaev. Toshkent, «Fan» nashriyoti, 1975, 71-72 b.

Abu Rayxon Beruniy. Tanlangan asarlar. – T.: Fan, Vtom. 1976. 664 b .

Abdulla Avloniy Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. 2-jild. – T.: Ma’naviyat, 1998. –304 b.

Urazova M.B. Teoriya i praktika sistemy podgotovki buduščego pedagoga k proektivnoy deyatelnosti (na primere napravleniya professionalnogo obrazovaniya). – Tashkent: Kamalak, 2012. – 142 s.

A.R.Soxibov O‘quv qo‘llanma. “Pedagogik fikrlar taraqqiyoti” Qarshi “Nasaf” 2022 yil 18,6 b.t

A.R.Soxibov Darslik “Umumiy pedagogika” Qarshi “Nasaf” 2023 yil 22,0 b.t

Raximov Z.T., Muslimov Sh.N., Imomov M.P., Keldiyorova M.G. Pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. Toshkent “Fan va texnologiyalar” nashriyoti – 2021. 192 b.

TA'LIMDA O'YIN TEXNOLOGIYALARI: O'QITUVCHILARNING KASBIY O'SISHINI YAXSHILASH UCHUN ELEKTRON TIZIMLAR ORQALI O'QITISH USULLARINI ISHLAB CHIQISH VA BAHOLASH

Rashidov Sherzod Abdirayimovich

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti "Matematika va informatika" kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

Annotasiya: Ta'limdagi o'yin texnologiyalari o'qituvchilarning kasbiy o'sishini yaxshilash uchun elektron tizimlar orqali o'qitish usullarini ishlab chiqish va baholashga innovatsion yondashuvni ifodalaydi. Ushbu yondashuv o'qituvchilarda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va boshqa asosiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan o'quv o'yinlari va simulyatsiyalarni yaratish uchun o'yin tamoyillari va texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan. Ushbu xulosada o'yinga asoslangan o'qitish usullarini ishlab chiqish va amalga oshirishning asosiy jihatlari, shuningdek, ularning o'qituvchilarning kasbiy o'sishiga ta'siri haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: o'yin texnologiyalari, ta'lim, o'qitish usullari, elektron tizimlar, kasbiy o'sish, o'qituvchilar.

ИГРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБРАЗОВАНИИ: РАЗРАБОТКА И ОЦЕНКА ЭЛЕКТРОННЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГА

Rashidov Sherzod Abdirayimovich

Независимый научный сотрудник кафедры «Математика и информатика» Узбекско-Финляндского педагогического института

Аннотация: игровые технологии в образовании представляют собой инновационный подход к разработке и оценке методик обучения через электронные системы с целью повышения профессионального роста педагогов. Этот подход основан на использовании игровых принципов и технологий для создания образовательных игр и симуляций, способствующих развитию критического мышления, проблемного решения и других ключевых компетенций у педагогов. В данной аннотации рассматриваются основные аспекты разработки и внедрения игровых методик обучения, а также их влияние на профессиональный рост педагогов.

Ключевые слова: игровые технологии, образование, методики обучения, электронные системы, профессиональный рост, педагоги.

GAMING TECHNOLOGIES IN EDUCATION: DEVELOPING AND EVALUATING ELECTRONIC LEARNING METHODS TO ENHANCE TEACHER PROFESSIONAL DEVELOPMENT

Rashidov Sherzod Abdirayimovich

Independent researcher of Department "Mathematics and Informatics" of Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute

Annotation: gaming technologies in education represent an innovative approach to the development and evaluation of teaching methods through electronic systems in order to improve the professional growth of teachers. This approach is based on the use of game principles and technologies to create educational games and simulations that promote the development of critical thinking, problem solving and other key competencies in educators. This abstract discusses the main aspects of the development and implementation of game-based teaching methods, as well as their impact on the professional growth of teachers.

Key words: gaming technologies, education, teaching methods, electronic systems, professional growth, teachers.

Kirish. Zamonaviy ta'lim sharoitida o'yin texnologiyalari ta'lim jarayonlarini rivojlantirish

uchun tobora dolzarb va talab qilinadigan vositaga aylanmoqda. Elektron o‘yinlar, simulyatsiyalar, virtual olamlar va boshqa interaktiv ilovalar shakllari o‘rganish va o‘qitish tajribasini boyitish uchun noyob imkoniyatlar yaratadi. Biroq, ta’limda o‘yin texnologiyalaridan samarali foydalanish, ayniqsa, o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishi sharoitida maxsus o‘qitish usullarini ishlab chiqish va ularning samaradorligini baholashni talab qiladi[2].

Bugungi o‘qitish amaliyoti tobora ko‘proq o‘qitishning innovatsion usullaridan, jumladan, o‘yin texnologiyalaridan foydalanishga qaratilgan. Biroq bunday usullarni ishlab chiqish va samaradorligini baholashga yondashuvlar, ayniqsa, o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish nuqtai nazaridan yetarlicha o‘rganilmagan.

Doimiy o‘zgaruvchan ta’lim landshafti sharoitida, yangi texnologiyalar va o‘qitish metodologiyalariga moslashish zarur bo‘lgan sharoitda, o‘yin texnologiyalarini o‘qitish amaliyotiga qanday kiritish mumkinligini tushunish va ularning o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga ta’sirini qanday baholash kerak. [4].

Ushbu tadqiqotning maqsadi elektron o‘yinlar orqali mavjud o‘qitish usullarini tahlil qilish va ularni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish, shuningdek, o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga ta’sirini hisobga olgan holda bunday usullarning samaradorligini baholashga yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat [1].

Ushbu mavzuni o‘rganish o‘qituvchilar jamoasi uchun muhim ahamiyatga ega, chunki uning natijalari zamonaviy talablarga moslashtirilgan yangi o‘quv dasturlarini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi, shuningdek, o‘yinlardan samarali foydalanish orqali o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirishga yordam beradi. ta’limdagи texnologiyalar [3].

Shunday qilib, ushbu tadqiqot o‘quv amaliyotida o‘yin texnologiyalaridan samarali foydalanish bo‘yicha bilim bo‘shlig‘ini to‘ldirishga qaratilgan va umuman ta’lim sohasini rivojlantirish uchun muhim tavsiyalar beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Elektron tizimlar orqali mavjud o‘qitish usullari o‘yin texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiyalashning turli xil yondashuvlarini ifodalaydi. Muhim jihatlardan biri talabalarning ehtiyojlari va imkoniyatlariga moslashtirilgan maxsus o‘yin dasturlarini ishlab chiqishdir. Shu nuqtai nazardan, Gee va boshqalar (2003) va Schaffer va boshqalar (2005) faol va chuqur o‘rganish uchun o‘yin texnologiyalarining ahamiyatini ta’kidlaydi [2].

Muqobil yondashuv - real o‘rganish va o‘quv vaziyatlarini yaratish imkonini beruvchi simulyatorlar va virtual olamlardan foydalanish. Aldrich (2009) va Kapp (2012) asarlari ta’limda qo‘llash uchun bunday vositalar va strategiyalarning keng ko‘lamini beradi.

Biroq, bu o‘qitish usullarining samaradorligini baholash bir xil darajada muhimdir. Prenskiy (2001) ishida o‘yin texnologiyalari orqali o‘quv natijalarini baholashning o‘ziga xos xususiyatlari, jumladan, turli baholash metodologiyalari va pedagogik ta’sirni o‘lchash vositalari muhokama qilinadi [6].

Shuningdek, Squier (2006) va Defreitas va Oliverning (2006) tadqiqotlari e’tiborga loyiqidir, ular o‘yinga asoslangan o‘qitish usullarini qo‘llash kontekstini hisobga olgan holda samaradorligini baholashga yondashuvlarni taklif qiladi. [4][1].

Tadqiqot metodologiyasi. “Ta’limda o‘yin texnologiyalari: o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishini yaxshilash uchun elektron tizimlar orqali o‘qitish usullarini ishlab chiqish va baholash” mavzusidagi tadqiqot maqsadlariga erishish uchun sifat va miqdoriy ma’lumotlarni tahlil qilish yondashuvlarining kombinatsiyasi qo‘llaniladi.

Sifatli metod sifatida elektron tizimlar orqali ishlab chiqilgan o‘qitish metodlarining mazmuniy xususiyatlarini tahlil qilish amalga oshiriladi. Bu bizga o‘quv o‘yinlarini qo‘llashda qo‘llaniladigan asosiy mavzular, tamoyillar va yondashuvlarni aniqlash, shuningdek, ularning o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishini yaxshilash maqsadlariga muvofiqligini baholash imkonini beradi.

Miqdoriy usul sifatida ishlab chiqilgan usullardan foydalanish samaradorligi to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlarni tahlil qilish qo‘llaniladi. Bunda o‘quvchilar faoliyati ko‘rsatkichlari, ularning o‘qishga qiziqishi va motivatsiyasi darajasi tahlili, shuningdek, usullardan foydalanish natijalari bo‘yicha o‘qituvchilarning fikr-mulohazalari kiradi. Statistik ma’lumotlarni tahlil qilish uchun korrelyatsiya tahlili, statistik ishlov berish va natijalarni sharhlash usullari qo‘llaniladi.

Muhokama va natijalar. Tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, ayniqsa, o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirish sharoitida ko'plab ta'lim dasturlarining assosiy maqsadi hisoblanadi. Ta'limda o'yin texnologiyalaridan foydalanishning bir qismi sifatida ushbu maqsadga erishishga yordam beradigan bir qator innovatsion yondashuvlar mavjud [3].

Bunday yondashuvlardan biri o'yin elementlarini o'quv o'yinlariga integratsiya qilishdir. Gamifikatsiya talabalarni rag'batlantirish va jalg qilish uchun o'yindan tashqari kontekstlarda o'yin mexanikasi va dizayn elementlaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Kapp (2012) va Deterding va boshqalar (2011) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda gamifikatsiya samaradorligini ko'rsatadi.

Yana bir innovatsion yondashuv - ta'limda virtual haqiqatdan (VR) foydalanish. VR muhitlari o'quvchilar turli muammolar va muammolarni hal qilish uchun tanqidiy fikrlashdan foydalanishni talab qiladigan interaktiv stsenariylarni yaratishga imkon beradi. Beyli va Lampa (2018) tadqiqotida o'qituvchilarida analitik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda VRdan muvaffaqiyatli foydalanish misollari keltirilgan.

Ushbu innovatsion yondashuvlar o'qituvchilarining kasbiy o'sishi uchun zarur bo'lgan asosiy vakolatlarni rivojlantirishga hissa qo'shib, o'yin texnologiyalarini o'quv jarayoniga samarali integratsiya qilish imkonini beradi.

Innovatsion o'qitish usullarini ishlab chiqish va joriy etish. O'qituvchilarini yangi usul va vositalarga o'rgatish ta'lim sifatini oshirish va o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirishda muhim o'rinni tutadi. Ta'limda o'yin texnologiyalaridan foydalanish doirasida o'quvchilarining o'ziga xos xususiyatlariga va ta'lim jarayonining kontekstiga moslasha oladigan innovatsion o'qitish usullarini ishlab chiqish va joriy etish zarurati tug'iladi.

O'qituvchilarga yangi texnikani o'rgatishning samarali usullaridan biri bu o'quv o'yinlari va simulyatsiyalardan foydalanishdir. Miller va Parker (2014) va Karleson va Kellner (2018) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, o'yinga asoslangan ta'lim tamoyillar va strategiyalarni ko'proq tushunishga yordam beradi, shuningdek, o'qituvchilar tomonidan ta'limga faoliytni oshiradi.

O'qitishning innovatsion uslublarini ishlab chiqish va joriy etishning muhim jihatni ta'lim muassasalarining foydalanish imkoniyatini ta'minlash va qo'llab-quvvatlashdir. O'yin texnologiyalarini ta'lim amaliyotiga muvaffaqiyatli integratsiya qilish uchun o'qituvchilarini tayyorlash va o'qitish, shuningdek, elektron ta'lim tizimlaridan foydalanish uchun infratuzilmani yaratish kerak. Duran va Shahid (2017) ishlarida ta'lim muassasalarida o'yin texnologiyalarini muvaffaqiyatli joriy etish modellari va ularni o'qituvchilarining ehtiyojlariga moslashtirish tajribasi keltirilgan.

Shunday qilib, elektron tizimlar orqali o'qitishning innovatsion usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish pedagoglarning kasbiy o'sish sur'atlarini oshirish, ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa va takliflar. Ta'limda o'yin texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchilarining kasbiy o'sishini oshirish uchun elektron tizimlar orqali o'qitish usullarini ishlab chiqish va baholashga mazmunli va istiqbolli yondashuvni ifodalaydi. O'yin va texnologiyaga asoslangan o'qitish usullari zamonaviy ta'limda samarali o'qitish uchun zarur bo'lgan tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va boshqa asosiy vakolatlarni rivojlantirish imkoniyatlarini namoyish etadi.

Ushbu sohadagi kelajakdag'i tadqiqotlar bir nechta asosiy jihatlarga e'tibor qaratishi mumkin. Birinchidan, o'yin texnologiyalaridan foydalangan holda elektron tizimlar orqali turli xil o'qitish usullarining samaradorligini yanada chuqurroq o'rganish, shuningdek, ularni baholashning yangi innovatsion yondashuvlarini ishlab chiqish kerak. Ikkinchidan, o'yin texnologiyasining o'qituvchilarining motivatsiyasi va o'qitishdagi faolligiga ta'sirini, shuningdek, o'quvchilarining bilim olish natijalarini yaxshilashga ta'sirini o'rganish muhimdir.

Bundan tashqari, ta'lim muassasalarining turli sharoitlari va o'quvchilar ehtiyojlariga o'yinga asoslangan o'qitish usullarini moslashtirish jihatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bu shaxsiylashtirilgan ta'lim o'yinlari va ilovalarini ishlab chiqishni, shuningdek, o'yin texnologiyalarini turli ta'lim fanlari va fanlariga integratsiyalashni o'z ichiga olishi mumkin.

Umuman olganda, ta'limda o'yin texnologiyalari sohasidagi keyingi tadqiqotlar o'quv

jarayoni haqidagi tushunchamizni sezilarli darajada kengaytirish va o‘qitishning innovatsion yondashuvlarini rivojlantirish va o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishini yaxshilashga hissa qo‘shish imkoniyatiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

DÉ Freitas, S., & Oliver, M. (2006). How can exploratory learning with games and simulations within the curriculum be most effectively evaluated? *Computers & Education*, 46(3), 249-264.

Shaffer, D. W., Squire, K. R., Halverson, R., & Gee, J. P. (2005). Video games and the future of learning. *Phi Delta Kappan*, 87(2), 104-111.

Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011). From game design elements to gamefulness: defining “gamification”. In *Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference: Envisioning Future Media Environments* (pp. 9-15). Association for Computing Machinery

J.E.Rustamov. Methods of Teaching, Methodology And Teaching Technologies in The Development of The Skills of Today’s Economists in The Electronic Information, International Journal of Scientific Research And Education. Volume||07||Issue||03||March-2019||Pages-8114-8118||ISSN(e):2321-7545 Website: <http://jsae.in>.

Squire, K. (2006). From content to context: Videogames as designed experience. *Educational researcher*, 35(8), 19-29.

Gee, J. P. (2003). What video games have to teach us about learning and literacy. *Computers in Entertainment (CIE)*, 1(1), 20-20.

Mattiev, I. B. (2022, February). Innovation technologies in education system and their USE. In Conference Zone (pp. 167-168)

Mattiyev, I. B. (2024). Talabalarda madaniyat mazmunining invariantini o‘zlashtirganda subyektivlikka aylanish jarayonining mexanizmlari. Ta’limning zamonaviy transformatsiyasi, 3(1), 210-213.

TECHNOLOGY AND TRADITIONAL CULTURE: NEW OPPORTUNITIES AND CHALLENGES

Rasulova Iroda,
doctor of philosophy (PhD) in pedagogy

Khurramova Bibikhonim Dilshod kizi,

*Republic of Uzbekistan, ShSPI (Shahrisabz State Pedagogical Institut) Theory and history
of pedagogy 1st year master's student*

Annotation: New inventions in the late 20th century revolutionized society's understanding of life and humanity, significantly boosting communication and information access. Information technology quickly became widespread, impacting all areas of life, from work and education to leisure. This accelerated modern life, expanded horizons beyond traditional culture, and enabled unprecedented communication. Essentially, Information and Communication Technologies (ICT) reached everyone, regardless of location or background. Consequently, traditional culture underwent a transformation, altering its essential qualities and importance to individuals.

Key words: cultural ,digital culture, digitalization, technology, cultural innovation.

ТЕХНОЛОГИИ И ТРАДИЦИОННАЯ КУЛЬТУРА: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ И ВЫЗОВЫ

Расулова Ирода,

Хуррамова Бибихоним Дишиод кизи,

*Республика Узбекистан, ШГПИ (Шахрисабзский государственный педагогический
институт) Теория история педагогики, студентка 1 курса магистратуры*

Аннотация: Новые изобретения в конце 20-го века произвели революцию в понимании обществом жизни и человечества, значительно улучшив коммуникацию и доступ к информации. Информационные технологии быстро получили широкое распространение, повлияв на все сферы жизни, от работы и образования до досуга. Это ускорило современную жизнь, расширило горизонты за пределы традиционной культуры и сделало возможным беспрецедентное общение. По сути, информационно-коммуникационные технологии (ИКТ) достигли каждого, независимо от местоположения или происхождения. Следовательно, традиционная культура претерпела трансформацию, изменив свои основные качества и важность для людей.

Ключевые слова: культура, цифровая культура, цифровизация, технологии, культурные инновации.

Traditional cultures, repositories of accumulated knowledge, values, and practices, are increasingly facing pressure from globalization and rapid technological advancements. Technology, while offering unprecedented opportunities for communication and access to information, also presents significant challenges to the continuity and evolution of these cultures. This research addresses the urgent need to understand the complex dynamics between technology and tradition, exploring how digital tools and platforms are reshaping cultural landscapes worldwide. The research focuses on identifying the opportunities technology offers for cultural preservation and transmission, as well as the risks it poses to cultural integrity and diversity. Ultimately, this study seeks to inform strategies for the responsible and sustainable integration of technology into traditional cultural contexts. In an era defined by rapid technological advancement, traditional cultures stand at a crossroads. The digital revolution offers unprecedented avenues for connection, preservation, and cultural exchange, yet simultaneously poses significant challenges to the very fabric of these time-honored ways of life. This article delves into this dynamic interplay, examining how technology is reshaping traditional practices, values, and identities, and exploring strategies for harnessing its potential while mitigating its risks.

Digitalization has gained such popularization and support in modern society that it requires a systematic positioning of this process in the scientific and worldview picture of the world. Simply highlighting the principles of digital space functioning is not enough, since digitalization is not only a mechanism or a resource, but sometimes claims to be an alternative or a complete replacement for traditional forms of human activity. One of the methodological approaches to the scientific and cultural characterization of digitalization is the strategy of developing the digital world and integrating digital principles into all spheres of social activity.

Technology's capacity to democratize information and communication presents invaluable opportunities for traditional cultures. Endangered languages, oral histories, and cultural artifacts, often vulnerable to loss or decay, can be meticulously preserved through digital archiving. These archives serve as invaluable resources for future generations, ensuring the continuity of cultural knowledge. Online platforms provide a global stage for artisans, musicians, storytellers, and cultural practitioners to share their traditions with a wider audience. This expanded reach not only generates income and recognition but also fosters cross-cultural understanding and appreciation. Technology facilitates communication and collaboration between diaspora communities and their homelands. This connection strengthens cultural ties, promotes knowledge transfer, and supports the revitalization of traditional practices. Indigenous communities and cultural groups are increasingly using social media and online platforms to advocate for their rights, raise awareness about cultural issues, and challenge stereotypes. This digital activism amplifies their voices and empowers them to shape their own narratives. Interactive language learning apps, online courses, and digital storytelling initiatives are proving effective in revitalizing endangered languages and transmitting cultural knowledge to younger generations.

Despite the potential benefits, technology also presents significant challenges to traditional cultures.

Cultural Homogenization: The pervasive influence of global media and consumer culture can lead to the erosion of unique cultural identities and the homogenization of cultural expression. Traditional values and practices may be overshadowed by Westernized norms and trends. The ease with which digital content can be copied and shared creates a risk of cultural appropriation, where elements of traditional cultures are used without permission or understanding, often for commercial gain. This can devalue the cultural significance of these elements and disrespect the communities from which they originate.

Devaluation of Traditional Skills: The availability of mass-produced goods and digital alternatives can lead to the devaluation of traditional skills and crafts. Artisans and craftspeople may struggle to compete with cheaper, machine-made products, threatening their livelihoods and the survival of their traditional knowledge. Rapid technological change can create a disconnect between generations, as younger people embrace new technologies while older generations struggle to adapt.

One of the most important guidelines for improving the process of digital transformation in the cultural and artistic environment is the flexibility of stakeholders in this space (Demirkan & Spohrer, 2018). It is particularly important to emphasize that flexibility should be actualized on both sides of the participants who ensure the digitalization of the cultural and artistic space: both on the part of cultural figures and artists in the context of their perception of innovative digital formats in the cultural sphere, and on the part of technical support for digital resources where cultural content is created, distributed and broadcast.

Unequal access to technology and digital literacy exacerbates the challenges faced by many traditional communities. Limited internet access, lack of affordable devices, and insufficient digital skills can prevent these communities from fully participating in the digital economy and accessing the benefits of technology.

In conclusion, while technology poses challenges to preserving traditional cultures, it also offers opportunities for cultural conservation and innovation. With mindful integration and a commitment to valuing cultural heritage, technology and tradition can coexist and enrich each other. Technology can also preserve and revitalise traditional cultures. Digital platforms can serve as repositories for cultural knowledge, enabling the documentation and dissemination of traditions

that might otherwise be lost. Virtual and augmented reality technologies can offer immersive experiences of cultural heritage sites and practices, fostering greater appreciation among a global audience. Furthermore, technology can facilitate the blending of tradition with modernity. Traditional artisans can leverage e-commerce platforms to reach a broader market, ensuring the continued relevance of their crafts. Social media can also be a powerful tool for cultural exchange, allowing people from diverse backgrounds to share and celebrate their traditions globally.

References

- Jones, M. D., Hutcheson, S., & Camba, J. D. (2021). Past, present, and future barriers to digital transformation in manufacturing: A review. *Journal of Manufacturing Systems*, 60, 936-948. <https://doi.org/10.1016/j.jmsy.2021.03.006>
- Demirkan, H., & Spohrer, J. C. (2018). Commentary-Cultivating T-Shaped Professionals in the Era of Digital Transformation. *Service Science*, 10(1). <https://doi.org/10.1287/serv.2017.0204>
- Nawaz, H. Globalization and cultural homogenization: Unraveling the complexities of cultural integration. In Law Research Journal 1 (2), 73–82.<https://lawresearchreview.com/index.php/Journal/article/view/9> (2023).
- Jokhio, E. Z. Cultural diversity in a globalized world: navigating interconnected realities. *Social Sci. Res. Netw.* <https://doi.org/10.2139/ssrn.4589308> (2023).
- Joyce, S., Umney, C., Whittaker, X. & Stuart, M. New social relations of digital technology and the future of work: Beyond technological determinism. In *New Technology, Work and Employment* 38 (2), 145–161. <https://doi.org/10.1111/ntwe.12276>
- A.R.Soxibov O‘quv qo‘llanma. “Pedagogik fikrlar taraqqiyoti” Qarshi “Nasaf” 2022 yil 18,6 b.t
- A.R.Soxibov Darslik “Umumiyl pedagogika” Qarshi “Nasaf” 2023 yil 22,0 b.t
- A.R.Soxibov O‘quv-uslubiy qo‘llanma. “Talimning interfaol usullari”Qarshi 2020y 12,2 b.t
- Расулова, Ирода. «Problems of teaching foreign languages in the direction of inclusive education.» Проблемы инновационного и интегративного развития иностранных языков в многоязычной среде (2024): 196-200.
- Расулова, Ирода. «уровень изучения социально-психологических факторов насилия в семейных отношениях в узбекской психологии.» (2023): 276-284.
- расулова, ирода. «уровень изучения социально-психологических факторов насилия в семейных отношениях в узбекской психологии.» (2023): 276-284

PREZIDENT MAKTABLARI TAJRIBASI ASOSIDA O'QUVCHILARDA SOFT SKIL (YUMSHOQ KO'NIKMA) LARNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI MEXANIZMLARI (ANDIJON SHAHRIDAGI PREZIDENT MAKTABI MISOLIDA)

*Rustamova Rushana Bahramjonovna,
Andijon shahridagi Prezident maktabi Ma'nnaviy-ma'rify ishlar bo'yicha direktor
o'rinnbosari*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarda soft skilllarni rivojlantirishning ahamiyati va samarali mexanizmlari haqida so'z yuritiladi. Muallif Andijon shahridagi Prezident maktabi tajribasi misolida soft skilllarni rivojlantirishning usul va vositalarini tahlil qilib, o'quvchilarni kelgusidagi shaxsiy va kasbiy hayotga tayyorlash uchun zarur bo'lgan muhim ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan tavsiyalar beradi. Maqolada o'qitish jarayonida o'quvchilarda muloqot, jamoada ishlash, muammolarni hal qilish va yetakchilik kabi ko'nikmalarni rivojlantirish uchun zamonaviy va xalqaro tajribalarga murojaat qilishning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, umumta'lim maktablarida soft skilllarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bo'yicha amaliy takliflar ham berilgan.

Kalit so'zlar: soft skill, ta'lif tizimi, muloqot ko'nikmalar, keljak, ijtimoiy rivojlanish, yetakchilik, innovatsion yondashuv, dunyo tajribasi.

EFFECTIVE MECHANISMS FOR DEVELOPING SOFT SKILLS IN STUDENTS BASED ON THE EXPERIENCE OF PRESIDENTIAL SCHOOLS (THE EXAMPLE OF THE PRESIDENTIAL SCHOOL IN ANDIJAN)

Abstract. This article discusses the importance and effective mechanisms for developing soft skills in students. The author analyzes the methods and tools for developing soft skills based on the experience of the Presidential School in Andijan and provides recommendations for shaping the essential skills needed to prepare students for their future personal and professional lives. The article highlights the importance of referring to modern and international experiences to develop skills such as communication, teamwork, problem-solving, and leadership during the teaching process. Additionally, practical suggestions for developing and implementing soft skills development programs in general education schools are also provided.

Keywords: Soft skills, education system, communication skills, future, social development, leadership, innovative approaches, global experience.

ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ МЯГКИХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ОПЫТА ПРЕЗИДЕНТСКИХ ШКОЛ (НА ПРИМЕРЕ ПРЕЗИДЕНТСКОЙ ШКОЛЫ В АНДИДЖАНЕ)

Аннотация. В статье рассматриваются важность и эффективные механизмы развития мягких навыков у студентов. Автор анализирует методы и инструменты для развития мягких навыков на основе опыта Президентской школы в Андижане и дает рекомендации по формированию необходимых навыков для подготовки студентов к их будущей личной и профессиональной жизни. В статье подчеркивается важность обращения к современному и международному опыту для развития таких навыков, как общение, командная работа, решение проблем и лидерство в процессе обучения. Также предлагаются практические рекомендации по разработке и внедрению программ развития мягких навыков в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: Мягкие навыки, образовательная система, коммуникативные навыки, будущее, социальное развитие, лидерство, инновационный подход, мировой опыт.

Kirish. Tezkor rivojlanayotgan va globallashgan dunyoda ta'lif tizimining zamonaviy talablarga mos kelishi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zamonaviya ta'lif tizimi o'quvchilarga nafaqat akademik bilimlar, balki hayotiy ko'nikmalar va global dunyoda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarini ham berishni maqsad qiladi. O'quvchilarda

mantiqiy, tanqidiy va kreativ fikrlash, bilimini real hayotiy vaziyatlarda qo'llash, mulohaza yuritish, xulosalar chiqarish, talqin qilish, nostandard vaziyatlarda yuzaga kelgan muammolarga yechim topish ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Mazkur ko'nikmalar o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash, kasb egallashi va mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Xozirgi kunda ta'lim tizimi o'quvchilarni avvalgi zamonlarga nisbatan tezroq yuz berayotgan voqeа-xodisalarga, xali vujudga kelmagan kasblarga tayyorlashi, hali biz tassavvur ham qila olmaydigan ijtimoiy masalalarga va muammolarga javob berishga, kashf etilmagan texnologiyalarni o'rgatishga majbur.

O'z navbatida o'qituvchilarning o'qitish metodikalarini rivojlantirish, shuningdek, o'quvchilarni mulohaza yuritishga undash, ularga o'ylashni talab qiladigan, aniq yechish usullari bo'limgan va bilimlarini yangi vaziyatlarda qo'llash talab qilinadigan masalalar berish, muammolarni turli xil kontekstlarda bayon etish, qilgan xatolardan o'rganishiga yordam berish, bir so'z bilan aytganda o'qituvchi o'quvchiga barcha ma'lumotlarni yetkazib berish emas, balki o'rganishni o'rgatish metodikalarini rivojlantirish masalasi tobora dolzarb hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbliji. Bugungi kunda o'quvchilarga faqatgina akademik bilimlarni o'rganish va o'zlashtirish yetarli emas. Kelajakda muvaffaqiyatlari bo'lish va ish faoliyatida talab qilinadigan ko'nikmalarni egallash uchun, o'quvchilarda soft skill ko'nikmalarini rivojlantirish zarur ahamiyatga ega. Chunki, ko'plab ish beruvchilar xodimlardan kasbiy va texnik ko'nikmalardan tashqari jamoaviy ishlash, ijodkorlik, muammolarni hal qilish, samarali muloqot qilish kabi qobiliyatlarni kutmoqda. Shu sababli, o'quvchilarda bu ko'nikmalarni rivojlantirishni maktab yoshidan boshlash muhim hisoblanadi. Maktab muammoli fikrlash, ijodiy muammolarni hal qilish va innovatsion g'oyalarni talab qiladigan muammolar va loyihalarni taklif qilishi kerak. Bunday yondashuv o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, tahlil qilish, yechim topish va ijodkorlik qibiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Tadqiqotning maqsadi. Umumta'lim maktablarida Prezident maktabi tajribasi asosida o'quvchilarda soft skilni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotda joriy etish.

Tadqiqotning obyekti. Andijon shahridagi Prezident maktabida o'quvchilarni soft skil bilan ta'minlash jarayoni.

Tadqiqotning predmeti. Prezident maktabida o'quvchilarning soft skilni rivojlantirish tizimi, shakli, metod va vositalarini samarali tashkil etish masalalari.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tizimlilik, umumiylilik, qiyosiy-tahlil yondashuvlaridan foydalanilgan. Tadqiqotning empirik manbasi sifatida anketa va so'rovnomalardan olingan natijalar tahlil qilingan.

Maqolaning ilmiy yangiligi. Andijon shahridagi Prezident maktabi tajribasi asosida o'quvchilarda soft skilni rivojlantirishga oid samarali mexanizmlar ishlab chiqilgan. Umumta'lim maktablari uchun soft skil rivojlanishiga oid innovatsion faoliyat yo'nalishlari aniqlangan va ushbu jarayonni amaliyotda qo'llash uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Prezident maktabi tajribasidan kelib chiqib, o'quvchilarning kelajakda ijtimoiy va professional muvaffaqiyatga erishishlari uchun soft skil rivojlantirishning ahamiyati ochib berilgan. Mazkur tadqiqot doirasida soft skil rivojlanishining istiqbollariga oid harakat dasturi ishlab chiqilgan va amaliy ko'rsatmalar bilan boyitilgan.

Asosiy qism.

Prezident maktabi ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim muassasasi bo'lib, uning faoliyati yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash uchun iqtidorli bolalarni aniqlash va o'qitishni ta'minlashga qaratilgan. Prezident maktablarini tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad ta'lim jarayonida ilg'or texnologiyalarni qo'llash orqali iqtidorli bolalarni aniqlash va o'qitish tizimini shakllantirish, shuningdek, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ma'naviy boy va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash kafolatlarini ta'minlashdan iborat. Prezident maktablari O'zbekistonning 14 ta hududida faoliyat yuritadi.

Prezident maktablarida o'quvchilarda nafaqat fanlarga oid bilimlarni shakllantirishga e'tibor beriladi, balki ular bilim, ko'nikmalar bilan birligida o'quvchilarda ma'lum bir qadriyatlarni shakllantirishga ham alohida ahamiyat beriladi. Mazkur maktablarda o'quvchilarga tayyor bilimlarni berishga emas, ularda fanlarga oid bilim, ko'nikma va qadriyatlarni shakllantirish va

yondashuvlarni o'rgatishga e'tibor qaratiladi.

Andijon shahridagi Prezident mакtabida 21-asrning dolzarb talablariga javoban, o'quvchilarining nafaqat akademik bilimlari, balki shaxsiy va ijtimoiy salohiyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi. Bu jarayonda ijodkorlik, muloqot, hamkorlik, tanqidiy fikrlash, mas'uliyat va yetakchilik kabi yumshoq (soft) ko'nikmalarini shakllantirish uchun quyidagi metod va loyihibar asosiy o'rinni egallaydi.

House system: Maktabdagi o'quvchilarini "House" (oila) jamoalarga bo'lib, sog'lom raqobat, hamjihatlik va o'zaro yordam ko'rsatishni rag'batlantiruvchi tizim hisoblanadi. Ushbu tizim o'quvchilarda mas'uliyat hissini oshirib, liderlik va jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

MUN va Debat: Birlashgan Millatlar Tashkiloti modeli(MUN) va debat sessiyalari o'quvchilarga xalqaro diplomatiya, muzokaralar, mantiqiy fikr yuritish va o'z fikrlarini asoslash san'atini o'rgatadi. Bu jarayonlar orqali o'quvchilar tanqidiy fikrlash, analitik yondashuv va argumentatsiya qobiliyatlarini mustahkamlaydilar.

"STEM+" tanlovi ixtiolar, startap g'oyalalar va ishlanmalar: Fan, texnologiya, muhandislik va matematika sohalarini integratsiyalashgan holda o'quvchilarga real muammolarni hal etishda innovatsion yondashuvni o'rgatadi. Axborotlarni tahlil qilish va yechimlar ishlab chiqish ko'nikmalari ushbu loyihibar orqali rivojlanadi.

Ijodiy tashabbuslari («Eco fest», «Science fair», «Oqila»): Ushbu loyihibar ekologik ongni shakllantirish, ilmiy qobiliyatlarni rivojlantirish va keng qamrovli intellektual salohiyatni oshirishga qaratilgan. O'quvchilar yangi g'oyalarni sinab ko'rish, mustaqil tadqiqotlar olib borish, natijalarni jamoaviy tarzda namoyish etish orqali kreativ fikrlash va innovatsion yondashuvni rivojlantiradilar.

Mustaqil boshqaruv tizimlari va klublar: O'quvchilar o'z tashabbuslari doirasida tashkil etilgan klublar, loyiha va tashabbuslar orqali o'z-o'zini boshqarish, rejalashtirish, vaqtini samarali taqsimlash va mas'uliyatni o'z zimmasiga olish kabi ko'nikmalarini mustahkamlaydilar.

SGA (Student Government Association) – Maktab Sardorlar Kengashi: O'quvchilarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishda SGA tizimi muhim rol o'ynaydi. Ushbu tizim doirasida o'quvchilar saylov, ochiq muhokama va qaror qabul qilish jarayonlari orqali demokratik tamoyillarni o'rganadi. Shuningdek, maktab ichidagi tadbirlar va loyihibar rejalashtirish, tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish, murakkab vaziyatlarni hal etish orqali shaxsiy rivojlanish va jamoaviy hamkorlikni mustahkamlash imkoniga ega bo'ladilar.

Prezident maktablarida har bir loyiha aniq maqsad va natijalarga yo'naltirilgan holda amalga oshiriladi. Biz loyihibar rejalashtirishda avvalo ularning o'quvchilarga qanday foyda berishi va qaysi ko'nikmalarini rivojlantirishi haqida o'ylaymiz. Shuningdek, xalqaro tajribalarni o'rganish, ilg'or amaliyotlarni kuzatish va maktabga moslashtirish orqali ta'lim sifatini oshirishga intilamiz. Loyihalarni yakunida esa so'rovnomalar, kuzatuvalar va suhbatlar orqali ularning real ta'sirini tahlil qilamiz va keyingi rejalarga mos ravishda o'zgartirishlar kiritamiz. Bu yondashuv nafaqat o'quvchilarining bilim olish jarayonini interaktiv va qiziqarli qiladi, balki ularning kelajakdag'i kasbiy va ijtimoiy hayotida muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Biz har bir loyiha yoki tadbirni rejalashtirish jarayonida quyidagi asosiy savollarga javob izlaymiz:

O'quvchilarga qanday foyda beradi?

Qaysi ko'nikmalarining rivojlanishiga yordam beradi?

Loyiha yakunida qanday o'zgarishlarni kuzatamiz?

Loyihalarni shakllantirish, joriy qilish va natijalarini baholash Prezident maktablarida quyidagi bosqichlardan iborat.

1. Loyiha g'oyasini shakllantirish bosqichi. Loyihalarni ishlab chiqishdan oldin, xalqaro tajribalarni o'rganamiz va dunyoning ilg'or maktablarida amalga oshirilayotgan loyihibar kuzatamiz. Shu asosda, biz:

Xalqaro ta'lim forumlari va konferensiyalarni tahlil qilamiz

Dunyoning yetakchi maktablarida joriy etilgan metodlarni o'rganamiz

O‘quvchilarining ehtiyojlari va qiziqishlariga mos ravishda yangi g‘oyalar ishlab chiqamiz. Misol uchun, xalqaro maktablarda «House system», MUN, STEM dasturlari keng qo‘llaniladi. Biz ham ushbu tizimlarni o‘z sharoitimizga moslashtirib, samaradorlikni oshirishga intilamiz.

2. Loyiha va tadbirlar haqida batafsil axborot berish bosqichi.

Loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun eng avvalo barcha ishtirokchilarga (o‘quvchilar, o‘qituvchilar, ota-onalar, muktab ma’muriyati) loyiha maqsad va vazifalarini tushuntirish kerak. Bu bosqich quyidagicha tashkil etiladi:

Muktab jamoasi va o‘quvchilar uchun taqdimotlar. Loyiha mohiyati, maqsadi, kutilyotgan natijalar va ishtirok etish shartlari haqida batafsil ma’lumot beriladi.

O‘quvchilarga loyiha va tadbir haqida tushuntirish ishlari. O‘quvchilarining ishtirok etishiga qiziqish uyg‘otish, ularning loyiha mazmunini to‘g‘ri tushunishlari uchun seminar va uchrashuvlar tashkil qilinadi.

Ota-onalarni jalg qilish. Ayrim loyihalarda ota-onalar ham bevosita ishtirok etishi yoki farzandlarini rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynashi mumkin.

3. Loyiha va tadbirlarni amaliyatga tatbiq etish bosqichi. Loyihalarni joriy qilish jarayoni quyidagi asosiy tamoyilga asoslanadi:

Tadbir va loyihalarni sinovdan o‘tkazish. Dastlab kichik guruqlar yoki sinf doirasida loyiha joriy qilinadi. Masalan: MUN modeli: Ilk bosqichda bir necha sinf o‘quvchilaridan iborat kichik formatda muhokamalar o‘tkaziladi, so‘ngra bosqichma-bosqich muktab miqyosida kengaytiriladi.

Loyiha samarali bo‘lishi uchun uning tashkiliy jihatlarini oldindan puxta rejalashtirish lozim. Bunda:

Hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish

Ichki hamkorlik: Muktab ichidagi turli klub va bo‘limlar bilan hamkorlik qilib, loyiha doirasida resurslar taqsimlanadi.

Tashqi hamkorlik: Universitetlar, xalqaro tashkilotlar, tadbirkorlar va boshqa maktablar bilan bog‘lanib, loyiha rivoji uchun zarur qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlari qamrab olinadi.

Vazifalarni taqsimoti. O‘qituvchilar va o‘quvchilarining rollari va mas’uliyatlari aniq belgilanadi. Masalan, MUN modelida har bir ishtirokchi o‘zining rollini oldindan tayyorlab, muhokama jarayoniga tayyor holda kelishi shart.

Tadbir va loyihalar jadvalini ishlab chiqish. Tadbir va loyihalarni amalga oshirishning aniq vaqt jadvali tuziladi. Har bir bosqich uchun belgilangan muddatlar va natijalar aniqланади.

4. Monitoring va tahlil. Har bir loyiha yoki tadbir yakunida uning natijalarini tahlil qilish va samaradorligini baholash muhimdir. Bunda quyidagi usullar qo‘llanadi:

So‘rovnomalar. O‘quvchilar, o‘qituvchilar va ota-onalar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazilib, loyihaning ta’siri baholanadi.

Kuzatuvlar va suhbatlar. O‘quvchilarining o‘zlashtirgan ko‘nikmalarini va o‘zgarishlari bevosita kuzatib boriladi.

Amaliy natijalarni tahlil qilish. Masalan, Debatlar loyihasidan so‘ng o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash darajasi va muhokama olib borish qobiliyatları baholanadi.

Keyingi bosqichlarni rejalashtirish. Loyiha natijalari tahlil qilinib, keyingi bosqich uchun yaxshilash choralarini ko‘riladi.

Xulosalar va takliflar.

Bugungi globallashgan dunyoda yumshoq ko‘nikmalar (soft skills) har qanday kasb egasi uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta’lim muassasalari, xususan, umumta’lim maktablari o‘quvchilarining nafaqat akademik bilimlarini, balki ijtimoiy va kasbiy jihatdan shakllanishini ham ta’minlashi lozim. Andijon shahridagi Prezident muktabi tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlar joriy etilganda o‘quvchilar muloqot, kreativ fikrlash, muammolarni hal qilish va jamoada ishlash kabi qibiliyatlarga ega bo‘lishadi. Shunday ekan, umumta’lim maktablarida ham yumshoq ko‘nikmalarni rivojlantirish tizimli ravishda amalga oshirilishi zarur.

Takliflar

1. Soft skills bo‘yicha qo‘llanmalar ishlab chiqish – O‘quvchilarga yo‘naltirilgan interaktiv va amaliy topshiriqlarga asoslangan maxsus metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish va ta’lim jarayoniga joriy qilish zarur. Bu materiallar o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun tushunarli va foydali bo‘lishi

kerak.

2. Ilmiy tadqiqotlar va amaliyotga joriy etish – Yumshoq ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish, ularning natijalari asosida yangi pedagogik usullarni ishlab chiqish va ularni maktab amaliyotiga tadbiqu etish muhimdir.

3. Xalqaro tajribalarni o‘rganish va moslashtirish – Singapur, Finlyandiya, Yaponiya va AQSh kabi ilg‘or ta’lim tizimlariga ega mamlakatlarning yumshoq ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha tajribalarini o‘rganish va ularni mahalliy ta’lim tizimiga moslashtirish lozim.

4. O‘qituvchilar malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish – Pedagogik mahorat markazlari va oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar uchun yumshoq ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus kursslarni tashkil etish zarur. Bu kurslar orqali zamonaviy ta’lim metodlari o‘qituvchilarga yetkaziladi.

5. O‘quv jarayonida tajribaviy o‘qitish yondashuvlarini kengaytirish – Loyiha asosida o‘qitish, tadbirkorlik va startap mashg‘ulotlari, amaliy treninglar va real hayotiy muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan topshiriqlar orqali yumshoq ko‘nikmalarini shakllantirish mumkin.

6. Fanlararo yondashuvni kuchaytirish – Soft skillsni mustaqil dars sifatida o‘qitishdan ko‘ra, barcha fanlar bo‘yicha o‘quv jarayoniga integratsiya qilish lozim. Masalan, matematika darslarida jamoaviy muammolarni hal qilish mashg‘ulotlari, ona tili darslarida tanqidiy fikrlash va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar joriy etilishi mumkin.

7. Maktab tashqarisidagi mashg‘ulotlardan foydalanish – O‘quvchilarning yumshoq ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ekskursiyalar, amaliyot dasturlari, teatr va adabiyot klublari, jamoaviy tadbirlarda ishtirok etishlarini rag‘batlantirish lozim.

8. Baholash tizimini takomillashtirish – Yumshoq ko‘nikmalarini rivojlantirishni rag‘batlantirish uchun baholash tizimiga ham o‘zgarish kiritish kerak. An‘anaviy imtihonlarga qo‘srimcha tarzda loyiha ishlarini taqdim etish, muammolarni hal qilish bo‘yicha baholash tizimlari ishlab chiqilishi lozim.

9. Maktab muhitini moslashtirish – O‘quvchilar erkin fikrlay oladigan, o‘z g‘oyalarini ochiq aytta oladigan muhit yaratish yumshoq ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Interfaol o‘quv xonalari, ochiq muhokamalar uchun platformalar, o‘quvchilarning mustaqil tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash tizimini yo‘lga qo‘yish lozim.

10. Ota-onalarni jalg qilish – O‘quvchilarning yumshoq ko‘nikmalarini rivojlantirish faqat maktab emas, balki oilaviy muhitga ham bog‘liq. Shu sababli, ota-onalar uchun seminar va treninglar tashkil qilish, ularga bolalarining ijtimoiy va hissiy rivojlanishida qanday yordam berishlari mumkinligini tushuntirish zarur.

Agar umumta’lim maktablarida yumshoq ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilsa, kelajak avlod nafaqat bilimdon, balki ijtimoiy jihatdan faol, ‘yetishadi. Shu bois, mazkur takliflarni bosqichma-bosqich amalga oshirish ta’lim tizimini takomillashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Mirziyoyev Sh.M. Erkin, obod va farovon mamlakatni Yangi O‘zbekistonni barchamiz birgalikda barpo etamiz. - T.: “O‘zbekiston” nashriyoti 2023 157-bet

A.Shlyaxer. Jalon miqiyosidagi ta’lim. XXI asr maktab tizimi qanday barpo etmoq kerak? - T.: “Zamin nashi” nashriyoti 2022

Andy Hargreaves, Michael Fullan. Professional capital:transforming teaching in every school. Copyright © 2012 by Teachers College, Columbia University

N.Djekson. Klassniy uchitel. Kak rabotat s trudnimi uchenikami, slojnimi roditeleyami i poluchat udovolstviye ot professii. Moskva 2016

O.Hasanov. Liderlar. T.: “Muharir” nashriyoti 2022

<https://erasmus.courses> “Developing Soft Skills in Education”

ZAMONAVIY TA'LIM MUAMMOLARI VA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Raximova Madina Xasanovna

Osiyo Xalqaro Universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta'limgizda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha innovatsion yondashuvlari tahlil qilinadi. Xususan, raqamli texnologiyalar yordamida ta'limgiz sifatini oshirish imkoniyatlari, onlayn ta'limgiz samaradorligi va an'anaviy ta'limgiz bilan solishtirish hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining pedagogik jarayonagi roli ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, zamonaviy texnologiyalarini ta'limgiz jarayoniga integratsiya qilish o'quvchilarning bilish faoliyatini oshirishga va pedagogik jarayonni samarali tashkil etishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: zamonaviy ta'limgiz, raqamli texnologiyalar, onlayn ta'limgiz, an'anaviy ta'limgiz, sun'iy intellekt, pedagogika, innovatsion yondashuv

СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ

Рахимова Мадина Хасановна

преподаватель кафедры «Педагогика и психология» Международного университета Азии

Аннотация. В данной статье анализируются проблемы, возникающие в современной системе образования, и инновационные подходы к их устранению. В частности, рассматриваются возможности повышения качества образования с помощью цифровых технологий, эффективность онлайн-образования и его сравнение с традиционным образованием, а также роль технологий искусственного интеллекта в педагогическом процессе. Результаты исследования показывают, что интеграция современных технологий в учебный процесс способствует повышению познавательной активности студентов и эффективной организации педагогического процесса.

Ключевые слова: современное образование, цифровые технологии, онлайн-образование, традиционное образование, искусственный интеллект, педагогика, инновационный подход.

MODERN EDUCATIONAL PROBLEMS AND INNOVATIVE APPROACHES

Rakhimova Madina Khasanovna

teacher of the Department of "Pedagogy and Psychology" of the Asian International University

Abstract: This article analyzes the problems encountered in the modern education system and innovative approaches to their elimination. In particular, the possibilities of improving the quality of education using digital technologies, the effectiveness of online education and its comparison with traditional education, and the role of artificial intelligence technologies in the pedagogical process are considered. The results of the study show that the integration of modern technologies into the educational process helps to increase students' cognitive activity and effectively organize the pedagogical process.

Keywords: modern education, digital technologies, online education, traditional education, artificial intelligence, pedagogy, innovative approach

Kirish. Bugungi kunda ta'limgiz global o'zgarishlar jarayonida turibdi. An'anaviy ta'limgiz o'quvchilar ehtiyojlariga to'liq javob bera olmasligi sababli, raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarga asoslangan ta'limgiz jadal rivojlanmoqda. Xususan, onlayn ta'limgiz shakllari, sun'iy intellekt bilan boyitilgan o'quv jarayonlari va interaktiv o'qitish usullari zamonaviy pedagogikaning ajralmas qismiga aylanmoqda.

Raqamli texnologiyalar hayotimizga shunchalik singib ketdiki, bugungi kunda nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Tabiiyki, boshqa sohalarda bo'lgani singari kabi paqamlari texnologiyalarini soliq ma'murchiligidagi

joriy etish ham uning faoliyatini tubdan o'zgartirmoqda. Bu nafaqat soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi munosabatlар bilan bog'liq bo'lib qolmay, balki deklaratsiyalarni taqdim etishdan tortib, to soliqlarni to'lash va ma'lumotlarni saqlash usullarigacha ham yangilikliklar kirityapti. Xususan, tizimda yagona elektron platformani yaratish orqali ma'lumotlarni kiritish, toplash, shakllantirish, tahlil qilishning zamonaviy uslubi yo'lga qo'yildi.

Raqamli texnologiyalar o'quv jarayonini yanada samarali qilish, ta'lim sifati va o'qitish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, onlayn ta'limning samaradorligi va an'anaviy ta'lim bilan solishtirish masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Bundan tashqari, sun'iy intellektning pedagogik jarayondagi o'rni va imkoniyatlari ham ilmiy jamoatchilik tomonidan qizg'in muhokama qilinmoqda. Ushbu maqolada mazkur masalalar atroficha tahlil qilinadi.

2. Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Zamonaviy ta'lim tizimidagi muammolar va innovatsion yondashuvlar bilan bog'liq adabiyotlar ko'plab tadqiqotlar va ilmiy ishlardan iborat. Xususan, ta'limni raqamlashtirish, onlayn o'qitish, interaktiv metodlar va o'quvchi markazli ta'limning ahamiyati haqida ko'plab ilmiy ishlar mavjud.

O'zbekistonning ta'lim tizimida ham xuddi shunday innovatsiyalarni joriy qilishga qaratilgan bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim metodologiyasi va innovatsion yondashuvlarga oid tadqiqotlar quyidagi asosiy yo'naliishlarda olib boriladi:

Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni ta'lim jarayonida qo'llash.

O'quvchilarning interaktiv faoliyatini oshirish.

Shaxsiylashtirilgan ta'lim tizimining rivojlanishi.

Pedagogik yondashuvlarda tizimli o'zgarishlar.

Metodologiya sifatida analitik va tizimli yondashuvlar qo'llanilgan, ya'ni ma'lumotlar to'plami tahlil qilinib, zamonaviy ta'lim tizimining innovatsion jihatlari aniqlangan.

3. Muhokama

Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy muammolari orasida ta'lim sifati va resurslarning yetishmasligi, pedagogik kadrlarning malakasizligi, texnologik yondashuvlarning sekin tatbiqi va o'quvchilarning ta'limga bo'lган qiziqishining pasayishi kabi muammolarni ko'rish mumkin. Shu bilan birga, innovatsion yondashuvlar ushbu muammolarni hal qilishda katta ahamiyatga ega. Innovatsion ta'lim metodlari, ayniqsa, shaxsiylashtirilgan va individual yondashuvlar, o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishda va ularning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda katta o'rin tutadi.

Onlayn va aralash ta'lim (blended learning) hamda raqamli texnologiyalar, masalan, virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR va AR), ta'limda ilg'or yondashuvlarni yaratishga yordam beradi. Bu texnologiyalar o'quvchilarni faollashtiradi va ularning bilim olish jarayonini yanada samarali qiladi. Shuningdek, pedagogik amaliyotlarni takomillashtirish va global tajribalarni tatbiq etish o'z o'rnini topmoqda.

Raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim sifatini oshirish

Raqamli texnologiyalar orqali ta'lim berilsa ta'lim oluvchilarga ta'lim olish usullari osonlashmoqda. Bunda esa ta'lim tizimi vostilari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Ta'lim beruvchilarga bunday vositalar bilan dars mashg'ulotlar o'tkazish ta'lim sifatini oshirishni ta'minlaydi. Onlayn darslarda raqamli texnologiyalar qo'llanilishi yaxshi samara berishi xammamizga ma'lum. Masalan, televideniya orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta'lim olishning bir turi deb olsak bo'ladi.

Raqamli ta'lim tizimini yuksalishiga Wi-Fi zonalar IT parklar ochilishi katta xizmat qiladi. Ta'lim beruvchilarni raqamli texnologiyalar bilan ishslash qobiliyatini o'stirish va internet orqali turli ochiq kurslar tashkil etish imkoniyati tug'iladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim beruvchilarni o'z ustida ko'proq ishlashi va raqobat tufayli ta'lim sifatini yanada ortishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari raqamli texnologiyalar yana sun'iy intellekt texnologiyasini joriy etish soliq to'lashdan bo'yin tov lash holatlarini aniqlash, firibgarliklarni oldini olish, ma'lumotlarni tahlil qilish va takrorlanuvchi jarayonlarni avtomatlashtirish hamda shaffoflikni oshirishda qo'l kelsa, katta hajmli ma'lumotlar — Big data esa soliq organlariga kelib tushadigan katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash, qayta ishslash, tushumlarni yanada yaxshiroq bashorat qilish hamda to'lovchilar va soliq

organlari o'rtaсидаги hujjat almashinuvini yaxshilash imkoniyatini beradi.

Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonida muhim o'rinn tutadi. Elektron darsliklar, onlayn platformalar, masofaviy ta'lim vositalari pedagoglarning ishini osonlashtirish bilan birga, ta'lim sifatini oshirishga ham xizmat qiladi. Masalan, Google Classroom, Moodle, Zoom, Microsoft Teams kabi platformalar dunyo bo'yab millionlab o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan qo'llanilmoqda.

Raqamli texnologiyalar ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga quyidagicha ta'sir qiladi:

O'quvchilarning o'quv jarayoniga qiziqishini oshiradi.

O'qituvchilarga interfaol darslarni tashkil etish imkoniyatini yaratadi.

O'quv materiallarini tezkor yetkazish va almashish imkonini beradi.

O'quvchilarga mustaqil ta'lim olish uchun qo'shimcha imkoniyatlar taqdim etadi.

Biroq, raqamli texnologiyalarni joriy etishda duch kelinadigan muammolar ham mavjud. Xususan, internet sifati, texnik vositalarning yetishmovchiligi, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasi yetarli emasligi kabi omillar ta'lim jarayonining samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Onlayn ta'lim samaradorligi va an'anaviy ta'lim bilan solishtirish

Onlayn ta'limning afzalliklari quyidagilardan iborat:

O'quvchilarga istalgan joydan ta'lim olish imkonini beradi.

Moslashuvchan jadval taqdim etadi.

Ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish imkonini yaratadi.

Raqamli materiallar orqali o'zlashtirish jarayonini tezlashtiradi.

Biroq, an'anaviy ta'lim ham muhim afzalliklarga ega:

Jonli muloqot va guruh muhokamalari o'quv jarayonini samaraliroq qiladi.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtaсидаги to'g'ridan-to'g'ri aloqa bilimning mustahkamlanishiga yordam beradi.

O'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Onlayn va an'anaviy ta'lim o'rtaсидаги asosiy farq shundaki, onlayn ta'lim ko'proq texnologik vositalarga tayanadi va mustaqil ta'lim olishni talab qiladi, an'anaviy ta'lim esa sinf xonalarida o'qituvchi boshchiligidagi olib boriladi. Ideal yechim sifatida aralash ta'lim modeli (blended learning) tavsiya etiladi, bu usulda har ikkala tizimning afzalliklari uyg'unlashgan bo'ladi.

O'qitishda sun'iy intellekt va uning pedagogik imkoniyatlari

Sun'iy intellekt ta'lim tizimida yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda. AI asosida ishlovchi ta'lim platformalari individual yondashuvni ta'minlab, har bir o'quvchining bilim darajasiga mos materiallarni taqdim etishi mumkin.

AI texnologiyalarining asosiy pedagogik imkoniyatlari:

Shaxsiylashtirilgan ta'lim – har bir o'quvchiga mos o'quv materiallari ishlab chiqiladi.

Automatlashtirilgan baholash – sun'iy intellekt test natijalarini avtomatik tahlil qilib, xatolarni ko'rsatadi.

Virtual o'qituvchilar va chat-botlar – o'quvchilarga real vaqt rejimida yordam beradi.

Biroq, AI texnologiyalarining to'liq integratsiya qilinishi hali ham to'liq taddiqot va tajribadan o'tmagan. Bundan tashqari, AI asosida ishlovchi tizimlarning etika va maxfiylik masalalari ham dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning ta'lim tizimiga integratsiyasi pedagogik jarayonni yanada samarali qilish imkonini beradi. Ayniqsa, interaktiv ta'lim vositalari va onlayn resurslar o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi.

Shu bilan birga, onlayn ta'limning ba'zi kamchiliklari ham mavjud. Masalan, talabalar mustaqil ta'lim olish qobiliyatiga ega bo'lishlari shart, shuningdek, texnik muammolar (internet sifati, kompyuter jihozlari yetishmovchiligi) ham o'quv jarayoniga ta'sir qilishi mumkin.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limda qo'llanilishi esa hali to'liq o'zlashtirilmagan sohaga kiradi. AI yordamida o'quv jarayonini avtomatlashtirish va moslashtirish imkoniyatlari mavjud bo'lsa-da, ushbu tizimlar pedagogik nazorat va inson omiliga ehtiyoj sezadi.

4. Natijalar

Innovatsion yondashuvlarning ta'lim tizimida qo'llanilishi natijasida bir qancha o'zgarishlar va ijobiy o'sishlar kuzatilmoqda. O'quvchilar orasida interaktiv ta'lim metodlarining samaradorligi

ortdi, bu esa ularning o'quv faoliyatidagi qatnashuvini oshirdi. Shuningdek, onlayn va aralash ta'lif platformalarining joriy etilishi o'quvchilarga vaqt va joydan qat'i nazar ta'lif olish imkoniyatlarini yaratdi. O'zbekistonda ham o'quvchilarning raqamli savodxonligi oshdi va ta'lifning sifatiga qo'shimcha ravishda, yangi metodologiyalar va pedagogik yondashuvlar qo'llanildi.

Innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi bilan, pedagogik xodimlar ham zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirishni boshladilar, bu esa o'z navbatida o'quvchilarga yuqori sifatli ta'lif berishga yordam bermoqda. Shu bilan birga, ushbu innovatsiyalarni to'liq amalga oshirishda yuzaga kelgan texnologik va moliyaviy cheklarlar ba'zan jiddiy to'siqlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Xulosa va tahlillar

Maqolada zamonaviy ta'lifning muammolari va innovatsion yondashuvlari keng yoritildi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish ta'lif jarayonini samaraliroq va qiziqarliroq qiladi.

Ta'lif sifatini oshirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

Raqamli texnologiyalarni o'qitish jarayoniga to'g'ri integratsiya qilish.

O'qituvchilarni raqamli kompetensiyalar bo'yicha doimiy o'qitish.

Aralash ta'lif modelini keng joriy etish.

AI texnologiyalaridan foydalanishning samarali usullarini ishlab chiqish.

Kelajakda zamonaviy texnologiyalar ta'lif jarayonini yanada innovatsion shaklga olib chiqishi kutilmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli ta'lif tizimini rivojlantirish to'g'risida"gi qarori, 2021-yil 12-mart.

Alimova, M. X. (2022). Raqamli ta'lif muhitida pedagogik innovatsiyalar. O'zbekiston Pedagogika Jurnali, 4(2), 45-58.

Raximova, M.X. (2020). Maktabgacha ta'lif muassasalarida psixologik xizmatni tashkil etishning nazariy asoslari. Zamonaviy ta'lif, 5(90), 32-39.

Raximova M.X.(2024) O'smirlarni ijtimoiy moslashuviga ko'maklashishda psixologik-pedagogikaning o'rni. (615-618)

Xasanovna.R.M. (2024). Ijtimoiy munosabatlar va guruh dinamikasi. The latest pedagogical and psychological innovations in education, 1(2), 177-182.

Raximova, M. X. Yoshlarni destruktiv guruqlar ta'siridan himoyalashning dolzarb muammolarI. Toshkent -2021, 52

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASI

Salimova Marjona Abduraxim qizi

SHDPI Pedagogika fakulteti Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 2-bosqich
magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda qo'llaniladigan yondashuvlar, o'z samarasini beradigan yangi metod va texnikalar, pedagoglarni tayyorlash bosqichlari, bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashning bir necha asosiy yo'naliishlari haqida so'z boradi. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda pedagogik bilimlar, metodik yondashuvlar, kasbiy kompetensiyalar, amaliy tajribalar muhim ahamiyatga ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetensiya, individualizatsiya, amaliy tajriba, simulyatsiya, gamifikatsiya, kollaborativ o'qitish, Flipped classroom.

МЕТОДИКА ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Салимова Марджона Абдурахим кызы

Педагогический факультет, ШДПИ Специальность «Теория и история педагогики»
Студент 2 курса магистратуры

Аннотация: В данной статье говорится о подходах, используемых при подготовке учителей к педагогической деятельности, новых эффективных методах и приемах, этапах подготовки педагогов, нескольких основных направлениях подготовки будущих учителей к педагогической деятельности. Педагогические знания, методические подходы, профессиональные компетенции и практический опыт имеют важное значение в подготовке будущих учителей к профессиональной педагогической деятельности.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, индивидуализация, практический опыт, моделирование, геймификация, совместное обучение, «Перевернутый класс».

METHODOLOGY OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR PEDAGOGICAL ACTIVITY

Salimova Marjona Abdurakhim qizi

SHDPI Faculty of Pedagogy Specialization in Theory and History of Pedagogy 2nd year
master's student

Abstract: This article talks about the approaches used in the preparation of teachers for pedagogical activity, new effective methods and techniques, the stages of training pedagogues, several main directions of preparing future teachers for pedagogical activity. Pedagogical knowledge, methodical approaches, professional competencies, and practical experiences are important in preparing future teachers for professional pedagogical activities

Key words: professional competence, individualization, practical experience, simulation, gamification, collaborative teaching, Flipped classroom.

Kirish. So'nggi yillarda yurtimizda ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratilmoqda va yangidan yangi ta'lim tizimini rivojlantirishga doir ustuvor vazifalar belgilanib, amalda tadbiq etilmoqda. Ta'lim tizimi global miqyosda yuksalish bilan birga, pedagogik yondashuvlar, pedagogik texnologiyalar ham yangicha innovatsion g'oyalar asosida yangilanishda davom etmoqda. Ta'lim tizimidagi o'zgarishlar orqali ta'lim sifatini oshirish, dunyo hamjamiyatida har jahbada ilg'or bo'lgan raqobatbardosh yoshlarni tarbiyalash o'qituvchilar oldidagi muhim vazifadir. Shu sababli ta'lim tizimini samarali tashkil etishda o'qituvchining roli va ahamiyati katta. Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishida o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi va kompetensiyalari muhim omil sanaladi. Shunday qilib, bo'lajak pedagoglarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash mavzusi bugungi kunda muhim va dolzarb ahamiyatga ega.

O'qituvchini kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalar, nazariya va metodikalar asosida o'z ustida ishslash, kasbiy bilim va malakalarini

takomillashtirish, pedagogik va psixologik bilimlarni o'rganish va ularni amalga tadbiq etish jarayonidir. Ya'ni, o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish pedagogik faoliyatga tayyorlashning muhim jihatlaridan biridir. Ta'lif tizimining global miqyosda rivojlanishi, yangi innovatsion pedagogik yondashuvlarni va metodlarni yaratilishi bo'lajak pedagoglar tayyorlashda, ularni malakali kadr bo'lishida yangi talab va vazifalarni belgilab bermoqda. Shu sababli, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash dolzarb mavzu hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili

O'qituvchilarni tayyorlash jarayoniga bog'liq ilmiy tadqiqotlar uzoq yillik tarixga ega va hozirgi kunda ham ushbu sohani zamonaviy talablar asosida takomillashtirish borasidagi ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashga doir tadqiqotlarni ko'plab olimlar amalga oshirgan bo'lishi qaramasdan, zamonaviy metodlarni ishlab chiqish va ularni bevosita amaliyotga tadbiq etish ta'lif tizimida muhim qadam hisoblanadi.

Quyida bo'lajak o'qituvchini kasbiy faoliyatini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari haqida so'z boradi:

Pedagogik bilimlar;

Metodik yondashuvlar;

Kasbiy kompetensiyalar;

Amaliy tajriba.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kasbiy kompetensiyalar o'qituvchini nazariy bilimlarini amaliyot jarayonida qo'llay olish malakasini oshiradi. Olimlar kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda kasbiy va pedagogik bilimlar, interfaol usullar, metodik ko'nikmalar, turlicha yondashuvlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'z samarasini berishini ta'kidlashadi. O'zbekistonda Shodiyevlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar o'qituvchilarni tayyorlashda pedagogik bilimlardan tashqari, amaliy ko'nikmlarini rivojlantirishga e'tibor berish kerakligini tasdiqladi. X. Karimov, N. Toshpulatov va S. Umarovning ilmiy tadqiqot ishlarida esa pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishda, interfaol usullar va zamonaviy ta'lif texnologiyalarining roliga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqotlarda, Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda o'quv jarayonini tashkil etishda zamonaviy metodlar, masalan, muammoli o'qitish, interfaol metod va usullar orqali o'rganish va hamkorlikda ishslash usullarining q'llanilishi samarali ekanligi ko'rsatilgan.

Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda pedagogik va psixologik bilimlarni o'rganish asosiy masala sanaladi. Pedagogik bilimlarga o'qituvchining nazariy asoslari, metodik yondashuvlari, kasbiy bilimlari, pedagogik texnikalari, zamonaviy innovatsion texnologiyalarini qo'llay olish qobiliyatları kiradi. Ta'lif metodlari bo'yicha olib borilgan ko'plab tadqiqotlarda shuningdek X. Hasanov, T. Tursunov olib borgan tadqiqot ishlari shuni ko'rsatadi, zamonaviy metodik yondashuvlar o'qituvchilarning pedagogik ijodkorligini, ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Tadqiqotchilar o'qituvchilarni tayyorlashda innovatsion metodlarning joriy etilishi va ularni o'quv jarayonida qo'llashning samarali ekanligini ta'kidlamoqda. Sh. Shodiev, A. Tursunov kabi olimlar pedagogik bilimlarning o'qituvchining kasbiy faoliyatida qanchalik muhim ekanligini ta'kidlashgan. Ularning ilmiy ishlarida pedagogik bilimlarni mustahkamlashda zamonaviy o'qitish uslublari, pedagogik psixologiyaning ta'lif jarayonida o'zini namoyon etishni ahamiyatini o'rganadi.

Metodologiya

Metodologiyalar, texnikalar va qo'llanilgan usullar bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashga va o'qituvchi faoliyatini samaradorligini oshirishga bevosita yordam beradi. Quyida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda qo'llaniladigan asosiy usul va metodlar keltirilgan.

Eksperiment: Bu metod pedagogik jarayonni o'rganishga va unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashga yordam beradi. Ushbu metod orqali turli usul va yondashuvlar amalda qo'llanadi va ularning natijalari tahlil qilinadi. Eksperiment metodi orqali bo'lajak o'qituvchilarning metodik yondashuvlarini sinash, ularga yangi pedagogik metodlarni o'rgatish va bu jarayonda o'quvchilar bilan ishslashdagi muvaffaqiyatlarni kuzatish mumkin. Bu metodning asosiy vazifasi – **pedagogik yondashuvlarni**

amalda qo'llash va ularning natijalarini tahlil qilish orqali samarali metodlarni aniqlashdir. Bu usul bo'lajal o'qituvchilar tayyorlashga doir o'tkaziladigan tadqiqotda qo'llanilganda qatnashayotgan o'qituvchilarning pedagogik faoliyatlarini chuqur o'rganishga va ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda qanday metodik yondoshuvlar samarali ekanligini aniqlashga yordam beradi.

So'rovnama: Anketa metodidan foydalanish orqali bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik tayyorgarligini baholash mumkin. So'rovnomalar yordamida o'qituvchining bilim darajasi, metodik yondashuvlar, ta'lim jarayonida qanchalik samarali ishlashlarini aniqlash mumkin.. Qolaversa ushbu metod orqali o'qituvchi o'z-o'zini baholashi ham mumkin.

Intervyu: Ushbu metod orqali o'qituvchining kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida yuzaga keladigan muammolarni va ularning bu muammolarda qanday yondashishlarini o'rganish imkonini beradi. Intervyu orqali o'qituvchilar bilan shaxsiy suhbat o'zkazib, ularni kasbiy bilim va pedagogik faoliyati haqida chuqurroq o'rganish mumkin. Intervyu metodi o'qituvchilarni fikrlarini va tajribalarini chuqurroq o'rganishga va uning o'quvchilarga nisbatan yondashuvi, innovatsion yangiliklarni qo'llashga qanchalik tayyor ekanliklarini o'rganishga yordam beradi.

Kuzatish: Bu metod orqali o'qituvchining dars jarayonidagi faoliyatini, ta'lim jarayonini qanday tashkil qilishni kuzatib, to'g'ridan-to'g'ri o'rganish imkonini beradi. Kuzatish metodi orqali o'qituvchilarning ta'lim jarayonidagi o'zaro munosabatlari, sinf menejmenti va pedagogik strategiyalarini baholash mumkin.

Tahlil: Bu metodda dars jarayonidagi video yozuvlarni ko'rib chiqish, dars rejalarini va ishlanmalarini tahlil qilib o'qituvchining pedagogik faoliyatini tahlil qilish mumkin. Tahlil usuli yordamida o'qituvchi pedagogik faoliyatini yanada chuqurroq o'rganish va baholash imkoniyatiga ega bo'lган metodologik xulosalar chiqarish mumkin.

So'nggi yillarda o'qituvchilarni tayyorlash jarayonini o'rganishda qo'llaniladigan metod va usullar rivojlanib bormoqda. Yangi innovatsion pedagogik yondashuvlar va texnologiyalar ta'lim jarayoniga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Quyida o'qituvchilarni tayyorlashda o'z samarasini beradigan yangi metod va texnikalar haqida so'z boradi:

Collaboration-based learning: Kollaborativ o'rganish- o'quvchilar birga hamkorlikda jamoa bo'lib ishlashidir. Bu metod orqali o'quvchilar muaamoga yechim topishda fikr almashish, guruh bilan ishlash, ko'p tomonlama fikrlash, bir-biridan o'rganish imkoniga ega bo'ladilar. O'qituvchilarni tayyorlashda kollaborativ o'rganish kommunikativ va tashkiliy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Blended learning: Aralash o'qitish an'anaviy va masofaviy ta'limni birlashtirgan yondashuvdir. Ushbu metod o'qituvchilarni tayyorlashda, bo'lajak o'qituvchilardan zamonaviy texnologiyalardan ta'lim jarayonida qo'llashni talab etadi, ya'ni o'qituvchilar online ta'lim materiallari, video darslar, interaktiv test va turli metodlar orqali o'qitish ko'nikmalarini o'zlarida shakllantirishlari kerak. Blended learning metodini qo'llash bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llashga o'rgatadi.

Pedagogical simulation: Pedagogik simulyatsiya o'qituvchilarni tayyorlashda real ta'lim jarayonini simulyatsiya qilish metodidir. Pedagogik simulyatsiyalar virtual va real sinf muhitini yaratib, bo'lajak o'qituvchilarni bilimlarini amaliy tajribaga tayyorlash demakdir. Bu metodning afzalliklari o'qituvchilarni turli pedagogik vaziyatlardan chiqib ketishga tayyorlash, turli pedagogik yondashuvlarni qo'llashga o'rgatish va amaliyotga tadbiq etish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida bo'lajak oq'ituvchilarning o'ziga nisbatan ishonchini oshirishga va o'quvchilar bilan qilish ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi.

Flipped classroom: Aks o'qitish usuli o'z nomi bilan an'anaviy ta'limga teskari yondashuv bo'lib, bunda o'quvchilar dars materillarini uyda o'qib, o'rganishadi, sinfda esa o'qituvchi komagi asosida materiallarni mustahkamlash, amaliyotga qo'llash va guruh bo'lib ishlashda ishtirot etishadi. Bu metod, o'qituvchilarni tayyorlashda o'quvchi bilan faol ishlashga, dars jarayonida vaqtidan unumli foydalanishga hamda mavzu materiallarni chuqur tahlil qilgan holatda o'rganish va o'rgatishga yordam beradigan samarali metod sifatida ijobjiy natijalar qayd etgan.

Gamification: Gamifikatsiya metodi o'qitishda turli o'yin elementlari orqali ya'ni ball to'lash, vazifalarni bajarish, reytinglar va sovrinlar orqali dars jarayonini qiziqarli qilishdir. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda gamifikatsiyadan foydalanish kelgusida ular tashkil qiladigan dars jarayonini yanada qiziqarli, samarali hamda o'quvchilarining motivatsiyalarini oshirishga imkon beradi.

Yuqorida keltirilgan metodlar o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga,

bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda nafaqat pedagogik bilimlarni, balki zamonaviy ta'lim texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni o'rganishga imkon yaratadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda o'qituvchining pedagogik, psixologik, kommunikativ va tashkiliy kompetensiyalarini shakllantirishga ahamiyat qaratiladi. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayoni o'qituvchining kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan bir necha bosqichni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Nazariy tayyorgarlik;

Amaliy tayyorgarlik;

Psixologik tayyorgarlik.

Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda bir necha asosiy yo'nalishlar ham mavjud:

Shaxsiy rivojlanish-bu o'qituvchini o'zini anglash, o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini baholash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Bu o'z navbatida o'qituvchiga o'z-o'zini baholash, o'z tajribasini o'rganish va tahlil qilish, qolaversa ta'lim jarayonida o'quvchilarga ijobjiy motivatsiya berish imkonini beradi.

Kommunikativ ko'nikmalar-o'quvchilar bilan samarali muloqot qilib muammolarni hal etish demakdir. Bunda o'qituvchi o'quvchilarni ehtiyojlarini tushunib, ularga ta'lim jarayonida yordam berishi, o'quvchini tinglashi va nutqini ravon qilishi, yuzaga keladigan konfliktlarni hal qilishi va o'quvchilarni xushmuomalalik va hurmatga o'rgatishi kabi jihatlar kiradi.

Tashkiliy ko'nikmalar-bu o'qituvchining darsni samaradorligini oshirishga qaratilgan vaqtini to'g'ri taqsimlash, sinf ichida o'quvchilarni guruhlarga ajratish, dars jarayonini rejalashtirish va o'quv materiallarini tayyorlash.

O'quvchilarga mos pedagogik strategiyalarni tanlash-o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga yordam beradi. Har bir o'quvchi bilan individual ishslash, o'quvchilarni darsga faol jalb qilish, guruhli ishslash va o'yin texnikalarini qo'llash, o'quvchilarni fikrlash qobiliyatini shakllantirish kabilalar pedagogik strategiyalarga kiradi.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida nafaqat pedagogik bilimlar, balki o'qituvchilarni nazariy ma'lumotlarni amaliyotga qo'llashga o'rgatish asosiy masala hisoblanadi.

Xulosa

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda amaliy tajriba va sinfda ishslash ko'nikmalarini shakllantirish, o'qituvchini kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Bo'lajak o'qituvchilarni masofaviy ta'lim platformalari, interaktiv doskalar va boshqa raqamli vositalardan foydalanishga o'rgatish lozim. Bu o'qituvchining dars jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishiga yordam beradi. O'quvchilarni tayyorlashda mavjud pedagogik yondashuvlarni zamonaviy tarzda yangilab novatsiya qilish, ta'lim jarayonini induvudializatsiya qilish, ya'ni bo'lajak o'qituvchini shaxsiy qobiliyatlarini inobatga olgan holatda ta'lim jarayonini tashkil qilish, o'quvchilarni zamonaviy yondashuvlarga, ta'lim metodlarini yaratish va integratsiya qila olishga o'rgatish lozim.

Foydalilanigan Adabiyotlar

Salimova, M (2024). Bo'lajak pedagoglarda kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish metodikasining asosiy yo'nalishlari-Termiz: "Uzluksiz ta'lim tizimining ustuvor vazifalari: muammolar, yechimlar va istiqbollar" respublika ilmiy-amaliy konferensiya.

A.R.Soxibov.(2020). "Talimning interfaol usullari". O'quv-uslubiy qo'llanma.- Qarshi

Baharov, A. (2020). O'quvchilarni tayyorlash: metodik yondoshuvlar – Tashkent: Ta'lim.

Xudoyberganova, S. (2019). Pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlar. – Tashkent: Fan.

Rahmonov, M. (2018). Ta'lim tizimidagi o'zgartirishlar va o'qituvchilik kasbining rivojlanishi. – Tashkent: O'quvchi.

Jalilov, R. (2021). Pedagogik tayyorgarlik va kasbiy kompetensiyalar. – Tashkent: Science.

OLIY TA'LIM TIZIMINI MODELLI BOSHQARISHNING PEDAGOGIK, NAZARIY VA AMALIY TAHLILI

Sharapov Abror Amanovich

Osiyo texnologiyalar universiteti "Ijtimoiy fanlar va raqamli texnologiyalar" kafedrasi
o'qituvchisi

Annotatsiya: maqolada modellashtirishning fanlararo tabiatini asoslanadi. Pedagogikada modellashtirishning xususiyatlari o'r ganillib, pedagogik boshqaruv modellariga qo'yiladigan asosiy talablar tahlil qilingan.

Oliy ta'lism kontekstida tizim modeli faoliyatning turli tomonlarini qamrab olishi mumkin: o'quv jarayoni, tadqiqot ishlari, xalqaro hamkorlik, resurslarni boshqarish va tashqi manfaatdor tomonlar bilan o'zaro munosabatlar. Pedagogik boshqaruvda tizimli modellashtirishdan foydalanishning afzalliklari bir qator omillar bilan bog'liq:

Ta'lism tiziminining yaxlit ko'rinishi: Tizim modeli turli quyi tizimlar o'rtasidagi munosabatlar va o'zaro bog'liqlikni hisobga olgan holda ta'lism tashkilotini bir butun sifatida ko'rish imkonini beradi. Bu resurslarni yanada samarali boshqarish, o'quv jarayonini optimallashtirish va ta'lism sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Inson tafakkurining mavhumlik, analogiya, soddalashtirish, rasmiylashtirish va sxematiklashtirish qobiliyati ilmiy tadqiqotlarda modellashtirishdan foydalanishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: modellashtirish, fanlararo yondashuv, strukturaviy model, funksional model, pedagogika fanlari.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ, ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ И ПРАКТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ МОДЕЛИ УПРАВЛЕНИЯ СИСТЕМОЙ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Шарапов Аброр Аманович;

Азиатский технологический университет

Преподаватель кафедры «Социальные науки и цифровые технологии»

Аннотация: В статье дается обоснование природы межнаучного моделирования. Анализируются основные требования моделей педагогического управления, посредством изучения особенностей педагогического моделирования.

В контексте высшего образования системная модель может охватывать различные аспекты деятельности: образовательный процесс, научно-исследовательскую работу, международное сотрудничество, управление ресурсами и взаимодействие с внешними заинтересованными сторонами. Преимущества использования системного моделирования в педагогическом управлении связаны с рядом факторов

Целостный взгляд на образовательную систему: Системная модель позволяет увидеть образовательную организацию в целом, принимая во внимание взаимосвязи и взаимозависимости между различными подсистемами. Это служит более эффективному управлению ресурсами, оптимизации образовательного процесса и повышению качества образования.

Способность человеческого мышления абстрагировать, аналогизировать, упрощать, формализовать и схематизировать позволяет использовать моделирование в научных исследованиях

Ключевые слова: моделирование, межнаучный подход, структурная модель, функциональная модель, педагогические науки.

PEDAGOGICAL, THEORETICAL AND PRACTICAL ANALYSIS OF MODEL MANAGEMENT OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

*Sharapov Abror Amanovich;
Asian University of Technologies*

Lecturer, Department of «Social Sciences and Digital Technologies»

Annotation: The article is based on the interdisciplinary nature of modeling. The characteristics of modeling in pedagogy are studied, and the main requirements for pedagogical management models are analyzed. In the context of higher education, a system model can cover various aspects of activity: the educational process, research, international cooperation, resource management and interaction with external stakeholders. The advantages of using system modeling in pedagogical management are associated with a number of factors:

A holistic view of the education system: The system model allows you to view the educational organization as a whole, taking into account the relationships and interdependencies between various subsystems. This serves to more effectively manage resources, optimize the educational process and improve the quality of education.

The ability of human thinking to abstract, analogize, simplify, formalize and schematize allows the use of modeling in scientific research.

Keywords: modeling, interdisciplinary approach, structural model, functional model, pedagogy sciences.

Kirish (Introduction). Jahonda oliy ta'limning rivojlanishi yangi sharoitlarda amalga oshirilayotganligi bilan bog'liq bo'lib, bir tomonidan, oliy ta'lim mayjudligining asosi - an'analarga sodiqlik bo'lsa, boshqa tomondan u integratsiya va globallashuv jarayonlariga kiritilib, Yevropa va jahon ta'lim makonining bir qismiga aylanmoqda.

Dunyoda zamonaviy ta'lim muassasasi - murakkab tashkil etilgan ijtimoiy tizim bo'lib, uning vazifasi insonning butun umri davomida o'z-o'zini yuqori sifatlari uzluksiz rivojlantirish qobiliyatini shakllantirishni ta'minlashdir. Pedagogik tizimning funksiya ko'rsatishi, ta'lim faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, pedagoglar va talabalarning mutanosib harakatlari bilan bog'liq. Oliy ta'limni rivojlantirish tendensiyalari bo'yicha yevropa tadqiqotlari birinchi navbatda universitetlarning qadriyatlar asosida ta'lim berish va ta'lim olish sifatiga qaratilishi bejiz emas.

Oliy ta'lim tizimi murakkab va jadal rivojlanayotgan tuzilma sifatida o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishish uchun samarali boshqaruvni talab qiladi. Globallashuv, texnologik taraqqiyot va ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi o'zgarishlar sharoitida boshqaruvga an'anaviy yondashuvlar samarasiz bo'lib bormoqda. Shu munosabat bilan tizimli modellashtirish tamoyillari asosida pedagogik boshqaruvni tashkil etish mexanizmlari tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Bunday yondashuv nafaqat ta'lim tizimining hozirgi holatini tahlil qilish va boshqaruv qarorlarining oqibatlarini bashorat qilish, balki optimal rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Tizimli modellashtirish - murakkab ob'ektlar va jarayonlarni tizim elementlari o'rtaсидаги мумин алоқалар ва муносабатларни акс еттирувчи мағұм моделдарни ыратыш орталық оғаныш үсүлі.

Zamonaviy ilm-fandagi model ta'riflarining xilma-xilligi harakterlanadi. Masalan, "model - tadqiqotning qulayligi uchun maxsus sintez qilingan, tizimni o'rganish to'g'risida qaror qabul qilgan sub'ekt yoki shaxs tomonidan shakllantirilgan, asl nusxaga kerakli darajada o'xshashlik darajasiga ega, tadqiqot maqsadlariga mos keladigan ob'ekt" deb qaralsa, boshqa manba modelni mos yozuvlar sifatida quydagicha ta'riflaydi:" tuzilish va harakatiga taqlid qiluvchi qurılma har qanday haqiqiy ob'ekt, haqiqiy ob'ekt haqidagi mavhum g'oyalar to'plami, ob'ektning rasmiylashtirilgan tildagi analogi." [3,12]

Bundan tashqari, model o'rganilayotgan muayyan ob'ektning prototipi yoki ma'lumot belgisi analogi bo'lib xizmat qiladi, asl nusxa sifatida ishlaydi[4,24].

Yanabirta'rif: "model - bu ob'ektning (shujumladan, butun dunyoning) funksional o'xshashligi bo'lib, u ko'proq yoki kamroq samarali yo'naltirish va boshqarishni ta'minlaydi"[5,165-170].

Model deganda, shuningdek, o'rganilayotgan ob'ektni ko'rsatish yoki takrorlash orqali uni o'zgartirishga qodir bo'lgan aqliy ifodalangan yoki moddiy jihatdan amalga oshirilgan tizim tushuniladi, shunda uni o'rganish bizga ob'ekt haqida yangi ma'lumot beradi. Ob'ekt modeli deganda har qanday narsa tushuniladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

V.A. Yasvin ta'lim muhitini modellashtirish haqida gapirar ekan, har xil ob'ektlar ko'rib chiqilayotgan muhitga qarab modellar deb nomlanishini ta'kidlaydi [8,31-34]:

Modellarni tasniflash mezonlari quyidagilar bo'lishi mumkin: o'rganilayotgan ob'ektni rasmiylashtirish darajasi (qayta ishlab chiqarish); o'rganilayotgan hodisaning asosiy fizik, dinamik yoki funktsional xususiyatlari) va ramziy (ob'ektlar, chizmalar, formulalar) modellari, moddiy substrat (ma'lum bir moddiy tasvirda) va ideal kabilardir.

E.A. tomonidan taklif qilingan modellarning tasnifidan foydalanamiz [9,113]. Bizning fikrimizcha, ko'rib chiqilayotgan pedagogika fanlarida modellashtirish muammosi doirasida eng qulaydir. Ushbu tasnif yagona mumkin bo'lgan tasnif emas va to'liqlik yoki foydalanish chastotasini talab qilmaydi.

Muhokama va natijalar (Discussion and results).

Modellashtirishda modelni qurish, uni tadqiq qilish va olingan ma'lumotlarni o'rganilayotgan ob'ekt haqidagi bilim sohasiga o'tkazish bosqichlari mavjud. Eslatib o'tamiz, har bir ob'ektning mohiyati, tuzilishi, elementlari, tarkibiy qismlari, ularning deyarli har qanday qismini tarkibiy qismlarga ajratish va ular orasidagi bog'lanishlarni aniqlash imkonini beradigan barcha narsalar mavjud. Bu jarayon tizimli modellashtirish deb ataladi.

Har qanday ideal modellashtirish protsedurasi o'rganilayotgan ob'ektning og'zaki modelini tuzishdan boshlanadi. Vazifa og'zaki, ya'ni tabiiy tilda tuzilgandan so'ng, o'rganilayotgan ob'ektning birinchi rasmiy modeli ishlab chiqilgandan so'ng, kontseptual modellashtirish bosqichi keladi. Bunday modelni turli yo'llar bilan taqdim etish mumkin, ulardan eng ko'p ishlataladigan uchta: tizimli, grafikli, yumshoq matematik modellardir.

Zamonaviy modellashtirish aniq fanlararo xususiyatga ega bo'lib, texnik va tabiiy fanlar olamidan modellashtirish gumanitar fanlar sohasiga kirib boradi.

Shunday qilib, E.A. Lodatko ta'lim tizimining modelini, ya'ni ushbu tizimni qurish kontseptsiyasini taklif qiladi, unga ko'ra «rahbarlik lavozimlari asosida ta'lim muassasalarining samaradorligi va qadriyatlari haqida g'oya shakllanadi». Ta'lim tizimining ichki yoki tashqi yo'nalishini, uning avtoritar yoki demokratik ijtimoiy qadriyatlarga yo'naltirilganligini modellarning o'ziga xos xususiyatlari sifatida ta'kidlab, muallif ta'lim tizimlarining to'rtta turiga kiritadi:

- totalitar,
- pragmatik,
- ratsional,
- ochiq [13,98-102].

Yana bir misol - V.A. muallifligidagi vektorli modellashtirish. Yasvin, uni ta'lim muhitini o'rganish uchun taklif qilgan [14,24-27]. Vektorli model - bu modelning mantiqiy-matematik turi. V.A. tomonidan ishlab chiqilgan narsalarga asoslanib. Yasvin metodi ikki o'qni qabul qiladigan koordinatalar sistemasidan foydalanishga asoslangan: erkinlik, qaramlik va faollik va passivlik. Ushbu tizimda ta'lim muhitining u yoki bu turiga mos keladigan vektor quriladi. Oltita diagnostika savollari taklif etiladi, ularga javoblarni tahlil qilish bizga ta'lim maydonining yo'nalishini, tipologiyasini va xususiyatlarini aks ettiruvchi vektorni yaratishga imkon beradi.

Tizim ta'lim muhitining yo'nalishini (vektor tizimining mohiyatini) aniq kuzatish imkonini beradi.

A.N. Daxin ta'lim modelini «ta'lim maqsadlari, ta'lim mazmuni, pedagogik texnologiya va o'quv jarayonini boshqarish texnologiyasini loyihalash, o'quv rejalarini va dasturlarini o'z ichiga olgan tegishli elementlarning mantiqiy izchil tizimi» deb tushunadi va bunday modellarning quyidagi turlarini aniqlaydi: uzluksiz, tanlangan guruh, aralash qobiliyatlar modeli, integrativ, innovatsion, moslashuvchan maktab modeli. Yamburg [15, 54]

E.A. Solodova va Yu.P. Antonov ta'limdagi modelni maqsadlar, tizim va ta'limdagi operatsiyalar ketma-ketligini belgilovchi ob'ekt sifatida ko'rib, so'l va o'rta darajadagi modellar

haqida gapiradi [16,7].

Ko'pgina mualliflar pedagogikada o'quvchining shaxsiyati va shaxs ideali bilan bog'liq modellarni taklif qiladilar, ularning shakllanishi ta'lif tizimining mas'uliyati hisoblanadi; universitet bitiruvchisining shaxsiyati; oly o'quv yurtida talaba shaxsi va boshqalar Masalan, G.A. tomonidan taklif qilingan talaba modeli. Atanov va I.N. Pustinnikova [17,254]; pedagogika universiteti bitiruvchisining modeli, Yu. V. Frolova, D.A. Maxotina, «asosiy (asosiy) vakolatlarning uchta darajasiga asoslangan»:

- umumiylar;

- madaniy;

- uslubiy va mavzuga yo'naltirilgan [18,195]; ta'lif jarayonining modellari

V.M. Ananishneva (strukturaviy, dinamik, omilli, tipologik, ijtimoiy-texnologik) [19,339] va boshqalar.

O'quv jarayonining texnologik xususiyatlarini ochib beruvchi didaktik modellarni ishlab chiqish nuqtai nazaridan S.I.ning asarlariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak. Arxangelskiy, B.V. Bersenadze, K.Ya. Vazina, V.N. Mizintseva, Yu.O. Hovakimyan, L.G. Turbovich, A.V. Tomiltseva. Ushbu va boshqa ko'plab olimlar tomonidan taklif qilingan modellar haqiqatda o'qitish va tarbiya jarayonini pedagogik operatsiyalar ketma-ketligini aks ettiruvchi texnologiya sifatida ifodalaydi. Bunday holda, bizning fikrimizcha, model aslida o'qitish texnologiyasidir.

Pedagogik jarayonda yangi axborot texnologiyalaridan faol foydalanish ham ma'lum turdag'i modellarning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Masalan, E.D. Telmanova o'qitishning multimediali didaktik modelidan foydalanishni asoslaydi, bunda kompyuter o'quv qo'llanmalari, modellashtirish dasturi va o'quv-uslubiy yordam majmuasi alohida o'rinn tutadi [20,10-15]. E.A. Rumbesta fizika va boshqa tabiiy fanlarni o'qitishning eksperimental faoliyat modelini taklif qiladi, unga ko'ra jarayon innovatsion texnologiyalar yordamida eksperimental faoliyat orqali amalga oshiriladi.

Bugungi kunda jamiyat rivojlanishining axborot davri o'qituvchilarning axborotni aks ettirish, saqlash va ko'paytirish shakllari va vositalariga e'tiborini oshirishga olib keldi.

Belgilangan qoidalar pedagogikadagi modellarga quydagi talablarni shakllantirishga imkon beradi:

- 1) modelning tarkibiy xususiyatlarini belgilaydigan pedagogik ob'ekt yoki pedagogik jarayonga aniq yo'naltirilganlik;

- 2) elementlar yoki ierarxiyalar o'rtasidagi modeldagi tarkibiy qismlar munosabatlarini, ularning ustunligi yoki bo'y sunishini ifodalovchi bog'lanishlarning majburiy mayjudligi;

- 3) funktional modelning ham ijobjiy, ham salbiy natijalarga yo'naltirilishi, ya'ni jarayon modeli o'z rivojlanishining ko'plab yo'llarini aks ettiradi;

- 4) modelning mohiyatini ifodalovchi elementlarni tanlashning asosliligi. Shunday qilib, ta'lif fanlarida modellashtirish katta imkoniyatlarga ega

Xulosa (Conclusion/Recommendations).

Yuqorida gilardan shunday xulosa qilish mumkinki, zamonaviy pedagogik tadqiqotlar sohada modellashtirishga bo'lgan qiziqishning ortib borayotganligi, shuningdek, uning pedagogik qiyinchiliklarni bartaraf etishdagi katta imkoniyatlari bilan bog'liq. Hozirgi vaqtida o'qituvchilar hal qilayotgan asosiy muammolar aniqlangan va modellar tasnifi berilgan. Psixologiya va pedagogika fanlari doirasida fanlararo sohada modellashtirish tushunchalari xarakterlanadi. Modelning turli ta'riflari tahlil qilinib, bugungi pedagogik tadqiqotlarda modellarning asosiy turlari taklif etiladi. Modellashtirishning fanlararo tabiatи asoslanadi. Pedagogikada modellashtirishning xususiyatlari o'rganillib, pedagogik modellarga qo'yiladigan asosiy talablardir. Taklif etilayotgan materialning yangiligi modellashtirishning fanlararo xususiyatini asoslashda, shuningdek, tizimli boshqarish jarayonida pedagogik modellarga qo'yiladigan talablarni shakllantirishdadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

O'zbekiston Respublikasining Qonunin "Ta'lif to 'g'risida" Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi / Barkamol avlod 3.O'zbekistontaraqqiyotining poydevori. - T.: «Sharq» nashnyot-matbaa konserni. 1997. - 20-29-

b.

3. «Образованиэ ва информатика». Политика в области образования и нове информационне технологии // Информатика и образование 1996 йил, № 5, С. 12
4. Контсепсия создания ва развития единой системй дистанционного образования в Россия М.: Гос. Комитет РФ по вйсш. образованию, 1995 - 24 с.
5. Абдуллана О.А. Личност студента в процессе профессионалной подготовки // Вйсшэз образованиэ в России 1993 йил, № 3, С. 165-170
6. Аганбегян А.Г. На путях обновления // Литературная газета 18 февраль. 1987, С.13
7. Актуалне проблемй учебного телевидения в вузе // Меж. Вуз.сб.науч. тр. Урал, политехнический институт им. С.М. Кирова Ред. кол. В.П. Вислобо-ков (отв.ред.) ва бошқалар. Свердловск: УПИ, 1983-158 с.
8. Андрианова Т.В., Ракитов А.И. Современне тенденции информатизатсии ва медиатизация общества. Научно-аналитический обзор. М.: ИНИОН, 1991-115 с.И.Анисимов О.С. Учебная ва педагогическая деятельность в активных формах обучения М: АПН, 1989-127 с.
9. Анчишкин А.И. Наука, техника, иқтисодиёт. М.: Иқтисодиёт, 1989 - 383 с.
10. Бабанский Ю.К. Оптимизация процесса обучения. Общедидактический аспект. М.: Педагогика, 1977 - 251 С.
11. Багиров Э.Г. Очерки теории телевидения М.: Искусство, 1978-151 с.
12. Болабанов В.К. Некоторе проблемй научно-технического прогресса ва подготовки инженерний кадрлар Хабаровск: Дальневост. гос. академик путей сообщения, 1994 - 31 с.
13. Батукова З.И. Интеграция Россия в мировое образовательное пространство // Педагогика 1996 йил, № 3, С. 98-102.
14. Бахтина Г.П. Судбй фундаменталной подготовки спетсиалистов // Вестник вйсшей мактаб 1989 йил, № 11, С. 24-27
15. Бершадский А.Н., Кревский И.Г. Дистанционное образование на база новых информационных технологий. Учеб. пособиэ // Пенз. гос. техн. ун-т Пенза: Изд-во ПГТУ, 1997 - 54 с.
16. Бестужев-Лада И. Инопланетяне из 3-го «Б» (Изларжки и возможности использования шахс, компьютеров в развитии личности ребенка с точки зрения социалолога) // Труд 1996, 01 нояб., № 198, С.7.
17. Бестужев-Лада И.В. К школе XXI века. Размышления социолога. М.: Педагогика, 1988-254 с.
18. Бестужев Лада И.В. Нормативное социальное прогнозирование: возможные пути реализации сэлей общества - Москва, 1987-195 с.
19. Библер В.С. Мышление как творчество М.: Политиздат, 1975 - 339 с.
20. Бим-Бад Б., Змеев С. Открите проблемй открытого обучения // Вестник вйсшей мактаб 1991 йил, № 10, С. 10-15
21. Перегудов Л.В., Saidov M.X. Менежмент и экономика высшего образования. Ташкент, Молия, 2001.
- 22.Peregudov L.V., Saidov M.X. Oliy talim menejmenti va iqtisodiyoti. Toshkent, Moliya, 2002

Internet ma'lumotlari

<https://www.lex.uz/docs/3564970>

Pedagog.uz

SOG'LOMLASHTIRUVCHI GIMNASTIKA MASHG'ULOTLARIDA VOSITA USULLARINI QO'LLANILISHI VA MAZMUNI

Shaxriddinova Laylo Nurxonovna

Navoiy davlat universiteti San'at va sport fakulteti «Sport faoliyati turlari» kafedrasи
p.f.b.f.d(PhD)., dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada sog'lomlashtiruvchi gimnastika mashg'ulotlarida qo'llaniladigan vosita usullarining nazariy-metodik ahamiyati hamda ularning jismoniy va ruhiy salomatlikka ijobjiy ta'siri tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida turli yoshdagi ishtirokchilar bilan olib borilgan eksperimental ishlarda har bir darsning isinuv, asosiy blok va tiklov bosqichlarida qo'llaniladigan vosita usullarining samaradorligi o'r ganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, muntazam va to'g'ri metodik yondashuv asosida o'tkaziladigan gimnastika mashg'ulotlari inson organizmini chiniqtirish, nafas olish tizimini yaxshilash va psixologik barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'yinaydi. Shuningdek, bu mashg'ulotlar stressni boshqarish, ijobjiy motivatsiyani shakllantirish va sog'lom turmush tarzini rivojlanirishda ham samarali vosita hisoblanadi. Tadqiqot davomida aniqlangan xulosalar sog'lomlashtiruvchi gimnastika mashg'ulotlarining nazariy va amaliy jihatlari, shuningdek, ularning jismoniy tarbiya sohasidagi istiqbollari haqida keng tasavvur beradi.

Kalit so'zlar: sog'lomlashtiruvchi gimnastika, vosita usullari, jismoniy rivojlanish, psixologik barqarorlik, nafas olish texnikasi, sog'lom turmush tarzi.

Аннотация. В данной статье исследуется теоретико-методическое значение и положительное влияние используемых в оздоровительной гимнастике средств и методов на физическое и психологическое здоровье человека. В ходе эксперимента, проведенного с участием людей разного возраста, было проанализировано, насколько эффективны применяемые на этапах разминки, основного блока и восстановления упражнения. Результаты показывают, что регулярные занятия гимнастикой при правильном методическом подходе способствуют укреплению организма, улучшению дыхательной системы, а также обеспечивают психологическую устойчивость. Кроме того, такие занятия помогают справляться со стрессом, формировать позитивную мотивацию и способствуют развитию здорового образа жизни. Выводы исследования дают широкое представление о теоретических и практических аспектах оздоровительной гимнастики и ее перспективах в сфере физического воспитания.

Ключевые слова: оздоровительная гимнастика, средства и методы, физическое развитие, психологическая устойчивость, дыхательная техника, здоровый образ жизни.

Abstract. This article investigates the theoretical and methodological importance of the tools and techniques used in health-improving gymnastics, as well as their positive impact on both physical and mental well-being. During the experimental study involving participants of various ages, the effectiveness of the methods used in the warm-up, main block, and recovery phases of each session was analyzed. The results indicate that regular gymnastics sessions, when conducted with the proper methodological approach, play a key role in strengthening the body, improving the respiratory system, and ensuring psychological stability. Furthermore, these sessions are effective in managing stress, building positive motivation, and promoting a healthy lifestyle. The conclusions drawn from the study provide a comprehensive understanding of both the theoretical and practical aspects of health-improving gymnastics and its prospects within the field of physical education.

Keywords: health-improving gymnastics, tools and techniques, physical development, psychological stability, breathing technique, healthy lifestyle.

Kirish. Kishining jismoniy salomatligini mustahkamlashda sog'lomlashtiruvchi gimnastika mashg'ulotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ular orqali inson organizmini chiniqtirish, asosiy harakat ko'nikmalarini rivojlanirish hamda turli kasalliklarning oldini olish mumkin. Shu bilan

birga, sog‘lomlashtiruvchi gimnastika mashg‘ulotlari keksalar va turli yoshlardagi shaxslar uchun qulay, xavfsiz hamda keng ko‘lamli harakatlar majmualarini taklif etadi. Hozirgi davrda sog‘lomlashtiruvchi gimnastika inson sog‘lig‘ini mustahkamlash, immun tizimini kuchaytirish va ijtimoiy faollikni oshirishning muhimmanbalaridan birigaaylanmoqda. Bujarayondaqo‘llaniladigan vosita usullarining maqsadga muvofiq tanlanishi va ulardan samara bilan foydalanish katta ilmiy hamda amaliy qiziqish uyg‘otadi. Gimnastika tarkibidagi jismoniy mashqlar nafaqat to‘g‘ri nafas olish, mushaklarni chiniqtirish va moslashuvchanlikni rivojlantirishga, balki kishining ruhiy holatini yaxshilashga ham yordam beradi. Shunday ekan, sog‘lomlashtiruvchi gimnastika boshqa jismoniy tarbiya turlari qatorida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda o‘ziga xos o‘ringa ega. Mazkur tadqiqotda sog‘lomlashtiruvchi gimnastika mashg‘ulotlarida qo‘llaniladigan asosiy vosita usullarining nazariy va amaliy jihatlari hamda ularning mashg‘ulot mazmunidagi o‘rnini o‘rganildi. Gimnastikaning turli shakllari, jumladan, ertalabki badantarbiya, fitnes-yoga, pilates yoki nafas gimnastikasi bilan shug‘ullanish orqali har bir shaxs o‘zining imkoniyat darajasiga mos dastur tuzishi mumkin. Zero, gimnastika mashg‘ulotlarini faol qo‘llab-quvvatlash nafaqat individual salomatlikni yaxshilash, balki jamiyatda sog‘lom turmush madaniyatini keng targ‘ib qilish uchun ham muhimdir. Shunday qilib, ushbu tadqiqot kirish qismida sog‘lomlashtiruvchi gimnastika mashg‘ulotlarida vosita usullarining nazariy asosi, ularning ahamiyati va jamiyat salomatligiga qo‘shayotgan hissasi umumlashtirildi. Zamonaviy ilm-fan va tibbiyot sohalarida gimnastik mashg‘ulotlarning organizmga ko‘rsatadigan ta’sirini chuqr o‘rganish ishlari davom etmoqda. Tadqiqotchilar turli yoshdagi insonlarning harakat faolligi bilan ularning kasalliklardan himoyalanish darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga harakat qilmoqdalar. Sog‘lom turmush tarzi konsepsiyasini rivojlantirish va profilaktik tibbiyot tadbirlarini amalga oshirishda gimnastikaning ommalashuvi katta ahamiyatga ega. Shu sababdan sog‘lomlashtiruvchi gimnastika mashg‘ulotlarini tashkil qilish va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish bo‘yicha ilmiy izlanishlar doimiy e’tiborda bo‘lishi lozim. Ayni paytda, sog‘lomlashtiruvchi gimnastika to‘g‘risidagi ilmiy adabiyotlar tahlili ushbu yo‘nalishning yetakchi prinsiplari, amaliy qo‘llanilish xususiyatlari hamda istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash imkonini beradi. Shu bois, mazkur tadqiqotning maqsadi sog‘lomlashtiruvchi gimnastika mashg‘ulotlarida vosita usullarini qo‘llashning nazariy-metodik asoslari va ular yordamida erishiladigan salbiy omillarni kamaytirish hamda ijobiy jismoniy ko‘nikmalarni shakllantirish usullarini aniqlashdan iborat.

Metodika. Ushbu tadqiqot eksperimental va nazariy tahlil usullaridan foydalangan holda olib borildi. Dastlab, sog‘lomlashtiruvchi gimnastika mashg‘ulotlariga qatnashayotgan turli yoshdagi ishtirokchilardan iborat tajriba guruhi shakllantirildi. Mazkur guruh a’zolari bilan mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan vosita usullarining samaradorligi o‘rganildi. Mashg‘ulot jarayonida kuzatish, intervyu, jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlarini o‘lchash va mashqlarni tahlil qilish singari usullar qo‘llanildi. Bunda ishtirokchilarining dastlabki tayyorgarlik darajasi, umumiyyat sog‘lig‘i va psixologik holati inobatga olindi. Gimnastik mashg‘ulotlar haftasiga uch marotaba, 60-90 daqiqa oralig‘ida o‘tkazilib, har bir dars mazmuniga isinuv mashqlari, asosiy harakatlar majmui va yakuniy tiklov mashqlari kiritildi. Undan tashqari, o‘quv materiali sifatida nazariy ma’lumotlar, jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha tavsiyalar hamda individual reja tuzishga yo‘naltirilgan interfaol metodlardan foydalanildi. Metodik yondashuvda har bir ishtirokchining yoshi, jismoniy imkoniyatlari va ilgari to‘plagan tajribasi hisobga olindi, bu esa mashg‘ulotlarning moslashuvchanligi va xavfsizligini ta’mnladi. Ma’lumotlarni to‘plash jarayonida ilmiy adabiyotlar, rasmiy hujjalarni hamda tajriba davomida olinadigan dalillar qiyosiy-tahliliy usulda qayta ko‘rib chiqildi. Shuningdek, eksperiment ishtirokchilarining mashg‘ulotga munosabati, motivatsiya darajasi va individual rivojlanish ko‘rsatkichlari alohida qayd etildi. Nazariy tahlil bosqichida sog‘lomlashtiruvchi gimnastikaning umumiyyat tamoyillari, turli an‘anaviy va zamonaviy yo‘nalishlari, shuningdek, ushbu mashg‘ulotlar uchun metodik tavsiyalar o‘rganildi. Metodika bosqichida amalga oshirilgan ishlarni tadqiqotning ishonchligini ta’minalash va olingan natijalarni puxta xulosa qilish imkonini beradi. Xususan, har bir ishtirokchiga individual dars loyihalari ishlab chiqilib, ularda asosiy e’tibor gimnastika mashqlarini o‘zgartirish, qadamba-qadam rivojlanish va jarayonni muntazam baholashga qaratildi.

Natijalar

Ushbu tadqiqot natijalari sog‘lomlashtiruvchi gimnastika mashg‘ulotlarida qo‘llaniladigan

vosita usullarining samaradorligini tasdiqladi. Tajriba guruhi a'zolarining jismoniy ko'rsatkichlarida ijobjiy o'zgarishlar kuzatildi, xususan, ularning nafas olish hajmi ortdi, mushak kuchi va chidamlilik darajasi yaxshilandi, gavdaning moslashuvchanligi hamda asosiy harakat malakalari sezilarli ravishda rivojlandi. Shuningdek, gimnastika mashg'ulotlaridan oldin va keyin o'tkazilgan psixologik so'rov natijalari shuni ko'rsatdiki, ishtirokchilarda ruhiy barqarorlik, stressni boshqarish qobiliyati va jismoniy faollikka bo'lgan qiziqish yanada kuchaydi. Tadqiqot davomida har bir darsda qo'llanilgan isinuv, asosiy blok va tiklov bosqichlaridagi vosita usullarining o'zaro uyg'unlashuvi mashg'ulotning samarali tashkil etilishida muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Ayniqsa, nafas olish texnikalariga alohida e'tibor qaratilishi, ishtirokchilar salomatligini yaxshilashda muhim rol o'ynadi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, sog'lomlashtiruvchi gimnastika turli yoshda bo'lgan insonlar uchun mos bo'lib, ularning individual xususiyatlari, jismoniy tayyorgarlik darajasi va sog'liq holatidan qat'i nazar ijobjiy samaraga ega bo'lishi mumkin. Tadqiqot jarayonida ishtirokchilarning gimnastik mashg'ulotlarga bo'lgan munosabati ham o'zgardi. Dastlab, ayrim ishtirokchilar kuchli jismoniy faollikdan cho'chishga yoki mashqlarni bajarishda o'zini qulay his qilmaslikka moyil bo'lishgan. Biroq mashg'ulotlar davom etar ekan, vosita usullarining izchil qo'llanilishi tufayli ularda ishonch, qat'iyat va ijobjiy kayfiyat shakllandi. Shu tariqa, e'tibor bilan rejorashtirilgan, xavfsiz va moslashtirilgan gimnastika mashg'ulotlari jismoniy va psixologik sog'liqni mustahkamlashda barqaror natijalar berishi aniqlandi.

Muhokama

Sog'lomlashtiruvchi gimnastika mashg'ulotlarida vosita usullarini qo'llashning ilmiy-nazariy tahlili va tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, muntazam ravishda va to'g'ri metodik yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar har bir yoshdag'i insonning salomatligini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Gimnastika harakatlari orqali nafaqat tana a'zolarining chiniqishi, balki ruhiy holatning barqarorlashishi ham kuzatiladi. Bu jarayonda vosita usullarining faol qo'llanilishi har bir ishtirokchining jismoniy imkoniyatlari va ehtiyojlariga moslashgan holda mashg'ulot rejasini ishlab chiqishga yordam beradi. Sog'lomlashtiruvchi gimnastika tashkil etilishida nafas olish usullari, tanani cho'zish, muvozanat va koordinatsiyani rivojlantirish, shuningdek, muloyim ritmik harakatlar integratsiyasiga asoslangan yondashuvlar juda muhimdir. Ushbu tadqiqot mazmunida aniqlanganidek, gimnastika mashqlarini turi va yuklamasi bo'yicha to'g'ri taqsimlash, ishtirokchilarning individual rivojlanishiga ijobjiy ta'sir o'tkazadi. Chunki aynan moslashtirilgan reja asosida sistematik va izchil mashqlarni bajarish ham ortiqcha zo'riqishdan himoya qiladi, ham organizmni bosqichma-bosqich rivojlantiradi. Natijalarda ko'rsatilgan ijobjiy o'zgarishlar, jumladan, jismoniy tayyorgarlik, psixologik barqarorlik va motivatsiya darajasining oshishi sog'lomlashtiruvchi gimnastikaning jiddiy salohiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ba'zi cheklovlari va xavflarni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Xususan, mashg'ulotlarni malakali mutaxassis nazorati ostida o'tkazish, tibbiy ko'rsatmalar va qarshi ko'rsatmalarni hisobga olish, xavfsizlik choralariga rioya qilish alohida ahamiyatga ega. Kelgusida sog'lomlashtiruvchi gimnastika mashg'ulotlarini informatika texnologiyalari bilan boyitish, masalan, virtual yordamchilar yoki mobil ilovalar yordamida yondashuvni shaxsiylashtirish mumkin. Bu turli yoshdag'i odamlarni yanada kengroq qamrab olishga va uzlusiz sog'lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, sog'lomlashtiruvchi gimnastika mashg'ulotlarida vosita usullarini maqsadga muvofiq va tizimli tarzda qo'llash jismoniy tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga, insonlarning sog'lom hayot tarzini tashkil etishiga va jamiyattdagi umumiy salomatlik darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, sog'lomlashtiruvchi gimnastika bo'yicha aniq metodik ko'rsatmalar va tavsiyalarni yanada rivojlantirish, maxsus ilmiy izlanishlar olib borish, shu jumladan, klinik kuzatuvarlar yordamida turli yoshdag'i insonlar uchun mos bo'lgan mashqlar majmuasini ishlab chiqish imkoniyatlari mayjud. Bunday ilmiy-amaliy faoliyat keng ko'lamda profilaktik choralarini tashkil etish, kasalliklarning oldini olish hamda salomatlikni mustahkamlash maqsadida barqaror natijalarga erishishda muhim rol o'ynaydi. Shu nuqtayi nazardan, sog'lomlashtiruvchi gimnastika bugungi kunda nafaqat individual darajada, balki butun jamiyat miqyosida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish va mustahkamlashning samarali vositasi sifatida e'tirof etilishi zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi "Aholining jismoniy faolligini oshirish va sog'lom turmush tarzini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4862-son qarori. – Toshkent: "Adolat" nashriyoti, 2020. – 12 b.

Karimov A.A. Sog'lom turmush tarzi va jismoniy tarbiya. – Toshkent: "Fan va taraqqiyot" nashriyoti, 2018. – 256 b.

Mamatov O.M. O'quv jarayonida sog'lomlashtiruvchi gimnastika. – Toshkent: "Oliy ta'lif" nashriyoti, 2019. – 148 b.

Nazirova G.N., Eshboyev D.S. "Sog'lomlashtiruvchi gimnastikaning jismoniy rivojlanishdagi o'rni" // Ilmiy axborotlar jurnali. – 2021. – №2. – B. 45–52.

Karatayeva G.A. Teoreticheskie i metodicheskie osnovy ozdorovitel'noy gimnastiki. – Moskva: Izdatel'stvo RGSU, 2017. – 200 s.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST). Fizik faollik va sog'lom turmush tarzi bo'yicha tavsiyalar. – Qisqa hisobot. – Jeneva: JSST, 2018. – 35 b.

“GIDROTEXNIKA INSHOOTLARI VA NASOS STANSIYALARIDAN FOYDALANISH” IXTISOSLIGI TALABALARIGA MODELLASHTIRISH DASTURLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

*Shaynazarov Ravshan Mamayusubovich
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti*

Annotatsiya. Maqolada “Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish” ixtisosligi talabalariga mutaxassislik fanlarni o’qitishda modellashtirish dasturlarining ahamiyati keltirilgan. Shuningdek, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot kommunikatsiya taraqqiyoti mamlakatimiz ta’limini rivojlanirishning muhim bosqichlari, ta’lim muassasalarini raqamli va zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan jihozlanishi texnikaning rivojlanib borishi hamda va shu bilan birga modellashtirish dasturlaridan foydalanishni o’rganish zaruriyati asoslangan.

Bundan tashqari, video o’yinlar uchun ham, professional loyihibar uchun ham Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish” ixtisosligi talabalarini uchun modellashtirishlarni tayyorlashni o’rganishning eng yaxshi variantlari bo’lgan ba’zi birlari aytib berilgan hamda ushbu muammolar bo’yicha tadqiqot olib borgan olimlar faoliyatiga nazar tashlab o’tilgan.

Kalit so’zlar: gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalarini, mutaxassislik fanlar, modellashtirish dasturlari, vizuallashtirish, texnik va axborot, ichki aqliy tarkib, vizual tasvir, muhandislik grafikasi, 3d texnologiyalari va boshqalar.

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРОГРАММ МОДЕЛИРОВАНИЯ СТУДЕНТАМ СПЕЦИАЛЬНОСТИ “ЭКСПЛУАТАЦИЯ ГИДРОТЕХНИЧЕСКИХ СООРУЖЕНИЙ И НАСОСНЫХ СТАНЦИЙ”

*Шайназаров Равшан Мамаюсубович
Каршинский инженерно-экономический институт*

Аннотация. В статье рассматривается значение моделирующих программ при преподавании профильных дисциплин студентам специальности «Эксплуатация гидротехнических сооружений и насосных станций». Также в условиях информационного общества, развитие информации и коммуникаций является важным этапом развития образования в нашей стране, оснащение учебных заведений цифровыми и современными образовательными технологиями основано на развитии технологий, и в то же время, необходимости обучения использованию программ 3D моделирования.

Кроме того, в статье описываются некоторые из лучших вариантов обучения созданию 3D-моделей как для видеоигр, так и для профессиональных проектов, а также рассматриваются работы ученых, проводивших исследования по этим вопросам.

Ключевые слова: гидротехнические сооружения и насосные станции, специальные дисциплины, программы моделирования, визуализация, техническая и информационная, внутреннее ментальное содержание, визуальный образ, инженерная графика, 3D-технологии и др.

METHODOLOGY FOR USING MODELING PROGRAMS FOR STUDENTS OF THE SPECIALTY “USE OF HYDRAULIC STRUCTURES AND PUMPING STATIONS”

*Shaynazarov Ravshan Mamayusubovich
Karshi engineering -economics institute*

Annotation. The article presents the importance of modeling programs in teaching specialist subjects to students of the specialty “the use of hydraulic structures and pumping stations”. Also, in the conditions of an informed society, the development of Information Communication is based on the important stages of the development of the education of our country, the need to equip educational institutions with digital and modern educational technologies, as well as the need to learn how to develop techniques and at the same time use modeling programs.

In addition, some of the best options for learning how to prepare modeling for students of

the specialty “the use of hydraulic structures and pumping stations for both video games and professional projects” are mentioned, as well as a look at the activities of scientists who conducted research on these problems.

Keywords: hydraulic structures and pumping stations, specialized disciplines, modeling programs, visualization, technical and information, internal mental content, visual image, engineering graphics, 3d technologies, etc.

Kirish: Bugungi rivojlanayotgan davrda xar bir tizimni raqamlashtirishga bo‘lgan talab kundan-kunga ortib bormoqda, bu borada Respublikamiz tomonidan ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda, shular qatorida Gidrotexnika inshootlarini loyihalash jarayonini ham avtomatlashtirishga bo‘lgan talab ham oshib bormoqda. Davlatimiz tomonidan bu borada ko‘plab qaror va farmonlar ishlab chiqilmoqda, Prezidentimizning PF-6200 2021-yil 6-apreldagi “Suv resurslaridan foydalanishda davlat boshqaruvi va nazorati tizimini yanada takomillashtirish va suv inshootlari xavfsizligini ta’minlash chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6200 sonli farmonida ham hozirga kelib ushbu sohalarini rivojlantirish, Gidrotexnika inshootlar xavfsizligini ta’minlash uchun asosiy choratadbirlar belgilab berildi. Gidrotexnika inshootlaridan biri bo‘lgan damba chizmasini topografik sirtda loyihalash jarayonida tuzilgan loyihalardan eng optimal loyiha variantini geometrik modellashtirish, matematik modellashtirish usullari yordamida tanlash algoritmlarini tuzib chiqish va ushbu algoritmlarni avtomatlashtirilgan grafik dasturlarda qo‘llash orqali loyihalash jarayonini optimallashtirish hozirgi davrda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi[1].

Texnika rivojlanib bormoqda va shu bilan birga ko‘p narsalarni o‘zimiz qila olishimiz kerak, ulardan biri modellashtirish dasturlaridan foydalanishni o‘rganishdir. Shu sababli, endi biz ushbu maqsadda foydalanishning eng oson dasturlari haqida gaplashamiz. Shu tarzda siz ushbu dizayn dunyosida nimani boshlash ideallari haqida tasavvurga ega bo‘lishingiz mumkin. Shuni eslatib o‘tish joizki, Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish” ixtisosligi talabalari uchun modellashtirishlarni yaratish bo‘yicha barcha dasturlar murakkablik darajasiga ega, ammo, albatta, hamma narsa unga bo‘lgan qiziqish darajangizga bog‘liq.

Biz sizga ushbu mavzu bo‘yicha bir nechta mutaxassislarining fikriga ko‘ra, video o‘yinlar uchun ham, professional loyihamalar uchun ham “Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish” ixtisosligi talabalari uchun modellashtirishlarni tayyorlashni o‘rganishning eng yaxshi variantlari bo‘lgan ba’zi bir ro‘yxat orqali aytib beramiz. Biz allaqachon bilamizki, ushbu resurs juda ko‘p qirrali xususiyatga ega. Shu sababli, ushbu postda gaplashadigan dasturlarning har birining kamida asosiy jihatlarini bilishimiz muhimdir.

Barchasini tushunarli va sodda tarzda bajarish uchun biz har birining narxiga va qiyinligiga qarab qilamiz. Sizga qoldiradigan dizayn dasturlari variantlarining har birida biz ularning bepul yoki pulli ekanligini aniqlaymiz. Buning sababi, biz sizni qiziqtirishi mumkin bo‘lgan har qanday raqamli manba haqida gapirganda shaffof bo‘lishni muhim deb bilamiz[2,231].

Tadqiqot metodologiyasi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining turli xilligi, ularning innovatsiyalar, interfaollik, yuqori texnologiyalar olami mobillik zamonaviy olam haqiqati Hitech olamini yaratadi. Ta’lim muassasalarini raqamli va zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan jihozlanishi natijasida yangi ta’lim loyihamalarini amalga oshirish mumkin bo‘ldi, bu esa ta’lim jarayonini davr talablariga muvofiq ravishda sezilarli darajada zamonaviylashtirilishini nazarda tutadi.

Axborotlashgan jamiyat sharoitida taqdim etilayotgan muhim imtiyozlardan biri ta’lim jarayonidagi texnologiya o‘rganilayotgan obyektlarni vizuallashtirish hisoblanadi. Fanning turli sohalarida vizuallashtirish tushunchasi quyidagi: gnoseologik, semiotik, madaniy estetik, psixologik, texnik axborot kabi turli xil ma’nolarni anglatadi.

Adabiyotlar tahlili. Vizuallashtirishni texnik va axborotni tushunish “texnologik vizual idrok” tushunchasi kontekstida amalga oshiriladi. Y.M.Plotinskiyning o‘z tadqiqot ishlarida ta’kidlashicha, o‘quv materiallarining vizuallashtirish raqamli va matnli ma’lumot sifatida, kompyuter texnologiyasidan foydalangan holda ishlab chiqilgan o‘ziga xos grafik vizual loyiha sifatida taqdim etilishi mumkin.

Turli tadqiqotchilar vizuallashtirish tushunchasini semantik kontekstda biroz boshqacha

talqin qilishadi. D.Bern vizuallashtirishni turli xil, shu jumladan, kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda grafik tasvirlarni ishlab chiqishning murakkab jarayoni sifatida belgilaydi.

O‘z navbatida, Ž.Krakauyer vizuallashtirishni turli xil ajoyib shakllarning o‘zgarishi sifatida fazo va vaqtning barqaror o‘zaro bog‘liqligini tuzatish zarurati bilan asoslanadigan voqelikning analitik rivojlanishining sifatli natijasi sifatida tushunadi.

K.E.Razlogov vizuallashtirish kompyuterning ma’lum bir aloqa vositasi va turli maqsadlar uchun ma’lumot uzatish uchun tegishli kanal bilan barqaror va samarali integratsiyalashtirishni nazarda tutadigan ekran madaniyatida aks etadi, deb hisoblaydi.

B.G.Ananyevning ta’kidlashicha, vizuallashtirishni ma’lum vizual tizimlarning turli ko‘rinmas hissiy signallarni ko‘rinadigan signallarga aylantirish imkoniyati shaklida tushunish kerak deb ta’kidlaydi.

A.A.Verbitskiy vizuallashtirishni metod sifatida belgilaydi. Tadqiqotchi uni ichki aqliy tarkibni u yoki bu vizual tasvirga aylantirish jarayoni shaklida aniqlashtiradi. O‘z navbatida, kengaytirilgan shaklda qabul qilingan tasvir asosiy yetarli aqliy va amaliy harakatlar uchun asos hisoblanadi[3,121].

Tahlil va natijalar. Jadal sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan axborot kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyatlari va talabalar o‘rtasida “klip tafakkuri” rivojlanishining muntazamligi mahalliy va rivojlangan mamlakatlar psixologlari va o‘qituvchilari tomonidan qayd etilgan. “Klip fikrlash” - bu matnli tushuntirish bilan ixcham va aniq grafik tasvirlar ko‘rinishida taqdim etilgan fikrlash hisoblanadi. Mazkur tadqiqot ishimizda ushbu salbiy hodisaga ijobjiy yechim topish yengish lozim bo‘ladi. Ushbu munosabat bilan, vizual savodxonlik deb ataladigan vizuallashtirilgan matnning grafik tasvirlaridan foydalanish konstruktiv muqobil bo‘lishi mumkin.

1. Infografika ta’limda muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirilib kelinadi. Infografika – bu loyiha va ma’lumotlarni birlashtirgan illyustratsiyalar hisoblanadi. Ma’lumotlar va tushunchalarning ushbu tasviri mazkur tadqiqot ishimizda o‘quv materialini yetkazishga talabalar, uni idrok etish va tushunishni osonlashtirishga yordam beradi. Inson miyasi turli xil tarkibiy shakllanishlarni tanib olish imkoniyatiga ega, ularga yetishmayotgan elementlarni birlashtiradi. Shunday qilib, inson o‘zi ko‘rmaydigan, lekin umuman ko‘rinadigan obyektning yaxlit tasvirini tushunadigan yetishmayotgan komponentlarni to‘ldirish imkoniyatiga ega. “Odamlar o‘zlariga tushunarli bo‘lgan narsadan ko‘ra, ularni nima o‘ylayotganini yaxshiroq eslashadi”.

2. Infografika, umuman olganda, inson faoliyatining fan, statistika, ta’lim va boshqalar kabi sohalarida juda samarali qo‘llaniladi. Ta’lim jarayonida talabalar: vizual muvozanatli qatorda joylashgan grafikalar va raqamlar rasm va matn bilan ishlaydi. Bu o‘quv materiallarini tezkor tahlil qilish va yodlash, mazmunli xulosalar chiqarish uchun sharoit yaratadi. Infografika yordamida o‘quv materiallarini vizuallashtirish quyidagi: talabalarga kerakli bilimlarni yetkazish, manzarani aniqlash, vizual va tanqidiy fikrlash kabi pedagogik vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi.

3. Talabalarning bilim faoliyatini faollashtirish metodlari oliy ta’lim amaliyotida talabalarni tayyorlashda keng qo‘llaniladi. Mazkur tadqiqot ishimiz uchun dolzarb bo‘lgan 3D texnologiyalari quyidagilar: ta’limni interfaol va mobil qilish uchun majburiy hisoblanadi. Ushbu tadqiqot ishimizda “Mashina qismlari”, “Avtoulovlarini ta’mirlash”, “Muhandislik grafikasi” kurslari uchun 3D texnologiyalarni ishlab chiqildi. Hozirgi davrda 3D foto va 3D video materiallar ta’lim jarayonida to‘liq joriy qilinmaydi. Ularning qo‘llanishi quyidagilarga: uch o‘lchovli obyektlarning jozibali emas, balki axborot xususiyatlaridan foydalanishga asoslanganligi muhim ahamiyatga ega. Vizual o‘quv materiallarini taqdim etish majburiy bo‘lgan murakkab pedagogik nuqtai nazardan, o‘quv materiallarini o‘rganishda 3D texnologiyalaridan faolroq foydalanish lozim bo‘ladi.

4. 3D texnologiyalaridan foydalangan holda xizmat ko‘rsatuvchi provayderlarning kasbiy tayyorlarligini amalga oshirish bunday texnologiyalarni ishlab chiquvchilar va oliy ta’lim muassasalarining ayrim xizmatlari va bo‘linmalari o‘rtasida samarali biznes aloqalarini nazarda tutishi kerak. Axborotlashgan jamiyatning istiqbolli axborot texnologiyalaridan biri bu virtual 3D simulyator texnologiyasi hisoblanadi. Ushbu texnologiya ko‘p jihatdan texnik fanlar va muhandislik grafikalarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega, chunki animatsiya va ushbu texnologiyaga kiritilgan boshqa modullarning imkoniyatlari ushbu tadqiqot ishimizda texnologik

jarayonni ham, butun mexanizmning ishini ham yaxlit aks ettirishga yordam beradi[3,86].

Ushbu tadqiqot ishimiz davomida AutoCAD tizimidan texnik fanlar bo'yicha laboratoriya ishlarini bajarish, shuningdek, grafik tasvirlar - murakkab chizmalar va Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish" ixtisosligi talabalari uchun modellashtirishlar - tizimni yaratish uchun uch o'chovli loyihalash tizimi kompas 3D dan foydalanildi. Taqdim etilgan o'quv materiallarining har bir qismi ko'rib chiqilayotgan obyektning har qanday muhim o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishni ta'minlaydi, uning boshqa xususiyatlarini ongda mavhumlashtiradi, bu tahlil, taqqoslash, mavhumlik kabi mantiqiy fikrlash operatsiyalarining muvaffaqiyatiga yordam beradi. O'quv materiali katta ekranda kompyuter yordamida proyeksiyalanadi.

Shunday qilib, vizuallashtirish texnologiyasi o'quv materiallarini ancha aniqroq taqdim etishga yordam beradi. Vizuallashtirish deganda har xil turdag'i o'quv materiallarining ilm fan va ta'lif olamida talabalar tomonidan, shuningdek, talabalarning vizual fazoviy tafakkurini rivojlantirishning o'ziga xos taqdimoti tushuniladi.

Mazkur tadqiqot ishimizda o'quv materialini grafik taqdim etishning vizual metodlarining o'ztiga xos xususiyatlari o'rganiladi.

Grafikli Klaster deganda katta miqdordagi o'quv materialini tuzilgan shaklda taqdim etish metodi tushuniladi. Klaster ma'lum bir grafik shaklida maxsus oval tuzilmalardan iborat sxema, asosiy muammo yoki g'oya vizual ravishda amalga oshiriladi. Ikkinci darajadagi oval tuzilishi funksional ravishda o'quv materialini tizimlashtirish uchun, uchinchi daraja – dolzarb muammoni yanada batapsil bayon qilish uchun mo'ljallangan. Klaster metodi, shuningdek, mavjud bo'lgan o'quv materialini tizimlashtirish va yetishmayotgan o'quv matkriallarini aniqlash uchun yoki talabalarning turli matnlar bilan mustaqil ishlarida qo'llaniladi. Biz darslarning rivojlanishi talabalarga o'z mualliflik g'oyalalarini amalga oshirish, o'quv muammosini hal qilishda o'ziga xos fikr bildirish va pirovardida shaxs sifatida o'zini namoyon qilish imkonini beradigan ijodiy jarayon deb hisoblaymiz.

Axborotni tarkibiy qayta ishlashning juda samarali metodi bu Toni Buzen (1993) tomonidan ishlab chiqilgan aqliy xaritalar ("aql xaritasi", "aql xaritalari", "aql xaritalari", "kognitiv tarmoq").

Belgilangan ta'lif metodi har qanday fikrlar, g'oyalar, uyushmalarning vizual yozuviga asoslangan. Varaqning asosiy qismida u yoki bu vizuallashtirilgan mavzu yoki konsepsiya aktuallashtiriladi; keyingi bosqichda, o'quv materialini sinchkovlik bilan o'rganish, vizual loyiha g'oyani va asosiy tematik qoidalarni aniqlashtiradigan va ochib beradigan chizmalar bilan kengaytirilgan va to'ldirilgan yangi sifat darajasidagi xaritaga aylantiriladi. Vizual va matnli ma'lumotlar kontekstida belgilangan xaritada o'quv munozaralari yoki tematik munozaralar o'tkaziladi. Ushbu metod yordamida o'quvchilarda assotsiativ fikrlashni rivojlantirish uchun maqbul sharoitlar, shuningdek, ularning shaxsiyatining ijodiy imkoniyatlarini ochib berish uchun sharoitlar yaratiladi[5,6,8].

Denotatsion grafikalar – bu asosiy tushunchalarning muhim o'ziga xos xususiyatlarini matnning semantik maydonidan ajratish metodi hisoblanadi.

Denotatsion grafik fe'l va otlarning o'zgarishi jarayoni sifatida tushuniladi. Fe'llar mazmunli harakatlarni anglatadi va otlar keyingi darajadagi asosiy konseptual shakllanishlarni ifodalaydi. Birinchi bosqichda fe'lga otlar va sifatlar yordamida izoh tanlanadi, shundan so'ng asosiy tushuncha mustaqil, ammo o'zaro bog'liq, axborot va semantik «tarmoqlar» ga bo'linadi, bu esa uni turli semantik jihatlar nuqtai nazaridan anglash va tushunishga yordam beradi[6,211].

Denotatsion grafikalar o'quv materiallarining ijobiylmos yozuvlar belgilarini va axborot belgilarini ochish va belgilashda muhim to'siq bo'lgan hamda aniq salbiy qiymatga ega bo'lgan "antipodlar" ni aks ettiradi. Ko'rsatilgan metod talabalarni masofadan o'qitishni tashkil etish va amalga oshirishda keng qo'llaniladi.

Amerika ta'lifidan sinkveyn (besh qatorli) metodi Adelaida Krepsi tomonidan kiritilgan. Ta'lif jarayonida ushbu metod axborot kommunikatsiya jarayonlarida fikr mulohazalarini tashkil etishda qo'llaniladi. Talaba yangi o'quv materiallari bilan tanishib, besh qatorli sxemani ishlab chiqadi. Birinchi satrda asosiy tushuncha hisoblangan so'z mavjud; ikkinchi satrda o'rganilayotgan mavzuni va uning asosiy o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi ikkita atama bilan; uchinchi satrda birinchi qatordagi so'z bilan bog'liq muhim harakatlarni bildiruvchi uchta atama mavjud; to'rtinchi satr yana asosiy tushuncha; besinchi satr ham so'z bilan ifodalangan xulosa sifatida

ifodalanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6200-sonli farmoni “Suv resurslaridan foydalanishda davlat boshqaruvi va nazorati tizimini yanada takomillashtirish va suv inshootlari xavfsizligini ta’minlash chora – tadbirlari to’g’risida”gi Farmoni 2021-yil 6-aprel, Toshkent sh.

Берн, Д. Цифровое освещение и визуализация / Берн Д. – М.: Вильямс, 2003 – 330 с.

Ганеев, С.М. Формирование графической грамотности учащихся при обучении решению планиметрических задач в условиях компьютерной поддержки: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.02 / Ганеев Сабир Минигалиевич. – Омск, 2004 – 220 с.

Георге, И.В. Педагогические условия организации самостоятельной работы в структуре формирования профессиональных компетенций студентов образовательных организаций высшего образования: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08 / Георге Илона Владимировна. – Санкт-Петербург, 2016. – 192 с.

Докторова, Е.А. Мультимедиа технологии / Е.А. Докторова. – Ульяновск: УлГТУ, 2009. 139 с.

Залогова, Л. А. Компьютерная графика. Элективный курс [Электронный ресурс]: практикум / Л. А. Залогова.– М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2014. – 245 с.

TA'LIM VA TARBIYA JARAYONIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING BOLA TARBIYASIDA OILA, MAKTAB VA PEDAGOGLARNING O'ZARO HAMKORLIGIDAGI ROLI

*Sulaymonova Nilufar O'tkir qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistri*

Annotatsiya : Ushbu maqola o'sib kelayotgan yosh avlodning jamiyat normalarini to'la qonli qabul qilishi, o'z davrining yaxshi va kerakli kishisi bo'lib yetishishida oila, pedagog hamda tarbiya maskanlari bilan o'rnatadigan to'g'ri munosabatiga bog'liq ekanligi haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: *oila, maktab, pedagog, jamiyat, jamoa, talab, dunyoqarash, erkin fikrlash, muloqat*.

РОЛЬ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ ВО ВЗАИМОДЕЙСТВИИ СЕМЬИ, ШКОЛЫ И ПЕДАГОГОВ В ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ

Аннотация: В данной статье освещается, от правильного отношения подрастающего поколения к нормам общества, которое оно устанавливает с семьей, педагогом и местами воспитания, зависит полноценное принятие подрастающим поколением норм общества, становление хорошим и нужным человеком своего времени.

Ключевые слова: семья, школа, педагог, общество, коллектив, спрос, мировоззрение, свободомыслие, общение.

THE ROLE OF FUTURE TEACHERS IN THE PROCESS OF EDUCATION AND UPBRINGING IN THE INTERACTION OF FAMILY, SCHOOL AND EDUCATORS IN THE UPBRINGING OF CHILDREN

Annotation: this article covers the fact that the growing young generation has a full-blooded acceptance of the norms of society, depends on the correct attitude that it establishes with the family, educator and educational institutions in the maturation of a good and necessary Person of its time.

Keywords: family, school, educator, society, community, demand, worldview, free thinking, communication.

Oilada ota-ona, vasiy yoki katta kishilar tomonidan bolalarni tarbiyalash, yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida muhim o'rIN tutadi. Oila muhutida doimiy tarbiyaviy ta'sirchan kuch-oilada ruhiy xotirjamlik, samimiy munosabat, ota-ona obro'sining yuqori bo'lishi, o'rtadagi o'zaro hurmat, boladagi o'zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikga intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo'llab quvvatlash bu ota-ona shaxsiga xosdir. Oila tarbiyasida yutuqlarga erishish, ota-onalarning pedagogik bilimlarga ega ekanligi, ularni tarbiyaviy ishlarga qizg'in jalb qilishga ham bog'liqidir. Ya'ni ota-ona oila tarbiyasida o'zlarining burch va ma'suliyatlarini chuqur anglashlari lozim. Zero, normal oilaviy muhit, bolani kitob o'qishga, mehnat qilish hamda vaqtidan unumli foydalanishni o'rgatishda, o'z vaqtida jalb etish ham oila tarbiyasining muvaffaqiyati garovidir. Oila tarbiyaning qimmatliligi va ahamiyati yana shundaki, kichik shaxslik paytida oilada egallangan narsalar bir umrlikga saqlanib qoladi. Xuddi shuning uchun ota-onalarning shaxslarni har tomonlama tarbiyalash majburiyati qonuniy tarzda belgilanib qo'yilgan.

Bolalarni barkamol inson qilib yetishtirishda maktabni oila bilan bog'lamasdan muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Maktabdagagi ta'lim-tarbiya jarayoni ota –onalar bilan o'zaro munosabatlarni tashkil etishga asoslanishi kerak. Oila, maktab, bolalar jamoasi- oldingi avlod tomonidan to'plangan axloqiy qadriyatlarni yangi avlodlarga beradigan vositachisidir. Afsuski, bizning davrimizda oila va maktab o'rtaсидаги samarali o'zaro munosabatlarni tashkil etishda bir qator muammolar mavjud. Eng ko'п uchraydigan muammolar:

Bolalarni tarbiyalash vaqtini to'g'ri taqsimlay olmaslik bilan baholanishi; Ota-onalarning bilim darajasi va madaniyatining pastligi.

Aniqlangan muammolar tufayli o'qituvchining ota-onalar bilan ishlashi zamonaviy maktab uchun juda muhim va zarurdir.

Ota-onalarning o'qituvchilar bilan bo'lган uchrashuvlarida, pedagoglarlar ularning farzandlari haqida qay daraja ma'lumot berishlari, ota-onsa va maktab o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga intiladi. Bola maktabni tamomlagunga qadar ota-onsa maktab bilan yaqin a'loqa o'rnatishi, farzandining darslarni qay darajada o'zlashtirishi, xulq-atvordan xabardor bo'lib turishi, tarbiya masalalarida o'qituvchi, sinf rahbari bilan maslahatlashib turishi, bolaning darsdan so'ng nima bilan shug'ullanganligi haqida o'qituvchi va sinf rahbarini xabardor qilib turishi lozim. Maktabdan bo'sh vaqtida bola foydali ishlar bilan mashg'ul bo'lishi, o'zi qiziqqan fan bo'yicha qo'shimcha mashg'ulotlarga qatnashi va yaxshi o'zlashtirishi, sport bilan shug'illanishi, madaniy hordiq chiqarishi, badiiy va ilmiy kitoblarni o'qib o'rganishi hamda o'qigan ma'lumotlariga asosan munosabat bildira olishi lozimdir. Ana shu hollarda bola o'z shaxsiy fikriga va dunyoqarashiga ega bo'la boshaydi. Bugungi tezkor zamonda bolalarni turli zararli illatlardan himoya qilish va ogohlantirish ota-onsa, maktab hamda pedagoglarning jamiyat oldidagi eng muhim vazifasi hisoblanadi. Zero, o'z mustaqil fikriga ega, zamon talablariga asosan bo'y cho'zayotgan farzandlarimiz vatan taraqqiyoti yo'lida bilim va tafakkurlari bilan op'z hissalarini qo'shsalar maqsadga erishgan bo'lardik. O'z navbatida o'qituvchi va sinf rahbari ham bolaning o'qishi, odobi, xulqi, maktabda o'zini tuta bilishi haqidagi ma'lumotlarni ota-onaga yetqazishi, zarurat tug'ilganda paydo bo'lган muammolarni birgalikda hal qilishi lozim. Sinf o'qituvchisining vazifalari har bir bolaning shaxsiyati, uning o'ziga xos namunali ko'rinishi bilan farzandi maktabga borgan ota-onsa maktab jamoasining a'zosi bo'lib qolishi kerak.

Maktabning keng jamoatchilik bilan aloqasi sinf rahbari orqali amalga oshiriladi. Sinf rahbari ota-onalar bilan olib boradigan ishlariga quyidagi vazifalarni hal qiladi:

Ota-onalar bilan yaqindan aloqa o'rnatadi va aloqani doimo mustahkamlab boradi;

O'quvchiga nisbatan maktabning va oilaning yagona talablar qo'yishga erishadi;

Sinf ota-onalar jamoasini tashkil etib, ularning sinfdagi tarbiyaviy ishlariga faol qatnashishlarini ta'minlaydi;

Ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni tarqatadi va ularning pedagogik madaniyatini yuqori darajaga ko'rsatadi;

Tarbiyalı bo'lish - bu xulq-atvordan nazorat qilishdan iboratdir. Bunday nazorat insonga yomon hatti-harakatlarni bajarmaslik imkoniyatini beradi. Agar shaxs xulq-atvordan axloqiyligi haqida qayg'ursa, u ijtimoiylashuvga erishgan bo'ladi. Tarbiyalanganlik ijtimoiylashuvni o'rganish jarayoni sifatida qaraladigan yosh psixologiyasida olingan natijalarga asoslanadi. Bola o'zini egotsentrik emas, balki tarbiyalı tutishi uchun tarbiyalanganlik qanday rag'batlantirilishi kerak? Tarbiya o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy jihatdan ijobiy ehtiyojlarni hosil qilishidir. Agar ta'lim shaxsning ongini shakllantirish bo'lsa, tarbiya uning ongsizlik sferasiga ta'sir etishdir. Bolalarga ularni tarbiyalaydiganlarga hissiy yaqinlik xos. Odatda 6 oylik bolalar unga g'amxo'rlik qiladigan ota-onasiga bog'lanib qoladilar. Ota-onaning oldida, ular bilan muloqotda bo'lish bolalarga juda yoqadi, ularning yo'qligi bolaga yoqmaydi. Ota-onaning g'amxo'rligini bildiradigan so'zlar, hatti-harakatlar bola uchun juda katta ahamiyatga ega, uni erkalamaslik, suymaslik salbiy ahamiyatga ega bo'ladi. Xulq-atvorning dastlabki ijtimoiylashuvi xuddi shu o'rganish jarayoni orqali sodir bo'lishi mumkin: xulq-atvorning istalgan shakllari g'amxo'rlik va e'tibor bilan taqdirlanadi, kutilmagan shakllari esa qo'llab-quvvatlanmaydi. Lekin, yaxshi xulq-atvorni rag'batlantirish va yomon xulq-atvor uchun jazolash axloqiy ijtimoiylashuvning kichik bir qismidir. Biz ko'rib chiqgan xulq-atvor hamma bolalarga ham taalluqli emas. Bolalarni tarbiyalash samaradorligini oshirishda an'ana va urf-odatlarning roli katta. Xalq urf-odatlari, an'analari va marosimlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ular odamlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, do'stlik-birodarlik hissuyg'ularini rivojlantiradi. Bular o'z navbatida yoshlar uchun ibrat namunasini o'taydi.

Mustaqil jamiyatning baxt-saodati yo'lida halol mehnat qilish, jamiyat boyligini saqlash va ko'paytirish yo'lida har bir kishining timmay g'amxo'rlik qilishi, ijtimoiy burchni yaxshi anglash, jamiyat hayotida va shaxsiy hayotda halollik va rostgo'ylik, axloqiy sofdillik, odamiylik va kamtarlik, milliy va irqiy adovatlarga aslo yo'l qo'ymaslik va shu kabilalar tarbiya jarayonining muhim xislatlaridir.

Tarbiya jarayonida g‘amxo‘rlikning funksiyasi kattadir. Bolalar befarq ota-onalarga nisbatan g‘amxo‘r ota-onaga ko‘proq taqlid qiladilar. G‘amxo‘r ota-onalar bolaning salbiy xulq-atvorini qo‘llab-quvvatlamaganda, bola o‘z hatti-harakatlarining oqibatini ertaroq anglaydi. Tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishda g‘amxo‘rlik bilan bir qatorda yaxshi ko‘rishga asoslangan intizomga rioya qilish zarurdir. Bu bola bilan doimiy muloqotni tushuntirishni, muhokama qilishni, agar bolaning xulq-atvori shuni talab qilsa, og‘zaki tanbeh berishni, yaxshi xulq-atvor uchun taqdirlashni nazarda tutadi.

Tarbiya jarayonining texnologiyasini quyidagicha sharhlash mumkin:

1. Tarbiyalanuvchini alohida takrorlanmas, individuallik sifatida tushunmoq lozim. Unint ehtiyojlari strukturasini aniqlash kerak.

2. Ijobiy emotsiyalar vositasida ijobiy xulq-atvor odatlarini shakllantirmoq kerak. Ong ham, iroda ham motivlar ierarxiyasini shakllantira olmaydi. Zotan, bir ehtiyojning o‘rnini faqat boshqa ehtiyojgina egallashi mumkin.

3. Shu ehtiyojlarni qondirish vositalari bilan bolani qurollantirish tarbiya va tarbiyachidan muloqotni ham, hamdardlikni ham emas, aynan shu vositalar bilan qurollantirishni kutadi.

Arastu aytganidek: «Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste’dodga, ilmga, mashqqa»

Sinf rahbarlari ota-onalar bilan birlgilikda tarbiyaviy ishni tashkil etar ekanlar, eng yangi psixologik-pedagogik tadqiqotlar ma’lumotlarini e’tiborga olishlari ham muhimdir. Sinf rahbarining o‘quvchini yaxshi tarbiyalashdagi oila va jamoatchilik bilan hamkorligining muvaffaqiyati ularning bola bilan qilayotgan ishlari haqida bir-birlariga qanchalik ko‘p, aniq va muntazam xabar berib turishlariga bog’liq.

Xulosa qilib aytganda, mustahkam, ma’naviy immunitetli, o’zining fikrlarini ravon ayta oladigan, dunyoqarashi keng, namunali xulq-atvorga ega bo’lgan, yuqori marralarga erishuvchan avlodni tarbiyalash uchun ta’lim dargohlari bilan ota-on, oila hamkorligi juda katta ahamiyat kasb etadi.

So’zim so’ngida Farobiyning purmano fikrlari bilan yakunlamoqchiman:

“Har kimki ilm hikmatini o’rganmagan desa, uni yoshligidan boshlasin, sog’-salomatligi yaxshi bo’lsin, yaxshi ahloq va odobi bo’lsin, barcha qonun va qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo’lsin, ilmli va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm ahli va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin, barcha real narsalar to’g’risida bilimga ega bo’lsin”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori «Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g’risida» 27.07.2017 y., PQ-3151, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 30-son, 729-modda.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g’risida» 5.06.2018 y., PQ-3775 Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

3. Karimov I.A. «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch». T.: «Ma’naviyat». 2008.- 176 b.

4. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

5. Abu Nasr Forobi. Risolalar. Mas’ul muharrir O‘zbekiston Respublikasi FA haqiqiy a’zosi M.M.Xayrullaev. Toshkent, «Fan» nashriyoti, 1975, 71-72 b.

6. Abu Rayxon Beruniy. Tanlangan asarlar. – T.: Fan, Vtom. 1976. 664 b .

7. Abdulla Avloniy Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. 2-jild. – T.: Ma’naviyat, 1998. –304 b.

Abdumurod Tilavov “Tarbiya kitobi”3-juz “Yurist-media makazi”nashriyoti 2017.

Mavlonova R., Rahmonqulova N, Normurodova B, “ Tarbiyaviy ishlar metodikasi”- 2010

A.R.Soxibov O‘quv qo‘llanma. “Pedagogik fikrlar taraqqiyoti” Qarshi “Nasaf” 2022 yil 18,6 b.t

A.R.Soxibov Darslik “Umumiy pedagogika” Qarshi “Nasaf” 2023 yil 22,0 b.t

A.R.Soxibov O‘quv-uslubiy qo‘llanma. “Talimning interfaol usullari”Qarshi 2020y 12,2 b.t

MADANIY O'ZIGA XOSLIK VA ETNIK MADANIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDA TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING O'RNI

Suyarov Nodirjon Taxirovich

Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti (PhD)

Annotatsiya: Tasviriy san'at o'qituvchilari o'quvchilarining madaniy o'ziga xosligini shakllantirishda va bugungi xilma-xil va o'zaro bog'liq dunyoda muhim komponentlar bo'lgan etnik madaniy kompetensiyani rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu maqola san'at o'qituvchilari madaniy xilma-xillikka hurmatni rag'batlantirish bilan birga o'quvchilarining o'zlarining madaniy merosini tushunishlariga qanday hissa qo'shishini o'rGANADI. San'at o'quv dasturiga ko'p madaniyatli tarkibni integratsiyalashgan holda, san'at o'qituvchilari o'quvchilarga turli madaniy ifodalar bilan shug'ullanish va boshqa etnik guruhlarga nisbatan hamdardlikni rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratadi. Maqolada madaniy o'ziga xoslikni shakllantirishda ijodiy ifodaning ahamiyati ta'kidlangan va badiiy ta'lif etnik madaniy kompetensiyani rivojlantirishda qanday kuchli vosita bo'lishi mumkinligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at ta'lifi, madaniy o'ziga xoslik, etnik madaniy kompetentsiya, ko'p madaniyatli ta'lif, madaniy meros, ijodiy ifoda.

РОЛЬ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА В ФОРМИРОВАНИИ КУЛЬТУРНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ И ЭТНОКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

Суяров Нодиржон Тахирович

Доцент Наманганского государственного педагогического института (PhD)

Аннотация: Преподаватели изобразительного искусства играют решающую роль в формировании культурной идентичности учащихся и развитии этнокультурной компетентности, важных компонентов в современном разнообразном и взаимосвязанном мире. В этой статье рассматривается, как преподаватели искусства могут способствовать пониманию учащимися своего культурного наследия, одновременно поощряя уважение к культурному разнообразию. Интегрируя мультикультурный контент в учебную программу по искусству, преподаватели искусства предоставляют учащимся возможность участвовать в различных проявлениях культуры и развивать сочувствие к другим этническим группам. В статье подчеркивается важность творческого самовыражения в формировании культурной идентичности и показано, как художественное образование может стать мощным инструментом развития этнокультурной компетентности.

Ключевые слова: изобразительное художественное образование, культурная идентичность, этнокультурная компетентность, поликультурное образование, культурное наследие, творческое выражение.

THE ROLE OF FINE ARTS TEACHERS IN FORMING CULTURAL IDENTITY AND ETHNIC CULTURAL COMPETENCE

Suyarov Nodirjon Taxirovich

Namangan State Pedagogical Institute Associate Professor (PhD)

Abstract: Visual arts educators play a critical role in shaping students' cultural identity and developing ethnocultural competence, important components in today's diverse and interconnected world. This article explores how art educators can contribute to students' understanding of their cultural heritage while encouraging respect for cultural diversity. By integrating multicultural content into the arts curriculum, art educators provide opportunities for students to engage with diverse cultural expressions and develop empathy for other ethnic groups. The article emphasizes the importance of creative expression in the formation of cultural identity and shows how art education can be a powerful tool in developing ethnic cultural competence.

Key words: fine art education, cultural identity, ethnic cultural competence, multicultural education, cultural heritage, creative expression.

Kirish. Turli madaniy va etnik elatlarga mansub shaxslar birgalikda yashayotgan borgan sari globallashib borayotgan dunyoda xilma-xillikni tushunish va qadrlash zarurati eng muhim hisoblanadi. Ta'lism o'quvchilarining o'zlarining madaniy o'ziga xosligini va boshqalarning madaniyatini qanday idrok etishlarini shakllantirishda muhim rol o'yaydi. Pedagoglar orasida san'at o'qituvchilar bu jarayonda o'ziga xos mavqega ega, chunki ular nafaqat texnik ko'nikmalarni rivojlantirishga, balki hissiy va madaniy ifodalashga ham yordam beradi. Tasviriy san'at ta'limi orqali san'at o'qituvchilar o'quvchilarining etnik madaniy kompetentsiyasini oshirish va ijtimoiy birdamlik va madaniyatlararo uyg'unlik uchun muhim bo'lgan madaniy o'ziga xoslikni chuqurroq tushunishga yordam berish qobiliyatiga ega.[1] Ushbu maqolada san'at o'qituvchilarining madaniy o'ziga xoslikni shakllantirish va etnik madaniy kompetentsiyani targ'ib qilishdagi asosiy roli ko'rib chiqiladi. Biz san'at ta'limi talabalarga o'zlarining madaniy ildizlarini o'rganishga, turli madaniy ifodalarni qadrlashga va ko'p madaniyatli muhitda harakat qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishga qanday yordam berishini o'rganamiz.

Madaniy o'ziga xoslikni shakllantirishda san'atning o'rni. San'at har doim odamlar va jamoalar o'zlarining madaniy qadriyatlari, e'tiqodlari va tarixlarini ifoda etadigan kuchli vosita bo'lib kelgan. San'atni yaratish va talqin qilish orqali odamlar o'zlarining madaniy hikoyalarini o'rganishlari va boshqalarning madaniy amaliyotlari haqida tushunchaga ega bo'lishlari mumkin. Shunday qilib, badiiy ta'lism o'z-o'zini anglash va ijtimoiy tushunishning asosiy jihatni bo'lgan madaniy o'ziga xoslikni o'rganish uchun qulay zamin yaratadi.

Madaniy izlanish va o'zini namoyon qilish: San'at o'qituvchilarining madaniy o'ziga xoslikni shakllantirishga hissa qo'shishining asosiy usullaridan biri o'quvchilarni shaxsiy va madaniy tajribalarini ifodalash uchun badiiy vositalardan foydalanishga undashdir.[2] O'z merosi, an'analari va qadriyatlarini aks ettiruvchi ijodiy loyihalar bilan shug'ullanish orqali talabalar o'zlarining madaniy o'ziga xosligini mazmunli tarzda o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu jarayon nafaqat o'quvchilarining madaniy ildizlari bilan bog'lanishini mustahkamlaydi, balki g'urur va daxldorlik tuyg'ularini ham rivojlantiradi.[3]

Madaniy xilma-xillikning namoyon bo'lishi: Tasviriy san'at o'qituvchilarini ham san'at o'quv dasturi madaniy istiqbollarning keng doirasini ifodalashini ta'minlashda muhim rol o'yaydi. Talabalarni turli madaniyatlarining san'at shakllari, uslublari va an'analari bilan tanishtirish orqali san'at o'qituvchilarini inklyuzivlik va madaniy xilma-xillikni targ'ib qiladi. Bu talabalarga madaniyat monolit emas, balki etnik guruhlarda farq qiluvchi inson o'ziga xosligining dinamik va rivojlanayotgan jihatni ekanligini tushunishga yordam beradi. Turli badiiy an'analarni o'rganish orqali o'quvchilarda madaniy kompetentsiya uchun zarur bo'lgan keng dunyoqarash shakllanadi.

Shaxsni shakllantirishga ko'maklashish: Madaniy o'ziga xoslik ko'p qirrali tushuncha bo'lib, u shaxsning ma'lum bir etnik, milliy yoki ijtimoiy guruhga mansublik hissini o'z ichiga oladi. Tasviriy san'at o'qituvchilar o'quvchilarga shaxsiy kelib chiqishi va tajribalarini aks ettirishni talab qiladigan loyihalar orqali rahbarlik qilish orqali ularga shaxsiyatni shakllantirish jarayonida yordam berishi mumkin. Ushbu loyihalar vizual hikoyalar, avtoportretlar yoki madaniyat, meros va shaxsiy tarix mavzularini o'rganuvchi hamkorlikdagi ishlarni o'z ichiga olishi mumkin. Bunday tadbirlar orqali talabalar o'zlarining shaxsiyatlarini va ularning madaniy kontekstida qanday shakllanganligi haqida tanqidiy fikrlashga undaydilar.[4]

Badiiy ta'lism orqali etnik madaniy kompetentsiya. Etnik madaniy kompetentsiya turli madaniy va etnik kelib chiqishiga mansub shaxslarni tushunish, hurmat qilish va ular bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini anglatadi. U madaniy ongni, sezgirlikni va madaniy chegaralar orqali muloqot qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Tasviriy san'at o'qituvchilar ushbu kompetentsiyani rivojlantirishda o'z sinflariga madaniy jihatdan javob beradigan o'qitish amaliyotini integratsiyalash orqali hal qiluvchi rol o'yaydi.

1. Ko'p madaniyatli san'at o'quv dasturi: Etnik madaniy kompetentsiyani rivojlantirishning asosiy strategiyalaridan biri ko'p madaniyatli tarkibni san'at o'quv dasturiga kiritishdir. Talabalarni turli madaniy guruhlarning san'at turlari va amaliyotlari bilan tanishtirish orqali san'at o'qituvchilar talabalarga madaniy xilma-xillik boyligini qadrlash imkoniyatini yaratadilar. [5] Ushbu ta'sir o'quvchilarda turli madaniyatlarga mansub odamlarga empatiya va hurmatni

rivojlantirishga yordam beradi, bu stereotiplarni kamaytirish va ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlash uchun zarurdir.

2. Madaniyatlararo muloqotni rag'batlantirish: Badiiy ta'lim madaniyatlararo muloqot uchun platformani ta'minlaydi, bu erda talabalar badiiy ifoda ob'ektivi orqali madaniy farqlar va o'xshashliklar haqida bahslashishlari mumkin. Turli madaniy kontekstlardagi san'atni tahlil qilish va sharplash orqali talabalar umumiy insoniy tajribalarni tan olish bilan birga har bir madaniyatning o'ziga xosligini qadrlashni o'rganadilar. San'at o'qituvchilari ushbu suhbatlarni osonlashtirishi, talabalarga madaniy murakkabliklarni o'rganishga yordam berishlari va o'zaro tushunishni rivojlantirishlari mumkin.

3. Madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirish: Tasviriy san'at lingvistik to'siqlarni engib o'tadigan universal til bo'lib, uni madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish uchun ideal vositaga aylantiradi. San'at o'qituvchilari o'quvchilarni san'atdan og'zaki ifodalash qiyin bo'lgan g'oyalar, his-tuyg'ular va madaniy hikoyalarni etkazish vositasi sifatida foydalanishga undaydilar. Turli xil kelib chiqishi talabalarni birlashtiradigan hamkorlikdagi badiiy loyihalar orqali o'qituvchilar jamoaviy ish, madaniy almashinuv va madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishi mumkin.

San'at inklyuzivlik va imkoniyatlarni oshirish vositasi sifatida. Badiiy ta'lim etnik madaniy kompetentsiyani targ'ib qilishdan tashqari, barcha talabalar o'zlarini qadrli va hurmatli his qiladigan inklyuziv ta'lim muhitini yaratishda ham muhim rol o'ynaydi. Tasviriy san'at o'qituvchilari madaniy jihatdan sezgir pedagogikani o'zlashtirgan holda, o'quvchilarga ijodiy ifoda orqali ovoz berish orqali marginal yoki kam vakillik guruhlari o'quvchilarini kuchaytirishga yordam berishi mumkin.[6]

1. Inklyuziv san'at amaliyotlari: Inklyuziv san'at amaliyotlari o'quv dasturida barcha madaniy kelib chiqishi talabalar o'zlarini ko'rishlari mumkin bo'lgan joylarni yaratishni o'z ichiga oladi. San'at o'qituvchilari bunga sinfda o'rganilayotgan rassomlar, mavzular va materiallar talabalar jamoasining xilma-xilligini aks ettirishini ta'minlash orqali erisha oladi. Ushbu yondashuv nafaqat ozchilikdagi talabalar tajribasini tasdiqlaydi, balki ularning madaniy ufqlarini kengaytirish orqali barcha talabalar uchun o'rganish tajribasini boyitadi.[7]

2. Marginallashtirilgan ovozlarni kuchaytirish: Tasviriy san'at o'qituvchilari o'quvchilarni san'atdan ijtimoiy adolat muammolarini hal qilish va o'zgarishlarni himoya qilish vositasi sifatida foydalanishga undash orqali kuchaytirishlari mumkin. Marginallahsgan jamoalar talabalar uchun san'at qarshilik va o'zini namoyon qilishning kuchli shakli bo'lishi mumkin. Talabalarga o'ziga xoslik, tengsizlik va madaniy barqarorlik mavzularini o'rganuvchi loyihalarga rahbarlik qilish orqali san'at o'qituvchilari o'quvchilarda jamiyatni o'zgartirishga hissa qo'shishga ishonch hissi va ishonchni rivojlantirishga yordam beradi.

3. Tolerant bo'lish madaniyatini tarbiyalash: Madaniyatga javob beradigan badiiy ta'lim dasturi barcha o'quvchilarning madaniy o'ziga xosligini tasdiqlash orqali tegishlilik tuyg'usini rivojlantiradi. Talabalar o'zlarining madaniy merosi sinfda e'tirof etilishini va hurmat qilinishini his qilsalar, ular o'rganishda faol ishtirot etishlari va o'zlarining noyob istiqbollarini o'z hissalarini qo'shishlari mumkin.[8] Tasviriy san'at o'qituvchilari inklyuzivlikni targ'ib qilish orqali har bir talaba o'zlarining madaniy kelib chiqishidan qat'i nazar, o'zini tegishli deb hisoblaydigan o'quv muhitini yaratishga yordam beradi.

Xulosa. San'at o'qituvchilari o'quvchilarning madaniy o'ziga xosligini shakllantirish va etnik madaniy kompetentsiyani rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ijodiy ifoda orqali talabalar o'zlarining madaniy meroslarini o'rganishlari va o'zlarining jamoalari va butun dunyonи tashkil etuvchi turli madaniyatlar haqida chuqurroq tushunchaga ega bo'lishlari mumkin. Ko'p madaniyatli tarkibni o'quv dasturiga integratsiyalash, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish va inklyuziv san'at amaliyotini targ'ib qilish orqali san'at o'qituvchilari talabalarga tobora ko'p madaniyatli jamiyatda harakat qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Oxir oqibat, san'at o'qituvchilarining bu boradagi faoliyati xilma-xillik nishonlanadigan va qadrlanadigan yanada inklyuziv, hurmatli va hamjihatlik jamiyatlarini yaratishga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

Иванова Н. Проблема развития этнокультурной компетентности и поликультурное

<http://interscience.uz>

№ 3-354

воспитание //Revista de Etnologie și Culturologie. – 2011. – №. 9-10. – С. 252-255.

Афанасьева А. Б. Этнокультурное образование: сущность, структура содержания, проблемы совершенствования //Знание. Понимание. Умение. – 2009. – №. 3. – С. 189-195.

Банников В. Н. Профессиональное становление будущего учителя изобразительного искусства //ВН Банников.–2009.–39 с. – 2009.

Магомедова З. Ш., Сулейманова Т. Р. Роль этнокультурного просвещения в процессе воспитания подрастающего поколения в эпоху нестабильности //Проблемы современного педагогического образования. – 2022. – №. 75-1. – С. 54-57.

Шабанова, М. Н. «Этнохудожественная культура как фактор формирования профессиональной компетентности художника-педагога.» Вопросы журналистики, педагогики, языкоznания 18.13 (156) (2013): 294-298.

Шустова Л. П. Формирование поликультурности личности в этнокультурной образовательной среде учреждения дополнительного образования //Э91 Этнокультурное образование в современном мире: Сб. науч. статей по. – 2017. – С. 844.

Печенева С. А. Интерактивный подход к преподаванию предметов «музыка», «изобразительное искусство» и «мировая художественная культура» в общеобразовательных организациях //Современная образовательная среда: теория и практика. – 2018. – С. 154-164.

Птицына Е. В. Этнокультурное воспитание будущего учителя в образовательном процессе университета.

IJTIMOIY MUNOSABATLARDA AMORALIZM VA IMMORALIZMNI OLDINI OLISHDA MAVJUD ME'YORLARNING AHAMIYATI

Toshpulatov Odil Nodirovich

Oliy ta'limi rivojlantirish tadqiqotlari markazi bo'lim boshlig'i

Annotatsiya: Jamiyatning axloqiy me'yorlar asosida munosabatlarni tartiblashtirib kelmoqda. Mazkur jarayonni bir necha asrlardan buyon jamiyatning o'zi tartiblashtirib kelmoqda. Ijtimoiy axloqiy me'yorlarni buzish, ularni bajarmaslik atrofdagilar e'tiroziga sabab bo'lgan. Davlat tuzilmalari paydo bo'lgandan so'ng ijtimoiy munosabatlarning bir qismi huquq normalari asosida tartiblashtirish yo'lgan qo'yildi.

Kalit so'zlar: axloqiy me'yorlar, ijtimoiy normalar, xulq-atvor, odat, ijtimoy guruhlar, anomiya, individ, amoralist.

ЗНАЧЕНИЕ СУЩЕСТВУЮЩИХ СТАНДАРТОВ В ПРЕДОТВРАЩЕНИИ АМОРАЛИЗМА И ИММОРАЛИЗМА В ОБЩЕСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЯХ

Toшпулатов Одил Нодирович

Заведующий отделом Центра исследований развития высшего образования

Аннотация: Общество организует отношения на основе моральных норм. Этот процесс регулировался самим обществом на протяжении нескольких столетий. Нарушение социальных и моральных норм и несоблюдение их вызывают возражения со стороны окружающих. После возникновения государственных структур некоторые общественные отношения стали регулироваться на основе правовых норм.

Ключевые слова: моральные нормы, социальные нормы, поведение, обычай, социальные группы, аномия, индивидуум, аморалист.

THE IMPORTANCE OF EXISTING STANDARDS IN PREVENTING AMORALISM AND IMMORALISM IN SOCIAL RELATIONS

Toshpulatov Odil Nodirovich

Head of Department, Center for Research on the Development of Higher Education

Annotation: Society organizes relationships based on moral norms. This process has been regulated by society itself for several centuries. Violation of social and moral norms and non-observance of them cause objections from others. After the emergence of state structures, some social relations began to be regulated based on legal norms.

Keywords: moral norms, social norms, behavior, custom, social groups, anomie, individual, immoralist.

Jamiyatdagi mavjud odat va ommaviy tomoshalar xalqning etnomadaniyatidagi me'yorlar asosida shakllanadi. Odat (ritual) kishilarning etnos, sotsium talablariga muvofiq "bir xildagi xatti-harakatlardir".[1] To'g'ri, ilk arxaik odatlar beayov, hatto g'ayriinsoniy bo'lgan. Zaminimizda Zardushtishlik dini keng yoyilgungacha bo'lgan poleteistik davrda g'ayriinsoniy va amoralistik odatlarning mavjudligini tarixiy manbalar asoslaydi. Ko'pxudolik bilan bog'liq amoralistik odatlarning Eronda, Baqtriyada hukm surganligi haqida Gerodot quyidagicha xabar beradi: "Men eshitdimki, podshoh Artakserks I ning xotini Amestritsa o'zining uzoq yashayotganiga shukrona sifatida ikki bora yetti nafar oliy nasab fors o'spirinlarini tuproqqa ko'mdirib, yer osti xudosi sharafiga qurbanlik qilibdi. Uning eri, Fors podshohi Artakserks I esa Strimondan muvaffaqiyatlisi kesib o'tgach, bu yerlarning "to'qqiz yil" deb nomlanishini eshitib, mahalliy aholi ichidan to'qqiz qizni yerga ko'mishni buyurgan. Odamlarni tiriklay ko'mish forslarda odat ekan".[2] Qadimgi amoralistik diniy me'yorlar vaqt o'tgani sayin immoralizmga aylana borgan. Jamiyatdagi boshqaruvchilar ijtimoiy-axloqiy me'yorlarni o'z xohish-istiklariga bo'ysundirgan. O'z davrining diniy kohinlari ham martabasini yo'qotmaslik, oddiy xalqni qo'rquvda saqlab turish maqsadida g'ayriinsoniy diniy qoidalarni o'ylab topganlar.

Ayniqsa, tirik odamlarnitasavvurlaridagi iloh "Molox" ga qurbanlik keltirish marosimini hoyeratda daxshatli amoralizmdir. Kohinlar xalq orasidan kattayu-kichikni birdek qyynab o'ldirganlar. Katta yoshdag'i qurbanlar, ehtimolki bu azoblarga avvaldan tayyorlangan, ko'niktirilgandir, chunki bunday o'y lab topilgan me'yorga hamma birdek bo'ysungan, ammo, bolalar misdan quyilgan, benihoya ulkan Molox haykalining qonli, qip-qizil kaftlariga tiriklayinch'a yotqizilganlar. Haykalning qo'llari yelka osha yashirin ishlangan zanjirlar orqali harakatga kelib ko'tarilgan, teptekis kaftda ustma-ust yotgan qurbanlar bir-birining ustidan umbaloq oshganlaricha haykalning og'ziga, undan to'ppa-to'g'ri haykal ichida yonib turgan olovga uchib tushganlar. Olovli zindonga tashlangan odamlar bir necha daxshatli daqiqa ichida kulga aylangan va haykal poyiga to'kilgan. Ajalkash uzun qo'l yana oldga cho'zilgan, uning kaftiga yangi-yangi qurbanlar yotqizilgan... Bu tomosha soat sayin, kun osha, yillar mobaynida davom etib kelavergan. Moloxga qurban keltirish marosimida ishtirot qilayotgan qarindoshlarga, ota-onalarga yig'lash, iztirob chekish va hatto qayg'usini oshkor qilish, motam tutish mutlaqo man qilingan. Qanchalik g'ayriinsoniy bo'lmasin, bolasi qurban qilinayotgan mushtipar ona ham bu marosimda, hamma qatori qatnashmog'i, qurbanlarni kuzatib qolmog'i shart bo'lgan, aks holda, deb tushuntiradi kohinlar, Molox battar g'azablanib, odamlar boshiga bundan-da daxshatliroq ofatlarni yog'dirgusidir! [3] Hozir ham ushbu ibtidoiy odatlarning ko'rinishlari, qoldiqlari u yoki bu etnomadaniyatda uchrab turadi. Yuqoridagi ma'lumotlarni keltirdikki, qanchalik gumanistik yoki g'ayriinsoniy bo'lmasin jamiyatdgi insonlar mavjud ijtimoiy me'yorlarga ko'nib, ularga bo'ysunib yashaydi. Chunki inson jamiyatdan ajralib yakka holda yasholmaydi. Shu sababdan ham ko'nikishga majbur bo'ladi. Ayniqsa, immoralizm (axloqning boshqaruvchi rahbarlar xohish-irodasiga bo'ysundirish) hukm surgan jamiyatlarda butun xalq yakka shaxs tomonidan ishlab chiqilgan me'yorlar asosida yashaydi.

Dastlabki insonparvarlik (gumanistik) g'oyalarni isloh qilish harakati -O'rtta Osiyoning buyuk farzandi Zardushtdan boshlangan desak haqiqatga to'g'ri keladi. Chunki uning ta'limoti insonparvarlik g'oyalarni birinchi bo'lib ilohiylashtirgan, dunyoviy hayotni muqaddaslashtirgan, uning asosiy aqidalari keyingi jahon dinlari xristianlik va islomning aqidaviy va ibodat qoidalariga ham zamin bo'lgan. [4] Zardushtiylik-deb yozadi Akademik S.F. Oldenburg-o'z davrida insonning yer yuzida farovon yashashiga katta ahamiyat bergen eng oljanob dindir. [2] Zardushtiylik dini insonlar sog'lig'ini mustahkamlashga e'tibor qaratgan. Xalqning turmush tarzini tartiblashtiruvchi diniy axloqiy me'yorlarni ilgari surgan. Mazkur din kishilarning tengligini ilgari suradi.

Yoshlar ma'lum bir muhitda ulg'ayar ekan, undagi tartiblarni to'liq o'zlashtiradi. Ijtimoiy muhitga to'liq moslasha boradi. Ajoddulari tomonidan qabul qilingan axloqiy xatti-harakatlarni e'tirozsiz bajarishga qabul qilgan. Gulxan atrofida aylangan, undan sakrab o'tib, qo'liga cho'g'olgan, bu bilan o'zini elat, qabila, etnos o'rnatgan odatlarga bo'ysunishini ko'rsatgan ajoddolarimiz mazkur xatti-harakatini go'zal, serma'no deb bilgan. Ular uchun mavjud odatlar nafaqat itoatgo'ylik, elat bilan uyg'unlik, shuningdek axloqiy mohiyatga ega odatlar, normalar edi. Shuning uchun ham ular o'z farzandlarini ushbu ruhda tarbiyalab, initsiatsiyadan o'tishga tayyorlab borganlar. [5]

Jamiyatda uchraydigan amoralizmni oldini olishda oilaning ahamiyati katta. Oilada otanonning xulq-atvori farzandlarida aks etadi. Ularning na'munaviy odatlari yoshlar ijtimoiy me'yorlarga amal qilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy nazorat institutlaridan ya'na biri mahalla hisoblanadi. Mahallaning ijtimoiy nazorat qilish funksiyasi orqali yoshlardagi amoralistik odatlarni oldini olish mumkin. Buning uchun mahalla faollaridagi mas'uliyat yuqori bo'lishi kerak. E'tiborsizlik, loqaydlik ijtimoiy muhitda amoralizmni oshishiga olib keladi.

Anomiya odatda jamiyatda o'tkinchi tafsifni, iqtisodda, siyosatda tanglikni yuzaga keltiradi va bu bilan immoralizmga yaqin turadi. U qat'iy hayotiy me'yorlar, maqsadlar, axloq namunalarini yo'qligi, shakllangan ma'naviy qadriyatlar va tizimlarning yemirilishlari bilan birgalikda kechadi. Jamiyatdagi anomiya holati ko'plab individlar va ijtimoy guruhlarning jamiyatdagi maqomini noaniq qilib qo'yadi, jamoaviy birdamlik, umumiylilik, hamkorlikdan mahrum etadi. Shuningdek, muayyan guruh va umuman jamiyat bilan bog'liqlik hissini yo'qotadi. Bular barchasi oqibatida axloq chegarasining buzilishi va keng sur'atda amoralizmga olib keladi.

Anomiya konseptini shunday vaziyatlarda qo'llash mumkinki, bunda jamiyat a'zolarining aksariyat faol a'zolari mavjud ijtimoiy-axloqiy me'yorlarni bilsalarda, lekin bularga qasddan rioya qilmaydilar, ya'ni bajarmaydilar. Davlatlarda iqtisodiy-siyosiy o'tish davrida yuzaga

keladigan muammolarga xalqning salbiy munosabati, e'tirozi natijasida anomiya paydo bo'ladi. Ya'ni davlatlar mustaqillikka erishishi, hokimiyat boshqaruv tizimi almashishi natijasida ma'lum umummilliy maqsadlar o'zgaradi. Bu esa nimalardandir voz kechishga yoki o'zgartirishga olib keladi. Buni to'g'ri qabul qilgan xalq faoliyatni davom ettiradi. Lekin, oldingi hayot tarziga o'rganib qolgan, yangilanishlar davomida turli yo'qotishlarga uchraganlar e'tiroz bildira boshlaydilar. Ular jamoatchilik fikrini buzib noroziliklarni keltirib chiqarishga harakat qiladilar. Chunki ular o'tmishni qumsaydilar.

"Anomiya mexanikdan organik birdamlikka o'tish noto'liqligining mahsuli hisoblanadi. Bu holda, organik birdamlikning obyektiv bazasi – ijtimoiy mehnat taqsimoti - jamiyat ongida ma'naviy tayanch topishdan ko'ra tezroq taraqqiy etadi. Anomiyani doimiy takror ishlab chiqarish shart-sharoitlari ijtimoiy ravishda yuzaga keladigan ko'rinishlarning ikki qatori: ehtiyojlar va ularni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi tafovut hisoblanadi. Feodal negizga ega bo'lgan iyerarxik jamiyat bu jihatdan barqarorroq bo'lgan, chunki turli ijtimoiy qatlamlarga turli maqsadlar qo'ygan va har biriga tor tutash qatlama ichida o'z hayotini ma'noli his qilish imkoniyatini bergen".[6]

Xullas, amoralizm va immoralizm hodisalarining kuchayib borishi jamiyat hayotida dekidentlik (tushkunlik, inqiroz) holatini keltirib chiqaradi. Amoralizm biror bir shaxs yoki muayyan guruhning salbiy xulq-atvordan iborat faoliyatini ifodalovchi tushunchadir. Yuqorida sanab o'tilgan illatlar amoralistik harakatlarni hisoblanib, ijtimoiy me'yorlarni bajarmaslik oqibatida yuzaga keladi. Natijada bunday insonlarning boshqalar bilan munosabatlari putur yetadi.

Insonning amoralistik harakatlarni sodir qilishiga bir qancha sabablarni keltirishimiz mumkin: ruhiy buzilish, dangasalik, mensimaslik, qo'rquiv, xijolat, ayshu-ishrat va h.k. Amoralizmni inson xulq – atvorining o'rnatilgan ma'lum ijtimoiy me'yorlardan chiqishi, undagi impulsiv (shartsiz refleks) mayllar (dipsomaniya, dromomaniya, kliptomaniya, promaniya)[7] namoyon bo'lishi bilan izohlash mumkin. Shu sababdan insonning ijtimoiy munosabatlarni, yurish-turishini axloqiy-huquqiy me'yorlar asosida tartibga solish lozim.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Чеснов Я.В. Лекции по исторической этнографии. –М.: Гардарика, 1998. –С. 51
2. Boboyev H., Hasanov S. "Avesto" – manaviyatimiz sarchashmasi. –Toshkent: "Adolat", 2001. 24-bet.
3. Е.Березиков. Зардушт туғилған диёр. "Ёшлик", 1991 йил, 8 сон, 29-бет.
4. Исо Жабборов. Антик маданият ва маънавият хазинаси. Т., "Ўзбекистон", 1999. 62-63 бетлар.
5. Геннет А. Ван. Обряды перехода. –М.: РАН, 2002. -204 с.
6. Xakimova I.M. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. –Toshkent: 2014. B-. 36-37
7. O'zbekiston Milliy ensikloprdiyasi. Birinchi jild. –Toshkent: 2000.
8. Komilov, R. Z. (2024). O'zbek xalqi nikoh munosabatlari genezisining falsafiy tahlili. Ilm-fan va ta'lim, (7 (22)).
9. Komilov, R. Z. (2024). Ommaviy madaniyat va nikoh munosabatlari mohiyatidagi transformatsion sabablar. tamaddun nuri журнali, 5(56).
10. Komilov, R. Z. (2024). Yangi o'zbekistonda milliy nikoh marosimlarini axloqiy-estetik qadriyatga aylantirish vazifalari. news of the nuuz, 1(1.9. 1), 110-112.
11. Rabiyevich, Komilov Ro'zi. «Modern interpretations of uzbek moral norms and aesthetic ideals in the context of the institution of marriage.» The Conference Hub. 2025.

ILG‘OR MUHANDISLIK MAKTABLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH IMKONIYATLARI

Tosheva Gulnora Djurayevna
dotsent, (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilg‘or muhandislik maktablarida innovatsion texnologiyalarini qo‘llashning imkoniyatlari va afzalliklari ko‘rib chiqilgan. Innovatsion texnologiyalar, jumladan, virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR/AR), 3D modellashtirish, katta ma’lumotlar (BIG DATA) kabi vositalar muhandislik ta’limini zamonaviylashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu texnologiyalar talabalarga murakkab texnik tizimlarni o‘rganishda, kreativ fikrlashni rivojlanishda va amaliy ko‘nikmalarni oshirishda yordam beradi. Shuningdek, maqolada innovatsion texnologiyalarini amaliyotda qo‘llash usullari va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar ham tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: innovatsion texnologiyalar, ilg‘or muhandislik maktablari, virtual haqiqat, kengaytirilgan haqiqat, 3D modellashtirish, katta ma’lumotlar, ta’limni modernizatsiya qilish, o‘quv jarayoni, texnik tizimlar.

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ВЫСШИХ ИНЖЕНЕРНЫХ ШКОЛАХ

Tosheva Gulnora Djurayevna
доцент, (PhD), Бухарский инженерно-технологический институт

Аннотация: В данной статье рассматриваются возможности и преимущества применения инновационных технологий в передовых инженерных школах. Инновационные технологии, такие как виртуальная и дополненная реальность (VR/AR), 3D моделирование, искусственный интеллект и большие данные (BIG DATA), играют ключевую роль в модернизации инженерного образования. Эти технологии помогают студентам изучать сложные технические системы, развивать творческое мышление и совершенствовать практические навыки. Также в статье анализируются способы применения инновационных технологий на практике и возможные проблемы, которые могут возникнуть при их внедрении.

Ключевые слова: инновационные технологии, передовые инженерные школы, виртуальная реальность, дополненная реальность, 3D моделирование, искусственный интеллект, большие данные, модернизация образования, учебный процесс, технические системы.

THE POSSIBILITIES OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN HIGHER ENGINEERING SCHOOLS

Tosheva Gulnara,
Associate Professor, (PhD), Bukhara Institute of Engineering and Technology

Abstract: This article examines the possibilities and advantages of using innovative technologies in advanced engineering schools. Innovative technologies such as virtual and augmented reality (VR/AR), 3D modeling, artificial intelligence, and BIG DATA play a key role in modernizing engineering education. These technologies help students to study complex technical systems, develop creative thinking and improve practical skills. The article also analyzes the ways of applying innovative technologies in practice and possible problems that may arise during their implementation.

Keywords: innovative technologies, advanced engineering schools, virtual reality, augmented reality, 3D modeling, artificial intelligence, big data, modernization of education, educational process, technical systems.

KIRISH. Bugungi kunda ta’lim sohasida yuz berayotgan o‘zgarishlar va rivojlanishlar dunyo miqyosida global inqilobning ajralmas qismiga aylanishi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, muhandislik ta’limi sohasida innovatsion texnologiyalarini qo‘llash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ilg‘or

muhandislik maktablari nafaqat ilmiy va texnik bilimlarni uzlusiz yangilash, balki o‘quvchilarga zamonaviy texnologiyalarni o‘rgatish orqali ularga ijtimoiy va texnik jihatdan katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Innovatsion texnologiyalarni ta’limda qo‘llash, talabalarga ilg‘or ilmiy-texnik yondashuvlarni o‘rganish, amaliyotlarda yangi yechimlar ishlab chiqish va murakkab muhandislik muammolarini hal qilish imkoniyatlarini yaratadi.

O‘zgarayotgan dunyo sharoitida texnologiyalarning, xususan, raqamli texnologiyalar va avtomatizatsiyaning tez sur’atlar bilan rivojlanishi, muhandislik ta’limida bu yangiliklarni joriy etishni taqozo etadi. Innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish orqali muhandislik maktablari nafaqat o‘quvchilarning bilimlarini oshirib, balki ularning kreativ va analitik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda ham katta rol o‘ynaydi. Muhandislik ta’limining zamonaviy talablariga javob berish uchun ta’lim jarayonida raqamli vositalar, masofaviy o‘qish, virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR/AR), 3D modellashtirish va boshqa ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash zarurati tobora ortib bormoqda.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI. Ilg‘or muhandislik maktablari innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning eng katta afzalligi shundaki, ular talabalarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy tajribani ham berish imkonini yaratadi. Virtual laboratoriyalar, 3D modelleme va simulyatsiya texnologiyalari yordamida talaba o‘z bilimlarini amalda sinab ko‘rish va o‘rgangan nazariyasini real dunyodagi masalalarga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, mashinani o‘rganish va katta ma’lumotlar (BIG DATA) kabi texnologiyalar muhandislik sohasidagi masalalarni hal qilishda katta yordam beradi. tizimlari, masalan, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, materiallar tanlash, konstruksiyalarni tahlil qilish va boshqalar bo‘yicha qarorlar qabul qilishni osonlashtiradi. Katta ma’lumotlar esa, loyihalash va ishlab chiqarish jarayonlarida turli xil o‘lchov va ko‘rsatkichlarni tahlil qilish orqali yanada samarali yechimlar yaratish imkoniyatini beradi.

Innovatsion texnologiyalar deganda, yangi va takomillashgan texnologiyalarni anglatadi, ular ishlab chiqarish jarayonlarini soddalashtirish, sifatni oshirish, vaqt va resurslarni tejash imkonini beradi. Muhandislik ta’limida innovatsiyalarni qo‘llash nafaqat o‘quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish, balki ularning amaliy ko‘nikmalarini oshirishga yordam beradi.

Ko‘plab ilmiy ishlar muhandislik maktablari innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning nazariy asoslariga oid tahlillarni o‘z ichiga oladi. Misol uchun, E.A.Kovalev o‘zlarining tadqiqotlarida muhandislik maktablari innovatsion texnologiyalarni joriy etishning asosiy maqsadi sifatida talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishni ko‘rsatishgan. Ular ta’kidlashicha, VR (virtual haqiqat) va AR (qo‘silgan haqiqat) texnologiyalarining qo‘llanilishi talabalar uchun real va o‘quv jarayonidan tashqari muhitda amaliy tajriba ortirish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, bu texnologiyalar o‘quvchilarga murakkab tizimlarni tahlil qilish, simulyatsiya qilish va ularning samaradorligini oshirishda yordam beradi [E.A.Kovalev].

Innovatsion texnologiyalardan yana biri – robototexnika va avtomatizatsiya bo‘lib, bu soha o‘zining amaliy ahamiyati bilan muhandislik ta’limida katta o‘rin egallaydi. Muller va Schuler o‘z ishlarida robototexnikani muhandislik maktablari amaliy ta’lim vositasi sifatida qo‘llashning ahamiyatini ta’kidlaydilar. Ularning fikriga ko‘ra, robototexnika nafaqat talabalarga texnik bilimlarni o‘rgatish, balki murakkab tizimlarni tahlil qilish, xatoliklarni aniqlash va yechimlar ishlab chiqish bo‘yicha tajriba olish imkoniyatini beradi. Robototexnika yordamida talabalar real ishlab chiqarish jarayonlariga tayyorlanadilar [Muller va Schuler].


Mahalliy olimlar, ayniqsa, Sh.S.Qodirov va T.A.Alimov o‘zlarining ishlarida innovatsion texnologiyalarni muhandislik ta’limiga tatbiq etishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganishgan. Ular, muhandislik maktablari zamonaviy texnologiyalar, masalan, virtual va qo‘silgan haqiqat (VR/AR) texnologiyalarining samarali qo‘llanilishi haqida keng fikr yuritadilar. Ular ta’kidlaydiki, VR va AR texnologiyalari orqali talabalar nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham o‘zlashtirishlari mumkin.

MUHOKAMA. Innovatsion texnologiyalarni ta’limda qo‘llashda nafaqat yangi imkoniyatlar, balki bir qancha muammolar ham mavjud. O‘quv jarayonida ilg‘or texnologiyalardan foydalanish ta’lim muassasalaridan yuqori darajadagi texnik infratuzilma, o‘qituvchilarni doimiy ravishda yangilab borish va malakasini oshirishni talab etadi. Innovatsion texnologiyalarni o‘rgatish uchun zarur bo‘lgan resurslar, xususan, texnik vositalar, dasturlar va ta’lim platformalari, ko‘pincha qimmatga tushishi mumkin. Bundan tashqari, yangi texnologiyalarni qo‘llashda o‘quvchilarning

texnik bilimlari va ko'nikmalari to'liq shakllanmagan bo'lishi, shuningdek, eski uslubdagi o'qituvchilarni yangi texnologiyalarga o'rgatish masalasi ham dolzarb bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga, ilg'or muhandislik maktablarida innovatsion texnologiyalarni o'qitishda yirik o'zgarishlarga olib keladigan imkoniyatlar mavjud. Misol uchun, 3D modellash va bosib chiqarish texnologiyalari yordamida talaba o'zining dastlabki loyihalarni yaratishi va prototiplarini ishlab chiqishi mumkin. Bu, o'z navbatida, talabalar uchun amaliy bilim va tajriba olishning samarali usulidir. Virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari esa talabalarni texnik tizimlarni va jarayonlarni interaktiv tarzda o'rganishga yordam beradi. Masalan, VR texnologiyalaridan foydalananib, talabalar murakkab sanoat jarayonlarini simulyatsiya qilib, o'quv muhitida xavf-xatarlarni kamaytirishlari mumkin. Bundan tashqari, AR texnologiyalari yordamida o'quvchilar o'zlarining loyihalarni yanada intuitiv tarzda tushunishlari va test sinovlaridan o'tishlari mumkin.


Innovatsion texnologiyalarni muhandislik ta'limida qo'llash nafaqat ta'lim jarayonining sifatini oshiradi, balki talabalarni amaliy mashg'ulotlar orqali real dunyodagi masalalarga yechimlar taklif qilishga tayyorlaydi va mashinani o'rganish kabi texnologiyalar muhandislikdagi an'anaviy yondashuvlarga qarshi yangi yo'nalishlar ochadi. Bu texnologiyalar yordamida o'quvchilar o'z bilimlarini murakkab muhandislik masalalarini hal qilishda qo'llay olishadi. O'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim tizimi ularni bozor talablariga mos, raqobatbardosh va innovatsion fikrlovchi mutaxassislar sifatida tayyorlaydi.



1-rasm. 3D modellashtirilgan sxema

Maqolada ilg'or muhandislik maktablarida innovatsion texnologiyalarni qo'llashning afzalliklari va imkoniyatlari, shuningdek, ularning amaliyotga integratsiya qilishdagi muammolar va yechimlar batafsil tahlil qilinadi. Ushbu texnologiyalarni qo'llash, albatta, talabalar uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi va kelajakda yuqori malakali, innovatsion fikrlovchi va amaliy tajriba egallagan muhandislarni tayyorlashga xizmat qildi.

NATIJALAR. Texnologiyalarni ta'limda qo'llashning muhim jihatlaridan biri bu innovatsion fikrlashni rivojlantirish, shuningdek, muhandislik sohasida yangi ilmiy-texnik yechimlar yaratishdir. Talabalar virtual laboratoriylar, 3D modellashtirish, VR/AR texnologiyalaridan foydalananib o'z ko'nikmalarini amaliyotda sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, va katta ma'lumotlar kabi texnologiyalar yordamida muhandislik tizimlari va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish imkoniyatlari yuzaga keladi. Bularning barchasi ta'lim jarayonini zamonaviylashtirish va kelajak muhandislarini tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.



2-rasm. Ayollar jaketi uchastkalarini 3D modellashtirish

Innovatsion texnologiyalar va ularning ta’limdagи rolini ko‘rib chiqamiz. Innovatsion texnologiyalar, asosan, yangi bilimlarni yaratish, eski texnologiyalarni yangilash va rivojlantirish uchun ishlataladigan ilg‘or yondashuvlar to‘plamidir. Ilg‘or muhandislik maktablarida ushbu texnologiyalarni qo‘llash o‘quv jarayonining barcha bosqichlarida samarali natijalar keltirishi mumkin. Bunga quyidagi texnologiyalar kiradi:


Onlayn va masofaviy ta’lim platformalari – o‘quvchilarni dunyo bo‘ylab turli onlayn resurslardan foydalanishga undash, masofaviy kurslar va interaktiv ta’lim tizimlari orqali o‘quv jarayonini yanada samarali tashkil etish mumkin.

Virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR/AR) – virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari muhandislik talabalari uchun maxsus amaliy mashg‘ulotlarni simulyatsiya qilish, murakkab texnik tizimlarni va jarayonlarni interaktiv tarzda o‘rgatish imkonini beradi. Bu texnologiyalar, ayniqsa, mehnat xavfsizligi, konstruktiv dizayn va makonni rejalashtirish kabi sohalarda samarali qo‘llaniladi.

3D modelleme va bosib chiqarish 3D printerlar va modellashtirish dasturlari yordamida o‘quvchilar amaliy tajriba orqali muhandislik loyihamonlarni ishlab chiqish va ularni prototiplash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu, o‘z navbatida, talabalarni real muhandislik muammolarini hal qilishga tayyorlaydi. Muhandislikda va mashinani o‘rganish texnologiyalari kengayib bormoqda. Ushbu texnologiyalar yordamida o‘quvchilar katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, texnik tizimlarni optimallashtirish va yangi ilmiy-texnik yechimlarni ishlab chiqishda ishtiroy etishlari mumkin.

BIG DATA (katta ma’lumotlar)da katta hajmdagi ma’lumotlar (Big Data)ni tahlil qilish texnologiyalari orqali o‘quvchilar muhandislik loyihamonlarni ko‘p o‘lchovli va murakkab ma’lumotlar asosida qura olishadi. Bu ularga turli xil tizimlarni boshqarish va takomillashtirishga yordam beradi.

Innovatsion texnologiyalarning ilg‘or muhandislik maktablaridagi afzalliklari ta’limning sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali talabalarga amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash va ilmiy tadqiqotlarda yangi yondashuvlarni qo‘llash imkoniyati yaratiladi (3-rasm).



3-rasm. Innovatsion texnologiyalarning ta'linda qo'llash natijalari

Innovatsion texnologiyalarning ta'linda qo'llanilishi natijasida quyidagilar kuzatiladi:

1. Ta'lim sifatining oshishi.

Innovatsion texnologiyalar talabalarga yanada interaktiv va amaliy ta'limni taqdim etadi. Masalan, VR va AR texnologiyalari yordamida talabalar o'z bilimlarini ko'proq vizual va amaliy tarzda rivojlantiradilar. Bu esa ularning o'r ganish samaradorligini oshiradi.

2. Mutaxassislik bo'yicha amaliy tajribaning ortishi.

Muhandislik maktablarida qo'llaniladigan texnologiyalar talabalarga real ishlab chiqarish sharoitlariga moslashtirilgan tajriba olish imkoniyatini beradi. Bu esa ularning keljakdagi ish faoliyatiga tayyorligini ta'minlaydi.

3. Iqtisodiy samaradorlik.

Innovatsion texnologiyalarni qo'llash o'quv jarayonini optimallashtirish va resurslarni tejashga imkon beradi. Masalan, 3D bosib chiqarish texnologiyasi talabalar uchun zarur bo'lgan qismlarni va materiallarni tezda ishlab chiqarishga yordam beradi, bu esa o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

MUZOKARA. Innovatsion texnologiyalar muhandislik maktablarida ta'lim sifatini oshirish, talabalarni amaliy tajribaga tayyorlash va sanoatning rivojlanishiga katta hissa qo'shishi mumkin. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalarni joriy etishda duch kelinayotgan moliyaviy va kadrlar tayyorlashdagi qiyinchiliklar ham hal qilinishi zarur. Shunday qilib, innovatsion texnologiyalarni muhandislik ta'limiga qo'llash, keljakda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va mamlakatning sanoat sohasini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Kreativ fikrlashni rivojlantirish – VR/AR texnologiyalari va 3D modelleme talabalarini yangi g'oyalar va yondashuvlarni sinab ko'rishga undaydi, bu esa ularning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ko'p sohalarda amaliy tajriba – innovatsion texnologiyalar talabalarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki murakkab texnik tizimlarni yaratish va boshqarish bo'yicha amaliy tajribalarini ham taqdim etadi. Bu, o'z navbatida, ishga joylashish va raqobatbardosh bo'lish imkoniyatlarini oshiradi.

Yangi ilmiy-texnik yechimlar – katta ma'lumotlar va mashinani o'r ganish kabi texnologiyalar yordamida talabalar yangi ilmiy-texnik yechimlar ishlab chiqish va ijtimoiy muammolarga innovatsion yechimlar taklif qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Innovatsion texnologiyalarni amaliyotda qo'llash: Ilg'or muhandislik maktablarida innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilishda bir qancha amaliy yondashuvlar mavjud:

Simulyatsiya va virtual laboratoriylar – talabalar virtual muhandislik laboratoriylarida ishlash orqali real hayotdagi sharoitlarga o'xshash vaziyatlarda o'z ko'nikmalarini sinab ko'rishlari mumkin. Bu, ayniqsa, xavfli yoki qimmatbaho tajribalar uchun samarali.

Projekt asosida o‘qitish – innovatsion texnologiyalar yordamida talabalar real loyiha vazifalarini bajarishlari, masalan, 3D modellash yoki prototiplash orqali o‘quv jarayonida faol ishtirok etishlari mumkin.

Masalani o‘rganish yordamida tahlil – talabalar masalani o‘rganish algoritmlarini ishlatisib, katta hajmdagi ma’lumotlardan texnik tizimlarni optimallashtirish va samarali ishlashni ta’minlash uchun foydalanishlari mumkin.

Kengaytirilgan haqiqat (AR) yordamida ta’lim – AR texnologiyalari yordamida o‘quvchilar murakkab texnik tizimlarni simulyatsiya qilgan holda, ularga amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishlari mumkin.

XULOSA. Bugungi kunda dunyo iqtisodiyoti va sanoatining rivojlanishi uchun ilm-fan va texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, muhandislik sohasida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlari yangi imkoniyatlarni ochmoqda. Muhandislik maktablarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, nafaqat talabalar uchun yangi o‘quv metodlarini yaratish, balki sanoatning samarali rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalarni qo‘llashda yuzaga keladigan ayrim muammolar ham mavjud. Innovatsion texnologiyalarni ta’limda qo‘llash, albatta, bir qator muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Bunga texnik infratuzilma yetishmasligi, o‘qituvchilarning yangi texnologiyalarga moslashuvchanligi va moliyaviy resurslar yetishmovchiligi kiradi. Biroq, bu muammolarni hal etish uchun har bir ta’lim muassasasi o‘zgaruvchan texnologiyalarga tez moslashishga, o‘qituvchilarni muntazam ravishda yangilanishlarni o‘rgatishga va innovatsion yechimlar ishlab chiqishga tayyor bo‘lishi zarur.

Ilg‘or muhandislik maktablarida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash nafaqat ta’limning sifatini oshiradi, balki talabalarni zamonaviy ilmiy-texnik yechimlar yaratish va real muammolarni hal qilishga tayyorlaydi. Virtual haqiqat, 3D modellashtirish, va boshqa texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish muhandislik ta’limida jahon miqyosida yangi imkoniyatlar yaratadi. Bularning barchasi, shubhasiz, kelajakda yuqori malakali, innovatsion fikrlovchi va raqobatbardosh muandislarni tayyorlashshga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Anvarovich, A. A., Djurayevna, T. G., & Gulomovna, M. M. The role and significance of using the visual-cognitive approach in higher education.
2. Тошева, Г. Д. (2016). Совершенствование процесса проектирования одежды на основе компьютерных технологий. Молодой ученый, (2), - С. 245-247.
3. Ражабова, Г. Д., & Тошева, Г. Д. (2014). Конструктивный и технологический стенд при изучении дисциплин профессиональной направленности. Инновации в строительстве глазами молодых специалистов - Р. 107-110.
4. Tosheva, G. D. (2019). Shaping Future Specialists Via Using Interactive Methods in Special Subject Practical Course. Eastern European Scientific Journal, (1).
5. Djuraevna, T. G. (2020). Didactic means of carrying out special disciplines based on interactive methods in future specialists. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(12).
6. Rustamovna, B. N., & Tosheva, G. D. (2023). Educational Game as a Part of Pedagogical Education.

ELEKTRON TA'LIMIY RESURSLAR ORQALI GEOGRAFIYANI O'QITISHNING AFZALLIKLARI

Jurayev Erali Xoliyar o'g'li,
Termiz shahridagi Prezident maktabi o'qituvchisi geografiya va tabiiy fan o'qituvchisi

Annotatsiya. Zamonaviy ta'lismida elektron ta'limi resurslardan foydalanish tobora keng tarqalmoqda. Chunki dunyo zamonaviylashgani sari ta'lismi talablari ham zamonaviylashib va murakkablashib boraveradi. Ayniqsa bu hozirgi globallashayotgan dunyoda yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda geografiyani o'qitishda zamonaviy elektron ta'lismi resurslaridan foydalanish natijasida bu kabi vositalar o'quv jarayonini yanada samarali, interaktiv, va zamonaviy qiladi. Elektron ta'lismi zamonaviy o'qitish uslublarini qo'llab-quvvatlash va ta'lismi jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi. Natijada o'qituvchi va o'quvchi o'zi ko'zlagan maqsadiga erishishda elektron ta'lismi resurslari muhim omillardan bo'lib xizmat qiladi va ta'larning samaradorligini yanada oshiradi. Ushbu maqolada yuqorida jihatlar asosida elektron ta'limi resurslarning tabiiy fanlarni o'qitish jarayonidagi ahamiyati, ularning samaradorligini oshirishdagi roli va o'qitish metodologiyasidagi o'zgarishlar tahlil qilingan. Shu bilan birga, mayjud muammolar va ularni hal etish yo'llari va geografiyani o'qitishda elektron ta'limi resurslarning afzalliklari, ularning o'quvchilar bilim darajasiga ta'siri hamda ilmiy bilimlarni chuqurroq tushunishga yordam berishi ko'rib chiqilgan. Bu ma'lumotlardan geografiya darslarini samarali tashkil etishda foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: elektron ta'lismi resurslari, geografiya, interaktiv, zamonaviy, internet.

ПРЕИМУЩЕСТВА ОБУЧЕНИЯ ГЕОГРАФИИ ЧЕРЕЗ ЭЛЕКТРОННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ РЕСУРСЫ

Джусраев Ерали,
преподаватель Президентской школы в Термезе, преподаватель географии и естествознания

Аннотация. В современной системе образования использование электронных образовательных ресурсов получает все большее распространение. Потому что по мере того, как мир становится более современным, образовательные требования становятся более современными и сложными. Это особенно важно в современном глобализированном мире. В этом смысле в результате использования современных электронных образовательных ресурсов при преподавании географии такие инструменты делают учебный процесс более эффективным, интерактивным и современным. Электронное обучение позволяет поддержать современные методы обучения и более эффективно организовать учебный процесс. В результате ресурсы электронного обучения служат важным фактором для преподавателя и ученика в достижении своих целей и повышении эффективности образования. На основании вышеизложенного в статье анализируется значение электронных образовательных ресурсов в процессе преподавания естественных наук, их роль в повышении их эффективности, а также изменения в методике преподавания. При этом были рассмотрены существующие проблемы и пути их решения, преимущества электронных образовательных ресурсов в преподавании географии, их влияние на уровень знаний учащихся и вклад в более глубокое понимание научных знаний. Эту информацию можно использовать для эффективной организации уроков географии.

Ключевые слова: электронные образовательные ресурсы, география, интерактив, современный, Интернет.

ADVANTAGES OF TEACHING GEOGRAPHY THROUGH ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES

Jurayev Erali Kholiyar oglu,
teacher of geography and science at the Presidential School in Termez

Annotation. The use of electronic educational resources in the modern education system is

becoming increasingly widespread. Because as the world modernizes, educational requirements are also becoming more modern and complex. This is especially important in the current globalizing world. In this sense, the use of modern electronic educational resources in teaching geography makes the learning process more effective, interactive, and modern. Electronic education allows you to support modern teaching methods and organize the learning process more effectively. As a result, electronic educational resources serve as important factors in achieving the goals of the teacher and the student and further increase the effectiveness of education. Based on the above aspects, this article analyzes the importance of electronic educational resources in the process of teaching natural sciences, their role in increasing their effectiveness, and changes in teaching methodology. At the same time, existing problems and ways to solve them, as well as the advantages of electronic educational resources in teaching geography, their impact on the level of students' knowledge and their contribution to a deeper understanding of scientific knowledge, were considered. This information can be used to effectively organize geography lessons.

Keywords: electronic educational resources, geography, interactive, modern, internet.

KIRISH. Dunyoda, jumladan, AQSh, Janubiy Koreya, Yaponiya, Fransiya, Rossiya kabi bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim tizimini axborotlashtirish ta'lim-tarbiya jarayoniga multimediyaviy elektron ta'lim resurslarini, shu jumladan, interaktiv elektron o'quv kurslarni joriy etish ustuvor yo'naliishlardan hisoblanadi. AQShda Stenford, Princeton, Kaliforniya, Kolumbiya universitetlarida, shuningdek, Tennessi, Nyu-York, Nebraska shtatlarining ayrim universtitetlarida internet orqali interaktiv ta'lim olish imkoniyatini beruvchi onlayn ochiq kurslar yaratilgan. Bu kabi elektron ta'lim tizimlari tajribali, malakali va zamonaviy mutaxassislar tayyorlashda muhim o'rinn tutadi [5]. Jahon ta'lim tizimida rivojlangan mamlakatlar tomonidan qabul qilingan "Ta'lim – 2030 Inchxon deklaratsiyasi"da ta'kidlanganidek: "Hozirgi davrda bilim kuch manbayi, ta'lim esa uni imkoniyatlarini oshiradi. Bu ikki jihat rivojlanish formulasining ajralmas qismidir", - deb e'tirof etilgan [4]. Shundan kelib chiqib, asosiy kuch manbayi bilimda ekan, biz ta'lim sifatini oshirishga hissa qo'shadigan har bir elementni va jihatni ko'rib chiqishimiz zarur.

Zamonaviy ta'lim tizimida elektron ta'limiy resurslar o'quv jarayonining asosiy elementlaridan biriga aylanmoqda. Elektron ta'lim texnologiyalaridan foydalanish shaxslarning ta'lim olish jarayonida muhim ehtiyojiga aylanib bormoqda. Tabiiy fanlar – fizika, kimyo, biologiya va geografiya kabi fanlar nazariy bilimlarni amaliyatga tatbiq qilishni talab etadi. Elektron ta'lim vositalari esa bu jarayonni yanada samarali va qiziqarli qiladi. Oxirgi yillarda elektron ta'limning an'anaviy ta'limga qaraganda afzallik jihatlari ko'proq aniqlamoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Elektron ta'limiy resurslar haqidagi tadqiqotlar ko'plab ilmiy ishlarda o'rganilgan. Masalan: Khan Academy, Coursera kabi platformalar o'quvchilarga ochiq manbalar orqali bepul ilmiy bilimlar taqdim etadi. Virtual laboratoriylar va simulyatsiyalar orqali esa murakkab tabiiy hodisalar vizual tarzda tushuntiriladi. Sun'iy intellekt texnologiyalari orqali ham shaxsiylashtirilgan ta'lim imkoniyatlari kengaytiriladi.

Elektron ta'lim tizimi ixtiyoriy masofadan turib hech bir to'siqlarsiz ta'lim berish va ta'lim olish imkoniyatini beradi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, an'anaviy ta'lim tizimiga nisbatan real vaqt tizimidagi masofaviy ta'lim tizimida o'qitish samaradorligi yuqoriroqdir (Means, Toyama, Merfi, Bakiya va Jons, 2013). Real vaqt tizimidagi masofaviy o'qitish tizimida video ma'ruzalardan foydalanish eng samarali o'qitish usulidir. Misol keltiradigan bo'lsak, Vang (2008) Tayvanda 10 yil tibbiyot sohasida o'qib, onlaynda o'qitilayotgan tibbiyot bo'yicha video ma'ruzalar yordamida aholi orasida tibbiy xizmatni yaxshilanganligini aytadi. Yana bir misol, Janubiy Koreyaning poytaxti Seul shahrida joylashgan Chung Ang universitetida har bir fan bo'yicha onlayn elektron sinfi (e-class) mavjud. Fanga qatnashishga ro'yxadan o'tgan talaba "e-class" ga ham kirish huquqiga ega bo'ladi. Ushbu "e-class" da nafaqat Microsoft Power Point dasturida qilingan prezantatsiyalar balki, video ma'ruzalar, uy vazifasi topshiriqlari ham mavjud. Mashg'ulotga ma'lum sabab bilan qatnasha olmagan yoki darsni yaxshi o'zlashtira olmagan talaba "e-class" ga kirib video ma'ruzalardan foydalanishi mumkin. Bu albatta ta'lim olish samaradorligini yanada oshirdi va ta'lim oluvchilarda fanlarga oid bilimlarni egallahda qulayliklar imkoniyatini berdi.

Jahon ta'lim tizimida innovatsion axborot-ta'lim muhitini yaratish, o'quv jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etish, elektron ta'lim resurslarini takomillashtirish, o'quvchilarning umumta'lim fanlarini chuqur va mukammal o'zlashtirishiga erishishda samarali tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, umumta'lim fanlarini o'qitishda elektron ta'lim resurslari, zamonaviy raqamli elektron qurilmalar, interaktiv dasturiy vositalardan samarali foydalanish asosida o'quvchilarning aniq va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini, kreativ ijodiy qobiliyatini, mantiqiy fikrlash, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, mustaqil ta'lim olishga yo'naltirish muhim ahamiyatga ega. Dunyoda ta'limning mobillashuv, axborotlashuv va integratsiyalashuv sharoitida hozirgi zamon maktab ta'limida elektron ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar, shu jumladan, Avstraliya, Buyuk Britaniya, AQSh, Finlyandiya, Rossiya, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlarning maktablarida masofadan o'qitish texnologiyalarini qo'llagan holda elektron ta'limdan foydalanish asosida o'quvchilarning ta'lim faoliyatini rivojlantirishga bo'lgan yondashuvlar amalga oshirilmoqda. Mazkur tadqiqotlar kelajakda umumta'lim fanlarining yangi fan yo'nalishlari hosil bo'lishida, mavjud ta'limiy jarayonlarni axborot-ta'lim muhti bilan integratsiyalashning pedagogik-psixologik muammolarini yechishdek muhim vazifaga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir [9].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hozirgi globallashuv davrida internet tarmog'i orqali real vaqt tizimida o'qitish tezlik bilan rivojlanib borayotgan ta'lim olish turlaridan biri hisoblanmoqda. Elektron ta'lim tizimi ixtiyoriy masofadan hech bir to'siqlarsiz ta'lim berish va ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. geografiyani o'qitishda ham elektron ta'limiy resurslardan foydalanish ko'plab afzalliklarga ega bo'lib, bu vositalar o'quv jarayonini yanada samarali, qiziqarli va zamonaviy qiladi. Quyida elektron ta'limiy resurslarning geografiyani o'qitishdagi afzalliklari batafsil bayon etilgan:

1. Elektron ta'limiy resurslar o'quvchilarni o'qish jarayoniga faol jalb etadi. Ya'ni o'quvchilar darsga faol tarzda kirishadilar va dars jarayoning qiziqarlilik jihatini yanada oshirib yuboradi.
2. O'quvchilar fizika, kimyo, biologiya va geografiya tajribalarini virtual muhitda amalga oshirishlari mumkin. Bu ularning nazariy bilimlarini amaliyatga tatbiq qilish imkonini beradi. Murakkab tabiiy hodisalar yoki ilmiy jarayonlarni vizual tarzda namoyish etish orqali mavzu chuqurroq tushuntiriladi.

3. Elektron ta'lim vositalari audio, video, grafik va matnli materiallarni birlashtiradi. Ilmiy tushunchalarni vizual tarzda tushuntirish o'quvchilarga mavzuni tezroq va osonroq o'zlashtirishga yordam beradi. Statistik ma'lumotlar yoki geografik jarayonlarni vizual tarzda ifodalash orqali murakkab mavzular soddashtiriladi. Elektron ta'lim resurslarining muhim afzalliklaridan biri – bu undan foydalanib tashkil etiladigan o'quv jarayonining ko'rgazmaliligining keskin oshishidir. Natijada o'quvchilar geografiyani tushunishi va bilim hamda ko'nikmalar hosil qilishi oson kechadi.

4. O'quvchining bilim darajasini aniqlash va uning bilimlarini mustahkamlash uchun moslashtirilgan savollar beradi. Sun'iy intellekt texnologiyalari orqali o'quvchilarga shaxsiy maslahatlar va tavsiyalar beriladi. Bu esa geografiyada katta ahamiyatga ega.

5. Elektron ta'lim vositalari orqali o'quvchilar so'nggi ilmiy tadqiqotlar va kashfiyotlarga erisha oladi. Shuningdek PubMed, ResearchGate kabi platformalar orqali o'quvchilar ilmiy maqolalarga kirish huquqiga ega bo'ladi va geografiya sohasida olib boriladigan global loyihalarga qatnashish imkoniyatini qo'lga kiritishlari ham mumkin.

6. Elektron ta'lim vositalari doimiy ravishda yangilanadi, bu esa o'quvchilarga eng so'nggi ilmiy ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Coursera, Khan Academy, Udemy kabi platformalar orqali o'quvchilar dunyoning istalgan burchagida joylashgan mutaxassislar tomonidan tayyorlangan kurslarga kirish huquqiga ega bo'ladi. MIT OpenCourseWare, edX kabi ochiq ta'lim platformalari orqali esa bepul ilmiy materiallar olish mumkin.

7. Elektron ta'lim vositalari mobil ilovalar orqali istalgan joyda va vaqtida o'qish imkonini beradi. Duolingo, Quizlet, Photomath kabi ilovalar orqali o'quvchilar o'zlarining bosib o'tgan materiallarini takrorlash va mustahkamlash imkoniga ega bo'ladi. Elektron kitoblar, audiokitoblar va videolar orqali o'quvchilar o'zlarining qulay vaqtlarida o'qishni davom ettirishlari mumkin. Bu esa ayniqsa geografiyada qo'l keladi.

8. Elektron ta’lim vositalari o‘quvchilarning o‘qish jarayonini kuzatib borish va natijalarini baholash imkonini beradi. Platformalar o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini avtomatik ravishda hisoblab, ularning zaif tomonlarini aniqlaydi. Onlayn testlar orqali o‘quvchilarning bilim darajasini tez va aniq baholash mumkin.

9. Qog‘ozga bog‘liq bo‘lmagan elektron ta’lim vositalari ekologik jihatdan ham afzaldir. Qog‘oz ishlatmaslik tabiatni muhofaza qilishga yordam beradi. Raqamli resurslar orqali o‘quv materiallarini saqlash va taqsimlash osonroq va barqaror. Elektron ta’lim vositalari o‘quvchilarga dunyo miqyosidagi ilmiy jamoalarga qo‘shilish imkonini beradi. GLOBE Program kabi loyihamor orqali o‘quvchilar xalqaro miqyosda geografiya bo‘yicha tadqiqotlar olib borishlari ham mumkin.

Elektron ta’lim zaxiralari vositasida ta’lim berish pedagogik adabiyotlarda kompyuterli o‘qitish texnologiyasi deb yuritiladi. Kompyuterli o‘qitish texnologiyasining asosiy xususiyatlari va afzallik jihatlari quyidagilardan iborat:

- ushbu texnologiyata’lim oluvchining mustaqil fikrlashi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltiriladi;

- o‘quvvchi ta’lim jarayonida maslahatchi sifatida qatnashadi;
- o‘qitish jarayonida axborot vositalari va zahiralarining faol integratsiyasi ta’minlanadi;
- o‘qishga qiziqish ortadi; - ta’lim olishning qulayligi va natijaviyligi oshadi;
- ta’lim oluvchining mustaqil ishlash va izlanish malakalari shakllanadi [1].

Yaxshi jihozlangan o‘quv matni umumiy holatga ijobiy ta’sir etadi. Rangga qiziqish oshadi. Diqqat va faoliyat uyg‘unlashadi, kuzatuvchanlik va sezgirlik oshadi, fikrlash jarayoni yengillashadi, o‘quv materiali o‘zlashtiriladi. Elektron darslik bosma o‘quv materialini barcha tomonlarini saqlash va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashga imkon beradi. Talaba signallar haqida faqat eshitibgina qolmay, balki vizual ko‘rinishda tasavvurga ega bo‘ladi. Inson asosiy axborotning deyarli 70%ini ko‘zi orqali oladi. Bu esa o‘quv jarayonida elektron darsliklarning qanchalik samara berishini ko‘rsatadi. Kelajakda nafaqat sog‘lom tinglovchilarga, balki imkoniyati cheklangan insonlarga ham ta’lim berishni samarali yo‘llarini topishdan iborat [1].

Demak, kompyuterli o‘qitish texnologiyasini ta’lim jarayoniga olib kirish davr talabi. O‘quvvchi bunday texnologiyani puxta bilishi, o‘rganiladigan materiallarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uni to‘g‘ri tanlay olishi lozim. Shundagina o‘quvchilarning fanga qiziqish darajasi yanada yuqori bo‘ladi [8].

XULOSA

Geografiya fanini o‘qitishda elektron ta’limiy resurslardan foydalanish zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ushbu resurslar o‘quv jarayonini yanada samarali, interaktiv va qiziqarli qiladi. Shuningdek, ular o‘quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatini beradi. Geografiya fanini rivojlantirish va uni o‘qitish sifatini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanish zarur.

Ta’lim jarayoniga elektron ta’lim resurslarini joriy etish o‘quvchilarga fan bo‘yicha axborotning to‘liq manzarasini namoyish etish bilan birga o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish, o‘qitishni individuallashtirish, nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish imkonini beradi, ya’ni o‘quv jarayoni samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bu esa geografiyanı o‘qitishda ayniqsa ahamiyatlidir. Bundan tashqari, zamonaviy elektron ta’lim resurslarning afzalligi o‘quvchiga taqdim etilayotgan o‘quv axborotlarini erkin qabul qilish, ularni individuallik xususiyatiga ko‘ra, o‘zlashtirishida pedagogining o‘qitish funksiyasi talabaning o‘ziga o‘tadi. Bunda pedagog o‘quvchini faqat qo‘llab-quvvatlaydi, o‘quv axborotlari oqimidan samarali foydalanish hamda yuzaga keladigan muammolarni yechishda kerakli ko‘rsatmalar orqali muammoni hal etishda yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. А.А. Хойткулов. Электрон дарсликнинг самарали томонлари ва афзалликлари. Тезис. Инновацион ва педагогик технологиялари – таълим сифатини оширишнинг асослари конференсияси.

2. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. -T.: Fan, 2007.

3. Coursera. (2023). “Online Courses for Natural Sciences”. Retrieved from (<https://www.coursera.org>).

4. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action for the implementation of Sustainable Development Goal 4: Ensure inclusive and equitable quality education and promote lifelong learning opportunities for all – UNESCO. -p.13. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000245656>.
5. http://ru.osvita.ua/abroad/higher_school/distance-learning/37601/. Популярные платформы онлайн-курса.
6. Khan Academy. (2023). “Interactive Science Lessons”. Retrieved from (<https://www.khanacademy.org>).
7. Muratov Khusan Holmuratovich. Implementation of independent educational activities of students. European journal of research and reflection in educational sciences. vol. 7 no. 12, 2019. issn 2056-5852. 25-25.
8. В. Амирова, Ш. Норқұлов, Д. Аралова. Электрон дарсلىктардан фойдаланиш. Maqola. ГулДУ.
9. X. Э. Тангиров Интерактив электрон ахборот-таълим мухитида умумтаълим фанларини ўқитиши методикасини тақомиллаштириш. Avtoreferat. Toshkent 2022.
10. X. X. Muratov. Elektron ta'lif resurslari va multimediali elektron o'qitish vositalari orqali ta'lif muhitining rivojlanishi. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723.

UMUMIY O’RTA TA’LIM MUASSASALARIDA INKLYUZIV TA’LIMNING KONSEPTUAL JIHATLARI

*Umaralieva Muxayyo Abdugaparovna,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti bo’lim mudiri, pedagogika
fanlari bo’yicha falsafa doktori(PhD), dotsent*

Annotatsiya. Maqolada jamiyatda alohida ta’limga muhtoj o’quvchilar uchun inklyuziv muhit yaratishning ahamiyati va bu jarayonning ta’lim tizimida qanday amalga oshirilishi haqida so’z yuritiladi. Inklyuziv ta’limning huquqiy, ilmiy-pedagogik va ijtimoiy asoslari o’rganilib, alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan o’quvchilarining jamiyatga integratsiyasi uchun psixologik va pedagogik qo’llab-quvvatlashlar ta’kidlanadi. Shuningdek, maqolada inklyuziv ta’limni amalga oshirishda pedagogik xodimlar uchun zarur bo’lgan tayyoragarlik va uning to’siqlari ko’rib chiqilgan.

Kalit so’zlar. Inklyuziv ta’lim, alohida ta’lim ehtiyojlari, pedagogik yondashuv, differentisial ta’lim, tabaqalashtirilgan ta’lim, psixologik qo’llab-quvvatlash, ta’lim jarayoni, ta’lim muhit

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

*Мухайо Абдугапаровна Умаралиева
Заведующий кафедрой Национального института педагогики и воспитания имени
Кори Ниёзий, доктор философии (PhD) по педагогике, доцент*

Аннотация. В статье рассматривается важность создания инклюзивной среды для учащихся с особыми образовательными потребностями в обществе и то, как этот процесс реализуется в системе образования. Исследуются правовые, научно-педагогические и социальные основы инклюзивного образования, выделяются психолого-педагогические основы интеграции обучающихся с особыми образовательными потребностями в общество. В статье также рассматривается подготовка педагогического персонала и ее препятствия на пути внедрения инклюзивного образования.

Ключевые слова. Инклюзивное образование, индивидуальные образовательные потребности, педагогический подход, дифференцированное образование, дифференцированное образование, психологическая поддержка, образовательный процесс, образовательная среда

CONCEPTUAL ASPECTS OF INCLUSIVE EDUCATION IN GENERAL SECONDARY EDUCATION INSTITUTIONS

*Muxayyo Abdugaparovna Umaralieva
Head of the Department at the National Institute of Education and Pedagogy named after
Qori Niyoziy, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor*

Abstract. The article talks about the importance of creating an inclusive environment for students who need special education in society and how this process is carried out in the educational system. The legal, scientific and pedagogical and social foundations of inclusive education are studied, emphasizing psychological and pedagogical support for the integration of students with special educational needs into society. The article also examines the necessary training and its obstacles for pedagogical personnel in the implementation of inclusive education.

Key words. Inclusive education, individual educational needs, pedagogical approach, differential education, differentiated education, psychological support, educational process, educational environment.

Jamiyatda alohida ta’limga muhtoj o’quvchilar uchun qulay inklyuziv muhitni yaratish ta’lim muassasasining asosiy vazifalaridan biridir. Inklyuziv muhit pedagogik hodisa sifatida o’quv jarayonini shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, unda barcha o’quvchilar jismoniy, aqliy va boshqa xususiyatlaridan qat’i nazar, sog’lom tengdoshlari bilan birqalikda ta’lim oladilar. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan o’quvchilarining ta’limning ijtimoiy-madaniy muhitiga kirishi muhim

shart bo'lib, bu ularning ijtimoiylashuvi va jamiyatda o'zini o'zi maksimal darajada amalga oshirishi uchun aniq psixologik va pedagogik yordam ko'rsatishni talab qiladi.

Biz inklyuziv ta'larning qonunchilik, me'yoriy va ilmiy asoslarini tadqiq qilishni inklyuziv muhitning konseptual jihatlarini o'rganishning asosiy vazifasi sifatida ko'ramiz.

So'nggi o'n yilliklarda ko'plab Yevropa davlatlarining inklyuziya bo'yicha ijtimoiy siyosati "inklyuzivlik" tushunchasidan alohida ehtiyojli odamlar hayotining faol sohasiga – "teng imkoniyatlardan jamiyatida to'liq hayot" konsepsiyasiga o'zgardi, u ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan: sog'lijni saqlash, ta'limga turmush, dam olish va boshqalar sohasidagi tengsizliklar.

Inklyuziv muhit nafaqat jamiyatning bir qismiga, balki ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar yoki guruhlarga ham taalluqlidir, chunki erkin demokratik jamiyat adolatli ta'limga tizimiga tayanishi kerak, aks holda u kelajakda uzoq muddatli va yaxlit bo'la olmaydi. Adolatli ta'limga tizimi inklyuzivlik tamoyiliga asoslanishi kerak.

Inklyuziv ta'larning huquqiy asoslari alohida ta'limga muhtoj kishilarni ijtimoiy jarayonlarga kengroq jalb etishga qaratilgan bir qator qonun hujjalari, buyruqlari va rivojlantiruvchi ta'limga dasturlari bilan tasdiqlangan.

Alovida ta'limga muhtoj shaxslarni tarbiyalash muammolar olimlar va mutaxassislarining e'tiborini tobora ko'proq jalb qilmoqda, chunki ta'limga insoniyat taraqqiyoti uchun mas'ul bo'lgan ijtimoiy hayot sohasidir. Hozirgi vaqtida alohida ta'limga muhtoj shaxslarning ta'limga olish huquqini amalga oshirish imkoniyatlari huquqiy, ilmiy-pedagogik, tashkiliy-uslubiy va ijtimoiy-psixologik muammolar majmuasining mavjudligi bilan bog'liq.

Inklyuziv muhit ta'limga jarayonining barcha ishtirokchilarini qamrab oladi va ular uchun afzalliklarga ega, xususan:

– alohida ta'limga muhtoj bolalar uchun turar-joy muassasalarida bo'lgani kabi, oiladan ajralib turmaslik imkoniyati; ijtimoiy o'zaro ta'sir, tadbirlarda ishtirok etish, mahalliy hamjamiyat resurslaridan foydalanish imkoniyati va h.k.)

– nogiron bolalar – uchun alohida ta'limga muhtoj bolalar bilan muloqot qilishda tajriba orttirish, ko'p qirralilikni tushunish, axloqiy fazilatlarni rivojlantirish va boshqalar.

– alohida ta'limga muhtoj bolalarning ota-onalari uchun – o'z farzandining ta'limga jarayonining individual traektoriyasini tanlash va tashkil etishda ishtirok etish imkoniyati; pedagogik xodimlar va boshqa ota-onalar bilan muloqot qilish imkoniyati va boshqalar.

– boshqa bolalarning ota-onalari uchun – inklyuziv ta'limga haqidagi tushunchalarini kengaytirish imkoniyati, boshqa ota-onalarni qo'llab-quvvatlash, bolalarni tarbiyalashga va ularni inklyuziv muhitga kiritishga hissa qo'shish imkoniyati;

– umumiy o'rta ta'limga muassasalarining inklyuziv muhitida alohida ta'limga muhtoj bolalar bilan ishlash, ularning pedagogik arsenalini diversifikatsiya qilish: yangi bilim, ko'nikma va malaka, tayyorgarlik hamda kasbiy mahoratga ega bo'lish;

– butun jamiyat uchun iqtisodiy (tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'limga tizimi ikkita parallel tizimni - umumiy va maxsus tizimlarni qo'llab-quvvatlashdan ko'ra iqtisodiy jihatdan foydaliroq) va qiymat (bag'rikenglik, rahm-shafqat va boshqalarni rivojlantirish) [70, p. 216-227].

Shu bilan birga, mamlakatimizda inklyuziv ta'limga rivojlantirishning ushbu bosqichida hayot cheklvlari bilan bog'liq alohida ta'limga muhtoj bolalar uchun uni amalga oshirish keng ta'minlangan. Bundan tashqari, inklyuziv ta'limga joriy etishning amaliy tajribasi yanada chuqurroq o'rganish va hal etishni talab qiladigan muammoli masalalar mavjudligini ko'rsatadi.

Shu sababli, inklyuziya – bu xilma-xillik masalalarini birgalikda yashashning yaxshiroq yo'llarini izlash, ko'rindigan farqlarni ijobiy nuqtai nazardan qabul qilish hamda bolalar va kattalarni o'rganishga undash uchun rag'bat sifatida ko'rishi kerak bo'lgan jarayon.

Inklyuziya to'siqlarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan. Bu ta'limga siyosati va amaliyotini takomillashtirish hamda alohida ta'limga muhtoj bolalar va kattalarni o'qishga rag'batlantirish maqsadida ko'plab turli manbalardan ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va baholashni o'z ichiga oladi.

Inklyuzivlik barcha o'quvchilarning ishtirok etishi va muvaffaqiyatga erishishi uchun shart-sharoit yaratadi. "Inklyuzivlik" atamasi bolalar uchun ma'lum bir o'quv joyining mavjudligi va ularga qanchalik muntazam va o'z vaqtida tashrif buyurishini bildiradi. "Ishtirok etish" atamasi ularning o'rganish tajribasi sifatini tavsiyaydi va shuning uchun ham o'quvchilarning fikrlarini

hisobga olishni talab qiladi.

Alovida ta’limga muhtoj shaxslarni tarbiyalash muammolar olimlar va mutaxassislarining e’tiborini tobora ko‘proq jalb qilmoqda, chunki ta’lim insoniyat taraqqiyoti uchun mas’ul bo‘lgan ijtimoiy hayot sohasidir. Hozirgi vaqtida alovida ta’limga muhtoj shaxslarning ta’lim olish huquqini amalga oshirish imkoniyatlari huquqiy, ilmiy-pedagogik, tashkiliy-uslubiy va ijtimoiy-psixologik muammolar majmuasining mavjudligi bilan bog’liq.

Umumiy o‘rtta ta’lim muassasasidagi inklyuziv muhit ta’lim paradigmasiagi o‘zgarishlarning yangi sharoitlarida – alovida ta’limga muhtoj o‘quvchilarining ta’lim jarayoniga sub’ekt-sub’ekt munosabatlarini joriy etishda individuallashtirish va differentsiallashtirish asosida qurilgan.

Inklyuziv ta’limda tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish, ehtimol, bolalarning jismoniy, ruhiy va aqliy rivojlanishining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, maxsus ta’limga ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun integratsiyalashgan ta’limning turli modellarini qo‘llash orqali amalga oshiriladi [54, 18]. Ularning tanlovi nuqsonlar, buzilishlar xususiyatiga, alovida ta’limga ehtiyojlari bo‘lgan bolaning psixologik va pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlanterishga qaratilgan integratsiyalashgan ta’lim jarayonini tartibga soluvchi tashkiliy-pedagogik sharoitlarni kompleks yaratishning psixologik va hissiy farovonligi darajasiga bog’liq.

Differentsial yondashuvni amalga oshirish alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchi o‘z imkoniyatlariga muvofiq bilimlarni olishi, uning o‘qishga tayyorgarlik darajasi, qobiliyati va moyilligini hisobga olgan holda tegishli sur’atda o‘rganishi mumkin bo‘lgan sharoitlarni yaratishga qaratilgan.

Differentsiatsiya (lotincha differentia – farq,) bolalarni ma’lum bir xususiyatiga ko‘ra bir sinfdagi guruhash sharoitida har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olishni nazarda tutadi: o‘zlashtirilgan fan bilimlari, qobiliyatlar, malaka darajasi; moyillik, o‘rganish qobiliyatlar, umumiy aqliy qobiliyatlarning rivojlanish darajasi (o‘rganish qobiliyati); mustaqil kognitiv faoliyatni amalga oshirishga tayyorlik - tegishli intellektual qobiliyatlarning, mnemonik madaniyat elementlarining mavjudligi (diqqat, xotira, bir mantiqiy operatsiyadan ikkinchisiga o‘tish tezligi).

Differentsial ta’lim alovida ta’limga muhtoj bo‘lgan o‘quvchilarining individual xususiyatlarini hisobga olish zaruratidan kelib chiqadi va samarali ta’lim tizimi nafaqat har bir bolaning shaxsiy va intellektual fazilatlarini hisobga olishi, balki ularni shunday psixologik va pedagogik ta’limga kiritishi kerak. Binobarin, alovida ta’limga muhtoj o‘quvchilarining individual xususiyatlar, ularning tabiiy moyilliklari va qobiliyatlarini ta’limni tashkil etishda psixologik tayanch bo‘lib, uning o‘quv-protsessual tarkibiy qismlarining mohiyatini belgilaydi.

Maxsus ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilarining individual tipologik va fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, o‘qituvchi o‘quvchining o‘rganish tezligini, o‘rganish darajasini, o‘rganish qobiliyatini, kognitiv faolligini va o‘zini o‘zi tashkil etishini aniqlashi kerak.

N. Zavizena ta’kidlaganidek, tabaqalashtirilgan ta’lim sharoitida o‘quv jarayonini boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari darsning har bir bosqichida har bir tipologik guruh yoki uning tarkibidagi har bir o‘quvchining ish natijalarini umumiy nazorat qilinishidan iborat. Bunda har bir tipologik guruh uchun ish bosqichlarini bajarish vaqtini o‘rganish tezligiga qarab taqsimlash orqali erishiladi.

Pedagogik xodimlar maxsus ta’limga muhtoj o‘quvchilarga tabaqalashtirilgan ta’limni quyidagi shartlarda muvaffaqiyatli amalga oshirishlari mumkin:

- alovida ta’limga muhtoj bolalar uchun o‘quv materialini o‘rganish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni oldindan ko‘ra oladi;

- imkoniyati cheklangan o‘quvchilarining navbatdagi faoliyatga umumiy tayyorgarligi, ya’ni egallagan bilim darajasi, mustaqil ishlash qobiliyati, mehnatga munosabati, xohish-istiklari hisobga olinadi;

- tabaqalashtirilgan individual va guruh mashg’ulotlaridan tizimli va maqsadli foydalanadi;
- istiqbolli tahlil o‘tkazadi.

Ta’limdagи inklyuziv jarayonlarning zamonaviy innovatsiyalari resurslarni va psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash sub’ektlari holatini batafsil tahlil qilishni talab qiladi. Pedagogik xodimlar alovida ehtiyojli shaxslarni ta’lim muhitiga integratsiyalashuvi uchun psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni yaratadigan inklyuziv jarayonlarni amalga oshirishda markaziy shaxs

hisoblanadi.

Inklyuziv ta'lism uchun vakolatli o'qituvchilarni tayyorlash inklyuzivlikni amalga oshirish shartlaridan biridir. Ayni paytda ushbu masalani hal etish ham tashkil, ham uslubiy yordamni talab qiladi. Inklyuzivlikni amalga oshirishning dastlabki bosqichlarida o'qituvchilar ta'limga inklyuziv shaklini moslashtirish va tashkil etishda to'siqlarga duch keldilar: noma'lum oldida noaniqlik, kasbiy tayyorgarlik, o'zgarishni istamaslik, maxsus ta'limga ehtiyojlari bo'lgan odamlar bilan ishlashda psixologik negativlik.

Ta'lism tizimidagi inklyuziv jarayonning sifatini baholash uchun inklyuziv jarayonning rivojlanish dinamikasini monitoring qilish bo'yicha dasturlar majmuasini ishlab chiqish kerak, bu ko'rsatkichlardan biri o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorligidir.

Inklyuziv muhit sharoitida kasbiy faoliyatga ijtimoiy tayyorlik:

- ijtimoiy modellar bilan aloqadorlik qobiliyati;
- mafkuraviy munosabatlarga ega bo'lish;
- ijtimoiy aloqalarni yaratish qobiliyati.

Psixologik tayyorgarlik quydagilarda namoyon bo'ladi:

– turli xil rivojlanish turlari bo'lgan alohida ta'limga muhtoj bolalarni hissiy jihatdan qabul qilish;

- inklyuziv muhit sharoitida ta'lism jarayoniga qo'shilishga tayyorlik;
- individual xususiyatlarni, maxsus ta'lism ehtiyojlarini bilish;
- kasbiy faoliyatdan qoniqish.

Kasbiy tayyorgarlikning tuzilishi:

- axborotga tayyorlik;
- kasbiy kompetentsiya (transversal, professional, maxsus);
- pedagogik texnologiyalarni egallash;
- psixologiya va korrektсиya pedagogikasini bilish;
- pedagogik xodimlarning ta'lism jarayonida o'zgaruvchanlikni modellashtirish va ulardan foydalanishga tayyorligi;

– alohida ta'limga muhtoj talabalarga tabaqlashtirilgan yondashuv bilan kasbiy o'zaro hamkorlikka tayyorlik.

Inklyuziv muhit alohida ta'limga muhtoj o'quvchilar bilan o'quv jarayonini tashkil etish shakllari, usullari va vositalarini ijodiy tanlashni talab qiladi. Shuning uchun o'qituvchilar tarkibi inklyuziv faoliyatni amalga oshirish imkonini beradigan uslubiy malakaga ega bo'lishi kerak.

Foydalangan adabiyotlar:

1.O.Musurmonova, M.Umaralieva. "Oila – nogiron bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvida mustahkam ko'priklar, DGU20230653- 1 bet.

2.M.Umaralieva "Umumiy o'rta ta'lism o'qituvchilarining inklyuziv kompetentligini rivojlantrish tamoyillari", "Ta'lism va innovatsion tadqiqotlar" ilmiy-metodik jurnali.–Buxoro.2023.№7.303-310b. 7 bet.

3.M.Umaralieva " O'zbekistonda ayollar ijtimoiy muammolarini hal etishda xotin-qizlar faolligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosat" "Xalq ta'limi" ilmiy-metodik jurnali №1.T.,2023. 6-10b. 4 bet.

4. M.Umaralieva " Social policy for increasing women's activity in solving women's social problems in Uzbekistan", Fars international jurnal of education, social science humanities\ Journal ISSN: 2945-4492 SJIF 2022 = 6.786 peer reviewed journal.(Finlyandiya) , 6 bet.

5.O.Musurmonova, M.Umaralieva " Oila va mahallada nogiron bolalarni to'laqonli ijtimoiy hayotga moslashtirishning mobil echimlari" , Uslubiy qo'llanma // "Mahalla va oila" nashriyoti, 2023. – 68 b. 70 bet.

6. M.Umaralieva "Boshlang'ich ta'lism o'qituvchisining dars jarayonida qo'llaydigan metodi–ta'lism sifatini asosiy omilidir" , Boshlang'ich ta'limga zamonaliv tendensiyalari: ta'lism va tarbiya integratsiyasi" mavzuidagi III Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiysi materiallari, Jizzax shahri, 2023 yil 4 may.– 253 bet. 3 bet.

7. M.Umaralieva " Analysis of inclusive education policy and new pedagogical approaches" , Science and innovation 1 scientific journal volume 2 ISSUE 5. 2023: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ.R. 25-27. 3 bet.

8. M.Umaralieva “ Development of pedagogical competences of teachers in inclusive educational environment and mechanisms of using effective methods” , European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices ISSN (E): 2938-3625. Volume 1, Issue 2, May, 2023.P.181-187. 7 bet.

9. M.Umaralieva “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilarini inklyuziv kompetentligini rivojlantirishning xorijiy tajribasi” , “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida madaniy muhitni yaratishning pedagogik texnologiyalari: muammo va echimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar to‘plami (2023-yil 15-may) – T.: Toshkent 2023.182-183. 3 bet

10. M.Umaralieva “Inklyuziv ta’lim tizimida alohida ehtiyojli bolalar bilan ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari” , “Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensiv o‘qitishning psixologik-pedagogik jihatlari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar to‘plami (2023 yil 2-iyun) – T.: Toshkent 2023.–128-131b. 3 bet.

11. M.Umaralieva “ Umumiy o‘rta ta’lim o‘qituvchilarining inklyuziv kompetentligini rivojlantirish tamoyillari” Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar – Xalqaro ilmiy-metodik jurnal (2023 yil 2-iyul) –2023.–303-309-b. 7 bet

12. M.Umaralieva “Inklyuziv ta’lim siyosati va yangicha yondashuvlar tahlili”, “Uzluksiz ta’lim” ilmiy-uslubiy jurnalı №3.,2023.38-42-b. 5 bet.

13.M.Umaralieva “ Specific characteristics of the organization of the professional activity of general secondary education institutions teachers in the conditions of inclusive education.” American journal of social sciences and humanity research (ISSN – 2771-2141) volume 03 ISSUE 12 PAGES: 208-214 SJIF IMPACT FACTOR (2023: 7. 164) OCLC – 11211056 P.208-214. 7 bet

BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KREATIVLIK POTENSIALINI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR

Ustamova Nodira Maxmaraimovna
Shahrisabz Davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. XXI asrga kelib O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lism sohasida pedagoglarning faoliyatini pedagogik, psixologik, tashkiliy-metodik jihatdan o'r ganish natijalarini oshirishda bo'lajak pedagoglarning kreativ sifatlari va uning kasbiy tayyorgarligi katta ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan raqamlı texnologiyalar tushunchasiga ham to'xtalib o'tdik.

Kalit so'zlar: interaktiv metod, kreativlik, ijodiy fikr, innovatsiya, pedagog, metod.

ФАКТОРЫ, ФОРМИРУЮЩИЕ ТВОРЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Устамова Нодира Махмараимовна
Преподаватель Шахрисабзского государственного педагогического института

Аннотация. К XXI веку в повышении результатов педагогического, психологического, организационно-методического изучения деятельности педагогов в сфере высшего образования Республики Узбекистан большое значение приобретают профессиональные личностные качества будущего педагога и его профессиональная подготовка. В этом контексте мы также коснулись концепции цифровых технологий.

Ключевые слова: интерактивный метод, креативность, творческое мышление, инновации, педагог, метод.

FACTORS THAT SHAPE THE CREATIVITY POTENTIAL OF FUTURE EDUCATORS

Ustamova Nodira Makhmaraimovna
Teacher at Shahrisabz State Pedagogical Institute

By the XXI st century, the professional personal qualities of the future educator and his professional training are of great importance in improving the results of pedagogical, psychological, organizational and methodological studies of the activities of educators in the field of higher education of the Republic of Uzbekistan. From this point of view, we also touched on the concept of digital technologies.

Keywords: interactive method, creativity, creative thought, innovation, educator, method.

Respublikamizda bugungi kunda vujudga kelgan shart-sharoitlar bo'lajak pedagoglarning malakasini oshirishning shakli, mazmuni va uni amalga oshirish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqishni va bu jarayonga tegishli o'zgartirishlarni kiritishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsesiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli qarori Bo'lajak pedagogning kreativ sifatlari bolalarni maktab ta'limga samarali tayyorlash imkonini beradi, bo'lajak pedagog kadrlarning zamon talablariga hamnafas holda faoliyat yuritishlari, har tomonlama shakllangan barkamol shaxsni tarbiyalashga doir chuqur bilim, ko'nikma, malaka va madaniyatga ega bo'lishlarini talab etmoqda. Bu esa pedagog-o'z yo'nalishining mohir ustasi, o'z fanini chuqur anglagan uning muammolarini baratarf etish yo'lida izlangan, nazariyani amaliyotga tadbiq etadigan, fan va san'atning mos sohalari bilan yaxshi tanish, amalda umumiyligini va yoshlar psixologiyasini yaxshi tushunuvchi, o'qitish va tarbiyalash metodikasini har tomonlama biluvchi hamda yuqori madaniyatga ega bo'lgan mutaxassis bo'lishini talab qiladi.

Pedagoglarning faoliyatini pedagogik, psixologik, tashkiliy-metodik jihatdan o'r ganish natijalarini o'quvchilarining o'quv faoliyati samaradorligini oshirishda pedagogning muhim shaxsiy sifatlari va uning kasbiy tayyorgarligi katta ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, pedagogning

kasbiy mahoratga ega bo‘lishi, bilimdonligi va kreativligi, jamiyatni va davlatni rivojlantirishga ta’siri ilmiy pedagogik nuqtai nazardan chuqur o‘rganishni talab etmoqda. Ayniqsa bo‘lajak pedagoglarning kreativligini rivojlantirishga bo‘lgan ijtimoiy buyurtma vujudga kelmoqda, bu borada ilmiy pedagogik izlanishlar olib borish talab etiladi. Shuning uchun ta’lim muassasalaridagi kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish jarayonida talabalarda kasbiy faol kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish lozim bo‘ladi.

Bo‘lajak pedagogning kreativlik potensiali. Talabalarni kreativ fikrlashga o‘rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun avvalo o‘qituvchining o‘zi kreativ, ijodkor shaxs bo‘lishi zarur. Bordi-yu, uning o‘zi kreativlik sifatlariga ega bo‘lmasa, u holda qanday qilib, talabalarni kreativ fikrlashga rag‘batlantira oladi. Chiqariladigan yagona xulosa quyidagicha: o‘qituvchining o‘zi kreativ, ijodkor bo‘lsagina, bo‘lajak pedagoglar ham shunday bo‘la oladi. O‘qituvchining ijodkor va kreativ bo‘lishi yoki bo‘lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi va yangi g‘oyalarni ta‘lim jarayonida sinab ko‘rishi zarur. Mashg‘ulotlarda pedagog kreativlik yo‘l xaritasiga ko‘ra quyidagi to‘rtta yo‘nalish pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilari (Patti Drepneau) sanaladi:

- 1) ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini namoyon etish;
- 2) talabalarni o‘quv fanlarini qiziqish bilan o‘zlashtirishga rag‘batlantiruvchi strategiya (metod va vositalar)dan foydalana olish;
- 3) innovatsion yondashuv va pedagogik masala (muammo)larning yechimini topishga kreativ yondashish;
- 4) kutiladigan natija.

Kreativ potensial bilish jarayoniga yo‘naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog‘liq. Bo‘lajak pedagoglarning kreativ potensiali an‘anaviy tafakkur yuritishdan farqli bo‘ladi. Ularda tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi, yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyati, bir qolipa fikrlamaslik, o‘ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilish hamda zakovatli bo‘lishi kabi xusiyatlaridir. Pedagog hech qachon o‘z- o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati esa ma‘lum vaqt ichida chuqur o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi.

Eksperimentlar jarayonida bo‘lajak pedagoglarning raqamli ta‘lim muhitida ishlash bo‘yicha muhim kasbiy sifatlarini shakllanganlik darajasini aniqlash uchun joriy nazoratlar o‘tkazildi. Zarur bo‘lganda o‘quv-kasbiy faoliyat mazmunida ham o‘zgartirishlar kiritdik. Bo‘lajak pedagoglarning raqamli ta‘lim muhitida muhim kasbiy sifatlarini shakllanganlik darajasini aniqlash uchun baholash mezonlari ishlab chiqildi. Bu mezonlarni quyidagi motivatsion-ehtiyojli, gnostik, jarayonli va o‘z-o‘zini baholash guruhlarga ajratildi. Har bir mezon anketa so‘rov, test o‘tkazish, o‘z-o‘zini baholash kartasi, amaliy ishlarni bajartirish orqali tekshirildi. Shunday qilib biz bo‘lajak pedagoglarning raqamli ta‘lim muhitida ishlash bo‘yicha muhim kasbiy sifatlarini shakllantirishda uchta pedagogik shart-sharoitni aniqladik.

1.Bo‘lajak pedagoglarning raqamli ta‘lim muhitida ishlash bo‘yicha muhim kasbiy sifatlarini shakllantirishda o‘quv-kasbiy faoliyat maqsadi va mazmunini loyihalash.

2.Bo‘lajak pedagoglarning raqamli ta‘lim muhitida ishlash bo‘yicha muhim kasbiy sifatlarini shakllantirishda pedagog va talaba harakatlarini tartiblashtirish.

3.Bo‘lajak pedagoglarning raqamli ta‘lim muhitida ishlash bo‘yicha muhim kasbiy sifatlarini shakllantirish natijalarini baholash.

Pedagogik shart-sharoitlar ta‘lim tizimining o‘zaro bog‘langan va o‘zaro tartiblashtirilgan komponentlar majmuidir. Talaba-pedagog harakatlari ta‘lim jarayonining tashkil etuvchilarini sifatida qatnashadi. Ushbu pedagogik shart-sharoitlar ta‘lim jarayoni mazmunining natijaviyligini ta‘minlaydi va bo‘lajak pedagoglarning raqamli ta‘lim muhitida ishlash bo‘yicha muhim kasbiy sifatlarini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda pedagoglik kasbini tanlashda nafaqat bu kasbni sevish, bolalar bilan muloqotga kirishish istagi, balki, kasbiy faoliyatning shaxsga nisbatan qo‘yadigan jismoniy, psixologik va ijtimoiy talablar uning imkoniyatlari doirasida bo‘ladi. Bo‘lajak pedagoglar ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagи ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e’tibor qaratishi

zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:(REFERENCES)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsesiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli qarori.

Jumanova F., Avazova S., Jobborova G., Xusnetdinov U. Umumiy pedagogika asoslari. O'quv-uslubiy qo'llanma. –Toshkent, "Ishonchli hamkor", 2020. -580 b.

A.R.Soxibov ."Umumiy pedagogika".O'quv qo'llanma. Qarshi."Nasaf" 2023yil. 22,0b.t

A.R.Soxibov ."Pedagogik fikrlar taraqqiyoti". Darslik. Qarshi."Nasaf" 2023yil. 22,0b.t

Khaydarov, Shavkat, Gulnoza Ochilova, and Bahrom Khujaniyozov. «A creative approach to learning based on digital technologies.» Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences 3.13 (2024): 5-11.

N.M.Ustamova "Pedagogik faoliyat jarayonida bo'lajak pedagoglarni

raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish". Ta'lim va innovatsiom tadqiqotlar 2024-yil 4-son 328 b.

TA'LIMNI MODERNIZATSIYALASH JARAYONIDA TALABALARNI MILLATLARARO TOTUVLIK RUHIDA TARBIYALASH OMILLARI

Uspanova Rano Anuarovna

*O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali San'atshunoslik fakul'teti
«Xalq ijodiyoti» kafedrasi o'qituvchisi*

Ta'limdi modernizatsiyalash jarayonida talabalarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash omillari ilmiy nazariy jihatdan yoritib berilgan.. Shuningdek maqolada, milliy qo'shiqlar mazmunida o'z ifodasini topgan millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish, o'zaro do'stlik, o'zaro hamjihatlik, jipslik, insonparvarlik va bag'rikenglik madaniyatini mustahkamlash, muayyan milliy madaniy markazlar bilan o'zaro hamjihatlik, hamkorlikni mustahkamlashning o'ziga xos vazifalari yuzasidan to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: modernizatsiya, talaba, millatlararo totuvlik, Oliy ta'lim tizimi, yagona Vatan, hurfikrlilik, vijdon, din erkinligi, ta'limiy-tarbiya, o'z milliy-madaniy merosi, an'ana va qadriyatları, ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy, o'quv faoliyati.

В процессе модернизации образования с научно-теоретической точки зрения объясняются факторы воспитания студентов в духе межэтнического согласия. гармонизация отношений, укрепление культуры взаимной дружбы, взаимной солидарности, сплоченности, гуманности и толерантности, взаимной солидарности и сотрудничества с отдельными национально-культурными центрами обсуждены конкретные задачи укрепления

Ключевые слова: модернизация, студент, межнациональное согласие, система высшего образования, единая Родина, фанатизм, совесть, свобода вероисповедания, образование, собственное национально-культурное наследие, традиции и ценности. духовно-просветительская, просветительская деятельность.

In the process of modernization of education from a scientific and theoretical point of view, the factors of educating students in the spirit of interethnic harmony are explained. Harmonization of relations, strengthening the culture of mutual friendship, mutual solidarity, cohesion, humanity and tolerance, mutual solidarity and cooperation with individual national and cultural centers, specific tasks of strengthening are discussed

Key words: modernization, student, interethnic harmony, higher education system, united Motherland, fanaticism, conscience, freedom of religion, education, own national and cultural heritage, traditions and values. spiritual and educational, educational, educational activities

Oliy ta'lim tizimida milliy qo'shiqlar asosida talabalarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash jarayonining asosiy komponentlaridan biri bu – Yangilanayotgan O'zbekistonning yagona iqtisodiy, axborot va madaniy-ta'lim makonini rivojlantirishda kamarbasta bo'la oladigan turli millat vakillaridan iborat yosh avlodga yagona Vatan tuyg'usini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot muammosi yuzasidan olib borgan izlanishlar talabalarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash jarayonini samarali tashkil etishda quyidagicha kamchiliklar mavjudligini ko'rsatdi:

- ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy, o'quv faoliyati mazmuniga ko'ra pedagog tomonidan ijtimoiy buyurtma, tadbir rejalarini mazmunini millatlararo totuvlik tushunchasini o'zida aks ettirgan ma'lumotlar bilan boyitish masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmagan;

- modernizatsiyalashtirilgan ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarning boshqa millat, elatlarning madaniy an'ana va qadriyatlarini o'rganishga tashabbus bilan chiqishi, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini tarkib toptirishga xizmat qiladigan bilim, ko'nikma va malakalarni muntazam yangilash va mazmunan boyitishga e'tibor berilmayapti;

- talaba yoshlarning "o'z" milliy qo'shiqlarini o'rganish amaliyoti tajribasini orttirishi va o'z-o'zini rivojlantirishi uchun shaxsga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni neonologik texnologiyalar bilan boyitish, keng ko'lamli va uzoq muddatli maqsadlarni amalga oshirish strategiyalarini qo'llanilmayapti.[8]

Shuningdek, talaba yoshlarni hurfikrlilik, vijdon va din erkinligi borasida yoshtar ongini zaharlovchi har qanday diniy ekstremizm, millatlararo shovinism g'oyalariga qarshi kurasha oladigan, o'z fikriga ega bo'lgan, turmushdagi millatchilikning har qanday shakl va ko'rinishiga nisbatan toqatsiz munosabatni shakllantirish, boshqa etnik guruhlarning milliy qadriyatlariga bepisandlik bilan munosabatda bo'lish holatlariga barham berish, musiqiy faoliyat istiqbolini to'g'ri tashkil etilishi natijasida erishiladigan samaradorlik sust daraja ekanligini ilmiy izlanishlarimiz jarayonida guvohi bo'ldik.

Vaholanki, Sh.M.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida ham: "Dunyoda terrorizm tahididlari ayniqsa, so'nggi yillarda kuchayib borayotgani ularga qarshi kurashish usuli o'zini oqlamayotganidan dalolat beradi. Bu borada ko'p hollarda tahididlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinmoqda. Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga jaholat va murosasizlik tashkil etadi, deb hisoblayman. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir", [2] deb ta'kidlab o'tgan edi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda talabalarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashda yangi global ijtimoiy o'zgarishlar va milliy munosabatlar identifikatsiyasi bilan hamohang holda tadqiq qilish maqsadga muvofiq.

Bizning nazarimizda ta'limni modernizatsiyalash jarayonida talabalarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash jarayonining eng muhim omillari quyidagilarda o'z aksini topadi.

birinchidan, ta'limiy-tarbiyaviy faoliyat jarayonida talabalarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash tushunchasining mazmun mohiyatini teran anglab etishlariga erishish;

ikkinchidan, talabalarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash qonuniyatlarini va tamoyillarinini o'rganish;

uchinchidan, milliy musiqa san'ati orqali talabalarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashning umumpedagogik o'qitish usullari tizimini va ulardan samarali foydalanish shartlarini ishlab chiqish;

to'rtinchidan, oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarning tashkiliy shakllarini takomillashtish.

Alovida e'tirof etish lozimki, bir tomonidan qaraganda o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab, xalqaro va mintaqaviy munosabatlarda davom etayotgan globallashuv va transformatsiya, dunyoda, axborot va kibermakonlarida qarama-qarshi kurash ortib borayotgan bir sharoitda, geosiyosiy maydonlarda kechayotgan ayrim "iqtisodiy, siyosiy, milliy, diniy va boshqa ziddiyatlar kuchayib" yoshtar tarbiyasiga ko'rsatayotgan salbiy ta'sirlari natijalari keng jamoatchilikni tashvishga sola boshladи va bu kabi salbiy holatlarga barham berish, ularning oldini olishga qaratilgan keng ko'lamli harakatni amalga oshirishga qaror qilindi.

Bu harakatning dastlabki bosqichida, millatlararo totuvlik, tolerantlik tafakkurini yoshtar dunyoqarashining uzviy bo'g'iniga aylantirish, shuningdek, ularni baynalminallik, millatlararo do'stlik munosabatlarini yanada rivojlantirish, diniy bag'rikenglik ruhida tarbiyalashga qaratilgan so'rovnomalar tashkil qilindi va milliy musiqa yordaimda talabalarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash omillari va amaliyotdagи ahvoli o'rganib chiqildi.

Unga ko'ra milliy musiqa san'ati orqali talabalarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash uchun belgilangan vazifa va maqsadlar modernizatsiyalashgan ta'lim-tarbiya talablariga muvofiq aniq va bir qadar murakkab bo'lishi, yoshlarni intellektual, ma'naviy, axloqiy, jismoniy, estetik va ruhiy jihatdan rivojlantirishga xizmat qilmog'i;

- turli milliy va irqiy mansublikka ega bo'lgan talabalarning individual xususiyatlarini bilish, dunyoqarash va qobiliyatlariga qarab jamoat ishlarida ishtirok etishlarini ta'minlash, faoliyat natijasiga ko'ra rag'batlantirish;

- "integratsion hamkorlik" asosida talaba yoshlarni o'quv, ilmiy, uslubiy adabiyotlar bilan ishslash madaniyatini shakllantirish;

- talaba-yoshlarni har tomonlama ijtimoiy va ijodiy faollikka undashda, ko'rik tanlov va musobaqalarda ishtirok etishini ta'minlash, ma'naviy-ma'rifiy, milliy-diniy qadriyatlardan o'rinli foydalanish.[5]

Talabalarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash umummilliy ahamiyat kasb etuvchi muammo bo'lib, uning echimi masalaga ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan yondashish hamda samarali yo'llarning belgilanishiga bog'liq. Shu sababli oliy ta'lif tizimida ham milliy qo'shiqlar asosida bilimlarni tizimli, uzlusiz berib borilishini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratish zarur.

Shu o'rinda musiqa madaniyati, milliy qo'shiqlar to'g'risida to'xtalib o'tishni lozim topdik. Bilamizki, musiqa insoniyat tarixi, maishiy turmush tarzi, insoniyat ruhiyati, orzu umidlari, dunyoqarashini o'zida aks ettiradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda yashab kelayotgan 130 dan ziyod millat va elat vakillarining o'z milliy-madaniy merosi, an'ana va qadriyatlar mavjud bo'lib, milliy musiqa san'ati yordamida millatlararo totuvlik g'oyasini madh etuvchi ijtimoiy-ahloqiy me'yorlar, qarashlarni tahlil qilishda har bir millatning milliy madaniy merosi o'ziga xos o'rinni tutadi.

Mazkur musiqiy asarlar va ularda ilgari surilgan g'oyalarning yosh avlod rivojidagi o'rni va ahamiyati, ularda tolerantlik, bag'ikenglik, millatlararo totuvlik tuyg'ularini tarbiyalashda ta'limgartarbiya jarayonidagi musiqiy asarlar imkoniyatidan foydalanish, talabalarda milliy qo'shiqlarga qiziqish uyg'otish, ularda milliy musiqani tinglash, ohanglar orqali ifoda etilayotgan fikrni tushunib etish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Alovida qayd etish lozimki, O'zbekistonda yashayotgan har bir fuqaro mamlakat qonunlarini hurmat qilishi, rioya etishi va bo'y sunishi fuqarolik majburiyati hisobdanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, biz oldimizga quygan maqsad Oliy ta'lif tizimida milliy qo'shiqlar asosida talabalarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat bo'lib, xalq musiqa merosida o'zaro uyg'unlashgan so'z va ohanglarning ta'sir kuchi, tarbiyaviy imkoniyati beqiyos. Musiqa san'ati orqali ifoda etilgan o'git, pand-nasihat yoki Vatanni madh etuvchi satrlar yoshlar tomonidan tez qabul qilinadi. Ushbu holat insoniyatning ruhiy psixologik holatiga bog'liq holda kechadi. Musiqiy ohangni anglash, musiqiy asarlar mazmunini tushunish talabalarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash, ijtimoiy borliqqa nisbatan mas'uliyatli yondoshuv ko'nikmalarini hosil qiladi.

Mazkur jarayonning samarali amalga oshirishda bir qator omillar:

- talabalar millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik tushunchalarining tub mohiyatini chuqranglay olishlari;

- milliy musiqiy an'analar doirasida ijro etiluvchi qo'shiqlardan namuna ko'rsatish asnosida, millatlar va millatlararo munosabatlardan aks etadigan falsafiy, xalqshunoslik, pedagogik, psixologik, vatanparvarlik g'oyalarni mujassamlashtirib, ta'lif jarayonini integratsiyalashga erishish muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi

Milliy qo'shiqlar asosida talabalarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etish quyidagi masalalarni hal qilishga imkon beradi:

- talabalarni turli millat va elatlarni an'ana va qadriyatlarini hurmat qilish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish borasidagi, shuningdek o'zbek milliy musiqa san'ati tarixi namunalaridan muayyan bilimlarga ega bo'lishlari uchun imkoniyat yaratishga;

- talabalarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashda milliy qo'shiqlarda ilgari surilgan g'oyalari mohiyatini tahlil eta olish layoqatini tarbiyalashga;

- milliy qo'shiqlar mazmunida o'z ifodasini topgan millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish, o'zaro do'stlik, o'zaro hamjihatlik, jipslik, insonparvarlik va bag'rikenglik madaniyatini mustahkamlash, muayyan milliy madaniy markazlar bilan o'zaro hamjihatlik, hamkorlikni mustahkamlashga;

- talabalarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodlari, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar qonun oldidagi tengligini ta'minlashga qaratilgan millatlararo munosabatlarni takomillashtirishga;

- millat va elatlarning madaniy, til va diniy qadriyatlarini, an'ana va urf-odatlarini o'zaro hurmat qilish madaniyatini tarbiyalashga;

- talaba yoshlarni ekstremizm va turmushdagi millatchilikning har qanday shakl va ko'rinishiga nisbatan toqatsiz munosabatni shakllantirishga;

- talabalarni kiberaxborot makonida uchraydigan ayrim tashqi buzg'unchi axborot-mafkuraviy

ta'sirga samarali qarshi kurashish malakasini tarkib toptirishga erishish.[7]

Qayd etilgan vazifalarni bajarish, uning uzviyligi va uzlusizligini ta'minlashda Oliy ta'lif tizimida tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar imkoniyatlaridan foydalanish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'lif tizimida talabalarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan tizim yordamida, yoshlar ongida shakllantirilishi muhim bo'lgan:

millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish — millatlar va elatlarning vakillari o'rtasida konstruktiv va o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni shakllantirish;

millatlararo munosabatlar sohasidagi davlat siyosati — jamiyatda millatlararo munosabatlarni takomillashtirish va tartibga solish sohasida davlatning tizimli faoliyatidan iborat bo'lib, fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini, ularning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar qonun oldida tengligini ta'minlashga qaratilgan;

millatlararo bag'rikenglik — fuqarolik jamiyatining ijtimoiy normasi bo'lib, boshqa millat va elatlar vakillarining umuminsoniy qadriyatlarga zid bo'lмаган nuqtai nazarlariga, dirlari, urfatlari, an'analari va madaniyatiga nisbatan murosai madorada namoyon bo'ladi;

millatlararo munosabatlar — mamlakat hududida istiqomat qiladigan millatlar va elatlar o'rtasidagi, jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olgan munosabatlardir.

millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish — millatlar va elatlarning vakillari o'rtasida konstruktiv va o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni shakllantirish; [5]

millatlararo munosabatlar sohasidagi davlat siyosati — jamiyatda millatlararo munosabatlarni takomillashtirish va tartibga solish sohasida davlatning tizimli faoliyatidan iborat bo'lib, fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini, ularning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar qonun oldida tengligini ta'minlashga qaratilgan;

millatlararo bag'rikenglik — fuqarolik jamiyatining ijtimoiy normasi bo'lib, boshqa millat va elatlar vakillarining umuminsoniy qadriyatlarga zid bo'lмаган nuqtai nazarlariga, dirlari, urfatlari, an'analari va madaniyatiga nisbatan murosai madorada namoyon bo'ladi;

millatlararo munosabatlar — mamlakat hududida istiqomat qiladigan millatlar va elatlar o'rtasidagi, jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olgan munosabatlar mazmun mohiyatini teran his qilishga o'rgatish dolzarb pedagogik zarurat bo'lib hisoblanadi.

Oliy ta'lif tizimida talabalarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash vazifasi pedagogik ilmlar tasnifida ijobiy echim topishi uchun OTMlaridagi o'quv biluv, tarbiyaviy faoliyat mazmunini yoshlarni dunyoviy ilmlar asosida dunyoviy va diniy bag'rikenglik, o'zga din va millat vakillariga ehtirom, o'zga madaniyatlarga, milliy boyliklarga hurmat bilan qarash, sabr-toqatli bo'lish, do'stlik munosabatlarini o'rnatish, oila va jamiyatda bardoshlilik sifatlarini ko'rsatish, birodarlik, hamdardlik, hurfikrlilik, sadoqat, boshqalarni kamsitmaslik, xatolari ustidan kulmaslik, xo'rlamaslik, o'z kuchiga ishonch, tinchlik va totuvlikni qadrlash, insonlarni barqarorlikka safarbar eta olish kabi ko'nikmalarni tarbiyalashga qaratilishi bilan xarakterlanadi.

Millatlararo totuvlik ijtimoilashuv jarayonida tashqi muhit bilan o'zaro faol aloqa muhitida, ta'lif-tarbiya hamda o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida, inson o'z maqsadlarini mustaqil aniqlab, ularga erishish yo'llarini belgilay organida, o'z xalqi madaniyati, qadr qimmatini anglab etganida, jamiyatdagi o'z o'rniga munosib baho bergenida amalga oshadi va optimal darajada rivojlanadi.

Konforimlik shkallamizda Surxondaryolik oliy ta’lim talabalarda 12 nafar respondentlarimiz Jizzax davlat universiteti talbalarida esa bu shkallamizda 10 nafar sinaluvchilarimiz natija ko‘rsatishdi.

Xavsizlik shkallamizda Surxondaryolik oliy ta’lim talabalarda 11 nafar respondentlarimiz Jizzax davlat universiteti talbalarida esa bu shkallamizda 12 nafar sinaluvchilarimiz natija ko‘rsatishdi.

Xavsizlik shkallamizda Surxondaryolik oliy ta’lim talabalarda 11 nafar respondentlarimiz Jizzax davlat universiteti talbalarida esa bu shkallamizda 12 nafar sinaluvchilarimiz natija ko‘rsatishdi.

Shvarts testi bo'yicha qadriyatlarni tahlil qilish natijalari



Xulosa va tavsiyalar Tadqiqotimizdan olingen ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki talabalarga keltirilgan shkalalarda madaniy qadriyatlar, an'nalar, rag'batlantirish mustaqillik ,yutuqlar ,saxiylik qanchalik yuqori bo'lsa ularning guruhdagi statusiga ta'sir qilishini ko'rishimiz mumkin. Talabalar guruhidagi shaxsning holatiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni tahlil qilish ma'lumotlari talabalarning turli bosqichlarida moslashuvi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish jarayonida universitetning psixologik xizmatlari faoliyatini uchun foydali bo'ladi. O'qitish, talabalar guruhining faoliyatini optimallashtirish, shaxsning guruhga kirishini optimallashtirish uchun, ta'lim funktsiyalarini yanada samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. M.G.Davletshin Yosh davrlari va pyedagogik psixologiya T.: 2004 y
2. Ergash G'oziyev Ontogenez psixologiyasi Noshir T.2010
3. Andreeva G.M. Ijtimoiy psixologiya. - M., 1996 yil.
- 4.Begmatov A., Quraev M. Ijtimoiy pedagogikaning dolzarb masalalari. T.:1998
5. Qurboniyazova Z.Q. Ijtimoiy tarbiya muammolari. Halq ta'limi, 2003, 6-son
6. Karimova V.M. Etnopsixologiya. O'quv qo'lanma. O'qituvchi. T.2012.
7. Z.T. Nishonova, P.S. Ergashov Oliy maktab psixologiyasi T.: 2012 y
8. 1.Mayers D. Sosialnaya psixologiya / Perev.s angl. -SPb., „Piter“ , 1999. 688- s.
- 9.Saydullayevna, H. S. (2023). Study of Psychological Characteristics of Personal Aggression. European journal of innovation in nonformal education, 3(12), 76-79.

OILADA BOLA SHAXSINI TARBIYALASHDA MILLIY QADRIYATLARNING TA'SIRI

Musinova Nozira Mirzadjonovna
Buxoro davlat universiteti dotsenti v.b., PhD

Annotatsiya: Jahonda jadal sur'atlar bilan ortib borayotgan axborot oqimi, virtual olamning kuchayib borishi millat va elatlarning madaniy uyg'unlashuvida namoyon bo'lishi, insonlar orasidagi begonalashuv holatlarini yuzaga keltirib chiqarayotgan omillar barcha mamlakatlarning ijtimoiy hayotiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda dunyo mamlakatlarda inson kapitali sifatida uning xulq-atvori, intellektual qobiliyatini oshirishda madaniyatlararo o'zgarishlar integratsiyasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada oilaviy tarbiya metodlarining yoshlar milliy tarbiyasi va xulq-atvoriga ijobiy yoki salbiy ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar psixodiagnostikasi orqali korreksiyalashga yo'naltirilgan tadqiqot ishlariga e'tibor qaratish zarurati kuzatilmoxda.

Tayanch tushunchalar: oila, bola shaxsi, millat, tarix, qadriyatlar, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy-psixologik ta'sir.

ВЛИЯНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ НА ВОСПИТАНИЕ ЛИЧНОСТИ РЕБЕНКА В СЕМЬЕ

Мусинова Нозира Мирзаджоновна
И.о.доцента Бухарского государственного университета, PhD

Аннотация: стремительно увеличивающийся поток информации в мире, усиление виртуального мира, проявляющееся в культурной гармонии наций и народностей, факторы, провоцирующие возникновение случаев отчуждения между людьми, оказывают свое влияние на общественную жизнь всех стран. Сегодня в странах мира интеграция межкультурных изменений приобретает особое значение в развитии человеческого капитала, его поведения, интеллектуальных способностей. В связи с этим наблюдается необходимость сосредоточения внимания на исследовательских работах, направленных на коррекцию методов семейного воспитания посредством психодиагностики социально-психологических факторов, положительно или отрицательно влияющих на национальное воспитание и поведение молодежи.

Базовые понятия: семья, личность ребенка, национальность, история, ценности, семейные отношения, социально-психологическое воздействие.

INFLUENCE OF NATIONAL VALUES IN THE UPBRINGING OF THE PERSONALITY OF A CHILD IN THE FAMILY

Musinova Nozira Mirzadjonovna
Associate professor of Bukhara State University, PhD

Annotation: the rapidly increasing flow of information in the world, the strengthening of the virtual world is manifested in the cultural harmonization of nations and elates, the factors that cause States of alienation among people have their impact on the social life of all countries. Today, the integration of intercultural changes in the development of its behavior, intellectual capacity as human capital is of particular importance in the countries of the world. In this regard, there is a need to focus on research work aimed at correction through the psychodiagnostics of socio-psychological factors that positively or negatively affect the National upbringing and behavior of young people of family upbringing methods.

Basic concepts: family, child personality, nationality, history, values, family relationships, socio-psychological impact.

O'zbek oilasidagi bola tarbiyasida mehnat va turmushdagi ijobiy milliy an'analar urf-odatlar va ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar katta rol o'ynaydi. Oila shaxsni ijtimoiylashtirishning eng muhim

omili va oilada bolaning qadriyat yo'nalishlarini shakllantirish muhim darg'asidir.

Darhaqiqat, yoshlarni har tomonlama, ham aqlan, ham jismonan barkamol, axloqan yetuk, ma'naviy pok qilib tarbiyalash shu kunning muhum va dolzarb muammolaridan biriga aylanib goldiki, bu davr va bugungi turmushimizni taqozosidir. Qadriyatlar jamiyat rivojining negizi, millatning tarixiy taraqqiyotida erishilgan muvaffaqiyatlarini avloddan avlodga o'tkazuvchi qudratli omildir.

Tarixiy taraqqiyot bosqichlariga nazar tashlar ekanmiz, har bir jamiyat, davlat o'zining milliy qadriyatlari rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib taraqqiy etmagan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida: "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat" – deb e'tirof etdilar [1].

Xo'sh qadriyatning o'zinima? Qadriyatlar deganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar tushuniladi. Qadriyatlarning mohiyati insonlarning tarixiy tajriba an'analarini kelgusi avlodlarga to'la-to'kis yetkazish, o'rgatish, ta'lim-tarbiya berish orqali izohlaymiz. Shuning uchun milliy ma'naviy qadriyatlarni e'zozlab, ardoqlab, chin dildan bajarish va ularni o'z holida saqlash, shu bilan birga, umuminsoniy qadriyatlarni oila muhitiga uyg'unlashtirish dolzarb masaladir. Qadriyatlar mazmunan xilma-xil turlarga bo'linib, hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan. Jumladan, inson va uning hayoti eng oliv qadriyat hisoblanadi. Inson yo'q joyda biror narsaning qadr-qimmati haqida so'zlashga hojat ham yo'q. Shuning uchun ham inson qadr-qimmatini e'zozlash, uning turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog'lig'ini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishini tashkil etadi. Farzandlarimiz ongida axloqiy qadriyatlarni shakllantirish uchun:

- Vatanga, ota-onaga, o'tgan avlodlariga hurmat, muhabbat tushunchalari va tasavvurlarinikengaytirish;
- burch, vijdon, insof, mas'uliyat haqidagi tasavvurlarni vujudga keltirish;
- do'stlik, o'rtoqlik, qo'ni-qo'shnichilik munosabatlari haqidagi tasavvurlarni kengaytirish hal qilinishi kerak bo'lgan dastlabki vazifadir.

Estetik qadriyatlар farzandlarimizning estetik sezgi va idrokini tarbiyalash, tashqi va ichki go'zalligini shakllantirishdir. Ularda estetik qadriyatlarni shakllantirish uchun:

- bola ongida ota-bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan amaliy, me'morchilik, musiqa va san'at asarlarini, shuningdek, turli xarakterdagi bayramlarni asrab-avaylash tuyg'usini shakllantirish;
- go'zallikka baho berish, haqiqiy go'zallikni soxta go'zallikdan ajrata olish;
- tabiatning nozik, nafis go'zalliklarini ko'rish, his etishni rivojlantirish talab etiladi.

Qadriyatlar amal qilish doirasiga ko'ra, milliy va umuminsoniy turlarga bo'linadi. Insonning qaysi millatga mansub ekanligi haqida tasavvuri faqat g'oyagina emas, balki tuyg'u hamdir. Insonda milliy ong va g'urur bo'lmasa, u o'zining qaysi millatga mansubligini his etmasa, uning milliy qadriyatlarni anglashini tasavvur qilish qiyin. Shu bilan birga, hammamiz yana bir haqiqatni anglab yetmoqdamiz, ya'ni faqatgina chinakam ma'rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarni, bir so'z bilan aytganda, o'zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashashi, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib obro'li o'rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin.

V.A.Sisenko oilaviy munosabatlarni mustahkam yoki sustligini asosi er va xotin bir-birlarini ko'nglini ola bilishidadir deb biladilar. Ularning bir-biriga bo'lgan mehrida, bir-birini hohlashida, tushunishida va oilada doimo yaxshi kayfiyat, kulgi bo'lishidadir.

Munosabatlarni samimiyligiga va turmushning buzilishiga B.F.Skinnerning fikriga quyidagi qo'rquvlar sabab bo'ladi:

1. Men hato qilib qo'yishim mumkin.
2. Kimgadir qiligid'im yoqmasligi mumkin.
3. Kimdir ustimdan kuladi.

4. Kimdir meni maqtanchoq deb o'ylaydi.
5. U meni yomon deb o'ylaydi.
6. Biror-bir aybim borligini bilib qolishadi.
7. U meni tashlab ketadi [2].

Ammo, kimki bu fikrlarni o'zidan chetlasa, erkin tutsa va o'z ustidan kulishidan qo'rmasa, munosabatlar osonlashadi. Inson turmush qurishdan oldin bu hayotda o'zining dunyoqarashiga ega bo'ladi. U o'zi uchun aziz va qimmatli narsalarni belgilab qo'yadi, shuning uchun o'z yonida tushunadigan, uning g'ururiga tegmaydigan dunyoqarashi ustidan kulmaydigan, ta'na qilmaydigan ko'pincha chin bir inson bo'lishini istaydi. U boshqa o'ziga yaqin insondan uni dunyoqarash, g'ururini, hayotdagi o'rnini, hurmat qilishini xohlaydi. Faqat shunday insongina turmush o'rtog'i bila olishi va shundagina mustahkam oila qurishi mumkin.

Oilani mustahkamlovchi ikki muhim omilni B.F.Skinner belgilab beradi:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy, moddiy ta'minlanganlik darajasi va vaqt ajratilishi.
2. Ijtimoiy-psixologik faktlar oilaviy hayotdan mammun bo'lish darajasi.

Shu ikki faktor oilani mustahkam qilishda B.F.Skinner asosiy shart deb biladi. Er-xotinning bir-biridan uzoqlashishi yoki bir-birini tarbiyalashga urinish oilaviy munosabatlarni buzilishiga olib keladi. A.Kronik bir qator sabablarni ko'rsatib o'tadi. Ulardan:

- boshqa odamlar hayotida aralashishi;
- o'z qadrini bilmaslik (o'zini yerga urish);
- bir-birining jinsiga, xarakteriga to'g'ri kelmaslik.

Lekin, eng yaxshi yo'l bu qiyinchiliklarni birga engish, er qoqilsa xotin tergovchi, xotin qoqilsa er tergovchi bo'lish oilani saqlashga olib keladi [3].

A.N.Tolstoy "Anna Karenina" romanida "Hamma baxtli oilalar bir-biriga o'xshaydi" va har bir baxtsiz oila o'zicha baxtsiz degan so'zlar bilan boshlaydi.

XXI asrda baxt uchun quvish yangi yo'naliш oldi. Odamlar baxt yonida yaiqnligini sezishmay qolishdi.

Erkaklar bir yo'naliшda, xotinlar boshqa yo'naliшda baxt izlashadi. Ular to'xtab bir-birlariga e'tibor qilishga bir yo'naliшda harakat qilishga vaqtleri yo'q.

A.G.Karayanilar munosabatdagi hissiyotlarni saqlashda quyidagilarni taklif qiladi.

1. Xotiralar oilaviy, birgalikda o'tkazilgan yaxshi munosabatlar o'tkazilgan yaxshi munosabatlar, yaxshi kunlarni asrash.

2. Birgalikda o'tkazilgan yillarga, kunlarga, daqiqalarga ijodiy yondashish, hozirgi kun bilan yashash.

3. Birgalikda kelajakka intilish, umumiy rejalar tuzish, shundagina birgalikdagi hayot qiziqarli, yorqin va mustahkam bo'ladi.

Oilaviy munosabatlarni mustahkamlashda qo'shimcha faktorlarga:

1. Er-xotining oilani saqlashga intilishi.
2. Oilani mafaati yo'lida kelishib ish qilish.
3. Oilaviy ishlarda tashabbus ko'rsatib, o'z hissasini ikkalasi ham baravar qo'llashi.
4. Mayjud bo'lган muammolarni oilani unutmagan holda u bilan birgalikda yechish.
5. Qiyin va og'ir kunlarda birga bo'lish bir-birini qo'llab quvvatlash.
6. Er-xotin tashqi ko'rinishida estetik jozibalikni saqlash. Oilada o'zini tuta bilish.
7. Oilada ishonch, quvonch, mehr-oqibat sharoitini yaratish kabi faktorlar kiradi [2].

Milliy tarbiyani tahlil qilish uchun "O'quvchining milliy roli" tushunchasi sotsiologik kalit vazifasini o'taydi. Chunki bu tushunchaning ko'pqirraligi milliy-zamonaviy hayot jabhalarini, milliy tarbiya yo'naliшlarini ilg'ab olish imkonini beradi. Milliy tarbiya tizimini «milliy rol» tushunchasi orqali o'rganish har bir o'zbek o'g'il-qizining ilk o'smiridan «yaxshi bola», «yaxshi aka, uka, singil, opa» yaxshi jiyan, tog'a, bo'la...»; «yaxshi mehmon, mezbon»; «yaxshi do'st», «odobli bola» kabi «unvonli» munosabatga tayyorlash mexanizmini ochib beradi. Keng ma'noda esa o'quvchining milliy rolini o'zlashtirishga o'z ichiga milliy fazilatlarni, milliy axloq me'yorlarini singdirish, milliy-ijtimoiy hayotga tayyorgarlik jarayonlarini ham anglatadi [4].

Ijtimoiy rollarni miliy tarbiya omil asosida tasniflash, ularning kundalik hayotda, munosabatlarda bajarilishini ilmiy-pedagogik kuzatish - eng zamonaviy va istiqbolli usuldir. U bolaning «qarshisida» turib emas, balki milliy-ilmiy kuzatish imkonini beradi. Bu esa tadqiqotning

ob’ektiv natijalariga ega bo‘lishining asosiy shartlaridan biridir.

Zamonaviy fanlar ijtimoiy rollarning quyidagi tasnifiga ega: tug‘ma, mavqeli ijtimoiy rollar - sotsiologiya va ijtimoiy psixologiya fanlari odam tug‘ilgandanoq yoki hayotning u yoki bu bosqichida kirishadigan «meros qilib olinuvchi» rolli (jinsiy, diniy, milliy, davlat fuqarosi, go‘daklik, o‘smirlilik, yigitlik, muysafidlik); o‘zgaruvchan, ijtimoiy rollar - doimiy bo‘lmagan, o‘zgarishi mumkin bo‘lgan rollardir. Masalan, u yoki bu kasbni egallash biror uyushmaga. jamiyatga a’zo bo‘lish va undan chiqish, o‘zgartirish, xatto fuqaroliknn o‘zgartirish mumkin.

Biroq tug‘ma milliy rollar (o‘zbeklik, fransuzlik va h.k.)dan chiqib bo‘lmaydi. Muayyan vaziyatdagi ijtimoiy rollar-yo‘lovchilik, xaridorlik, mehmonlik, mezbonlik va h.k. Bu guruh rollari o‘egaruvchan rollar bilan kamroq, tug‘ma rollar bilan ko‘proq aloqada bo‘ladi. Muayyan vaziyatdagi rollar maxsus va shaxsiy ahamiyatga egaligi tufayli kishini yo‘llovchi, xaridor, mehmon, mezbunga “aylantirsa”, shaxsiy fazilatlari mohiyatidan kelib chiqib shaxsni “do‘st”, “dushman”. «mehribon kishi», “taqvodor kishi”, “fidoyi odam” va boshqalarga aylantiradi. Demak. shaxs tashqi muhit (tabiat, jamiyat, shaxslar) bilan munosabatga kirishganida milliy xususiyat (o‘ziga xos bo‘lgan «ukraincha», «xakascha», «gruzinchcha» yondashuv) kasb etadi. Bu fikr ilk bor nemis sotsiologi U.Gerxard tomonidan tug‘ma ijtimoiy rol sifatida taklif qilingan, keyinchalik Y.A.Sorokin, B.Spok, Y.A.Tarasov, N.V.Ufimsevalar tomonidan ijtimoiy fanlar istifodasiga kiritishga harakat qilingan edi. Lekin nazariy jihatdan asoslanganligiga qaramasdan milliy rolining tug‘ma meros, vorislik xususiyatini o‘rganish, rivojlantirish sotsialistik internatsionalizm tamoyillariga mos kelmasligi tufayli rivojlantirilmadi [5].

Milliy tarbiyaning manbai - milliylikdir! Shunday ekan biz tadiqoqtimizda o‘quvchi uchun tadqiqotimiz bir butun yaxlit idrok etilish uchun bu so‘zlarning ham etimalogiyasiga to‘xtalishni maqsad qildi.

«Millat», «milliylik», «milliy g‘urur», «milliy odob», «millatlararo muloqat madaniyati» tushunchalarining o‘zagini arabcha «mil» so‘zi tashkil qiladi. Bu so‘z arabchada «o‘zak», «tub mohiyat», «negiz» ma’nolarini anglatadi. «Millat» so‘zi esa bir necha ma’noni;

- 1) din: mazhab;
- 2) ummat: bir mazhabga mansub aholi;
- 3) xalq ma’nolarini anglatadi.

«Millat», «milliylik» tushunchalarining talqini bilan tanishar ekanmiz, ularning g‘arbona va sharqona tarzlarini bor ekanligini ko‘ramiz. Aniqrog‘i, g‘arbiy talqin xristian, sharqiy talqin esa islomiy o‘zbeklarga borib tutashadi. Ya’ni Ovrupo xalqlari tillariga «millat» tushunchasi lotincha «natio» - qabila, xalq sifatida xristian dini bilan birga kirib kelgan bo‘lsa, Osiyoga esa Islom ta’limoti orqali yuqorida uch xil ma’noda kirib kelib singdi [6].

«Tarbiya» so‘zi «milliy tarbiya» tushunchasining tarkibiy qismi bo‘lganligi tufayli bu tushunchaga ham yangicha yondoshgan holda, xolis ilmiy-pedagogik ta’rif bermoq kerak. Arabcha «tarbiya», «tarbiyat» so‘zleri 1) parvarish qilmoq; ta’lim bermoq; o‘rgatish; odob o‘rgatish; 2) navozish, mehribonlik ko‘rsatish: ko‘z-qulq bo‘lish; himoya qilish kabi ko‘pqirrali mazmunga ega. «Tarbiyachi» so‘zi esa shu ko‘pqirrali tarbiyaviy faoliyatni amalga oshiruvchidir [7].

Demak, milliy tarbiyaga quyidagicha mualliflik ta’rifini berish mumkin. Milliy tarbiya - yosh avlodni xulq-atvorida o‘z xalqiga xos milliy fazilatlarni shakllantirish jarayonidir. Xulosa sifatida aytadigan bo‘lsak, yosh avlodni milliy tarbiyasi, uning darajasi o‘rganish har qachonidan ham muhim sanaladi.

Foydalilanigan adabiyot va manbalar:

1. Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 19-yanvar kuni “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish” masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishidagi nutqi. Xalq so‘zi. 20 yanvar.
2. Карайни А.Г. Информационно-психологическое противоборство в современной войне. М.: Мысль, 1996. – 326 с.
3. Nurmatova M., L.Muhammadjonova. “Ma’naviyatning axloqiy asoslari”. О‘quv qo’llanma. – Т.: Universitet, 2013. – B. 104.
4. Спок Б. Ребенок и уход за ним. – М., 1971. – С. 34–35.
6. Sunnatova.R.I. Murakkab vaziyatlarda bola va uning ota-onalari o‘rtasidagi munosabatlarni yo‘lga qo‘yishda amaliyotchi psixologninglaring vazifalari T 1993. 34 b.
7. Mirzo Xayrullo Xo‘qandiy. Axloqi zamima. – Т.: Yozuvchi, 1994. – B. 27.

TALABALARING JISMONIY TAYYORGARLIGI VA PSIXOLOGIK HOLATI O'RTASIDAGI KORRELYATSION BOG'LQLIK

Azamat Orunbayev

Buxoro davlat universiteti Spor nazariyasi ve metodikasi kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotning maqsadi jismoniy madaniyat yo'nalishida tahsil olayotgan 1-kurs va 2-kurs talabalarining jismoniy tayyorgarlik darajasi bilan psixologik holati o'rtasidagi bog'lilikni o'rghanishdan iborat. Tadqiqotda jami 64 nafar talaba ishtirok etgan bo'lib, ma'lumot yig'ish jarayonida "Xalqaro jismoniy tayyorgarlik so'rovnomasasi" va "Psixologik shkalasi" qisqa shakli qo'llanilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajasi yuqori bo'lib, psixologik holati ham yuqori baholangan. Jins va kurs o'zgaruvchilari bo'yicha umumiyligi jismoniy tayyorgarlik darajasida sezilarli farqlar kuzatilmagan. Shu bilan birga, jins o'zgaruvchisi bo'yicha talabalarning psixologik darajasida ahamiyatli farq kuzatilgan. Tadqiqot natijalari talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajasi bilan psixologik o'rtasida ijobiy yo'nalishda kuchli bog'lilik borligini ko'rsatdi. Bundan tashqari, jismoniy tayyorgarlik darajasi psixologik uchun muhim va ahamiyatli ta'sir ko'rsatuvchi omil ekanligi tasdiqlandi.

Kalit So'zlar: Universitet talabalarli, jismoniy tayyorgarlik, psixologik, jismoniy madaniyat, hayot sisfati, stress boshqaruvi, emotsional holat, sog'lom turmush tarzi, talabalar salomatligi, ruhiy salomatlik, ijtimoiy moslashuv, akademik muvaffaqiyat, motivatsiya, sport faoliyati.

КОРРЕЛЯЦИОННАЯ ВЗАЙМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКОЙ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИМ СОСТОЯНИЕМ СТУДЕНТОВ

Azamat Orunbayev

Соискатель кафедры теории и методики спорта Бухарского государственного университета

Аннотация. Цель данного исследования – изучить связь между уровнем физической подготовки и психологическим состоянием студентов 1-го и 2-го курсов, обучающихся на факультете физической культуры. В исследовании приняли участие 64 студента, для сбора данных использовались «Международный опросник физической подготовки» и краткая форма «Шкалы психологического благополучия». Результаты показали, что уровень физической подготовки студентов был высоким, а их психологическое состояние также получило высокую оценку. Значительных различий в общем уровне физической подготовки по половому и курсовому переменным не выявлено. Однако по половому признаку были обнаружены значительные различия в психологическом состоянии студентов. Результаты исследования продемонстрировали сильную положительную связь между уровнем физической подготовки и психологическим состоянием студентов. Кроме того, подтверждено, что физическая подготовка является важным фактором, влияющим на психологическое состояние.

Ключевые слова: университетские студенты, физическая подготовка, психологическое благополучие, физическая культура, качество жизни, управление стрессом, эмоциональное состояние, здоровый образ жизни, здоровье студентов, психическое здоровье, социальная адаптация, академическая успеваемость, мотивация, спортивная деятельность.

CORRELATION BETWEEN PHYSICAL FITNESS AND PSYCHOLOGICAL CONDITION OF STUDENTS

Azamat Orunbayev

Independent researcher of the department of sports theory and methodology, Bukhara state university

Abstract. The aim of this study is to examine the relationship between the physical fitness levels and psychological state of 1st and 2nd-year students studying in the field of physical culture. A total of 64 students participated in the study, and data were collected using the «International

Physical Fitness Questionnaire» and the short form of the «Psychological Well-Being Scale.» The results showed that students had a high level of physical fitness, and their psychological state was also rated as high. No significant differences were observed in general physical fitness levels based on gender and course variables. However, significant differences were found in the psychological state of students based on gender. The findings demonstrated a strong positive relationship between students' physical fitness levels and their psychological state. Furthermore, it was confirmed that physical fitness is an important and influential factor for psychological well-being.

Keywords: university students, physical fitness, psychological well-being, physical culture, quality of life, stress management, emotional state, healthy lifestyle, student health, mental health, social adaptation, academic success, motivation, sports activity.

Kirish. Bugungi kunda mavjud hayot sharoitlari talabalarning kamroq harakat qilishiga sabab bo‘lmoqda. Jismoniy tayyorgarlikning yetishmasligi, yuqori qon bosimi, yuqori qon shakar darajasi va semizlik kabi yuqumsiz kasalliklarning ko‘payishi bilan bog‘liq holda umumiy sog‘liq uchun katta xavf omiliga aylangan. Harakatsiz turmush tarzi dunyo miqyosida ko‘plab o‘lim holatlariga sabab bo‘layotgani ma’lum. Shu sababli, talabalarning sog‘lom qarishi va yoshi o‘tishi bilan yuzaga keladigan sog‘liq xavflarini kamaytirishda jismoniy tayyorgarlik asosiy omillardan biri hisoblanadi [4; 26-33 b.].

Jismoniy tayyorgarlikning asosiy maqsadi, harakatsiz turmush tarzining sabab bo‘lgan jismoniy buzilishlarning oldini olish, tana salomatligini saqlash va fiziologik imkoniyatlarni oshirishdir. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, jismoniy harakatsizlik jiddiy sog‘liq muammolariga olib keladi. Ushbu muammolarni oldini olish uchun talabalarning muntazam ravishda jismoniy tayyorgarlikka qatnashishi juda muhim. Muntazam bajariladigan jismoniy mashqlar nafaqat kasalliklarning kamayishiga yordam beradi, balki talabaning kognitiv faoliyatini yaxshilash va barqarorligini ta’minlash orqali psixologik farovonligini ham qo‘llab-quvvatlaydi [2; 11 b.].

Jismoniy tayyorgarlik, talaba hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan depressiya, stress va xavotir kabi turli psixologik omillarni kamaytirish bilan birga psixologik ni oshirib, talabaning hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi. Talabalarning sog‘lom va baxtli hayot kechirishlarida nafaqat ularning jismoniy faolligi, balki psixologik holati ham muhim omil hisoblanadi. Psixologik - talabaning hayot tashvishlari va ijtimoiy manfaatlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlash qobiliyatini anglatadi. Bu holat, talabaning maqsadga erishishga intilishlari, shaxsiy rivojlanish, boshqalar bilan mustahkam munosabatlar qurish va hayotdagi qiyinchiliklarni yengish orqali o‘zini anglashini ta’minlaydi [5; 1-43.].

Shuningdek, psixologik talabaning mustaqilligi, ijodkorligi, boshqalarni kechira bilishi va o‘z hayotini boshqarish qobiliyati kabi ijobiy xislatlarini o‘z ichiga oladi. U talabaning ichki imkoniyatlarini to‘la namoyon etish va hayot ma’nosini anglash intilishlari bilan ham bog‘liq. Talabalarning psixologik farovonligi ko‘p tadqiqotlar orqali sog‘liqni saqlash va hayot sifatini yaxshilashda katta ahamiyatga ega ekani isbotlangan. Yaxshi psixologik holatga ega bo‘lgan talabalar sog‘lom ovqatlanishadi va turli kasalliklardan uzoqroq turishadi. [4; 26-33 b.].

Hayot davomida talabalar ba’zan qayg‘u, muvaffaqiyatsizlik yoki tushkunlik kabi salbiy hissiyotlarni boshdan kechirishadi. Bu kabi salbiy holatlarning oldini olish uchun talabalar tinchlanish va xotirjamlikka erishishlari muhim. Shu sababli, jismoniy tayyorgarlik nafaqat talabaning ruhiy salomatligini, balki uning umumiy hayot sifatini ham yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jismoniy tayyorgarlikning muntazam bajarilishi esa, talabaning hozirgi va kelajakdagi hayotida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, universitet davrida bu odatni shakllantirish, kelajakda talabalarning jismonan va ruhan sog‘lom bo‘lishlariga katta hissa qo‘sadi.

Universitet talabalarining kelajakdagi roli va mas’uliyatini hisobga oladigan bo‘lsak, ularning jismoniy tayyorgarlik odatlari va psixologik holatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan, ushbu tadqiqotning maqsadi universitet talabalarining jismoniy tayyorgarlik darajalari va psixologik holatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot guruhi

Tadqiqot guruhi 2023-2024 o‘quv yilida jismoniy madaniyat yo‘nalishida tahsil olayotgan jami 64 nafar talaba, ya’ni 37 (57,8 %) nafari erkak va 27 (42,2%) nafari ayol talabandan iborat. Tadqiqotning guruhlarni tasodifiy tanlash usuli bilan shakllantirilgan bo‘lib, talabalarning tadqiqotda ishtirok etishi ko‘ngilli asosda amalga oshirilgan.

Ma’lumotlarni tahlil qilish

Tadqiqotda ma’lumotlarni tahlil qilish uchun SPSS dasturiy paketi qo‘llanilgan. O‘tkazilgan tahlillarda talabalarning jismoniy tayyorgarlik va psixologik darajalarini aniqlash uchun arifmetik o‘rtacha va standart og‘ish texnikalaridan foydalanilgan. Jismoniy tayyorgarlik va psixologik darajalarining jins o‘zgaruvchisi bo‘yicha farqlanishini aniqlash uchun T testi usuli qo‘llanilgan.

Talabalarning kurs o‘zgaruvchilari bo‘yicha jismoniy tayyorgarlik va psixologik darajalarida farqlar mavjud yoki yo‘qligini aniqlash uchun bir yo‘nalishli dispersiya tahlili (Anova) amalga oshirilgan. Talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajasi bilan psixologik darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun Pearson korrelyatsiya koeffitsienti tahlil texnikasi ishlatilgan. Talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajasining psixologik ka ta’sirini aniqlash uchun esa oddiy chiziqli regressiya tahlili qo‘llanilgan.

N: Tadqiqotda qatnashgan ishtirokchilar soni. Oddiy so‘z bilan: Qaysi guruhda yoki tadqiqotda qancha odam qatnashganini ko‘rsatadi. n=50 bu guruhda 50 kishi borligini bildiradi.

X (O‘rtacha): Guruhnинг umumiyligi o‘rtacha ko‘rsatkichi. Barcha Talabalarning ma’lumotlari yig‘ilib, o‘rtacha qiymat topiladi. 50 talabandan yig‘ilgan ma’lumotlarning o‘rtacha qiymati X=70 bo‘lsa, bu ko‘pchilik talabalar shu darajada ekanligini bildiradi.

SS (Standart Sapma): Ma’lumotlarning o‘rtacha qiymatdan qanchalik uzoq yoki yaqin joylashganligini ko‘rsatadi. SS kichik bo‘lsa, ma’lumotlar bir-biriga yaqin; katta bo‘lsa, tarqalgan. SS=5 bo‘lsa, bu o‘rtacha qiymatga yaqin ma’lumotlarni bildiradi.

SD: Statistik tahlilda hisoblashda ishlatiladigan erkinlik darajasi. Bu ma’lumotlar guruhining tahlilda qanchalik erkin ekanligini bildiradi. SD=49 bo‘lsa, bu guruh uchun 49 erkinlik darajasi borligini ko‘rsatadi.

P(Ahamiyatlilik darajasi): Statistik natijaning tasodifiy emas, haqiqiy ekanligini bildiradi. Agar P<0.05 bo‘lsa, bu natija ahamiyatlidir; agar P>0.05 bo‘lsa, natija ahamiyatsiz. P=0.01 bo‘lsa, bu natija juda ishonchli ekanligini bildiradi.

SPSS: Statistik tahlil qilish uchun ishlatiladigan dastur. Ma’lumotlarni tartiblash va tahlil qilishga yordam beradigan vosita. Tadqiqotda ma’lumotlar SPSS 24.0 dasturida tahlil qilingan.

T-testi: Ikki guruh o‘rtasidagi farqni aniqlash uchun ishlatiladi. Erkak va ayol talabalar motivatsiyasini solishtirish uchun ishlatiladi. Agar erkaklarning motivatsiyasi ayollardan yuqori bo‘lsa, T-testi buni tasdiqlaydi.

ANOVA (Dispersion tahlili): Uch yoki undan ortiq guruh o‘rtasidagi farqlarni aniqlash uchun ishlatiladi. 1-kurs, 2-kurs va 3-kurs talabalarning natijalarini solishtirishda ishlatiladi. Uch guruhning motivatsiya ko‘rsatkichlarini taqqoslashda ANOVA yordam beradi.

Pearson korrelyatsiya: Bu ikkita o‘zgaruvchi o‘rtasidagi bog‘liqlikni (munosabatni) o‘lchaydigan statistik metod. Qiymat oraliq ‘i:-1 dan +1 gacha bo‘ladi: +1: Ikkala o‘zgaruvchi orasida kuchli va to‘g‘ri bog‘liqlik bor. 0: Hech qanday bog‘liqlik yo‘q. -1: Ikkala o‘zgaruvchi orasida kuchli va teskari bog‘liqlik bor. O‘zgaruvchilar orasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun (masalan, jismoniy faoliyat va psixologik holat o‘rtasidagi bog‘liqlikni tekshirishda).

Natijalar. Tadqiqotning ushbu qismida olingan natijalar va ushbu natijalar bo‘yicha izohlar jadval tartibiga muvofiq taqdim etilgan. Universitet talabalarning jismoniy tayyorgarlik va psixologik darajalariga oid natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadvaldan biz Talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajalari va psixologik holati, (PDJF): Talabalarning o‘rtacha ko‘rsatkichi 2032.60, lekin bu qiymat juda tarqoq (± 2103.26). Bu, past darajadagi tayyorgarlikka ega talabalar ma’lumotlarida katta farqlar borligini ko‘rsatadi. (ODJF): O‘rtacha ko‘rsatkich 729.90 bo‘lib, ma’lumotlarning tarqalishi nisbatan kichikroq (± 985.85). (YDJF): Bu guruhda o‘rtacha ko‘rsatkich 1265.84, lekin tarqalish yana katta (± 1921.42). (UJF):

Jadval 1:
Universitet talabalarining jismoniy tayyorgarlik va psixologik darajasi natijalari

O'zgaruvchilar	N	X	SS
Past darajadagi jismoniy tayyorgarlik (PDJF)	12 (18.8%)	2032.60	2103.26
O'rta darajadagi jismoniy tayyorgarlik (ODJF)	27 (42.2%)	729.90	985.85
Yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlik (YDJF)	25 (39.0%)	1265.84	1921.42
Umumiy jismoniy tayyorgarlik (UJF)	64 (100%)	4028.35	3592.55
Psixologik	64 (100%)	41.34	10.14

Barcha ishtirokchilar bo'yicha jismoniy tayyorgarlikning umumiyligi o'rtachasi 4028.35. Tarqalish ham juda keng (± 3592.55), bu barcha ishtirokchilar orasidagi ko'rsatkichlarning farqini ko'rsatadi. Psixologik holat:Talabalarning umumiyligi psixologik farovonligi o'rtacha 41.34 bo'lib, ma'lumotlar o'rtacha yaqin tarqalgan (± 10.14). Bu, talabalar orasida psixologik holatning nisbatan barqaror ekanligini bildiradi.

Jadval 2:**Jinsi bo'yicha universitet talabalarining jismoniy tayyorgarlik va psixologik darajasi**

O'zgaruvchilar	jins	n	x	ss	t	sd	p
PDJF	Ayol	27	2036.73	2010.29	0.046	62	0.964
	Erkak	37	2027.26	2223.18			
ODJF	Ayol	27	786.68	1053.40	1.338	62	0.182
	Erkak	37	656.59	888.62			
YDJF	Ayol	27	1080.40	1669.48	-2.250	62	0.025*
	Erkak	37	1505.27	2186.23			
UJF	Ayol	27	3903.82	3421.84	-0.804	62	0.422
	Erkak	37	4189.13	3805.22			
Psixologik	Ayol	27	42.31	9.13	2.250	62	0.025*
	Erkak	37	40.07	11.22			

2-jadvalga ko'ra: PDJF: Ayol va erkak talabalar o'rtasida jismoniy tayyorgarlik darajasida farq yo'q ($p=0.964$). ODJF: Jinsga qarab o'rta darajadagi tayyorgarlikda sezilarli farq aniqlanmagan ($p=0.182$). YDJF: Erkaklarning yuqori darajadagi tayyorgarlik natijalari ayollarga qaraganda sezilarli darajada yuqori ($p=0.025$). UJF: Erkak va ayol talabalar umumiy tayyorgarlik darajasida bir-biridan farq qilmaydi ($p=0.422$). Psixologik holat: Ayol talabalar psixologik jihatdan erkaklarga qaraganda yuqoriroq natija ko'rsatgan va bu farq ahamiyatli deb topilgan ($p=0.025$). Erkaklar yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlikda ayollarga nisbatan yaxshiroq natija ko'rsatgan. Ayol talabalar psixologik holatda erkaklardan yuqori natijaga ega. Past, o'rta va umumiy darajada sezilarli jinsiy farq topilmagan.

Jadval 3:**Universitet talabalarining kurs bo'yicha jismoniy tayyorgarlik va psixologik darajalari**

O'zgaruvchilar	Kurs	n	x	ss	f	sd	p	tukey
PDJF	1	15	2292.71	2296.40	1.94	62	0.168	-
	2	49	1855.27	1986.36				
ODJF	1	15	892.20	1143.56	3.48	62	0.026	1-2
	2	49	762.66	1036.73				
YDJF	1	15	1158.56	1770.47	3.62	62	0.019	1-2
	2	49	1703.75	2183.99				
UJF	1	15	4343.47	3727.75	2.12	62	0.141	-
	2	49	4321.69	3927.70				
Psixologik	1	15	39.82	10.89	1.76	62	0.131	-
	2	49	41.57	10.07				

3-jadvalga ko'ra: PDJF: 1-kurs talabalari:O'rtacha darajasi 2292,71, tarqalish darajasi (SS) esa yuqori 2296,40. 2-kurs talabalari: O'rtacha ko'rsatkich pastroq (1855,27) va tarqalish darajasi ham pastroq (1986,36). 1-kurs va 2-kurs talabalarining past darajadagi tayyorgarlik ko'rsatkichlari orasida sezilarli farq yo'q ($p=0.168$).

ODJF:1-kurs talabalari:O'rtacha darajasi 892,20, bu ko'rsatkich 2-kurs talabalariga qaraganda yuqoriroq. 2-kurs talabalari:O'rtacha darajasi 762,66, bu esa biroz pastroq.O'rtacha darajadagi tayyorgarlik bo'yicha sezilarli farq bor ($p=0.026$), va bu farq 1-kurs va 2-kurs o'rtasida.

YDJF:1-kurs talabalari:O'rtacha ko'rsatkich 1158.56, bu esa 2-kurs talabalariga qaraganda ancha pastroq. 2-kurs talabalari:O'rtacha darajasi 1703,75, yuqori darajada.Yuqori darajadagi tayyorgarlik bo'yicha 1-kurs va 2-kurs talabalarining natijalari o'rtasida sezilarli farq bor ($p=0.019$).

UJF:1-kurs talabalari:O'rtacha umumiy tayyorgarlik 4343,47. 2-kurs talabalari:O'rtacha ko'rsatkich deyarli bir xil (4321,69).Umumiy tayyorgarlikda 1-kurs va 2-kurs talabalarining natijalari o'rtasida farq yo'q ($p=0.141$).

Psixologik holat:1-kurs talabalari:O'rtacha psixologik holati 39,82, tarqalish darajasi nisbatan past (10,89).2-kurs talabalari:O'rtacha ko'rsatkich 41,57, bu biroz yuqori. Psixologik holat bo'yicha sezilarli farq aniqlanmagan ($p=0.131$).

Farqli natijalar:O'rtacha daraja (ODJF) va yuqori daraja (YDJF) bo'yicha 1-kurs va 2-kurs talabalarida farq kuzatilgan.

O'xshash natijalar:Past daraja (PDJF), umumiy tayyorgarlik (UJF) va psixologik holat bo'yicha 1-kurs va 2-kurs talabalarida sezilarli farq yo'q. Yuqori va o'rta darajadagi tayyorgarlik bo'yicha 1-kurs va 2-kurs o'rtasidagi farqni yaxshiroq tushunish uchun qo'shimcha tahlillar foydali bo'lishi mumkin.

Jadval 4:**Talabalarining jismoniy tayyorgarlik va psixologik darajalari o'rta sidagi bog'liqlik**

O'zgaruvchilar	Psixologik
Umumiy jismoniy tayyorgarlik	$r = 0.097$
	$p = 0.047$

4-jadvalda universitet talabalarining umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasi va psixologik darajasi o'rta sidagi bog'liqlik tahlil qilingan. O'rta chalari o'rta sidagi bog'liqliknani aniqlash uchun Pearson korrelyatsiya koeffitsienti tahlili qo'llanilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, jismoniy tayyorgarlik bilan psixologik o'lchovi umumiy natijalari o'rta sidada ijobjiy yo'nalishda ahamiyatli bog'liqlik aniqlangan ($r=0.097$; $p<0.05$).

Xulosa. Jins bo'yicha, erkak talabalar yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlikda (YDJF) ayollarga nisbatan yuqori natijalarga ega. Ayol talabalar esa psixologik holat bo'yicha erkaklardan yuqori ko'rsatkich ko'rsatdi. Bu natijalar, jins bo'yicha ijtimoiy va psixologik omillar farqli bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Kurs bo'yicha: 2-kurs talabalari, jismoniy tayyorgarlikning o'rta va yuqori darajalarida (ODJF va YDJF) 1-kurs talabalarga qaraganda yuqori natijalarga ega. 1-kurs talabalari: Umumiy jismoniy tayyorgarlik va psixologik holat darajasi bo'yicha nisbatan past ko'rsatkichlarga ega. Bu farq, yuqori kurs talabalarning tajribasi va faoliyati ko'proq ekanligini ko'rsatadi.

Jismoniy va psixologik bog'liqlik, jismoniy tayyorgarlik va psixologik holat o'rta sidada ijobjiy bog'liqlik borligi aniqlangan. Bu esa jismoniy tayyorgarlikning nafaqat jismoniy sog'liq, balki psixologik sog'liq uchun ham muhim ekanini tasdiqlaydi.

Jins va kurs bo'yicha farqlar, jismoniy tayyorgarlikda Jins va kurs bo'yicha sezilarli farq aniqlanmagan. Psixologik holatda ayol va erkak talabalar o'rta sidada ahamiyatli farq bor. Ayollar psixologik jihatdan yuqoriroq darajaga ega. Jismoniy tayyorgarlik va psixologik bog'liqlik, jismoniy tayyorgarlik psixologik farovonlikka ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir statistik jihatdan ahamiyatli deb topilgan.

Sog'liqni himoya qilish, talabalarni jismoniy faoliyatga jalg qilish orqali harakatsizlik sababli yuzaga keladigan sog'liq va psixologik muammolar oldini olish mumkin. Universitet tadbirlari, Talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish uchun treninglar va tadbirlar rejalashtirilishi zarur. Psixologik qo'llab-quvvatlash, universitetlarda talabalarga yordam beradigan psixologik maslahat va qo'llab-quvvatlash markazlari tashkil etilishi foydali bo'ladi. Jismoniy tayyorgarlik talabalarning nafaqat sog'lig'ini yaxshilash, balki ularning ruhiy salomatligini ham mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli, bu borada doimiy dasturlarni rivojlantirish lozim.

Foydalangan adabiyotlar

1. Abdullaev, M.J., Berdiyev, O.I., & Omonova, N.R. (2021). Methodology Of Organization Of» Physical Education And Sports» Lessons In Higher Educational Institutions. The American journal of social science and education innovations (TAJSSEI) SJIF-5.857 DOI-10.37547/ TAJSSIEI, 3(02), 312-320.

2. Abdullaev M.J. Methodology of application games in the training of young athletes // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – T. 8. – №. 11.

3. Abdullaev M.J. Characteristics, forms and methods of extracurricular activities with athletes

of different ages //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2020. – T. 8. – №. 11.

4. Şahin, M., Kırındı, Ö., Atabaş, G., Bayraktar, B. (2017). Spor Bilimleri Fakültesi Öğrencilerinin Fiziksel Aktivite Düzeyleri. Spor Eğitim Dergisi, 1(1), 26-33.

5. Diener, E., Chan, M. (2011). Happy people live longer: Subjective well-being contributes to health and longevity. Applied Psychology: Health and Well-being, 3(1), 1-43.

O'ZBEK OILALARIDA GENDER STEREOTIPLARNING IJTIMOIY- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Saribayeva Umida Sattarovna

psixologiya fanlari nomzodi, dotsent TAFU Psixologiya kafedrasi dotsenti
ORCID: 0009-0005-7230-7313

Annotatsiya: Maqolada mavzuga doir ilmiy adabiyotlar tahlil qilingan va stereotiplar ijtimoiy birdamlik tuyg'usi hisoblanishi, aksariyat hollarda ularni o'zgartirib, tuzatib bo'lmashligi, shuningdek, ma'lumotlarning taqchilligi sharoitida paydo bo'ladigan tasavvurlar ijtimoiy stereotiplarni shakllantirishi, gender tengsizlikni namoyon bo'lishida ijtimoiy funksiya va gender rollar taqsimotidagi noholisliklar, gender stereotiplarning ta'siri muammozi o'zbek oilalari misolida empirik o'r ganilgan.

Jumladan gender tengsizlikni saqlanib qolinishida gender stereotiplarining ta'siri O.L.Kustovaning "Gender stereotiplarini shaxsiy semantik farqlash" metodi asosida aniqlangan va asoslangan, tadqiqot natijalari jadvallarda aks ettirilib, psixologik jihatdan tahlil qilingan va xulosa berilgan.

Kalit so'zlar: gender, stereotip, xayf, himoyalanish, mexanizm, qonuniyat, tengsizlik, kamsitish, ijtimoiy funksiya, gender rol, barham berish, ijtimoiy-madaniy rivojlanish.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ГЕНДЕРНЫХ СТЕРЕОТИПОВ В УЗБЕКСКИХ СЕМЬЯХ

Saribayeva Umida Sattarovna

кандидат психологических наук доцент кафедры психологии ТУФУ

Аннотация: В статье анализируется научная литература по теме и изучается том факт, что стереотипы рассматриваются как чувство социальной солидарности, в большинстве случаев они не поддаются изменению или коррекции, а также формирование социальных стереотипов в условиях недостатка информации, проблема социальной функции и распределения гендерных ролей при проявлении гендерного неравенства, проблема влияния гендерных стереотипов на примере узбекских семей.

В частности, определено влияние гендерных стереотипов на сохранение гендерного неравенства и на основе методики О.Л. Кустовой «Личностная семантическая дифференциация гендерных стереотипов», результаты исследования представлены в таблицах, психологически проанализированы и обобщены.

Ключевые слова: гендер, стереотип, защита, механизм, законность, неравенство, дискriminatsiya, социальная функция, гендерная роль, элиминация, социокультурное развитие

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF GENDER STEREOTYPES IN UZBEK FAMILIES

Saribayeva Umida

PhD in Psychology Associate Professor of the Department of Psychology, TUFU

Abstract: The article analyzes the scientific literature on the topic and studies the fact that stereotypes are considered as a feeling of social solidarity, in most cases they cannot be changed or corrected, as well as the formation of social stereotypes in conditions of lack of information, the problem of social function and distribution of gender roles in the manifestation of gender inequality, the problem of the influence of gender stereotypes on the example of Uzbek families. In particular, the influence of gender stereotypes on the preservation of gender inequality is determined on the basis of the methodology of O.L. Kustova «Personal semantic differentiation of gender stereotypes», the results of the study are presented in tables, psychologically analyzed and generalized.

Keywords: gender, stereotype, protection, mechanism, legality, inequality, discrimination,

social function, gender role, elimination, socio-cultural development

Kirish. Prezident Shavkat Mirziyoevning 2019-yil iyun oyida Oliy Majlis Senatidagi nutqida, “Meni kishilarimizning ongida paydo bo‘lgan stereotip ko‘p o‘ylantiradi. Odatda biz ayolni avvalambor ona, oila qo‘rg‘onining qo‘riqchisi sifatida hurmat qilamiz. Bu shubhasiz to‘g‘ri. Ammo bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo‘lishi kerak”ligi ta’kidlangan[1].

Tadqiqot ishimizning maqsad va vazifalarida gender tengsizlikni namoyon bo‘lishida gender stereotiplarning ta’siri muammosini nazariy tahlil qilish va o‘zbek oilalari misolida empirik o‘rganish belgilab olindi.

2) Adabiyotlar tahlili. Gender stereotiplari - mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy normalardan iborat, gender tasavvurlarimizda erkaklarda erkakka xos xususiyatlar, xatti-harakat me’yorlari va ayollarda ayollarga xos fazilatlar, xatti-harakatlarning gender farqlarini xarakterlovchi g‘oyalari to‘plami ekanligi haqidagi fikrlar Sh.Bern[3,-318 c.] ishlarida yoritilgan va Sh.Bern genderini ijtimoiy psixologiyasini o‘rganganligi muhim ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, ijtimoiy stereotip (yunoncha — stereos — qattiq va typos — ta’siri, tamg‘a, alomati) ma’nosida tushunilibgina qolmay ijtimoiy obyektning mustahkam va soddalashtirilgan qiyofasi sifatida guruuhlar, insonlar, voqealar, hodisalar haqida shaxsning tajribasi va jamiyatda qabul qilingan, aksariyat hollardagi noxolis tasavvurlarining umumlashtirilishi natijasi ekanligi qayd etilgan.

Jumladan, A.H.Eaglyning[6, 794 pp.] nazariyasiga ko‘ra, erkaklar va ayollarning gender stereotiplari, gender rollarini tanlanishi va amal qilinishini belgilaydigan, muayyan gender farqlilikdagi xatti-harakatlarini qo‘llab -quvvatlaydigan yoki bostiradigan turli xil ijtimoiy munosabatlar, ta’limiy vaziyatlar va jarayonlar mahsulidir, deyilgan.

D.Barry[2,f90e](1991) ta’kidlaganidek, ayollar asosan erkaklardan ehtirosli, hissiy-emotsional munosabat kutishadi, bu imkonsiz bo‘lib, erkaklar tajribalarida bunday his-tuyg‘ular mayjud emasligi qayd etilgan, aksariyat ayollarda bu haqda asosli bilim, tushunchani shakllanmaganligidan erkaklarning psixoemotsional holatini tushunishlari qiyin kechishini, ko‘rsatadi, bu gender tengsizlikning psixoemotsional omillari sanaladi.

C.Tavrisning [8] (1992) kuzatishlari natijasida “Erkaklar va ayollar o‘rtasidagi empatiyadagi farqlarning mavjudligini, ularning gender rollarini mas’uliyatidan kelib chiqqan xatti-harakatlardir”, deb ta’kidlashi bejiz emas. Bolalarga fidoiylik bilan g‘amxo‘rlik qilish faqat ayollarda shakllanmagan, balki, xotinlari tomonidan tashlab ketilgan yoki ayolini vafotidan keyin bolalarini yolg‘iz tarbiya qilayotgan erkaklarning g‘amxo‘rlik, fidoiylik, jonkuyarlik kabi empatik sezgirlik xususiyatlarini namoyon etilishi; erkaklarning ayollar kabi juda g‘amxo‘r bo‘lishlari, yolg‘iz qolgan erkaklar bajarayotgan ijtimoiy roller emas, balki vaziyat taqozosi bilan yuzaga chiqayotgan empatik xatti-harakatlar bo‘lib, ko‘p farzandli oila erkaklarida farzandlariga ayniqa qizlariga nisbatan epmatiya ijtimoiy rol sifatida shakllanganligini tavsiflaydi.

D.Mid[7] tomonidan ijtimoiy psixologiyaga rol tushunchasi kiritilgan. Rol tushunchasining ijtimoiy psixologik talqini quyidagicha yoritilgan: Rol - shaxsning ijtimoiy funksiyasidan kelib chiqadigan, mavqeyi yoki jamiyatdagi o‘zaro munosabatlar tizimlariga bog‘liq bo‘lgan va ijtimoiy-madaniy qabul qilingan talablarga mos xulq-atvori me’yorlaridir.

Shuningdek, K.Deluks[4,-S.145-167.] (1985) va boshqa izlanuvchilar ijtimoiy rol nazariyasi ham ijtimoiy stereotiplar asosida erkaklarni va ayollarni gender rollaridan kelib chiqib doimiy ravishda boshqa-boshqa faoliyat turi bilan mashg‘ul bo‘lishlari natijasida paydo bo‘lganligini tasdiqlagan va erkak rollarini o‘z zimmasiga olgan ayollarning xulq-atvorida erkaklarga xos sifatlarni shakllanganligini va aksincha ayollarga xos faoliyat turi bilan mashg‘ul bo‘lgan erkaklarda an‘anaviy erkak rolini bajarayotganlarga nisbatan ayollarga xos noziklik sifatlarini namoyon bo‘lishi aniqlangan.

Ammo R.K.Unger va M.Crawford[3,] (1993) tadqiqot natijalarida erkaklar va ayollar qobiliyatidagi yuqoridagi kabi farqlar juda kichik va vaziyatga xos bo‘lib chiqqanligini va qibiliyatlar jinsga bog‘liq emasligini ko‘rsatadi va ushbu nazariya va g‘oyalari ilmiy ishimizning metodologiyasini tashkil etadi. “O‘zbek oilalarida gender stereotiplarni namoyon bo‘lishining etnopsixologik xususiyatlarini empirik o‘rganish”da O.L.Kustovaning[5] “Gender stereotiplarini

shaxsiy semantik farqlash” usulidan foydalanib, er-xotinlarning shaxsiy ongini jinsga tegishliligin, erkaklik va ayollikni tavsiflovchi sifatlarini, o‘ziga xos gender xususiyat determinantlarini, mavjud jinsiy stereotiplarni tartibga soluvchi, ideal va ramziy munosabatlari va gender rollarni baholanishi aniqlandi va shaxsning xulq-atvorini gender tushuncha va tasavvurlari bilan qiyosiy taqqoslandi.

3) Muhokama. Adabiyotlarni o‘rganish natijasida ijtimoiy rollar hamda ijtimoiy stereotiplar asosida erkaklarni va ayollarni gender rollar taqsimotidagi noholisliklar gender tengsizlikka sabab bo‘lishi mumkin muammolardan ekanligi aniqlangan, biroq o‘zbek oilalari misolida o‘rganilayotgan ilk qadamlar sanaladi va gender tengsizlikni bir qator ijtimoiy-psixologik muammo va etnopsixologik xususitatlarini tadqiq etish zarurati mavjudligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot talabiga asosan, er-xotinlar birinchi bosqichda vaziyatning mazmuni bilan tanishib chiqqanlar va o‘z reaksiyalarini bildirganlar, ikkinchi bosqichda ularning javoblari kalitga mos ravishda klasterlash usulida baholanib, korrelyatsion taxlil qilindi.

4) Natijalar. Tadqiqotimiz natijalari er-xotinlarni gender stereotiplardan xabardorligi va gender rollarni egallaganligini, ayollar xam erkaklar kabi amaliy faoliyatga jiddiylik va ma’suliyatatlilik bilan yondoshishlarini, mutaxassislik rolini erkaklar kabi yuqori darajada egallaganliklarini anglatadi, xotinning o‘rtacha ko‘rsatkichi - 7,6; erkakniki - 8,5 ga teng; shaxsiy rollarni egallahsha muvaffaqiyatlilik xotinlarda – 7,3 va erkaklarda – 7,6 ga teng bo‘lib har ikkisida o‘ziga ishonch, o‘zidan mammunligini, rozilik xissi shakllangan, 1-jadvalga qarang.

Kommunikativ rollni egallaganlik xotinlarda -8,6 yuqori, erkaklarda -6,8 ga teng. Ayollar har qanday vaziyatda hamma qatori o‘z fikrini baham ko‘rishi kerakligiga amin bo‘lgan holatda, kommunikabeldirlar, erkaklar -6,8 o‘rtacha ko‘rsatkich, chunki ular real va pragmatik hisoblanishadi, bu esa gender tenglikni saqlanishida er-xotin kommunikatsiyasini meyorlashtirishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Kommunikativ rollni egallaganlik xotinlarda -8,6 yuqori, erkaklarda -6,8 ga teng. Ayollar har qanday vaziyatda hamma qatori o‘z fikrini baham ko‘rishi kerakligiga amin bo‘lgan holatda, kommunikabeldirlar, erkaklar -6,8 o‘rtacha ko‘rsatkich, chunki ular real va pragmatik hisoblanishadi, bu esa gender tenglikni saqlanishida er-xotin kommunikatsiyasini meyorlashtirishi mumkinligini ko‘rsatadi.

1-jadval

NaO er-xotin gender stereotiplari va gender rollarini baholari (M-o'rta arifmetik ko'rsatkich asosida N-163)

Gender rollar	mutaxassislik roli	shaxsiy rol	boshqaruvchilik roli	kommunikativ	intellektual-kognitiv	psixoemotsional, hissiy ta'sir	gender xulq-atvor	androgenlik roli	jinsiy rol	gender rol
Xotin M	7,6	7,9	7,1	8,6	7,9	8,3	7,3	8,9	5,2	5,6
Er M	8,5	6,6	8,0	6,8	8,6	7,5	7,8	7,8	6,8	7,3

Psixologik tadqiqotlar natijasida intellektual-kognitiv rollarni egallashda erkaklarda – 8,6 va xotinlarda 7,9 ni tashkil etib, erkaklar ayolning psixologik holatini yaxshiroq his etishlari aniqlandi. Ammo bu sifatlarni tashqi namoyon etilishi ayollarning psixoemotsional, hissiy rollarni egallaganliklariga bog'liqligi tasdiqlandi, xotinlarda – 8,3 ga, erkaklarda 7,5 ga teng.

Jinsiy rollarni xis etish, tasavvur etishda ayollar qiziquvchan, yangi va notanish narsalarni sinab ko'rishga intilishi baland bo'lsa ham, jinsiy xulq-atvorni namoyon etilishida o'zlarini cheklashadi, psixologik to'siq qo'yishadi, natijada xotinlarda - 5,2 va erkaklarda - 6,8 ga teng, erkaklar va ayollar juda o'xshash hissiy reaksiyalar va in'ikoslarga ega, faqat ularning namoyon bo'lishi turlicha, bu o'zbek etnomadaniyatida jins bilan bog'liq tushuncha va tasavvurlar borasida stereotiplarni chuqur shakllanganligini tasdiqlaydi.

Har ikki jins vakillari, erkak ham, ayol ham gender rollardan xabardorligining yuqori darajasi qarama-qarshi jins vakillari bilan o'zaro ta'sir, idrok va faoliyat jarayonida yuqori natijani aks ettirdi va turli xil mutaxassislik va shaxsiy rollarni muvaffaqiyatli egallashlari aniqlandi. Boshqaruvchilik qobiliyatini namoyon qilinishida ayollar empatiyaga, xissiyotga suyanishi, erkaklarni ko'proq amaliy natija samaradorligi o'ziga jalb qilishi kuzatildi. Har ikkisi xam qarama-qarshi jinsdagi odamlar guruhlarini jamoani boshqara olish qobiliyatiga egaligi aniqlandi.

Natijalardagi o'rtacha daraja gender qarashlarning yuqori xabardorligini ifodalasada, biroq, kundalik muloqot amaliyotida gender stereotiplarni namoyish etishini tasdiqlaydi.

NaO er-xotinlar natijalarida jinsiy va gender rollarni yaxshi farqlay olmasliklari ayollarda – 2,3 va erkaklarda – 3 ga tengligi aniqlandi. Shuningdek kommunikativ, kognitiv, psixoemotsional, xissiy, gender xulq-atvor, androgen rollarni quyi darajada shakllanganligini tasdiqlaydi. Bunda ko'rsatkichlar qarama-qarshi jins vakillari bilan o'zaro munosabatlar jarayonida quyi vakolatga egaligini va gender tenglikka erishishda amaliy samaradorlikni pastligini anglatadi, 2-jadvalga qarang.

3.2-jadval

NiO er-xotin gender stereotiplari va gender rollarini baholari (M-o'rta arifmetik ko'rsat kich asosida N-115)

Gender roller	mutaxassislik roli	Shaxsiy rol	boshqaruvchilik roli	kommunikati v	intellektual- kognitiv	psixoemotsio nal hissiv	gender xulq- atvor	androgenlik roli	jinsiy rol	gender rol
Xotin= M	2,6	4,9	4,2	3,7	3,8	4,8	4,3	5,9	2,3	2,1
Er=M	4,6	3,3	3,1	3,0	3,2	3,6	4,6	3,4	3,0	3,3

Tadqiqot natijalarida insonning aqliy, ruhiy-ma'naviy, psixologik sog'lomligi va sifatlari jinsga bog'liq emasligi tasdiqlandi. Bu ijtimoiy hayot tarziga, ijtimoiy, milliy-madaniy munosabatlarga, ijtimoiy normalar va hayot kechirish tarziga, o'zbek oilasida yetakchi va dominant shaxslarning xissiy-motivatsion, kognitiv, intellektual, kommunikativ va ijtimoiy-psixologik yetukligiga ham bog'liqligi o'z isbotini topdi. Ya'ni, Gender stereotiplarini shaxsiy semantik farqlash usuli asosida erkaklar va ayol sinaluvchilarlarning munosabatlari o'rganildi va olingan natijalar, 3-jadvalda yoritildi.

Olingan empirik tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ldiki, real hayotdagi ijtimoiy normalar va ijtimoiylashuv jarayoni ayollarda aynan ayollikka xos, erkaklarda erkakka xos xislatlarni shakllantirmaganligini, bu gender farqlilik u qadar bir-birini inkor etmasligi, ayol ham, erkak ham, har ikki turdag'i eng yaxshi gender xususiyatlarni vaziyat taqazosi bilan o'zlashtirganligini tasdiqladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra «Umumiyoj zibadorlik» ayollarda 49,1 foizni, erkaklarda 52,7 foiz, umumiyoj ko'rsatkich – 51,2 ni tashkil etgan, bu genderning jins xulq-atvorida jinsiy hamrohga xos sifat ko'rsat kichlarini yetarli namoyon etilmasligi bilan izohlanadi. Shaxsning kuch omili 72,2 foiz, erkaklarda 70,6 foiz o'rtacha qiymat – 71,4, erkaklarga nisbatan ayollarda oz bo'lsada yuqori natija olingan va ayollarni oilasi butligi, farzandlar kelajagi uchun ichki quvvat va psixologik barqarorlikni ko'proq his etishlarini ko'rsatadi.

3-jadval**Gender stereotiplarini shaxsiy semantik farqlash usuli asosida olingan natijalar % da**

№	Baholash omili o'lchovlari	Sinaluvchilar	% da	o'rtacha % ko'rsat kichi
1	Umumiy jozibadorlik	Ayol	49,1	51,2
		Erkak	52,7	
2	Shaxsning kuch omili	Ayol	72,2	71,4
		Erkak	70,6	
3	Hissiy omil	Ayol	76,4	74,9
		Erkak	73,5	
4	Ijtimoiy holat	Ayol	66,2	65,6
		Erkak	65,1	
5	Qaramlik omili	Ayol	68,1	62,3
		Erkak	56,5	
6	Empatiya omili	Ayol	66,3	64,4
		Erkak	62,6	
7	Zamonaviylik omili	Ayol	65,2	69,8
		Erkak	74,5	
8	Feminlik omili	Ayol	72	66,9
		Erkak	61,9	
9	Erkaklik omili	Ayol	73,8	71,1
		Erkak	68,5	
10	Androgen omili	Ayol	75,4	84,9

Hissiy omil ko'rsatkichi ham ayollarda 76,4 foiz, erkaklarda 73,5, o'rtacha qiymat – 74,9 foizni tashkil etgan bo'lib, har ikki jins vakillarida o'rtadan yuqori, ammo juda yuqori darajada tarkib topmaganligini ko'rsatadi.

Qaramlik va empatiya omili bo'yicha ham ayollarning ko'rsatkichlari 68,1 ga, erkaklar – 56,5 ko'rsatkichlaridan birmuncha yuqori bo'lib bu ayollarga xos gender sifat tariqasida shakllanganligidan dalolat beradi.

Natijalarni e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan jihat shundaki ayollarda feminlik omili ham, maskulinlik omili ham yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan. Bu ayollarning an'anaviy munosabatlarda erkaklarga xos hisoblaniladigan kuch, o'ziga ishonch, intiluvchanlikni yuqoriliginini isbotlaydi.

Bugun ayollar nafaqat uy-ishlari, bola tarbiyasi bilan mashg'ul, balki, "ham oilasini, ham o'z sevgan ishini" uddalashga harakat qilishmoqda. shunga qaramay, gender tengligiga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan ayrim omillar sifatida yuzaga chiqayotgan, rivojlanishning eng o'tkir muammolari mavjud bo'lib, bu tenglikka erishish, ayniqsa, jamiyatda ham, oilada ham erkak va ayolning gender tengiligiga erishish eng og'ir masalalardan biridir.

O'zbek oilasi er-xotinlar o'rtasidagi gender tenglik masalalari, ijtimoiy rollar va ijtimoiy onglilik, aqliy intellektual salohiyat, umuminsoniy qadriyatlar tizimi va shaxsning o'z -o'zini

baholash darajasi va bir qator psixofiziologik omillarga ham bog'liqligi kuzatildi.

Bu hol bugungi kun oilalarida biroz o'zgargan holda namoyon bo'lmoqda. o'zbek oilalarida gender stereotiplarni namoyon bo'lishining etnopsixologik xususiyatlarini o'rganish maqsadida o'tkazilgan tadqiqot ishlarimiz davomida oilada gender stereotiplar va gender rollarni namoyon bo'lishida er-xotinlarning kasbi, ma'lumot darajasi ham tahlil qilindi, 4-jadval.

4-jadval

O'zbek oilasi erkak va ayollarning kasbi, ma'lumot darajasiga ko'ra gender rollar va stereotiplarning empirik ko'rsatkichlari (N-233 erkak, N-267 ayol)

№	Tasdiqlar	Gender stereotiplar		Gender rollar	
		Oliy	O'rta va quyi	Oliy	O'rta va quyi
1.	Oilada shaxslararo munosabatlar sohasi	28%	72%	75%	25%
2.	Professional-kasbiy faoliyat	32%	68%	78%	22%
3.	shaxsiy xususiyatlar	20%	80%	66%	34%

Guruhrararo va shaxslararo hislar va o'zaro ta'sirlar sharoitida gender stereotiplarining roli ko'rib chiqilgan bo'lib, ularning ijobiy va salbiy tomonlarini, gender stereotiplar, boshqa ijtimoiy stereotiplar kabi atrofdagi dunyoni inson tomonidan baholashda muhim rol o'yaydi.

Empirik ko'rsatkichlarda oliy ma'lumotli oilalarda o'zaro muloqot, shaxslararo munosabatlar sohasi birmuncha yaxshi shakllanganligi, oliy ma'lumotli er-xotinlarning 75 %ni tashkil etganligi kuzatildi. Bunday oilardagi gender tenglik munosabatlari er-xotinning o'zaro hurmat, qadriyat tarzida namoyon bo'lib, o'z o'rnida oiladagi ijtimoiy-psixologik muhitini yaxshilanishiga imkon beruvchi omil sifatida ifodalandi.

Aksincha o'rta va quyi ma'lumotli oilalarning 22 foiz erkaklar tomonidan ayollarning o'z professional-kasbiy faoliyatida o'rni va jamiyatning faol a'zosi bo'lishga loyiqligini cheklangan holda e'tirof etganlar. Ularning nuqtai nazaricha, ayollar faqat quyi bo'g'imlarga xos bo'lgan kasblarda faoliyat olib borishlari va yuqori tashkilotlarda, oliy mansabda ishlahi shart emasligi haqidagi tasavvurlarni mavjudligi aniqlangan.

O'rta va quyi ma'lumotga ega bo'lgan oilalarda shakllangan stereotiplar konservativ ko'rinishga ega bo'lib, ularda noto'g'ri bilim va noholis tasavvurlarni shakllanganligini, shaxslararo o'zaro ta'sir o'tkazish jarayonini buzilgani bilan izohlanadi.

Kasbiy faoliyat va mehnatga bo'lgan munosabat bilan bog'liq stereotiplar hududlar kesimida o'rganilganida Toshkent, Xorazm viloyati oilalarida erkaklarning 72 %si ayollarni ijtimoiy faolligini, ish joyini bo'lishini, kasb-korli bo'lishini yoqlashadi. Ushbu hududlarda ayollarini ishlahi oilaga foydali ekanligini tan olishadi. Ijodkorlik, yaratuvchanlik, kasb-korlik qobiliyati ijtimoiy jihatdan qadrlanadi.

Farg'on, Andijon, Toshkent shaharlariada oilada moddiy qiyinchilik, iqtisodiy yetishmovchiliklar bo'lsada, oilaga pul topib keladigan kasb-korli, hunari bor ayolini uyda o'tirishi, uy-ro'zg'or ishlari bilan band bo'lishi, farzandlar tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lishi, xijob o'rab, 5 mahal namoz o'qishini istashlari aniqlandi. Biroq oilaviy xo'jalik pudratida ayollarini ishlashiga roziliklarini bildirishgan erkaklar bilan qo'shimcha savol-javob o'tkazilganda ayolni asrab avaylash, ehtiyojlash uchun emas, ayolni turli tashkilotlarda boshqa erkaklar jamoasida ishlashini istamasliklarini bildirishgan. Gender tengsizlikning psixologik sabablaridan biri nafaqat ayollarning o'ziga bo'lgan ishonchini pastligi, balki, erkaklarda ham o'zlariga bo'lgan ishonchni

pastligi sanalib, GTni shakllantirish va takomillashtirishning psixokorreksion tadbirlarini tashkil etish zaruratini asoslaydi.

Oilada moddiy qiyinchilik, iqtisodiy yetishmovchiliklar bo‘lsada, oilaga pul topib keladigan kasb-korli, hunari bor ayolini uyda o‘tirishini ma’qul ko‘rish, rashk sababli ijtimoiy erkinligini cheklash va shaxs sifatida hayotiy qiziqishlari, intilish va maqsadlarini ro‘yobga chiqarishga to‘sinqilik qilish holatlarini mavjudligi Toshkent shahrida 67 foizni tashkil etdi. Ayol kishini ijtimoiy faol bo‘lishini istamaslik, biroq, ayollarning jussasi, imkoniyatlari uchun og‘ir bo‘lsada oilaviy pudrat asosida dalada ishlahlariga qarshilik qilmaslik xolatlari aniqlandi. Andijon shahrinig ayrim tumanlarida hattoki ayol kishi kech soat sakkizdan keyin ko‘chaga chiqmasligi ma’qul ko‘riliishi holatlari kuzatildi. Ayollarning tartib-intizomli, odobli bo‘lsalarda ishlab ijtimoiy faol bo‘lishlari ayrim erkaklar tomonidan ta’qiqlanishi, sababi sifatida shunchaki yoqmasligi, ayollariga nisbatan shakllangan ishonchsizlik, ijtimoiy steteotip, ijtimoiy-psixologik ustanovkalar va gender stereotiplarni saqlanib kelinayotganligi bilan izohlanadi.

Jumladan, tadqiqotimizda zamонавиј tipdagи oiladagi er-xотин munosabatlarida psixofiziologik omillar ahamiyatini ortib borishi kuzatildi, ya’ni bir-birlariga o‘zaro hurmat ko‘rsatilishi – boshqa oila a’zolarini oldida yaxshi muomalada bo‘lishi, oilaviy masalalarda qaror qabul qilishda maslahatlashishi, ayol kishini fikrini inobatga olinishi, hissiy – emotSIONAL omillar: muloyimlik, mehr-muhabbatli bo‘lishi, ruhlantirishlari, minnatdorchilik bildirib turishlari, g‘amxo‘rlik ko‘rsatishlari borasida - oilaviy yumushlarga yordam berishlari aniqlangan va uy ishlarida ayollariga yordam berishlari, bu erkaklik g‘ururini pasayishiga asos bo‘lishi mumkin emas deb qaralishi aniqlandi.

Ushbu toifadagi oilalarda erkaklik or-nomusini toptalishi uy-ro‘zg‘or ishlarida ayollarni og‘irini yengil qilish bilan o‘lchanmasligi haqidagi tasavvurlar shakllangan.

Ayollar dam olish, hordiq chiqarish borasida oilaviy birdamlik, ota-onasi va farzandlarni birgalikdagi hordiq chiqarishlarini istashlarini bildirishgan.

Tadqiqotimizda o‘zbek oilalarida erkaklar va ayollarga xos bo‘lgan xususiyat va fazilatlar, ular o‘rtasidagi gender rollar taqsimoti va undagi farqli tafovutlari ya’ni, «ayol» va «erkak»larga xos oilaviy rollar haqidagi tasavvurlari o‘rganildi. Natijada, aksariyat erkak va ayollar ayollarga hos bo‘lgan gender rollar sifatida ona, uy bekasi, uy vazifalariga mas’ul, bola tarbiyalovchisi va salomatligiga javobgar, kir yuvuvchi, oshpaz, uy tozalovchi rollarini qatd etishgan. Bu ham ayollarni ona sifatida bola tarbiyasiga ma’sulligi bo‘lsa, ikkinchidan, ayollarni uyga bog‘lovchi roller stereotiplarini shakllanganligini izohlaydi. Erkak esa - ota, moliyaviy ta’minotchi, uy posboni oila tayanchi, himoyachi, ro‘llar bilan xarakterlanishi aniqlangan. Jumladan hissiy fazilatlar bo‘yicha ayollar - vafodor, itoatkor, mehr-oqibatli, ehtirosli, ba’zan injiq, yoqimli bo‘lishi tasavvur etilushi; bugungi kun ayollarlik fazilati - intiluvchan, mulohazali, kuchli, sabrli, aqlli, faxm-farosatli; erkeklik fazilatlariga - intiluvchan, mulohazakorlik, kuchli, sabrli, aqlli, faxm- farosat va mardlik shakllangan bo‘lishi kerakligi bilan bir qatorda hayotda ular tajovuzkor, qo‘rs, qo‘pol, rashkchi kabi xususiyatlar erkaklarda chuqur shakllanganligi qayd etilgan va ularga xos deb baholangan.

5) Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, erkaklarning erlik roli nuqtai nazaridan ijtimoiy mavqeini, oilada erlik hurmatini, obro‘sini saqlab qolishga intilishlari ayollarining xulq-atvori sabab, atrofdagilarni, qarindoshlarni, mahalla kuyni noo‘rin gap-so‘zlaridan, ya’ni ijtimoiy nazoratdan, axborotlar bosimi-taftish qilinish, aybdor sanalish kabi xavfdan himoyalanish mexanizmi qonuniyati bilan izohlanadi. Erkak bo‘lib oilani moddiy-iqtisodiy ta’minlay ololmading, degan gapdan qochish va ayolimga begona erkakning e’tiborini tushmasligiga kim kafolat beradi, degan tasavvurlar gender tensizlikka sabab bo‘luvchi stereotiplar shakllanganligini ko‘rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1 O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021 yil 28-maydagi SQ-297-IV-sonli qarori 3-ilovasi

2. Barry, D. (1991). Dave Barry talks back. New York: Crown. Stereotip - Duane Barry - скачать mp3 бесплатно и слушать онлайн на Хотплеере (f90e)

3. Берн III. Гендерная психология. - СПб., 2003. - 318 с.

4. Deaux, K., Winton, W., Crowley, M., & Lewis, L.L. (1985). Level of categorization and content of sex stereotypes. Social Cognition, - S.145-167.

5. Гендерный профиль полоролевых женских стереотипов (О.Л. Кустова). Гендерный профиль полоролевых женских стереотипов (О.Л. Кустова) - Психология гендерных различий

6. Eagly A.H. (1987). Stereotype versus behavior. In V. Ye. O’Leary, R.K. The Psychology of Attitudes. A.H.Eagly & S. Chaiken. Fort Worth, TX: Harcourt, Brace, & Janovich, 1993, 794 pp.

7. mid stereotip - Поиск Изображения

8. C.Tavris - Поиск

PSIXOLOGIYA FANIDA MULOQOTDAGI QIYINCHILIK TUSHUNCHASINING MAZMUNI

*Raximova E'tibor Rustamovna
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Maqola muloqotdagi qiyinchiliklarning psixologik jihatlariga bag'ishlanadi. Unda muloqotdagi qiyinchilik tushunchasiga nisbatan ilgari surilgan ta'riflarning mazmun, mohiyati ochib berilgan. Ayniqsa, jahon olimlari tomonidan muloqotdagi qiyinchiliklar borasidagi fikrlarning tahlili bayon qilingan.

Kalit so'zlar: muloqot, muomala, muloqotdagi qiyinchilik, ma'lumot almashish, o'zaro ta'sir o'tkazish, idrok etish, boshqa odamni tushunish, ijtimoiylashuv, bilimlar, ijtimoiy qadriyatlar, tajriba.

СОДЕРЖАНИЕ ПОНЯТИЯ ТРУДНОСТИ В ОБЩЕНИИ В ПСИХОЛОГИИ

*Рахимова Эътибор Рустамовна
независимый исследователь Ургенчского государственного университета*

Аннотация. Статья посвящена психологическим аспектам трудностей в общении. В нем раскрывается содержание и сущность определений, выдвинутых относительно понятия трудности в общении. В частности, представлен анализ мнений мировых ученых о трудностях в общении.

Ключевые слова: общение, взаимодействие, трудности в общении, обмен информацией, взаимодействие, восприятие, понимание другого человека, социализация, знания, социальные ценности, опыт.

THE CONCEPT OF DIFFICULTY IN COMMUNICATION IN PSYCHOLOGY

*Rakhimova Etibor Rustamovna
is an independent researcher at the Urgentsky State University*

Abstract. The article is devoted to the psychological aspects of difficulties in communication. It reveals the content and essence of the definitions put forward regarding the concept of difficulty in communication. In particular, an analysis of the opinions of world scientists on the difficulties of communication is presented.

Keywords: communication, interaction, difficulty in communication, information exchange, interaction, perception, understanding another person, socialization, knowledge, social values, experience.

So'nggi vaqtarda inson omili ko'plab fanlarning o'rganish predmetiga aylanib bormoqda. Ma'lumki, muloqotsiz shaxs insonlar orasida yashash imkoniyatiga ega bo'lmaydi, kamolotga erisha olmaydi hamda biror-bir narsani yaratish qobiliyatidan mahrum bo'ladi. Shu bois, muloqot tushunchasi keng ma'noda insonlar o'rtasidagi turli xil ko'rinishdagi munosabatlarning yig'indisidir.

Shuningdek, muloqot har bir shaxsni individual shakllanishi va rivojlanishining zaruriy shartidir. Ta'kidlash joizki, o'qitish va tarbiyalash jarayonlari o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siri, harakatlari bilan bog'liq bo'ladi. Shu sababli ular o'rtasida muloqotni to'g'ri yo'lga qo'yish qobiliyati ikki tomon o'rtasida samarali munosabatga erishishda eng muhim vazifadir.

Ma'lumki, shaxsnинг jamiyat hayotida insonlar bilan birgalikda yashashi, hamkorlikda faoliyat olib borishi jarayonida muloqot, muomala qilish qobiliyatiga ega bo'lishini taqozo qiladi. Agar inson ob'yektiv yoki sub'yektiv omillar tufayli muloqotdagi qiyinchiliklarga duch kelsa, u holda uning jamiyatga moslashishi va ijtimoiylashuvida muammolar paydo bo'ladi.

Tadqiqotimizning asosiy muammosi "muloqotdagi qiyinchilik"ning mohiyati, sabablari va xususiyatlarini ko'rib chiqishdan oldin "muloqot" tushunchasining mazmuniga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. S.I.Ojegovning izohli lug'atida muloqot "o'zaro munosabatlar, ishbilarmonlik va do'stona munosabatlar" deb hisoblanadi [8].

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, muloqot rus psixologlari tomonidan batafsil o'rganilgan hodisa deyish mumkin. Jumladan, B.F.Lomovning fikrlariga ko'ra, muloqot - bu insoniyat jamiyatining tuzilishi, tashkil etilishi va faoliyat mexanizmini, shuningdek, shaxsning ijtimoiy-tarixiy tizimga kiritish shakllari va usullarini ochib beruvchi ijtimoiy hodisadir. Uning ta'kidlashicha, muloqotning ajralmas sharti, konsepsiyaning murakkabligi va ko'p qirralilagini belgilaydigan ijtimoyleshuv jarayonidir [7]. O'z navbatida A.A.Leontyevning fikrlariga ko'ra, muloqot inson faoliyatining turlaridan biri sifatida ko'rsatiladi [6].

Psixologiyada muloqot "insonlar o'rtasida munosabatlarni o'rnatish va rivojlantirishning murakkab, ko'p qirrali jarayoni hamda birgalikdagi faoliyat ehtiyojlari natijasida hosil bo'lgan va ma'lumot almashish, o'zaro ta'sir o'tkazish, idrok etish, boshqa odamni tushunishning yagona strategiyasini ishlab chiqishni o'z ichiga olgan" jarayon sifatida taqdim etiladi [9]. Muloqotdagi qiyinchiliklar borasidagi ilmiy tadqiqot ishimizda L.S.Vigotskiy va S.L.Rubinshteynlarning fikrlarini tahlil qilgan holda [2], biz turli xil muloqot vositalari va mexanizmlari yordamida odamlar o'rtasida ma'lumot almashish va o'zaro bir-birini tushunish jarayonini yo'lga qo'yishni tushunamiz. Shuningdek, mazkur jarayonda hissiyotlar, kechimalar, fikrlar, qarashlar, bilimlar, ijtimoiy qadriyatlar, tajriba va boshqalar ma'lumot sifatida ishlaydi.

Insoniy munosabatlar jarayonida muloqot asosiy o'rin egallaydi hamda bu bilan bog'liq qator qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ye.V.Sukanovaning ta'kidlashicha, muloqotdagi qiyinchiliklar "insonlarning bir-birini tushunmasliklari ko'rinishidagi o'zaro munosabatlarning real vaziyatlarida o'zini namoyon qiladigan o'ziga xos ijtimoiy-psixologik hodisadir [12]. V.A.Labunskayaning qarashlariga ko'ra, shuni aytish mumkinki, hatto muloqotning o'zi ham, ijtimoiy-psixologik tabiatiga ko'ra, "qiyin" faoliyat hisoblanadi. Chunonchi u faoliyatning qulay darajasiga to'sqinlik qiladigan elementlarni o'z ichiga oladi. Ifoda va nutqning xususiyatlari, shaxsning ijtimoiy-perseptiv sohasi, uning munosabatlar tizimi, murojaat shakllari, o'zaro ta'sir ko'nikmalarining rivojlanish darajasi va o'zaro aloqaga kirishish sharoitlari har qanday muloqot harakatini vazifaga, murakkab ko'p qirrali faoliyatga aylantiradi [5].

I.Ye.Strelkov muloqotdagi psixologik qiyinchiliklarning mohiyatini ko'rib chiqib, ularda "suhbatdoshlarning o'zaro ta'siri paytida aloqalarning buzilishi, munosabatlarning rivojlanishiga barcha turdag'i to'siqlarning paydo bo'lishi, ularning davomiyligiga ko'ra, muloqot noqulay rivojlansa va sheriklar (yoki ulardan biri) xulq-atvorining moslashuvi bilan birga keladigan hissiy tanglik, zo'riqishni boshdan kechirishiga olib keladi [5].

Binobarin, muloqotdagi qiyinchiliklar o'zaro ta'sirning turli yo'llari (kontaktlar), o'ziga xos to'siqlarning paydo bo'lishi va shu kabilar bilan namoyon bo'lishi mumkin.

Tadqiqot mavzusiga doir adabiyotlarni tahlil qilish natijasida biz muloqotdagi qiyinchiliklar ob'yektiv va sub'yektiv xususiyatga ega ekanligini aniqlash imkoniyatiga ega bo'lamiz. V.N.Kunisina ularni sub'yeqtning ongi darajasida intrapersonal va neyropsixik stress bilan birga keladigan noqulaylikning hissiy tajribalari shaklida ifodalangan sub'yektiv hodisa deb hisoblaydi [3].

Shu bilan birga, A.A.Bodalev va G.A.Kovalev o'z tadqiqotlarida muloqot qilishdagi qiyinchiliklarni ta'riflab, shunday deb ta'kidlaydi: "Muloqot jarayonida ob'yektiv qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkin, natijada maqsadlarga to'liq yoki qisman erisha olmaslik, motivdan norozilik yoki faoliyatda kerakli natijani ololmasligiga bu kommunikatsiya xizmat qilishi mumkin" [1].

"Samarasiz", buzg'unchi, destruktiv muloqot muammosi "muloqotdagi qiyinchilik" degan maxsus atamasini keltirib chiqardi.

E.V.Sukanovaning ta'kidlashicha, "muloqotdagi qiyinchilik" tushunchasi muloqotni to'xtatmaydigan va aloqa jarayoni ishtirokchilarining o'zлari tomonidan yengib o'tiladigan kichik nosozliklar bilan tavsiflangan muloqotni aniqlash uchun uning qo'llanilish imkoniyatlarini belgilab berish mumkin. Muloqot jarayoni qattiq bloklangan va xafa bo'lganida, yuqori darajadagi qiyinchilik, shuning uchun keyingi aloqa uchun imkonsiz bo'lib qoladi" [10].

Ma'lumki, rus psixologlari tomonidan muloqotdagi qiyinchilik muammosi borasida qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, A.A.Bodalev, G.A.Kovalyov [1], E.V.Sukanova [12], V.N.Kunisina [4] va boshqalar tomonidan keng doirada o'rganilgan. Ayniqsa, muloqotdagi

qiyinchilik muammosini V.A.Labunskaya tomonidan keng doirada tadqiq qilingan [5].

Shu bois, rus psixologiyasida “muloqotdagi qiyinchilik” tushunchasiga nisbatan eng yaqin ta’rif – muloqot hamkorlarining bir-biridan norozi bo‘lgan, o‘z maqsadlariga erisha olmaydigan, ochiq muloqotga kirishish imkoniyatini mavjud emasligini bunday vaziyatlarni aks ettiruvchi muloqotdagi nuqsonlar tushunchasi bo‘lib, tushunmovchilik natijasida nizolarning yuzaga kelishiga asosiy sabab bo‘ladi.

Olimlarning ta’kidlashicha, “qiyin - oson muloqot” juftlashgan tushunchalari “muvaqqiyatli – muvaffaqiyatsiz”, “samarali – samarasiz”, “qulay – qulay bo‘lmagan muloqot” tushunchalari bilan sinonim emas. Muloqotning bu xususiyatlari uning natijaga erishishning ob’yektiv ko‘rsatkichlarini aks ettiradi, lekin muloqot jarayonida yuzaga keladigan hissiy holatni (tajribalar spektrini) hisobga olmaydi.

V.A.Labunskayaning fikrlariga ko‘ra [5], muloqotdagi qiyinchilik psixologiyasida bir necha jihatlar ko‘rib chiqiladi. Xususan:

- faqat ijtimoiy muloqot, o‘zaro ta’sir vaziyatida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy-psixologik hodisa;

- maqsad va natija, tanlangan muloqot modeli va haqiqiy jarayon o‘rtasidagi nomuvofiqlikda ifodalangan ob’yektiv hodisa;

- qondirilmagan ehtiyojlar, motivasion, kognitiv, hissiy dissonanslar, shaxsiy ichki nizolar va boshqalarga asoslangan turli xil insoniy tajribalarda aks ettirilgan sub’yektiv hodisa.

Ilmiy adabiyotlarda muloqotdagi qiyinchilik tushunchasining tor va keng ma’noda ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir [5].

Birinchi holatda, muloqotdagi qiyinchilik - bu hamkorlar va jamoalarni xulq-atvorlarining buzg‘unchi o‘zgarishlariga, uzlucksiz va uzlucksiz bo‘lmagan aloqalarga (muloqot qilishdan bosh tortishgacha), muloqot darajasining pasayishiga olib keladigan barcha turdag'i va aloqa shakllari (shaxslarardon guruhlararogacha), shuningdek, muloqotdagi qiyinchiliklarning sabablarini bilish, kamayishi va ba’zi hollarda yo‘qolishi, yuzaga kelgan qiyinchiliklardan mustaqil ravishda chiqishga urinishlar, har qanday muloqot holatiga tashvishli munosabatni shakllantirishdir.

Ikkinchi holatda, muloqotdagi qiyinchilik - bu shaxslararo muloqot sohasidagi kichik ishqalanish va muvaffaqiyatsizliklar, bunda xavfsizlik, suhbatdoshlar o‘rtasidagi muloqotlarning uzlucksizligi, boshdan kechirilgan qiyinchiliklardan ma’lum darajada xabardorlik kuzatiladi; muloqot jarayonidagi nuqsonlarni kelib chiqish sabablarini izlash; ijtimoiy-perseptiv, o‘zaro muloqotdagi qiyinchiliklarni mustaqil ravishda yengib o‘tishga urinishlardan iborat.

V.A.Labunskayaning xulosasiga ko‘ra, mazkur tushunchaning ta’rifi “sub’yektiv va ob’yektiv xarakterga ega bo‘lgan muloqot jarayonini ham, natijasini ham o‘z ichiga oladi” [5].

Ijtimoiy psixologiyada “muloqotdagi qiyinchilik” atamasini tushunishga nisbatan o‘ziga xos yondashuvlarga ega bo‘lgan bir nechta sohalar aniqlangan.

Psixologiyaning psichoanalitik yo‘nalishi kontekstida muloqotdagi qiyinchilik, bola tabiatи va unga yaqin odamlar, insonning dunyo bilan munosabatlari tizimida yotadi hamda yetarli darajada amalga oshirilmagan shaxsiy ichki nizolar natijasida yuzaga keladigan keskinlik holati sifatida talqin etiladi. Natijada uning asosiy ijtimoiy ehtiyojlar turli yo‘llar orqali qondiriladi.

Ijtimoiy yo‘naltirilgan psichoanaliz kontekstida muloqotdagi qiyinchilik shaxsda salbiy natijalari ijobiyalaridan ustun bo‘lgan muloqotdir. Bunday muloqotning sub’yekti – boshqa insonlarni mukofotlash qobiliyati rivojlanmagan hamda xatti-harakatlarida ular o‘rtasidagi farqni ko‘rsatadigan munosabat va qadriyatlar uning sherigi hamda muloqotning haqiqiy natijasiga nisbatan haddan tashqari talablar bilan ajralib turadi (V.A. Labunskaya) [5].

Turli maktablarning izlanishlarda ilgari surilgan muloqotdagi qiyinchilik odatda keng ko‘lamli hodisa sifatida tushuniladi. Natijada ular umidsizlikka tushishi mumkin bo‘lgan, disfunksiyali, bezovtali, samarasiz, noqulay muloqotga olib kelishi mumkin. Tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, murakkab bo‘lmagan muloqotning xususiyatlari “qulay muloqot” tushunchasining asosida qurilgan. Mazkur masala bo‘yicha adabiyotlar tahlil qilinganda “muloqotdagi qiyinchilik” atamasiga quyidagi hodisalarni: qiyinchilik, to’siqlar, muvaffaqiyatsizliklar, nizo va boshqalar kiritiladi. Uning muhim xususiyatlariga qiyinchiliklarning jiddiyligi, ularning chuqurligi va muloqot natijalariga ta’sir qilishning jadalligi kiradi.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki, shaxsda muloqotdagi qiyinchiliklarning yuzaga kelishida nutqiy ko‘nikma va malakalarni yetarli darajada shakllanmaganligi, o‘zining mavjud bilimlaridan yetarli darajada foydalana olmasligi hamda atrofdagi insonlar bilan faol munosabatga kirishish imkoniyatini yetarli emasligi natijasida yuzaga kelishi bilan belgilanadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Бодалев А.А. Психологические трудности общения и их преодоление / А.А. Бодалев, Г.А. Ковалев // Педагогика. – 1992. – № 5, 6. – С. 15 – 25.
2. Выготский Л. С. Мысление и речь / Л. С. Выготский // Собр. Соч.: В 6 т. Т.2. – М.: Педагогика, 1982. – С. 381-395.
3. Куницына В.Н. Нарушения, барьеры, трудности межличностного неформального общения / В.Н. Куницына // Актуальные проблемы психологической теории и практики; под ред. А.А. Крылова. – СПб.: Речь, 2005. – С. 56 – 82.
4. Куницына В.Н. Трудности межличностного общения: дисс. ... д-ра психол. наук / В.Н. Куницына. – СПб., 1991. – 358 с.
5. Лабунская В.А. Психология затрудненного общения: Теория. Методы. Диагностика. Коррекция: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / В.А. Лабунская, Ю.А. Менджерицкая, Е.Д. Бреус. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. – 288 с.
6. Леонтьев А.А. Психология общения: учеб. пособие для студентов вузов. – 5-е изд., – М.: Академия, 2008. – 368 с.
7. Ломов Б.Ф. Проблема общения в психологии / Б. Ф. Ломов. – М.: Наука, 1981. – С. 115-119
8. Ожегов С.И. Толковый словарь русского языка: ок. 100 000 слов, терминов и фразеологических выражений / С.И. Ожегов; под ред. проф. Л.И. Скворцова. – М.: ООО «Издательство Оникс»: ООО «Издательство Мир и Образование», 2010. – 736 с.
9. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии / С.Л. Рубинштейн. – СПб.: Питер Ком, 1999. – 720 с.
10. Хухлаева О.В. Психология развития: молодость, зрелость, старость / О.В. 11. Хухлева. – М.: Академия, 2012. – 208с.
12. Цуканова Е.В. Психологические трудности межличностного общения / Е.В. Цуканова. – Киев: Вища школа, 1985. – 160 с.

РЕЛЕВАНТНЫЕ МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ И ИХ РОЛЬ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ В ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ УЗБЕКИСТАНА

Рахманова Диляра Рустемовна,
кандидат психологических наук,
доцент кафедры «Педагогика и психология» Profi University

Аннотация. Статья посвящена Международному стандарту IACS на основе организации системы психологического сопровождения высшей школе Узбекистана. Обосновано, что данная система, как в других странах Центральной Азии вступила в фазу начального этапа своего развития и отличается низким уровнем зрелости. Раскрыты главные причины такого состояния: дефицит квалифицированных кадров и финансовых ресурсов, недостаточно развитая материально-техническая инфраструктура, отсутствие методического обеспечения и регламентирующей документации, а также опыта в создании Психологической службы и объективного понимания её роли в совершенствовании деятельности современного вуза. Подчёркнуто признание на государственном уровне в Узбекистане необходимости развития Психологической службы в системе образования, введения в штат вузов должности психолога, получения студентами психологической поддержки в различных ее формах. Установлена необходимость системного подхода и комплексных усилий для развития и совершенствования деятельности Психологических служб в вузах Узбекистана. Показана целесообразность применения релевантного Международного стандарта IACS [1], построенного на многолетнем опыте работы в различных образовательных системах для психологической поддержки студентов. С учётом трудности реализации требований IACS в вузах Узбекистана рассмотрены возможности и условия результативного использования данного стандарта, исходя из институциональных особенностей системы высшего образования Узбекистана.

Ключевые слова: система, психологическое сопровождение, методическое обеспечение, международный стандарт, высшее образование, студент, образовательная система.

Abstract. This article is dedicated to the IACS International Standard based on the organization of the psychological support system in higher education institutions of Uzbekistan. It is substantiated that this system, like in other Central Asian countries, has entered the initial stage of its development and is characterized by a low level of maturity. The main reasons for this state are outlined: a shortage of qualified personnel and financial resources, underdeveloped material and technical infrastructure, lack of methodological support and regulatory documentation, as well as a lack of experience in creating Psychological Services and a clear understanding of its role in improving the activities of modern universities. It is emphasized that at the state level in Uzbekistan, there is a recognition of the need to develop Psychological Services in the education system, introduce the position of psychologist in university staff, and provide students with psychological support in various forms. The necessity of a systematic approach and integrated efforts for the development and improvement of the Psychological Services in higher education institutions of Uzbekistan is established. The feasibility of applying the relevant IACS International Standard [1], built on years of experience in various educational systems for psychological support of students, is demonstrated. Considering the challenges of implementing the IACS requirements in Uzbek universities, the possibilities and conditions for the effective use of this standard are discussed, taking into account the institutional features of the higher education system in Uzbekistan.

Keywords: system, psychological support, methodological support, international standard, higher education, student, educational system.

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston oliy ta'lif muassasalarida psixologik yordam tizimini tashkil etishga asoslangan IACS xalqaro standarti haqida. Ushbu tizimning boshqa Markaziy Osiyo mamlakatlari kabi O'zbekistonda ham rivojlanishning dastlabki bosqichida ekanligi va past rivojlanish darajasi bilan tavsiflanishi asoslantirilgan. Ushbu holatning asosiy sabablari

keltirilgan: malakali kadrlar va moliyaviy resurslar etishmasligi, moddiy-texnik infratuzilmaning rivojlanmaganligi, metodik qo'llab-quvvatlash va normativ hujjalarning yetishmasligi, shuningdek, Psixologik xizmatlar yaratish tajribasining yo'qligi va uning zamonaviy universitetlar faoliyatini yaxshilashdagi roli to 'g'risidagi tushunchayetishmasligi. O'zbekiston davlat darajasida ta'lim tizimida Psixologik xizmatlarni rivojlantirish, universitetlar tarkibida psixolog lavozimini joriy etish va talabalarga turli shakllarda psixologik yordam ko'rsatish zarurligi tan olingani ta'kidlangan. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida Psixologik xizmatlarni rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha tizimli yondashuv va integratsiyalashgan sa'y-harakatlar zarurligi ko'rsatilgan. Talabalar uchun psixologik yordam ko'rsatish bo'yicha turli ta'lim tizimlarida yillar davomida to'plangan tajribaga asoslangan tegishli IACS xalqaro standartining samarali qo'llanilishining amaliy jihatlari ko'rsatilgan. O'zbekiston universitetlarida IACS talablari amalga oshirishdagi qiyinchiliklar hisobga olinib, ushbu standartni samarali qo'llashning imkoniyatlari va sharoitlari, O'zbekiston oliy ta'lim tizimi institut xususiyatlari hisobga olingan holda muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: tizim, psixologik yordam, metodik qo'llab-quvvatlash, xalqaro standart, oliy ta'lim, talaba, ta'lim tizimi.

На современном этапе развития общества большое внимание стало уделяться системе психологического сопровождения в вузах Узбекистана. Для её реализации требуются усилия многих служб, в том числе психологического сообщества, профессорско-преподавательского состава, административных работников вузов, государственных органов, представителей бизнеса, некоммерческих структур, самих студентов и членов их семей. Главной составляющей такой системной работы является международный стандарт IACS. Он включает пять разделов. Детально охарактеризуем возможности использования требований IACS к вузам Узбекистана, рассматривая каждый раздел стандарта.

В нём дается определение общего состояния Психологической службы вне зависимости от названия и формы организации в структуре системы вуза и его взаимосвязи с другими подразделениями и подотчетности. Главная её установка – обеспечивать административную независимость и нейтральность службы, т.е. в условиях любой модели гарантировать конкретную самостоятельность функционала службы, не смешивая его с решением таких задач вуза, как медицинское обслуживание, организацию учебного процесса, досуга либо проживания в общежитии. В ситуациях службы как обособленного подразделения задачу нужно решать посредством точного описания её функций и должностных обязанностей работников. Между тем в случаях смешанных служб, где психологическое сопровождение вменяется в обязанность более крупного подразделения, эта задача становится более сложной. Для её решения необходимо выделить внутри самой системы структуры соподчиненности и отчётности, что обеспечит сохранение требуемой самостоятельности психологического направления деятельности. В таких ситуациях функции и роли процесса психологического сопровождения должны обеспечивать соответствие стандартам цикла психологического консультирования, т.е. конфиденциальность в процессе работы со студентами.

Ключевым постулатом Психологической службы служит обеспечение двух важных критерии – относительной административной независимости и нейтральности. Таким образом, решая психологические проблемы студентов, работников, как и всего сообщества, служба в то же время не должна была участвовать в принятии административных решений, касающихся вопросов об отчислении студентов, дисциплинарных санкциях, учебном процессе и др. Это объяснялось тем, что Психологическая служба, направленная на оказание помощи конкретному человеку и группам, не предусматривает административное воздействие на человека, так как это могло кардинально изменить доверительное отношение к психологу.

Согласно стандарту, Психологическая служба должна обеспечивать её взаимосвязь с другими подразделениями для гарантии психологического благополучия в вузе. Формирование подобных взаимоотношений служит главной задачей самой службы, хотя её решения зависят и от её места в организационной структуре вуза. Во многих странах мира

Психологическая служба прикреплена к отделам по работе со студентами и, в основном, находятся под руководством сотрудников высшего ранга (проректор, декан).

Данный первый раздел IACS применительно к вузам Узбекистана свидетельствует о важности проблемы функционирования системы психологического сопровождения в вузах Узбекистана. Между тем для полноты её решения требуется продуманное предопределение работы этого направления в структуре вуза. Как свидетельствуют результаты исследования, в основном должность психолога заложена в определённый организационный вакуум и не входит функционально-специфическую организационную вертикаль. В отделах по духовной и просветительской работе, занимающихся параллельно психологическим сопровождением, внедрение должности психолога не выходит за рамки организационного момента, психологическая работа ограничивается функциональными действиями неспециализированного отдела, отчего снижается ее значимость, а взаимодействие с ключевыми руководителями и другими подразделениями вызывало большие трудности. Особо следует указать, что возможности введения психологического сопровождения в общую стратегию вуза затрудняется следующим. Руководителями таких отделов, которым ныне подчиняются психологи вузов Узбекистана, в основном, не являются профессиональные психологи.

Положение также осложняется противоречием, сложившимся между задачами психологической помощи и воспитательной работой. Дело в том, что первая осуществлялась, исходя из проблем и потребностей клиентов, вторая была направлена на формирование конкретных установок и моделей, поведения, разработанных директивными службами. В конечном итоге это противоречило принципу нейтральности Психологической службы, ограничивало её возможности в своевременном выявлении у студентов психологических проблем (бывают и как результат воспитательной активности вуза) доводило до руководства вуза.

На наш взгляд, повышению степени соответствия психологического сопровождения стандарту IACS в вузах Узбекистана будет способствовать следующие рекомендации:

Создание Психологической службы вуза как обособленного подразделения вместо введения должности штатного психолога. Данное предложение приемлемо даже при отсутствии возможности вузу создать свыше одной штатной единицы психологического сопровождения. В такой ситуации возможно вместо службы включение должности Главного психолога вуза, для которой характерно отдельное положение в структуре вуза и невхождаемость в состав рядовых работников определённого подразделения. Подобной обособленностью достигается административная независимость и нейтральность психологической деятельности, и выделение самостоятельного психологического сопровождения, что препятствует его смешению с функциями других служб. Такая самостоятельность службы повышает её организационные возможности во взаимодействии во взаимодействии с другими подразделениями и более предпочтительна, чем включённый в работу смешанных служб функционал, поскольку более сложно гарантировать соблюдение требований независимости и нейтральности.

Повышение статуса Психологической службы прямым подчинением её высшему руководству вуза. Во многих вузах соблюдается подчинённость либо проректору по учебной работе либо проректору по воспитательной работе, хотя в последнем случае в недостаточной мере решается потенциальный конфликт функций. В некоторых вузах отмечается прямое подчинение Психологической службы ректору, что обеспечивает ее самостоятельность и способствует эффективному взаимодействию с другими подразделениями и оказывает влияние на психологическое благополучие студентов.

В разделе описывается девять основных функций Психологической службы. Они включали индивидуальное и групповое консультирование, кризисное вмешательство, экстренную помощь, а также программы вузовского сообщества и их оценку, программы обучения консультации, справочные ресурсы, исследования, профессиональное развитие.

Наряду с этим в разделе описывались варианты дополнительных и смежных задач, решение которых вменялось службе.

Результаты обзора и анализа Психологической службы стран Центральной Азии, опрос экспертами психологов и работников служб, два пилотных диагностических исследования студентов и преподавателей вузов Узбекистана дают основание сформулировать основные задачи Психологической службы и выявить особенности их решения.

На данном, начальном, этапе развития системы психологического сопровождения в вузах Узбекистана не способна оказать должном объеме экстренную психологическую помощь студентам и консультирование.

Фактическое состояние системы психологической помощи в вузах Узбекистана, выявленный комплекс потребностей студентов и преподавателей предопределяют целесообразность развития на начальном этапе следующих направлений работы Психологической службы:

Групповое консультирование. Представляя собой одно из перспективных направлений в работе Психологической службы для вузов Узбекистана в области функционального ядра, оно нуждается в меньших ресурсах в отличие от индивидуального, высоко востребовано обучающимися и преподавателями, обеспечено в достаточной мере программами групповой терапии, а также совершенствования психологических знаний и навыков, психоэмоционального состояния студентов (прокрастинация, тайм-менеджмент, борьба со стрессом, повышение уверенности в себе и мн. др.).

Профессиональное развитие и программы обучения. Является особенно важной данная функция и способствует увеличению человеческих ресурсов для последующей работы.

Справочные ресурсы. Будучи наименее ресурсоёмкими, но универсальными, они обеспечивают доступность многих других видов психологической помощи. В основном в их роли выступают информация для студентов и сотрудников об услугах самой службы и других субъектов за пределами вуза, а также справочных и учебных материалов, благодаря которым самостоятельно решаются психологические проблемы и развиваются навыки, необходимые для их предотвращения. Конечная цель состоит в обеспечении членов организации простого и удобного доступа к информации о психологическом благополучии и возможностях решения психологических проблем.

Ограниченнное индивидуальное консультирование. Учитывая невозможность полной замены индивидуального консультирования другими формами, создаваемые в вузах Узбекистана службы обязаны наделять даже ограниченными возможностями для индивидуальной работы с такими студентами, которые сталкиваются с психологическими проблемами. С последующим развитием Психологическая служба обязана постепенно увеличивать свои функции в целях обеспечения всеобъемлющего подхода к психологическому сопровождению.

Описанные в данном разделе этические вопросы и условия соблюдения этических требований связаны с работой конституционной службы. Например, этические стандарты в развитых странах в основном кодифицированы и закреплены в правовой системе и институтах, в связи с чем необходимо соблюдение этих требований, в том числе и для снижения рисков юридической ответственности сотрудников Психологической службы и вузов в целом.

К главным этическим и юридическим проблемам Психологической службы относятся конфиденциальность и информированное согласие студента. Конфиденциальность в сложившихся отношениях между психологом и студентом не только служит этическим либо юридическим требованием законодательства о защите персональных сведений, но и используется в процессе решения главных задач Психологической службы. В случаях неуверенности в публичности поднимаемой проблемы обсуждаемой с психологом, подрывается доверие к психологу, снижается обращаемость к нему и растут риски стигматизации и социальной агрессии с стороны окружающих. Между тем информированное согласие предполагает принятие человеком, обращающимся за психологической помощью, ответственности за собственное решение и на базе достоверной информации от психолога.

В Узбекистане предприняты важные шаги в правовом обеспечении защиты персональных данных. В частности, Закон о персональных данных [2] и типовые порядки [3], приблизившие юридические требования к международному нормам [4]. Они предопределяют создание

условий, согласно которым конфиденциальная информация, полученная Психологической службой, будет доступна лишь уполномоченным лицам [5]. Как отмечают правоведы, рост правовой культуры необходим для развития социальных и экономических институтов Узбекистана, в том числе и образовательной среды [6, 7]. Не владея правовой культурой, работники Психологической службы либо имеющих к ним отношение подразделений вуза могут способствовать рискам нарушения конфиденциальности. В таких ситуациях необходимо усилить внимание к подготовке сотрудников службы относительно их этической и правовой ответственности.

В Узбекистане Психологическим службам вузов рекомендуется исходить из отраслевых этических принципов, и следовать им. В частности, прежде всего, необходимо базироваться на Универсальной декларации этических принципов для психологов, разработанных Международным союзом психологической науки [8].

В данном разделе определяются ключевые требования к персоналу Психологической службы на основе рамочных условий её организационной структуры. Даётся описание Психологической службы как структурного подразделения, не ограничивающееся должностью психолога, а предусматривающее как минимум две категории позиций в своем штате: директора и специалиста службы. По отношению к этим специалистам-консультантам выдвигалось условие – иметь профессиональное образование, причём не ниже магистерского уровня. Наличие его позволяет специалистам указанных категорий осуществлять подготовку студентов по консультационной психологии, клинической психологии, непсихологическому консультированию, социальной работе, семейной психологии, консультированию в области душевного здоровья.

Наряду с этим к указанным должностным структурам вменялись обязанность прохождения интернатуры либо практики под конкретным руководством в целях получения опыта работы с целевыми группами, наличие для директора 5-летнего опыта работы как специалиста в Психологической службе либо консультационном центре и не менее 1 года как административного руководителя. Для директора обязанной была подготовленность в области диагностики и оценки, теории и практики консультирования и его этических проблем руководства, а также компетенции в организационно-административной, управлеченческой деятельности, взаимодействии с коллегами, студентами, университетским сообществом.

Реализация требований IACS относительно квалификации профессионального персонала Психологических служб вузов Узбекистана осуществима с учётом национальных особенностей и определённых ограничений. В стране созданы базовые условия для подготовки профессиональных психологов. Например, в таких вузах, как Национальный университет Узбекистана, Ташкентский филиал МГУ им. М.В. Ломоносова, Ташкентский государственный педагогический университет им. Низами, Самаркандский государственный университет, разработаны и используются в учебном процессе бакалаврские и магистерские программы по различным направлениям психологии, действуют докторантурные советы по психологии.

В стране имеются вузы из разных стран, что создает конкуренцию образовательных систем. Международная интеграция предоставляет широкие возможности для получения психологического и профессионального психологического образования и подтверждения квалификации в международных вузах – российских, европейских. Преимущество таких возможностей состоит в получении образования как на узбекском, так и на русском языках, что важно для работы в условиях многоязычных студенческих сообществ.

В Узбекистане к наиболее приемлемым направлениям следует отнести психологическое образование (особенно прикладная психология) и образование в области социальной деятельности. Для страны пока не востребована специализация по психологическому консультированию. Вследствие нехватки магистерских программ затрудняется привлечение в Психологическую службу специалистов с магистерской степенью, хотя в силу требования о наличии базового психологического или связанного образования для работников Психологической службы в условиях Узбекистана это можно реализовать. Базовое профильное образование вполне может быть заменимо присуждением учёной степени

либо получением дополнительного образования, в том числе и в российских вузах, широко представленных на образовательном рынке нашей страны.

Рассматриваемый стандарт перечисляет основные функции и их обязательное закрепление за профессиональным штатом Психологической службы, а также конкретные особенности организации их работы. Здесь следует указать на некоторые важные рекомендации IACS. Например, по должности директора рассматривается ситуация смешанных служб, совмещающих собственно психологическую работу с другими направлениями своей деятельности. В данном случае требуется непременное соответствие принципу административной автономии психологического направления. Данное условие очень важно для вузов Узбекистана, где ответственным были другие подразделения, не имеющие жёстких профессиональных и этических требований, в том числе связанных с конфиденциальностью.

Согласно стандарту, имеются ограничения относительно рабочей нагрузки специалистов. По рекомендациям IACS, она обусловлена прямым контрактом со студентами и не должна превышать 65% от всего рабочего времени. Специалист должен располагать достаточным временем для реализации других задач. Соблюдение такого требования служит критически важным условием для обогащения профессиональными компетенциями и потенциалом работников Психологических служб.

Одна из важнейших особенностей вузов Узбекистана, как и многих других стран – дефицит ресурсов на создание Психологических служб. Для решения задач Психологической службы большую роль играет минимизация потребностей в труде квалифицированных специалистов. Одно из универсальных решений – привлечение лиц, не являющихся штатными сотрудниками, но обладающими нужными компетенциями: стажеров, практикантов, студентов-добровольцев. Стандарт IACS признает потенциал этого источника кадровых ресурсов и допускает их привлечение к работе Психологической службы. В условиях Узбекистана следует максимально использовать возможности привлечения несертифицированных, но компетентных лиц.

В анализируемом разделе стандарта предусматривается допуск других категорий работников Психологической службы. К ним относятся административный персонал, аспиранты, преподаватели и др., в обязанность которых вменялось строгое соблюдение профессиональных и этических требований Психологической службы.

Раздел 5. Ресурсы и инфраструктура. В данном разделе стандарта дается описание требований к ресурсному обеспечению Психологической службы. В основном требования трудновыполнимы в полной мере, но способны существенно влиять на возможности Психологической службы и эффективность её работы. В таблице приведены некоторые наиболее важные требования к ресурсам службы, а также охарактеризованы особенности и сложности их выполнения в вузах Узбекистана.

Выполнимость отдельных требований IACS относительно ресурсов и инфраструктуры Психологической службы в вузах Узбекистана

Требование стандарта	Возможности выполнения требования
1 Основной персонал службы должен регулярно участвовать в профессиональном развитии как на рабочем месте, так и в ходе специальных мероприятий.	2 Возможности профессионального развития ограничены доступностью качественных очных программ и мероприятий в релевантных областях психологии и смежных дисциплин. Частично может компенсироваться за счет дистанционных мероприятий (курсов, семинаров, конференций и др.), в том числе международных. Возможности профессионального развития особенно ограничены для узбекоязычных специалистов.
Консультационные ресурсы: сотрудники службы должны иметь доступ к консультациям в таких областях, как психофармакология, психодиагностика, разработка программ, психиатрия и др.	В крупных мультидисциплинарных вузах такие ресурсы могут быть доступны внутри организации, однако, это требует решения организационных вопросов. В остальных случаях удовлетворение потребностей в подобных консультациях требует выстраивания отношений с партнерами за пределами организации: клиниками, государственными структурами, другими вузами. Перспективным способом решения проблемы может быть создание межвузовских ресурсных центров.

Продолжение таблицы

1 В штат Психологической службы должно входить не менее двух полных ставок. Рекомендованная общая численность профессионального состава службы, без учета стажеров, составляет 1 ставку на 1000–1500 студентов.	2 В вузах, в которых есть лишь одна ставка психолога, ключевое требование не выполняется. Организация Психологической службы требует создания отдельной структуры как минимум с двумя ставками (директора/руководителя и специалиста/психолога). Для абсолютного большинства вузов выполнение норматива численности представляется невозможным. Для крупных вузов оно предполагало бы создание служб с 20–30 штатными единицами, что в настоящее время неосуществимо, особенно с учетом требования не превышать долю от рабочей нагрузки в 65% для непосредственного взаимодействия с клиентами.
Психологическая служба должна иметь собственный бюджет и возможность самостоятельного управления этим бюджетом.	Выполнение этого требования предполагает организационное обосновление службы. В большинстве вузов Узбекистана в настоящее время это требование не выполняется. Необходим переход от модели штатного

	психолога к модели выделенной организационной единицы.
Вознаграждение сотрудников службы должно обеспечивать их мотивацию и быть сопоставимым с другими профессиональными позициями в вузе и на рынке труда.	Выполнение данного требования возможно, однако, требует соответствующих управленческих решений.
Психологическая служба должна располагаться в отдельном помещении на территории кампуса, быть изолированной от административных подразделений и службы безопасности, а также доступной для людей с ограниченными возможностями здоровья.	Данное требование является труднореализуемым без выделения Психологической службы в отдельное подразделение и принятия управленческих решений об их ресурсном обеспечении.
У каждого специалиста должен быть отдельный звукоизолированный кабинет с мебелью и техникой, обеспечивающий комфортную среду для студента.	Хотя на начальном этапе индивидуальное консультирование может быть реализовано лишь в ограниченных масштабах, оно является базовой формой оказания психологической помощи. Поэтому организация службы должна предполагать создание хотя бы одного кабинета, пригодного для индивидуальных консультаций.
Служба должна иметь доступ к помещениям, позволяющим организовывать встречи сотрудников и проводить групповые сессии.	Поскольку групповое консультирование является приоритетным направлением на начальном этапе развития службы, целесообразно выделение отдельного помещения для групповых сессий, организованного соответствующим образом.
Психологическая служба должна располагать отдельной зоной ожидания, обеспечивающей приватность и не позволяющей окружающим идентифицировать студентов как посетителей служ-	Выполнение данного условия требует не только пространственной организации и дизайна места расположения службы, но и соответствующей культуры со стороны сотрудников и администрации вуза, признающей важность

1	2
бы. Камеры видеонаблюдения должны быть расположены таким образом, чтобы не нарушать приватность и конфиденциальность получения помощи.	создания комфортных и безопасных условий для посетителей Психологической службы. Такие условия необходимы для формирования доверия со стороны обучающихся и их готовности обращаться за профессиональной помощью.
Психологическая служба должна располагать необходимыми техническими и информационными ресурсами для эффективной работы, включая компьютерную и оргтехнику, защищенный доступ в Интернет, системы аудио- и видеосвязи, справочные ресурсы, библиотеку,	Базовый набор технических средств и справочных ресурсов в электронном виде может быть обеспечен в большинстве вузов Узбекистана. Однако подписка на профессиональные журналы является труднореализуемым требованием. Имеются также сложности с обеспечением специальной литературой, справочными и методическими

подписку на профессиональные журналы.	материалами на узбекском языке. Решение этой проблемы может быть связано с созданием межвузовского ресурсного центра.
Страхование ответственности специалистов за возможные ошибки и нарушения в ходе профессиональной деятельности.	Требование в настоящий момент является нереализуемым посредством стандартных механизмов страхования. Однако в качестве альтернативы может быть реализовано посредством пунктов об ответственности в трудовых договорах сотрудников и утверждением внутренней политики, гарантирующей компенсации обучающимся в случае ошибок или нарушений со стороны службы.

Согласно стандарту IACS, в различных культурных и региональных контекстах могут присутствовать свои особенности, поэтому им допускается определённая гибкость относительно выдвигаемых требований. Наряду с этим в стандарте нет определения многих важных аспектов деятельности Психологических служб. В частности, это установление взаимодействия с внешними партнёрами либо оказание преподавателям и сотрудникам вуза психологических услуг. Несмотря на указанные недочёты, стандарт по праву занимает позицию отправной точки при разработке модели организации Психологической службы, которая способна быть эффективной в образовательной системе высшей школы Узбекистана.

Список использованной литературы

IACS Standards / IACS. URL: <https://iacsinc.org/iacs-standards/>.

Закон Республики Узбекистан от 2 июля 2019 г. № ЗРУ-547 «О персональных данных» // URL: <https://lex.uz/docs/4396428> (дата обращения: 27.01.2025).

Типовые порядки в сфере обработки персональных данных // Azizov & Partners. 05.01.2024. URL: <https://azizovpartners.uz/ru/memos/tipovye-poryadki-v-sfere-obrabotki-personalnyh-danniy/> (дата обращения: 27.01.2025).

Тиллабоев Ш. Имплементация опыта Великобритании и Европейского Союза в сфере защиты персональных данных в законодательство Республики Узбекистан // Юрист ахборотномаси. – 2022. – 3 Сон. 2 Жилд. С. 125–130.

Ходжанова М. А. Сравнение нормативно-правового обеспечения защиты персональных данных в зарубежных странах и в Узбекистане // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Vol.4 (5). – 2024. – P. 463–472.

Туйчиева Х.Н., Каххарова М.М. Повышение правовой культуры в системе образования Республики Узбекистан // Общественные и гуманитарные науки. – Минск: Белорусский государственный технологический университет, 2020. – С. 51–53.

Ханбекова А.Т., Косимова М.М., Темирова С.В., Раҳимова М.И. Высокая правовая культура – гарантia развития страны // Academic research in educational science. TSTU Conference 2. Vol. 3. – 2022. – P. 509–517.

Universal Declaration of Ethical Principles for Psychologists / International Union of Psychological Science. URL: <https://www.iupsys.net/about/declarations/universal-declaration-of-ethical-principles-for-psychologists/> (дата обращения: 28.01.2025).

YOSHLARDA INFORMATSION STRESS NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK MANBALARI

Ismoilova Nurjaxon Zuxuriddinovna,
TDPU, "Psixologiya" kafedrasи prof.v.b., psixol.f.d. (DSc)

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kun yoshlarida informatsion stressni keltirib chiqaruvchi omillar haqidagi ma'lumotlar, yoshlarda bu jarayonning fiziologik kechishiga ta'sir ko'rsatuvchi holatlar va ularning qay tarzda kechishi haqidagi nazariy ma'lumotlar nazariy jihatdan tahsil qilib berilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar, stress, informatsion stress, zo'riqish, stressogen, stress-ta'sir, stressli vaziyat

Аннотация. В данной статье теоретически анализируются сведения о факторах, вызывающих информационный стресс у современных молодёж, условия, влияющие на физиологическое течение этого процесса у молодёж, и теоретические сведения о том, как они происходят.

Ключевые слова: молодёж, стресс, информационный стресс, напряжение, стрессор, стресс-эффект, стрессовая ситуация

Rezyume. This article theoretically analyzes information about the factors causing information stress in modern youth, the conditions influencing the physiological course of this process in young people, and theoretical information about how they occur.

Keywords: youth, stress, information stress, tension, stressor, stress effect, stressful situation

Kirish. Bugungi kun yoshlari zamon bilan hamnafas bo'lishga intilishini qondirish maqsadida juda ko'p informatsiyalar oqimini o'zlashtirishga harakat qilmoqda. Bu intilishlar "vaqt tanqisligi" yoki "informatsiyalar oqimining nihoyatda ko'pligi" kabi omillar natijasi sifatida bugungi yoshlarda o'ziga xos holatda psixologik (informatsion) stress holatini keltirib chiqarayotganligi kuzatilmoqda.

Asosiy qism. Bizga ma'lumki, stressorning turiga va uning ta'sir etish xarakteriga ko'ra stressning turlari farqlanadi. Umumiy klassifikatsiya nuqtai nazaridan stress ikkiga - fiziologik va psixologik stressga bo'linadi. Psixologik stress ham o'z navbatida ikkiga - informatsion va emotsiyal stressga farqlanadi. Informatsion stress axborotlar oqimining ko'pligi natijasida berilgan vazifani uddalay olmaganda yoki katta javobgarlik ostidagi uning qarori hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lganda talab etilgan darajada to'g'ri qaror qabul qila olmagan vaqtarda paydo bo'ladi.

Aynan bugungi kun yoshlari misolida oladigan bo'lsak, zamonaviy yoshlarda informatsion stress axborotlar oqimining nihoyatda ko'pligi, ularni o'zlashtirish uchun vaqtning tanqisligi yoki yoshlarning shaxsiy kognetiv imkoniyatlarining etishmasligi natijasida kelib chiqayotganligini kuzatish mumkin.

Kengroq ma'noda oladigan bo'lsak informatsion stress, yoshlar o'quv faoliyatini amalga oshirish jarayonida o'ziga yuklatilgan vazifa va topshiriqlarni uddalash uchun o'ta zo'r berib ishlashi, o'ziga imkoniyati etmaydigan darajada yuklamalar yuklashi, bu jarayonda yuqori javobgarlik hissini sezishi, yuzaga kelgan vaziyatlarni hal qilishi va echishda to'g'ri qaror qabul qila olmasdan siqilishi kabi yoshlarning organizmi uchun ham, ruhiyati uchun ham yuzaga keladigan ortiqcha zo'riqishlar vaziyatida yuzaga keladi.

Bugungi zamonaviy yoshlar hayot tarzining o'ziga xos muhim jihatlaridan biri - yoshlarning psixologik ekologiyasini buzib, uning hayot faoliyatini "informatsion ifloslanishi"ga olib keladigan ortiqcha informatsiyalarning mavjudligi hisoblanadi. Bularga nafaqat yoshlarning tor doiradagi va o'quv faoliyati bilan bog'liq ravishda faol to'qnash keladigan axborotlarni qabul qilishi, shu bilan birga, umumiy holda qabul qilinadigan va foydalaniladigan ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatiladigan axborotlar ham kiradi. Hatto oxirgi informatsiya turini ommaviy axborot emas, balki manipulyativ axborot deb atasak to'g'riroq bo'lardi.

Bugun internet tarmoqlaridagi ayrim axborotlar yoshlar auditoriyasiga shu darajada ustomonlik bilan singdiriladiki, natijada bu informatsiyalar yoshlar tomonidan passiv yoki istalmagan holda bo'lsa ham qabul qilishi ta'minlanadi. Quyidagi holatlarda axborotlar yoshlar tomonidan majburan qabul qilinadi:

- axborotlar yoshlarning ongiga suggestiv nutq vositalari ta'siridan foydalaniladigan yashirin psixotexnik vositalar orqali ta'sir o'tkazish yo'li orqali uzatilganda;
- ko'p marotaba takrorlash orqali shartli reflekslarni shakllantirish qoidasiga amal qilgan holda ma'lumotni majburan qabul qildirish va mustahkamlashga harakat qilinganda, bu hol ma'lum bir ijtimoiy tarmoqlar tomonidan amalga oshirilishi va aynan qaysidir qiziqarli ma'lumotni kutib o'tirilganda reklama tarzida berilishi mumkin;
- axborotni majburan almashtirilganda yoki reklamaning axborotga mos kelmasligi va reallikning

yo‘qligi kuzatilganda;

• va nihoyat, insonning instinktlari (qo‘rqitish, agressiya va h.k.) ga apellyatsiya yo‘li bilan ta’sir ko‘rsatish, yolg‘on sensatsiyalardan foydalanish, “pashshadan fil yasash”, mistikani aralashtirish yo‘llari orqali ma’lumotlar uzatilganda.

Yoshlar ongiga tushayotgan informatsiyalarning bunday shiddatli oqimi ularda albatta informatsion stressga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida, oldi olinmasa oxir-oqibat yoshlarning “informatsion nevroz”ga chalinisha olib kelishi mumkin. Informatsion stress va informatsion nevroz zamonaviy yoshlar hayot tarzining ajralmas qismiga aylanib qolaverishining oldini olish uchun nimalar qilish mumkin?

Informatsion stressning o‘rganilishi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarning aksariyati kompyuter texnologiyalari bilan ishlaydigan ish o‘rnlari egalari bilan bog‘lab olib borilgan. Va ularning barchasida shaxsnинг ekstremal vaziyatlarda shaxsiy xulq-atvor reaksiyasi ham ko‘rib chiqilgan.

Ko‘pgina tadqiqot natijalariga ko‘ra, inson qabul qilishi lozim bo‘lgan axborotlar o‘ta ko‘p bo‘lsa va uni qabul qilish uchun vaqt tig‘iz bo‘lsa hamda bu axborotni qabul qilishda katta mas’uliyat talab etilsa, va nihoyat mas’uliyatli qaror qabul qilishga majbur bo‘lsa, bunday holatlarda yoshlarda informatsion nevroz paydo bo‘ladi. Bunda mas’uliyatlilik omili axborotning qimmatliligi va xatolarga yo‘l qo‘ymaslikka e’tibor qaratish bilan bog‘liq ravishda mobilizatsiya holati yoki ruhiy zo‘riqishni aks ettiradi. Bu holat vaziyatl-shartlangan bo‘lganini hisobga olgan holda aytish mumkinki, uni ruhiy zo‘riqishsiz o‘tkazsa ham bo‘ladi. Qabul qilinayotgan informatsiyaning hajmi hamda uni tahlil etish tezligi bilan bog‘liq bo‘lgan ikki omil nospesifik hisoblanadi. Ya’ni ular, aynan “sivilizatsiyaning yuki” va zamonaviy jamiyatning “hayot qiyinchiliklari” bilan chambarchas bog‘liqdir..

Buni shunday tushunish mumkin: miyaning fikrlash ya’ni, dasturlash ta’mnoti murakkablashadi, ammo uning “texnik bazasi” avvalgidayligicha qoladi, natijada ular bir-biriga unchalik mos kelmay qo‘yadi. Inson miyasi axborotni bir tomonlama, mantiqiy, nutqiy qayta ishlashga yuqori darajada moslashmagan. Avvaliga inson miyasi shunga o‘xshash amallarni bajarishga anchagina kuch sarflaydi, ya’ni u o‘z resurslarini behudaga, kerakmas va o‘zi etarlicha moslashmagan faoliyatlarga tarqatish orqali sarflay boshlaydi. Shu sababli axborotni qayta ishlash bilan bog‘liq bo‘lgan zo‘riqish reaksiyasini – informatsion stressni keltirib chiqaradi.

N.M.Sandomirskiyning fikricha, “yaqin kunlargacha biz informatsion stressning insonning miyasiga ta’siri haqida gapirgan bo‘lsak, endilikda informatsion stress inson nutqni o‘zlashtirganidan boshlab inson miyasini ta’qib eta boshlashi” haqidagi ma’lumotlar ham yuzaga kela boshladи. Shuning uchun, yoshlarning miyasiga singdirilayotgan doimiy informatsion bosim uning rivojlanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlish lozim. Miyaning rivojlanishiga ko‘rsatiladigan ta’sir undagi faol informatsion yuklanish bilan bog‘liq.

Bugungi yoshlarning o‘quv faoliyat davri va undan keyingi faoliyat davrida ham “ta’limiy” stress informatsion stressga qo‘silib boradi. Yoshlarda informatsion stressni yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan stressogen vaziyatlar sifatida axborotlarning katta hajmi va uni o‘zlatirish uchun vaqt tanqisligi o‘rtasida nomutanosiblikning yuzaga kelishini alohida ta’kidlab ko‘rsatish lozim. Bunday holatda yoshlar axborotni tahlil qilmasdan o‘zlashtirish yo‘lidan boradi, ya’ni u axborotning mohiyatini tahlil qilmaydi, uning asoslari haqida mustaqil fikr yuritmaydi. Boshqacha qilib aytganda, yoshlar mustaqil fikrlamaslikka o‘rgandi, ya’ni ularda mustaqil fikrlash ko‘nikmasi susayib boraveradi. Bunday yoshlarlar odatda o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan matnni mexanik takrorlash yo‘li bilan yodlaydi yoki ijtimoiy tarmoqlarda ko‘rganlarini muhokama qilmasdan qabul qiladi. Natijada nafaqat axborotlarning mohiyatini, balki hayotning, qadriyatlarning, urf odat va an’analarning ham mohiyati haqida fikr yuritmaslikka qarab boraveradi. Ayniqsa, oson yo‘l bilan o‘zgalarning tayyor fikrini o‘ziniki qilib oladi – bularning barchasi bitta natijaga olib keladi - ta’lim oluvchining fikrlash qobiliyati, ya’ni o‘z miyasining imkoniyatlaridan to‘g‘ri va keraklicha foydalana olish shakllanmay qolaveradi.

Ma’lumotlarda qayd etilishicha, real yoki potensial xavf-xatar, zarar, yo‘qotish, qiyinchilik kabi vaziyatlar haqida informatsion tasavvurlarning shakllanishi kognetiv jarayonlar yordamida amalga oshirilar ekan. Ma’lumotlarning bu tarzda turli psixik jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi asosida o‘zlashtirilishi unga nisbatan tanlab munosabatda bo‘lishga olib keladiki, buning natijasida ma’lum bir ahamiyatga ega bo‘lgan informatsiyalar tanlab olinadi, bu esa xotirada ma’lumotlarning uzilishiga olib keladi.

Bir qancha adabiyotlarda shaxs bajarayotgan faoliyatining funksional ishonchiligi u boshqarayotgan ob‘ektning holatiga qanchalik to‘g‘ri va o‘z vaqtida o‘zgartirishlar kiritilishi olib keladi.

Faoliyatning muvaffaqiyati, uning foydaliligi va funksional ishonchliligi shu faoliyat jarayonining real mazmuni, adekvatligi, to‘liqligi, rivojlanish darajasi orqali aniqlanadi. Agar bu holatlarda buzilish sodir bo‘lsa albatta faoliyatning boshqarilishi va bajarilishida qiyinchiliklar paydo bo‘ladi.

Faoliyatning informatsion asosi. Faoliyatning informatsion asosi tushunchasi faoliyatning predmetli va sub’ektiv sharoitlarini tavsiflaydigan hamda faoliyatni “maqsad-natija” holatida tashkil etishga imkon beradigan ma’lumotlar yig‘indisi sifatida tushuniladi.

Faoliyatning informatsion asosi uch xil darajada shakllanadi:

1) sensor-perseptiv daraja - zarur ma’lumotlarni o‘zida jamlovchi signallarni aks ettiruvchi (idrok etuvchi) qonuniyatlarga asoslangan holda shakllanadi;

2) kognitiv daraja – signallarning funksional ahamiyatini baholash tarzida, ya’ni ma’lumotlarning ishlab chiqarish faoliyatidagi qimmati, shuningdek bu ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash va ulardan foydalanish tarzida shakllanadi;

3) obrazli-operativ daraja – faoliyatni rejalashtirish va boshqarishni amalga oshiradigan ma’lumotning alohida belgilarining yaxlit holatda jamlanishi qonuniyatlariga asoslangan holda shakllanadi.

Har qanday faoliyat davomida bu uch daraja o‘zaro aloqada va o‘zaro ta’sirda bo‘ladi. Bu darajalardan istalgan birida sodir bo‘ladigan buzilishlar shaxsning faoliyati davomida ishonchsizlikni keltirib chiqaradi va zo‘riqishni kuchaytiradi.

Ayni kun yoshlarida bu holni tahlil etadigan bo‘lsak, ularda shu darajalarda buzilishlar sodir bo‘lib turishi zo‘riqishlarni kuchaytirib, informatsion stressni keltirib chiqarayotganligini kuzatish mumkin.

Xulosa. Informatsion stress sub’ektning ekstremal signal yoki vaziyat davomidagi stress-ta’sirning xavfiliqini aynan o‘z-o‘zicha qanday baholashiga bog‘liq bo‘ladi. Shuni alohida qayd etish lozimki, aynan real stressli vaziyatning o‘zagina emas, balki uning tasavvur etilishi ham xavf soluvchi sifatida qabul qilinaveradi va bu ham informatsion stressni keltirib chiqaradi. Shunga ko‘ra, biz bugungi kun yoshlarida informatsion stressni o‘rganishga yordam beradigan metodikalar bankini yaratishimiz va shu asosda ularni informatsion stressga barqarorligini oshirishni o‘z vazifalarimiz qatoriga kiritishimiz maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бодров В. А. Психологический стресс: развитие учения и современное состояние проблемы. М.: Изд-во «Институт психологии РАН», 1995.
2. Бодров В.А. Информационный стресс. М.: Изд-во «Институт психологии РАН», 1997.
3. Бодров В. А. Психологический стресс: развитие и преодоление. М.: ПЕР_СЕ, 2006.
4. Сандомирский М.Е. Защита от стресса. Питр, 2008

BOSHQARUV FAOLIYATINING: TARIXIY, ILMIY-NAZARIY VA PSIXOLOGIK TAHLILI

Mamatqulova Komila

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, dotsenti, p.f.f.d., (PhD)

Annotatsiya. Maqolada boshqaruv faoliyatining: tarixiy, ilmiy-nazariy va psixologik jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, boshqaruv jarayonlarida vujudga kelayotgan zamonaviy talablar sifatida: pedagogik jarayonlar ishtirokchilarida o'zaro munosabatlarni, sub'yekt-ob'yekt va sub'yekt-sub'yekt munosabatlarini tahlil qilish va muvofiqlashtirish, boshqaruvining zamonaviy texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish, rahbarning boshqaruv kompetentligini rivojlantrish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: rahbar, sub'yekt-ob'yekt, sub'yekt-sub'yekt, tarixiy, ilmiy-nazariy va psixologik, zamonaviy talablar, rahbar kompetensiyasi.

ANALYSIS OF MANAGEMENT ACTIVITY: HISTORICAL, SCIENTIFIC-THEORETICAL, AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS

Komila Mamatqulova

Associate Professor, PhD, Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Abstract: The article analyzes management activity from historical, scientific-theoretical, and psychological perspectives. Additionally, it discusses the modern demands arising in management processes, such as: analyzing and coordinating interrelations between participants in pedagogical processes, subject-object and subject-subject relationships, applying modern management technologies in practice, and addressing issues of developing leadership competencies.

Keywords: leader, subject-object, subject-subject, historical, scientific-theoretical and psychological, modern demands, leadership competence.

АНАЛИЗ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ: ИСТОРИЧЕСКИЙ, НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АСПЕКТЫ

Комила Мамадкулова

Доцент, PhD, Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами

Аннотация. В статье проводится анализ управленческой деятельности с исторической, научно-теоретической и психологической точек зрения. Также рассматриваются современные требования, возникающие в процессе управления, такие как: анализ и координация взаимоотношений участников педагогических процессов, субъект-объектные и субъект-субъектные отношения, применение современных технологий управления на практике, а также вопросы развития компетенции руководителя.

Ключевые слова: руководитель, субъект-объект, субъект-субъект, исторический, научно-теоретический и психологический, современные требования, компетенция руководителя.

Kishillik jamiyatida boshqaruv faoliyatini takomillashtirish va unda inson omiliga e'tibor masalasi har doim dolzarb bo'lib kelgan. Boshqaruv jarayonlarida vujudga kelayotgan zamonaviy talablar sifatida: pedagogik jarayonlar ishtirokchilarida o'zaro munosabatlarni, sub'ekt-ob'ekt va sub'ekt-sub'ekt munosabatlarini tahlil qilish va muvofiqlashtirish, boshqaruvining zamonaviy texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish, rahbarning boshqaruv kompetentligini rivojlantrish masalalarini keltirish mumkin.

Sharqona qarash va yondoshuvlar boshqaruv faoliyatining nazariy va amaliy jihatlarini chuqur tahlil qilib, rahbarlik qobiliyatining muximligini ta'kidlaydi. Mutafakkir ajodolarimiz boshqaruvdaadolatli va adolatsiz munosabatlarning yuzaga kelishi rahbar shaxsiga bog'liq ekanligini alohida ta'kidlashgan. Bu fikrlar asosida, rahbarning shaxsiy fazilatlari, halolligi, insofliyi va adolatli munosabati boshqaruv samaradorligini belgilaydi deb ta'kidlashgan.

Buyuk mutafakkirlar boshqaruv haqida turli fikrlar va ta'limotlarni taqdim etganlar. Ularning fikrlari boshqaruvning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur tahlil qilib, rahbarlik, tashkilotchilik va ijtimoiy munosabatlarning muximligini ta'kidlaydi. Qadimgi zamonlardan boshlab, buyuk mutafakkirlar boshqaruvning asosiy rivojlanish- bosqichlarini shakllantirishga hissa qo'shganlar.

Shaxs va jamiyat munosabatlarini boshqarish, odil hukmdor, adolatli rahbarga qo'yilgan talablar, jamoa bilan to'g'ri munosabatni yo'lga qo'yish masalalalari Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Farobi, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Xasan ibn Ali Tusiy, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Alisher Navoiy va boshqa buyuk allomalar asarlarida uchratish mumkin.

Abu Nasr Farobi (870–950) – o'rta asrlarning ulug' mutafakkiri, falsafa, ma'rifat va ilm sohalarida chuqur izlar qoldirgan olim. Uning boshqaruv haqidagi fikrlari ayniqsa "Fozil odamlar shahri" ("Al-Madinat al-Fozila") asarida bayon etilgan. Farobi boshqaruvning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur tahlil qilib, ideal jamiyat va uning boshqaruvi qanday bo'lishi kerakligini ko'rsatgan.

Sharqda ilk Uyg'onish davrining qomusiy olimlaridan biri Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Al-Beruniy jamiyatni boshqarishda jamiyat podshoga xizmat qilmay, balki podsho jamiyatga xizmat qilishi kerakligini ta'kidlagan holda: "idora qilish va boshqarishning mohiyati aziyat chekkanlarning huquqlarini himoya qilish, birovlarning tinchligi yo'lida o'z tinchligini yo'qotishdan iborat" [1;74-6].

Jaloliddin Davoniy ham o'zining mashhur asari "Axloqi Jaloliy" kitobida inson kamoloti uchun zarur axloqiy fazilatlar yo'llari va usullarini bayon etib, unda muhim ijtimoiy-siyosiy masalalar ko'tarilgan, bundan tashqari boshqaruv jarayonida kerak bo'ladigan shaxsiy sifatlar, boshqaruv borasidagi qarashlar yoritib berilgan.

Shaxs va jamoa o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, jamoani boshqarish san'ati "Avesto" da ham o'ziga xos tarzda yoritilgan. "Avesto" da keltirilishicha, jamoani boshqargan shaxs "kavi" yoki "sastra" deb nomlangan. Lekin jamoat ishlarini boshqarishda "varzanopati", ya'ni oqsoqollar kengashiga murojaat qilingan. Zardo'shtiylik dini ta'limotiga ko'ra, har bir kavi iymonning uch aqidasiga tayanmog'i, ya'ni: fikrlar sofligi, so'zning sobitligi, amallarning insoniyligi kabilardir. Demak, rahbarning jamoani samarali boshqaruvi uning kommunikativ kompetentligiga bog'liqligi, jamoa bilan konstruktiv munosabatlarni o'rnatish qobiliyatiga ega bo'lishi, vaziyatni to'g'ri baholay olishiga bog'liqdir.

Abdurahmon Jomiy esa adolatli shohning eng ollyjanob fazilati bu odillikdir va odillik nurga qiyosdir deb ta'kidlagan. Shuningdek, ma'rifatparvar shaxs Ahmad Donish fikriga ko'ra, agar boshqaruvchi odil va donishmand bo'lsa, halqni qashshoqlikdan saqlab qolishi mumkin. Davlat bir gurux kishilargagina emas, balki xalq manfaatlariga xizmat qilishi zarur. Buning uchun esa, xukmdor shaxsi bilimdon, odil, donishmand bo'lmogi lozim. deya, fikr yuritgan. Shuningdek, Sohibqiron Amir Temurning "Temur tuzuklari"ni o'rganish orqali, boshqaruvning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish mumkin.

Tadqiqot yuzasidan o'rganilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadi, sharq mutafakkirlari qarashlarini boyitgan holda, boshqaruv xususida xalqimizning juda ko'plab atoqli shoir va davlat arboblari ham o'z fikrlarini bildirganlar. Jumladan: buyuk mutaffakkir bobomiz Nizomiddin mir Alisher (1441–1501) o'zining "Saddi Iskandariy" [8] dostonida jamiyatni adolat bilan boshqarish uchun shaxsda mavjud bo'lishi lozim bo'lgan sifatlar majmui Iskandar obrazi orqali bayon etilgan.

Xusain Voiz Koshify (1463–1532) – o'rta asrlarning ulug' mutafakkirlaridan biri bo'lib, u falsafa, adabiyot, tasavvuf va boshqaruv masalalari bo'yicha chuqur fikrlarni bayon etgan. Uning boshqaruv haqidagi qarashlari ayniqsa "Axloki Muhsiniy" (Muhsiniy axloqi) kabi asarlarida aks etgan. Koshifyning boshqaruv haqidagi fikrlari davlat boshqaruvi, rahbarlik va ijtimoiy adolatning asosiy prinsiplarini tahlil qilishda muxim ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar tahlil qilinganda boshqaruvning ma'nosi quyidagi yo'nalishlarda mavjud. Masalan, o'z vaqtida boshqaruv fanining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan, boshqaruv nazariyasi asoschilaridan biri fransuz olimi A.Fayol boshqarishni kelajakni ko'ruchchi; tashkilotni idora qiluvchi; faoliyatni tashkillashtiruvchi; faoliyat turlarini muvofiqlashtiruvchi; qaror va buyruqlar ijrosini nazorat qiluvchi kuchli quroq deb ataydi.

B.C.Lazarev, G.X.Popov, M.M.Potashnik, A.Fayollarning fikriga ko'ra boshqaruv bu faoliyat demakdir. Bunday yondashish ta'lim jarayonini unda ishtirot etuvchi shaxslarga bog'liq bo'lmagan xolda o'rganishda asqotadi [3;157-6].

L.B.Itelson, A.A.Orlovlar nuqtai nazariga ko'ra boshqaruv bir tizimning ikkinchisiga ko'rsatgan ta'sirini aks ettiradi. Bunda boshqaruv sub'ektning boshqaruv ob'ektiga ko'rsatadigan maqsadga yo'naltirilgan va ob'ektning o'zgarishiga olib keladigan ta'siri sifatida qaraladi. Bunday yondashish boshqaruvning sub'ektlararo tabiatini e'tiborga olmaydi, chunki faollik faqat boshqaruvchi tomonidan amalga oshirilishi ko'zda utiladi, boshqariluvchi esa hech qanday aks ta'sir qobiliyatiga ega bo'lmagan passiv element sifatida qaraladi.

N.P.Kapustin, P.I.Tretyakov, T.I.Shamovalar boshqaruvni sub'ektlarning o'zaro ta'sir faoliyati sifatida e'tirof etadi. Bunda o'zaro ta'sir ishtirok etuvchilarning barchasida o'zgarishlar yuz berishini va mazkur o'zgarishlar, ma'lum darajada, bir-biriga bog'liqlikda namoyon bo'lishi e'tirof etiladi. Mazkur yondashuvning mohiyati bir-biriga ta'sir etuvchi sub'ektlardagi o'zgarishlarning mutanosibligi va sub'ektlararo o'zaro to'g'ri va teskari aloqalarning uzviy bog'liqligini e'tirof etilishidir.

Muhammad Gabdulgalimovich Davletshin (1923–2011) O'zbekistonda psixologiya fanining asoschilaridan biri bo'lib, uning ilmiy ishlari umumiy, pedagogik, yosh va ijtimoiy psixologiya sohalariga bag'ishlangan. Uning "Ijtimoiy psixologiya muammolari va ularni odamlar bilan ishlashda qo'llash" (1990) asarida ijtimoiy psixologiyaning turli jihatlari, jumladan, boshqaruvdagi inson omillari haqida so'z boradi.

E.G'oziev boshqaruv sohasidagi tadqiqotlarida munosabatlar psixologiyasi, jamoa rahbarining nufuzi, rahbar tipologiyasi, rahbarning shaxsiy va kasbiy qobiliyatları, boshqaruv qarorini qabul qilish masalalariga alohida to'xtalgan.

G'.B.Shoumarov ijtimoiy psixologiyaning turli yo'naliislari qatorida boshqaruv masalalarini ham chuqur tadqiq etgan. Xususan, u rahbar shaxsiga qo'yiladigan psixologik talablarni tahlil qilib, ular orasida ijtimoiy-psixologik kompetentlikka alohida e'tibor qaratgan. Shuningdek, rahbarning mazkur kompetentlik jihatlarini namoyon etish xususiyatlarini atroficha yoritib bergen [9;54-6].

Mamlakatimizda boshqaruv psixologiyasi masalalari bo'yicha ilmiy maktab yarata olgan yetakchi olimlardan biri I. Maxmudov rahbar shaxsida shakllanishi lozim bo'lgan sifatlarni uch asosiy toifaga ajratadi: motivatsion-irodaviy, intellektual va kommunikativ xususiyatlar [6;170-6].

Mamlakatimiz yetakchi psixolog olimalaridan V.M.Karimovaning ta'kidlashicha esa, ijtimoiy-psixologik kompetentlikga ega rahbar:

- atrofdagilarning qiziqishlarini tushuna oladi;
- atrofdagilarning his-tuyg'ularini, ularning o'zini tutishi, yuz ifodasi, so'zlarni tanlashi va gap ohangidan to'g'ri tushunadi va sezal oladi;
- u yoki bu holatga atrofdagilarning javob reaksiyasini sezal oladi;
- g'oya va takliflarni diqqat bilan eshitadi;
- atrofdagilarning ham kuchli, ham nozik tomonlarini e'tiborga oladi;
- aytib tugatilmagan ma'noni tushuna oladi;

atrofdagilar qanday mavzularda gaplashishlaridan qat'iy nazar qiziqish bilan munosabatda bo'lish orqali, ularning e'tiborini qozonadi [5;].

V. Tarasov o'z tadqiqotlari natijasiga ko'ra, menejmentidagi yetti xil boshqaruv uslubini farqlaydi. Jumladan:

Darhaqiqat, mamlakatimiz olimlari tomonidan boshqaruv va rahbarlik psixologiyasiga oid masalalar bilan bir qatorda, professional kompetentlik muammosi ham keng tadqiq etilgan. Jumladan, Sh.H. Abdullaeva o'z tadqiqotlarida pedagoglarning professional kompetentligini shakllantiruvchi assosiy komponentlarni aniqlab, ularning pedagogik faoliyat samaradorligiga ta'sirini ilmiy asosda tadqiq etgan [2;61-6].

M.B. Narzullayeva o'z tadqiqotlarida boshqaruv jarayonidagi nizolarning zamonaviy tushunchasini tahlil qilib, ularni o'rganishdagi ilmiy yondashuvlarni ochib bergen. U nizoli vaziyatlarning boshqaruv faoliyatiga ta'sirini o'rganib, ularning konstruktiv o'zaro ta'siri mohiyatini ilmiy asoslab bergen. Shuningdek, menejerlarning nizoli vaziyatlarda konstruktiv munosabat o'rnatishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni empirik tadqiqotlar orqali aniqlagan [7;49-6].

Psixologiya sohasining boshqaruv psixologiyasi masalalariga oid tadqiqotlari bilan yetakchi olim hisoblangan O.E.Hayitov oliy ta'lim muassasasi o'rta bo'g'in rahbarlari psixologik kompetentligini modellashtirish masalasini tadqiq etib, rahbar psixologik kompetentligining professional, ijtimoiy-kommunikativ, ijtimoiy-informatsion, kognitiv, uslubiy-maxsus, ijtimoiy-madaniy, autopsixologik komponentlarini ijtimoiy-psixologik fazilatlar va kasbiy sifatlarni klasterlash asosida takomillashtirgan, rahbarlarda psixologik kompetentlik reprezentatsiyasining differensial ko'rinishlarini tahlil qilib bergen. Qolaversa, muallif tomonidan boshqaruv faoliyati jarayonining bir semantik maydonidagi ijtimoiy fasilitatsiya va ingibitsiya mexanizmlarini integratsiyalash asosida rahbar kompetensiyalarining yangi modeli yaratilgan hamda rahbar psixologik kompetentligini autopsixologik diagnostika qilish imkoniyatini tahlil qilib bergen [4;].

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Abu Rayxon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1–tom. T.: Fan,

1968. 74 - b.

2. Abdullaeva Sh. X. Pedagog professional kompetentlilagini shakllantirishning ijtimoiy psixologik mexanizmlari. Psixol.f.d... diss. avtoref. T.: O'zMU, 2019. - 61 b.
3. Gurov V.N., Stepanov SV. Upravlenie razvitiem i funkcionirovaniem obrazovatelnyx uchrejdeniy. - Stavropol: Izd-vo SGU, 2000.-157 s
4. Hayitov O.E. Oliy ta'lif muassasasi o'rta bo'g'in rahbarlari psixologik kompetentligini modellashtirish. Psixologiya fanlari doktori dissertatsiyasining avtoreferati. – Toshkent: TDPU, 2020. - 78 b.
5. Karimova V.M., Xayitov O.E., Umarova N.Sh. Boshqaruv sohasidagi professional kompetensiya asoslari. – T.: Fan va texnologiya, 2008. -120 b.
6. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. – T.: Unaks-print, 2005. 170-b.
7. Narzullaeva M.B. Nizo jarayonida menejerning konstruktiv o'zaro aloqadorligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixol.f.n... diss. avtoref. – T.: O'zMU, 2018. - 49 b.
8. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. A – Beshbaliq. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. – B. 217–723.
9. Shoumarov G'.B. Rahbar shaxsiga qo'yilgan talablar. – T.: Fan va texnologiyalar, 2003.. - 54 s.

Jurnal Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan 2020 yil 6 oktyabrdan o‘tildi.
Jurnal har oyda bir marta o‘zbek, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.
Jurnalning hajmi 60x84, 1/8, A-4;

«Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-metodik jurnali 2020 yil oktyabrdan nashr etilmoqda.

Pedagogika, psixologiya, filologiya va tilshunoslik, matematika, fizika va mexaniка, texnika fanlari, tabiatshunoslik, tarix va falsafa, turizm va iqtisodiyot, axborot kommunikatsion texnologiyalari, geografiya sohalardagi ilmiy va ilmiy-uslubiy materi-allarni o‘z ichiga oladi. Nashr qilingan materiallar mualliflari O‘zbekiston Respublikasi hamda yaqin va uzoq xorijning yetakchi olimlari, tadqiqotchilari.

Jurnalning kalit so‘zlari:

Oliy pedagogik ta’lim nazariyasi va amaliyoti; umumiyligi va maxsus pedagogika va psixologiya, pedagogika va innovatsiya, integratsiya, O‘zbekiston, Rossiya va xorijiy mamlakatlarning ta’lim tizimi; ta’lim jarayoni; ko‘p madaniyatli va mintaqaviy ta’lim;

III Renessans, XXI asrdagi ta’lim; ta’lim va tarbiya sohasidagi milliy va qadriyat ustuu-vorliklari; ta’lim sifatini monitoring qilish; uzlusiz pedagogik ta’lim tizimi; ta’lim dasturlari; umumiyligi o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlari; o‘qituvchilarni tayyorlash tizimidagi ta’lim texnologiyalari.

Guvohnoma raqami № 8882
Bosh muharrir: B.B.MA’MUROV

Bosishga ruxsat etildi: 10.02.2025 y.

Qog‘oz bichimi 60x84 1/8. b/t.12,5.

Buyurtma raqami №0324

«FAN VA TA’LIM» nashriyotida chop etildi. Buxoro shahar.
<https://interscience.uz/> saytida joylashtirildi